Релятивтік (қатынастық) номинациялы паремиялар. Бұл топтағы паремиялар екі немесе одан да көп объектілердің арасындағы байланысты, қарым-қатынасты, өзара тәуелділікті атайды. Мұндай мақал-мәтелдерде номинативтік мағынаның негізін қарсы қою, салыстыру, теңеу сияқты тәсілдер құрайды [7]. Мысалдар: *«Ата – балаға сыншы, бала – атаға сыншы», номинативтік мағынасы:* әке мен баланың бірін-бірі сынау қатынасын білдіреді. *«Жолдасыңды жолда сына»*, *номинативтік мағынасы:* достық қатынасты сынаудың тиісті орны мен уақытын көрсетеді. *«Бай болсаң – бауырыңа түрт, кедей болсаң – кеудеңе түрт» номинативтік мағынасы:* байлық пен жарлылықтың адамдар арасындағы қарым-қатынасқа

тигізетін ықпалын айқындайды. *«Қарғаға қарғаның көзі қызыл» номинативтік мағынасы:* туыстық немесе топтық бірлестікке тән өзара қолдау, ортақтастық қатынасын бейнелейді. Ситуативтік (жағдаяттық) номинациялы паремиялар. Өмірде жиі кездесетін күрделі типтік жағдайларды, күрделі үлгілік жағдаяттарды, белгілі бір оқиғалар мен шынайы тұрмыс көріністерін, нақты оқиғалар мен тіршілік құбылыстарын аталған санатқа кіретін мақал-мәтелдер аталған санатқа кіретін мақал-мәтелдер тұтас бейнеде суреттейді. Афоризмдер, ертегілік астарлы бейнелер көбіне нақыл сөздерде ұшырасады. «Түйе өткелде жүк артылмас» - адам басына қиыншылық туындаған сәтте ол адамға қосымша басқа дда тапсырма, жүктеме берудің дұрыс еместігін айтады. Бұл тұрақты орамның астарында сын сағатта адам баласының басына, үстіне жаңа ауыртпалық салмау керектігі айтылады. Қауіпті кезеңде адамға қосымша ауыртпалық пен су жаңа жауапкершілік артуға болмайтынын — бұл паремияның номинативтік мәні. «Бір талды кессең, он талды ек» — аталған мәтел табиғатқа залал келтірілсе, оның есесін толтыру міндет екенін, табиғатты қорғау қажеттігін, қоршаған ортаға келтірілген зиян жайында ұғындырады. «Қазаннан қақ сыйса, көмірден күл сыймас» - ынтымақ пен бірліктің мәнін, ел ішіндегі ауызбіршілік пен ынтымақтың, қарапайым тұрмыстық заттар (қазан, көмір, күл) арқылы астарлы жеткізеді. «Жеті рет өлшеп, бір рет кес» - әрбір қадамды алдын ала мұқият таразылап, асығыстыққа салынбай[8] сақтықпен тиянақты әрекет жасау қажеттігін, әр ісіңді мұқият ойластыруға шақырып, бір істі бастарда мұқият таразылап барып әрекет жасаудың маңыздылығын бейнелейтін мәтел. Мақал-мәтелдерді паремиология мен фразеология ілімінде мазмұндық және мағыналық сипатына қарай саралап жіктеу, паремиология ғылымындағы өзекті бағыттардың бірі. Халықтың дүниетанымын айқындауда бұл тәсіл мақал-мәтелдерді жүйелі түрде топтастыруға мүмкіндік береді. Мұндай жіктеу халық даналығын сөздік қорда тиімді сипаттауға, белгілі бір этностың ұлттық дүниетанымы мен құндылықтар жүйесін, этномәдени ерекшеліктерін зерделеп, терең таныта алады. Мақал-мәтелдердің өзіндік ерекшеліктерін паремиология саласын зерттеген ғалым Г.Л. Пермяковтың тұжырымдауынша [9], тілдік бірліктерді айқындайтын бірқатар басты қасиеттер, бірқатар белгілер бар. Ол белгілердің ең алдымен тұрақтылық қасиетін атауға болады. Мақал-мәтелдердің құрамындағы сөздердің орналасу тәртібі өзгеріске көп түсе бермейді. Қалыптасқан құрылымы мен лексикалық құрамы ұзақ уақыт бойы сақталады. Екінші маңызды сипаттағы бастыы қасиет – қайталану. Белгілі бір өмірлік жағдаятқа, қарым-қатынас жағдайына қарай тұрақты түрде қайта-қайта орнықты түрде қолданысқа түсуі; бейнелілік – метафора, теңеу немесе асыра сілтеу сияқты тәсілдердің көмегімен өрнектелуі;

дидактикалық бағдар – олардың кеңес беру, ескерту, тыйым салу сияқты қызметтері; логикалық-семантикалық біртұтастық – әрбір паремияның толық ойды жеткізуін көрсетіп зерттеген. Заттық-тақырыптық топтастыру деп паремиялардың мазмұнына, яғни олардың адам, табиғат, еңбек, отбасы сияқты қандай өмір фрагменттерін бейнелейтініне қарай жүйелеуді айтамыз. Бұл тәсілдің ғылыми негіздері мынадай қырлардан тұрады:

1. Лексикографиялық дәстүр**.** Мақал-мәтелдерді тақырыптарға бөлу әдісі халықтық тұрмыс-салт салаларына сай қалыптасқан және оның тамыры XIX ғасырдағы фольклор жинақтарына дейін барады. Мәселен, И.Н.Березин, Ш.Уәлиханов, В.В.Радлов секілді ғалымдардың еңбектерінде паремиялар «адам туралы», «отбасы туралы», «төрт түлік мал туралы», «еңбек туралы» деген сияқты тақырыпшаларға бөлінген. Қазақ паремиологиясында бұл бағытты Ә.Қайдар, Т.Қоңыров, Б.Момынова т.б зерттеушілер жалғастырды. Олардың еңбектеріндегі тақырыптық бөліністер денотатқа (яғни бейнеленетін нысанға) негізделген.

2. Теориялық тұғырнама. Лексикадағы заттық-тақырыптық топтар теориясына сүйенсек, тілдік элементтерді олардың мағыналық жақындығына емес, ортақ референттік аясына қарай біріктіруге болады. Бұл көбінесе сипаттамалық (дескриптивтік) тәсіл болып табылады. Паремиялар үшін мұндай топтардың мәні – олардың қай өмір саласынан алынғанын көрсету.

Денотат пен референт ұғымдары**.** Денотат дегеніміз – тілдік бірліктің атау нысаны (зат, құбылыс). Ал референт – нақты сөйлеу жағдаятындағы сол нысанның өзі. Паремияларды заттық-тақырыптық тұрғыдан топтағанда негізге денотат алынады. Мысалы: «Ер жігітке екі сөз сайланбас» – мұнда денотат – ер адам (демек, бұл антропоцентрлік топ); «Ат – ердің қанаты» – денотаты жылқы (зоонимдік топ); «Ата көрген оқ жонар» – денотаты «ата» сөзі, ол туыстық қатынасты білдіреді, сондықтан мұны «отбасы» тобына жатқызуға болады. Мұндай топтастыру паремиялардың тілден тыс шындықпен байланысын айқындайды әрі оларды жүйелі түрде зерттеуге мүмкіндік береді [10]. Адам болмысының сан алуан қырларын – отбасылық құндылықтарды, еңбекке көзқарасты, халықтың даналық сөздерінде дүниетанымдық ұстанымдарды қоршаған ортамен байланыстырып, жан-жақты сипаттайды. Бүгінде мағынасы тұтасып кеткен, халық арасында қалыптасқан сөз тізбектерін ғылыми бағытта жіктеп көрсетудің бірнеше бағыттары қалыптасқан. Мазмұнына қарай тұрақты тіркестерді негізгі санаттарға мынадай топтарға бөліп қарастыруға болады: 1. Адамды зерттеу тұрғысынан келгендегі бағыт. Бұл топқа адамгершілік қасиеттері мен сезімдерін суреттейтін адамның ішкі психологиясын, мінез-құлық ерекшеліктерін айқындайтын фольклорлық мұралар кіреді. Адамның

жағымды және жағымсыз қылықтары жайлы өзара шендестіріледі. Жақсы қасиеттерге ұстамдылық пен парасаттылыққа адамның өз-өзін тізгіндей білуі мен сезімге бой алдырмауының маңызы *«Ашу – дұшпан, ақыл – дос»* деген нақыл арқылы жеткізіледі. Адамның өз эмоциясын бақылауда ұстау және шешім қабылдау үдерісіндегі сабырлылықтың рөлін бұл тәмсіл тереңірек айқындап көрсетеді. «Ашу» ұғымы кісіні қателікке бой алдыратын қасиет. Бұл - ішкі агрессия мен негативті толқынның символы ретінде алынған. «Ақыл» – кез келген күрделі жағдаяттан жол тауып шығатын, логика мен парасатқа сүйенетін сенімді серік. Сананы алдыңғы шепке шығарудың өмірлік маңызы зор – халық даналығы. Мағынасы тұтасып кеткен, халық арасында қалыптасқан сөз тізбектері көбінесе адамды зерттеу тұрғысындағы бағытта көптеп саналады. Өскен ортасындағы, өз шаңырағындағы ұрпақтың мінез-құлқы мен күнделікті іс-әрекеті ең алдымен тәрбие үлгісінен бастау алады. Бала үйде көрген өнегені ержеткенде қоғамда қайталайтынының нақты дәлелі болып, анық көрініс табатын заңдылық халқымыздың *«Ұяда не көрсең, ұшқанда соны ілерсің»* деген өсиетінде жатыр. Әке мен ананың жеке тұлғалық бейнесі, өмірлік жолы перзент тәрбиесіндегі негізгі бағдаршам іспетті. Ұл баланың әкеден, қыз баланың анадан үлгі алып қалыптасатынын меңзеп көрсететін *«Атаға қарап ұл өсер, шешеге қарап қыз өсер»* деген аталы сөзде шегелеп айтылған. Айналадағы әлеуметтік орта мен сыйластығы жарасқан жақын тұлғалар тікелей адам өміріне әсер ететін маңызды фактор болып табылады. Іргесі бөлінбеген ағайын мен маңайдағы адамдардың орны қазақ дүниетанымында орны ерекше бағаланған. Сыйлас жандардың адам өміріндегі баға жетпес құндылығын айшықтайтын, жылылық пен шынайы жанашырлық танытатын, терең мағыналы тәмсіл *«Көршің көзіңнің жарығы»* деген қанатты сөз арқылы бейнеленеді. Еңбек, шаруашылықты жүргізуге қатысты ұстанымдар көбінесе қазақ қоғамының кәсіпкерлікке деген терең экономикалық пайымдауларға сүйенеді. Халық аузындағы мақал-мәтелдердің мынадай тақырыптағы қайнар көзі – төрт түлік өсіру, диқаншылық, қолөнер, сауда-саттық, сондай-ақ еңбек сүйгіштік пен енжарлықты сипаттайтын нақыл сөздері. Қазақ халқының экономикалық түсінік-парасаты ең алдымен мал шаруашылығының төңірегінде қалыптасқаны даусыз. Адамға рухани қанағат сыйлайтынын «Еңбек түбі – береке» деген қанатты сөзден анық аңғарамыз. Мұндағы еңбектің мәні тек материалдық игілік жинаумен шектелмейді. «Жалқауға жұмыс бітсе, күн түскіде» деген мәтел қоғамдағы теріс қылықтарды сынға алып дәріптейді.Бұл жерде еріншектік пен енжарлықты шенеп көрсетеді. Халық арасындағы әкеден балаға мұра болып қалатын «Әкесі – малшының баласы – жылқышы» деген даналық сөзде кәсіби дағдылар мен тәжірибенің жемісі кеңірек байқалады [11].

Қоршаған ортаға байланысты туған паремиялар – жан-жануарлар, өсімдік әлемі мен табиғат құбылыстары тақырыбындағы халық даналығы. Қазақ халқының табиғатқа қатысты паремиялары – жануарлар, өсімдіктер және ауа райы арқылы адам мінезі мен қоғамдық құбылыстарды бейнелейтін халықтық даналықтың айшықты үлгісі. Халықтың табиғи ортамен біте қайнасқанын мұндай мақал-мәтелдер кең көлемде аңғарымпаздығын айғақтайды. Кез келген қауымда жақсы мен жаманның қатар жүретінін астарлап жеткізетін «Түйе көп жерде түйеқара табылар» деген тұжырымда ірі қара малдың сипатын негізге ала отырып суреттейді. «Қарға – қарғаның көзін шұқымайды» мақалы – табиғаттағы жануарлар арасындағы ынтымақты үлгі етіп, адамдар арасындағы өзара түсіністік пен бірлікті насихаттайды. Адамзат қоғамындағы ауызбіршілік пен өзара қолдауды дәріптейтін мәтел құстар әлеміндегі өзара ынтымақты айқындайтын «Қарға – қарғаның көзін шұқымайды» деген паремия. Бұл мақал табиғаттағы жануарлар арасындағы ынтымақты үлгі етіп, адамдар арасындағы өзара түсіністік пен бірлікті насихаттайды. Табиғи құбылыстар мен уақыт ерекшеліктерінің негізінде қалыптасқан жыл мезгілдеріне қатысты туындаған «Қыс түнде, жаз күндіз» нақылы табиғи орта жағдайлары, адамның еңбек етуі , демалу тәртібі мен тіршілігінің өзара үйлесімін сипаттайды. Қыс мезгілінде түнгі уақыттың ұзақ болуына байланысты адамның тынығуына мүмкіндік молаятыны нақылдың мазмұнынан көрінеді. Күнделікті шаруаларды атқаруға жаз айларында күндізгі уақыттың мол болуына орай жұмыс істеуге қолайлы жағдай туындайтынын байқауға болады. Жаз кезеңінде күн сәулесінің ұзақ сақталуы еңбек етуге өте ыңғайлы. халықтың табиғат құбылыстарын адамның тұрмыс-тіршілігімен ұштастыра қабылдағанын осы нақылдан көруімізге болады. халықтың қоршаған әлем жөніндегі түсініктері, салт-дәстүрі, ырым-тыйымдары, наным-сенімдері, ұрпақтан ұрпаққа жалғасып келе жатқан ғұрыптық тәжірибесі ұлттық-мәдени болмыстың ажырамас тармағы. Көнеден келе жатқан мұндай рухани құндылықтар адамның бейнелі ойлау жүйесін танытуға халықтық даналық арқылы көрініс табады. Адамның белгілі бір мінез-құлық нормалары халықтық даналық үлгілерінде дүниетанымдық түсініктер де жинақталған. Қазақ мәдениетіндегі қонақжайлық ұғымы қарапайым әдеп қағидасы деп қана танылмайды. Қоғамдық әдеп пен ізеттіліктің көрінісі ретінде қабылданады. Үйге келген қонақ жақсылықтың, берекенің және құттың нышаны болып қазақ халқының дәстүрлі танымынан байқалады. Қазақ халқының қонақжай қасиетін қарапайым әдеп қағидасы «Қонақ келсе – құт келер» мақалында ықшам әрі бейнелі түрде көрініс тапқан. Халық санасында игілік пен берекеге қатысты оң мәнде бағаланғанын қонақты құрметтеу дәстүрін аталған паремиядан аңғаруға болады. Халық даналығы мен нақыл

сөздерден қазақ халқының өмірде кездесетін күнделікті түрлі жағдаяттарды, табиғат пен әлеуметтік қатынастарды байқауға болады. Сыйластық пен қарым-қатынасты қалыптастыруда адамдар арасындағы қарым-қатынасты нығайту жолында сәлемдесу дәстүрі айрықша мәнге ие. «Сәлем – сәлемнің анасы» деген мәтелдің мазмұнынан халықтық танымдағы орны айқын аңғарылады. Қазақ халқының күнделікті көне дүниетанымы мен сенім-нанымдары «табалдырықты оң аяқпен аттау» сияқты тұрақты тіркестер арқылы көрініс табады. Халықтың қоршаған ортаға, тұрмыс құбылыстарына және адамның іс-әрекетіне қатысты ғасырлар бойы жинақтаған түсініктері тілдік бірліктердің астарында сақталған. Тақырыптық және мағыналық белгілеріне қарай мақал-мәтелдерді жіктеп қарастырудың ғылыми-танымдық маңызы зор. Халықтың күнделікті тіршілігін, әлеуметтік қатынастарын, рухани құндылықтарын және материалдық мәдениет ерекшеліктерін паремиялық бірліктер арқылы танып-білуге болады. Халық даналығының тілдегі көріністерін жан-жақты ашуға оларды мазмұнына қарай белгілі бір топтарға жүйелеу арқылы білуге болады. Паремиялық бірліктерді белгілі бір заттық-тақырыптық санаттарға бөлу өзара семантикалық байланыстарын айқындайды. Халық даналығының арасындағы мағыналық сабақтастық пен семантикалық жақындықты айқындауға мүмкіндік береді.

ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЕТТЕР ТІЗІМІ

1. Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – 208 с.
2. Қайдар Ә. Қазақ паремиологиясы. – Алматы: баспасы, 2004. –224б
3. Ижбаева Г.Р., Мырзагалиева А.С., Темрешева Л.Н. Оппозиция “богатство-бедность” в языковой картине мира (на материале казахских и татарских паремий) // Современные исследования социальных проблем. – 2023. – №3(15). – С. 235-248. https://doi.org/10.12731/2077-1770-2023-15-3-235-248
4. Қоңыров Т. Қазақ теңеулерінің сөздігі. – Алматы: Арыс, 2017. – 480 б.
5. Wu Jin-feng, Aynur Huwat. On Metaphors in Kazakh Language and Their Cultural Features // Language and Translation. – 2014. – No. 2. – P. 55-59.
6. Қалиев Г. Қазақ паремиологиясы. – Алматы: Ғылым, 2005. – 225б
7. Қоңыров Т. Қазақ тіліндегі теңеулердің функционалды-семантикалық жүйесі. – Алматы: Қазақ университеті, 2018. – 480б.
8. Қайдар Ә. Қазақ тілінің қысқаша паремиологиялық сөздігі. – Алматы: Дайк-Пресс, 2004. – 780б.
9. Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. – М.: Наука, 1988. – 236 с.

10. Коровина И.В. Соотношение понятий «знак», «референт», «денотат» и «концепт» как основных элементов референции // Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. – 2010. – №4 (1). – С. 332-336.

11. Қоңыратбаев Ә. Қазақ мақал-мәтелдерінің түсіндірме сөздігі. – Алматы: Мектеп, 1987. – 288 б.

REFERENCES

1. Maslova V.A. Lingvokulturologia: ucheb. posobie dlia stud. vyssh. ucheb. Zavedeni [Linguoculturology: studies. student's handbook. higher. studies. establishments]. – M.: Izdatelski centr «Akademia», 2001. – 208 s. [in Russian]

2. Qaidar A. Qazaq paremiologiasy [Kazakh paremiology]. – Almaty: 2004. – 224. [in Kazakh]

3. Izhbaeva G.R., Mypzagalieva A.S., Temresheva L.N. Oppozicia “bogatstvo-bednost’” v iazykovoi kartine mira (na materiale kazahskih i tatarskih paremi) [The opposition “wealth-poverty" in the linguistic picture of the world (based on the Kazakh and Tatar paremias)] // Sovremennye issledovania socialnyh problem. – 2023. – №3(15). – S. 235-248. https://doi.org/10.12731/2077-1770-2023-15-3-235-248 [in Russian]

4. Qonyrov T. Qazaq teneulerinin sozdigi [Dictionary of Kazakh equivalents]. – Almaty: Arys, 2017. – 480 b. [in Kazakh]

5. Wu Jin-feng, Aynur Huwat. On Metaphors in Kazakh Language and Their Cultural Features // Language and Translation. – 2014. – No. 2. – P. 55-59.

6. Qaliev G. Qazaq paremiologiasy [Kazakh paremiology]. – Almaty: Gylym, 2005. – 225. [in Kazakh]

7. Qonyrov T. Qazaq tilindegi teneulerdin funkcionaldy-semantikalyq zhuiesi [Functional and semantic system of parables in the Kazakh language]. – Almaty: Qazaq universiteti, 2018. – 480. [in Kazakh]

8. Qaidar A. Qazaq tilinin qysqasha paremiologialyq sozdigi [Brief paremiological Dictionary of the Kazakh language]. – Almaty: Daik-Press, 2004. – 780. [in Kazakh]

9. Permiakov G.L. Osnovy strukturnoi paremiologii [Fundamentals of structural paremiology]. – M.: Nauka, 1988. – 236 s. [in Russian]

10. Korovina I.V. Sootnoshenie poniati «znak», «referent», «denotat» i «koncept» kak osnovnyh elementov referencii [Korovina I.V. Correlation of the concepts "sign", "referent", "denotation" and "concept" as the main elements of reference] // Vestnik Nizhegorodskogo universiteta im. N.I.Lobachevskogo. – 2010. – №4 (1). – S. 332-336. [in Russian]

11. Qonyratbaev A. Qazaq maqal-matelderinin tusindirme sozdigi [Explanatory Dictionary of Kazakh proverbs and sayings]. – Almaty: Mektep, 1987. – 288 b. [in Kazakh]

O‘ZBEK LOGISTIKA TERMINOLOGIYASI VA UNING ISTIQBOLI MASALALARI

Ma’rufjon YULDASHEV
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Terminologiya va leksikografiya bo‘limi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor
ORCID: 0000-0001-5239-4804 mmyuldashev1@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy o‘zbek tilida logistika terminologiyasining shakllanishi, tuzilmaviy-semantik xususiyatlari va istiqboldagi taraqqiyoti masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etildi. Logistika konsepsiyasining denotativ va funksional ko‘lami mikro hamda makrosath doirasida differensiatsiya qilinib, uning yukni minimal xarajatlar bilan yetkazishga yo‘naltirilgan amaliy faoliyatdan moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarini muvofiqlashtiruvchi murakkab integrativ tizimga aylanish jarayoni haqida so‘z yuritildi. Shuningdek, logistika terminosistemasining transport, biznes, distributsiya, ta’minot zanjiri, raqamli hamda ekologik logistika kabi xususiy tarmoqlari tasniflanib, intermodal va multimodal tashuvlar kontekstidagi sohaviy birliklarning leksik-semantik tabiati tahlil qilindi. Maqolada sohaga oid xalqaro atamalarning o‘zbek tiliga o‘zlashuvi, muqobilini tanlash mezonlari, terminologik dubletlik va kalka muammolarini bartaraf etish hamda logistika leksikasini standartlashtirish va leksikografik jihatdan tizimlashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari xususida fikrlar ilgari surildi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek terminologiyasi, logistika terminosistemasi, mikrologistika, makrologistika, transport logistikasi, terminologik unifikatsiya, leksikografiya.

Abstract. The article provides a scientific and theoretical study on the formation, structural-semantic features, and future development prospects of logistics terminology in the modern Uzbek language. The denotative and functional scope of the logistics concept is differentiated at the micro- and macro-levels, discussing its evolution from an operational activity aimed at delivering cargo with minimal costs into a complex integrative system that coordinates material, financial, and information flows. Furthermore, specific branches of the logistics terminological system-such as transport, business, distribution, supply chain, digital, and ecological logistics-are classified, and the lexical-semantic nature of field-specific units within the context of intermodal and multimodal transportation is analyzed. The article puts forward perspectives on the assimilation of international terms into the Uzbek language, criteria for selecting equivalents, eliminating issues of terminological

doublet and calque, as well as promising directions for standardizing logistics vocabulary and systematizing it from a lexicographical perspective.

Keywords: Uzbek terminology, logistics terminological system, micro-logistics, macro-logistics, transport logistics, terminological unification, lexicography.

Globallashuv jarayonlari jadallashgan, xalqaro iqtisodiy integratsiya va savdo yo‘laklari geosiyosiy ahamiyat kasb etgan bugungi davrda logistika sohasi milliy iqtisodiyotning eng muhim tayanchlaridan biriga aylanmoqda. Xususan, O‘zbekistonning tranzit imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy transport-logistika xablarini barpo etish hamda raqamli ta’minot zanjirlarini shakllantirish ushbu tarmoqni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Har qanday sohaning amaliy va ilmiy jihatdan barqaror rivoji esa, shubhasiz, uning konseptual bazasi hisoblangan mukammal va puxta ishlangan terminologik tizimi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu ma’noda, o‘zbek tilida logistika terminlarining shakllanishi, leksik-semantik xususiyatlari va istiqboldagi taraqqiyotini tadqiq etish zamonaviy o‘zbek tilshunosligi hamda terminologiyasining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbek logistika terminologiyasi murakkab, ko‘p tarmoqli va hali to‘liq unifikatsiyalashmagan tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda. U o‘z ichiga transport, ombor xo‘jaligi, bojxona ishi, ekspeditorlik, yuk tashish menejmenti hamda raqamli logistika kabi bir qator sohaviy qatlamlarni qamrab oladi. Xalqaro logistika amaliyotining milliy maydonga jadal kirib kelishi tilimizda ingliz, rus va boshqa tillardan o‘zlashgan ko‘plab yangi atamalar oqimini keltirib chiqardi. Biroq bu jarayon bir qator terminologik muammolarni, xususan, atamalarning dubletligi, kalkalashtirishdagi noaniqliklar, sohaviy tushuncha va termin o‘rtasidagi nomutanosibliklarni ham yuzaga keltirmoqda. Bu esa o‘z navbatida, soha terminologiyasini tizimlashtirish, milliy tilning ichki imkoniyatlaridan oqilona foydalanish va leksikografik jihatdan mustahkamlash zaruratini tug‘diradi.

Maqolada o‘zbek tilidagi zamonaviy logistika terminologiyasining hozirgi holatini lingvistik tahlildan o‘tkazish, ularning yasalish va o‘zlashish yo‘llarini ochib berish hamda soha atamalarining istiqboldagi taraqqiyotiga oid ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish haqidagi fikrlar ilgari surilgan. Shuningdek, xalqaro logistika terminlarini o‘zbek tiliga moslashtirish, muqobillarini tanlashdagi mezonlar, tarmoq so‘zliklarini yaratish va raqamli texnologiyalar davrida logistika leksikasini standartlashtirish masalalariga e’tibor qaratilgan.

Ma’lumki, O‘zbekiston geoiqtisodiy jihatdan joylashgan o‘rni, demografik o‘sish sur’atlari hamda ishlab chiqarish imkoniyatlari nuqtai nazaridan Markaziy Osiyo mintaqasining strategik tayanchi va yuqori salohiyatga ega mamlakatlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillardagi bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy islohotlar, transport-kommunikatsiya tarmoqlarining modernizatsiyalashuvi

hamda multimodal logistika infratuzilmasining kengayishi xalqaro sarmoyadorlar va transmilliy korporatsiyalarning investitsion diqqat markazini o‘ziga tortmoqda. Ayniqsa, hududlarda erkin iqtisodiy va maxsus sanoat zonalarining barpo etilishi, urbanizatsiya va zamonaviy shaharsozlik klasterlarining jadal rivojlanishi, shuningdek, mintaqalararo magistral transport yo‘laklarining qurilishi transport-logistika xizmatlari bozoriga bo‘lgan ehtiyojni jadal suratlarda oshirmoqda. Bunday tezkor sharoitda logistik zanjirlarni tartibga solish, ta’minot oqimlarini muqobillashtirish va ularni raqamli boshqaruv tizimlari orqali muvofiqlashtirish milliy iqtisodiyotning global integratsiyasini ta’minlovchi drayverlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur strategik vazifalarni hayotga tatbiq etish maqsadida davlat tomonidan sohaning institutsional-huquqiy bazasini takomillashtirish, tranzit yuk tashish hajmini muntazam oshirish va respublikani global savdo-transport yo‘laklariga to‘laqonli integratsiya qilishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Transport va tranzit oqimlarini optimallashtirish, bojxona-logistika terminallari faoliyatini xalqaro talablar asosida standartlashtirish hamda muqobil logistik yo‘nalishlarni diversifikatsiyalash jarayonlari sohaga doir ilg‘or tamoyillarning amaliyotga kirib kelishini taqozo etmoqda. Zero, milliy logistika tizimining raqobatbardoshligi moddiy-texnik bazaning takomillashuvigagina emas, balki mazkur jarayonlarni ilmiy-nazariy jihatdan asoslovchi, sohaviy tushunchalar va munosabatlarni aniq aks ettiruvchi ixtisoslashgan atamalar tizimining shakllanganligiga ham bevosita bog‘liqdir.

“Logistika” tushunchasi semantik ko‘lami va vazifasiga ko‘ra tor (mikrosath yoki mikrologistika) va keng (makrosath yoki makrologistika) deb tasniflash mumkin bo‘lgan ikki sathni qamrab oladi. Tor ma’noda logistika terminologik birlik sifatida tovar-moddiy boyliklarni boshlang‘ich nuqtadan iste’mol manziliga qadar minimal vaqt va resurslar sarfi evaziga yetkazib berish, ya’ni sof amaliy harakatni anglatadi. Keng ma’noda esa ushbu atama makroiqtisodiy va geosiyosiy makonni qamrab oluvchi, moddiy, moliyaviy, kommunikatsion va raqamli axborot oqimlarini tizimli boshqarish sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur semantik farq tadqiqot maydonini mikrologistika va makrologistika paradigmalariga ajratishni taqozo etadi.

Mikrologistika darajasidagi terminologik qatlam muayyan korxona yoki lokal tizim doirasidagi avtonom jarayonlarni modellashtirishga xizmat qiladi. Ushbu funksional tizim o‘z ichiga transport infratuzilmasi logistikasi, tarif va narx shakllanishi logistikasi, terminal va ombor xo‘jaligi menejmenti, yuk oqimlarini jamlash va saqlash xizmati, xavfsizlik kafolati va sug‘urtalash, shuningdek, dispetcherlik hamda real vaqt rejimidagi axborot almashinuvini ta’minlovchi raqamli tizimlar logistikasi kabi ko‘p tarmoqli komponentlarni qamrab oladi. Mikrologistik

birliklar tilda bevosita amaliy-texnologik nomenklatura va tarmoq ixtisoslashuvini ifodalovchi aniq nominativ birliklar tarzida faollashadi.

Makrologistika esa hududiy, milliy va global ko‘lamdagi keng qamrovli munosabatlarni umumlashtiruvchi murakkab tizim hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy, geografik va strategik-siyosiy vazifalar taqsimotiga binoan makrologistika bir qator xususiy terminologik tarmoqlarga bo‘linadi, xususan: funksional-iqtisodiy tarmoqlar: transport logistikasi, biznes logistikasi, tijorat logistikasi, ta’minot zanjiri logistikasi, taqsimot va ombor logistikasi; geografik-kommunikatsiya va muhit turlariga oid atamalar: quruqlik (avtomobil va temiryo‘l) logistikasi, havo (avia) logistikasi, suv (dengiz va daryo) logistikasi, yo‘l-tranzit infratuzilmasi logistikasi; ijtimoiy, urbanistik va hududiy yo‘nalishlar: shahar logistikasi (siti-logistika), turarjoy logistikasi, o‘lkashunoslik va rekreatsiya logistikasi; innovatsion, global va maxsus sohaviy birliklar: axborot va raqamli logistika, ekologik logistika (yashil logistika), qaytarma logistika hamda harbiy-strategik logistika.

Ko‘rinib turibdiki, logistika terminologiyasi tilda ko‘p qatlamli tabiatga ega bo‘lib, birlamchi yuk tashish amaliyoti doirasidan chiqib, global raqamli va iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi markaziy fanlararo kategoriyaga aylanmoqda. Bunday semantik kengayish esa o‘zbek tilshunosligi oldiga sohaviy tushunchalar tizimini milliy leksikografik asosda unifikatsiya qilish va standartlashtirish vazifasini ko‘ndalang qo‘ymoqda.

Global savdo munosabatlari va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining jadal taraqqiyoti ta’minot tizimlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqish bilan birga, logistik yondashuvlarni ustuvor yo‘nalishga aylantirdi. Zamonaviy bozor iqtisodiyotida tovarlar, moliyaviy mablag‘lar va axborot resurslarining uzluksiz harakatini ta’minlash bosh mezon sanaladi. Bugungi kunda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, tarmoqlararo strategik rejalashtirishni amalga oshirish va milliy xo‘jalikning istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashda logistikaning keng imkoniyatlaridan foydalanish muhim omilga aylandi. Bu esa mazkur sohaning nazariy-konseptual bazasini, xususan, uning o‘zbek tilidagi terminologik tizimini muntazam ravishda tadqiq etish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Ta’kidlash joizki, logistika fan sifatida iste’molchi manfaatlariga yo‘naltirilgan, yuqori tezkorlik va shaffoflikni ta’minlovchi, moliyaviy jihatdan rentabellikka asoslangan hamda bozor ehtiyojlariga moslashuvchan ko‘p qirrali xizmatlar oqimini muvofiqlashtiruvchi amaliy faoliyat sohasidir. Mazkur vazifaviy tuzilmaning muhim jihatlarini tavsiflar ekan, iqtisodchi olim M.M.Toshmuhamedov shunday fikrni ilgari suradi: “Logistika faoliyatining fundamental yo‘nalishlaridan biri moddiy-texnik ta’minotni uzluksiz yo‘lga qo‘yish va mahsulotlarni bevosita pirovard iste’molchiga yetkazib berish hisoblanadi. Bunday tizimli harakat, avvalambor, yuk tashish

muomalasini amalga oshiruvchi transport infratuzilmasi bilan uzviy aloqadorlikda kechadi. O‘z navbatida, transport faoliyatining bosh samaradorlik indikatori – bu bajarilgan transport ishlarining ko‘lami, ya’ni yuk oqimlarini muayyan masofaga minimal tranzaksion va ekspluatatsion xarajatlar evaziga tashish hajmi bilan baholanadi” (Toshmuhamedov, 2017: 159). Demak, sohaning konseptual mohiyati ta’minot, taqsimot va transport amaliyotining semantik hamda texnologik uyg‘unligiga tayanadi. Bu esa transport-logistika jarayonlarini ifodalovchi milliy atamalar apparatining sohaviy tushunchalarni aks ettirishi bilan birga boshqaruvga oid mezonlar bilan uzviy bog‘lanishini ham talab qiladi.

Transport logistikasi tizimi funksional xususiyatlari, texnologik jarayonlari hamda boshqaruv mezonlariga ko‘ra quyidagi asosiy tarmoq va segmentlarni qamrab oladi:

1. Foydalaniladigan kommunikatsiya vositasi va transport turiga ko‘ra: avtomobil transporti logistikasi. Yuqori mobillik va “eshikdan eshikkacha” tamoyili asosida yuk tashishni tashkil etish; temir yo‘l transporti logistikasi. Katta hajmdagi va og‘ir vaznli tovar-moddiy boyliklarni uzoq masofalarga muntazam hamda rentabelli yetkazib berish; havo transporti (avia) logistikasi. Qisqa muddat talab qiluvchi, shoshilinch, qimmatbaho va tez buziluvchan yuklarni yuqori tezlikda interkontinental tashish; suv (dengiz va daryo) transporti logistikasi. Global savdo aylanmasida yirik gabaritli hamda konteynerlashtirilgan yuk oqimlarini eng kam tannarxda tranzit qilish; intermodal va multimodal tashuvlar logistikasi. Yagona transport hujjati va operator boshqaruvi ostida ikki yoki undan ortiq transport turlarining uyg‘unlashgan integratsiyasi.

2. Geografik qamrovi va hududiy yo‘nalishiga ko‘ra: ichki (milliy) tashuvlar. Muayyan davlatning ma’muriy-hududiy chegaralari doirasidagi mahalliy yuk harakati; ikki tomonlama (bilateral) xalqaro tashuvlar. Ikki qo‘shni yoki hamkor davlat o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri eksport-import yuk oqimlari; ko‘p tomonlama va tranzit tashuvlar. Uch yoki undan ortiq davlatlar hududini kesib o‘tuvchi, xalqaro transport koridorlari orqali amalga oshiriluvchi transchegaraviy logistika.

3. Terminal va ombor xo‘jaligi logistikasi: xomashyo va tayyor mahsulotlarni qabul qilish, saqlash, komplektatsiyalash, markirovkalash va jo‘natishga tayyorlash jarayonlarini qamrab oluvchi ombor inshootlari boshqaruvi.

4. Bojxona ombori (antrepo) xizmati logistikasi: import, eksport va tranzit yuklarni bojxona to‘lovlari hamda tarifli tartibga solish choralarini qo‘llamagan holda, davlat bojxona nazorati ostida vaqtincha saqlash va konsolidatsiyalash infratuzilmasi.

5. Taqsimot logistikasi: mahsulotlarni oldindan belgilangan muntazam jadval va tarmoq marshrutlari asosida iste'molchilarga yetkazish; vaqt omili hal qiluvchi bo‘lgan sharoitlarda yuklarni minimal muddatda manzilli yetkazib berish.

6. Xavf-xatarlarni boshqarish, sug‘urtalash va kafolat logistikasi: yuk tashish jarayonidagi fors-major holatlar, avariyalar va yo‘qotishlar bilan bog‘liq moliyaviy xavflarni sug‘urtalash, yuk egalari hamda tashuvchilarning fuqarolik-huquqiy javobgarligini kafolatlash tizimi.

7. Bojxona va tariflashni tartibga solish logistikasi: tovar-transport oqimlarini chegara orqali o‘tkazishda bojxona rasmiylashtiruvi (deklaratsiyalash, sertifikatlash, nazoratdan o‘tkazish) hamda fiskal operatsiyalarni optimallashtiruvchi ixtisoslashgan amaliyot.

Intermodal yuk tashish tizimi barqaror va yuqori samarador transport logistikasining fundamental modellaridan biri bo‘lib, tovar-moddiy boyliklarni boshlang‘ich nuqtadan belgilangan manzilga qadar ikki yoki undan ortiq transport turlari vositasida, yuk birligining ichki tarkibiga qayta ishlov bermasdan, ya'ni yuklarga bevosita tegmasdan yetkazib berish tizimidir. Ushbu jarayon suv, temir yo‘l, avtomobil hamda havo transporti tarmoqlarining integratsiyalashuv imkoniyatiga ega segmentlarini yagona texnologik va logistik algoritmga birlashtirishni nazarda tutadi. Mazkur tashuv modelining strategik va iqtisodiy maqsadi vaqt omilini optimallashtirish, yuk xavfsizligining kafolatlangan darajasini ta'minlash hamda umumiy transport-ekspluatatsion xarajatlarni keskin kamaytirishdan iborat. Shunga ko‘ra, intermodal yuk tashish tizimi quyidagi tamoyillar asosida faoliyat yuritadi:

Invariantlik va standartlashtirilgan yuk birligi tamoyili: Butun marshrut davomida yukning birlamchi fizik parametrlari, tarmoq markirovkasi, qadog‘i, g‘ilofi va yaxlitligiga daxl qilmagan holda, uni standart transport vositalari (konteyner, kontreyler, smenli kuzov kabilar) ichida tranzit qilish hamda turli transport modalliklari o‘rtasida yukning o‘ziga tegmasdan qayta yuklashga qat'iy amal qilinadi;

Multimodal infratuzilmaga integratsiyalashuv tamoyili: temiryo‘l stansiyalari, dengiz va daryo portlari, aeroport kargo terminallari va logistika markazlarining texnologik jihatdan o‘zaro muvofiqlashtirilgan sinxron harakatini ta'minlash;

Yagona mas'uliyat va hujjat aylanishi tamoyili: bunda yuk bir necha transport turi va turli operatorlar ishtirokida harakatlansa-da, butun logistik jarayonning yagona raqamli tranzit ma'lumotlari bazasi orqali uzluksiz monitoring qilinishi tushuniladi.

Intermodal yuk tashish tizimining texnologik va institutsional tamoyillari quyidagi mezonlarda aks etadi:

Standartlashtirilgan sig‘imlarning unifikatsiyalashuvi va moslashuvchanligi: mazkur tizimda foydalaniladigan universal yuk tashish vositalari zanjirga jalb etilgan

barcha modal transport vositalarining yuk ko‘tarish parametrlariga to‘liq muvofiqlashtiriladi. Bu esa transport turi almashganda yuk birligini tezkor, mexanizatsiyalashgan va xavfsiz tarzda bir harakat tarkibidan ikkinchisiga ortish-tushirish imkonini beradi.

Yuk yaxlitligi va avtonomligining kafolatlanishi: intermodal tashuvlar algoritmi bo‘yicha butun marshrut davomida tovar-moddiy boyliklar qayta qadoqlanmaydi, yuk sig‘imi (konteyner, treyler) qat’iyan ochilmaydi va uning birlamchi fabrika yaxlitligiga daxl qilinmaydi. Bu omil yo‘qotish, o‘g‘irlik va mexanik shikastlanish xavfini minimallashtiradi.

Segmentlashtirilgan shartnomaviy-huquqiy baza: multimodal (yagona hujjat asosidagi) tashuvlardan farqli ravishda, intermodal tamoyil doirasida boshlang‘ich nuqtadan so‘nggi manzilgacha bo‘lgan turli transport tarmoqlari va operatorlar bilan alohida, tabaqalashtirilgan shartnomalar paketi rasmiylashtiriladi.

Taqsimlangan institutsional mas’uliyat. Butun logistik koridor bo‘ylab harakatlanishda har bir alohida transport-logistika operatori yoki ekspeditorlik shirkati faqat o‘ziga tegishli bo‘lgan modal harakat segmenti uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuridik va moliyaviy javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

Multimodal kombinatsiyalar ustuvorligi. Global savdo amaliyotida tannarx va tezkorlik mutanosibligini ta’minlash maqsadida ko‘pincha “dengiz yo‘li – avtomobil yo‘li – temir yo‘li” tarzidagi uch bo‘g‘inli integrativ tashuv kombinatsiyasidan keng foydalaniladi.

Logistik faoliyatning samaradorligi uning tuzilmaviy tizimliligi bilan belgilanadi. Mazkur kategoriyaning mohiyati va tarkibiy elementlarini tahlil qilar ekan, E.R.Toshmuhamedov quyidagi ta’rifni keltiradi: “Logistik tizim deganda elementlar va ular o‘rtasida yuk (material) oqimini, u paydo bo‘lgan nuqtadan iste’mol qilinadigan nuqtagacha boshqarish maqsadida paydo bo‘ladigan o‘zaro aloqalar va bu jarayonlar uchun zarur bo‘lgan axborot oqimlari yig‘indisi tushuniladi. Logistik tizimning elementlari quyidagilardir: ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi korxonalar va boshqa tarmoqlarning korxonalari, tijorat-vositachilik korxonalari, transport va ombor quvvatlari, yetkazib beruvchilar, buyurtmachilar, axborot tizimlari, axborotni yig‘ish, qayta ishlash va uzatish moslamalari, boshqaruv organlari (menejment)” (Toshmuhamedov, 2017).

Umuman, logistik tizim moddiy mahsulotlarni ishlab chiqarish va tashish infratuzilmasini raqamli axborot bilan tutashtiruvchi ko‘p komponentli tizim hisoblanadi. Bu esa tilshunoslik va terminologiya sohasi oldiga ushbu murakkab tizim ichidagi aloqalarni aks ettiruvchi ixtisoslashgan atamalarning semantik chegaralarini qat’iy belgilash vazifasini qo‘yadi. Avvalo, tarmoqqa xorijiy tillardan, xususan, ingliz va rus tillaridan kirib kelayotgan xalqaro birliklarning

(konteynerlashtirish, intermodalizm, kross-doking, distributsiya, autsorsing kabilar) semantik ko‘lamini aniqlashtirish, ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashuvi hamda milliy muqobillarini tanlashdagi mezonlarni tizimlashtirish lozim; ikkinchidan, sohaviy atamalarning dubletligi hamda tarjimadagi xatoliklarning oldini olish maqsadida atamalar apparatini qat’iy unifikatsiya qilish dolzarb zaruratga aylangan; uchinchidan, logistikaning raqamlashuvi, yashil logistika kabi yangi paradigmalarining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq ravishda o‘zbek tilining ichki so‘z yasash imkoniyatlaridan oqilona foydalangan holda nomlash strategiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Istiqbolda o‘zbek logistika terminologiyasining barqaror va mustaqil tizim sifatida qaror topishi transport va savdo-bojxona aloqalarini huquqiy-amaliy jihatdan benuqson yuritishga xizmat qilishi bilan birga, mazkur soha bo‘yicha zamonaviy izohli, tarjima va frazeologik lug‘atlarning yaratilishi hamda milliy tilning ilmiy-industrial salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Mazkur terminologik maydonni lingvistik jihatdan tadqiq etish, uning me’yoriy asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish esa tilshunoslar, tarjimonlar hamda soha mutaxassislarining izchil va hamkorlikdagi faoliyatini taqozo etadi.

ADABIYOTLAR:

1.Аникин Б. А. Практикум по логистике. Учебное пособие. –М: Инфра-М, 2007. ISBN: 9785160024929

2.Дыбская В.В. идр. Логистика. – Эксмо, 2008. ISBN: 978-5-699-22549-1

3.Круминыш Н., Витолиныш К. Логистика в Восточной Европе. – М: SIA 2007. ISBN: 978-9984-39-171-7

4.Логистика и управление цепями поставок. Аналитический журнал. Учр.: Natsionalnaя логистическая ассоциатsiя России.

5.Неруш Ю.М. Логистика. – Проспект, 2010. ISBN: 978-5-392-5-01330-2

Сток Д.Р. Стратегическое управление логистикой. – М. 2005. ISBN: 5160020071

6.John T. Phelan, Jr. P.E. “Guest Column: Knowing When a WCS Is Right for Your Company” Supply & Demand Chain Executive. Enom. Inc.

XXI ASR GLOBALLASHUV: DAVLAT TILI VA MILLIY TILLAR

Shuhrat Ko‘chimov,
Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
filologiya fanlari doktori
Sh.kuchimov@tsul.uz
Shuxkuch@gmail.com
ORCID: 0000-0002-9718-1041

Annotatsiya. Mazkur maqolada XXI asrda davlat tili va milliy tillarning rivoji va tanazuli masalalari tahlil qilinadi. Asosiy e‘tibor hozirgi globallashayotgan dunyoda milliy tillarni rivolantirish, ularning huquqiy maqomi masalasiga qaratiladi. Dunyo tillari huququiy maqomiga ko‘ra tasniflanadi.

Kalit so‘zlar: davlat tili, milliy tillar, xalqaro tillar, millat, xalq, til, til tarixi, ona tili, yurislingvistika.

Annotation. This article analyzes the issues of development and decline of the state language and national languages in the 21st century. The main attention is paid to the issue of the development of national languages in the current globalizing world, their legal status. The languages of the world are classified according to their legal status.

Keywords: state language, national languages, international languages, nation, people, language, history of language, native language, jurislinguistics.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы развития и упадка государственного языка и национальных языков в XXI веке. Основное внимание уделяется вопросу развития национальных языков в современном глобализирующемся мире, их правовому статусу. Языки мира классифицируются по их правовому статусу.

Ключевые слова: государственный язык, национальные языки, международные языки, нация, народ, язык, история языка, родной язык, юрислингвистика.

Har bir millatning o‘z tarixiy taraqqiyotidagi eng noyob va mukammal boyligi, san’ati bu uning tilidir. Har jihatdan taraqqiy etgan tilda shu xalqning butun Vatani gavdalanadi. Shu sababdan til – xalqning taqdiri, ruhiyati, yashash tarzi hisoblanadi. Shuning uchun har bir xalq o‘z ona tilining taraqqiy etishi uchun g‘amxo‘rlik qiladi, o‘z tilining rivojlanish asoslarini huquqiy jihatdan mustahkamlashga harakat qiladi.

YUNESKO ma’lumotiga ko‘ra, hozirgi paytda yer yuzida yetti ming atrofida til mavjud. YUNESKO 2001-yildan nafaqat madaniy yodgorlik va binolar, balki xalqlarning og‘zaki va nomoddiy merosini (shu jumaladan, tillarni) dunyo bo‘yicha himoya qilishga kirishdi. Tillarni saqlab qolish va hukumat rahbarlari hamda keng jamoatchilikning e’tiborini qaratish maqsadida yo‘qolib borayotgan dunyo tillarining qizil kitobi va xaritasini tuzdi. Unga ko‘ra, XXI asrning oxiriga qadar shu tillardan 2500 tasi yo‘q bo‘lib ketishi mumkin. Oddiy til bilan aytganda, hozirgi paytdagi mavjud tillarining 40-45 foizi yo‘qolib ketadi. Aniqrog‘i, har ikki haftada bitta til o‘lik tilga aylanmoqda. Bu dunyoning har qanday qit’asiga to‘g‘ri keladi. Jumladan, Yevropada 200 ta, Afrikada 250 ta, Tinch okeani mintaqasida 200 ta, Rossiyada 136 ta (udmurt tili, chukotka tili kabilar), Markaziy Osiyoda 14 ta, Turkiyada esa 18 ta til shu ro‘yxatga kiritilgan. Ayniqsa, Turkiyaning qora dengiz sohilidagi qishloqlarda butun insoniyatning noyob tili “qush tili” – hushtak tilining yo‘qolib borayotgani tashvishlanarli holat, albatta.

Shunga ko‘ra, har bir millat va mamlakat o‘z tilining rivoji, uning davlat tili maqomini olishi, xalqaro doirada keng qo‘llanishi, ma’lum ma’noda boshqa davlatlarning tillari ustidan “hukmronlik” qilishi uchun harakat qiladi. Chunki til shu mamlakat va xalqning ramziy belgisi hisoblanadi. Uning tili davlat tili maqomiga ega bo‘lsa, xalqaro darajada keng qo‘llansa, shu millatning taraqqiyoti uchun ham muhim omil yaratiladi.

Haqiqatan ham, biror bir davlatning xalqaro doirada iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy obro‘-e’tibori oshib borsa, uning ta’sir doirasi xalqaro munosabatlarda boshqa davlatlarga ham o‘ta boshlaydi. Bu jihatlar uning tilida ham o‘z aksini topib, boshqa davlatlarning tillariga ham ta’sirini o‘tkazadi, dunyo miqyosida faol qo‘llanib, xalqaro til maqomini olishga harakat qila boshlaydi. Shunga ko‘ra, tillarning davlat tili va xalqaro huquqiy maqomi masalasi insoniyat tarixida qadimdan faol ma’no kasb etib kelgan.

Yer yuzida eng birinchi marta xalqaro doirada keng qo‘llangan tillardan biri - xitoy tilidir. Keyinroq, bu vazifani qadimgi yunon tili bajardi. Aleksandr Makedonskiy yunon tilini Markaziy Osiyodan to Afrika davlatlarigacha “olib bordi”. U ming yildan ortiqroq vaqt davomida Vizantiya mamlakatining rasmiy tili bo‘lib xizmat qildi. Keyinchalik, yunon tilining o‘rniga xalqaro til sifatida lotin tili maydonga keldi. Qadimgi Rim imperiyasida rasmiy til vazifasini bajardi. Hatto lotin tili Qadimgi Rim davlati inqirozga yuz tutganidan so‘ng ham xalqaro maydondan “tushmadi”, u insoniyatga endi ilm-fan, madaniyat va taraqqiyot tili bo‘lib xizmat qila boshladi.

Yevropada lotin tilidan so‘ng Frantsiya qiroli Lyudovik XIVning davridan boshlab taxminan 200-yil fransuz tili diplomatik til sifatida qo‘llanildi. Italyan tili esa

Apenin yarim orolidagi respublikalarning muomala vositasi sifatida ishlatila boshlandi. Nemis tili ko‘pgina german qirolligi va knyazliklarida qo‘llanildi. Avstriya-Vengriya imperiyasining yuksalishi bilan nemis tili ommaviy til sifatida ishlatila boshlanadi.

AQShning davlat sifatida maydonga kelishi bilan fransuz va ingliz tillarining o‘rtasida o‘zaro raqobatni vujudga keltirdi. AQSh rahbariyati ingliz tilini xalqaro til sifatida e’tirof etilishi va keng qo‘llanishi uchun tinmay harakat qila boshladi. Frantsiya rahbariyati esa xalqaro munosabatlarda faqat fransuz tili qo‘llanishining tarafdori va ingliz tilining keng ishlatilishini xohlamas edi. Dastlab bunday kurashlar yashirin, zimdan yuz berdi, ochiqdan-ochiq aytilmadi. 1919-yilda Versal tinchlik shartnomasini tuzishda bu holat yaqqol gavdalandi. Konferentsiya Frantsiyaning Premer-ministri J.Klemanso fransuz tilining 200-yil atrofida xalqaro til sifatida ishlatilganligini nazarda tutib, konferentsiya faqat fransuz tilida olib borilishini talab qildi. Buyuk Britaniyaning Premer-ministri D. Lloyd Djorj va AQSh prezidenti V.Vilson Yer yuzidagi 170 milliondan ortiq aholi ingliz tilida gaplashishini hisobga olib, konferentsiyada xalqaro til sifatida ingliz tili ham qo‘llanishini talab qilishdi va ular ingliz tilida so‘zga chiqishdi. Shu davrdan boshlab ingliz tili xalqaro til sifatida qo‘llanila boshlandi.

Haqiqatan ham, insoniyat tarixi davomida har bir davlat o‘z tilining keng yoyilishi uchun harakat qilgan. Hatto ayrim mamlakatlar bu masala bo‘yicha to‘g‘ridan to‘g‘ri tazyiq o‘tkazganlar. Bunga misol sifatida birinchi jahon urushi oldidan Germaniyaning harakatini keltirish mumkin.

Ma’lumki, shu davrda xalqaro doirada ingliz va fransuz tillari yuqori mavqega ega edi. Aynan shuning uchun ham Germaniya ommaviy axborot vositalarida nemis tilining ingliz va fransuz tillaridan ustun ekanligi, XX asr nemis tili asri bo‘lishi, shuning uchun butun dunyo xalqlarining, ayniqsa, ingliz va fransuzlarning nemis tilini o‘rganishlari lozimligi tashviq qilindi.

Shunday qilib, xalqaro munosabatlarda ishlatilayotgan tillarning soni ko‘payib bordi. 1815-yilda o‘tkazilgan Vena kongressida faqat fransuz tili ishlatilgan bo‘lsa, 1919-yildagi Versal tinchlik konferentsiyasida fransuz va ingliz tillari xalqaro til sifatida e’tirof etildi. 1946-yilda o‘tkazilgan Parij tinchlik konferentsiyasida ingliz, fransuz va rus tillari rasmiy til sifatida qo‘llandi.

Islom olamida aynan shu vazifani uzoq asrlar davomida arab tili bajardi. VII-VIII asrlarda islom dinining paydo bo‘lishi va uning rivojlanishi jarayonida arab tili uzoq asrlar davomida, asosan, Sharq xalqlari hayotida ilm-fan va madaniyat tili bo‘lib xizmat qildi. U Ispaniyadan to Iroq va Yamangacha bo‘lgan katta hududda keng tarqalgan til sifatida maydonga keldi.

Shuningdek, miloddan oldin va milodiy asr boshlarida o‘zbek va turk tillarining asosi bo‘lmish turkiy til ham Sharqda xalqaro til sifatida keng qo‘llandi. U Uzoq Sharqda - Tatar bo‘g‘ozidan, G‘arbda -Dunay bo‘ylari-yu O‘rta yer dengizigacha, Shimolda - Sibirdan tortib, Janubda - Hindistonu Tibetgacha bo‘lgan katta hududda xalqaro til sifatida keng yoyildi. Shuningdek, “milodiy X-XU1 asrlarda turkiy til uch qit’ada - Osiyo, Sharqiy Yevropa, va Shimoliy Afrikada asosiy davlat tili hamda xalqaro va mamlakatlararo asosiy til bo‘lib xizmat qildi” [1, 11].

Xalqaro munosabatlarda til muammolari bilan bog‘liq eng muhim jihatlardan biri tillarning xalqaro huquqiy maqomi masalasidir. Chunki hozirgi paytda dunyodagi barcha tillar xalqaro munosabatlar sohasida teng qo‘llanilmaydi. Ularning ayrimlari xalqaro til sifatida butun dunyo xalqaro munosabatlari tizimida faol qo‘llansa, aksariyat qismi esa xalqaro til maqomini olmagani bois deyarli ishlatilmaydi.

Ta’kidlanganidek, hozirgi paytda yer yuzida etti mingga yaqin til mavjud bo‘lib, ularni huquqiy nuqtayi nazardan maqomiga ko‘ra uch turga bo‘lish mumkin:

1. Xalqaro til maqomiga ega bo‘lgan tillar (ingliz, fransuz, rus ispan, arab, xitoy);
2. Bir mamlakatning davlat tili maqomiga ega bo‘lgan tillar (hind, o‘zbek, turk, qozoq, fors kabi tillar);
3. Mahalliy tillar (nenets, xakas, boshqird kabi tillar).

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ingliz, fransuz, rus, ispan, arab va xitoy tillari xalqaro til sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, xalqaro munosabatlar asosan shu tillarda olib boriladi.

Bu tillarning teng ravishda ishlatilishi maqsadida BMT ixtisoslashtirilgan bo‘limlarining har birining o‘z rasmiy tili mavjud. Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik tashkilotida - ingliz tili; Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotida - ingliz va fransuz tili; Xalqaro valyuta fondida - ingliz tili; Xalqaro elektr aloqalari ittifoqida - ingliz, ispan, fransuz tillari; Xalqaro fuqarolar aviatsiyasi tashkilotida ingliz, fransuz, rus, ispan tillari; Xalqaro pochta ittifoqida - fransuz tillari; Xalqaro mehnat tashkilotida - ingliz va fransuz tillari rasmiy til sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari, BMT Xalqaro mehnat tashkilotida ispan, arab, xitoy, rus tillari ishchi til sifatida keng ishlatiladi. Xalqaro amnistiyalar ingliz, fransuz, ispan va arab tillarida chiqariladi.

YUNESKOning rasmiy tili - dastlab fransuz va ingliz tillari bo‘lib, so‘ngra ispan, rus, arab va xitoy tillari kiritildi. Shunga ko‘ra, hozirgi paytda ingliz, fransuz, rus, ispan, arab va xitoy tillari xalqaro til sifatida e’tirof etilib, xalqaro munosabatlar shu tillarda olib borilmoqda.

Bir mamlakatning davlat tili maqomini olgan tillarga: ingliz tili (AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada kabi davlatlarda); nemis tili (Germaniya, Avstriya kabi davlatlarda); fransuz tili (Frantsiyada); italyan tili (Italiyada); rus tili (Rossiyada); ispan tili (Ispaniyada); golland tili (Gollandiyada); yapon tili (Yaponiyada); xitoy tili

(Xitoyda); koreys tili (Janubiy va Shimoliy Koreya davlatlarida); hind tili (Hindistonda); arab tili (Arab mamlakatlarida); urdu tili (Pokistonda); turk tili (Turkiyada) kabi tillarni misol sifatida ko‘rsatish mumkin. Bunday tillarning huquqiy maqomi shu mamlakatlarda mustahakamlangan bo‘lib, davlatning butun faoliyati shu tilda olib boriladi va, o‘z navbatida, davlat bu tillarning rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlarni ta’minlaydi. Bu huquqning til rivojidagi eng muhim birlamchi vazifasidir.

Ko‘rinadiki, har bir davlatda davlat tili muammosi muhim o‘rin tutadi. Deyarli barcha mamlakatlarda bir yoki undan ortiq til davlat tili sifatida belgilab qo‘yiladi. Davlat tilining butun faoliyati shu tilda olib boriladi. Barcha muassasa korxona, tashkilot va idoralarda ish yuritish shu tilda olib boriladi. Davlat mana shu davlat tilining rivoji uchun g‘amxo‘rlik qiladi. Umuman olganda, davlat tili davlatchiligining muhim belgisi hisoblanadi, lekin bu davlat bo‘lishi uchun davlat tili bo‘lishi shartligini anglatmaydi. Ayrim davlatlar borki, ularda davlat tili mavjud emas.

Lekin ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda ma’lum bir necha tillar davlat tili sifatida belgilangan. Masalan, Shveytsariyada nemis, fransuz, italyan tillari; Finlyandiyada fin va shved tillari; Kanadada ingliz va fransuz tillari; Avstriyada nemis tili davlat tili sifatida belgilangan.

The article examines theoretical and practical problems in transliterating Turkic texts written in Arabic-based scripts. It discusses ambiguous vowel representation, multifunctional letters, manuscript variants, and the influence of Arabic-Persian spelling. A multilayer publication model combining diplomatic transliteration, normalized transcription, and linguistic commentary is proposed to ensure verifiability and support the reliable digital processing of historical texts.

Keywords: Arabic script, Turkic languages, transliteration, transcription, Chagatai, textual criticism, digital corpus.

GİRİŞ

Arap harfli yazılı eserler, Türk halklarının yazılı mirasının önemli bir bölümünü oluşturmaktadır. Eski Anadolu Türkçesi, Osmanlı Türkçesi, Çağatay Türkçesi, Eski Tatar Türkçesi, Kazak Türkçesi, Uygur Türkçesi ve diğer Türk dillerine ait pek çok metin, Arap veya Fars-Arap yazı sistemi temelinde kaleme alınmıştır. Bu eserlerin yayımlanması, özgün yazı sisteminden günümüz araştırmacılarının okuyup anlayabileceği bir işaret sistemine aktarılmasını gerektirmektedir. Bununla birlikte, söz konusu aktarım yalnızca harflerin mekanik biçimde değiştirilmesinden ibaret değildir. Nitekim Arap yazısının yapısı ile Türk dillerinin ses bilgisel sistemleri

birbirinden farklıdır. Ayrıca tarihî metinlerin imlası, dönemin tarihsel, bölgesel ve türe özgü yazım özelliklerini yansıtmaktadır [1: 27; 5: 306-308].

Elektronik derlemlerin, dijital katalogların ve el yazmalarına yönelik otomatik metin tanıma teknolojilerinin gelişmesi, bu konunun önemini daha da artırmaktadır. Farklı yayımcıların aynı işareti farklı biçimlerde aktarmaları veya metne yönelik editoryal tamamlamaları açıkça belirtmemeleri durumunda, dijital derlemlerde yapılan aramalar güvenilirliğini yitirmekte ve tarihî metinlerin karşılaştırılması güçleşmektedir. Bu nedenle çağdaş transliterasyon uygulamalarının bir yandan kaynak metindeki grafik bilgiyi koruması, diğer yandan metnin okunmasını kolaylaştırması ve makine tarafından işlenebilirliğini sağlaması gerekmektedir [3: 253-255; 4: 438-440].

Bu çalışmanın amacı, Arap harfli Türkçe metinlerin transliterasyonunda karşılaşılan temel sorunları sistematik biçimde ortaya koymak ve bu metinlerin bilimsel yayımına yönelik uygulanabilir ilkeler geliştirmektir. Çalışmanın inceleme malzemesini Çağatay, Osmanlı, Tatar ve Kazak Arap harfli yazı geleneklerinin genel özellikleri oluşturmaktadır. Araştırmada betimleyici ve karşılaştırmalı yöntemlerin yanı sıra grafematik ve metin bilimsel inceleme yöntemlerinden ve dijital normalleştirme uygulamalarından yararlanılmıştır.

FARKLI TEMSIL DÜZEYLERI OLARAK TRANSLITERASYON VE TRANSKRIPSIYON

Transliterasyon, kaynak metindeki yazı işaretlerinin başka bir alfabenin imkânlarıyla aktarılmasıdır. Bu yöntemin temel ilkesi, özgün metindeki bir işaret ile hedef sistemdeki bir işaret veya işaret dizisi arasında düzenli ve tutarlı bir karşılık kurulmasıdır. Transkripsiyon ise araştırmacı tarafından belirlenen veya yeniden yapılandırılan dil biriminin sesletim özelliklerini yansıtır. Tarihî metinlerin yayımlanmasında bu iki işlem sıklıkla birbirine karıştırılmaktadır. Örneğin Arap alfabesindeki bir işaret, karşılığı olduğu varsayılan çağdaş bir sesle aktarılmakta; yazıda gösterilmeyen ünlüler ise herhangi bir özel işaret kullanılmaksızın metne eklenmektedir [5: 306–308].

Bu iki yöntemin birbirine karıştırılması, yöntemsel bir sorun ortaya çıkarmaktadır. Okuyucu, hangi bilginin yazmada bulunduğunu, hangisinin yayımcı tarafından metne eklendiğini belirleyememektedir. Örneğin و ve ي harfleri; ünsüz, Arapça ve Farsça sözcüklerde uzun ünlü göstergesi veya çeşitli Türkçe ünlüleri karşılayan işaretler olarak kullanılabilmektedir. Metin yayımlanırken doğrudan çağdaş okuma biçiminin tercih edilmesi durumunda grafik belirsizlik ortadan kalkmakta; ancak bununla birlikte araştırmacının yorumunu doğrulama imkânı da kaybolmaktadır [1: 27; 8: 4-6].

Dolayısıyla bilimsel bir yayında kullanılan aktarım yöntemi açıkça belirtilmelidir. Bu yöntemin harf esaslı transliterasyon, fonolojik transkripsiyon veya uygulamaya yönelik çağdaşlaştırılmış aktarım biçimlerinden hangisi olduğu net bir biçimde ifade edilmelidir. Tarihî ses bilgisi araştırmaları bakımından en az iki düzeyin, yani özgün biçim ile yorumlanmış okuma biçiminin birlikte sunulması daha uygundur.

TÜRK DİLİ ORTAMINDA ARAP YAZISININ ÖZELLİKLERİ

Arap yazısı, ünlü ve ünsüz ses birimleri arasındaki ilişkinin Türk dillerinden farklı olduğu bir dil için geliştirilmiştir. Klasik Arap imlasında kısa ünlüler genellikle kullanımı zorunlu olmayan harekelerle gösterilmektedir. Türk dillerinde ise ünlüler arasındaki ayrım, hem sözcüklerin anlamlandırılmasında hem de biçim bilgisel yapıların belirlenmesinde ayırt edici bir işleve sahiptir. Bu nedenle, özellikle harekelerin ve yeterli bağlamın bulunmadığı durumlarda, aynı grafik dizi birden fazla biçimde okunabilmektedir [3: 253-255; 5: 306-308].

Farsça ve Türkçe yazı geleneğinde alfabe ژ, چ, پ ve گ harflerinin eklenmesiyle genişletilmiştir. Bununla birlikte, bu genişletme yazı ve ses sistemi arasındaki bütün uyumsuzlukları ortadan kaldırmamıştır. Farklı yazı geleneklerinde art damak geniz ünsüzünü göstermek amacıyla özel biçimler kullanılmış; ك ve گ harfleri ise çeşitli hat ve kodlama biçimleriyle karşımıza çıkmıştır. El yazmalarında bunlara yazı türü ve müstensih hattından kaynaklanan özellikler, harflerin birleşme biçimleri, noktaların eksik bırakılması ve müstensihin tutarsız yazımı da eklenmektedir [1: 27; 8: 5-6].

Arapça ve Farsça kökenli sözcükler ayrıca güçlük oluşturmaktadır. Bu sözcüklerin yazımında, Türkçe söyleyişte aynı biçimde telaffuz edilen veya önemli ses değişimlerine uğrayan etimolojik harfler korunabilmektedir. Bu nedenle, grafemleri esas alan katı bir transliterasyon sistemi, örneğin s veya z seslerine yakın biçimde telaffuz edilen birden fazla işareti birbirinden ayırırken fonolojik transkripsiyon bu ayrımları ortadan kaldırabilmektedir. Tercih edilecek yöntem, çalışmanın amacına göre belirlenmelidir: Alıntı sözcükleri konu alan araştırmalarda etimolojik özelliklerin korunması gerekirken öğretim amaçlı yayınlarda okuma kolaylığı ön planda tutulabilir [5: 306-308; 8: 4-6].

TRANSLİTERASYON SORUNLARININ TEMEL GRUPLARI

Ünlülerin Aktarımı

Bu alandaki başlıca güçlük, ünlülerin yazıda eksik gösterilmesinden kaynaklanmaktadır. Elif, vav ve ye harfleri ünlülerin gösteriminde kullanılmakla birlikte bunların işlevleri; sözcük içindeki konuma, biçim birimsel yapıya, sözcüğün kökenine ve ilgili eserin yazım geleneğine göre belirlenmektedir. Aynı و işareti v veya w ünsüzlerini karşılayabildiği gibi o, ö, u ve ü ünlülerini de gösterebilmektedir.

ي işareti ise y, i, ı ve e seslerinin yanı sıra bir ikili ünlünün unsurunu da karşılayabilmektedir. Bu nedenle, söz konusu işaretlerin otomatik olarak tek bir karşılıkla aktarılması sistematik hatalara yol açmaktadır [8: 4-6; 9: 1-2].

Ünlülerin yeniden yapılandırılmasında ünlü uyumu, sözcüğün biçim birimsel yapısı, akraba dillerdeki paralel biçimler ve sözlük verileri dikkate alınmalıdır. Bununla birlikte, bu tür bir yeniden yapılandırma artık transliterasyonun değil, transkripsiyonun kapsamına girmektedir. Diplomatik transliterasyonda belirsizlik korunmalı veya özel işaretlerle belirtilmeli; önerilen okuma biçimi ise ayrı bir satırda ya da sütunda sunulmalıdır [8: 4-6].

Ünsüzlerin Çok Değerliliği ve Tarihî İmla

Arapça ve Farsça alıntı sözcüklerde ع, ظ, ط, ض, ص, ذ, ح, ث ve غ harfleri korunmaktadır. Ancak bu harfler, ilgili Türk dilinde her zaman bağımsız ses birimlerine karşılık gelmemektedir. Bu işaretlerin çağdaş harflerle sadeleştirilerek aktarılması okumayı kolaylaştırmakla birlikte imla geleneğinin, alıntılanma süreçlerinin ve yayımcıya özgü tercihlerin incelenmesini güçleştirmektedir. Bu nedenle bilimsel transliterasyonda söz konusu grafemler, ayırıcı işaretler veya önceden açıklanmış başka karşılıklar aracılığıyla birbirinden ayrılmalıdır [5: 306-308; 8: 5-6;].

Bir diğer sorun; ḳ/k, ġ/g, ḫ/h karşıtlıkları ile art damak geniz ünsüzünün aktarımıdır. Farklı tarihî eserlerde ve transliterasyon sistemlerinde bu sesler çeşitli grafik işaretlerle gösterilmektedir. Dil, dönem ve yazma geleneği dikkate alınmadan hazırlanan evrensel bir karşılık tablosu yetersiz kalmaktadır. Bu nedenle söz konusu tablo, işaretlerin konuma bağlı olarak yorumlanmasına ilişkin kurallarla desteklenmelidir [8: 5-6; 9: 1].

Grafik Varyantlar ve Kaynağın Fiziksel Durumu

Arap harfleri, sözcük içindeki konumlarına göre farklı biçimlere sahiptir. Bununla birlikte transliterasyon açısından önemli olan, her bir harfin dış görünüşü değil, ait olduğu grafemdir. Unicode sisteminde farklı kod noktalarıyla tanımlanmasına rağmen görsel bakımdan birbirine benzeyen işaretlerde ise durum farklıdır. Arapça ve Farsçadaki kef ve ye biçimleri, ligatürler, sunum biçimleri ile temel harf ve ayırıcı işaretlerden oluşan birleşimler bu kapsamdadır. Önceden gerçekleştirilecek bir normalleştirme işlemi olmaksızın elektronik arama sistemleri, görsel olarak aynı olan sözcükleri farklı birimler şeklinde değerlendirebilmektedir [3: 253-255; 4: 438-440].

Kâğıdın hasar görmesi, noktaların silinmesi, sonradan yapılan düzeltmeler ve derkenarlar özel editoryal işaretlerin kullanılmasını gerektirmektedir. Metin tamiri yoluyla tamamlanan bölümler, kesin olmayan okumalar, eksik kısımlar ve üzeri çizilmiş parçalar, doğruluğu kesin olan sıradan metinler gibi yayımlanmamalıdır.

Aksi takdirde dijital kopya, özgün nüshanın korunma durumunu gizlemekte ve araştırmacının varsayımını eserin müellifine veya müstensihine ait özgün bir yazım biçimiymiş gibi sunmaktadır [8: 4-6].

MEVCUT SİSTEMLER VE STANDARTLAŞTIRMANIN SINIRLARI

Uluslararası ve ulusal transliterasyon sistemleri, farklı amaçlar doğrultusunda geliştirilmiştir. ISO 9 standardı, Kiril alfabesindeki işaretlerin Latin harfleriyle bire bir aktarılmasını esas almakta ve tersine dönüştürülebilir bir çevrim modeli olarak yarar sağlamaktadır. Bununla birlikte söz konusu standart, Arap harfli Türkçe metinlere özgü sorunlara doğrudan çözüm sunmamaktadır [7: 1]. ALA-LC tabloları ise öncelikle kütüphane kataloglarında kullanılmak üzere geliştirilmiş romanizasyon sistemleridir. Bu tablolarda Arap harfli Osmanlı Türkçesi ve Kazak Türkçesi için ayrı aktarım ilkelerine yer verilmesi, kataloglama işlemlerinde tutarlılık sağlamaktadır. Ancak bu sistemler, tarihî eserlerin tenkitli metin neşrinin yerini tutmamaktadır [8: 4-6; 9: 1-2].

Türkoloji alanında, kökeni Şarkiyat araştırmalarındaki uygulamalara ve belirli dil bilgisi çalışmalarına dayanan, ayırıcı işaretlerin kullanıldığı bilimsel çevriyazı sistemlerinden yaygın biçimde yararlanılmaktadır. Çağatay Türkçesi metinlerinin yayımlanmasında János Eckmann ve András J. E. Bodrogligeti'nin çalışmaları önemli bir rol oynamıştır [1: 27]. Bu çalışmalar, işaret tercihinin yalnızca kullanılan alfabeye değil, aynı zamanda ilgili biçimin dil bilgisel açıdan yorumlanmasına da bağlı olduğunu göstermektedir. Osmanlı Türkçesi, Çağatay Türkçesi ve Eski Tatar Türkçesi araştırmalarında birbirine yakın, ancak bütünüyle özdeş olmayan çevriyazı gelenekleri geliştirilmiştir.

Arap harfli bütün tarihî Türkçe metinlerin tek bir karşılık tablosu aracılığıyla tamamen standartlaştırılması, önemli bilgilerin kaybolması riski nedeniyle mümkün görünmemektedir. Bunun yerine, betimleme yapısının standartlaştırılması daha işlevsel bir yaklaşım olarak değerlendirilebilir. Bu doğrultuda araştırmacı; eserin dilini ve tarihlendirilmesini belirtmeli, kullandığı karşılık tablosunu yayımlamalı, aktarım düzeylerini birbirinden ayırmalı, editoryal işaretleri açıklamalı ve özgün metnin görselini erişime sunmalıdır. Böylece farklı sistemler arasındaki ayrımlar açık, denetlenebilir ve karşılaştırılabilir hâle gelecektir.

DİJİTAL TRANSLİTERASYON VE NORMALLEŞTİRME

Dijital ortamda gerçekleştirilen transliterasyonun biçimsel olarak yeniden üretilebilir olması gerekmektedir. Bu sürecin ilk aşamasını, kaynak satırın aslına uygun bir kopyasının Unicode biçiminde korunması oluşturmaktadır. İkinci aşama ise boşlukların, yazı yönünün, birbiriyle uyumlu harf biçimlerinin ve ayırıcı işaretlerin kodlanma yöntemlerinin standartlaştırılmasını kapsayan teknik normalleştirmedir.

Bununla birlikte, normalleştirilmiş sürüm arşiv niteliğindeki özgün katmanın yerine geçmemeli; her iki sürüm de birbirine paralel olarak saklanmalıdır.

Unicode; temel karakterleri, birleştirici ayırıcı işaretleri ve uyumluluk amacıyla kullanılan çeşitli sunum biçimlerini birbirinden ayırmaktadır. Karakterlerin görsel bakımdan aynı olması, kod düzeyinde özdeş oldukları anlamına gelmemektedir. Bu nedenle otomatik arama, biçim bilgisel etiketleme ve optik karakter tanıma modellerinin eğitimi öncesinde, açıkça tanımlanmış ve belgelendirilmiş bir normalleştirme işleminin gerçekleştirilmesi gerekmektedir [3: 253-255]. Fars-Arap yazı sistemlerine yönelik çağdaş yazılım çözümleri de görsel biçimi değiştirmeyen normalleştirme işlemleri ile dile özgü dönüştürme uygulamalarının birbirinden ayrılması gerektiğini göstermektedir [4: 438-440].

Otomatik transliterasyon yalnızca bire bir ve anlam belirsizliği taşımayan karşılıkların aktarılmasında etkili olmaktadır. Bağlama göre değişen durumlarda sistem, birden fazla olası karşılığı korumalı veya ilgili birimi uzman denetimine yönlendirmelidir. Sistemin başarısının değerlendirilmesinde yalnızca doğru aktarılan karakterlerin oranı değil; sözcük biçimlerinin, biçim birimi sınırlarının ve özel adların doğru belirlenme düzeyi de dikkate alınmalıdır. Görüntü, diplomatik transliterasyon satırı, normalleştirilmiş satır ve transkripsiyondan oluşan denetlenmiş paralel veri kümelerinin hazırlanması bu bakımdan özel bir önem taşımaktadır.

Önerilen Bilimsel Yayım Modeli

Materyallerin denetlenebilirliğini ve birbiriyle uyumluluğunu artırmak amacıyla çok katmanlı bir yayım modeli önerilmektedir. Bu model, bütün tarihî metinlere tek bir ses bilgisel yorum dayatmamakta; ancak çalışmanın yürütülmesinde ortak bir işlem sırası belirlemektedir.

1. Kaynağın tanımlanması: Kaynağın katalog veya arşiv numarası, muhafaza edildiği yer, tarihi, dili, yazı türü, el yazısı veya matbaa yazı tipi ve metnin fiziksel durumu belirtilmelidir.

2. Tıpkıbasım katmanı: Sayfanın görüntüsü, satır ve bölümlere ilişkin değişmez bir numaralandırma sistemiyle birlikte korunmalıdır.

3. Diplomatik transliterasyon: Kaynak metindeki grafemler mümkün olduğunca tutarlı biçimde aktarılmalı; yazıda gösterilmeyen sesler, özel bir işaret kullanılmadan metne eklenmemelidir.

4. Teknik normalleştirme: Karakter kodlaması standartlaştırılmalı ve otomatik olarak gerçekleştirilen bütün değiştirme işlemleri açıkça belirtilmelidir.

5. Fonolojik transkripsiyon: Metnin dili, ait olduğu dönem, biçim bilgisel yapısı ve bağlamı göz önünde bulundurularak olası okuma biçimi sunulmalıdır.

6. Editoryal açıklamalar: Eksik bölümler, düzeltmeler, alternatif okumalar, alıntı sözcükler ve tartışmalı bölümlemeler özel işaretlerle belirtilmeli ve açıklanmalıdır.

7. Kalite kontrolü: Metin bağımsız bir uzman tarafından gözden geçirilmeli ve bire bir gerçekleştirilen dönüştürme işlemlerinin tersine çevrilebilirliği denetlenmelidir.

Asgari bir transliterasyon kılavuzunda grafem karşılıkları tablosuna, kullanılmasına izin verilen ayırıcı işaretler dizisine, Arapça ve Farsça kökenli sözcüklerin aktarım kurallarına, editoryal müdahaleleri gösteren işaretlere ve tartışmalı örneklere yer verilmelidir. Metnin elektronik ortamda yayımlanması durumunda bu kılavuza Unicode normalleştirmesi, yazı yönü, sözcük birimlerine ayırma yöntemi ve kullanılan otomatik dönüştürme yazılımının sürümüyle ilgili bilgiler de eklenmelidir.

Belirsizliğin korunması ilkesi uygulama açısından özel bir önem taşımaktadır. Bir okuma biçiminin kesin olarak kanıtlanamadığı durumlarda, açıklama yapılmaksızın kolaylık sağlayan tek bir biçimin tercih edilmesi yerine kuşkunun belirtilmesi veya alternatif okumaların sunulması bilimsel bakımdan daha uygundur. Bu tür bir işaretleme, yayının eksikliği olarak değerlendirilmemelidir. Aksine, mevcut bilginin sınırlarını ortaya koymakta ve sonraki araştırmacıların ilgili yorumu yeniden değerlendirebilmesine imkân sağlamaktadır.

SONUÇ

Arap harfli Türkçe metinlerin transliterasyonunda karşılaşılan sorunlar; Arap yazı sisteminin Türk dillerindeki ünlü yapısını tam olarak karşılayamaması, bazı işaretlerin birden fazla değere sahip olması, Arap-Fars imla geleneğinin korunması, el yazmalarındaki değişkenlik ve mevcut aktarım sistemlerinin farklı amaçlar doğrultusunda geliştirilmiş olmasından kaynaklanmaktadır. Bu nedenle, harflerin basitçe bire bir değiştirilmesine dayanan bir aktarım yöntemi, ne kaynak metne bağlılık ve güvenilirlik ne de bilimsel inceleme açısından yeterlidir.

En uygun çözüm; tıpkıbasım, diplomatik transliterasyon, normalleştirilmiş metin ve fonolojik transkripsiyon katmanlarının birbiriyle ilişkilendirildiği, ancak birbirine karıştırılmadığı çok katmanlı bir yayım modelidir. Standartlaştırma öncelikle kullanılan yöntemin açıklanması, editoryal tercihlerin işaretlenmesi ve dijital normalleştirme işlemlerinin belirli kurallara bağlanması alanlarında sağlanmalıdır. Bu yaklaşım, özgün metnin tanıklığını korumakta, araştırmacının yorumunu denetlenebilir hâle getirmekte ve Türk halklarının yazılı eserleri üzerinde gerçekleştirilecek karşılaştırmalı araştırmalar ile kapsamlı elektronik derlemlerin oluşturulması için sağlam bir temel sunmaktadır.

KAYNAKÇA:

1. Eckmann J. Chagatay Manual. Bloomington: Indiana University, 1966.
2. Bodrogligeti A. J. E. A Grammar of Chagatay. Munich: Lincom Europa, 2001.

3. The Unicode Consortium. The Unicode Standard. Version 6.2. Chapter 8: Middle Eastern Scripts. Mountain View, CA: Unicode Consortium, 2012. P. 244–276. URL: https://www.unicode.org/versions/Unicode6.2.0/ch08.pdf
4. Gutkin A., Johny C., Doctor R., Roark B., Sproat R. Beyond Arabic: Software for Perso-Arabic Script Manipulation // Proceedings of the 7th Arabic Natural Language Processing Workshop. 2022. P. 438–447. URL: https://aclanthology.org/2022.wanlp-1.36/
5. Durmuş İ. Transkripsiyon // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C. 41. İstanbul, 2012. S. 306–308. URL: https://islamansiklopedisi.org.tr/transkripsiyon
6. Brockelmann C. et al. Die Transliteration der arabischen Schrift in ihrer Anwendung auf die Hauptliteratursprachen der islamischen Welt. Leipzig, 1935.
7. ISO 9:1995. Information and documentation — Transliteration of Cyrillic characters into Latin characters — Slavic and non-Slavic languages. Geneva: International Organization for Standardization, 1995. URL: https://www.iso.org/standard/3589.html
8. ALA-LC Romanization Tables. Ottoman Turkish. Washington: Library of Congress, 2011. URL: https://www.loc.gov/catdir/cpso/romanization/ottoman.pdf
9. ALA-LC Romanization Tables. Kazakh in Arabic script. Washington: Library of Congress. URL: https://www.loc.gov/catdir/cpso/roman/

ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTIDA MIFOLOGIK OBRAZLARNING YANGICHA TALQINI

Davlatova Adiba Raxmatovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori
adiba.davlatova79@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotida mifologik obrazlarning qo‘llanishi, ularning an’anaviy mazmun va funksiyalardan farqli ravishda yangicha badiiy-estetik talqin etilishi masalasi tadqiq etiladi. Mifologik obrazlarning zamonaviy adabiy jarayondagi o‘rni milliy tafakkur, tarixiy xotira, ma’naviy qadriyatlar, inson ruhiyati va zamonaviy ijtimoiy muammolar bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy o‘zbek adabiyoti, mifologiya, mifologik obraz, mifopoetika, mifologik motiv, transformatsiya, ramz, timsol, intertekstuallik, badiiy talqin, milliy tafakkur, tarixiy xotira.

Аннотация. В данной статье исследуется проблема использования мифологических образов в современной узбекской литературе и их нового художественно-эстетического осмысления, отличающегося от традиционного содержания и функций. Роль мифологических образов в современном литературном процессе анализируется в связи с национальным мышлением, исторической памятью, духовными ценностями, внутренним миром человека и современными социальными проблемами.

Ключевые слова: современная узбекская литература, мифология, мифологический образ, мифопоэтика, мифологический мотив, трансформация, символ, образ-символ, интертекстуальность, художественная интерпретация, национальное мышление, историческая память.

Abstract. This article examines the use of mythological images in contemporary Uzbek literature and their new artistic and aesthetic interpretation, which differs from their traditional content and functions. The role of mythological images in the contemporary literary process is analyzed in relation to national thought, historical memory, spiritual values, the human psyche, and contemporary social issues.

Keywords: contemporary Uzbek literature, mythology, mythological image, mythopoetics, mythological motif, transformation, symbol, symbolic image, intertextuality, artistic interpretation, national thought, historical memory.

Badiiy adabiyot taraqqiyotining barcha davrlarida mifologik tafakkur va mifologik obrazlar muhim estetik manbalardan biri bo‘lib kelgan. Mif insoniyatning olam, tabiat, jamiyat, hayot va o‘lim haqidagi dastlabki tasavvurlarini mujassamlashtirgan qadimiy ma’naviy hodisa sifatida keyingi davrlar adabiy tafakkurining shakllanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Mifologik syujet, obraz va motivlarning badiiy adabiyotga kirib kelishi natijasida ular yangi estetik mazmun bilan boyib, muayyan tarixiy-madaniy davr ehtiyojlari asosida qayta talqin etilgan. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ham mifologik obrazlardan foydalanish an’anasi yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bunda yozuvchi va shoirlar qadimgi mifologik tasavvurlarni shunchaki takrorlamaydilar, balki ularni zamonaviy insonning ruhiy olami, ijtimoiy hayoti, ma’naviy izlanishlari va falsafiy mushohadalari bilan bog‘laydilar. Natijada qadimgi mifologik obraz zamonaviy badiiy tafakkur doirasida yangi semantik qatlamlarga ega bo‘ladi.

Bugungi adabiy jarayonda mifologik obrazning vazifasi avvalgi davrlardagi kabi faqat yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashni ifodalash bilan cheklanmaydi. U insonning ichki ziddiyatlari, yolg‘izlik, begonalashuv, xotira, tarixiy ong, milliy o‘zlik, hayot va o‘lim, vaqt va makon, ezgulik va yovuzlik kabi universal muammolarni badiiy ifodalash vositasiga aylanmoqda. Shu jihatdan zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi mifologik obrazlarni o‘rganish nafaqat folklor va adabiyot munosabatlarini, balki bugungi badiiy tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun ham muhimdir.

Mifologik obraz muayyan xalqning qadimiy dunyoqarashi, diniy-mifologik tasavvurlari va kollektiv xotirasi asosida shakllangan badiiy timsoldir. U o‘zining dastlabki mazmunidan tashqari, keyingi davr adabiyotida yangi ma’no va vazifalarni o‘zlashtirishi mumkin. Adabiyotshunoslikda mifologik obraz tushunchasi faqat xudolar, afsonaviy mavjudotlar yoki fantastik qahramonlar bilan chegaralanmaydi. Daraxt, suv, tog‘, olov, qush, ot, ajdar, pari, dev, burgut, quyosh, oy, yer kabi timsollar ham mifologik tafakkurning mahsuli sifatida badiiy matnda muhim ramziy vazifa bajarishi mumkin. Mifologik obrazning badiiy matndagi asosiy xususiyatlaridan biri uning ko‘p qatlamli semantik tabiatidir. Masalan, suv mifologik tafakkurda hayot va poklanish timsoli bo‘lsa, zamonaviy adabiyotda u xotira, ruhiy yangilanish yoki insonning ichki dunyosini anglatishi mumkin. Qush ozodlik timsolidan tashqari, ruh, xotira, ayriliq yoki insonning mavjud chegaralardan chiqish istagini ifodalashi ehtimol. Demak, mifologik obraz badiiy matnga kirib kelganda o‘zining tarixiy-madaniy xotirasini saqlab qolgan holda yangi mazmun kasb etadi. Bu hodisani mifologik obrazning transformatsiyasi deb atash mumkin. Transformatsiya jarayonida obrazning tashqi shakli saqlanishi, biroq uning funksiyasi, semantik yuklamasi yoki badiiy kontekstdagi o‘rni o‘zgarishi mumkin.

XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi o‘zbek adabiyoti milliy badiiy tafakkurning yangilanishi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, milliy o‘zlikni anglash jarayonining kuchayishi, tarix va madaniy merosga yangicha munosabat, jahon adabiyoti bilan faol aloqalarning rivojlanishi ijodkorlarning qadimiy manbalarga murojaat qilishini kuchaytirdi. Bunday sharoitda mifologiya badiiy adabiyot uchun tayyor syujetlar yoki obrazlar manbai bo‘lish bilan birga, milliy tafakkurning arxetipik qatlamlarini qayta anglash imkonini beruvchi vositaga aylandi. Zamonaviy ijodkor qadimgi mifologik obraz orqali bugungi kun muammosini ifodalashi mumkin. Masalan, ajdar obrazi an’anaviy mifologik tizimda yovuzlik va xavf timsoli sifatida qaralsa, zamonaviy matnda u inson hayotiga tahdid solayotgan ma’naviy inqiroz, zo‘ravonlik, nafs yoki jamiyatdagi illatlarning ramziga aylanishi mumkin. Xuddi shuningdek, afsonaviy qahramon obrazi ham zamonaviy badiiy matnda ideal qahramonning tayyor modeli sifatida emas, balki insonning o‘zligini izlash jarayonini ifodalovchi ramz sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi mifologik obrazlarni o‘rganishda ularning manbasini aniqlashning o‘zi yetarli emas. Muhimi, ijodkor ushbu obrazni qanday maqsadda qo‘llagani, unga qanday yangi ma’no yuklagani va obrazning asar g‘oyasini shakllantirishdagi rolini aniqlashdir.

Zamonaviy adabiyotda mifologik obrazlar, odatda, uch asosiy yo‘nalishda transformatsiyaga uchraydi. Birinchi yo‘nalish semantik transformatsiya. Bunda mifologik obrazning qadimiy mazmuni saqlanadi, biroq unga zamonaviy ma’no qo‘shiladi. Ikkinchi yo‘nalish funksional transformatsiya. Obrazning badiiy vazifasi o‘zgaradi. Masalan, qadimiy mifda voqeani harakatga keltiruvchi fantastik kuch vazifasini bajargan obraz zamonaviy asarda inson ruhiyatini ochuvchi psixologik detalga aylanishi mumkin. Uchinchi yo‘nalish strukturaviy transformatsiya. Bunda mifologik syujet yoki obrazning ayrim elementlari olinib, ular butunlay yangi syujet va kompozitsion tizim tarkibiga kiritiladi. Mazkur jarayon zamonaviy adabiyotning intertekstual xususiyati bilan ham bog‘liq. Chunki mifologik obraz o‘quvchining madaniy xotirasida mavjud bo‘lgan boshqa matn va tasavvurlarni ham faollashtiradi. Masalan, ajdar, dev, pari yoki Semurg‘ kabi obrazlar badiiy matnda qo‘llanganda o‘quvchida ular bilan bog‘liq qadimiy folkloriy tasavvurlar ham jonlanadi. Yozuvchi esa ana shu umumiy madaniy xotiraga tayanib, yangi mazmun yaratadi.

Turkiy xalqlar mifologiyasida qush obrazlari alohida o‘rin egallaydi. Shular orasida Semurg‘ obrazi o‘zining ko‘p qatlamli ramziy tabiati bilan ajralib turadi. U parvoz, yuksalish, najot, kuch va ezgulik kabi tushunchalar bilan bog‘lanadi. An’anaviy talqinda Semurg‘ ko‘pincha qahramonga yordam beruvchi, uni qiyinchiliklardan olib chiquvchi afsonaviy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy adabiyotda esa ushbu obrazning mazmun doirasi kengayadi. Semurg‘

obrazi insonning o‘z imkoniyatlarini anglash, ruhiy yuksalishga intilish, ma’naviy qutulish va ichki kuchni izlash ramziga aylanishi mumkin. Bunda afsonaviy qush tashqi mo‘jiza emas, insonning o‘zidagi imkoniyatlarning badiiy timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan Semurg‘ obrazining zamonaviy talqini mifologik obrazning tashqi fantastik xususiyatidan ko‘ra uning falsafiy va psixologik imkoniyatlarini kuchaytiradi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ajdar va dev obrazlari, asosan, yovuz kuchning timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Qahramonning ajdar yoki dev bilan kurashi aslida ezgulik va yovuzlikning kurashini ifodalagan. Zamonaviy adabiyotda esa bu obrazlar ko‘pincha konkret fantastik mavjudot sifatida emas, balki ramziy obraz sifatida ishlatiladi. Ajdar insonni ichdan yemiruvchi nafs, qo‘rquv, jaholat yoki ma’naviy tanazzulni anglatishi mumkin. Dev obrazi ham tashqi dushmandan ko‘ra insonning ichki qo‘rquvlari yoki jamiyatdagi salbiy hodisalarning timsoliga aylanadi. Bunday talqinda qahramonning dev yoki ajdar bilan kurashi, aslida, uning o‘z ichki dunyosi bilan kurashidir. Demak, mifologik syujet psixologik mazmun bilan boyiydi. Bu holat zamonaviy adabiyotning muhim xususiyatlaridan birini tashqi voqelikdan insonning ichki olamiga e’tiborning kuchayishini ko‘rsatadi.

Pari obrazi o‘zbek folklorida go‘zallik, sirli olam va g‘ayritabiiy kuch bilan bog‘liq. Mumtoz va folkloriy an’analarda pari ko‘pincha inson hayotiga ta’sir qiluvchi sirli mavjudot sifatida tasvirlanadi. Zamonaviy adabiyotda esa pari obrazining an’anaviy funksiyasi o‘zgarib, u insonning orzu-istaklari, ideal go‘zallik haqidagi tasavvurlari yoki erishib bo‘lmaydigan ma’naviy mukammallik ramziga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy ijodkor pari obrazini ironik yoki dekonstruktiv tarzda ham qo‘llashi mumkin. Bunday holatda an’anaviy go‘zallik timsoli qayta ko‘rib chiqiladi va uning ortidagi ijtimoiy yoki psixologik mazmun ochiladi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida mifologik obrazlarning faollashuvi milliy identitet masalasi bilan bevosita bog‘liq. Chunki mifologiya xalqning eng qadimgi ma’naviy xotira qatlamlaridan biridir. Mifologik obrazga murojaat qilgan ijodkor o‘tmishni oddiy takrorlamaydi. U tarixiy-madaniy xotira orqali bugungi insonning o‘zligini anglash jarayonini yoritadi. Shu ma’noda mifologik obraz milliy identitetning badiiy kodlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘quvchini xalqning qadimiy tasavvurlari bilan bog‘laydi va zamonaviylik bilan an’anaviylik o‘rtasida badiiy ko‘prik vazifasini bajaradi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida milliy madaniyatning o‘ziga xosligini saqlash masalasi dolzarb bo‘lib borayotgan bir paytda mifologik obrazlarning adabiyotdagi qayta talqini muhim ahamiyat kasb etadi.

Mifologiya tarixiy xotiraning eng qadimgi shakllaridan biri sifatida ham namoyon bo‘ladi. Mif tarixiy voqeani aniq faktlar asosida emas, ramziy va kollektiv

tasavvurlar orqali saqlaydi. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida tarixiy xotiraning tiklanishi mifologik obrazlardan foydalanishning kuchayishiga ham sabab bo‘lmoqda. Yozuvchi tarixiy shaxs yoki voqea bilan bog‘liq mifologik qatlamni badiiy matnga olib kirib, tarixni faqat xronologik hodisa sifatida emas, balki xalqning ruhiy xotirasi sifatida talqin qiladi. Bunday yondashuvda mif va tarix bir-birini inkor qilmaydi. Aksincha, ular badiiy haqiqatni yaratishning ikki xil shakli sifatida birlashadi.

Zamonaviy adabiyotda mifologik obrazlarning eng muhim funksiyalaridan biri inson ruhiyatini ochishdir. An’anaviy folklorda qahramonning tashqi faoliyati yetakchi bo‘lsa, zamonaviy adabiyotda uning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari, shubha va qo‘rquvlari muhim o‘rin egallaydi. Shu sababli mifologik obraz ham tashqi fantastik hodisadan psixologik timsolga aylanadi. Masalan, qorong‘ulik, tun, yer osti, suv yoki o‘rmon kabi mifologik makonlar zamonaviy badiiy matnda qahramonning ruhiy holatini ifodalashi mumkin. Bunday hollarda makonning real geografik xususiyatidan ko‘ra uning psixologik-semantik mohiyati muhimlashadi.

Mifologik obrazlar bilan bir qatorda mifologik makonlar ham zamonaviy adabiyotda faol qo‘llanmoqda. Tog‘, o‘rmon, g‘or, yer osti dunyosi, suv havzasi, osmon kabi makonlar qadimiy mifologik tasavvurlarda muayyan ramziy ma’nolarga ega. Zamonaviy adabiyotda bunday makonlar qahramonning ichki dunyosini ifodalash uchun ishlatilishi mumkin. Masalan, g‘or ichki dunyoga kirish, o‘rmon noaniqlik va izlanish, tog‘ esa yuksalish yoki ma’naviy sinov ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon mifologik tafakkurning zamonaviy psixologik tafakkur bilan sintezlashayotganini ko‘rsatadi.

Mifologik obrazlarning zamonaviy adabiyotdagi kuchi, avvalo, ularning ramziy imkoniyatlari bilan belgilanadi. Oddiy badiiy obraz ma’lum bir personaj yoki predmetni ifodalasa, mifologik obraz o‘zida tarixiy-madaniy xotiraning katta qatlamini mujassamlashtirishi mumkin. Masalan, olov — poklanish, hayot, vayronkorlik yoki qayta tug‘ilish; suv — hayot, xotira, poklanish yoki vaqt; daraxt — hayot davomiyligi, avlodlar silsilasi; qush — erkinlik, ruh va yuksalish; yo‘l — taqdir va izlanish kabi ma’nolarni ifodalashi mumkin. Ammo bu ma’nolar qat’iy va o‘zgarmas emas. Ular badiiy kontekstga qarab yangilanadi. Shuning uchun zamonaviy adabiyotdagi mifologik ramzni faqat folkloriy lug‘at asosida izohlash yetarli emas. Uning asardagi o‘rni, qahramon ruhiyati, syujet va kompozitsiya bilan munosabati ham hisobga olinishi lozim.

Zamonaviy adabiyotning muhim xususiyatlaridan biri intertekstual tafakkurning kuchayishidir. Muallif avvalgi adabiy va folkloriy matnlarga bevosita yoki bilvosita murojaat qilib, yangi ma’no hosil qiladi. Mifologik obraz aynan shunday intertekstual vositalardan biridir. O‘quvchi obrazni ko‘rishi bilan uning oldingi mifologik va

folkloriy ma’nolarini eslaydi. Muallif esa ana shu tayyor semantik qatlamga yangi mazmun qo‘shadi. Natijada bitta obraz doirasida bir necha ma’no qatlamlari hosil bo‘ladi: qadimiy mifologik ma’no → folkloriy talqin → adabiy an’ana → zamonaviy muallif talqini. Bu jarayon badiiy matnning semantik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Zamonaviy adabiyotda mifologik obrazlarning yangicha talqini postmodern estetik tafakkur bilan ham bog‘liq. Postmodern badiiy tafakkur mavjud syujet, obraz va ramzlarni qayta ko‘rib chiqishga, ularni yangi kontekstga ko‘chirishga moyildir. Shu nuqtayi nazardan mifologik obrazning zamonaviy talqini ba’zan parodiya, ironiyalash, dekonstruksiya yoki kutilmagan semantik burilish orqali amalga oshiriladi. Bunda muallif an’anaviy obrazning o‘quvchi ongidagi tayyor modelini buzadi va yangi ma’no yaratadi. Masalan, an’anaviy ravishda ezgulik timsoli bo‘lgan obraz zamonaviy matnda shubhali yoki ziddiyatli qahramon sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Bunday usul o‘quvchini tayyor xulosadan voz kechib, obrazning yangi ma’nosini mustaqil izlashga undaydi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida mifologik obrazlardan foydalanishning yana bir muhim jihati milliy va umuminsoniy mazmunning uyg‘unlashuvidir. Mifologik obraz ma’lum bir xalqning madaniy xotirasiga tegishli bo‘lsa-da, uning asosidagi g‘oyalar ko‘pincha universal xarakterga ega. Ezgulik va yovuzlik, hayot va o‘lim, muhabbat va ayriliq, inson va tabiat, qo‘rquv va jasorat kabi muammolar barcha xalqlar adabiyotida uchraydi. Shuning uchun milliy mifologik obraz zamonaviy badiiy matnda umuminsoniy mazmunni ifodalash vositasiga aylanishi mumkin. Bu jihat o‘zbek adabiyotining jahon adabiy jarayoni bilan aloqalarini kuchaytirish uchun ham muhimdir. Milliy mifologik obraz jahon o‘quvchisiga xalqning madaniy dunyosini tanituvchi badiiy kod vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy o‘zbek adabiyotida mifologik obrazlarning yangicha talqini quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi: Birinchidan, mifologik obrazlar an’anaviy mazmundan butunlay uzilmaydi, balki mavjud semantik qatlamlar asosida yangi ma’no hosil qiladi. Ikkinchidan, mifologik obrazning fantastik xususiyatidan ko‘ra uning ramziy va psixologik imkoniyatlari kuchayadi. Uchinchidan, mifologik obrazlar zamonaviy insonning ichki ziddiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi. To‘rtinchidan, mifologik obraz milliy tarixiy xotira va identitetni anglash vositasiga aylanadi. Beshinchidan, mifologik obrazlar zamonaviy ijtimoiy muammolarni ramziy shaklda ifodalash imkonini beradi. Oltinchidan, mifologik obrazlar intertekstual aloqalarni kuchaytirib, badiiy matnning semantik ko‘lamini kengaytiradi. Yettinchidan, an’anaviy obrazlar ba’zan ironik, parodik yoki dekonstruktiv usulda qayta talqin qilinadi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida mifologik obrazlarning qo‘llanishi milliy badiiy tafakkurning qadimiy qatlamlari bilan zamonaviy estetik qarashlarning uzviy

aloqasini namoyon etadi. Mifologik obrazlar bugungi adabiyotda faqat folkloriy merosning takrori sifatida emas, balki yangi mazmun yaratishga xizmat qiluvchi faol poetik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tahlillar asosida aytish mumkinki, zamonaviy ijodkor mifologik obrazni tayyor shaklda qabul qilmaydi. Uni zamonaviy insonning ruhiyati, ijtimoiy muhit, tarixiy xotira va falsafiy qarashlar bilan bog‘lab, yangi semantik maydonga olib kiradi. Natijada mifologik obrazning dastlabki ma’nosi saqlangan holda uning badiiy funksiyasi va mazmun doirasi kengayadi. Mifologik obrazlarning yangicha talqinida, ayniqsa, semantik, funksional va strukturaviy transformatsiya jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Semantik transformatsiya orqali qadimiy obrazga zamonaviy mazmun yuklanadi; funksional transformatsiya natijasida uning badiiy vazifasi o‘zgaradi; strukturaviy transformatsiya esa mifologik unsurning yangi syujet va kompozitsion tizim tarkibida qayta shakllanishini ta’minlaydi. Shuningdek, mifologik obrazlar zamonaviy adabiyotda inson ruhiyatini ochishning samarali vositasiga aylanmoqda. Semurg‘, ajdar, dev, pari kabi an’anaviy obrazlar tashqi fantastik mavjudot sifatidagi vazifadan tashqari, insonning ichki kuchi, qo‘rquvi, nafs, orzu, ruhiy izlanish va ma’naviy yuksalish kabi tushunchalarni ifodalashi mumkin. Mifologik obrazlarning zamonaviy adabiyotdagi faol qo‘llanilishi milliy identitet va tarixiy xotira masalalari bilan ham uzviy bog‘liq. Globallashuv sharoitida qadimiy mifologik obrazlarning yangi badiiy talqini milliy madaniy kodlarni saqlash va ularni zamonaviy tafakkur bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, zamonaviy o‘zbek adabiyotida mifologik obrazlarning yangicha talqini an’ana va yangilik, milliylik va umuminsoniylik, mifologik tafakkur va zamonaviy psixologizm, tarixiy xotira va bugungi ijtimoiy ong o‘rtasidagi ijodiy munosabatlarning mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Mifologik obrazlarning bunday transformatsiyasi zamonaviy o‘zbek adabiyotining estetik imkoniyatlarini kengaytirib, badiiy matnning ko‘p qatlamli semantik tabiatini kuchaytirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari. – Toshkent. 2019.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018.
3. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent. 2018.
4. Imomov K. O‘zbek xalq prozasi. – Toshkent: Fan, 1991.
5. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent. Bookmany Prints, 2022.
6. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991.

GRAMMATIK BILIMLARNING SHAKLLANISHIDA NEYROLINGVISTIK VA KOGNITIV OMILLAR

Shofqorov Abdishukur Musayevich,
f.f.n., O‘zDJTU dotsenti,
ChDPU tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada grammatik bilimlarning shakllanishiga ta’sir etuvchi neyrolingvistik va kognitiv omillar yoritiladi. Til o‘zlashtirishda lingvistik tajriba, takroriylik, kontekst, xotira, diqqat va metalingvistik ongning o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, grammatik bilimlarning shakllanishida tug‘ma lingvistik qobiliyat, nutqiy tajriba, kognitiv jarayonlar va metalingvistik nazoratning o‘rni ochib beriladi. O‘zbek tilini o‘qitishda ushbu nazariy yondashuvlarni uyg‘unlashtirishning grammatik kompetensiyani rivojlantirishdagi metodik imkoniyatlari asoslanadi.

Kalit so‘zlar: neyrolingvistika, grammatik kompetensiya, grammatik bilim, generativ grammatika, universal grammatika, embodiment, metalingvistik ong, kognitiv jarayon.

Annotation. The article examines the neurolinguistic and cognitive factors that influence the formation of grammatical knowledge. It analyzes the role of linguistic experience, repetition, context, memory, attention, and metalinguistic awareness in language acquisition. The article also highlights the role of innate linguistic ability, speech experience, cognitive processes, and metalinguistic monitoring in the formation of grammatical knowledge. The methodological potential of integrating these theoretical approaches into Uzbek language teaching for the development of grammatical competence is substantiated.

Keywords: neurolinguistics, grammatical competence, grammatical knowledge, generative grammar, universal grammar, embodiment, metalinguistic awareness, cognitive processes.

Bugungi kunda ona tili va xorijiy tillarni o‘qitish metodikasida grammatik kompetensiyani shakllantirish masalasiga faqat grammatik qoidalarni o‘zlashtirish nuqtayi nazaridan yondashish yetarli emas. Grammatik bilim insonning nutqiy faoliyati, xotirasi, diqqat jarayonlari, tajribasi va mavjud lingvistik bilimlari bilan uzviy aloqada shakllanadi. Shu sababli grammatik kompetensiyaning tabiatini tushunishda tilshunoslik bilan bir qatorda psixolingvistika, kognitiv fanlar va neyrolingvistika ma’lumotlariga murojaat qilish muhimdir.

Tilning inson tomonidan o‘zlashtirilishi va qayta ishlanishini tushuntirishda psixolingvistika va neyrolingvistika ma’lumotlari muhim ahamiyatga ega. Psixolingvistika nutqiy faoliyatning psixologik va lingvistik mexanizmlarini,

neyrolingvistika esa til faoliyatining miya va neyron tizimlari bilan bog‘liq jihatlarini o‘rganadi. D.Xudoyberganova psixolingvistikani quyidagicha ta’riflaydi: “Psixolingvistika [yun. psuche – qalb + lot. lingua – til; J.Kantor termini] Nutqiy faoliyatni psixologik va lingvistik yondashuvlar uyg‘unligida tadqiq qiluvchi tilshunoslik sohasi. Psixolingvistikaning tadqiq markazida nutqiy faoliyat subyekti bo‘lgan til sohibi – kommunikatsiyaga kirishuvchi shaxs turadi. Nutqni idrok etish, uni rejalashtirish, tildan foydalanish, bolaning rivojlanish davrida tilni o‘zlashtirish mexanizmlari, bundagi patologik jarayonlar, tilni o‘zlashtirishning yosh bilan uzviy jihatlari psixolingvistikaning asosiy masalalari hisoblanadi. Amaliy psixolingvistika, ontolingvistika, ijtimoiy psixolingvistika, patopsixolingvistika, etnopsixolingvistika kabi yo‘nalishlari bor. [2; 71–72-b.] Bu jihatlar grammatik bilimlarning shakllanishini faqat lingvistik qoidalarni egallash jarayoni sifatida emas, balki idrok, xotira, rejalashtirish va nutqiy faoliyat bilan bog‘liq psixokognitiv jarayon sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Grammatik bilimning shakllanishi bir tomondan tilning strukturaviy xususiyatlarini o‘zlashtirishni, ikkinchi tomondan esa ushbu bilimlarni real nutq jarayonida tez va moslashuvchan tarzda qo‘llashni nazarda tutadi. Demak, grammatik kompetensiya grammatik qoidalarni o‘zlashtirish bilangina cheklanmaydi. U bilimni amaliy nutq faoliyatida qo‘llay olish, xatoni sezish, grammatik shakl va ma’no o‘rtasidagi munosabatni anglash hamda nutq jarayonida tegishli birlikni tanlash qobiliyatlarini ham qamrab oladi. Maqolada “grammatik bilim”, “grammatik ko‘nikma” va “grammatik kompetensiya” tushunchalari o‘zaro bog‘liq, biroq mazmunan farqlanuvchi kategoriyalar sifatida qo‘llanadi. Grammatik bilim – grammatik birliklar, kategoriyalar va qoidalar haqidagi bilimni anglatadi. Grammatik ko‘nikma – bilimni nutq faoliyatida avtomatlashtirilgan yoki nisbatan avtomatlashgan tarzda qo‘llash qobiliyatidir. Grammatik kompetensiya esa grammatik bilim va ko‘nikmalarni muayyan kommunikativ vaziyatda to‘g‘ri va maqsadga muvofiq qo‘llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Bunday farqlash keyingi tahlilda grammatik bilimlarning shakllanishi va grammatik kompetensiyaning rivojlanishini o‘zaro farqlab ko‘rsatishni ta’minlaydi.

Shu nuqtayi nazardan grammatik bilimlarning shakllanishini tushuntirishda biologik omillar, lingvistik tajriba, statistik o‘rganish, xotira va metalingvistik nazoratning o‘zaro munosabatini hisobga olish lozim.

Kognitiv tilshunoslik til hodisalarini insonning bilish faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganadi. D.Xudoyberganova “Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da kognitiv grammatikani quyidagicha izohlaydi. “Kognitiv grammatika tillarni tavsiflashda lisoniy hodisalarning kognitiv jihatlari (idrok, xotira,

fikrlash, diqqat va b.) ni tadqiq etishga yo‘naltirilgan grammatik konsepsiyalar va grammatik modellar.” [2; 35-b.]

Sh.Safarov ta’kidlaganidek, kognitiv yondashuv doirasida tilshunoslik “idrok etish, bilish, tushunish, tahlil qilish faoliyatlariga oid tushuncha va kategoriyalar bilan kengaydi” [1; 7-b.]. Bunday qarash grammatik bilimlarni ham faqat grammatik qoidalar majmui sifatida emas, balki insonning idrok, xotira, diqqat, umumlashtirish va tahlil qilish kabi kognitiv jarayonlari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. “Grammatik birliklarning mazmuniy asosi qandaydir tashqi hodisalar, xususiyatlardan tashkil topmasdan, balki insonning tashqi Dunyo bilan munosabati zaminida yuzaga keladigan kognitiv jarayon, holatlarning aks topishidan iboratdir.” [1; 84-b.]

Til o‘zlashtirishning biologik asoslarini izohlashda Noam Chomskiyning generativ grammatika va universal grammatika konsepsiyasi alohida o‘rin tutadi. Chomskiy insonda tilni o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi tug‘ma lingvistik imkoniyat mavjudligini va til qobiliyatining muayyan jihatlari insonning biologik tabiatiga xos ekanini ta’kidlaydi. Klassik generativ yondashuvda til qobiliyati universal grammatika tamoyillari bilan bog‘lanadi [5]. Bu yondashuv til o‘zlashtirishni faqat tashqi ta’sir, taqlid va ijtimoiy tajriba bilan izohlash yetarli emasligini, insonning biologik va kognitiv imkoniyatlari ham ahamiyatli ekanini ta’kidlaydi.

Steven Pinker o‘zining *“Til instinkti”* (“The Language Instinct”) asarida tilning biologik asoslari haqidagi qarashlarni rivojlantirib, til instinkt, ya’ni inson evolyutsiyasi davomida shakllangan biologik moslashuv mahsuli ekanini keng asoslab bergan [3]. Pinkerning qarashlarida bolalarning grammatik qonuniyatlarni egallashi, yangi gaplarni mustaqil tuzishi va til birliklaridan ijodiy foydalanishi insonning rivojlangan lingvistik-kognitiv imkoniyatlari bilan bog‘lanadi. Ushbu yondashuv grammatika o‘qitishda o‘quvchining tabiiy til qobiliyatini hisobga olish, mazmunli nutqiy materialdan foydalanish va mustaqil til faoliyatini rag‘batlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Generativ grammatika nazariyasiga muqobil yondashuv sifatida M.Tomasellaning foydalanishga asoslangan til nazariyasi shakllandi. Tomasello tilning o‘zlashtirilishida ijtimoiy muloqot, kognitiv jarayonlar va real nutq tajribasining muhimligini ta’kidlaydi [4].

Ushbu yondashuvga ko‘ra, bolalar grammatikani tayyor qoidalar tizimi sifatida emas, balki konkret nutqiy vaziyatlarda qo‘llanadigan konstruksiyalarni kuzatish, takrorlash, umumlashtirish va asta-sekin abstraksiyalash orqali egallaydilar. Shuning uchun grammatik kompetensiyani rivojlantirishda kontekst, takroriylik, nutqiy tajriba va kommunikativ vaziyat muhim didaktik omillar hisoblanadi.

Chomskiy va Tomasello yondashuvlari tilning o‘zlashtirilish mexanizmlarini turlicha izohlaydi. Biroq ularni ta’lim metodikasida mutlaqo bir-birini inkor etuvchi qarashlar sifatida emas, balki til qobiliyatining turli jihatlarini yorituvchi nazariy asoslar sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

Ushbu nazariy yondashuvlarning lingvodidaktik jihatlarini hisobga olgan holda, ularning har biri muayyan didaktik tavsiyalarni keltirib chiqaradi. Generativ yondashuv tilning umumiy strukturaviy tamoyillarini ongli ravishda tahlil qilish va metalingvistik bilimlarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Foydalanishga asoslangan yondashuv esa lingvistik ekspozitsiya hajmi, takroriylik va kontekstuallik tamoyillariga urg‘u beradi. O‘zbek tili grammatikasini o‘qitishda ushbu yondashuvlarning imkoniyatlarini o‘quvchilarning yoshi, kognitiv rivojlanish darajasi va lingvistik tayyorgarligiga moslashtirib qo‘llash maqsadga muvofiq.

Kognitiv fanlarda shakllangan embodiment yondashuviga ko‘ra, tilni anglash faqat abstrakt belgilarni qayta ishlash bilan cheklanmaydi. Ayrim so‘z va konstruksiyalarning ma’nosini shakllantirishda idrok, harakat va boshqa jarayonlar ham ishtirok etishi mumkin. Masalan, harakatni ifodalovchi fe’llarni qayta ishlash jarayonida harakat bilan bog‘liq tizimlarning faollashuvi kuzatilishi mumkin. Bu esa grammatik birliklarni o‘qitishda real vaziyat, predmetli harakat, vizual material va multisensor faoliyatdan foydalanish o‘quv materialini turli kognitiv kanallar orqali qayta ishlash imkoniyatini kengaytiradi.

Grammatik kompetensiyani shakllantirishda metalingvistik ong tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Metalingvistik ong – tilni faqat muloqot vositasi sifatida emas, balki kuzatish, tahlil qilish va ongli ravishda boshqarish mumkin bo‘lgan tizim sifatida idrok etish qobiliyatidir. Uning rivojlanishi o‘quvchida grammatik kategoriyalarni taqqoslash, grammatik shakllarning vazifasini aniqlash, nutqiy xatolarni anglash va o‘z nutqini nazorat qilish qobiliyatini shakllantiradi. Grammatik kompetensiyani rivojlantirishda grammatik qoidani yodlatish bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchini til hodisasini kuzatish, farqlash, tasniflash, umumlashtirish va o‘z nutqida qo‘llashga yo‘naltirish lozim.

Metalingvistik faoliyat yuqori darajadagi kognitiv nazorat, diqqatni boshqarish va monitoring jarayonlari bilan bog‘liq. “Bu yondashuv grammatik shaklni inson bilish faoliyati ma’lum bosqichlarining mahsuli sifatida talqin qilish imkonini beradi.” [1; 84-b.] Grammatik faoliyatni faqat alohida “miya markazlari” faoliyati bilan izohlash ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas, chunki til va metalingvistik jarayonlar o‘zaro bog‘langan neyron tarmoqlar faoliyatiga tayanadi. Bu holat grammatikani o‘qitishda yoshga xos kognitiv imkoniyatlar, diqqat, ishchi xotira, lingvistik tajriba va metalingvistik tayyorgarlikni hisobga olish kerakligini ko‘rsatadi.

Grammatik kompetensiyani shakllantirish jarayonini neyrolingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish grammatika ta’limida yangicha metodik yondashuvlarni qo‘llash uchun asos yaratadi. Bunday yondashuvga ko‘ra, grammatik bilim faqat qoidalarni yodlash natijasida emas, balki anglash, kuzatish, takrorlash, umumlashtirish, kontekstda qo‘llash va kommunikativ faoliyat orqali mustahkamlash jarayonida shakllanadi.

В статье анализируется художественная интерпретация женских образов в узбекской джадидской прозе, их социальное и духовное положение, бесправие, отношение к просвещению и выражение национального духа. Основное внимание уделяется образу Зеби и другим женским персонажам романа Абдулхамида Чулпана «Ночь и день». Через судьбу Зеби раскрываются социальное неравенство, бесправное положение женщин, невежество и влияние покорности на человеческую судьбу. Женские образы романа классифицируются и рассматриваются в сравнительном аспекте. Особое внимание уделяется типологическим и психологическим сходствам между Зеби, Марией, Султанхон, Пошшахон, Хадичахон и другими героинями. Также

исследуется литературное взаимодействие творчества Чулпана с произведениями Льва Толстого, Даниэля Дефо, Самуэля Ричардсона и Джейн Остин. На основе анализа предлагается обобщённая классификация женских образов узбекской джадидской прозы: женщины-жертвы, просвещённые женщины и женщины с ограниченным мировоззрением и эгоистическими чертами.

Ключевые слова: джадидская литература, женский образ, Чулпан, «Ночь и день», Зеби, национальный дух, просвещение, невежество, бесправие, женская психология, литературное влияние, типологическое сходство.

Abstract

This article examines the artistic representation of women in Uzbek Jadid prose, focusing on their social and spiritual status, lack of rights, access to education, and the expression of national identity. Particular attention is paid to Zebi and other female characters in Abdulhamid Cholpon's novel *Night and Day*. Through Zebi's tragic fate, the article reveals social inequality, women's lack of freedom, ignorance, and the destructive consequences of social submission. The female characters of the novel are classified and comparatively analyzed, with particular attention to Zebi, Maria, Sultankhon, Posshakhon, and Hadichakhon. The study also explores the literary and typological connections between Cholpon's works and those of Leo Tolstoy, Daniel Defoe, Samuel Richardson, and Jane Austen. The analysis demonstrates that female characters in Uzbek Jadid prose can generally be divided into three groups: oppressed women, enlightened women, and women characterized by limited worldviews and selfishness.

Keywords: Jadid literature, female characters, Cholpon, *Night and Day*, Zebi, national identity, enlightenment, ignorance, lack of freedom, female psychology, literary influence, typological similarity.

Кириш

XX аср бошлари Туркистон ижтимоий-маънавий ҳаётида миллий уйғониш, ўзликни англаш, илм-маърифатга интилиш ва жамиятни янгилаш ғоялари кучайган давр сифатида алоҳида аҳамиятга эга. Бу жараёнда жадид зиёлилари халқни илм-фанга чорлаш, миллий онгни уйғотиш, ижтимоий адолатсизлик ва жаҳолатга қарши курашиш билан бир қаторда хотин-қизларнинг жамиятдаги ўрни масаласига ҳам жиддий эътибор қаратдилар. Зеро, миллатнинг тараққиётини хотин-қизларнинг илмсизлиги, ҳуқуқсизлиги ва ижтимоий фаолликдан четлатилиши билан уйғун ҳолда тасаввур этиб бўлмас эди.

Жадид адабиётида хотин-қизлар тақдири оддий маиший мавзу сифатида эмас, балки миллат ва жамият тақдири билан боғлиқ ижтимоий-маънавий

муаммо сифатида талқин қилинди. Абдулҳамид Чўлпон ижодида ҳам мазкур масала муҳим ўрин эгаллайди. Адибнинг “Кеча ва кундуз” романида яратилган Зеби образи бу жиҳатдан айниқса характерлидир. Зеби бир томондан ўзбек аёлининг гўзаллиги, ҳаёси, поклиги, самимияти ва вафодорлигини мужассам этса, иккинчи томондан ўша давр хотин-қизларининг ҳуқуқсизлиги, жамиятдаги мутелиги ва ўз тақдирини мустақил белгилай олмаслигининг рамзий ифодасига айланади.

Чўлпон насрининг бадиий тузилиши, услуби ва поэтик хусусиятлари Д. Қуроновнинг “Чўлпон насри поэтикаси” монографиясида махсус тадқиқ этилган. Муаллифнинг мазкур тадқиқоти 2004 йилда “Шарқ” нашриётида чоп этилган. [2] Чўлпон насрида образ, мотив, психологизм ва бадиий деталнинг ўзаро муносабати хотин-қизлар тақдирини очишда ҳам муҳим восита вазифасини бажаради.

Асосий қисм

Мустаъмлака халқнинг зулмини ич-ичидан ҳис қилган Чўлпон вақт келиб Марям Султонмуродова каби миллатимизнинг зиёли қизлари худди Зеби каби таъқиб ва сургунларга учрашини сезгандек, ўз асаридаги қаҳрамон ва унинг фожиали тақдири орқали бутун бир даврнинг ижтимоий ҳақиқатини акс эттирган.

Биргина Зеби тимсолида ўша давр аёлларининг машъум тақдири, ўзгалар томонидан бўғилаётган келажаги, топталаётган шаъни ва ғурури, кўраётган жабр-ситамлари тасвирланган. Аёл кишининг таълим олиши ўша даврда кўп ҳолларда шунчаки хаёл, орзу эди. Уларни жаҳолатга етаклаётган, кўзларини эски қарашлар ва ижтимоий тўсиқлар пардаси қоплаган жамиятга жадид адабиёти ўзига хос ойна тутди. Муаллифнинг асосий мақсади мавжуд тузумнинг инсон тақдирига салбий таъсирини очиб бериш, унинг илдизларини кўрсатиш ва маърифат орқали жамиятни ўзгартириш заруратини англатиш эди.

Зеби фақат аёллик латофати ва олижаноб инсонй фазилатлари билан эмас, айни пайтда хуш овози билан ҳам barchaning эътиборини тортади. Аммо ижтимоий тенгсизлик ҳукмрон бўлган ва аёллар қадр-қиммати поймол қилинган жамиятда Зебининг орзу-ҳаваслари янчилади. Чўлпон Зеби ва унга ўхшаган жабрланган аёлларнинг озод бўлишини, ўз тақдирини ўзи ҳал қилишини, ҳур-эркин, илм-маърифатли бўлишини истайди.

Зеби ҳаётида **йўл мотиви** ҳамма нарсани ўзгартириб юборади. Бу оддий ҳаракат макони эмас, балки **тақдир йўли**дир. Айнан ана шу йўлда у илк бор Ўлмасни севиб қолди, шу йўлда у охирги бор тенгдош дугоналари билан ўйнаб-яйраб қолди, шу йўл унинг фожиали қисматига замин яратди ва ниҳоят, уни Сибирга сургун қилди. Йўлнинг тақдирий маъно касб этиши Чўлпон

поэтикасида муҳим бадиий хусусиятлардан бири сифатида намоён бўлади. Бу мотивнинг адиб насри ва шеъриятидаги ўрни проф. Д. Қуронов ва Н. Йўлдошев тадқиқотларида атрофлича таҳлил қилинган. [1]

Зебидаги соддалик, тобелик ва катта инқилоб қила олмаслик бутун халққа хос иллатлардан бири сифатида талқин қилинади. Чўлпон асарда халқнинг миллий руҳиятидан келиб чиқиб, типик воқеликни бадиийлаштиради. Бу ҳодиса, айниқса, хотин устига хотин олиш воқеаси орқали тасвирланади. Асарда бахтсиз бўлган биргина Зеби эмас, унинг кундошлари ҳам бахтсиз. Улар ўз қавмлари — аёл зотини ўзлари хорлайдилар. Бир-бирларига аёл сифатида эмас, кундошлар сифатида қарайдилар. Айнан мана шу ҳолат уларнинг умумий бахтсизлиги нишонасидир.

Улардаги бахтга зорликнинг асосий сабаби аёл қадр-қимматининг эътибордан четда қолишидир. Аёлга қарата “*Сен ҳам бахтлимисан?*” деган саволнинг бирор марта берилмаслиги унинг шахс сифатида тан олинмаганини англатади. Замона илм-фанидан бехабарлик ва жаҳолат ортидан кўр-кўрона эргашиш эса бу ҳолатни янада мустаҳкамлайди. Хотин устига хотин олаверган Акбаралида “мен нима қиляпман-у, нима қилишим керак?” деган ўйнинг ўзи йўқ эди.

Жадид адабиётида аёллар тимсоли шу сабабли реалистик ва ижтимоий мазмундор тарзда тасвирланган. Бунда ўша давр тузуми қаттиқ қораланиб, хотин-қизларни илм-маърифатга, жаҳолат ботқоғидан чиқишга даъват этилади. “Кеча ва кундуз” романидаги хотин-қизлар образларини бир неча жиҳатдан таснифлаш мумкин. Аввало, ўзбек аёллари ва рус аёли; иккинчидан, оналар ва қизлар; учинчидан, рафиқалар ва кундошлар образлари. Булар орасида аёллигини ҳам, инсонлигини ҳам унутганлар сифатида кундошлар алоҳида ажралиб туради.

Мария ҳақида сўз юритганда, у маҳаллий хотин-қизлардан ҳар томонлама фарқ қилишини кўриш мумкин. Унинг ишловотхонага тушиб қолишига етимлиги сабаб бўлган бўлса, у ердан тез фурсатда чиқиб кетишига унинг пок ва бегуборлиги, дилбар ва гўзаллиги сабаб бўлиб, Мирёқубни мафтун қилган эди. Мариядаги табиийлик, бегуборлик ва самимийлик Зебининг характери билан ўхшаш. Иккиси ҳам покдомон аёллар. Бу қаҳрамонларда психологик ва типологик ўхшашлик мавжуд.

Бироқ уларнинг ўртасидаги асосий фарқ илм-маърифат ва дунёқарашда кўринади. Мария саводли, эркин фикрлайди, ҳис-туйғуларини очиқ ифода этади. Зебига эса шарқона ибо, ҳаё ва мутелик хос. Демак, Чўлпон Мария орқали аёлнинг бошқа бир — маърифатли ва нисбатан эркин типини ҳам кўрсатади.

Бошқа хотин-қизлар образларининг деярли барчаси ботқоққа ботиб, ундан чиқа олмаётган, дардини ҳеч кимга айта олмаётган, меҳр, эътибор, эрк ва озодликка зор аёллар сиймосининг турли кўринишларидир. Улар орасида аёллик бахтидан масрур бўлган бирорта образ борми, деган саволга “йўқ” деб жавоб бериш мумкин. Биргина Зеби эмас, Султонхон, Пошшахон, Ҳадичахон ҳам бахтли бўлишга ҳақли эди. Лекин қай бири ҳақиқий бахтга эришди? Зебининг онаси ёки Мирёқубнинг хотини ҳақида ўйлаганда ҳам, уларнинг айби садоқати ва вафосидами, деган савол туғилади. Улар покиза муҳаббати эвазига зулм ва хиёнат билан тақдирландилар.

Чўлпон аёллар образини худди Қодирий каби ипидан-игнасигача, нафосатидан разолатигача, соддалигидан маккорлигигача, вафодорлигидан хиёнаткорлигигача, илмлисидан жоҳилигача — барча қирралари билан турли қаҳрамонлар тимсолида очиб берган. Бир хил ижтимоий муҳит етиштирган хотин-қизлардаги умумийлик шунда эдики, уларнинг гўзали ҳам, энг беўхшови ҳам, сипоси ва шер каби юлғичи ҳам, тарбия кўрган зиёлиси ва содда кўнгиллиси ҳам эркакларга бирдек қарам ва муте эди. Улар на ўз эркига, на ҳуқуқига, на ўз тақдирига эга эдилар. Она, рафиқа, қиз фарзанд – барчаси бир хил мақомда турган аёллар эди. Уларнинг тили, ҳаёти, тақдири, ҳис-туйғулари, орзу-армонлари кўпинча эр ёки отанинг ихтиёрида қоларди.

“Кеча ва кундуз” романидаги аёлларни шартли равишда уч гуруҳга ажратиш мумкин: биринчи – **эрксизлиги боис инсонлигини йўқотган аёллар** (Ҳадичахон, Пошшахон, Султонхон); иккинчи – **эрксиз бўлса-да, қалбида зиёси бор аёллар** (Зеби, Салтанатхон, Энахон, Қумри, Фазилат, Баҳри, Қурвонбиби, Умриниса биби, Энахоннинг онаси, Энахоннинг келинбибиси, Мирёқубнинг хотини, Холматнинг хотини); учинчи – **маърифатли ва эркин аёл** (Мария).

Чўлпон ижодида хорижий адабиёт таъсири ҳам мазкур образларнинг бадиий талқинини тушунишда муҳим аҳамиятга эга. Адабиётшунос Эрик Каримов Чўлпон ижодига рус – Лев Толстой, инглиз – Валтер Скотт, француз – Виктор Гюго, араб – Жўржи Зайдон адабиётларининг таъсири ҳақида ёзган. [2] Чўлпон Зебини тасвирлашда Толстой Наташа Ростовани тасвирлагандек нозик ва назокатли ёндашади.

Зеби билан содир бўлган фожиа уни судланувчилар курсисигача олиб келади. Суд жараёнида ёзувчи Зеби устидан ўзининг ҳис-туйғуларини борича тўкиб солади ва ёш қизнинг соддалиги, ҳимоясизлигини қонун хизматчиларининг айёрлиги ва хиёнати билан қарама-қарши қўяди. Толстойнинг “Тирилиш” романи қаҳрамони Екатерина билан “Кеча ва кундуз”даги Зеби ўртасидаги ўхшашлик ҳам суд мажлиси мисолида яққол

намоён бўлади. Д. Қуронов бу икки асарни қиёслар экан, ҳар икки романда суд ҳужжатларининг батафсил тавсифи, икки қаҳрамоннинг ўзлари билмайдиган айб – одамни заҳарлаб ўлдирганликда айбланиши, Сибирга сургун қилиниши, гувоҳларнинг фақат айбланувчиларга қарши гувоҳлик бериши ва икки прокурорнинг ҳам айбланувчиларни жамият учун хавфли деб аташи каби ўхшашликларга эътибор қаратади. **[3]**

Чўлпон “Кеча ва кундуз” романига Европа аёли образини ҳам бежиз киритмаган. У Европа аёлида кўплаб ижобий жиҳатларни кўрган. Бироқ Европа ва рус аёлларининг тақдири ҳақиқатан ҳам ҳавас қиларли аҳволда эдими, деган савол туғилади. Хотин-қизлар образидаги миллий руҳ масаласини тадқиқ этар эканмиз, жадид ижодкорларининг бошқа миллат адиблари билан ўзаро адабий таъсирини ҳам назардан четда қолдириб бўлмайди.

Жадид зиёлилари хотин-қизлар маърифати ҳақида қанчалар куюнчаклик билан мурожаат қилган бўлсалар, инглиз маърифатпарвар адиби Даниэл Дефо ҳам бу масалага жиддий ёндашган. Унинг *An Essay upon Projects* асарида хотин-қизларга таълим бериш ғояси алоҳида ўрин тутади. Асарнинг “Academy for Women” қисмида аёлларга таълим беришдан маҳрум қилишни жамиятдаги “энг варварона одатлар”дан бири сифатида баҳолайди ва аёллар учун таълим муассасаси ташкил этишни таклиф қилади. Дефонинг асари 1697 йилда нашр этилган. [4]

Дефо фикрича, яхши тарбия ва таълим олган аёлнинг табиий қобилияти намоён бўлади. Шу маънода унинг “*Яхши тарбия кўрган ва маърифатли аёл беқиёс мавжудотдир... Маърифатли аёл севги, ақл ва барча эзгу истаклар тимсолидир*” деган фикри хотин-қизлар маърифати масаласининг умуминсоний моҳиятини очиб беради. [4] Дефо аёлларга таълим беришни уларни эркакларга қарши қўйиш сифатида эмас, балки уларни муносиб ҳамроҳ ва мустақил фикрловчи инсон сифатида тарбиялаш зарурати сифатида талқин қилади.

Демак, хоҳ Европа аёли бўлсин, хоҳ Туркистон аёли – ҳар иккиси ҳам маърифат либосига муҳтож эди. Европа аёлларининг азоб-уқубатлари, уларнинг синфий табақаланиши ва жамиятдаги ижтимоий тенгсизлик каби масалалар ўша давр адабиётида ҳам ўз аксини топган. Аёллар оламини, уларнинг руҳий кечинмаларини ёритиш миллий уйғониш даври адабиётининг маърифатпарвар вакиллари Даниэл Дефо, Самуэл Ричардсон, Генри Филдинг асарларида ҳам намоён бўлади. Илк миллий уйғониш даври вакили Д.Дефонинг “An Essay upon Projects” асарида хотин-қизларни маърифатли қилиш ғоялари илгари сурилган. [5]

Самуэл Ричардсон ва Чўлпон ижодидаги аёллар – Памела ва Зеби образларини қиёсий тадқиқ қилган С. Усмонованинг хулосаси ҳам

ижодкорларнинг ўзаро адабий таъсири ва илҳомланиши ҳақидаги фикримизни тасдиқлайди: “*Зебидаги ҳаё, иффат, ор-номус, ота-онага итоаткорлик Памелада ҳам намоён бўлади*”. [6] Бу қиёс икки қаҳрамоннинг миллий муҳити турлича бўлса-да, уларни бирлаштирувчи ахлоқий-психологик хусусиятлар борлигини кўрсатади.

Кумуш, Раъно, Зеби каби қаҳрамонларни бирлаштириб турувчи яна бир муҳим жиҳат – уларнинг пок ва бегубор муҳаббатидир. Шу ўринда уларнинг ота-оналарини ҳам айрим хусусиятлар бирлаштиришини кўриш мумкин. Буни XVIII аср охири ва XIX аср бошларида яшаб ижод этган инглиз адибаси Жейн Остиннинг “Андеша ва ғурур” асари қаҳрамонлари билан қиёслаш мумкин.

Асар қаҳрамони Элизабет Беннет беш нафар қиз фарзанддан бири бўлиб, у чин муҳаббатни кутиб яшайди. Аммо унинг онаси миссис Беннетнинг хаёлида кеча-ю кундуз битта ташвиш – қизларини қандай бўлмасин муносиб ва бой куёвларга узатиш. Кунлардан бир куни улар яшайдиган шаҳарчага мистер Бингли исмли бадавлат киши кўчиб келгани ҳақида хабар топгач, Беннет хоним турмуш ўртоғига шундай дейди: “*Бўйдоқ, азизим, ҳамма гап шунда-да, бўйдоқ! Йилига тўрт ёки беш минг даромад топадиган бўйдоқ! Бизнинг қизларимиз учун жуда қулай имконият-а?*” [7]

Кўриб турганимиздек, миссис Беннет, кўпчилик қатори, жумладан, бизнинг Раззоқ сўфи ёки Солиҳ махдум сингари, бой куёв ва фойдали никоҳни орзу қилади. Аммо “Кеча ва кундуз” ёки “Меҳробдан чаён”да, аксинча, оналарнинг эмас, оталарнинг “орзуси” шундай эди. Ачинарлиси, ҳисоб-китоб билан қуриладиган никоҳлар Европа ва Шарқ жамиятларида турли кўринишларда мавжуд бўлган.

Энг муҳими, Кумуш, Раъно ва Зеби бундай ҳисоб-китобли никоҳни истамаганлар. Уларнинг оналари – Офтоб ойим, Нигорхоним ва Қурвонбиби ҳам бой куёвга қиз узатишни ўйлаш тугул, бунга мутлақо қарши бўлганлар. Мол-давлатдан кўра фарзанд бахтини устун қўйган ўзбек онасининг мақоми бир поғона баланд туриши ана шу жиҳатдан муҳим. Миссис Беннетнинг қизи Элизабет ҳам табиатан онасига зид: у ўз қадр-қимматини ҳеч қачон пулга сотмайди. Унинг учун оила қуришда энг аввало меҳр-муҳаббат зарур. Раъно учун ҳам хоннинг бойлиги заррача қийматга эга эмас, чунки унинг суюклиси – қалби гўзал, дунёқараши кенг ва истеъдодли Анвардир.

Жадид ижодкорлари яратган аёллардаги миллий ўзига хослик бошқа миллатларнинг аёллари билан ўзаро қиёсда янада очиқ кўринади. Лев Толстойнинг “Анна Каренина” асари бош қаҳрамони тақдирининг фожиали тугаши ҳам бежиз эмас. У ҳаётини меҳр-муҳаббат билан эмас, мажбурият билан бошлаган эди. Холасининг сиқуви билан ўзидан 20 ёш катта бўлган эркакка

турмушга чиққан, севги-муҳаббат туйғусидан мутлақо бехабар Анна Вронскийни учратгунига қадар шу тарзда яшайди. Вронский билан учрашганидан сўнг у ўзини илк бор севиб-севилиб яшаётган бахтли аёл сифатида ҳис қила бошлайди.

XIX асрга келиб Европа бўйлаб эмансипация, никоҳда хотин-қизларнинг тенг ҳуқуқлилиги каби масалалар юзасидан баҳслар кучайган бир пайтда Толстой аёл ва эркакнинг на муҳаббатда, на оилада ҳаётнинг асл мазмунини тўлиқ топа олмаган қаҳрамонларини яратди. Ўз оиласидан бахт топа олмаган Пошшахон ва Султонхон ҳам мафтуна орттириш орқали бахтли бўла олмадилар.

Шу ўринда Лев Толстойга синглиси томонидан ёзилган хатни келтириш ўринли: “*Ё Тангрим, қани эди ҳамма Анна Карениналар ўзини нималар кутаётганини билсалар эди, улар сониялик лаззат завқидан воз кечган бўлар эдилар, чунки қонуний бўлмаган ҳеч нарса на бахт, на лаззат келтира олади. Биз ўзимизни-ўзимиз ‘мен бахтлиман, мен севаман, мен севиляпман’, деб алдаймиз, холос*”. [8]

Толстойнинг Анна Каренинасини ҳам, Ҳамзанинг Марями ёки Жамиласини ҳам фожиага олиб келган сабаблардан бири – муҳаббат ва ижтимоий муҳит ўртасидаги зиддиятдир. Бу жиҳат турли миллат адабиётидаги аёл образларини умуминсоний нуқтаи назардан қиёслаш имконини беради.

Юқоридаги таҳлил натижаларидан келиб чиқиб, ўзбек жадид насри – ҳикоя ва романларда яратилган хотин-қизлар образини умумий тарзда уч гуруҳга бўлиш мумкин: **биринчи** – **мазлума аёллар образи** (Чўлпоннинг “Кеча ва кундуз” романи ва барча ҳикояларидаги айрим аёллар); **иккинчи** – **маърифатли аёллар образи** (Қодирий яратган айрим аёл образлари ва Ҳамзанинг “Янги саодат” асаридаги Марям, “Учрашув”идаги Ширин); **учинчи** – **дунёқараши тор ва худбин аёллар образи** (Қодирийнинг Зайнаб ва Хушрўйбибиси, Чўлпоннинг Пошшахон ва Султонхони, Ҳамзанинг Сораси).

Бу таснифдан кўринадики, жадид адиблари аёлларни бир хил қолипда тасвирламаганлар. Аксинча, улар хотин-қизларнинг маънавий, психологик ва ижтимоий қиёфасини турли образлар орқали очганлар. Бироқ уларни бирлаштириб турувчи энг муҳим жиҳат – жамиятнинг инсон тақдирига, айниқса аёл тақдирига таъсиридир.

Хулоса

Ўзбек жадид насрида хотин-қизлар образи миллий уйғониш ва маърифатпарварлик ғояларининг муҳим бадиий ифодаларидан биридир. Жадид адиблари аёл тақдирини оддий оилавий-маиший муаммо сифатида эмас, балки

жамият тараққиёти, миллатнинг маънавий ҳолати, инсон ҳуқуқи ва ижтимоий адолат масалалари билан узвий боғлиқ ҳолда талқин қилдилар.

Чўлпоннинг “Кеча ва кундуз” романидаги Зеби образи бу борада энг ёрқин мисоллардан биридир. Зебининг соддалиги, ҳаёси, иффати, поклиги ва вафодорлиги унинг ожизлиги эмас, маънавий фазилатларидир. Бироқ жаҳолат, ижтимоий тенгсизлик ва аёлни мустақил шахс сифатида тан олмайдиган муҳит унинг бу фазилатларини ҳимоя қила олмайди. Шу боис Зебининг шахсий фожиаси бутун бир даврнинг ижтимоий фожиаси даражасига кўтарилади.

Романдаги Мария, Пошшахон, Султонхон, Ҳадичахон, Зеби ва бошқа образлар орқали аёл психологиясининг турли қирралари очилади. Айрим аёллар эрксизлик туфайли инсонлигини йўқотса, айримлари қалбидаги маънавий зиёни сақлаб қолади. Мария эса маърифат ва эркин фикрлаш имкониятига эга аёлнинг бошқа типини намоён этади.

Чўлпоннинг Толстой, Дефо, Ричардсон, Остин каби хорижий ижодкорлар билан адабий муштараклиги эса ўзбек жадид адабиётининг жаҳон адабий жараёнидан узилмаганини кўрсатади. Зеби, Памела, Элизабет Беннет, Анна Каренина каби образлар турли миллий ва тарихий муҳитларда яратилган бўлсада, уларни бирлаштириб турувчи умуминсоний муаммо – аёлнинг севиш ва севилиш, таълим олиш, қадрланиш ҳамда ўз тақдирини ўзи белгилаш ҳуқуқидир.

Шу маънода, жадид адабиётида хотин-қизлар образини ўрганиш нафақат адабий образларнинг бадиий хусусиятларини англаш, балки миллий тафаккур, маърифат, ижтимоий адолат ва инсон эркинлиги тарихини тушуниш учун ҳам муҳимдир. Чўлпоннинг Зеби орқали ифода этган бадиий ҳақиқати – жамиятнинг ҳақиқий тараққиёти инсон, хусусан, аёлнинг қадри, ҳуқуқи, билими ва эркинлиги билан бевосита боғлиқ эканини кўрсатади.

Адабиётлар

1. Йўлдошев Н. Чўлпон насри ва шеъриятида йўл мотиви ҳақидаги тадқиқотлар.
2. Каримов Э. XX аср бошида Туркистонда адабий муштараклик // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1994. – № 4–5–6. – Б. 21.
3. Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Т.: Шарқ, 2004. – Б. 234.
4. Defoe D. An Essay upon Projects. – London: Cassell & Company, Limited, 1887. – Электрон нусха: Project Gutenberg.
5. Усманова С. Ўзбек ва инглиз романларида аёл руҳияти тасвири (Абдулҳамид Чўлпон ва Самуэль Ричардсон ижоди мисолида). Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Фарғона, 2021. – Б. 26.

6. Усманова С. Ўша манба. – Б. 42.
7. Остин Ж. Андиша ва ғурур. – Т.: Янги аср авлоди, 2019. – Б. 9.
8. Тришкина Э. Р., Вдовых В. В., Холопова М. И. «Анна Каренина»: нарциссические замки и реальность // Журнал практической психологии и психоанализа. – 2022. – № 1.

“NAHJUL-FARODIS”DA QADIMGI TURKIY VERBAL LEKSIKANING SEMANTIK DAVOMIYLIGI

Dilnoza Akramovna Abduvaliyeva
F.f.f.d. (PhD), dotsent
Jizzax davlat pedagogika universiteti
a.dilnoza1981@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada “Nahjul-farodis”dagi qadimgi turkiy verbal leksikaning semantik davomiyligi tarixiy-qiyosiy va kontekstual-semantik jihatdan tahlil qilinadi. *Ağïrla=, ög=, ögrän=, ögrät=, ögütlä=, kizlä=, künilä=* fe’llarining qadimgi va o‘rta turkiy manbalardagi ma’nolari asardagi qo‘llanishlari bilan qiyoslanadi. Verbal leksikadagi semantik davomiylikning uch ko‘rinishi ajratiladi: semantik yadroning kontekstual voqelanishi, derivatsion-semantik mikrotizimning davomiyligi hamda fonetik variantlanish sharoitidagi semantik barqarorlik. Tahlil qadimgi turkiy fe’llarning XIV asr yodgorligi tilida asosiy ma’nolarini saqlash bilan birga, yangi matniy muhitda funksional faolligini ham davom ettirganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: “Nahjul-farodis”, qadimgi turkiy til, verbal leksika, semantik davomiylik, semantik yadro, leksik vorisiylik, derivatsion-semantik mikrotizim, fonetik variantlanish.

Аннотация. В статье в историко-сопоставительном и контекстуально-семантическом аспектах исследуется семантическая преемственность древнетюркской глагольной лексики в «Нахджул-Фарадис». Значения глаголов *ağïrla=, ög=, ögrän=, ögrät=, ögütlä=, kizlä=, künilä=* в древне- и среднетюркских источниках сопоставляются с их употреблением в тексте памятника. Выделяются три формы семантической преемственности: контекстуальная реализация семантического ядра, сохранение деривационно-семантической микросистемы и семантическая устойчивость при фонетическом варьировании. Анализ показывает, что древнетюркские глаголы в языке памятника XIV века не только сохраняли основные значения, но и продолжали активно функционировать в новой текстовой среде.

Ключевые слова: «Нахджул-Фарадис», древнетюркский язык, глагольная лексика, семантическая преемственность, семантическое ядро, лексическая преемственность, деривационно-семантическая микросистема, фонетическое варьирование.

Abstract. The article examines the semantic continuity of Old Turkic verbal vocabulary in *Nahjul-Faradis* from historical-comparative and contextual-semantic perspectives. The meanings of the verbs *ağïrla=, ög=, ögrän=, ögrät=, ögütlä=,*

kizlä=, and *künilä=* in Old and Middle Turkic sources are compared with their use in the text. Three patterns of semantic continuity are identified: the contextual realization of the semantic core, the continuity of the derivational-semantic microsystem, and semantic stability despite phonetic variation. The analysis demonstrates that Old Turkic verbs in this fourteenth-century text not only retained their core meanings but also continued to function actively in a new textual environment.

Keywords: *Nahjul-Faradis*, Old Turkic, verbal vocabulary, semantic continuity, semantic core, lexical continuity, derivational-semantic microsystem, phonetic variation.

Kirish. Turkiy yozma til tarixida leksik vorisiylik muayyan birlikning turli davr manbalarida mavjudligi bilangina belgilanmaydi; bunda uning semantik yadrosi, birikuvchanligi va funksional mavqeyining keyingi bosqichlardagi holati ham muhim. Ayniqsa, fe'llar tarixiy leksikaning yashovchanligini tilning predikativ imkoniyatlari bilan bog‘liq holda kuzatish imkonini beradi. XIV asr yodgorligi “Nahjul-farodis” [5] bu jihatdan xarakterli: asar lug‘atida arabcha va fors-tojikcha birliklar salmoqli o‘rin tutsa-da, harakat-holat ifodasida turkiy verbal qatlam yetakchi mavqeyini saqlagan. Maqolada NFdagi *ağïrla=, ög=, ögrän=, ögrät=, ögütlä=, kizlä=, künilä=* fe'llari “Devonu lug‘atit turk”, qadimgi turkiy lug‘at va ayrim o‘rta turkiy manbalar bilan tarixiy-qiyosiy hamda kontekstual-semantik aspektda tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor shakliy davomiylikdan ko‘ra semantik yadroning saqlanishi va uning XIV asr matniy muhitida qay tarzda voqelanishiga qaratiladi.

Tarixiy semaning kontekstual imkoniyatlari *ağïrla=* fe'lida yaqqol ko‘rinadi. Qadimgi turkiy *ağïr*ning “qadrli, aziz, hurmatli; qimmatbaho” ma'nosidan shakllangan ushbu fe'l “Devonu lug‘atit turk”da “hurmat qilmoq, marhamat ko‘rsatmoq” mazmunida qayd etilgan [3, 18–19; 6, I, 243]. “Qutadg‘u bilig” hamda “At-tuhfa” materiallari ham uning qadrlash, e'zozlash semasining keyingi davrlarda davom etganini ko‘rsatadi [3, 19; 1, 31a7]. NFda mazkur sema ikki xil kontekstda namoyon bo‘ladi: *Taqï Ja'farni va taqï qatïndaqï yārānlarni ağïrladï, hil'atlar berdi* [5, 79/14]; *Taqï Payğāmbar bizlärni ağïrlar erdi, hurmat qïlur erdi* [5, 110/12]. Birinchi misolda ehtirom *hil'at berish* orqali moddiy vosita bilan ifodalansa, ikkinchisida *hurmat qïl=* bilan mazmunan tutashib, ma'naviy munosabatni anglatadi. Demak, har ikki qo‘llanishda tarixiy “qadrlash” semasi saqlangan, biroq uning matndagi ifodasi kommunikativ vaziyatga ko‘ra farqlangan. Bu esa semantik davomiylikni ma'noning mutlaq o‘zgarmasligi sifatida emas, semantik yadroning turli kontekstlarda o‘ziga xos tarzda reallashuvi sifatida talqin qilishga asos beradi.

Qadimgi verbal qatlamning yashovchanligi bir o‘zak atrofida shakllangan birliklar munosabatida ham kuzatiladi. *Ög=* qadimgi turkiy manbalarda “maqtamoq,

madh etmoq” ma’nosini ifodalagan [6, I, 184; 3, 379]. NFdagi *Murādlari özlärini ögüp onginlarni zam qïlmaq turur* [5, 387/12] jumlasida ham shu sema saqlanib, uning mazmuni qarama-qarshi ma’nodagi *zam qïl=* orqali yanada aniqlashgan. Qadimgi va o‘rta turkiy manbalarda ushbu o‘zak bilan bog‘liq *ögdi, ögdilig* singari nominal hosilalar ham qo‘llangan [2, 147-148]. NFda esa *ög=* fe’lining asosiy semantik vazifasi faol davom etgan.

“Aql, idrok, bilim” tushunchasi bilan bog‘langan *ög* asosli *ögrän=, ögrät=, ögütlä=* fe’llari tarixiy davomiylikning tizimliroq ko‘rinishini namoyon etadi [3, 380–382]. NFda *ögrän=* “bilim olmoq” ma’nosida 16 marta (*Tört miŋ ustāddïn ilm ögrändim* [5, 188/9]), *ögrät=* “bilim, ko‘nikma bermoq” ma’nosida 18 marta (*...bu abushqağa yunmaq ādābini ögrätsälär* [5, 171/14]) qo‘llangan; *ögütlä=* esa “nasihat qilmoq, yo‘l-yo‘riq bermoq” mazmunini ifodalaydi (*...ögütlädi ersä...* [5, 8/12]). “Qutadg‘u bilig”da *ögrän=* va *ögrät=* fe’llarining ayni semantikada qo‘llanishi DTS orqali qayd etilgan [3, 380–382], Mahmud Koshg‘ariyning *ög*ni “aql, ziyraklik” bilan bog‘lashi [6, I, 82] esa bu munosabatning tarixiy asosini ko‘rsatadi. NF materialida uch fe’l “bilimni egallash → uni boshqaga yetkazish → tajriba asosida yo‘l ko‘rsatish” munosabatini hosil qiladi. Shunga ko‘ra, verbal vorisiylik ayrim hollarda alohida leksema doirasidan chiqib, derivatsion-semantik mikrotizim darajasida namoyon bo‘ladi.

Semantik barqarorlik fonetik variantlanish bilan ham birga kechishi mumkin. *Kizlä=* “yashirmoq, bekitmoq” ma’nosida DLTda [6, III, 315], “At-tuhfa”da [1, 14a10] va NFda bir xil semantik yadro bilan qayd etilgan: *Sen bu bitigni kizlägil* [5, 48/8]. Qadimgi *kizläklig* “yashirin, sirli” hosilasi [3, 311] o‘zak semasining tarixiyligini ko‘rsatsa, etimologik manbada *kizlä= // gizlä=* fonetik variantlarining umumturkiy asos sifatida talqin qilinishi [4, 66] mazkur shakliy munosabatning tarixiyligini ko‘rsatadi. *Gizlämak* shaklining Xorazm shevalarida “yashirmoq, bekitmoq” mazmunida saqlanishi esa uning keyingi fonetik variantini aks ettiradi [8, 67].

*Künilä=*da ham shakliy o‘zgarish semantik uzilishga olib kelmagan. Fe’l qadimgi *küni* “hasad, rashk” [3, 327] bilan bog‘liq bo‘lib, NFda *Yā Musā, bu qulum könglindä heč hasadi yoq erdi, künilämäki yoq erdi* [5, 288/13] tarzida qo‘llangan. Bir qurilmada arabcha *hasad* va turkiy *künilämäki*ning parallel kelishi fe’l ma’nosini matnning o‘zi orqali aniqlashtiradi. Uning ayrim o‘zbek shevalaridagi *künlä=* “ko‘rolmaslik, hasad qilmoq” shakli [7, 168] esa *küni → künilä= → künlä=* qatorida semantik yadroning fonetik o‘zgarishlarga nisbatan barqarorligini ko‘rsatadi. Bunday davomiylik NFda alohida hodisa emas. *Ač=* “ochmoq”, *azrïl=* “ayrilmoq”, *yaŋïl=* “yanglishmoq, adashmoq”, *yïzla=* “hidlamoq”, *ïsïr=* “qopmoq, tishlamoq”, *ört=* “bekitmoq, yashirmoq” kabi qator fe’llar ham qadimgi turkiy manbalardagi asosiy

ma’nolarida qo‘llangan. Ularning tarixiy lug‘atlardagi qaydi tegishlicha *ač=* [3, 3], *azrïl=* [6, I, 248], *yaŋïl=* [3, 234], *yïzla=* [6, III, 322], *ïsïr=* [6, I, 88], *ört=* [6, III, 430] bilan dalillanadi. NFdagi qo‘llanishlari esa mos ravishda [5, 18/7], [5, 154/7], [5, 114/2], [5, 336/7], [5, 250/16], [5, 25/2] o‘rinlarida kuzatiladi. Bu material semantik vorisiylikni ayrim leksemalarning tasodifiy saqlanishi emas, NF verbal qatlamining tarixiy xususiyatlaridan biri sifatida baholashga imkon beradi.

Tekshirilgan birliklarni o‘zaro qiyoslash verbal leksikadagi tarixiy davomiylikni faqat xronologik saqlanish bilan tenglashtirish yetarli emasligini ko‘rsatadi. *Ağïrla=* fe’lida qadimgi sema yangi kontekstlarda turlicha konkretlashgan bo‘lsa, *ögrän=, ögrät=, ögütlä=* qatorida vorisiylik bir leksema chegarasidan chiqib, o‘zaro bog‘langan semantik munosabatlar tizimini qamrab oladi. *Kizlä=* va *künilä=*da esa fonetik variantlanishga qaramay, birlikni tarixan tanitib turuvchi asosiy sema saqlangan. Binobarin, bir xil “qadimgi ma’noning saqlanishi” belgisi ortida turli lisoniy mexanizmlar mavjud. Bu farqlanish NF verbal qatlamining tarixiy tabiatini aniqlashda muhim. Asar tilida qadimgi fe’llarning mavjudligi o‘z-o‘zicha vorisiylikning to‘liq dalili bo‘la olmaydi; ularning XIV asr matnida qanday semantik munosabatlarga kirishgani ham hisobga olinishi lozim. Masalan, *ağïrla=*ning arabcha asosli *hurmat qïl=* bilan, *künilä=*ning esa *hasad* bilan bir kontekstda kelishi turkiy birliklarning o‘zlashmalar ta’sirida iste’moldan chiqmaganini, aksincha, ular bilan mazmuniy munosabatga kirishgan holda faoliyatini davom ettirganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan NFda leksik o‘zlashuv bilan turkiy verbal fondning saqlanishi bir-birini inkor qiluvchi jarayonlar emas: o‘zlashmalar yangi nominativ va terminologik ehtiyojlarni qoplagan bir sharoitda qadimgi turkiy fe’llar matnning harakat-holat ifodasidagi funksional mavqeyini saqlab qolgan. Verbal leksikaning bunday tarixiy barqarorligini uning grammatik-funksional tabiatidan ajratib bo‘lmaydi. Fe’l matnda predikativ markaz vazifasini bajarishi sababli uning yashovchanligi faqat lug‘at tarkibida saqlanib qolish bilan belgilanmaydi; birikuvchanlik, semantik qarama-qarshilik, derivatsion aloqa va kontekstual faollik ham vorisiylikning muhim ko‘rsatkichlariga aylanadi. NF materiali qadimgi turkiy verbal fondning XIV asrga kelib aynan shu funksional munosabatlar doirasida yashashda davom etganini ko‘rsatadi.

NF verbal leksikasi tahlilidan ma’lumki, qadimgi turkiy semantika XIV asr matnida bir xil usulda davom etmagan. Material asosida uning uch ko‘rinishini ajratish mumkin: 1) semantik yadro saqlangan holda kontekstual voqelanishning tarmoqlanishi (*ağïrla=*); 2) derivatsion-semantik mikrotizimning davomiyligi (*ögrän=, ögrät=, ögütlä=*); 3) fonetik variantlanish sharoitidagi semantik barqarorlik (*kizlä= // gizlä=, künilä= // künlä=*). Demak, verbal vorisiylikning asosiy belgisi shakliy aynanlik yoki ma’noning mutlaq o‘zgarmasligi emas, leksemani tarixan

identifikatsiya qiluvchi semantik yadroning turli davr va matniy sharoitlarda saqlanishidir. Shu jihatdan “Nahjul-farodis” verbal qatlamida qadimgi turkiy lug‘aviy meros passiv holda saqlanmagan, balki XIV asr matnining funksional ehtiyojlariga mos ravishda davom ettirilgan. Bu holat asarni qadimgi turkiy va keyingi yozma til bosqichlari o‘rtasidagi leksik-semantik vorisiylik mexanizmlarini aniqlashda muhim manbalardan biri sifatida baholashga asos beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. At-tuhfatuz zakiyatu fil-lug‘atit turkiyya (Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa**)** / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov; mas’ul muharrir G‘. Abdurahmonov. – Toshkent: Fan, 1968.
2. Caferoğlu A**.** *Eski Uygur Türkçesi Sözlüğü.* – İstanbul: Edebiyat Fakültesi Matbaası, 1968. – (Türk Dil Kurumu Yayınları, Sayı 260).
3. Древнетюркский словарь / В. М. Наделяев, Д. М. Насилов, Э. Р. Тенишев, А. М. Щербак. – Ленинград: Наука, 1969. – 676 с.
4. Левитская Л. С., Дыбо А. В., Рассадин В. И**.** *Этимологический словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские лексические основы на буквы «К», «Қ».* – Москва: Языки русской культуры, 1997.
5. Mahmud ibn Ali**.** *Nehcü’l-Ferâdis. Tıpkıbasım* / Haz. János Eckmann. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 1956.
6. Mahmud Koshg‘ariy. *Devonu lug‘otit turk (Turkiy so‘zlar devoni).* I–III jildlar / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov. – Toshkent: Fan, 1960–1963.
7. Musayeva F. *O‘zbek xalq so‘zlari.* – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2023.
8. O‘zbek xalq shevalari lug‘ati / Mas’ul muharrir Sh. Sh. Shoabdurahmonov. – Toshkent: Fan, 1971.

ҚАЗАҚ ТІЛІНДЕГІ СӨЙЛЕМДЕРДІҢ МАЗМҰНДЫҚ, КӨЛЕМДІК КЕҢЕЮ ЖОЛДАРЫ

Н.ҚОШАНОВА
филология ғылымдарының кандидаты, Қожа Ахмет Ясауи атындағы Халықаралық қазақ-түрік университетінің доценті (Қазақстан, Түркістан қ.),
e-mail: nagima.koshanova@ayu.edu.kz

Қазіргі таңда жұмсалымды грамматиканы зерттеудің әр түрлі аспектілері мен бағыттары пайда болып, даму үстінде: жұмсалымды грамматиканың жалпы теориялық мәселелері; жұмсалымды синтаксистік концепция; жұмсалымдық аспектология; өріс теориясы арқылы зерттеу.

Қазақ тіл білімінде жұмсалымды грамматика – енді-енді қолға алына бастаған сала. Оның негізгі теориялық тұғыры мен бағыты толық айқындалған деп айту әлі қиын десе де болады. Жұмсалымдық синтаксис саласында З.К.Ахметжановаының қазақ және орыс тілдеріндегі жұмсалымдық зерттеулердің негізгі принциптерін салғастыра қарастырған еңбегі [1] мен Ж.А.Жақыповтың сөйлеудің жұмсалымды-қатысымдық сипатын ашуға арналған [2], Т.Сайрамбаевтың «Жақ категориясының функционалды көрінісі» [3], А.Салқынбайдың «Функционалды грамматика очерктері» [4] атты еңбектерінен басқа зерттеу жұмыстары жоқ десе боларлық. Зерттеулер жұмсалымды синтаксисті қарастырғанда, тек синтаксис төңірегінен шыға алмаған. Жұмсалымды грамматиканың негізгі міндеті тақырыптардың ортақ қасиетін қарастыру болып табылатыны белгілі.

Функция тілдік бірліктердің функциясы мен семантикасының арақатынасына байланысты: функция тіл бірліктерінің семантикасына қарсы қойылады немесе тілдік бірліктердің мағыналары олардың қызметі ретінде ұғынылады.

Г.А.Золотова синтаксис теориясында шындық өмірдің сөйлем мазмұнында бейнеленуін сипаттау үшін алғашқы жарық көрген еңбегінде «функция» ұғымын басшылыққа алған болатын. «Функция» ұғымы синтаксис үшін өте маңызды. Өйткені тілдің басқа деңгейлерімен салыстырғанда, синтаксис– ойлау және коммуникация процесімен тікелей байланысты. Басқа тіл салалары бұл процестерге синтаксис арқылы қатысады. Г.А.Золотова: «Синтаксистік бірліктердің сыртқы дүниені бейнелеуден басқа нағыз тілдік синтаксистік құрылымдық қызметі де болуы керек» [5,8]. Синтаксистік бірлікке зерттеуші коммуникация бірлігі сөйлемді, ал оны құрастырушы ең төменгі бірлікке сөз формасын жатқызады. Г.А.Золотованың пікірін ары қарай

дамытып, З.Ш.Ерназарова синтаксистік ең төменгі бірлікке синтаксеманы– сөз формасын алады да: «Сөз формасы синтаксистің барлық деңгейін құрастырушы бірлік. Оған абстракцияланған грамматикалық мағынап тән. Сөздің лексикалық семантикасымен байланысқа түскенде, бұл мағына нақтыланады. Абстракциялық деп синтаксистік қатынастардың жалпыланған мәнін айтып отырмыз. Оның түрін сөздің морфологиялық құрылымының өзгеруі және сонымен байланысты сөздің сөйлемдегі функциясы анықтайды»,- деп көрсетеді [6,79]. Г.А.Золотова сөздің синтаксистік қызметінің түрін не анықтайды деген сұраққа: «Сөздің синтаксистік бірлікке айналуында осы үш белгі– категориалды-семантикалық, морфологиялық және (функционалды) жұмсалымды-семантикалық белгі бірігеді», - деп жауап береді [5,126] де, сөйлемнің мағыналық аспектісін сөйлемнің қатысымдық қызметімен байланыста қарауға тырысқан. Осыған сәйкес сөйлемдердің контекске тәуелді, тәуелсіз екенін анықтайды. Сөйлемнің, сөйлемдегі сөйлем мүшелерінің түрлерін анықтауда дискурс, мәтінге байланысты талдау қажет деп білеміз.

Қазақ тілі синтаксисінде жаңа ұстанған еңбектің бірі – Ж.Жакуповтың «Қазақ тілінің функционалды синтаксисі» докторлық диссертациясы. Сөйлемді қатысымдық бірлік ретінде мәтін контексі ыңғайында қарастыру семантика-синтаксистік аспектілеріне тән тіл бірліктерінің қолданысқа түсіп, өзара әркеттесуінен пайда болатын сөйлем аралық байланыстардың лексикалық-грамматикалық деңгейдегі көріністерін анықтауға, негіздеуге мүмкіндік береді. Бұл сөйлемнің мәтінді ұйымдастырушы қызметімен байланысты қалыптасса, екінші жағынан мәнмәтіннің өзі сөйлемнің құрылымдық түрі мен мазмұнының толығуын анықтайды. Синтаксистік төменгі бірліктердің сөйлем ішіндегі, сөйлемнің мәнмәтін ішіндегі қызметі функционалды-жұмсалымды синтаксистің аспектілері. Ол өз тарапынан тілдің қатысымдық қызметі, қарым-қатынасқа түсуші сөйлеушілердің сөйлеу мақсаты, сонымен байланысты пропозиция мен модальділіктің сөйлесім бойында сыйыстырылуымен байланысты. Зерттеуші мәнмәтін ұғымына жан жақты талдау жасап, түрлері мен белгілерін анықтайды [2].

Сөйлеуде тіл бірліктерінің мән, функция, мазмұн сияқты категорияларының ішінде мазмұн жетекші сипатқа ие екендігі байқалады. Оның түрін анықтайтын сөйлеу жағдаятына қарай қалыптасатын сөйлеу мақсаты, сонымен байланысты сөздің қолданысқа түсуі. Тілдің прагматикалық аспектісі қатысымдық қызметті қалыптастырушы, оның түрін анықтаушы белгісі болғандықтан, біз бір синтаксистік мәнді жеткізуші синонимдік қатарлары және олардың қолданысқа түсу себептерін сөздің– синтаксеманың жоғарыда айтқан үш белгісімен қоса, прагматикалық көрсеткіштер тұрғысынан

бағалауға тиіспіз. Орыс тіл білімінде жұмсалымды грамматиканы алдымен, орта мектепте оқыту керек деген көзқарас бар. Мысалы, Т.В.Парменова «Функциональный подход к изучению грамматики в школе» [7, 2] деген ғылыми еңбегінде қатысымдық тұлғаны қалыптастыру үшін мектеп бағдарламасында да тілдік білім, тілдік мәдениет, тілдік тұлға сияқты мәселелерге баса назар аудару керектігін айтады. Жұмсалымды грамматика мен дәстүрлі грамматиканың айырмасы неде? Жұмсалым туралы дәстүрлі грамматикада да айтылады, зерттеу әдісі деңгейлік болғандықтан тілдік парадигмалар өзі енетін деңгейдің (фонетика, морфология, синтаксис, т.б.) шеңберіндегі жұмсалымы сөз болады. Деңгейлік грамматикада алдымен, шақты немесе райды, шырайды білдіретін формалар анықталып, содан кейін қандай мағына білдіретіндегі қарастырылады.

Дәстүрлі грамматиканың кемшілігі – тұлға мен мағынаға сүйеніп, таза тілдік, логикалық, психологиялық категориялар мен бірліктер қатар қолданылуы. Сөйлем құрылысы бірде тұлғалық, бірде мағыналық, бірде психологиялық критерийлерге сүйенетін сөйлем мүшелері арқылы сипатталады. Дәстүрлі синтаксис сөйлемді нақты сөйлеу жағдайынан тыс қарастырады, сөйлесу орны, тыңдаушыға қабылдануы ескерілмейді. Тілдік бірліктің бір мағынасы бар деп есептеп, негізгі маңынасынан басқа сөйлеу барысындағы жұмсалымдық мағыналары толық сипатталмайды. Мысалы, дәстүрлі синтаксис өкілдері сөйлемге анықтама беруде, оның аяқталған ойды білдіруін ескермей, тұлғалық белгілері мен белгілі бір тыныс белгілермен ғана сөйлемді таныды [8].

Синтаксистің зерттеу нысаны болып табылатын сөйлем – тұлғалық, мағыналық құрылысы бар грамматикалық нысан. Тілдік ерекшеліктің екі жағы құрылым мен мағына сөйлемді сипаттауда біртұтастықта қарастырылады. Сөйлемнің қатысымдық, семантика-жұмсалымдық, семантика-синтаксистік, қатысымдық-грамматикалық, құрылымдық жақтарын бірлікте, тұтастықта қарастыру арқылы оның көп қырлы күрделі тілдік құбылыс екенін дәлелдейді. Кейінгі кезде ғалымдар синтаксистік парадигманы екі үлкен топқа бөліп қарастырады [9, 9]: конструктивтік синтаксис парадигмасы; қатысымдық синтаксис парадигмасы.

Қай тілде болмасын сөйлем аясының күрленуінің бір жолы - оқшау сөздер құрылымдық жағынан синтаксистің конструктивтік синтаксис парадигмасына, мағыналық жақтан қатысымдық синтаксис парадигмасына жатады.

Сөйлем аясының кеңеюі ғылымда жай сөйлемнің күрделенуі деп те беріледі. Ғалым Қ.Есенов күрделі бірліктердің қатарын оқшау сөз түрлерімен

толықтырады. Одағай мен қаратпа сөздердің сөйлемді күрделендірудегі қызметі ғылыми айналымға алғаш рет қосылады. Мұнда осы кезге дейінгі айтылған ғалымдар пікірлерін жинақтап, қорытындылайды. Жай сөйлемнің күрделену құбылысы мәселесі жаңа мәселе емес. Ғалым Қайырболат Есенов жай сөйлем аясын күрделендіретін бірліктерді барынша ғылыми арнаға тоғыстырды, сондай-ақ, жұмсалымдық синтаксис төңірегінде қарастыра алды [10].

Түркі тіл білімі, жалпы тіл білімінде Қ.Есенов қозғаған мәселені кейін сөз ете бастады [11,163-170]. Сөйлем аясын кеңейтетін бірліктің кейде сондай дәрежеде болмай қалуы да мүмкін. Б.Сағындықұлы мақаласында синтаксистік күрделенудің сөйлемнің бірыңғай мүшелері арқылы емес, бірыңғай мүшелі сөйлемдер арқылы да болатынын талдайды [12, 170-175]. Сөз тіркесі мен сөйлем мүшесі құрамының кеңеюіне салаласқан, түйдекті және тұрақты тіркестердің (тұрақты тіркес ретінде келген бірліктермен бірге, С.Исаев көрсетіп берген атаулық тіркесті синтаксистік бірліктер де қосылады) қатысы бар екені анықталды. Осы көрсетілген бірліктердің ішінде сөйлем аясын кеңеюіне, сөйлемнің күрделенуіне салаласқан тіркестер сөз тіркесінің материалы да, сөйлем мүшесінің материалы болып сөйлемнің бірыңғай мүшелері танылатыны белгілі болды.

Демек, салаласқан тіркестерді қабылдау сөз тіркесі құрамына ыңғайлы да, сөйлемнің бірыңғай мүшелері сөйлем мүшесі құрамында жұмсалуға жарамды. Ғалым Қ.Есенов баяндауыш мүшелі сөйлемнің бірыңғай мүшелері сөйлемнің күрделенуіне әкеледі деп түсіндіреді [12]. Осы қызметті түйдекті тіркестер де атқара алады. Түйдекті тіркестер дегеніміз - толық мағыналы сөз бен көмекші сөздердің тіркесі. Мұның өзіндік жасалу жолы бар, е, ет, де көмекші етістігімен келетін түйдекті тіркесті құрайды және бір синтаксистік тұлға ретінде жұмсалады, сөз тіркесінің бір сыңары немесе бір сөйлем мүшесі қызметін атқарып, күрделенуіне қатысады. Сондай-ақ, сөйлемнің күрделенуіне ықпал етеді.

Сөйлем күрделенуінің бір жолы– қабыспалы оралым. Ал қабыспалы оралымның тілдегі көрінісі– үйірлі мүшелі құрылым. «Әдеби тілімізде қабыспалы оралымды жасауға көбінесе есімше тұлғалы сөздер қатынасып отырса, сонымен қатар осындай функцияға есім сөздер де қатысады. Мұндай сөздер оралымды жинақтап, өздерін меңгере жұмсалған белгілі бір мүшеге қапсарласа айтылады. Меңгеруші сөз әр тұлғада келе береді, соған лайық ол сөйлемнің әр түрлі мүшесінің де қызметін атқарады» [10, 99]. Ғалым үйірлі мүшелі құрылымның қай сөз таптарынан жасалатынын, сөйлем мүшелік қызметін атап көрсетеді. Түйдекті тіркестің қай түрі болмасын өзі материал

болған синтаксистік тұлғаның (сөз тіркесі немесе сөйлем мүшесі) құрамын кеңейтеді. Нәтижесінде олар күрделі сөз тіркесі, күрделі сөйлем мүшесі немесе үйірлі сөйлем мүшесі болып көрініс табады. «Үйірлі мүше мен күрделі мүшені бір деп қарау қате, - дейді С.Аманжолов, - Біздің тілде бұл екеуі де бар. Үйірлі мүше– сөздердің ерікті тізбегі. Олар өз ішінде мағыналық та, грамматикалық та жікке бөлінеді, яғни сөйлемнің мүшесіне бөлінеді. Ал күрделі мүше дегеніміз бірінен-бірі бөлінбейтін, бөлінсе сөздің, сөйлемнің мағынасы бұзылатын сөздер тізбегі. Бұларды өзара мүшеге бөлуге де болмайды» [13, 160]. Қабыспалы оралым бірліктері жай сөйлемнің күрделенуінің белгілі бір түрі ретінде жұмсалады. Үйірлі мүше деген атаумен сөйлем мүшесі құрамында, сөйлем мүшесінің бір түрі; қабыспалы оралым деген атау сөйлемнің күрделенуіне қатысты жұмсалады.

Жай сөйлемнің күрделенуін зерттеген ғалым Қ.Есенов айқындауыштық қосалқы сөйлемдер мен синтаксистік оралымдарды да күрделенген сөйлемдердің жасалуына жатқызады. Айқындауыштық қосалқы сөйлемдер қатарын оңашаланған, қыстырма, қыстырынды және бірыңғай мүшелі сөйлемдер толықтырады да, синтаксистік оралымдар қатарында жанаспалы және қабыспалы оралымдар тұрады. Бірақ ғалым оқшау сөздердің барлығын, оның ішінде одағай сөз бен қаратпа сөздерді атап көрсетпейді. Бұл тілдік бірліктердің қазақ тіл білімінде кейбір қырынан қарастыруды қажет ететін көрсетеді.

А.Байтұрсынұлы одағай сөздерді морфология шеңберінен шығармағанымен, сөйлем жүйесінде бұратана сөздердің қатарына қаратпа сөздерді тірек еткен [14, 286]. Қ.Жұбанов оқшау сөз бірліктерін түрлерге бөлмейді. Себебі «одағайлардың бәріне негіз болған нәрсе – қаратпа сөз» деп таниды. Ал одағай сөздерге қатысты ойларынан қажетті ғылыми тұжырым таратуға болады: «Шаруашылық одағайлары сөз емес. Сөз екі адамның арасындағы ойды білдіру үшін, түсінісу үшін керек. Ал одағайлар екі адам емес, адам мен табиғат арасында ғана қолданылады; сөз айтылған жерде сөйлесу болады, ал одағайларды айтқанда бір жақты сөйлеу бар да, екі жақты сөйлесу жоқ. Онда да одағайлар жауап сөз күтпейді, тек жұмысты өндіру үшін айтылады, яғни одағайлар- өндірістік сөздер» [15, 529]. Ғалым еңбегіне сүйене отырып, қазіргі танымдағы шақыру одағайларының шығу төркініне қараймыз. Әрбір шақыру одағайы «құрылысы жағынан жеке сөз, атқаратын қызметі жағынан сөйлем, не сөйлемдер жинағы» болып шығады. Көңіл-күй одағайларының шығуында да сөйлемге тән белгі бар. Ол– адамның болар іс әрекетіне әсері, не қуантады, ренжітеді, өкіндіреді т.б. Демек, одағай сөздер араласқан сөйлемдер құрамы жағынан күрделенген. Себебі одағай сөздердің

мағынасында көңіл-күйді, сезімді білдіру мақсаты бар. Тіпті, бұйрықты сөйлемге тән белгілердің көбі (тілек-өтініш, бұйыру, қорқыту т.б.) кездеседі. Қаратпа, қыстырма және одағай сөздерді синтаксистік бірлік ретінде қалыпқа түсіріп, сөйлемдегі оқшау сөздер деп танып, осындай термин берген проф. М.Балақаев болды.

М.Балақаев «Қаратпа сөз диалогта, шешендік сөзде, үндеуде, поэзияда және түрлі хаттар мен іс қағаздарында қолданылады,- дей келіп жұмсалу ерекшеліктерін: Айтылған ойдың кімге арналғанын, кісінің оған назар аударуымен қатар, олар сөйлеушінің көңіл-күйін, модальдылықты, кісінің сезімін білдіреді» деп көрсетеді [16, 162]. Көрсетілген анықтамадан сөйлемге қатысты белгілер анық көрінеді. Яғни, қаратпа сөздерді де сөйлем аясын кеңейтуші факторлар, сөйлемнің күрделенуіне ықпал етуші бір жол деп түсінгеніміз дұрыс.

Академик Р.Сыздық көрсеткеніндей, «Оқшау сөз» деген термин шартты, өйткені сөйлем мүшелерінен оқшау тұратын элементтер жалғыз дара сөздер ғана емес, сөз тіркестері де, сөйлемдер де болып келеді» [17, 102]. Ғалым Қ.Есенов еңбегінде берілген оқшау құрылымдардың түрлері тек сөздік тұлғасында ғана емес, сөз тіркесі мен сөйлемдік құрылымда да болатыны нақты мысалдармен бекітілген. Ал одағай сөздерді тыңғылықты таратқан Қ.Жұбанов олардың жеке сөзбен берілсе де, сөйлемдік түсінікте жұмсалатынына аса мән берген. Қаратпа бірліктің де құрылымы жағынан жайылмаланып кетуі сирек. Сондықтан да «Біреуге арналып айтылған сөйлемде оның кімге арналып айтылғанын білдіретін сөз не сөз тіркесі болуы мүмкін» және «Қаратпа бір сөз болып та (жалаң), бірнеше сөз болып та (жайылма) келеді» деген ереже-анықтама орнықтырған.

Қорыта келгенде, Қ.Есенов, Б.Сағындықұлы еңбектері арқылы сөйлем аясының кеңеюі немесе сөйлем құрылымының күрделенуі анықталды. Бірінші, сөз тіркесінің құрамын күрделендіретін тілдік бірліктер салаласқан тіркестер, түйдекті тіркестер, тұрақты тіркестер. Екінші, бұлар да сөйлем мүшесін күрделендіреді: сөйлемнің бірыңғай мүшесі және үйірлі мүше. Үшінші, сөйлемнің аясын кеңейтуші, сөйлемнің құрылымдық күрделенуін танытатын айқындауыштық қосалқы сөйлемдер мен синтаксистік оралымдар анықталды. Сондай-ақ, сөйлемнің аясын кеңейтуші, сөйлемнің құрылымдық күрделенуін одағай және қаратпа сөздер қатары толықтырады. Сөйлем арқылы ойды білдіруде, бес түрлі мүше қатысады. Бірақ сөйлем– жалаң қатысымдық акт емес, ол психологиялық-экспрессивтік те акт. Сөйлем белгілерінің бірі– модальдық мәнді білдіруі, яғни сөйлеушінің айтылған ойға әр алуан қатынасын (күмәнданатындығын, разы екендігін, тамашалайтындығын,

таңырқайтындығын, қуанатындығын т.б.) қоса білдіруі. Мұндай модальдық реңктерді беру жолдары түрліше. Солардың бірі– сөйлем мүшелеріне жатпайтын басқа сөздермен білдіру, ол сөздер қыстырма, одағайлар болады. Сондай-ақ сөйлеуші айтып отырғанына назар аударту мақсатын да көздей алады, ол үшін де сөйлем мүшелерінен тыс басқа сөздерді - қаратпаларды қолданады. Сол сияқты сөйлеуші айтып отырған ойының желісінде жол-жөнекей бір нәрселерді ескерте кету, айқындай түсу мақсатын да қоюы мүмкін. Ол үшін сөйлем мүшелерінен тыс элементтерді ескертпелерді пайдаланады. Осылардың барлығы, яғни қыстырмалар, қаратпалар, одағайлар, ескертпелер, белгілі бес түрлі сөйлем мүшесінің ешқайсысына жатпайды, өйткені олар сөйлем мүшелерінің сұрақтарына жауап бермейді. Егер жасалған сөз табы мен тұлғасына қарай қыстырма сөздердің кейбіреулеріне сұрақ қоюға болатын болса да (мысалы, меніңше кімше? қысқасы– қалай? сөйтіп– қайтіп?), ол сұрақтар бұл қыстырмаларға сөйлемнің белгілі бір мүшесімен байланысты қойылмайды, жалпы сөйлемге, айтылған ойға қойылады.

Сондықтан қыстырмаларды, қаратпаларды, одағайларды, ескертпелерді сөйлем мүшелерінен бөлек алып, оқшау сөздер деп атаймыз. «Оқшау сөз» деген термин шартты, өйткені сөйлем мүшелерінен оқшау тұратын элементтер жалғыз дара сөздер ғана емес, сөз тіркестері де, сөйлемдер де болып келеді. Сондықтан оларды жалпы атағанда қаратпалар, қыстырмалар, одағайлар, ескертпелер деген қолайлы болады. Оқшау сөздер – сөйлем ішінде басы артық, «жолдан ілесе салған» элементтер емес, «оларды алып тастағаннан сөйлемге ешқандай нұқсан келмейді» деген мектеп грамматикаларының түсіндірмесі ғылыми тұрғыдан алғанда дұрыс емес. Оқшау элементтер сөйлем құрауға қатысып, оның басты белгілерінің бірі – модальдықты білдіреді.

Пайдаланылған әдебиеттер:

1 Ахметжанова З.К. Принципы сопоставительного функционалъного исследования казахского и русского языков. Автореф. дисс.докт. филол. наук.- Алматы, 1989,- 286 с

2 Жакупов Ж.А. Қазақ тілінің функциональдық синтаксисі. Филол. ғылым. докт. диссер. Автореф. 1999,-255 б.

3 Сайрамбаев Т. Жақ категориясының функционалдық көрінісі. Алматы: «Қазақ университеті», 2005, 85 б.

4 Салқынбай А.Б. Функционалды грамматика очерктері.–Алматы, 2003.

5 Золотова Г.А. Очерк функционального синтаксиса русского языка. Москва, 1973.

6 Ерназарова З.Ш. Сөйлеу тілі синтаксисінің прагмалингвистикалық аспектісі.– Алматы, 2001,-215 б.
7 Парменова Т.В. Функциональный подход к изучению грамматики в школе //http://Iseptembler.ru/2002/24/8.html, с.2
8 Распопов И.П. Очерки по теории синтаксиса.– Воронеж: Изд-во Воронеж ун-та, 1973.– 220 с.
9 Қазіргі қазақ тіліндегі синтаксистік парадигмалар. -Алматы: «Мемлекеттік тілді дамыту институты», 2016,-464 б.
10 Есенов Қ. Қазақ тіліндегі күрделенген сөйлемдер.– Алматы: Ғылым, 1974.– 197 б.
11 Сағындықұлы Б. Қазақ тілі синтаксисіндегі күрделілік мәселесі // Ғылыми журнал: ПМУ хабаршысы. Филологиялық серия. № 1, 2013.–163-170 бб
12 Сағындықұлы Б. Синтаксистегі күрделілік: бірыңғайлануға түсінік // Көкшетау: Ш.Уәлиханов атындағы Көкшетау мемлекеттік университетінің хабаршысы. Филология сериясы № 4, 2013.– 170-175 бб.
13 Аманжолов С. Қазақ әдеби тілі синтаксисінің қысқаша курсы.– Алматы: «Санат», 1994.– 320 б.
14 Байтұрсынов А. Тіл тағылымы.– Алматы: «Ана тілі», 1992.– 448 б.
15 Жұбанұлы Қ. Қазақ тіл білімінің мәселелері / Құраст.: Ғ.Әнес.– Алматы: «Абзал-Ай» баспасы, 2013.– 640 б.
16 Балақаев М., Қордабаев Т. Қазіргі қазақ тілі грамматикасы. Синтаксис. Алматы: Қазақтың мемлекеттік оқу-педагогика баспасы, 1961.– 290 б.
17 Қазақ тілінің грамматикасы. 2-том.– Алматы: «Ғылым» баспасы, 1967. 235 б.

NUTQ OHANGINING MAZMUNNI FARQLASHDAGI VAZIFASI

Aytbayev D.T.
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy
pedagogika universiteti professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada nutq ohangining nutq mazmunini shakllantirish va farqlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Nutq ohangining sintaktik, mazmuniy va pragmatik ma’nolarni yuzaga chiqarishdagi imkoniyatlari, bir xil leksik-grammatik tarkibli gaplarning turli ohang orqali har xil kommunikativ ma’no ifodalashi yoritiladi. Shuningdek, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda sabab-natija, shart-natija, izohlash va qarama-qarshilik kabi mazmuniy munosabatlarni farqlashdagi ahamiyati ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: intonatsiya, semantik-differensial funksiya, prosodiya, sintaktik birlik, semantika, pragmatika, kommunikativ ma’no, bog‘lovchisiz qo‘shma gap, mantiqiy urg‘u, pauza, melodika.

Abstract: This article analyzes the role of speech intonation in shaping and differentiating the content of speech. It examines the capacity of intonation to convey syntactic, semantic, and pragmatic meanings, and explains how sentences with identical lexical and grammatical composition can express different communicative meanings through different intonation. It also shows the importance of intonation in distinguishing semantic relations such as cause-effect, condition-result, explanation, and contrast in asyndetic compound sentences (those without conjunctions).

Keywords: intonation, semantic-differential function, prosody, syntactic unit, semantics, pragmatics, communicative meaning, asyndetic compound sentence, logical stress, pause, melody.

Til shakl va mazmunning o‘zaro munosabatiga asoslangan murakkab belgilar tizimi bo‘lib, uning mazmuniy imkoniyatlari leksik, grammatik va fonetik vositalar orqali yuzaga chiqadi. Ayniqsa, og‘zaki nutqda so‘zlovchining kommunikativ maqsadi, fikr yo‘nalishi va munosabatini ifodalashda nutq ohangi muhim ahamiyatga ega. Bir xil leksik-grammatik tarkibga ega gap turli ohangda talaffuz qilinganda, har xil kommunikativ mazmun ifodalashi mumkin. Masalan, *Siz keldingiz* (*Siz keldingiz*?) gapining pasayuvchi ohangda aytilishi darak, ko‘ta-riluvchi ohangda talaffuz qilinishi esa so‘roq mazmunini yuzaga chiqaradi. Demak, nutq ohangi gapning shakliy tarkibini o‘zgartirmagan holda uning mazmunini farqlashga xizmat qiladi [1, 15, 16].

O‘zbek tilida nutq ohangining sintaktik va mazmuniy imkoniyatlarini o‘rganish fonetika, sintaksis va pragmatikaning o‘zaro aloqasini aniqlashda muhimdir.

Shaklan bir xil sintaktik birliklarning turli nutqiy vaziyatlarda har xil mazmun ifodalashi mazmuniy va nutqiy omillarning o‘zaro ta’sirini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, maqolada nutq ohangining mazmunni farqlashdagi vazifasi, uning sintaktik va pragmatik omillar bilan aloqasi hamda bir xil yoki yaqin shakldagi qurilmalarning mazmuniy farqlanishidagi o‘rni tahlil qilinadi [14, 15, 16, 17].

Nutq ohangining mazmunni farqlashdagi vazifasi uning nutqiy vaziyat va so‘zlovchining maqsadi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Bir xil gap turli vaziyatlarda ohangning o‘zgarishi orqali ta’kid, gumon, hayrat, norozilik, ishonch yoki shubha kabi qo‘shimcha mazmunlarni ifodalashi mumkin. Shuning uchun gap mazmunini to‘liq anglashda uning grammatik tuzilishi bilan bir qatorda, qanday ohangda aytilgani va qaysi nutqiy vaziyatda qo‘llangani ham hisobga olinadi [7; 8].

Nutq ohangi gapning axborotiy bo‘linishini shakllantirishda ham muhimdir. Mantiqiy urg‘u yordamida so‘zlovchi uchun muhim bo‘lgan birlik ajratiladi, pauza orqali esa nutqning mazmuniy qismlari chegaralanadi. Natijada ohang gapning nafaqat umumiy mazmunini, balki uning ichki axborot tuzilishini ham belgilaydi. Shu sababli nutq ohangini fonetika, sintaksis, mazmunshunoslik va nutqiy vaziyat bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish zarur.

Nutq ohangining mazmunni farqlash vazifasi bir xil yoki o‘xshash shakldagi sintaktik birliklarning turli mazmun va muloqot ma’nolarini ajratishda namoyon bo‘ladi. Masalan, Siz bugun kelasiz gapining pasayuvchi ohangda aytilishi darak, ko‘tariluvchi ohangda talaffuz qilinishi esa so‘roq mazmunini yuzaga chiqaradi. Demak, leksik va grammatik tarkib o‘zgarmagan holda nutq ohangining o‘zgarishi gapning muloqot mazmunini farqlashga xizmat qiladi.

Nutq ohangining mazmunni farqlash imkoniyati darak va so‘roq ma’nolari bilangina cheklanmaydi. U buyruq, iltimos, hayrat, gumon, ta’kid, norozilik va ishonch kabi turli nutqiy ma’nolarni ifodalashda ham faol ishtirok etadi. Masalan, Keling shakli turli vaziyat va ohang asosida taklif, undash yoki iltimos mazmunini anglatishi mumkin. Shu sababli sintaktik shaklning o‘zi nutqiy ma’noni to‘liq belgilamaydi; uning mazmuni ohang, matn qurshovi va muloqot vaziyati bilan birgalikda yuzaga chiqadi.

Mazmunni farqlash vazifasi shakl va mazmun o‘rtasidagi nomuvofiqlik bilan ham bog‘liq. Bir sintaktik qolip bir nechta mazmuniy imkoniyatni o‘zida mujassamlashtirishi mumkin, ularning qaysi biri muayyan nutq jarayonida yuzaga chiqishi esa matn qurshovi, muloqot vaziyati va nutq ohangiga bog‘liq [1, 2, 5]. Shu jihatdan nutq ohangi sintaktik birlikning yashirin mazmuniy imkoniyatlarini aniq nutqiy ma’noga aylantiruvchi muhim vosita hisoblanadi.

Nutq ohangining mazmuniy imkoniyatlarini sintaktik tuzilishdan ajratib o‘rganish mumkin emas. Gapning tuzilishi va ohangiy qurilishi bir-birini to‘ldirib,

uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi munosabat, mazmuniy yo‘nalish va muloqot markazini aniqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, gapning axborotiy bo‘linishida nutq ohangi muhim o‘rin tutib, qaysi birlikning yangi axborotni ifodalashi yoki alohida ta’kidlanishini belgilaydi. Masalan, *Bugun Akmal universitetga bordi* gapida mantiqiy urg‘uning turli birliklarga tushirilishi mazmuniy markazning o‘zgarishiga olib keladi: ***bugun*** – vaqt, ***Akmal*** – bajaruvchi, ***universitetga*** – harakat yo‘nalishini ajratib ko‘rsatadi. Demak, mantiqiy urg‘u gapdagi axborotning ahamiyat darajasini o‘zgartirib, so‘z-lovchi uchun muhim bo‘lgan mazmuniy qismni ajratadi.

Nutq ohangining sintaktik va mazmuniy vazifasi murakkab sintaktik qurilmalarda yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, predikativ qismlar o‘rtasidagi munosabatni ifodalashda ohang va pauza muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Sintaktik shakl mazmuniy munosabatni to‘liq ifodalab bermagan hollarda nutq ohangi uning mazmuniy imkoniyatlarini aniqlashtirib, muayyan nutqiy ma’noni yuzaga chiqaradi.

Nutq ohangining mazmunni farqlash vazifasi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi, chunki bunday gaplarda predikativ qismlar o‘rtasidagi mazmuniy munosabatlar ko‘pincha bog‘lovchi vositalarsiz, ohang, pauza, mantiqiy urg‘u va mazmuniy yaxlitlik orqali yuzaga chiqadi. O‘zbek tilidagi qo‘shma gap sintaksisiga oid tadqiqotlarda ham predikativ qismlar o‘rtasidagi munosabatlarning turli vositalar yordamida shakllanishi qayd etilgan [18]. Shu jihatdan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda nutq ohangi sintaktik shaklni mazmuniy jihatdan aniqlashtiruvchi muhim vosita hisoblanadi.

Masalan, *Yomg‘ir yog‘di, yo‘llar ho‘l bo‘ldi* gapida qismlar o‘rtasidagi munosabat sabab-natija sifatida anglashiladi. Biroq matn qurshovi va ohangning o‘zgarishiga ko‘ra mazkur munosabat ketma-ketlik tarzida ham talqin qilinishi mumkin. *Sen ayt – men bajaraman* gapida esa pauza, birinchi qismdagi tugallanmagan ohang va ikkinchi qismdagi pasayuvchi ohang predikativ qismlar o‘rtasidagi shart-natija munosabatini kuchaytiradi. Demak, pauzaning davomiyligi, ohangning ko‘tarilishi yoki pasayishi hamda mantiqiy urg‘uning o‘rni bog‘lovchisiz qo‘shma gap mazmunining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda nutq ohangi yordamida sabab-natija, shart-natija, izohlash, qarama-qarshilik, ketma-ketlik, payt va qiyoslash kabi mazmuniy munosabatlar farqlanishi mumkin. Shu sababli bunday gaplarni faqat shakliy-sintaktik belgilar asosida tahlil qilish ayrim mazmuniy farqlarni to‘liq ochib bermaydi. Nutq ohangining sintaktik tuzilish bilan uzviy aloqasi turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tili materiallari asosida olib borilgan tadqiqotlarda ham ta’kidlangan [7, 9, 18]. Shunday qilib, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda nutq ohangi predikativ qismlar o‘rtasidagi mazmuniy aloqani aniqlashtiruvchi va farqlovchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Nutq ohangining mazmunni farqlash vazifasi uning nutqiy-vaziyatga xos xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq, chunki real muloqot jarayonida gap mazmuni faqat lug‘aviy va grammatik tarkib bilan belgilanmay, so‘zlovchining maqsadi, tinglovchiga munosabati, vaziyat va matn qurshovi asosida ham shakllanadi. Shu sababli bir xil gap turli vaziyatlarda turlicha muloqot mazmunini ifodalashi mumkin.

Masalan, *Siz ham keldingiz* gapining neytral ohangda aytilishi oddiy xabarni bildiradi. Biroq ohangning o‘zgarishi natijasida unda hayrat, norozilik yoki ta’kid kabi qo‘shimcha mazmunlar yuzaga kelishi mumkin. Bunda gapning grammatik shakli o‘zgarmaydi, ammo uning nutqiy talqini o‘zgaradi. Demak, nutq ohangi so‘zlovchining maqsadini va tinglovchiga munosabatini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi [10].

Nutq ohangi so‘zlovchining ishonchi, gumoni, hayrati, taajjubi, noroziligi, tasdig‘i yoki inkorini bevosita yoki bilvosita ifodalashi mumkin. Bunday mazmunlarning yuzaga kelishida tovush balandligi, kuchi, sur’ati, pauza va tembr kabi vositalar o‘zaro ta’sirlashadi. Shunday qilib, nutq ohangining mazmunni farqlash vazifasi alohida bir ohangiy vosita emas, balki ushbu vositalarning yaxlit tizimi asosida yuzaga keladi.

Yuqoridagi tahlillar intonatsiyaning nutq mazmunini shakllantirishdagi o‘rnini uch asosiy yo‘nalishda ko‘rsatish imkonini beradi: kommunikativ differensiallashuv. Bunda intonatsiya bir xil grammatik shakldagi gaplarning darak, so‘roq, buyruq, undov kabi kommunikativ turlarini farqlashga xizmat qiladi; semantik differensiallashuv. Bunda intonatsiya sintaktik qismlar o‘rtasidagi sabab, shart, natija, izoh, qarama-qarshilik, ketma-ketlik kabi mazmuniy munosabatlarning yuzaga chiqishiga yordam beradi; pragmatik differensiallashuv. Bunda intonatsiya so‘zlovchining muayyan fikrga munosabatini, kommunikativ maqsadini va tinglovchiga yo‘naltirilgan munosabatini aniqlashtiradi. Shu jihatdan intonatsiya-ning semantik-differensial funksiyasini sintaksis, semantika va pragmatika kesishgan nuqtada namoyon bo‘ladigan kompleks hodisa sifatida baholash mumkin. Sintaktik shakl mazmunning umumiy modelini belgilasa, intonatsiya ushbu modelning konkret nutqiy vaziyatdagi mazmuniy va kommu-nikativ imkoniyatlarini aktuallashtiradi.

O‘zbek tilining sintaktik tizimida shakl va mazmun munosabatining murak-kabligi, xususan, bir shakl doirasida bir nechta mazmuniy imkoniyatlarning mavjud-ligi intonatsiyaning funksional ahamiyatini yanada oshiradi [15, 16, 17, 18]. Shu sababli sintaktik birliklarning semantik imkoniyatlarini tadqiq etishda segmental birliklar bilan bir qatorda supersegment vositalarni ham hisobga olish zarur.

Nutq ohangi og‘zaki nutqning fonetik shakllanishi bilan birga, uning mazmuniy, sintaktik va muloqotga oid xususiyatlarini belgilovchi muhim vositadir. Ayniqsa, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda ohang, pauza va mantiqiy urg‘u sabab-

natija, shart-natija, izohlash, qarama-qarshilik kabi mazmuniy munosabatlarni aniqlashtiradi. Uning mazmunni farqlash vazifasi so‘zlovchining maqsadi va muloqot vaziyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, nutq ohangini fonetika, sintaksis, mazmunshunoslik va pragmatika bilan aloqador holda o‘rganish o‘zbek og‘zaki nutqining mazmuniy xususiyatlarini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баскаков Н.А. Интонация и синтаксис тюркских языков. – М.: Наука, 1964.
2. Брызгунова Е.А. Звуки и интонация русской речи. – М.: Русский язык, 1984.
3. Бондарко Л.В. Фонетика современного русского языка. – СПб.: Изд-во Санкт-Петербургского университета, 1998.
4. Кодзасов С.В., Кривнова О.Ф. Общая фонетика. – М.: РГГУ, 2001.
5. Николаева Т.М. Фразовая и синтагматическая интонация. – М.: Наука, 1969.
6. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Л.: Наука, 1974.
7. Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысл: Логико-семантические проблемы. – М.: Наука, 1976.
8. Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. – М.: Добросвет, 2000.
9. Звегинцев В.А. Предложение и его отношение к языку и речи. – М.: Изд-во Московского университета, 1976.
10. Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. – М.: Эдиториал УРСС, 2001.
11. Валгина Н.С. Современный русский язык: Синтаксис. – М.: Высшая школа, 2003.
12. Долинин К.А. Интерпретация текста. – М.: Просвещение, 1985.
13. Сусов И.П. Введение в теоретическое языкознание. – М.: АСТ: Восток–Запад, 2007.
14. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.
15. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
16. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
17. Нурмонов А. Ўзбек тили синтаксиси асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
18. Абдураҳмонов Ғ. Қўшма гап синтаксиси асослари. – Тошкент: Фан, 1958.

NUTQNING TA’SIRCHANLIGINI OSHIRISHDA RAMZ VA SIFATLASHNING O‘RNI

Muxammadaliyeva Shaxzoda Maxmud qizi
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
shahzodaxon532@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada nutqning ta’sirchanligini oshirishda ramz va sifatlashning semantik, pragmatik, lingvokulturologik hamda lingvopoetik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ramzning denotativ va konnotativ qatlamlari, sifatlashning obrazlilik va baholovchanlikni kuchaytirish xususiyatlari misollar asosida yoritiladi. Shuningdek, ramz va sifatlashning uyg‘unlashuvi nutq mazmunini ixcham, obrazli va kommunikativ jihatdan ta’sirchan ifodalash vositasi sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: nutq ta’sirchanligi, ramz, sifatlash, epitet, konnotatsiya, lingvokulturologiya, pragmatika, lingvopoetika.

Annotation. This article analyzes the semantic, pragmatic, linguocultural and linguopoetic functions of symbols and epithets in increasing the expressiveness of speech. It examines the denotative and connotative layers of symbols and the role of epithets in intensifying imagery and evaluation. The interaction of these devices is discussed as a means of conveying meaning in a concise, culturally meaningful and communicatively effective way.

Keywords: expressive speech, symbol, characterization, epithet, connotation, linguoculturology, pragmatics, linguopoetics.

Аннотация. В статье анализируются семантические, прагматические, лингвокультурологические и лингвопоэтические возможности символа и эпитета в повышении выразительности речи. Рассматриваются денотативные и коннотативные уровни символа, а также образная и оценочная функции эпитета. Показано, что их взаимодействие способствует компактной, образной и коммуникативно эффективной передаче содержания с учётом культурных ассоциаций.

Ключевые слова: выразительность речи, символ, характеристика, эпитет, коннотация, лингвокультурология, прагматика, лингвопоэтика.

Tilning kommunikativ imkoniyati faqat axborotni yetkazish bilan chegaralanmaydi. So‘zlovchi muayyan fikrni tinglovchiga ta’sirchan, obrazli va esda qolarli shaklda yetkazishni ham ko‘zlaydi. Shu sababli nutqning ta’sirchanligi

masalasi tilning semantik, stilistik, pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlarini birgalikda o‘rganishni talab qiladi. So‘z estetikasi bilan bog‘liq tadqiqotlarda nutqning jozibadorligi, obrazliligi va ifoda imkoniyatlari til birliklarining mazmun hamda shakl munosabati orqali yuzaga kelishi ta’kidlanadi [1: 22-24].

Zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyat munosabati, milliy-madaniy kodlar, konnotativ ma’no, diskurs va kommunikativ ta’sir kabi masalalarga e’tiborning ortishi ramz va sifatlashni yangi metodologik nuqtayi nazardan o‘rganish imkonini bermoqda. O‘zbek tilidagi ramz va timsollar lingvosemiotik jihatdan o‘rganilgan tadqiqotlarda ranglar, tabiat unsurlari, frazeologik birliklar va badiiy obrazlarning milliy tafakkur hamda madaniy qadriyatlar bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan [2].

Z.Xoliqovaning rang ramzlariga oid tadqiqotida ham rang birliklarining vizual belgi bo‘lish bilan birga tarixiy xotira va madaniy tajribani ifodalovchi ramziy vosita sifatida shakllanishi qayd etiladi [3].

Sifatlash ham nutqning ta’sirchanligini ta’minlovchi muhim vositalardan biridir. Izohli lug‘atda sifatlash (epitet) narsa va hodisalarni obrazli tavsiflash vositasi sifatida izohlanib, uning oddiy mantiqiy aniqlovchidan farqli ravishda predmetning muayyan xususiyatini ajratib ko‘rsatishi yoki unga boshqa predmetga xos belgi ko‘chirish orqali obraz yaratishi qayd etiladi [4: 528]. Demak, ramz mazmunni assotsiativ va madaniy jihatdan kengaytirsa, sifatlash uning muhim belgisini ekspressiv tarzda ajratadi.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek nutqida ramz va sifatlashning ta’sirchanlikni shakllantirishdagi funksiyalarini aniqlash, ularning semantik-pragmatik imkoniyatlarini tavsiflash hamda ikki vositaning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga keladigan ekspressiv samarani ko‘rsatishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida o‘zbek tilidagi ramziy birliklar va sifatlash konstruksiyalari olindi. Predmet esa ularning konnotativ, baholovchi, obrazli va kommunikativ xususiyatlaridir.

Ramziy birliklar tahlilida denotativ ma’no bilan konnotativ ma’no farqlanib, kontekstning talqinga ta’siri hisobga olindi. Sifatlashlar esa ularning predmetga beradigan tavsifi, ekspressivligi va baholovchanligi asosida tahlil qilindi.

Ramz ko‘p qatlamli semiotik hodisa bo‘lib, u muayyan moddiy yoki lingvistik birlik orqali bevosita nomlanmagan tushuncha, qadriyat yoki munosabatni anglatishi mumkin. Ramziylik asosida yaratilgan obrazlar o‘ziga xos xu susiyatlarga ega. Ular muayyan xalq uchun aziz bo‘lib, qadriyat sifatida e’zozlanadi. Ramz voqea-hodisa yoki predmetning mohiyatini ifodalovchi obyekt yoki so‘zdir [9: 137]. Ramziy birlikning ta’sirchanligi shundaki, u ko‘pincha katta mazmunni ixcham shaklda mujassamlashtiradi. Masalan, “oq yo‘l” birikmasida “oq” rang nomi o‘zining rang ma’nosidan tashqari ezgu tilak va yaxshi niyat bilan bog‘liq assotsiativ qatlamni

yuzaga chiqaradi. “Umid chirog‘i” birikmasida esa “chiroq” konkret predmet nomidan tashqari yorug‘lik, yo‘l ko‘rsatish va umid obrazlarini faollashtiradi.

O‘zbek tilidagi ramzlar tizimini lingvosemiotik jihatdan tadqiq qilgan M.Habiyaliyeva ranglar, tabiat elementlari, frazeologizmlar va badiiy obrazlarni denotativ hamda konnotativ ma’no birligi sifatida ko‘rib, “oq”, “non”, “ko‘z”, “yurak” kabi birliklarning bevosita va ramziy ma’nolarni birgalikda ifodalashini ko‘rsatadi [2]. Mazkur qarash ramzning ta’sirchanligi uning lug‘aviy ma’nosidan tashqari madaniy xotira va kollektiv tajriba bilan bog‘lanishida ekanini ko‘rsatadi.

Rang ramzlari ham ushbu mexanizmning yaqqol ko‘rinishidir. Z.Xoliqovaning tadqiqotida ranglarning inson tafakkurida faqat vizual belgi emas, balki milliy dunyoqarash, tarixiy xotira va madaniy tajribani ifodalovchi ramziy vosita sifatida shakllanishi ko‘rsatilgan [3]. Masalan, “yashil kelajak” birikmasi kontekstga qarab yangilanish, ekologik barqarorlik yoki ijobiy istiqbol assotsiatsiyasini uyg‘otishi mumkin. Bu ma’no rangning fizik xususiyatidan emas, balki uning madaniy-kontekstual talqinidan kelib chiqadi.

Ramzning pragmatik kuchi uning o‘quvchi yoki tinglovchini qo‘shimcha interpretatsiyaga jalb etishida ko‘rinadi. “Ikki davlat o‘rtasida hamkorlik ko‘prigi yaratildi” jumlasida “ko‘prik” real inshootni emas, aloqani ta’minlovchi vositani bildiradi. “Do‘stlik rishtalari mustahkamlandi” birikmasidagi “rishta” ham ikki tomon o‘rtasidagi munosabatni obrazli ifodalaydi. Bunday birliklar diplomatik va publitsistik diskursda samarali bo‘lishi mumkin.

Sifatlash, ya’ni epitet, stilistika va poetikada narsa, hodisa yoki tushunchani obrazli tavsiflashga xizmat qiluvchi vosita sifatida qaraladi. Oddiy aniqlovchi bilan sifatlash o‘rtasidagi farqni “baland bino” va “ulug‘vor bino” kabi birliklar orqali ko‘rish mumkin. Birinchi birikmada “baland” predmetning o‘lchamga oid belgisini bildirsa, ikkinchi birikmada “ulug‘vor” so‘zi binoning ko‘rinishi va taassurotini baholaydi. Shunga o‘xshash “muhim qaror”, “samarali hamkorlik”, “nufuzli konferensiya”, “samimiy uchrashuv” kabi birikmalarda sifatlovchi komponent predmet yoki jarayon haqidagi axborotga baholovchi sema qo‘shadi.

Toshqulovaning tadqiqotida epitet badiiy nutqning muhim tasviriy vositasi sifatida baholanib, uning tasviriylik va ekspressiv ta’sirni oshirishdagi o‘rni ko‘rsatilgan [5]. Bunda sifatlashning asosiy xususiyati uning mazmun bilan uzviy bog‘langanidadir. Demak, har qanday sifatlovchi so‘z avtomatik ravishda epitet bo‘lavermaydi; uning ekspressiv qiymati kontekst, muallif maqsadi va birlikning obrazli qo‘llanishi bilan belgilanadi.

Sifatlashning kommunikativ samaradorligi uning qisqa shaklda baho berish imkoniyatida ham ko‘rinadi. “Muzokaralar davom etdi” neytral axborot bo‘lsa, “mazmunli muzokaralar davom etdi” shaklida muzokaraning sifatiga ishora paydo

bo‘ladi. “Hamkorlik rivojlandi” va “barqaror hamkorlik rivojlandi” variantlarida esa “barqaror” komponenti jarayonning izchilligi va davomiyligi haqidagi qo‘shimcha tasavvurni beradi. Biroq bunday baholash faktik dalil o‘rnini bosa olmaydi; ilmiy va rasmiy nutqda sifatlash faktga mos bo‘lishi kerak.

Ramz va sifatlash birikkanida nutqning semantik va ekspressiv imkoniyati yanada kengayadi. “Yorqin kelajak”, “oq niyat”, “mustahkam do‘stlik rishtalari”, “ezgu maqsad yo‘li”, “barqaror hamkorlik ko‘prigi” kabi birliklarda sifatlovchi komponent ramziy obrazni aniqlashtiradi yoki kuchaytiradi. Masalan, “yorqin kelajak” birikmasida “yorqin” fizik yorug‘likdan ko‘ra ijobiy istiqbolni anglatishga xizmat qiladi; “mustahkam do‘stlik rishtalari”da “mustahkam” munosabatning barqarorligini, “rishtalar” esa uning bog‘lovchi xarakterini obrazli tarzda ifodalaydi.

Mazkur uyg‘unlikni semantik jihatdan quyidagi model asosida izohlash mumkin: predmet yoki hodisa → sifatlash orqali ajratilgan belgi → ramziy assotsiatsiya → kommunikativ ta’sir. Masalan, “hamkorlik” tushunchani nomlaydi; “mustahkam hamkorlik” uning sifatini baholaydi; “mustahkam hamkorlik ko‘prigi” munosabatning bog‘lovchi, ikki tomonlama xarakterini obraz orqali kuchaytiradi. Bunday model nutqni faqat bezatmaydi, balki o‘quvchining mental tasavvurini boshqaruvchi semantik signal vazifasini ham bajaradi.

Biroq ramz va sifatlashning uyg‘unlashuvi janrga mos bo‘lishi shart. Badiiy matnda “kumush qish”, “zumrad bahor” kabi obrazli epitetlar estetik vazifani bajarsa, rasmiy diplomatik matnda “o‘zaro manfaatli hamkorlik”, “barqaror sheriklik” kabi nisbatan me’yorlashgan sifatlashlar kommunikativ jihatdan ma’qulroq bo‘ladi. “Ko‘prik”, “rishta”, “yorug‘ yo‘l” singari ramziy birliklar esa publitsistik yoki nutqiy chiqishlarda obrazlilikni kuchaytirishi mumkin.

Shunday qilib, ta’sirchanlikning yuqori darajasi vositalarning ko‘pligi bilan emas, ularning funksional aniqligi bilan belgilanadi. Bir matnda ortiqcha ramziy birlik yoki ketma-ket sifatlashlar mazmunni og‘irlashtirishi mumkin. Aksincha, bitta aniq tanlangan ramz va unga mos sifatlash butun kommunikativ mazmunni ixcham tarzda kuchaytirishi ehtimol. Shu sababli zamonaviy stilistik tahlilda “qanchalik ko‘p?” emas, “qanday maqsadda va qanday kontekstda?” savoli muhimdir.

Ramz va sifatlashni o‘rganish bugungi tilshunoslikning antropotsentrik va fanlararo yo‘nalishlari bilan bevosita bog‘lanadi. Lingvokulturologiya ramzni madaniy kod sifatida, pragmatika uni kommunikativ maqsad bilan bog‘liq birlik sifatida, kognitiv tilshunoslik esa insonning konseptual va assotsiativ faoliyati bilan bog‘liq hodisa sifatida ko‘rish imkonini beradi. Lingvopoetika esa uning badiiy-estetik funksiyasini ochib beradi.

O‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya doirasida til va madaniyat, lingvomadaniy birliklar, turli madaniyatlardagi ramzlar va stereotiplarni qiyosiy

o‘rganishga mo‘ljallangan tadqiqotlar mavjud [6]. Hayvon nomlari orqali yuzaga keladigan ramzlarning semantik tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham ramz, konnotatsiya, qiyoslash va xalq og‘zaki ijodi o‘rtasidagi munosabatlar yoritilgan [7]. Bu tadqiqotlar ramzning faqat badiiy bezak emas, balki madaniy mazmunni tashuvchi birlik ekanini ko‘rsatadi.

Sifatlash bo‘yicha tadqiqotlarda esa epitetning funksional-semantik xususiyatlari, uning qo‘shimcha ma’no va hissiy tonlarni yuzaga chiqarishdagi roli qayd etiladi [8]. Bu holat sifatlashni faqat “sifat + ot” qolipi bilan cheklamasdan, uning semantik va kognitiv tabiatini chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi ramz va sifatlashning nutq ta’sirchanligiga ta’sirini alohida hodisalar sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq semantik-pragmatik mexanizm sifatida tavsiflashga urinishda ko‘rinadi. Ramzning konnotativ va madaniy mazmuni sifatlashning baholovchi hamda ekspressiv imkoniyati bilan uyg‘unlashganda nutqning uch qatlamli ta’siri axborotiy, obrazli va baholovchi ta’sir yuzaga kelishi mumkin.

Amaliy jihatdan mazkur xulosalar ilmiy, publitsistik, diplomatik va ta’limiy matnlar yaratishda qo‘l keladi. Masalan, diplomatik nutqda “o‘zaro manfaatli hamkorlik”, “barqaror sheriklik” kabi birliklar rasmiy uslubga mos baholovchi aniqlik beradi. Publitsistik nutqda esa “hamkorlik ko‘prigi”, “do‘stlik rishtalari”, “yorqin istiqbol” kabi ramziy birikmalar mazmunni obrazli ifodalash imkonini beradi. Ilmiy matnda esa ramz va sifatlashning o‘zi emas, ularning funksiyasi tahlil qilinishi maqsadga muvofiq.

Nutqning ta’sirchanligi til birliklarining shakliy go‘zalligidan ko‘ra kengroq hodisa bo‘lib, unda mazmun, kontekst, madaniy tajriba, baholash va kommunikativ maqsad o‘zaro birlashadi. Ramz nutqqa qo‘shimcha semantik va madaniy qatlam olib kirib, qisqa birlik orqali keng assotsiativ maydon yaratadi. Sifatlash esa predmet yoki hodisaning kommunikativ jihatdan muhim belgisini ajratib, unga obrazli, ekspressiv yoki baholovchi tus beradi.

Ramz va sifatlashning uyg‘unligi nutqning ta’sirchanligini kuchaytiruvchi samarali mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq bu vositalarning samaradorligi ularning ko‘pligiga emas, kontekstga mosligi, semantik aniqligi va uslubiy me’yorlarga muvofiqligiga bog‘liq. Ayniqsa, rasmiy va ilmiy diskursda obrazlilik faktik mazmunni xiralashtirmasligi lozim.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ramz va sifatlashning korpus materiallari asosida chastotasi, janrlar bo‘yicha funksional farqlari, diplomatik diskursdagi qo‘llanishi hamda o‘zbek va boshqa turkiy tillardagi qiyosiy xususiyatlarini o‘rganish muhim istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – 59 б.
2. Habiyaliyeva M. Milliy tafakkurda ramz, indeks va ikon belgilarining lingvosemiotik talqini. Akademik tadqiqotlar jurnali. – Andijon, 2026. – B. 3-8.
3. Xoliqova Z. Ranglar ramziyati: til va madaniyat kesishmasida // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar. – 2026. – № 2. – B. 601-604.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 606 б.
5. Toshqulova Z. Sifatlash badiiy nutqning muhim tasviriy vositalaridan biri // PEDAGOGS. – 2024. – № 1. – B. 174-179.
6. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. – 247 b.
7. Turg‘unova M. Lingvokulturologiya sohasida hayvonlar nomi orqali yuzaga keluvchi ramzlarning semantik tahlil // CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION. – 2024. – № 3. – B. 24-27.
8. Komilova N. Epitet (sifatlash) kategoriyasining funksional-semantik xususiyatlari // Xorijiy tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar: nazariyaning amaliyotga tatbiqi. – 2025. – № 1. – B. 895-897.
9. Muxammadaliyeva Sh. Ramz va uning boshqa birliklardan farqi // Til va adabiyot.uz jurnali. – Toshkent, 2025. – № 3. – B. 137-138.

O‘ZBEK XALQ DOSTONLARIDA “YER VA OSMON” KONSEPTINING FRAZEOSEMANTIK TAHLILI

(Surxondaryo turkum dostonlari misolida)

Ahmedov Hakim Yarashevich
Termiz davlat universiteti dotsenti,
f.f.f.d. (PhD)
hakim83@uqituv.chi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot o‘zbek xalq dostonlarida “Yer va Osmon” konseptining frazeosemantik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ishda doston matnlarida uchraydigan yer va osmon bilan bog‘liq frazeologik birliklar, ularning semantik tarkibi, mifopoetik ildizlari va lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Konseptning qadimgi kosmogonik tasavvurlar, xalq mifologiyasi va badiiy tafakkur bilan aloqasi, shuningdek, milliy-madaniy kodlardagi ifodasi yoritiladi. Tadqiqotda frazeosemantik, konseptual, lingvokulturologik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalaniladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek xalq dostonlari, “Yer va Osmon” konsepti, frazeosemantika, frazeologik birlik, mifopoetik tasavvur, lingvokulturologiya, konseptual tahlil, kosmogonik motiv, milliy-madaniy kod.

Аннотация: Настоящее исследование посвящено изучению фразеосемантических особенностей концепта «Земля и Небо» в узбекских народных эпосах. В работе анализируются фразеологические единицы, связанные с землёй и небом, их семантический состав, мифопоэтические корни и лингвокультурологические особенности. Освещается связь концепта с древними космогоническими представлениями, народной мифологией и художественным мышлением, а также его выражение в национально-культурных кодах. В исследовании используются методы фразеосемантического, концептуального, лингвокультурологического и сопоставительного анализа.

Ключевые слова: узбекские народные эпосы, концепт «Земля и Небо», фразеосемантика, фразеологическая единица, мифопоэтическое представление, лингвокультурология, концептуальный анализ, космогонический мотив, национально-культурный код.

Annotatsiya: This study is devoted to the phraseosemantic analysis of the concept “Earth and Sky” in Uzbek folk epics. It examines phraseological units related

to earth and sky in epic texts, their semantic structure, mythopoetic roots, and linguocultural features. The paper highlights the relationship of the concept with ancient cosmogonic ideas, folk mythology, and artistic thinking, as well as its expression in national-cultural codes. The research employs methods of phraseosemantic, conceptual, linguocultural, and comparative analysis.

Keywords: Phraseology of dastan (epic poem), cognitive-semantic structure, concept, frame, metaphor, epic thinking, corpus linguistics, cognitive linguistics.

Xalq dostonlari frazeologiyasida yer va osmon konseptlari nafaqat jismoniy makon, balki butun bir dunyoqarash, axloq, qahramonlik va taqdir tushunchalarini ifodalovchi muhim ramziy tizim bo'lib, bu konseptlar ko'pincha zid qo'yilgan holda (oppozitsiya) dunyoning vertikal tuzilishini va insonning undagi o'rnini belgilab beradi. Dostonlarda yer, Alloh tomonidan yaratilib, insonlar uchun bir sinov maydoni sifatida berilganligi islom va qur'on ta'limotiga xos tarzda diniy va aqidaviy qarashlar zamirida shakillanganligiga guvoh bo'lamiz. Dostonlarda "Yer" konsepti *nafs, sinovlar makoni, ona, mehribonlik, sadoqat,muhabbat, qo'rquv, manzil* ma'nolarini ham mujassamlashtiradi.

"Yer konsepti"ni doston matnlari misolida ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish, uni oddiy jismoniy zamin yoki makon timsolidan tashqariga olib chiqib, inson mavjudligi, kurashi va taqdiri bilan bog‘liq chuqur arxetipik va falsafiy ramz sifatida talqin qilish imkonini beradi. Bu konsept doston qahramonlarining psixologik holati, jamiyatdagi o‘rni va umumbashariy kechinmalarini ochishning muhim badiiy vositasi hisoblanadi. Doston matnlarida "Yer konsepti" quydagicha ifodalandi.



Jismoniy zamin va makon sifatida: Dostonlarda *yer, zamin, tuproq, maydon, dasht* kabi so‘zlar qahramonlar harakat qiladigan jismoniy makonni anglatadi. Bu eng oddiy va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodadir.

Ramziy ma'noda: hayot asosi va o‘lim ramzi: “Yer konsepti” hayotning asosi va uning tugallanishi, o‘lim ramzi sifatida ham qo‘llanadi. Bu ikki tomonlama ma'no doston qahramoni taqdirining dramatik jihatlarini ochishga xizmat qiladi. Yer – unumdorlik, baraka va tirikchilik manbai bo‘lsa, ikkinchi tomondan, qabr, yo‘qotish va abadiy sokinlik makonidir. Masalan: *Qora er tortmoq, yer yutmoq, yer o’z bag’riga olmoq, tuprog’i tortmoq, tuprog’ini o’pmoq, ko’ziga tuproq tortmoq, yerdan rizqini olmoq, er bilan teng bo’lmoq, yer bag’riga kirmoq, Yer yuzida yurmoq, yerga bosh qo’ymoq va h.k.z.* Doston matnidagi frazemalarning barchasida “yer” endi shunchaki jismoniy zamin emas, balki hayotning boshlanishi (tug‘ilish, rizq) va tugashi (dafn, yo‘qolish) ramzi sifatida qo’llanilinadi. Aynan shu qarama-qarshilik ("hayot-yer" va "o‘lim-yer") o‘zbek epik tafakkurida “yer” konseptini falsafiy jihatdan chuqurlashtiradi. Masalan:

Boshingni tuman chotmasin,
Oyog‘ing toyib ketmasin,
Taning qovjirab ketmasin,
Baxtu iqboling qaytmasin,
Haddingdan oshma, ey qalmoq,
Qora yer seni yutmasin.

Doston matnida keltirilgan *“Qora yer seni yutmasin”* iborasi ushbu matnda yerning nafaqat jismoniy, balki metafizik kuchi sifatida namoyon bo‘ladi. Biz ushbu konseptni zamonaviy ilmiy yo‘nalishlar (ekologiya, psixolingvistika, semiotika, geofalsafa) prizmasidan tahlil qilib ko’rsak. **“Qora yer”** – tuproqning unumdor qatlami (chernozyom) bo‘lib, u hayot manbai. Biroq u dostondagi frazeologik birlik sifatida inson vafot etgandan so’ng uni o’z bag’riga qabul qiluvchi “*yutuvchi” (konsument)* sifatida tasvirlanadi. Neyro ilmiy jihatdan *“Qora yer yutishi”* frazeologik birligi qo’llanilganda inson markaziy nerv sistemasida “Amigdala” (qo‘rquv markazi) bunday iboralarga javoban stress-gormonlar ishlab chiqaradi. “Qora” rang va “yutish” fe’li birgalikda qo‘rquv sinestziyasini hosil qiladi. Ma’lumot o’rnida shuni ta’kidlashimiz joizki *“**Amigdala**”* — bu bosh miya yarim sharlarning yuqori qismida joylashgan, temporal qutbdan taxminan 1,5–2,0 sm orqada joylashgan, bodomsimon shaklidagi miya sohasidir. Miyada ikkita amigdala mavjud bo'lib, ularning har biri hissiy axborotni qayta ishlash, qaror qabul qilish va xatti-harakatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Amigdala hissiyotlarni, ayniqsa qo'rqishni shakllantirishda asosiy vazifani bajaradi. U shuningdek, xotiraning shakllanishida, qaror qabul qilishda hamda ijtimoiy xatti-harakatlarni boshqarishda

ham ishtirok etadi. Uni birinchi marta 1822-yilda nemis fiziologi Karl Friedrich Burdach aniqlagan va shu termini qo'llagan[5].

Doston matnida keltirilgan Yer konsepti bilan bog'liq "Qora er yutmasin" iborasi Semiotik va mifopoetik tahlil qilinganda avvalo **Yer – semiotik belgi** sifatida uchta asosiy ma'noni o'zida mujassamlashtiradi.(- chizma)

	Yer konseptining semiotik belgisi	Ma'noviy jihatlari	Mazmuni
	Ona	Hayot beruvchi	Urug' unib chiqadi
	Qabr	Hayot oluvchi	O'likni qabul qiladi
	Chegara	Gorizont	Insonning gorizontdan oshib ketishiga yo'l qo'ymaydi

"Qora yer seni yutmasin" – frazeologik birligi matnda ogohlantirish ma'zmuni bildirib, bu hayot va o'lim o'rtasidagi chegara hisoblanishini va "haddingdan oshma" degan tushunchani ifodalaydi. Matn maznunidan ma'lumki yer faqat haddidan oshganni, ya'ni kosmik tartibni buzganni "yutadi" va antropotsentrik dunyoqarashni buzuvchi zamonaviy posthumanistik geofalsafa bilan uyg'unlashadi.

"Qora yer seni yutmasin" – bu zamonaviy ilmda biologik (degradatsiya), kognitiv (qo'rquv), ekologik (inqiroz), falsafiy (material faolligi) va semiotik (chegara) qatlamlarning kesishmasidir. Bu ibora endi folklor xususiyatidan chiqib, inson va biosfera o'rtasidagi noaniq munosabatlarning operativ modeliga aylanadi. Unda "yutilmaslik" sharti – haddan oshmaslik, ya'ni ekologik, axloqiy va ontologik chegaralarni tan olishdir.

Falsafiy va axloqiy konseptsiya: "Yer" ko'pincha Vatan, makon, ona yurt tushunchalari bilan chambarchas bog'liq holda keladi. Doston matnlarida *tog', makon, o'lka, qir* kabi so'zlar orqali vatan ifodalangani kabi , "yer" ham shu semantik maydonga kiradi. Qahramon uchun "yer" – bu uning ildizi, ajdodlari, nomusi va or-nomusi bilan bog'liq muqaddas tushunchadir. Tadqiqot jarayonida kuzatishimizcha doston matnida qo'llanilgan "yer konsepti" bilan bog'liq frazemalar soni statistik jihatdan 64 tani tashkil etdi. Masalan: *Yerga urmoq, elkasi erga tegmoq, er tishlatmoq, keti er iskamas, tuprog'i tortmoq, yer bilan bitta qilmoq, yerga tiqmoq, tuprog'i og'ir, tuprog'ini o'pmoq, yer so'rab turmoq, yerga qarab qolmoq,*

[5] https://uz.wikipedia.org/wiki/Amigdala.

yer chizib qolmoq, yuzini yerga qaratmoq, jovrini(elkasi)yer iskamagan, yer qilib tashlamoq, yer mushtlab qolmoq va hk.z. Masalan**:** ***Yerga urmoq:*** *Shunda Go'ro'g'lining tog'asi Axmad sardor joyidan turib, gapni har yoqqa burib, Go'ro'g'lini yerga urib, "qo'rqmanglar", Go'ro'g'li chiltonlarga safdosh bo'lgan, suhbatdosh bo'lgan, o'zlariga qo'shib olgan, sizlarga aytsam endi, Go'ro'g'li bu dunyodan zavol bo'lgan, Chambilga kelmaydigan bo'lgan dedi.* Bu ibora dostonda kamsitish, sharmanda qilish, obro'sizlantirish ma'nosida keladi. Qahramonning dushman ustidan qozongan ma'naviy g'alabasi, uni *"yerga urish"* frazemasi orqali ifodalanadi. Ushbu matn dostonchilik tadqiqoti darajasida, ya'ni *folklorshunoslik, semiotika, psixoanalitik talqin, sotsiolingvistika va komparativ mifologiya* nuqtai nazaridan qayta ishlangan, ilmiy-badiiy gibrid uslubdagi matn hisoblanadi. Har bir ibora tahliliy sharh bilan boyitilgan, ammo badiiy tuzilma saqlangan. *"Yerga urmoq"* – doston motivning semiotik va ontologik talqini bo'lib, "Sanam va Gavhar" dostonidan bir epizodning interdisiplinar rekonstruksiyasini ko'rib chiqamiz. Go'ro'g'lining tog'asi Ahmad Sardor – epik makondagi ikkinchi darajali, ammo funktsional jihatdan muhim personaj – "*o'rnidan turdi*". Uning harakati faqat jismoniy emas, balki ritual-antagonistik xarakterga ega: u maydonni egallaydi, so'zni egri yo'naltiradi, ya'ni epik nutqning to'g'riligini buzadi**.** Go'ro'g'lini "yerga urdi" – bu ibora doston tilida metonimiya emas, balki metafizik akt bo'lib, qahramon nomining o'zini tuproqqa tenglashtirish, uning epik mavqeyini yo'q qilishga qaratilgan performativ nutqiy harakat hisoblanadi.

Umuman olganda dostonlarda qahramonlar boshiga mushkul savdo tushganida *yer, osmon, tog', suv* kabi kosmogonik unsurlarga talpinib, ulardan madad so'rashadi. Bu holat dostonlar dunyoqarashining negizida yotgan qadimiy e'tiqod va falsafiy qarashlarni ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Axmedov H. "Alpomish dostonida frazeologizmlarning tematik va mifologik strukturasi: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) ...diss. –Termiz, 2023. – 19 б.
2. Маматов А., Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик-прагматик тадқиқи. Монография. –Тошкент, 2018. – Б. 6.
3. Malla savdogar. O'zbek xalq dostoni. Aytuvchilar Ch. Rahmatullaev, A. Poyonov. Sh. Boltaev. –Toshkent: Akademnashr, 2019. – 5 b.
4. Ш. Сафаров. Когнитив тилшунослик. Жиззах. Сангзор нашриёти.2006-й. 92-Б.
5. Xonoyim pari. O'zbek xalq dostoni. Aytuvchilar Ch. Rahmatullaev, A. Poyonov. Sh. Boltaev. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matba uyi , 2022. – 52 b.

А.БАЙТҰРСЫНҰЛЫ ЖӘНЕ ҚАЗІРГІ ҚАЗАҚ ТІЛІ СИНТАКСИСІ ҒЫЛЫМЫНДА ҚАЛЫПТАСҚАН ТЕРМИНДЕР ЖҮЙЕСІ

ЕРГУБЕКОВА Ж. С.
Қожа Ахмет Ясауи атындағы Халықаралық қазақ-түрік университеті, PhD, доцент (Қазақстан, Түркістан қ.)
e-mail: zhanat.yergubekova@ayu.edu.kz

Қазақ тіл білімінің түрлі деңгейлері бойынша XX ғасырдың басында алғашқы оқулықтарды жазу және аудару салалық терминологияны қалыптастыруға мүмкіндік берді. Қазақ тілінің белгілі терминолог ғалымы Ш.Құрманбайұлы осы кезеңге дейін терминдерді қалыптастырудың белгілі бір дәстүрі тұрақты ұстанымдарының болмауына байланысты осындай күрделі тапсырмаларды орындау ісін қазақ ғалымдары, заман талап еткен мұндай жауапты міндеттің А. Байтұрсынұлы және Алаш зиялылары басы-қасында болып абыройлы атқарғанын атап көрсетеді [1, 124.]. Алаш зиялыларының алдында қазақ тілі терминдерін қазақ тілінен, шет тілдерінен алудың, яғни қазақ ғылымында термин табу, қалыптастыру ұстанымдарын белгілеу тұрды.

Қазақ тіл білімі ғылымының атасы А. Байтұрсынұлы ұлттық тілде термин жасаудың тамаша үлгісін көрсетті. Ғалым Ш.Құрманбайұлы қазақ теринологиясының кезеңдерін анықтауда басы өткен ғасырдың 10-жылдарынан басталады деді. Ғылым мен техниканың түрлі салалары бойынша қазақ тілінде алғашқы оқулықтар жазыла бастады, ашылуына өздері мұрындық болған газет-жорналдары арқылы ғылым-білімді насихаттады, ғылыми терминологияны қалыптастыруға негіз болды. А.Байтұрсынұлы бастаған қазақ зиялыларының термин жасаудағы басты ұстанымдары ұлттық тіл негізінде терминдік лексика құруға бағытталғандығымен ерекшеленеді.

Ғалым - қазақ тіл білімі, әдебиеті ғылымы терминдерінің авторы болумен бірге ұлттық әдістеме, тарих, этнография терминдерінің жасалуына, қалыптасуына көп еңбек сіңірген. А.Байтұрсынұлы терминдерінің кейбірі ғана стильдік өзгерістерге ұшыраған болмаса, барлығы дерлік тілдің фонетика, морфология, синтаксис және графика терминдерінің негізі болып саналады, олар - қазақ тілінің барлық оқулықтарында қолданыстағы терминдер.

Қазақтың төл сөздерінен термин жасауға болатын үлгісін көрсетті - А. Байтұрсынұлының термин жасаудағы 1-ұстанымы. Екінші ұстаным шеттілдік терминдерді қабылдауға қатысты. Ғалым да, Алаш зиялылары да шеттілдік термин сөздердің қабылдануына қарсы болмады. Тілде баламасы болмаған жағдайда шеттілдік термин сөздерін қазақ тілінің дыбыстық заңдылықтарына сәйкестендіріліп қолдануға болады деп есептеген. рұқсат етіледі, бірақ шетел

терминдері керек. Термин атауының орнына алаш зиялыларының жат сөздер мен пән сөздері қолданылды.

Бүкілодақтық бірінші түркологиялық конгресте А.Байтұрсынұлы «Қазақ білімпаздарының I съезінде» бекітілген қағидалар негізінде толықтырылған, жүйеленген терминология қағидаттары туралы баяндама жасады. Баяндамада ұсынылған қағидаттар мыналар:

«а) Ең алдымен термин ретінде ұғым мағынасын толық беретін қазақ сөздерін алу. Бұл қазақ тілінің жоғарыдағылар мен төмендегілердің, дәлірек айтқанда сауаттылар мен сауатсыздардың тілі болып жіктелмесі үшін керек. Қай жерде және кім бастырып шығарса да баспа өнімдері, газет-журналдар, кітапшалар пайда әкелуі үшін, тіл қалың көпшілікке түсінікті болуға тиіс. Сонда аз ғана пайызды құрайтын сауаттылар көптеген сауаты жоқтарға қызмет көрсете алады. б) Ондай сөздер қазақ тілінде болмаған жағдайда оларды туыстас тілдерден алу. Олай етуіміздің себебі: 1) туыстас тілдердің көптеген сөздерінің тұлғалары бірдей болмаса да олар ортақ түбірден тараған, сол себепті туыстас емес тілдердің сөздеріне қарағанда оларды түсіну жеңіл және естігенде де айтқанда да бөтен болып сезілмейді; 2) түркі халықтары қашанда өзара қарымқатынаста болған және бола береді, сондықтан да бір тілдің көптеген сөздері ортақ түбірден өрбімесе де өзге тілдің тұтынушыларына таныс болуы мүмкін. в) Жаппай қолданылатын әлемдік терминдер қабылдана алады, бірақ олар қазақ тілінің табиғатына сәйкес өзгертілуі керек. Оларды алмастыруға болатын қазақ сөздері болған жағдайда таңдауды қоғамның өзі жасауы үшін, екеуі де қатар алынуы тиіс. Жаппай қолданылатын деп біз араб сөздерін емес, қазіргі кең тараған европа сөздерін айтып отырмыз. Араб сөздеріне қарағанда оларға басымдық беріп отыруымыздың себебі біз қазір араб емес европа мәдениетіне ден қойып отырмыз. Европа мәдениетінің барлық жетістіктері тұтастай европа тілдерінде атала алады. Алайда кірме терминдер біздің қазақ тілінің айтылуына бағынуға тиіс, яғни оларға тілдің қалыпты артикуляциясынан бастау алатын біздің тіліміздің дыбыстық заңдылықтары үстемдік етуі (таратылуы) керек. Шет тілдерінің сөздерін өзіміздікі ету үшін, бұл міндетті түрде солай болуы қажет. г) Қазақ тілінің табиғатына сәйкеспейтін барлық өзге тілдердің сөздері дәл қазақтың айтуына сәйкес өзгертілуі керек. Бұл дегеніміз, біріншіден, құрамында қазақ тіліне жат дыбыстары бар барлық сөздердің тиісті төл дыбыстарымызбен алмастырылады, екіншіден, кірме сөздердің жұрнақтары қазақ жұрнақтарымен қабылданады, төртіншіден, қазақ тіліне жат қосымшалар Оренбург-Орынбор, Самара-Самар, пуховой-бөкебай, покров-боқырау, Адамовский-Адамау т.б сияқты тілге қажетті талап шеңберінде өзгертілуге тиіс» [2, 417-425 б.].

А.Байтұрсынұлы жиынға қатысушыларға өзі және қазақ оқымыстылары жасаған принциптерді ұсынып, өзге түркі ғалымдары да ғылыми терминологияның қалыптасуында осы принциптерді негізге алуды ортаға салды. Ұсынылған принциптер қолдау тауып, құрылтай қарарына енгендігін ғалым Ш.Құрманбайұлы атап көрсетті [3, 51–52 б.б.].

А.Байтұрсынұлының қазақ тілінің фонетикасы, морфология, синтаксис ғылымдарына, яғни дыбыс, сөз және сөйлем жүйесіне арналған «Тіл – құрал» оқулықтарында 310 тілдік термин қолданылған. Бұл терминдердің 118-і қазіргі қазақ тіл білімінде пайдаланылады, 192-сі қазір қолданылмайды. Аталған көрсеткішті тіл ғылымының деңгейлеріне қатысты алсақ: фонетика бойынша 108 термин; лексикология бойынша 11 термин; морфология ғылымы бойынша 109 термин; синтаксис бойынша 64 термин; жалпы тіл біліміне қатысты 18 термин екендігін Ахметтану орталығы зерттеулері арқылы анықталды [4, 14–15 б.]

Сонымен, Ұлт Ұстазы А.Байтұрсынұлының термин жасаудағы ұстанымдары:

1) ұғымның мағынасын термин ретінде толық жеткізетін қазақ сөздерін алуы;

2) қазақ тілінде мұндай сөздер болмаған жағдайда, оларды туыстық тілдерден алуға болатындығы;

3) халықаралық терминдер қабылданған жағдайда қазақ тілінің табиғатына сай дыбыстық өзгеріске түсуі тиіс;

4) қазақ тілінің табиғатына сәйкес келмейтін барлық басқа тілдердің сөздері дәл қазақ тілінің айтылуына сәйкес өзгертілуі тиіс.

Ғалым Анар Салқынбай көрсеткен А.Байтұрсынұлы авторлығымен қалыптасқан терминдерінің ерекшеліктері мынада: - анықталатын ұғымның дәлдігі; - таңбаланған атаудың қазақилығы; - терімсөздің жалқылық сипатының болуы; -терімсөздің нақтылығы; - әрбір терімсөздің мазмұндық уәжділігі.

Қазақ тілі білімінің қалыптасу кезеңдерін айқындап берген ғалым Т.Қордабаев: «А.Байтұрсынов - қазақ тілін туған тілімізде зерттеудің үлгісін жасап, оның ғылыми терминдерін қалыптастырып, сөйтіп, тіліміз туралы берік негізін қалаған ғалым ғана емес, сонымен бірге оның ілгері дамуына, болашағына бағыт-бағдар сілтеген, игі әсер еткен ғалым», - деп ұлттық тіл ғылымымының атасы А. Байтұрсынұлы еңбектерін ерекше бағалайды [5].

Ұлттық тіл ғылымында ғалым А.Байтұрсынұлы оқулығы - «Тіл тағылымы» - синтаксис ғылымының қалыптасуына бірден-бір ықпал еткен басты оқулық. 1992 жылы жарық көрген «Тіл тағылымы. (Қазақ тілі мен оқу - ағартуға қатысты еңбектері» деген еңбегіндегі сөйлем жүйесі мен түрлері

мәселелеріне арналған «Тіл-құрал» бөлімінде жай сөйлемнің түрлерін мысалдармен көрнекті түсіндірген. Ұлт Ұстазы сөйлемге «Сөйлем дегеніміз – сөздердің басын құрастырып, біреу айтқан ой, сөйлегенде, жазғанда кім де болса ойын айтады» деген анықтама берген. Жалаң, жайылма сөйлемдерге берген анықтамасы қазір оқытылып жүрген мектеп оқулықтарындағы ережелерге сай келеді: бастауышы мен баяндауышы бар, екі мүшелі ғана сөйлем жалаң сөйлем, ал бастауыш пен баяндауышты тұрлаулы мүшелер деп айтып кетіп, одан басқа мүшелер қатысқан сөйлемді жайылма сөйлем деп көрсеткен. Оқулықтың екінші бөлімінің «Сөйлем түрлері» тарауында сөйлем түрлерін типтендіріп, жай сөйлемнің құрылымдық түрлерін болымды, болымсыз, толымды, толымсыз, жалаң, жайылма болатынын, «Болымды сөйлемді не жайынан да болса болдыра, бар қыла сөйлеген сөйлем» - деген анықтама беріп, «Үлкен бастар, кіші қостар» мысалдарымен дәлелдейді.

Төл тіліміздің сөздері арқылы жасалған тіл ғылымының терминдеріне *сөйлемнің тұрлаулы мүшелері, сөйлемнің тұрлаусыз мүшелері, бастауыш, баяндауыш, анықтауыш, толықтауыш, пысықтауыш, зат есім, сын есім, етістік, қаратпа сөз, леп белгісі, сұрау белгісі, үстеу, шылау, одағай, қыстырма сөздер т.б.* терминдерді атауға болады: «Сөйлемнің тұрлаулы мүшелері екеу: *1) бас мүше, 2) баяншы мүше.* ***Бас мүше*** дейміз – сөйлем ішіндегі сөздер байланатын қазық сөзін, сөз иесін. Сөйлем ішінде сол нәрсенің атын көрсететін сөз бас мүше болады. Ол нәрсенің сырын-сипатын, жайын, амалын, болмысын айтып баяндайтын сөз ***баяншы мүше*** болады. Жеңілдік үшін бас мүше –**бастауыш** деп, баяншы – **баяндауыш** деп аталады. Бастауыш бір сөзбен айтылмай, бірнеше сөзбен айтылса *қосарлы* немесе *күрделі* деп атаймыз. Мысалы: *Асық ойнаған азар.* Мұнда асық ойнаған туралы айтылып тұр. Кім азар? – асық ойнаған.

Ал, сөйлемдердің құрмаласуы екі түрлі: *1) сыйыса құрмаласу, 2) қиыса құрмаласу.* Сыйыса құрмаласса, сөйлем сыйысулы құрмалас деліп, қиыса құрмаласса, сөйлем қиысулы құрмалас деліп аталады. Сыйысулы құрмаласқа мысал келтіретін болсақ, *Қарабай мен Сарыбай аңға шықты.* Бұл сөйлем екі сөйлемнің сыйысып қосылғанынан болған. Қосылмай бөлек тұрғандағы түрлері мынау: *Қарабай аңға шықты. Сарыбай аңға шықты.* Бұларды екі қайта айтып жатпас үшін, екеуін сыйыстырып қосып, бір-ақ айтқан. Бұл мысалда айта кететін бір жайт, Қарабай, Сарыбай бір сұраққа жауап беріп, бірыңғай мүше қызметін атқарып жай сөйлем болып тұр [5].

Зерттеуші ғалым Е.Тілешов: «Байтұрсынұлы терминдері – тіліміздің термин жасаудағы байлығы мен бейімін, икемділігі мен әлеуетін ерекше байқатты. Оның терминдері қазақ тіл білімі саласында да, әдебиеттану ғылымы

саласында да өміршеңдігін танытып, термин жасаудың кемел үлгісін көрсетіп, бүгіндері термин жасамның әдіснамалық, теориялық негізіне айналған. Қазақ тілінің оқулықтарын жазып, тіліміздің теориялық негіздерін жасаған А.Байтұрсынұлы – тілді игертудің, тіл табиғатын түсіндірудің амалдары мен әдістері жайына да ден қойып, ұлттық әдістеменің де негізін салды» деген құнды пікірімен «Тіл жұмсар», «Баяншы», «Әліп-би астары» кітаптары және мақалалары осы бағыттағы арналы ізденістерін, ұстаздың бай тәжірибесін оқырмандарға қайта жариялады [2,3].

Қорыта айтқанда, қазіргі синтаксис ғылымы терминдерінің басында А.Байтұрсынұлы тұрғаны анық. Ол терминдердің өміршеңдігін ғылымда қолданыс аясынан көруімізге болады. Латыннегізді қазақ жазуы жүзеге асуы барысында шеттілді терминдеріміз де Ұлт Ұстазы ұсынған ұстанымдар бойынша ана тілінің дыбыстық икемделуіне түседі. Ғалымның ғылыми ұстанымдары, тіл үйретудегі қарапайым әдіс-тәсілдерінің өзі бұл күнде аты бар технологияларға айналғандығы Ұлт Ұстазы А.Байтұрсынұлы еңбектерінің құндылығын көрсетеді.

Пайдаланылған әдебиеттер:

1. Құрманбайұлы Ш. Қазақ терминологиясы: зерттеулер, оқулық, сөздік, библиография. Алматы: «Сардар», 2014

2 Ахмет Байтұрсынұлы. Тіл – құрал. Алматы, «Сардар» баспасы, 2009 - 348 бет https://www.soyle.kz/book/view?id=12

3. Құрманбайұлы Ш. Алаш және терминтану (XX ғасырдағы қазақ терминологиясы; 1910-1930 жылдары): монография. – Алматы: «Ел-шежіре» ҚҚҚ, 2008. – 240 б.

4 Ахметтану бастамалары: оқу-әдістемелік құрал. – Қарағанды: «Болашақ» баспасы, 2005. – 207 б.

5 http://www.rusnauka.com/40_OINBG_2014/Philologia/7_183703.doc.htm

OLIY TA'LIMDA TALABALARNING VATANPARVARLIK TARBIYASINI QADRIYATLI VA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA LOYIHALASH

Urazov Bagdat Tulepbergenovich
Guliston davlat universiteti dotsenti, p.f.f.d.,(PhD)
Urazova Sandug'ash Bagdat qizi
Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti
I-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda vatanparvarlik tushunchasi shunchaki hissiy tushuncha emas, balki qadriyatlarga asoslangan (values-based) va kompetensiyaga yo'naltirilgan (competency-oriented) yondashuvlar sintezi sifatida tadqiq etiladi. Maqolada o'quv dasturlarini tizimli loyihalashda fanlararo gorizontal va vertikal integratsiyaning o'rni, talabalarning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, o'zbek va qozoq adabiyoti namunalari misolida milliy qadriyatlarning yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Tayanch so'zlar: vatanparvarlik, oliy ta'lim, kompetensiya, qadriyat, fanlararo integratsiya, rivojlanish trayektoriyasi, milliy o'zlik, ijtimoiy mas'uliyat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются актуальные вопросы воспитания студентов в духе патриотизма в современной системе высшего образования. В исследовании понятие патриотизма рассматривается не только как эмоциональная категория, но и как синтез ценностно-ориентированного (values-based) и компетентностно-ориентированного (competency-oriented) подходов. В статье раскрывается роль горизонтальной и вертикальной междисциплинарной интеграции в системном проектировании образовательных программ, а также механизмы формирования индивидуальной траектории личностного развития студентов. Кроме того, на примере произведений узбекской и казахской литературы обосновывается значение национальных ценностей в повышении социальной активности молодежи.

Ключевые слова: патриотизм, высшее образование, компетенция, ценность, междисциплинарная интеграция, траектория развития, национальная идентичность,

ABSTRACT

This article analyzes current issues related to fostering a sense of patriotism among students in the modern higher education system. The study examines the concept of patriotism not merely as an emotional notion, but as a synthesis of values-based and competency-oriented approaches. The article highlights the role of horizontal and vertical interdisciplinary integration in the systematic design of curricula, as well as the mechanisms for developing students' individual trajectories of personal growth. Furthermore, using examples from Uzbek and Kazakh literature, the study substantiates the importance of national values in enhancing the social engagement of young people.

Keywords: patriotism, higher education, competence, values, interdisciplinary integration, development trajectory, national identity, social responsibility.

Kirish. Zamonaviy oliy ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri nafaqat yuqori malakali mutaxassis tayyorlash, balki milliy o'zligini anglagan, davlat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'ya oladigan vatanparvar shaxsni shakllantirishdir. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun qadriyatlarga asoslangan (values-based) va kompetensiyaga yo'naltirilgan (competency-oriented) ta'lim modellarining sintezidan foydalanish zaruriyati tug'iladi. Vatanparvarlik tarbiyasi endilikda faqat hissiy tushuncha emas, balki aniq ijtimoiy ko'nikmalar va professional mas'uliyat majmuiga aylanmoqda. Mamlakatda vatanparvarlikni rivojlantirish masalasi kun tartibidagi masalalardan biridir. Chunki biz kimningdir ichida vatanparvarlik ruhini shakllantira olmasak, davlat, uning tuzilishi va huquqiy tizimiga nisbatan betartiblik yoki huquqiy nigilizm paydo bo'ladi. Shuning uchun ushbu muammoni har tomonlama ilmiy baholash zarur.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi xalqimizning o'tmishi va madaniy merosiga hurmat ko'rsatish va O'zbekistonda yashovchi barcha millatlarning madaniyatiga nisbatan bag'rikenglik munosabati turli xil ijtimoiy muammolarni hal qilish va ularga javob berishga tayyorlik kabi immunitetni yaratadi, deb hisoblaymiz. Vatanga muhabbat tuyg'usi, Vatanparvarlik hissi insonda butun umri davomida shakllanadi, u siyosiy jarayonlarda ishtirok etish, Vatanni himoya qilish va uning jamiyatdagi o'rni muhimligini anglashdan boshlanadi. Shaxsiy qadriyatlardan tashqari, insonga boshqa umuminsoniy qadriyatlar ham kerak. Milliy ongni shakllantirish kerak. Milliy ong - bu sizning yaqinlaringizning sog'ligiga emas, balki millatingizga g'amxo'rlik qilishni anglatadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ko'p millatli O'zbekiston xalqi uchun vatanparvarlik tuyg'usi nafaqat ma'naviy sohada tinch-totuv yashashga, fuqarolik

totuvligiga, balki jahon hamjamiyati asoslarini mustahkamlashga, davlatning jahon sivilizatsiyalashgan mamlakatlariga qo‘shilishiga bevosita ta’sir qiladi. Vatanga muhabbat tuyg‘usida tarbiyalsh - “har bir inson, avvalo, o‘z xalqining farzandi, o‘z Vatanining fuqarosi bo‘lishi kerakligini, milliy kelajak faqat o‘ziga bog‘liqligini yodda tutishi kerak. Bu borada milliy an’analar va urf-odatlarning roli katta, buning natijasida u umumiy fuqarolik madaniyatiga kirib, o‘z xalqining madaniy manfaatlarini boshqa xalqlarga tushuntirib targ‘ib qilishi mumkin. Shuning uchun har bir avlod o‘z xalqining ma’naviy merosini o‘zlashtirishi, o‘tmishini ob’ektiv omillar sifatida ko‘rsatishi va to‘plangan boy tajriba asosida tarbiyalashi kerak.”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev o‘z nutqlaridan birida “Barchamiz uchun Vatan bitta. Bizni yagona, ulug‘ bir maqsad birlashtiradi. U ham bo‘lsa, yurtimiz tinchligi, Vatanimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligidir. Barchamiz birgalikda Yangi O‘zbekistonni albatta barpo etamiz, – deya, ilmli bo‘lish, kasb-hunar egallash, qalbingizda vatanparvarlik tuyg‘usi kuchli bo‘lsa, shijoatingiz yanada baland bo‘ladi”, - deya, bugungi talaba-yoshlarimiz bilan olib boriladigan ta’lim va tarbiya jarayonlarida talaba-yoshlardagi Vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usining sifat ko‘rsatkichlarini voyaga etkazishning yangi-yangi tizimlarini ishlab chiqish kerakligini kun tartibiga qo‘ydilar. Davlatimiz rahbari bu masalada tarixiy an’analarimiz bilan chetel davlatlarining tajribalarini umumlashtirib, mamlakatimizda yosh avlodni ya’ni, bolalar va o‘smirlarni Vatanga muhabbat tuyg‘usida tarbiyalash maqsadida Vatanparvarlik tashkilotlarini tuzish kerak ekanligini ta’kidlab, o‘z tavsiyalarini berdi.

OTM talabalarini Vatanga muhabbat tuyg‘usida tarbiyalash va ijtimoiy maydonga Vatanga muhabbat tuyg‘usini targ‘ib qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi, bu borada texnik va texnologik vositalarning imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Misol uchun, talaba-yoshlarda fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyatini shakllantirish maqsadida turli sport musobaqalari, ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilmoqda. Ayniqsa, talaba-yoshlarda Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining IV-bo‘lim, 70-maqsadi “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” deb nomlanib “Yoshlarni vatanparvarlik, fuqorolik tyug‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash”, V-bo‘limning 74-maqsadi “Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash” deb nomlanib “Turli millat yoshlari uchun qo‘simcha qulay shart-sharoitlar, ularda fuqorolik burchni anglash, vatanparvarlik, bag‘rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish” deb belgilanganligi

mamlakatimiz yoshlarida Vataniga bo‘lgan muhabbatni, vatanparvarlik ruhni chinakam e’tiqodga aylantirish bilan bog‘liq ilmiy muammolarni tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Zamonaviy oliy ta’lim paradigmasida talaba nafaqat bilimlar retsipienti (qabul qiluvchisi), balki ijtimoiy taraqqiyotning drayveri sifatida qaraladi. Shu sababli, talabalarda Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish jarayoni an’anaviy “targ‘ibot” metodikasidan voz kechib, qadriyatlarga asoslangan (values-based) va kompetensiyaga yo‘naltirilgan (competency-oriented) ta’limning innovatsion sinteziga tayanmoqda. Ushbu yondashuvning mohiyati shundaki, vatanparvarlik endilikda mavhum hissiyot emas, balki shaxsning kundalik faoliyati, kasbiy mahorati va milliy manfaatlarni himoya qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladigan aniq ko‘nikmalar majmuidir. Masalan, talaba o‘z mutaxassisligi bo‘yicha jahon andozalariga mos loyiha yaratar ekan, bu uning intellektual vatanparvarlik kompetensiyasining amaliy isbotiga aylanadi.

Tadqiqot ishi doirasidagi maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda Vatanga muhabbat tuyg‘usida tarbiyalash kategoriyasining mazmun mohiyati, lug‘atlarda ta’riflanishini tahlil etishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Vatanga muhabbat tyug‘usi deganda – Vatan, ona yurt tushunchasini his qilishimiz mumkin. Vatan tushunchasi yo‘q joyda Vatanga muhabbat tuyg‘usi tog‘risida xattoki so‘z ham yuritib bo‘lmaydi. Vatan (arabcha so‘zdan olingan bo‘lib – tug‘ilib o‘sgan joy, ona zamin, yurt degan ma’noni anglatadi) – kishining tug‘ilib o‘sgan o‘lkasi, shaxri yoki qishlog‘i, yurti, diyori yoxud kishi tug‘ilib o‘sgan va o‘zini uning fuqarosi hisoblagan davlat, mamlakat, ona yurt sifatida ta’riflanadi.

Kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim vatanparvarlikning amaliy ifodasidir. Bu yerda “muhabbat” tushunchasi aniq ijtimoiy, huquqiy va professional ko‘nikmalar bilan mustahkamlanadi. Masalan, mafkuraviy immunitet kompetensiyasi talabaga global axborot maydonidagi turli xurujlarni tahlil qilish, feyk xabarlarni ajratish va milliy manfaatlarni raqamli makonda himoya qilish imkonini beradi. Shuningdek, ijtimoiy faollik kompetensiyasi orqali talaba o‘z hududidagi ekologik muammolarni hal qilishda yoki volontyorlik harakatlarida qatnashib, o‘z yurtiga bo‘lgan sadoqatini amalda isbotlaydi.

Ushbu ikki yondashuvni birlashtirishning eng maqbul usuli — o‘quv dasturlarini tizimli loyihalash (curriculum integration) hisoblanadi. Bunda vatanparvarlik tarbiyasi bitta fan doirasida cheklanib qolmay, barcha fanlar kesimida, gorizontal va vertikal bog‘liqlikda amalga oshiriladi.

Gorizontal bog‘liqlik o‘quv rejasidagi fanlarning bir-birini to‘ldirishini ta’minlaydi. Masalan, adabiyot darsida “Vatan” mavzusi badiiy obrazlar orqali his qildirilsa, tarix darsida bu hissiyot ilmiy faktlar bilan boyitiladi, iqtisodiyot yoki

huquq darslarida esa ushbu tushuncha fuqarolik burchi va mamlakat ravnaqi uchun kasbiy mas'uliyat darajasiga ko‘tariladi. Ayniqsa, adabiyot darslarida qadriyat va kompetensiya uyg‘unligi yaqqol namoyon bo‘ladi: talaba asarni shunchaki o‘qimaydi, balki undagi gumanistik g‘oyalarni bugungi kunning ijtimoiy muammolari bilan qiyoslaydi, o‘z fikrini asosli tarzda ifodalash (kommunikativ kompetensiya) ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Vertikal bog‘liqlik esa tarbiya jarayonining uzviyligini ta'minlaydi. 1-kursda talaba milliy qadriyatlarni anglash va tushunish bosqichida bo‘lsa, yuqori kurslarga borib, u o‘z sohasining yetuk mutaxassisi sifatida "kasbiy vatanparvarlik" bosqichiga yetadi. Ya'ni, muhandis talaba uchun Vatanga muhabbat — bu xavfsiz va innovatsion binolar qurish, shifokor uchun esa — millat salomatligini saqlashga sidqidildan xizmat qilishdir. Tadqiqotimizning metodologik asosi sifatida fanlararo integratsiya (curriculum integration) tamoyili xizmat qiladi. Bu jarayon gorizontal va vertikal bog‘liqlik orqali tarbiya jarayonining uzviyligini ta'minlaydi. Gorizontal integratsiyaga aniq misol sifatida adabiyot, tarix va pedagogika fanlarining o‘zaro uyg‘unligini keltirish mumkin. Adabiyot darslarida Cho‘lponning "Buzilgan o‘lkaga" yoki Abay Qunonboyevning o‘gitlari (Qora so‘zlari) tahlil qilinib, talabaning hissiy-axloqiy olami (qadriyat) shakllantirilsa, Iqtisodiyot darslarida ushbu hissiyot "milliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash" va "mamlakat eksport salohiyatini oshirish" kabi aniq amallar (kompetensiya) bilan boyitiladi. Vertikal integratsiya esa bakalavriatning 1-kursidan 4-kursigacha vatanparvarlik darajasining kognitiv bosqichdan (bilish) professional daxldorlik bosqichiga (kasbiy sadoqat) ko‘tarilishini ta'minlaydi.(1-rasm) Talabaning 4 yillik o‘qish davrida vatanparvarlik tuyg‘usining o‘sib borishi quyidagi metodik ketma-ketlikda tashkil etildi:



1-rasm. Rivojlanish trayektoriyasi (Trajectory-based development) bo‘yicha tarbiya bosqichlari

Amaliy dalil sifatida o‘zbek va qozoq milliy adabiyoti hamda folklorining qiyosiy tahlili talabalarda “mintaqaviy daxldorlik” va “madaniy birlik” qadriyatlarini mustahkamlaydi. Masalan, “Alpomish” dostoni yoki jadid ziyolilarining adabiy aloqalarini o‘rganish jarayonida talabalar ikki xalqning ozodlik va Vatan tushunchalaridagi mushtaraklikni anglaydilar. Bu esa ularda nafaqat milliy g‘ururni, balki qo‘shni xalqlar madaniyatiga hurmat bilan qarash ko‘nikmasini ham shakllantiradi. Bunday yondashuv talabani globallashuv davridagi turli mafkuraviy xurujlardan himoya qiluvchi axborot immuniteti va tanqidiy fikrlash kompetensiyasi bilan qurollantiradi. Statistik ma’lumotlar va o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatadiki, loyihaga yo‘naltirilgan ta’lim (project-based learning) usulida “Mening mutaxassisligim — Vatanim ravnaqi uchun” mavzusida keyslar bilan ishlagan talabalarning ijtimoiy faollik ko‘rsatkichi an’anaviy dars o‘tilgan guruhlarga nisbatan yuqori bo‘ladi.

Shuningdek, tarbiya jarayonini natijaga yo‘naltirishda (productivity-oriented) talabaning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini (trajectory-based development) belgilash muhim ahamiyatga ega. Bunda talabaning vatanparvarlik darajasi shunchaki nazariy imtihon bilan emas, balki uning ijtimoiy loyihalardagi ishtiroki, volontyorlik faoliyati va professional yutuqlari bilan o‘lchanadi. Bunday pedagogik model talabani “bilimlar ombori” bo‘lishdan “jamiyat bunyodkori” bo‘lish darajasiga ko‘taradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, talabalarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashni qadriyatli va kompetensiyaviy asosda loyihalash ta’lim tizimining yaxlitligini ta’minlaydi. Bunda tarbiya maqsadi ta’lim mazmuniga singib ketadi va talabaning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasining ajralmas qismiga aylanadi. Pedagogik imkoniyatlarni aniqlashtirishda asosan hissiy va intellektual jarayonlarni amaliy ko‘nikmalar bilan boyitish, fanlararo bog‘liqlik orqali dunyoqarash kengligini ta’minlash va har bir o‘quv elementini milliy manfaatlar prizmasidan o‘tkazish lozim. Bunday yondashuv natijasida shakllangan vatanparvarlik tuyg‘usi barqaror, ongli va ijodiy xarakterga ega bo‘lib, uzoq muddatli ijtimoiy natija beradi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. // PF-60-son. 28.01.2022-y.
3. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – Toshkent: "Sharq", 2004. (Milliy meros va tarbiya masalalari uchun).
4. Уразов Б. Т. Освещение темы экологии в творчестве мекембая Омарова //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 2 (47). – С. 106-107.
5. Уразов Б. Т. М. Омаров - Балалар патшалығының ақыны //Academic research in educational sciences.– 2021.– Т. 7.
6. Tulepbergenovich U. B. Fostering Patriotism and Emotional Attachmentto the Motherlandin Students through Literature Classes //Spanish Journal of Innovation and Integrity.– 2025.– Т. 49.–С.75-78
7. Tulepbergenovich U. B. TALABALARNING QALBIDA VATANPARVARLIK ONG VA TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISH (O'ZBEKISTONLIK QOZOQ YOZUVCHILARINING ASARLARINI O'RGANISH MISOLIDA) //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2024. – Т. 7. – №. 12. – С. 78-81.
8. Tulepbergenovich U. B. O‘ZBEK VA QOZOQ MILLIY QADRIYATLARINING ZAMONAVIY KONSEPTUAL TALQINI: MUSHTARAKLIK VA TRANSFORMATSIYA //Advances in Science and Education. – 2026. – Т. 2. – №. 03. – С. 103-106.
9. Tulepbergenovich U. B. THE IMPORTANCE OF IMPROVING THE PROCESSES OF EDUCATING UNIVERSITY STUDENTS IN A SENSE OF LOVE FOR THE MOTHERLAND AT THE PRESENT TIME.

“LUG‘ATI NE’MATULLOH”DA FONETIK, GRAMMATIK, DIALEKTAL VA ETNOGRAFIK MA’LUMOTLARNING BERILISHI

Maxamadaliyev Xislatxon Matlabovich,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Nizomiy nomidagi O`zbekiston milliy pedagogika universiteti
hislatmahamadaliev@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada “Lug‘ati Ne’matulloh” asarida fonetik, grammatik, dialektal va etnografik ma’lumotlarning ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Lug‘at tarkibidagi ayrim birliklarning fonetik variantlari, grammatik shakllari va hududiy qo‘llanish doirasi misollar asosida yoritiladi.

Shuningdek, lug‘atdagi kiyim-kechaklar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, o‘simlik va xalq tabobati, kasb-hunar va ijtimoiy munosabatlarga oid etnografik leksika tahlilga tortiladi. Misollar orqali lug‘atning tarixiy til materiallarini saqlashdagi ahamiyati ko‘rsatiladi. Tadqiqotda lug‘at birliklarining lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: *fonetika, grammatika, dialektal leksika, etnografiya, tarixiy leksikografiya.*

Аннотация: В статье анализируются особенности репрезентации фонетических, грамматических, диалектных и этнографических сведений в труде «Луғати Неъматуллоҳ». На основе конкретных примеров рассматриваются фонетические варианты отдельных лексических единиц, их грамматические формы и территориальная сфера употребления.

Кроме того, анализируется этнографическая лексика, представленная в словаре и связанная с одеждой, предметами домашнего обихода, растениями и народной медициной, ремёслами и социальными отношениями. На примерах раскрывается значение словаря в сохранении исторических языковых материалов. Особое внимание в исследовании уделяется лингвистическим и лингвокультурным особенностям словарных единиц.

Ключевые слова: *фонетика, грамматика, диалектная лексика, этнография, историческая лексикография.*

Annotation: The article analyzes the features of the representation of phonetic, grammatical, dialectal, and ethnographic information in the work “Lug‘ati Ne’matulloh”. Based on specific examples, it examines phonetic variants of certain lexical units, their grammatical forms, and the geographical scope of their usage. The study also analyzes ethnographic vocabulary in the dictionary related to clothing,

household items, plants and folk medicine, occupations and crafts, and social relations. Examples demonstrate the significance of the dictionary in preserving historical linguistic materials. Particular attention is paid to the linguistic and linguocultural features of the lexical units included in the dictionary.

Keywords: *phonetics, grammar, dialectal vocabulary, ethnography, historical lexicography.*

Tarixiy lug‘atlar tilning muayyan davrdagi lug‘aviy tarkibini qayd etuvchi manba bo‘lish bilan birga, uning fonetik, grammatik, hududiy va madaniy xususiyatlarini o‘rganish imkonini beradigan muhim lingvistik yodgorliklardir. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham yozma yodgorliklar tilini tizimli o‘rganish tarixiy til hodisalarini aniqlashning muhim manbasi sifatida qaraladi. “Tarixiy grammatika uchun asosiy manba sifatida yozma yodgorliklar, hozirgi zamon sheva xususiyatlari va qardosh turkiy tillarni qiyosiy o'rganish materiallari xizmat qiladi. Tarixiy grammatika qadimgi davrdan tortib, hozirgacha bo'lgan yozma manbalarning tilini tahlil qilish va bir davr yozma manbaining til xususiyatlarini boshqa davr yozma manbalari til xususiyatlariga qiyoslash yo'li bilan til taraqqiyoti qonuniyatlarini aniqlaydi” [1: 9].

Tarixiy leksikografiyaning vazifasi faqat so‘zning ma’nosini qayd etish bilan cheklanmaydi. Tilshunos olim H. Dadaboyev tadqiqotlarida tarixiy leksikologiya va tarixiy leksikografiya turkiy tillar tarixini diaxron aspektda o‘rganishning muhim yo‘nalishlari sifatida qaraladi [2].

Shu nuqtayi nazardan “Lug‘ati Ne’matulloh” materiallariga faqat “forsiy/turkiy so‘z - o‘zbekcha ma’no” tamoyili asosida yondashish yetarli emas. Lug‘at maqolalarining ichki tuzilishi kuzatilganda, unda variant shakllar, grammatik izohlar, hududiy ko‘rsatkichlar, kasbiy nomlar, kiyim-kechak, uy-ro‘zg‘or buyumlari, o‘simliklar va xalq tabobatiga oid tushunchalar ham keng berilgani ko‘rinadi.

1. Lug‘atda fonetik ma’lumotlarning aks etishi

Tarixiy til materialini o‘rganishda fonetik variantlarning qayd etilishi alohida ahamiyatga ega. Chunki tarixiy lug‘atdagi variantlar muayyan davr tilining tovush tizimi va talaffuzdagi farqlarni aniqlash uchun daliliy material vazifasini bajarishi mumkin. O‘zbek dialektologiyasida ham shevalarning fonetik xususiyatlarini o‘rganish dialektologik tadqiqotning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanadi.

“Lug‘ati Ne’matulloh”da bunday hodisaning aniq ko‘rinishlaridan biri **bādrū** lug‘aviy maqolasida uchraydi: **bādrū** - “Tere-i Ḫorāsānī ve yarpuz dédükleri ot. Ṭabībler bādrūye derler, ba‘żılar bādrencūye dérler.” Bu yerda bitta o‘simlik nomining kamida uch ko‘rinishi - **bādrū, bādrūye, bādrencūye -** bir lug‘aviy uyada

berilgan. Muallif “tabiblar **bādrūye** deydilar, ba’zilar **bādrencūye** deydilar” deya variantlarning qo‘llanish doirasini ham farqlaydi.

Mazkur holatni oddiy sinonimik qator sifatida baholash biryoqlama bo‘ladi. Chunki **bādrūye ~ bādrencūye** shakllari tarkibiy jihatdan ham bir-biridan farq qiladi. Demak, lug‘at maqolasi nafaqat semantik, balki shakliy-fonetik variantlilikni ham saqlab qolgan. Bunga yana **bādrām ~ bādrem** shakllari misol bo‘la oladi: **bādrām - “(bk. bādrem)”. bādrem -** “Bā-i ‘Arabī ile ve bā-i ‘Acemī ile be-ma‘nā bāṭıl”. Ma`nosi: “Arabiy ‘bā’ bilan ham, ajamiy (forsiy) ‘bā’ bilan ham - ma’nosi ‘bāṭil’dir”. Bu yerda **bāṭil -** “noto‘g‘ri”, “behuda”, “botil/haqiqatga zid” degan ma’nolarni anglatadi. Bu yerda bir shakl ikkinchi shaklga havola qilinadi. Bunday usul lug‘at tuzuvchisining variant birliklarni o‘zaro bog‘lash tamoyilidan foydalanganini ko‘rsatadi.

Yana bir muhim misol **bāsīlik** maqolasida uchraydi: “... sīn-i mühmel ile daḫı rivāyet olındı (... nuqtasiz ‘sīn’ bilan ham rivoyat qilingan)**”.**

Bu qayd muayyan birlikning boshqa tovush bilan aytiladigan varianti mavjudligini bildiradi. Demak, lug‘at muallifi so‘zning faqat ma’nosiga emas, uning fonetik ko‘rinishiga ham e’tibor qaratgan.

Shunday qilib, “Lug‘ati Ne’matulloh”dagi fonetik ma’lumotlar maxsus “fonetika” sarlavhasi ostida emas, balki variant shakllar, muqobil talaffuz va tovushga oid qaydlar vositasida berilgan.

2. Grammatik ma’lumotlarning berilishi

Tarixiy lug‘atlarda grammatik ma’lumotlarning qayd etilishi so‘zning tarixiy morfologik tizimdagi o‘rnini aniqlashga yordam beradi. G‘. Abdurahmonov, Sh. Shukurov va Q. Mahmudovlarning tarixiy grammatika bo‘yicha tadqiqoti turkiy-o‘zbek yozma yodgorliklari tilini fonetika, morfologiya va sintaksis jihatidan tahlil qilishga asoslangan [1: 41-458].

“Lug‘ati Ne’matulloh”da grammatik ma’lumotlar, avvalo, fe’l shakllari va ularning grammatik xususiyatlarini izohlashda ko‘rinadi. Masalan: **bārīden** - “yaġmaḳ.” Bu yerda fe’lning asosiy ma’nosi berilgan. Unga yaqin: **bārāniden** - “Mute‘addī (bk. bāriden).” shaklida izohlangan. Bu misolda “mute‘addī” atamasining qo‘llanishi muhim. Lug‘at muallifi **bārāniden** shaklining grammatik xususiyatini - o‘timlilikni maxsus qayd etgan. Demak, lug‘atning vazifasi faqat **“bārāniden** - yog‘dirmoq” tarzidagi semantik tarjima bilan chegaralanmagan. Yana: **bāzīden** - “oynamak”. Bu fe’lning lug‘aviy ma’nosi sodda tarzda berilgan bo‘lsa, **bāz** maqolasida uning grammatik imkoniyatlari batafsilroq ko‘rsatiladi: “... **bāzīden** lafẓından şīga-i emr ve vaṣf-ı terkībīdür, şatranc-bāz ve lu‘b-bāz gibi”. Ma`nosi: “... ***bāzī*** so`zidan yasalgan bo‘lib, ***shatranj-boz*** va ***lu‘b-boz*** kabi, fe’lning buyruq shakli asosidagi tarkibli sifatdir”.

Bu izoh ikki muhim grammatik hodisani ko‘rsatadi. Birinchidan, **bāzīden** bilan bog‘liq buyruq shakli qayd etilgan; ikkinchidan, **-bāz** komponentining qo‘shma birlik tarkibida ishlatilishi ko‘rsatilgan. Shu sababli mazkur maqolani faqat ko‘p ma’noli so‘z izohi sifatida emas, balki so‘z yasalishi va grammatik shakllanish haqida ma’lumot beruvchi mikrogrammatik tavsif sifatida ham baholash mumkin. Bu jihat tarixiy lug‘atlarni tarixiy grammatika uchun manba sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

3. Dialektal va hududiy ma’lumotlarning berilishi

Dialektologiya sheva va lahjalarning fonetik, leksik hamda grammatik xususiyatlarini, shuningdek, ularning shakllanishi va tarqalish hududlarini o‘rganadi. “Shevalarni ilmiy asoslarda organish ishi, deb yozadi tilshunos olim S. Ashirboyev, - XIX asming ikkinchi yarimida “Yosh grammatikachilar” tomonidan amalga oshirildi va shevalar tabiiy, to‘xtovsiz va o‘z-o‘zidan rivojlanish mahsuli hamda til sistemasining qonuniy ravishda turli hududlarga tarqalgan taikibiy qismi deb qaralgan” [3: 4].

Dialektizmlar tildagi so‘zlarning qay darajada o‘zgarganini yaqqol ko‘rsatib beradi. Shu o‘rinda tilshunos Jon Layonzning quyidagi fikri xarakterlidir: “...qo‘shni bo‘lgan tillarning dialektlari o‘rtasida keskin chegara yo‘q. Har xil mamlakatlar chegarasi ko‘pincha o‘zgarib yoki savdo-sotiq va odamlarning o‘zaro munosabatlari uchun ochilib turadigan joylarda bir til dialekti (elementi) ikkinchi til dialekti qatoriga ko‘p yoki oz tarzda sezilmasdan o‘tib turishi mumkin” [5: 52-53].

Shu nazariy nuqtayi nazardan “Lug‘ati Ne’matulloh”dagi hududiy ko‘rsatkichlar alohida ilmiy qiymatga ega. Eng aniq misollardan biri: **bāskāk** - “Ḫvārezm lüġatinde saḫne ve nāyib”. Ma`nosi: “Xorazm lug‘atida ‘saḫne’ va ‘noyib’ deb ataladi”. Bu yerda “Ḫvārezm lüġatinde” (“Xorazm lug‘atida”) ko‘rsatkichi mavjud. Demak, muallif ushbu birlikning umumtil miqyosidagi ma’nosini emas, balki Xorazm hududidagi qo‘llanishini alohida ajratgan.

Mazkur dalilni dialektal leksikografiya nuqtayi nazaridan muhim deb hisoblash mumkin. Chunki hudud nomining bevosita lug‘aviy maqolaga kiritilishi so‘zning geografik tarqalishi haqida tarixiy ma’lumot beradi. Yana: **bādrū** - “Tere-i Ḫorāsānī ve yarpuz dédükleri ot”. Ma`nosi: “Xuroson teresi va yarpuz deb ataladigan o‘t”. Bu yerda Ḫorāsānī komponenti o‘simlik nomining Xuroson bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Boshqa bir misol: **bārāc** - “Ḳabīle ki Türkide mamı ve āverde dérler”. Ma`nosi: “Qabila - turkiy tilda ‘māmī’ va ‘āverde’ deb ataladi”. Bu maqolada bir tushunchaning turkiy tildagi ikki nomi - mamı va āverde - ko‘rsatilgan. Demak, “Lug‘ati Ne’matulloh”da hududiy ma’lumotlar uch xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

1) muayyan hudud nomining bevosita qayd etilishi;
2) “Türkide” kabi til-hudud ko‘rsatkichlarining ishlatilishi;

3) bir tushunchaning turli hudud yoki guruhlardagi nomlarini parallel berish.

Shu jihatdan lug‘at materiali tarixiy dialektologiya uchun ham foydalanilishi mumkin bo‘lgan manbalardan biridir.

4. Etnografik ma’lumotlarning berilishi

Tarixiy lug‘atning eng qimmatli qatlamlaridan biri uning etnografik materialidir. Til va madaniyatning o‘zaro munosabati haqidagi zamonaviy tadqiqotlarda til xalqning tarixi, qadriyatlari va milliy dunyoqarashini aks ettiruvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Jamiyat tarixini o‘rganishdan ma’lumki, til iqtisodiy formatsiyalar va davlat ko‘rinishlari bilan bog‘liq holda rivojlanadi. “Har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya, deb yozadi B.A. Serebrennikov, – jamiyatning maxsus hayotiy qatlamini yaratadi. U biror xususiy ko‘rinishlarda emas, balki bir-birini taqozo etadigan va o‘zaro bog‘liq hodisalarning umumiy namoyon bo‘lishida aks etadi. Bu voqealar, albatta, tilda o‘z ifodasini topadi” [6: 432]. “Lug‘ati Ne’matulloh”dagi bir qator maqolalar aynan shu nuqtayi nazardan katta qiziqish uyg‘otadi. Ne’matulloh lug‘atida xalqning moddiy va ma’naviy madaniyatiga oid ko‘plab etnografik birliklar izohlangan. Muallif ayrim so‘zlarning ma’nosini sharhlash bilan birga, ularning qanday buyum ekani, nima maqsadda ishlatilishi, qaysi kasb yoki marosim bilan bog‘liqligi haqida ham ma’lumot beradi. Masalan: **perger -** “Bir ṭavḳ-ı muraṣṣa‘dur ki ‘Acem pādişāhları dakarlar ma‘nāsına, yāḫud boyunlarına ṭavḳ-ı vetīre” (fors podshohlari taqadigan qimmatbaho bo‘yin taqinchog‘i yoki bo‘yin halqasi); **pervāze** - “Teferrüce gidenler ardınca giden yémek ve ol āteşdür ki ‘arūs öninde yaḳarlar” (sayrga ketganlar ortidan olib boriladigan taom va kelin oldida yoqiladigan olov); **perniyān** – “Atlas ve ḥarīr-i Çīnī ve ḳumāş-ı naḳşı” (atlas, Xitoy ipagi va naqshli mato); **puzgul** - “Yan doğulmış buġdaydan pişen aş, ya‘nī bulgur āşı” (qovurilgan bug‘doydan tayyorlanadigan bulg‘ur oshi); **pej-māverd** – “Kādı lokması dédükleri bir nesnedür; ba‘żılar ḫalīfe lokması dédiler ve ol ṭa‘āmdur ki Horāsān’da aŋa nevāle dérler” (“qozining luqmasi” deb ataladigan taom; ba’zilar xalifa luqmasi deydilar, Xurosonda esa bu taom “navola” deyiladi); **pes-kūhe** - “pes-kūhe Eyerün arḳa ḳası” (egarning orqa qismi).

Ushbu misollar lug‘atda xalqning kiyinish madaniyati, taom tayyorlash an’analari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, chorvachilik, hunarmandchilik va marosimlariga oid ma’lumotlar leksik birliklar orqali berilganini ko‘rsatadi. Shu tarzda Ne’matulloh lug‘atidagi etnografik birliklar oddiy so‘z izohi emas, balki o‘sha davr xalqining turmush tarzi va moddiy madaniyati haqida ma’lumot beruvchi manba sifatida ham namoyon bo‘ladi.

4.1. Kiyim-kechak bilan bog‘liq etnografik leksika

Ne’matulloh lug‘atida kiyim-kechak, mato va bezak buyumlarini ifodalovchi leksik birliklar xalqning moddiy madaniyatini yorituvchi muhim manba hisoblanadi. Masalan, **ṭavḳ-ı muraṣṣa‘** va **pürger** qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan bo‘yin taqinchoqlarini, **perniyān** atlas, Xitoy ipagi va naqshli matoni, **pervīz** esa yopqich hamda kiyim va to‘shak bilan bog‘liq mato qismlarini anglatadi. Mazkur birliklarning izohlarida buyumlarning nafaqat nomi, balki ularning materiali, shakli, bezagi va qo‘llanish sohasi ham ko‘rsatilgan. Shu sababli ular o‘sha davr kiyinish madaniyatini o‘rganishda muhim etnografik leksik material vazifasini bajaradi. Masalan: **pünçe-bend** – “İṣābe ki ‘avratlar başlarına örterler” (ayollar boshlariga o‘raydigan ro‘mol/bosh bog‘ichi). Bu yerda “**pünçe-bend** leksemasi ayollarning bosh kiyimi bilan bog‘liq etnografik birlik sifatida izohlangan. Lug‘atda u “ayollar boshlariga o‘raydigan” buyum sifatida tavsiflanadi. Ushbu izohdan mazkur davr ayollarining kiyinish madaniyatida boshni yopish yoki o‘rash an’anasi mavjud bo‘lganini ko‘rish mumkin. Demak, **pünçe-bend** nafaqat kiyim nomini, balki ayollarning kiyinish usuli va etnomadaniy an’anasini ham aks ettiradi. **peşm-āgend – “**Tegelti ve eyrim ki eyer-altında olur ve kürten” (egarning ostida bo‘ladigan kigiz va eyrim, shuningdek po‘stin). Bu misolda **po‘stin** bevosita kiyim nomi sifatida kelgani uchun uni ham kiyim-kechak leksikasiga kiritish mumkin. **pelās –** “Eski çul ve şāl ve keşişler ḳaftānı (eski jul, shol va rohiblarning kaftani). Bu birlik orqali **kiyim turi, mato va uning kimlar tomonidan kiyilgani** haqida bir vaqtning o‘zida ma’lumot beriladi. **bādrūze** - “Her gün geyilen kaftan ve peyveste ma‘nāsınadur.” Bu izohda oddiy tarjima bilan cheklanilmagan: kaftanning qanday kiyim ekani va kundalik kiyim sifatidagi vazifasi haqida ma’lumot berilgan. **bāruze** maqolasida: “Her gün geyilen ton.” deyiladi.

Demak, tonning kundalik kiyim sifatidagi funksiyasi qayd etilgan. Yana: **bār-reng** - “Oğlancuklarun göğsi bağı ki şalyarlık dérler” (o‘g‘il bolalarning ko‘krak bog‘ichi bo‘lib, uni *şalyarlık* deb ataydilar.) va: **bāreng** - “Oğlancuklar sīne-bendi, Türkide şalyarlık dérler” (o‘g‘il bolalarning ko‘krak bog‘ichi bo‘lib, uni *şalyarlık* deb ataydilar).

Bu ikki misol bolalar kiyimining muayyan turini ifodalovchi birliklarni saqlab qolgan. sīne-bend, göğsi bağ, şalyarlık kabi birliklar o‘sha davr kiyinish madaniyatiga oid real predmetlarni anglatadi. Shunday ekan, bu leksemalar tarixiy leksikologiya bilan bir qatorda etnografik rekonstruksiya uchun ham dalil bo‘la oladi.

4.2. Uy-ro‘zg‘or buyumlari bilan bog‘liq etnografik leksika

Uy-ro‘zg‘or buyumlari bilan bog‘liq etnografik leksika ham lug‘at tarkibida salmoqli o‘rin egallaydi. Jumladan, **pengān** leksemasi “Büyük tās ve sā‘at şişesi ve legen” tarzida izohlanib, “katta tog‘ora, soat idishi va lagan” ma’nolarini anglatadi. Bu leksema uy-ro‘zg‘orda ishlatiladigan idish-tovoq nomlarini ifodalashi bilan etnografik ahamiyatga ega. **Pingere** esa “Ṭabak ve evsecek ḳap”, ya’ni “tovoq va

yegulik solinadigan idish" sifatida qayd etilgan. Shuningdek, **pengen** leksemasi "Garbīl ve buġday ve sāyir ḳubūbāt efsecek büyük ṭabaḳ" tarzida izohlanib, "bug'doy va boshqa donlarni elash uchun ishlatiladigan katta idish"ni bildiradi. Shuningdek, **pingere** -"Ṭabak ve evsecek ḳap "- *tovoq va yegulik solinadigan idish* bo`lib, uy sharoitida oziq-ovqatni saqlash va dasturxonga tortishda ishlatiladigan buyum nomi. Bu birlik xo'jalik yumushlarida qo'llanadigan ro'zg'or buyumini bildiradi **Püşti** - "Dīvār yaşduġı ki ṭayarlar" - *devorga tirab qo'yiladigan suyanchiq*. Uy jihozlari qatoriga mansub buyum sifatida qayd etilgan. **pūb** - "Bisāt ve ev bezeği ve çadır içi" - *gilam, uy bezagi va chodir ichi*. Ushbu birlik uy va yashash makonini bezashga oid etnografik ma'lumot beradi. Mazkur birliklar o'sha davr kishilarining kundalik turmushida foydalanilgan idish-tovoq va xo'jalik buyumlari haqida ma'lumot berishi bilan etnografik ahamiyat kasb etadi. Lug'aviy izohlarda buyumning nomi bilan birga uning vazifasi va qo'llanish sohasi ham ko'rsatilgani ushbu birliklarning etnografik xususiyatini yanada ochib beradi.

4.3. Kasb-hunar va ijtimoiy munosabatlarga oid etnografik leksika. Kasb-hunarga oid leksik birliklar.

Tilning lug'at tarkibida xalqning ijtimoiy hayoti, mehnat faoliyati va kasbiy tajribasi bilan bog'liq leksik birliklar muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, kasb-hunar nomlari, hunarmandchilikka oid atamalar, savdo-sotiq bilan bog'liq birliklar hamda shaxslarning jamiyatdagi mavqei va o'zaro munosabatlarini ifodalovchi so'zlar muayyan davrning ijtimoiy-madaniy hayoti haqida muhim ma'lumot beradi. Bunday birliklar orqali xalqning qanday kasblar bilan shug'ullangani, mehnat qurollari va hunar turlari, shuningdek, oilaviy va qarindoshlik munosabatlari haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Shu jihatdan lug'atda qayd etilgan kasb-hunar va ijtimoiy munosabatlarga oid leksemalar etnografik ma'lumotlarni yoritishda muhim manba vazifasini bajaradi

Jumladan, **pejengār** leksemasi "Debbāġ ve demürci ve āhenger ma'nāsına" tarzida izohlanib, "*charmgar, temirchi va temirchi-hunarmand*" ma'nolarini anglatadi. **Pejenger** leksemasi esa "Debbāġ", ya'ni "charmgar" tarzida izohlangan. Bu leksema bir necha hunar egalarini ifodalashi bilan kasb-hunar leksikasining aniq namunasi. Shuningdek, **pīşe-ver** "*hunarda mohir kishi"* tarzida izohlangan. Lug'atda: "ṣan'atda māhir olan kimesneye pīşe-ver dérler" - *hunarda mohir bo'lgan kishiga pīşe-ver deyiladi*. **Pervāy -** "Ḳulavuzı ve çerçi..." - *yo'l ko'rsatuvchi, savdogar* va boshqa ma'nolarni bildiradi. Ayniqsa **çerçi** - savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi shaxsni anglatishi bilan ijtimoiy-kasbiy leksikaga mansub. **Bāzergān** - "Tācir" - *savdogar*. Savdogar nomining alohida lug'aviy birlik sifatida qayd etilishi o'sha davr iqtisodiy hayotidagi kasb-hunar tizimini aks ettiradi. **Bār-ber** - "Yük çekici ve ḥamūl ma'nāsına" - *yuk tashuvchi, yuk ko'taruvchi.* **Bār-gīr** - "Yük ṭavānı ve yük

ṭutıcı.” - *yuk ko‘taruvchi, yuk tashuvchi.* Bu birliklar yuk tashish va transport bilan bog‘liq faoliyatning lug‘atdagi aksidir. **Bāc** - “...‘öşr ve mütegallib vaż‘ étdügi nesne”. *Ushr (islomiy an’anadagi qishloq xo‘jaligi hosilidan olinadigan o‘ndan bir miqdoridagi soliq yoki ulush) va hukmron shaxs tomonidan belgilangan narsa.* Bu misolda esa soliq va boj bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar aks etadi. Demak, lug‘atning etnografik qatlami faqat kiyim-kechak yoki uy-ro‘zg‘or buyumlari bilan chegaralanmaydi; u savdo, kasb-hunar, soliq va xo‘jalik munosabatlarini ham qamrab oladi.

Ijtimoiy munosabatlarga oid leksik birliklar

Ijtimoiy munosabatlarga oid birliklar orasida qarindoshlik va oilaviy aloqalarni ifodalovchi leksemalar alohida o‘rin tutadi. Masalan, **piser** - “Oğul” - *o‘g‘il*, **piser-ender** - “Üveygi oğul” -*o‘gay o‘g‘il*, **pisererek** - “Oğlancuḳ” - *o‘g‘ilcha*, **pesender** - “Bāba, bir ḳardaş” - *ota, aka-uka*, **duḫtender** esa “Bāba bir ḳız ḳardaş” - *otaning qiz farzandi, ya’ni qiz* ma’nolarida berilgan. Mazkur birliklar o‘sha davr jamiyatidagi oilaviy va qarindoshlik munosabatlarining lug‘aviy ifodasini ko‘rsatadi. Demak, lug‘atdagi kasb-hunar va ijtimoiy munosabatlarga oid birliklar xalqning nafaqat mehnat faoliyati, balki jamiyatdagi o‘zaro munosabatlari va ijtimoiy tuzilishi haqida ham etnografik ma’lumot beradi.

Xulosa qilib aytganda, lug‘atdagi kasb-hunar va ijtimoiy munosabatlarga oid leksik birliklar o‘z davrining ijtimoiy hayoti va xalqning kundalik faoliyatini aks ettiruvchi muhim etnografik manbalardan biridir. **Pejengār**, **pejenger**, **pīşe-ver**, **çerçi** kabi birliklar kasb va hunar turlarini hamda hunar egalarini ifodalasa, **piser**, **piser-ender**, **pesender**, **duḫtender** kabi birliklar oilaviy va qarindoshlik munosabatlariga oid tushunchalarni aks ettiradi. Ushbu leksemalarning lug‘aviy izohlarida shaxsning kasbi, faoliyati, oiladagi o‘rni yoki ijtimoiy munosabati haqida ma’lumot berilishi ularning etnografik qimmatini oshiradi. Demak, mazkur birliklar orqali til va xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni kuzatish mumkin.

5. O‘simlikshunoslik va xalq tabobatiga oid leksik birliklar

O‘simlikshunoslikka oid leksika

Xalqning tabiat bilan munosabati, o‘simliklardan kundalik hayotda foydalanish tajribasi va dorivor vositalar haqidagi qarashlari tilning lug‘at tarkibida o‘z aksini topadi. Ayniqsa, o‘simlik nomlari, ularning qismlari, xususiyatlari hamda davolash maqsadida qo‘llanilishiga oid leksik birliklar muayyan xalqning etnobotanik va tibbiy bilimlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Lug‘at materiallarida ayrim o‘simliklarning nomi bilan bir qatorda ularning tashqi belgilari, o‘sish muhiti, foydali xususiyatlari va amaliy qo‘llanishi ham izohlangan. Masalan, **pez** va **pije** birliklarida egir ildizining yurak og‘rig‘ida iste’mol qilingani qayd etiladi. Bunday ma’lumotlar

o‘sha davr kishilarining o‘simliklardan davolash vositasi sifatida foydalanish tajribasini yoritadi. Shu jihatdan o‘simlikshunoslik va xalq tabobatiga oid leksika lug‘atning nafaqat lingvistik, balki muhim etnografik va madaniy-tarixiy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Masalan, **püstec – “**Bir aġaçdur ki bādiyede olur” - *sahroda o‘sadigan bir daraxt*. Bu birlik muayyan o‘simlik turining nomini bildiradi va o‘sha davrda mahalliy o‘simliklarning nomlanishi haqida ma’lumot beradi**. Pusturāġ -** “Muġaylandan ġayrı dikendür, bādiyede olur. Eydürler, boya aġaçdur, dikenlü olur” - *muġaylandan boshqa tikanli o‘simlik; sahroda o‘sadi. Bo‘yoq daraxti deb aytiladi, tikanli bo‘ladi*. Ushbu misolda o‘simlikning **tashqi belgisi, o‘sish muhiti va amaliy qo‘llanilishi** qayd etilgan. **Pejgerde** – "Oḳlaġu ve birdikendür” - *o‘qloqi va bir turdagi o‘simlik*. Bu birlik xalq tasnifida o‘simlikning alohida turi sifatida qayd etilgan. **Püjgand** – “Sumaḳ yapraġı” - *sumak bargi*. Mazkur birlik o‘simlikning aynan **bargi** nomini bildiradi. **Penīrek** - “Ebemgümeci dédükleri otdur” - *ebemgumeji deb ataladigan o‘simlik*. Bu misol xalq orasida o‘simlikka berilgan nomni ko‘rsatadi. **Penc-engüşt** – “Bir otdur ki ṣuya ḳoyıcaḳ barmakları açılur ve ṣudan çıḳıcaḳ gerü yumulur, ba‘żılar ayıdaġacıdur dédiler” - *suvga qo‘yilganda barmoqlari ochilib, suvdan chiqarilganda yana yumiladigan bir o‘simlik; ba’zilar uni ayidag‘ochi deb aytganlar”*. Bu izoh o‘simlikning **tashqi morfologik xususiyati** xalq kuzatuvi asosida berilganini ko‘rsatadi.

Xalq tabobatiga oid leksika

Pije - "Egir köki, yürek aġrıyıca yérler ve silāḥ ve cenk” - *yurak og‘rig‘ida yeyiladigan egir ildizi; qurol va jang.* Mazkur birlikda o‘simlikning nomi bilan birga uning **xalq tabobatidagi qo‘llanish sohasi** ham berilgan. **Perī-efsā** - "Uçuk dutmış” - *uchuq chiqqan*. Bu birlik kasallik va uning xalqona nomlanishiga oid ma’lumot beradi. **Perīreft ṣuden** - “Uçuk ṭutmaḳ” - *uchuq chiqmoq.* Bu yerda kasallikning yuzaga kelish holati fe’l orqali ifodalangan. **Perīre** – “Ḳızıl altun yāḫud od közinde pişen etmek” - *qizil oltin yoki cho‘g‘da pishirilgan non*. **Pejmūriden** - “so‘lmoq”. O‘simlikning holatini ifodalovchi birlik sifatida o‘simlikshunoslikka oid leksik qatlamda qayd etilishi mumkin.

“Lug‘ati Ne’matulloh”dagi o‘simlik nomlari alohida ilmiy guruhni tashkil qiladi. Masalan: **bādrencūye** - “Yarpuz” - *yalpiz*”, **bādreng-bū** - “Oġul oti” - *o‘g‘il o‘ti*, **bādyān** - “Rāziyāne” - arpabodiyon, **bādrū** - “Tere-i Ḫorāsānī ve yarpuz dédükleri ot. Ṭabībler bādrūye derler, ba‘żılar bādrencūye dérler” - *Xuroson tere-si va yalpiz deb ataladigan o‘simlik; tabiblar “bādrūye”, ba’zilar “bādrencūye” deydilar*. Bu birliklar o‘simliklarning turli nomlari va xalq orasidagi qo‘llanishini aniqlashga yordam beradi. Biroq **bād-zehr** maqolasi bundan ham kengroq etnomadaniy qatlamni ochadi. Unda zaharni daf etuvchi tosh haqidagi xalqona va tibbiy tasavvurlar batafsil berilgan: “... mu‘ayyen ṭaşdur, şur aġuyı şorar...” - *…maxsus tosh bo‘lib, zaharni*

o‘ziga tortadi… Keyinchalik muallif bu tosh haqida turli qarashlarni ham qayd etadi: ayrimlar uni ma’dan, ayrimlar ilon shoxi, boshqalar esa toshga o‘xshash, lekin tosh bo‘lmagan narsa deb hisoblashini aytadi. Bu yerda lug‘aviy maqola oddiy “**bād-zehr** - zaharga qarshi vosita” tarzidagi izohdan ancha keng. Unda xalq tabobati, mineral haqidagi tasavvurlar, zaharli hayvonlar va davolash usuli bilan bog‘liq bilimlar mujassamlashgan. Shu bois bunday maqolalarni tarixiy etnografiya va etnomeditsina uchun ham muhim til materiali sifatida baholash mumkin.

6. Lug‘at maqolasining ensiklopedik xususiyati

Yuqoridagi misollar “Lug‘ati Ne’matulloh” maqolalarining ayrim hollarda oddiy lug‘aviy izoh chegarasidan chiqib, ensiklopedik tavsif xususiyatini kasb etishini ko‘rsatadi. Masalan, bār - “Nice ma‘nāya gelür: kerre ma‘nāsına ve yémiş ve yük, ya‘nī ḳaml ve icāzet, destūr ma‘nāsına” -*bir necha ma’noda keladi: marta, meva, yuk, ya’ni ko‘tariladigan narsa; shuningdek, ruxsat va izn ma’nolarida*. Bu yerda bir leksemaning bir necha semantik yo‘nalishi ketma-ket berilgan. Bāz maqolasida esa: “…ṭoġan ve gerü varış ve zirā‘ ve açuḳ ve rūşen ve farḳ ve temeyyüz étmek ve bāzū ve ḳulāc ve oyun...” - *tug‘ilish, qaytish, ziroat, ochiq, yorug‘, farq, ajratmoq/tanimoq, bilak, quloch va o‘yin…* kabi ko‘plab ma’nolar sanab o‘tiladi. Bunday maqolalar lug‘atning faqat tarjima lug‘ati emasligini ko‘rsatadi. Unda so‘zning semantik maydoni, grammatik imkoniyati, boshqa birliklar bilan aloqasi va madaniy konteksti ham ochiladi. Tarixiy leksikografiya nuqtayi nazaridan bu xususiyat juda muhim. Chunki tarixiy lug‘atning ilmiy qiymati undagi birliklar soni bilangina emas, balki har bir birlik haqida berilgan qo‘shimcha lingvistik va ekstralingvistik axborot bilan ham belgilanadi.

Xulosa.

“Lug‘ati Ne’matulloh”ning **bād–bāş** qatlamiga oid materiallar tahlili lug‘atning ko‘p qirrali lingvistik manba ekanligini ko‘rsatadi.

Birinchidan, fonetik ma’lumotlar **bādrūye ~ bādrencūye, badram ~ badrem** kabi variantlar va tovushga oid maxsus qaydlar orqali namoyon bo‘ladi. Bu materiallar tarixiy fonetik variantlilikni aniqlash uchun muhim dalil bo‘la oladi.

Ikkinchidan, grammatik ma’lumotlar **bārīden, bārāniden, bāzīden** kabi fe’llar va **şīga-i emr, mute‘addī** singari grammatik ko‘rsatkichlar orqali berilgan. Demak, lug‘at tarixiy grammatika uchun ham material beradi.

Uchinchidan, **bāskāk** - “Ḫvārezm lüġatinde...”, **bādrū** - “Ḫorāsānī...”, **bārāc** - “Türkide...” kabi misollar lug‘atda hududiy va dialektal ma’lumotlarning mavjudligini ko‘rsatadi. Bu holat S. Ashirboyev tomonidan belgilangan dialektologiyaning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarni hamda ularning hududiy tarqalishini o‘rganish tamoyili bilan metodologik jihatdan mushtarakdir [3].

To‘rtinchidan, **bādrūze, bāruze, bār-reng, bāreng, bādyā, bāzergān, bār-ber, bār-gīr, bād-zehr** kabi birliklar xalqning kiyim-kechagi, uy-ro‘zg‘ori, savdo-sotiq va kasb-hunari, o‘simliklar hamda xalq tabobatiga oid tasavvurlarini saqlagan. Shu jihatdan lug‘at materiallari lingvomadaniy tadqiqotlar uchun ham muhim manbadir. Til va madaniyat munosabatiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham leksik birliklar xalqning qadriyatlari, turmush tarzi va madaniy xotirasini aks ettirishi qayd etiladi.

Shuni ta`kidlash joizki, “Lug‘ati Ne’matulloh”ni tarixiy leksikografik, dialektologik, grammatik va etnolingvistik ma’lumotlarni o‘zida birlashtirgan kompleks manba sifatida baholash mumkin. Uning lug‘aviy maqolalarida so‘zning ma’nosi bilan bir qatorda, tilning tarixiy holati va shu til egalarining moddiy-ma’naviy madaniyati haqida ham muhim ma’lumotlar mujassam.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi: fonetika, morfologiya va sintaksis. - Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. - 528 b.
2. Дадабоев Ҳ. Ўзбек тили тарихий лексикологияси масалалари.– Т.: Фан, 1986.- 156 б.
3. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. - Toshkent: Navro‘z, 2016. - 136 b.
4. Ҳожиев А., Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. - Т.: Фан, 1974. – 307 б.
5. Лайонз Дж. Введение в теоретическую лингвистику / пер. с англ. под ред. и с предисл. В. А. Звегинцева. - М.: Прогресс, 1978. - 544 с.
6. Серебренников Б.А., Язык как общественное явление // Общее языкознание, -М.,1970, - 597 с.
7. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков (общетюркские и межтюркские основы на гласные) - М.: Наука, 1974 - 767 с.
8. Умаров Э.А.Словари староузбекского языка и вопросы фонетики,- Т.:Фан.1994.-46 с.
9. Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н., Проблемы лексики староузбекского языка,-Т.: Фан, 1990. - 212 с.

MILLIY UYG‘ONISH DAVRI O‘ZBEK-TATAR ADABIY ALOQALARI.

Soatova Gulzoda Nurmamat qizi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
soatovagulzoda001@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma’rifatchilik davri o‘zbek-tatar adabiy aloqalari haqida tadqiqotlar keltirilgan. Shunindek, bu davrdagi ikki xalq adabiy aloqalarini mustahkamlagan Qozon universiteti, Qozon kutubxonasi borasida va Ismoil Gasprinskiy, Abdulla To‘qay, Ajziy, Tavallo, Ibrat kabi ijodkorlarning adabiy aloqalari to‘g‘risida ma’lumotlar va tahlillar o‘rin olgan. Ularning hurlik yo‘lidagi birikuvi go‘zal adabiy aloqalarning shakllanishiga olib kelganligi ochiqlangan.
Kalit so‘zlar: o‘zbek-tatar, adabiy aloqalar, milliy uyg‘onish, ta’sir, Turkiston.

Abstract. This article examines research on Uzbek-Tatar literary relations during the period of the Enlightenment. It also provides information and analysis concerning Kazan University and the Kazan Library, which played an important role in strengthening literary ties between the two peoples during this period, as well as the literary relations among such prominent figures as Ismail Gasprinsky, Abdulla Tukay, Ajziy, Tavallo, and Ibrat. The study reveals that their common aspiration for freedom contributed to the formation and development of meaningful and fruitful literary relations.
Keywords: Uzbek-Tatar, literary relations, national awakening, influence, Turkestan.

Аннотация. В статье рассматриваются исследования, посвящённые узбекско-татарским литературным связям в период просветительства. Также представлены сведения и анализ роли Казанского университета и Казанской библиотеки в укреплении литературных связей между двумя народами в этот период, а также литературных взаимоотношений таких деятелей, как Исмаил Гаспринский, Абдулла Тукай, Аджзий, Тавалло и Ибрат. Выявлено, что их объединение на пути к свободе способствовало формированию и развитию плодотворных литературных связей.
Ключевые слова: узбекско-татарские, литературные связи, национальное пробуждение, влияние, Туркестан.

Millatning o‘zligini anglashi asos qilib olingan o‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyoti XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari adabiyotini o‘z ichiga olgan

o‘ziga xos bir davrdir. 1853-1885-yillarda Rossiya Turkistonni to‘liq zabt etdi. Aslini olganda bu maqsad va harakat ruslarda ancha oldin XVI asr Ivan Grozniy zamonidan boshlangan edi. U 1952-yilda Qozon xonligini, 1556-yilda Xazar xonligini bosib oldi. “Pyotr dunyoga dongi ketgan Samarqand-u Buxoroni qo‘lga kiritish, undan dengizlari hech qachon muzlamaydigan Hindistonga kirib borishni buyuk orzu bilgan edi. Bu orzuni u amalga oshira olmadi. Uning ishini izdoshlari davom ettirdilar. XVIII asrda Ermak uzoq sharqqacha bo‘lgan joylarni bosib olib berdi. XIX asrning boshlaridan ruslar qadim shuhratlarga to‘la dior Turkistonning shimoliy darvozalarini paypaslab ko‘ra boshladilar. Turkiston esa temuriylar o‘rnini egallagan Shayboniyxonning uzoq davom etmagan markaziy hokimiyatidan so‘ng, asta-sekin parchalanishga yuz tutgan va uch xonlik deb atalmish uch bo‘lakka bo‘linib, o‘zaro nizo va janjallar botqog‘iga botgan edi”[1:7]. Ruslarning Turkistonni egallash istagi, boshqa davlatlarni mustamlaka qilishda tajribali, Hindiston va Afg‘onistonni o‘z qo‘lida tutib turgan keksa Angliyani tashvishga soldi. Chunki kelajakda Turkistonning tuganmas boyliklaridan bahramand bo‘lish, undan bozor o‘rnida foydalanish inglizlarning ham maqsadlaridan biri edi. Rossiya ham Turkistonning butun boyligiga davogar edi. Shunday qilib Turkiston ulkan ikki davlat qarshisida chorasiz edi. Bu hol ayni paytda Rossiyaning xatti-harakatini tezlashtirdi. 1853-yilda Qo‘qon xonligi, 1860-yilda Bishkek, 1864-yilda Avliyo ota, Turkiston, 1865-yilda Toshkent va sekin-sekin Markaziy Osiyoning qolgan joylari ham bosib olindi. “Oq va qizil saltanatning 130 yil davom etgan hukmronligi “Avesto” vujudga kelgan zamonlardayoq o‘z tarixiy davlatchiligiga ega bo‘lgan Turkistonni istibdodga chulg‘ab, mustamlaka va mute’ga aylantirgan edi… Podsholik Rossiyasi hukmronligi davrida Turkistonda istibdodga, xalqni ezishga asoslangan siyosat hukm surdi. Mahalliy aholini xo‘rlash va qatag‘on etish, oktyabr to‘ntarilishi tufayli hokimiyatga kelgan sho‘ro saltanati davrida yanada kuchayib, eng yuqori pog‘onaga ko‘tarildi” [2:7]. Lekin barcha davrlarda ham xalqimiz boshiga tushgan musibatga qarshi turgan bahodir o‘g‘lonlar, vatanparvar yo‘lboshchilar, millat qahramonlari bo‘lgan. Ular ozodlik bayrog‘ini baland ko‘tarib, or-nomus, hurlik, o‘zlikni saqlash uchun jonlarini fido etganlar. Bugungi ozod, obod, farovon turmushimiz mana shu qahramonliklarning natijasidir.

“Dard, musibat insoniyatni birlashtiradi” degan naql bor dono xalqimiz orasida. Boyliklari talanib, milliyatiga putur yetayotgan, odamlari qul bo‘lib, taraqqiyotdan uzoqlashayotgan bir paytda turkistonliklar birlashgan holda o‘z manfaatlarini himoya qila boshladi. Aynan o‘zbek-tatar adabiy aloqalari ham bu davrda yanada mustahkamlandi.

1860-yillardan boshlab bu ikki xalq o‘rdasidagi aloqalar har jihatdan kuchaydi, jumladan adabiy aloqalar ham. Chunki 1867-yilda Turkistonda rasmiy mustamlaka

ma'muriy tizimining o'rnatilishi bu jarayonni rivojlantirib yubordi. Tatarlar turkistonliklardan ancha oldin 1552-yil Ivan Grozniy davrida Rossiya tomonidan mustamlaka qilingan edi. Ruslar Turkistonni yaxshilab o'rganish, keyinchalik oson va butunlay boshqarish uchun tatarlardan foydalandilar. Natijada, bu hamkorlik sabab olamshumul voqealar ro'y berdi.

Milliy uyg'onish davri o'zbek-tatar adabiy aloqalarining rivojida Qozon shahrining o'rni beqiyos. Bu yerda joylashgan Qozon Davlat universiteti, universitet kutubxonasi nafaqat bu ikki xalq hamkorlik aloqalarini, balki butun turkiy davlatlar birligini ta'minlovchi muqaddas maskan edi. Sharq va G'arb uyg'unligi mujassam, G.R.Derjavin kamolga yetgan, 1833-yilning sentabrida "Kapitan qizi" qahramonini izlab A.S.Pushkin kelgan shahar bu Qozondir. Mashhur Lev Tolstoy, Maksim Gorkiy va Mayakovskiylarining hayot va ijodlaridagi muayyan sahifalar Qozon bilan chamabarchas bog'liq. Mayakovskiy uni "Qozonning iftixori" deb ataydi. Qozon Davlat Universiteti 1804-yilda ochildi. U dunyo ilm-fan rivoji uchun ulkan xizmat qildi. "N.I.Lobachevskiy matematika taraqqiyotida buyuk hodisa hisoblangan "Noevklid geometriya"ni shu yerda taklif etdi. N.N.Zinin, A.M.Butlerov singari mashhur olimlar ximiklar maktabiga asos soldilar. 1853-yilda universitet xonalari va maydonchalarida birinchi marotaba elektr lampochkalari paydo bo'ldi. Astronom I.M.Simonov 1819-1821-yillarda butun dunyoni aylanib chiqqan Bellinsgauzen ekspeditsiyasida qatnashadi. Universitetda I.M.Sechenov, V.M.Bexterov kabi taniqli mediklar ish olib bordilar..." [3:373]. Shu bilan birgalikda Qozon universiteti rus sharqshunoslik fanining asosiy markazi edi. Universitetning Rossiyada yagona bo'lgan Sharq bo'limi (u 1856-yilda Peterburgga ko'chirildi) qoshidagi iste'dodli rus sharqshunoslari, mahalliy olimlar Sharq tarixi va madaniyatiga oid yuzlab nodir asarlarni to'pladilar, o'rgandilar, nashr ettirdilar. Bundan tashqari universitet kutubxonasi ham nafaqat Qozon, Rusiya balki, O'rta Osiyo talabalari, tadqiqotchilari uchun ham ilm ziyosini taratuvchi maskanga aylandi.

Universitet kutubxonasi 1809-yilda tashkil qilingan. Uning asosiy binosi XIX asrning 30-yillarida rektor N.I.Lobachevskiyning bevosita rahbarligi ostida qurilgan. Bu mashhur olimning o'zi bir necha yillab unda kutubxonachilik qilgan. Naql qilishlaricha, u universitet hujjatlariga "rektor-bibliotekar N.I.Lobachevskiy" deb imzo chekarkan. Hozir kutubxonada o'n mingdan ortiq nodir kitoblar saqlanadi. Bularning aksariyati Sharq qo'lyozmalaridir. "Kutubxonadagi qo'lyozma va nashriy nusxalar orasida Navoiy "Devon"i (1568-69-yillarda ko'chirilgan), "Xamsa"si ("Maxzanul asror" nomi bilan bosilgan, nashr yili va o'rni noma'lum), "Mahbubul qulub" (Istanbul bosmasi), "Kitobi Shoh Mashrab" (1828-yil, Qozon, 1893-yil Toshkent nashrlari),

Muhammad Solihning “Shayboniynoma”si (1904-yil, SPb nashri), “Temur tuzuklari” (1980-yil, Toshkent, Ostroumov nashri), Pahlavon Niyoz Mirzoning “Devon”i (1895-yil, Xiva nashri), Haydar Xorazmiyning “Maxzanul asror”idan ko‘chirmalar, “Boburnoma” haqidagi qaydlar ham alohida o‘rin egallaydi. Ular bilan birgalikda Yassaviy “Hikmat”lari, Sulaymon Boqirg‘oniyning “Boqirg‘on kitobi”, “Oxir zamon”, So‘fi Olloyorning “Murodul orifin”, “Sabotul ojizin” kabi asarlarining o‘nlab qo‘lyozmalari va bosma nusxalari, ularga bitilgan sharhlar ham mavjud” [3:377].

Umuman, o‘zbek-tatar adabiy aloqalari deganda Ismoil Gaspirinskiy hazratlarining siymosi ko‘z oldimizga keladi. Ushbu ilm rahnamosining islohotlari tatarlar bilan birgalikda turkistonliklar hayotini ham tubdan o‘zgartirdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ma’rifat yo‘lidagi fidoiyliklari barcha turkiy davlatlar ziyolilari uchun dasturul amal bo‘ldi. 1914-yilning sentabrida Ismoil Gaspirinskiy vafot etadi. Butun turkiy dunyoda, jumladan Turkiston ma’rifatparvarlari tomonidan motam tutilgan. Unga atab Tavallo, Ajziy, Behbudiy, Vasliy kabi ijodkorlar she’rlar, marsiyalar yozishgan. Samarqandning yirik ma’rifatparvar adiblaridan biri Siddiqiy Ajziy ham Ismoil Gaspirinskiy vafoti munosabati bilan “Oyna” jurnalida o‘zining ushbu she’rini nashr ettirgan.

Ismoilbek hazratlari yodig‘a

Ijro edan vazifasin qo‘l ila, lison ila,
Nashr etdi xalqg‘a mav’izasin “Tarjimon” ila.
Xalq bo‘ldi oshno bu sababdin jahon ila –
Hal etdi mushkuloti fununning bayoni ila.
Say etti xizmat etmakka sarvat-la jon ila,
Isloma ravnaq istadi tul zamon ila
Ustod kullu muxozin, irfon anaxtari,
Ismoil zabihcha jonboz G‘aspari [4:1668].

Ijodkorning ma’rifiy dostonlari Orenburg shahridagi tatar bosmaxonalarida bosilgan. Uning asarlari Orenburgda nasr etilgan “Vaqt”, “Sho‘ro” gazetalarida nashr qilingan.

Gaspralining “Dorur-rohat musulomonlari” (1887) asari g‘oyasi, uslubi Ajziyning “Mir’oti ibrat” (1914) asarida ko‘zga tashlanadi. “Dorur-rohat musulomonlari” jadidchilik adabiyotida birinchi utopik asar hisoblanadi. Asar fantastik-sayohatnoma qissa bo‘lib, unda muallif o‘zining ma’rifatparvarlik va islohotchilik borasidagi qarashlarini badiiy xayol orqali namoyon etadi. “Mir’oti ibrat” (“Ibrat ko‘zgusi”) da muallif ilmni insonni jaholatdan qutqaruvchi asosiy kuch sifatida ko‘rsatadi. Ilmsizlikni, ma’rifatsizlikni jamiyat taraqqiyoti uchun to‘siq deb biladi. Bu haqida Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti darsligida shunday fikrlar

bildirilgan: “Ismoil Gaspralining “Dorur-rohat musulmonlari” romaniga hamohang, uning ta’siri va ilhomi yaqqol sezilib turadigan “Mir’oti ibrat”da ijodkor shoir xayoliy mamlakatlarga safar qiladi. O‘z orzusidagi Samarqandni chizib beradi. U ozod va obod, farovon, ilm-fan samaralaridan muzayyan edi. Unda, hatto shunchaki, televideniye emas, biz bugun, 70-80 yildan keyin guvoh bo‘lib turgan vidiotelefonlar haqida gap ketadi.” [1:42]

Keltur ala shar’u fan, qonun,
Bunlarsiz edar halok gardun.
U kimsaki, ilmi sarvati vor,
Beshubha jahonda rohati vor [5:190].

Anglashilib turibdiki, dostonda ilm-fan, ma’rifat ulug‘lanib, bularsiz gardun halok bo‘lishi aytilmoqda. Muallif, insonlar ilm olrqali mukammal kuchga ega bo‘lishi, yangi islohotlar, ixtirolar uchun zamin yaratishini ta’kidlaydi.

Gasprinskiyning jadidona qarashlari ma’rifatparvar Tavalloni ham chetlab o‘tmadi. Uning “Tarjimon”i, ilm-ma’rifat, hurlik uchun olib borgan mislsiz qahramonliklari shoir ijodiga ta’sir qildi. Maktab, ilmsizlik va bunga intilmaslik muammosi Tavalloni chuqur o‘yga toldirdi. Shoir Ismoilbekni ijodiy evrilishlarni boshidan o‘tkazgunga qadar o‘ziga ma’naviy peshvo deb bilgani vafoti munosabati bilan yozilgan marsiyasida ko‘zga tashlanadi:

Hech kima rahm etmayin, ey bevafoyi pirazol,
Necha barnolarni san umriga etkurding zavol,
Ismoilbek G‘asprinskiy edilar bemisol.
Qilmading ilmin rioya, aylading san poymol,
Tilgirom oldik shu dam, bas, qildilar deb irtixol.

Yig‘la millat, qon to‘kub, bul yig‘lamoqni vaqtidur,
Achchig‘-achchig‘ yig‘lamoq, bas, emdi bizlarg‘a zarur [6:149].

Marsiyada bu ulug‘ uztoz 12-sentabrda juma kuni vafot etgani, bundan butun dunyo afsurdahol bo‘lgani, saodat yulduzi vafot etganidan so‘ng olam xiralashgani, adiblar sarvari, ilmi ladun sohibi endi yo‘qligidan jami islomning qaddi bukilgani badiiy tasvirlanadi. Islom eli rahbari, millat sardaftarini barcha yoshlar to‘kub duo qilishini, jannatda payg‘ambarlar kutib olishini, 36 yil chiqib turgan “Tarjimon” noshiri ketdimu deb chuqur xayolga botgani, bu sharofatli bobodan olam roziligi, qolganlarga sabri jamil tilashi, jumladan, Tavolloga ham Ollohdan sabr so‘rashi she’rda go‘zal badiiy tasvir vositalaridan foydalangan holda ifoda etilganki, o‘qigan kitobxon bu his-tug‘ularga oshno bo‘lmasdan qolmaydi.

Tavallo tatar ijodkorlarining faoliyati bilan qiziqqan. Ayniqsa, ularning ilm-ma’rifat tarqatishdagi say harakatlari uni o‘ziga tortadi. Jumladan, To‘qay ijodiga har

doim mahliyo bo‘lgani o‘zining she’rlarida aks etadi. Abdulla To‘qay vafotining bir yilligi munosabati bilan “Sadoyi Turkiston” gazetasining 1914-yil 22-aprel, 4-sonida chop etilgan “Totor qardoshlarimizning mashhur shoiri marhum Abdulla afandi To‘qayevning she’rina tazmin” g‘azalida Tavallo shunday deydi:

Jumla fikrim kecha-kunduz sizga oid millatim,
San salomat, man farog‘at, illatingdur illatim.

Marhum Abdullo To‘qaydek yosh chog‘imda ketmasam,
Ojizona shoiring bo‘lmoqg‘a vordur niyyatim [6:103].

Jumlalarda Tavalloning yetimlikda, qiyinchilikda voyaga yetgan To‘qay kabi yosh ketmasdan, uzoq vaqt millat shoiri bo‘lish niyati borligi aytilmoqda. Bundan shoir To‘qay misolida o‘zining hayotiga ham ishora qilmoqda. Garchi uning hayoti ham to‘qlikda, farovonlikda o‘tgan emas. Demak, To‘qay bilan Tavalloni ichki ijod, millatparvarlik bilan birgalikda, ichki hislar ham bog‘lab turgan.

Har zamonda yod etsa millat bizni Abdullodek,
Shul manga iqbol-u maqsad, baxt-u mas’uliyatim.

Gar Tavallo she’ri Abdulloga yoqsa ne ajab,
Topishardi oxiratda yoshi yosh ikki yetim.

G‘azalning oxirgi baytlarida To‘qayning ijodiga, xalq tomonidan unutilmaganiga shoirning havas bilan qaragani seziladi. Ushbu ash’ori orqali oxiratda Abdulla bilan uchrashishga umid bog‘laydi. Naqadar go‘zal, o‘quvchini o‘ziga rom etadigan ifoda. Bundan faqat ijoddagi yakdillik emas, balki qalbdagi yakdillik ham badiiy ochiqlangan.

To‘qayning betakror ijodi haqida: “Shoirning otashin she’rlari yangi asr boshlarida barcha turkiy xalqlarning yangi she’riyati uchun ham g‘oyaviy-badiiy ta’sir etuvchi kuchga aylana bordi. Bu jihatdan ayniqsa, uning chor mustamlakachilari va mahalliy zolimlar zulmini qoralab, xalqning og‘ir ahvoliga achinib, jaholat va qoloqlik, riyokorlik va sotqinlikka qarshi yozgan “Ketmaymiz”, “Bir tatar shoirining degani”, “O‘z-o‘zimga”, “Kuz”, “Yurtimga”, “Usuli qadimchi”, “Ko‘rsatur”, “Javob” kabi she’rlari muhim rol o‘ynadi” [https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/sherali-turdiyev-abdulla-to-qay-va-o-zbek adabiyoti], - deydi Sh.Turdiyev.

Abdulla To‘qay – atoqli tatar shoiri, adabiy tanqidchi, publitsist va tarjimon sifatida nafaqat tatar xalqi, balki Turkiston, ya’ni O‘rta Osiyo respublikalarida ham chuqur ehtirom bilan yodga olinadi. Ilm-fan va san’at namoyandalari uning xotirasini

yuksak qadrlab, uni hurmat bilan “ustoz” deb ataganlar hamda ko‘p bor uning ijodiga murojaat qilganlar. XX asr boshlarida yashab ijod qilgan o‘zbek shoiri Tavallo o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos va betakror satirik uslubi bilan shuhrat qozongan. U o‘zining “Dunyoga nazar” va “To‘g‘ri so‘z” nomli satirik asarlarida Turkiston xalqining ilmiy-texnik hamda madaniy taraqqiyot borasidagi qoloqligini keskin tanqid qilgan. Mazkur she’rlarda Abdulla To‘qayning 1910-yilda yozilgan “Zina” nomli satirik she’rining ruhi yaqqol seziladi http://gabdullatukay.ru/index.php?option=com_content&task=view&id=3868&Itemid=145].

Abdulla To‘qay ijodiga nafaqat jadidchilar, taniqli ijodkorlar, balki oddiy o‘qituvchilar, havasmand ijodkorlar ham qiziqishgan, munosabatlarini bildirishgan. “To‘qay kechasi” maqolasi fikrimizning dalilidir. “Ulug‘ Turkiston” gazetasining 1917-yil 25-aprel 1-soni 4-betida “To‘qay kechasi” nomli xabar bosilgan. Unda 17-aprelda Kolizey teatrida Toshkentda birinchi marta “To‘qay kechasi” bo‘lganligi, kelgan foydaga To‘qayga Toshkentda haykal o‘rnatish rejalashtirilganligi aytiladi. Kecha 4 bo‘limdan iborat bo‘lib, 1-2-3-pardalarida Fotima Sutusheva, Mohisurur Yoqubova, Shohid Boboyorova, Nuriddin Sayfulmulukov, To‘qay hayoti, ijodi, Gaspirinskiy bilan To‘qayning tatar millatiga ko‘rsatgan xizmatlari, xotin-qizlarga qarashi haqida so‘zlandi. Bir necha kishi To‘qay she’rlaridan ijro etishdi. Shuningdek, “…Kechada To‘qay rasmlari, chechaklar, prog‘ramlar sotildi. Mo‘tabar xonimlar tarafindan buffet ishlangan edi. Bunisi kechaning ziynatin tag‘inda orttirdi. Xalq g‘oyat ko‘b edi. Pek mamnun bo‘lib taraldilar. Jami 2329 so‘m 86 tiyin yig‘ildi, shundan 1409 so‘m 86 tiyin xarajat qilindi, 920 so‘m aqcha qoldi” degan ma’lumotlar keltiriladi maqolada.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadidchilik harakati o‘zbek va tatar xalqlarini yanada yaqinlashtirdi. Tatar ma’rifatparvarlari, xususan Ismoil Gaspirali, Abdulla To‘qay, Rizo Faxriddin singari ziyolilarning g‘oyalari Turkiston jadidlariga katta ta’sir ko‘rsatdi. Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi o‘zbek jadidlari tatar matbuoti va ma’rifatparvarlik tajribasidan samarali foydalandilar. Tatar ma’rifatvarvarlarining maktabdorlik hamda gazetachilik faoliyatidan Is’hoqxon Ibrat kuchli ta’sirlandi. Ibrat madrasada o‘qib yurgan kezlarida sharq olimlarining asarlarini mustaqil o‘qidi, fors, arab va rus tillarini chuqur o‘rgandi. Turkiston o‘lkasiga yangi tarqalgan Ismoilbek Gaspralining “Tarjimon”i bilan Qo‘qon madrasasida o‘qib yurgan chog‘larida tanishdi. Madrasadan To‘raqo‘rg‘onga qaytgan Ibrat 1886-yilda qishlog‘ida Gasprali asos solgan savtiya usulidagi maktabni ochdi. Afsuski, maktab uzoq faoliyat ko‘rsata olmadi. Mutaassiblar uni yopdi. Ijodkor 1907-yilda ikkinchi marta o‘z uyida “usuli savtiya” metodiga asoslangan maktab ochdi. Unga yangi o‘qitish usullaridan

xabardor bo‘lgan tatar ziyolilari Husayn Makayev va uning rafiqasi Fotima Makayevalarni taklif etdi. Bu haqda Ibrat “Eski maktablar xususida” nomli maqolasida shunday fikrlarni bildiradi: “Men o‘zum ham o‘zumg‘a qarashlik o‘nta-o‘n beshta bolalarni eski maktabda hech bahra topmay, behuda yurduqlarina jonim achib, Qozon tarafinda bir muallim jalb edub, maktab qilib verdim. Maktabning kushodig‘a uch oy bo‘lgani yo‘q. Yigirmadan ziyoda kichik bolalar “alif nima?” degan savolina “kaltak” deb javob beruvchilar tamom savodi chiqib, har narsani yozadurg‘on bo‘ldilar. To‘rt-besh va etti-sakkiz sanalar Qo‘qong‘a yurub, hech narsa bilmagan mullabachalar bitamomihi arabiy mukolamag‘a qodir bo‘lib, har bir kitoblarni mutolaa etadurgon bo‘ldilar”[9:5].

“1907-yilda Ibrat Orenburgga boradi va Rizo Faxriddinning “Sho‘ro” jurnali faoliyati bilan tanishadi. U Orenburgda Gaufman degan matbaachidan pulini o‘n yil mobaynida to‘lash sharti bilan 1901-yilda chiqqan litografik mashina sotib oladi. Is’hoqxon litografik mashina va harflarni katta mashaqqatlar bilan Orenburgdan Qo‘qonga poyezdda, Qo‘qondan To‘raqo‘rg‘onga tuyalarda olib kelgan. 1905-yili o‘zi qurdirgan hammom o‘rnida chopxona tashkil qildi va “Matbaai Ishoqiya” nomi bilan ishga tushurdi” [1:169].

Uning birinchi mahsuloti “San’ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy” kitobi bo‘lib, 1908-yilda bosmadan chiqdi. Litografiya talabning oshishi sababli 1910-yilda Namangan shahriga ko‘chirildi va tipolitografiyaga aylantirildi. Ibrat ushbu chopxonaga atab “Tarixi chopxona” [10:58] she’rini yozadi:

Ming uch yuzu yigirma oltida chopmaxona
Ochmoqg‘a bo‘ldi ruxsat va so‘z berib zamona.

Maqsad bu ishdan erdi olamg‘a ilm kasri,
Ham qo‘ymoqg‘a asarlar yodovari jahona.

O‘zbek-tatar adabiy aloqalarini o‘rganish nafaqat tarixiy haqiqatni tiklash, balki adabiy rivojlanish qonuniyatlarini ochish, madaniy aloqalarni mustahkamlash va zamonaviy adabiyotshunoslikni yangi ilmiy xulosalar bilan boyitish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2014. – Б.7.
2. Содиқов Ҳ., Шамсутдинов Р., Равшанов П., Усмонов Қ. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа консерни Бош таҳририяти, 2000. – Б.7.

3. Qosimov B. O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalarari tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 373.
4. Siddiqiy. Ismoilbek hazratlari yodig‘a./ “Oyna” jurnali. 1914-yil, 50-son. 1668b.
5. Ibrat, Siddiqiy Ajziy, So‘fizoda. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyor. Qosimov B., Ahmedov S., Dolimov U.). – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – B. 190
6. Tavallo. Millat sadosi. (Nashrga tayyorlovchi Rahmonova D.) – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyi, 2015. – B. 149.
7. Turdiyev Sh. Abdulla To‘qay va o‘zbek adabiyoti. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2011 yil, 4-son. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/sherali-turdiyev-abdulla-to-qay-va-o-zbek-adabiyoti
8. Ульви (Биннатова) Алмаз. Творчество Габдуллы Тукая и узбекское литературоведение http://gabdullatukay.ru/index.php?option=com_content&task=view&id=3868&Itemid=145
9. Is’hoqxon Ibfrat. Eski maktablar xususida.// Turkiston vilolyatining gazeti, 1907-yil, № 72. 5b
10. Ishoqxon Ibrat. Tanlangan asarlar.(Nashrga tayyorlovchilar Dolimov U., Jabborov N.). – Toshkent: Ma’naviyat, 2005. – B. 58

ЗУЛЛИСОНАЙН ШОИР -- АМИР УМАРХОННИНГ ТОЖИК АСАРЛАРИДАГИ УСЛУБИЙ ВА БАДИИЙ ИЗЛАНИШЛАР

Ҳикмат Ҳикматов
Чирчиқ давлат педагогика
университети катта ўқитувчиси

Аннотатсия. Айтиш керакки, мумтоз адабиёт намояндалари бўлган буюк шоирлар шеърлари юксак маъно, янги мазмунларда безаниш билан бирга, бадиий зеб-зийнат орқали ҳам янгича иборалар касб этиб, ўзгача гўзаллик, тароват касб этади. Улар ўз ўқувчиларининг диди ва билимига ҳам катта таъсир кўрсатади. Бу йерда мазмун ва бадиий шакл қўшилса, тўлиқ адабиёт яратиш мумкин. Шуни таъкидлаш керакки, сўз инсонга таъсир эта оладиган, яъни тўғри йўлга бошловчи бўладиган тарзда яратилиши керак.

Таянч сўзлар: калом, дўст, ҳикмат, анъана, нисбат, индивидуаллик, мулоқот, шуаро, афкор, йўналиш, мазмун, таъсир, таҳлил, жанр.

Аннотация. Следует сказать, что стихи великих поэтов, представителей классической литературы, не только украшаются высоким смыслом и новым содержанием, но и приобретают новые выражения, приобретают новую красоту и свежесть посредством художественного украшения. Они также оказывают большое влияние на вкусы и знания своих учеников. Если сюда добавить содержание и художественную форму, то можно создать целую литературу. Следует подчеркнуть, что речь должна быть создана таким образом, чтобы она могла влиять на человека, то есть служить основой для направления его на верный путь.

Ключевые слова: слово, друзья, мудрость, мисль, традиция, индивидуальность, девиз, направление, содержание, влияние, анализ, жанр.

Abstract. It should be said that the poems of great poets, who are representatives of classical literature, are not only decorated with high meaning and new content, but also acquire new expressions through artistic embellishment, acquiring new beauty and freshness. They also have a great influence on the taste and knowledge of their readers. If content and artistic form are combined here, it is possible to create complete literature. It should be emphasized that speech should be created in such a way that it can influence a person, that is, it should be a basis for guiding him on the right path.

Key words: matter, friends, companions, wisdom, tradition, attribution, individuality, dialogue, motto, thought, direction, content, impact, analysis, genre.

Бадиий ифоданинг кенг қўлланилишини мумтоз ва замонавий шоирларнинг бутун ижодида кузатиш мумкин. Дарҳақиқат, атоқли зуллисонайн адиблардан бири Амир Умархоннинг шеърларига назар ташлайдиган бўлсак, бадиий сўз ва маънавият санъатлари, яъни, ташбеҳ, ўхшатиш, талмеҳ, истиора, мурожаат, савол-жавоб, ташхис, муболаға, киноя, таъриф, тавсиф, диагностика каби санъатларни ўзининг асарларида намуна сифатида кенг қўлланилганига бевосита гувоҳ бўламиз. Айтиш жоизки, Амир Умархон ҳар икки тилда – тожик ва ўзбек тилларида бадиий санъатлардан деярли тенг фойдаланган.

Амир Умархоннинг ҳаёти ва даври Хўқанд хонлиги сиёсий ва иқтисодий ҳаётининг нотинч даврларида, Ўрта Осиё хонликлари ўртасидаги сиёсий зиддиятларда ўтди. Бу даврга оид бир қанча манба ва маъхазлар, жумладан, Қори Раҳматуллоҳи Возеҳнинг “Туҳфат-ул-аҳбоб фи тазкират-ил-асҳоб”, Мирсиддиқхон Ҳашмати Бухороийнинг “Тазкират-уш-шуаро”, Абдуллохожаи Абдининг “Тазкират-уш-шуарои мутааххирин”, Ҳожи Неъматуллоҳи Мўҳтарамнинг “Тазкират-уш-шуаро”, Шарифжон-Махдум Садри Зиёнинг “Тазкори ашъор”, Садриддин Айнийнинг “Намунаи адабиёти тожик”-и Амир Умархоннинг ҳаёти ва ижодига оид қизиқарли маълумотларга ега бўлиб, улар шоирнинг ижодини ўрганиш ва тадқиқ қилишда ишончли асос бўла олади. Бу маълумотларга кўра, Амирийнинг мавзу ва мазмунларга чиндан эътиборли бўлганлиги сабабли шеъриятда қўли қодир, нафосат ва аниқлик жиҳатидан энг нуфузли шоирлардан бири ҳисобланган кўриниб турар экан. Унинг нафақат ҳаваскор шоир, балки профессионал шоир ҳам бўлганлиги, шеърият санъатида тенгсиз эканлиги ҳам аён бўлади.

Ўзбекистон Фанлар академияси Алишер Навоий номидаги музейнинг Матншунослик асарлари ва қўлёзма ёдгорликларини нашр этиш бўлимида шоирнинг турли даврларга оид 26 та қўлёзма девонлари мавжуд. Улар илмий нуқтаи назардан талқин қилинганлигини ҳам айтиш керак. Бу қўлёзмалар Санкт-Петербург, Тошкент, Самарқанд, Бухоро кутубхоналарида сақланмоқда.

Ўзбек адабиётшунослигида шоир ҳаёти ва ижодини ўрганиш борасида кўплаб илмий ишлар амалга оширилди. Пўлоджон Қайюмовнинг “Тазкираи Қайюми” асарида Амирийнинг шахсилиги ва ўзбек тилидаги ижоди ҳақида аниқ ва тўлиқ маълумотлар берилган. Худди шу муаллифнинг яна бир китоби “Ўзбек адабиёти тарихи” ҳам книнг ижодига бағишланган. Ўзбек адабиётшунослари Воҳид Зоҳидовнинг “Ўзбек адабиёти тарихидан” рисоласида, Азиз Қаюмовнинг “Қўқон адабий муҳити” китобларида ҳам Амирнинг ижоди, унинг қимматли асарлари ҳақида фойдали маълумотлар берилган.

Тадқиқотчи олима М.Қодированинг саъй-ҳаракати билан 1972 йилда Тошкентда “Дивони Амирий” нашр этилган. У 359 саҳифадан иборат бўлиб, унинг ўзбек ва тожик шеърларидан иборат. З.Қобилова ва О.Давлатовлар томонидан тузилган Девони Амири тўлиқ 2017 йилда Тошкентдаги “Тамаддун” нашриётида ўзбек ва тожик тилларида икки жилдда нашр етилган.

Амир Умархон нафосатли ва нозикхаёл, ширинсўз шоир сифатида Мовароуннаҳрда ҳинд услубининг издошлари ва давомчиларидан бири саналади. У маснавий, ғазал, мухаммас, қитъа, тарих, муфрадот, мусаммат, рубоий каби кўплаб адабий жанрларни яратишда юксак маҳоратга эга бўлганини девонидаги шеърлари тасдиқлайди. Яна шуни айтиш керакки, шоир ўзининг серқирра ва ранг-баранг мазмуни билан ўша даврнинг кўплаб шоирлари ижодидан буткул фарқ қиладиган турли ижтимоий-фалсафий, ишқий-фалсафий тасаввуф мавзуларида юксак савиядаги шеърлар ёзган. Шуни қўшимча қилиш керакки, Амирий шеърият яратишда ўзига хос услуб ва методга эга бўлган. Қуйидаги байт ва мисралардан ҳам англаш мумкинки, шоир ғазаллари ишқ ва тасаввуф мавзуларида ёзилган, мазмуни юксак ва бой, бевосита ўқувчи қизиқиши ва иштиёқини тортади. Юқоридаги фикрни тасдиқлаш учун шоирнинг тожик тилида ёзган ушбу бир ғазалини келтириш кифоя:

Ба завқи он, ки расонам ба зулфи ёр ангушт.
Чу шона медамад аз дасти ман ҳазор ангушт.
Гирех зи зулфи сиёҳат кушудан осон нест,
Касе чӣ гуна расонад ба чашми мор ангушт.
Нигоҳ ба рӯи ту кардам, гудохтам чу шамъ,
Сазои он ки ба оташ кунад дучор ангушт.
Ишорати мижаҳои ту рост мешумурам.
Агар ғалат бувад аз дасти ман барор ангушт.
Хаёли зулфи парешони ёр кард, Амир,
Ба ин сухан марасон шона зинҳор ангушт. (1: 116)

(Тажима: ёрнинг зулфига ангуштимни теккизиш завқида, мени йўлимдан шони каби минг ангушт чиқади, қора зулфингдан тугунни очиш осон эмас, ошиқ илон кўзига қандақ ангуштини теккизади, сени юзинга боқиб, шамъдай ёндим, унинг сазосиким ангушт уни аловга дучор этади, кипрингларинг нишонасини тўғри санайман, агар ёлғон бўлса, мендан ангушт чиҷор, Амир ёрнинг парешон зулфини ёд этди, бу сўзга зинҳор шона теккизмагин ангушт).

“Ёр” ва “ор” қофиялари ҳамда “ангушт” радифи билан яратилган бу ғазалда бир қанча бадиий услублар, жумладан, ўхшатишлар (шона ва бармоқ

(ангушт)), (соч тугунию илон кўзлари), ҳатто ўқувчининг диққатини ўзига тортадиган иборалар (зулфи ёр, зулфи сиёҳ, зулфи парашон) бойлигини кузатиш мумкин.

Юқорида таъкидланганимиздек, Амирий ўз шеър ва ғазалларини яратишда бадиий услублардан жуда моҳирона ва кенг фойдаланган бўлиб, улардан баъзиларини қуйида кўриб чиқамиз.

Мумтоз тожик адабиётининг асосини сўз санъатлари ташкил этиши зукко ўқувчига аён. Шоир бир байтда бир-бири билан кучли семантик алоқага ега бўлган сўз ва ибораларни қўллаган. Ўқувчи бу турдаги боғланишларни мисраларнинг кўринишида ҳам кўриб чиқиши мумкин. Амир Умархон ҳам аждодлари оғзаки ижодининг давомчилари сингари шеърларининг адабий меъёрларга тўла жавоб беришига интилди, шунинг учун ҳам сўз нисбати унинг шеъриятининг гўзаллиги, нафислиги, нозиклигининг моҳиятини ифодалайди. Амирий шеърларида мутаносиблик санъатининг қўлланилишини қуйидагича таснифлаш мумкин: Сўзларнинг зоҳир нисбати. Бундай ҳолларда шоир нарса ва ашёларнинг уйғунлиги, изчиллиги, зоҳирий нисбатини кузатган, бу эса янги ва тоза маънолар, юксак ва ёқимли мазмун яратишга хизмат қилган. Жумладан, Амирий қуйидаги мисраларда ҳаммаси Наврўзга, баҳор бошланишидаги гўзалликка бағишланган сўзларни қўллаган: “Наврўз”, “томаша”, “гули раъно”, “пӯшида”, “хилъати зебо”.

Наврӯз шуд омад ба тамошо гули раъно,
Пӯшида ба бар хилъати зебо гули раъно. (2: 16)

Таъкидлаш жоизки, Амир Умархон табиат, атроф-муҳитнинг ям-яшиллиги ёки атроф билан боғлиқ бошқа ҳолатларни тасвирлашда мавзуга оид атама ёки ибораларнинг қўлланилишига жиддий эътибор қаратган:

Ниҳоли қоматаш дар боғи даҳр озод мебошад,
Ғуломи қадду рухсораш гули шамшод мебошад. (2: 55)

Кўриниб турибдики, юқоридаги мисрадаги деярли барча сўзлар бир-бирига юзаки боғланган, масалан, “ниҳол” “ қомат” ва “боғ”га. Бу сўзлар ҳам “қадӣ рухсор” ва “гули шамшод” иборалари билан бевосита боғлиқдир. Ёки “ғулом” сўзига қарама-қарши бўлган “озод” сўзи байтда маъно муносабатини касб этган. Шунингдек, турли маданиятларда турли маънога эга бўлган “шамшод” сўзи: майда, зич барглари бўлган доим яшил дарахт; Райҳон тури, субъектнинг қадди-қоматига ишора. Бу байтда унинг ҳар бир маъносини изоҳлаш орқали сўзнинг маъноси ўзгармасдан, балки маъно жиҳатдан мустаҳкамланган. Биринчи маънода “шамшод” боғ ва ўсимликка, иккинчи маънода баланд бўйли ўсимлик, боғ, бўй маъносида, учинчи маънода эса яна ўсимлик ва юзга боғланган. Шундай қилиб, шоир ғуломнинг қадди-қомати

баланд, қиёфаси гўзал, яъни энг чиройли эканлигини, унинг бўйи, юзи ғуломникидек эканлигини айтмоқчи бўлади. Бошқача қилиб айтадиган бўлсак, маъшуқа бошқа барча мавжудотларнинг энг мафтункори ва гўзалидир.

Айтиш жоизки, Амирий шеъриятида сўз нисбати, мафҳум ва тузилмалар тушунчаси ва маъносига асосланади. Кўриниб турибдики, сўзлар сиртдан бир-бирига боғлиқ эмас, балки сўзларнинг маънолари, тузилиши, иборалари, ифодалари бир-бири билан мустаҳкам боғланган. Айнан, мана шу боғлиқлик шеър ва мисраларнинг мазмунини англаш билан бирга, ифодали оҳангига ҳам катта ёрдам беради. Байтларни яратиш ва тақдим этишнинг бундай усули шеър мавзусини янада қизиқарли ва тушунарли қилади. Бу сўзларни қуйидаги мисраларда тадқиқ қилиш мумкин:

Шудам бемор баҳри пурсиши ман ёр меояд,
Масеҳо бар сари болини ин бемор меояд.
Камоли ишқи ошиқ мекунад маъшуқро ошиқ,
Ба завқи Кӯҳкан Ширин дар ин кӯҳсор меояд. (2: 59)

(Таржимаси: мен бемор бўлдим, мени сурогимга ёр келади, мени беморлик тўшагимни кўриш учун Масиҳо келади, ошиқ ишқини камоли маъшуқни ошиқ қилади, Кўҳкан завқига Ширин келади).

Айтиш жоизки, байтнинг биринчи мисрасида марказий сўз вазифасини бажарувчи “бемор”, “ёр”, “Масеҳо” бош сўзлари пайдо бўлиб, бошқа сўзлар ҳам шу уч атамага нисбатан санаб ўтилган. “Бемор”, “тўшак” сўзлари ўзаро уйғун муносабатни таъминлаб, мисра маъносини чин юракдан етказса-да, “бемор”нинг “Масеҳо” сўзи билан ички алоқаси кучлироқдир. Бу икки сўзнинг яқинлиги Худонинг пайғамбари Исо Масиҳнинг ҳаёт берувчи нафаси билан ўликларни тирилтирган мўъжизавий ҳикоясига бориб тақалади. Бу боғланиш “Фарҳоду Ширин” лирик қиссасидан келиб чиққан бўлиб, сўз ва тузилмалар ўзаро бутунлай боғланган. Демак, улар орасидаги мантиқий муносабатни қуйидагича ифодалаш мумкин: Кўҳкан – Фарҳод, ошиқ – машуқ, камол – завқ, мекунад – меояд, кӯҳсар – кўҳкан.

Юқоридаги мисолдан маълум бўлдики, Амир Умархоннинг мазмунан бой ва юксак мазмунга эга ижоди мантиқ, маъно ва мазмун, услуб ва бадиий санъат, шакл унсурлари нуқтаи назаридан тожик шеърий шаклининг анъанавий талаблари мезонларига тўла жавоб бера олади. Жумладан, унинг байт ва мисралари ва бутун шеъридаги сўз нисбати тўғри кузатилган.

Айтиш жоизки, Амирийнинг тожик ва ўзбек асарларида диний, тарихий, мифологик номлар, жумладан, Одам Ато, Мусо, Исо, Ёқуб, Юсуф, Сулаймон, Хизр, Иброҳим номлари аллитерация (талмеҳ) санъатидан фойдаланиб, тасаввуфий мақсадларда кенг қўлланган. Амир Умархоннинг диний тарихга

оид пайғамбар ва сиймолар номларига ишора қилишлари юксак маъно ва янги мазмун яратишда қўлланилган. Жумладан, қуйидаги байтда у Юсуфдан кўра маъшуқасининг гўзаллигини афзал кўриб, уни иккинчи Юсуф деб атайди ва унинг ишораси Юсуф алайҳиссаломнинг сотилиши ва бозорда кўтарилган ғалаёнлар ҳақидадир:

Туйӣ имрӯз дар Мисри муҳаббат Юсуфи сонӣ,
Зи дунё то ба уқбо шӯри бозор аст аз дастат. (2: 40)

(Таржима: бугун сен муҳаббат Мисрида кейинги Юсуфсан, сенинг дастингдан бу дунёдан у дунёгача ишқ бозори ғалаёндир).

Амир Умархон шеърларидаги тарихий номлар ўз тарихи ва ҳикоявий мазмунидан келиб чиқиб, шоирнинг маъно ва аҳамият яратишида самарали рол ўйнаган.

Маълумки, тожик адабиётида муболаға санъати бадиий санъатларнинг мазмун-моҳияти сифатида фикрни ифодалаш, маънони тушунтириш, тасвирлаш ва таърифлаш ва шу кабиларда юксак қадриятга ега бўлиб, Амир Умархон ижодида ҳам алоҳида ўрин тутади. Ғазалларидан бирида “шиканад” деган сўзда муболаға санъатидан фойдаланиб, ўз фикри, ҳаракати, шеърий тасаввурини ифодаловчи шеър яратган. Ишқий мавзудаги ғазалининг қуйидаги байтида кузатганидек:

Қадди мавзунат агар ҷилва кунад дар бӯстон,
Сарв афтад ба замин, қадди санавбар шиканад.
Аҷабе нест гар аз фазли Худованд, Амир
Ба сарангушти хирад қалъаи Хайбар шиканад. (2: 52)

(Таржима: агар мавзун қоматинг бўстонда жилва этса, сарв ерга тушади, санавбарни қомати синади, ажаб эмас агар Худо фазлидан, эй Амир, ақлнинг бош бармоғи билан Хайбар қалъаси ҳам синиб кетсин).

Иккинчи ва тўртинчи мисраларда муболаға санъатидан моҳирона фойдаланилганлигини тушуниш осон. Амир Умархоннинг ҳинд услуби таъсиридан таъсирланган муболағаларида янги ва тоза мазмун, нозик ва ўзига хос маънолар берилган.

Бадиий санъат турларидан савол-жавоб санъати ўзига хос талаблари билан алоҳида хусусиятларга эга. Бу борада зуллисонайн шоир шеърияти ҳам уни қўлланишдан холи эмас. Амир Умархон ижодида савол-жавоб санъати унинг айрим мисраларида яққол намоён бўлади. Бу санъат шоирнинг ички туйғуларини ифодалашда яхши восита бўлиб, нозик мантиқ ва аниқлик билан фойдаланилган ва шеърда ўз мақсадига етишга арзигулли хизмат қилган. Амир Умархон қиссаларида савол-жавоб санъати икки хилда қўлланган. Биринчидан, шоир айрим ғазалларида ўз мақсад ва ниятларини шу санъат орқали

ифодалайди. Бундай ҳолатлар бир мисра ёки уч-тўрт мисрада учрайди. Жумладан, “Бурд дил аз дасти ман он санами дилфиреб” (кўнглимни мендан олиб кети ул санам) мисраси билан бошланган ғазалда иккинчи байтда савол-жавоб санъати қўлланиб, шоирнинг кейинги фикр ва мулоҳазалари шу орқали ифодаланади:

Гуфтамаш: Аз ҳачри ту сўхтам, эй дилрабо,
Гуфт: Туро васли ман шод кунад анқариб. (2: 28)

(Таржима: дедим: сенинг ҳажрингдан куйиб кетдим, эй дилрабо, деди: сенга мени васлим яқинда шод этур)

Амир Умархон ўзининг тожикча асарларида асосан Камол Хўжандий ғазалларини таъсири кучлироқ бўлган. Шунинг учун унинг тўлиқ савол-жавоб санъатидан иборат бўлган бутун бир ғазали бор. Шоир ишқ мавзусини бадиий ранглар билан аралаштириб, янгича мазмун яратган:

Гуфт ёр: Аз ғайри ман пўшон назар. Гуфтам: Ба чашм,
Баъд аз ин бе парда бар рўям нигар. Гуфтам: Ба чашм. (2: 181)

(Таржима: Деди ёр: биздан ташқари барча ошиқлардан кўзингни юм, дедим: хўп, ундан кейин мени кўзимга пардасиз разм сол, деди: хўп!)

Юқорида айтиб ўтганимиздек, Амир Умархоннинг ўзига хос услуби бор эди. Унинг баъзи ғазаллари ниҳоятда содда ва жўшқин бўлиб, бироз оддий кўринади. Шоир бундай шеърларни шошиб, қофия учун яратганга ўхшайди. Лекин ҳақиқатда бундай эмас, чунки соддалик ҳам шоир ижодида изланса бўладиган санъатдир. Амирий шеъриятининг бошқа намуналари билан солиштирганда, бу яратганлари ўртача даражани эгаллайди.

Адабиётшуносликда кенг тарқалган санъат тури бўлмиш тачнис санъати Амир Умархон шеъриятида ҳам яққол намоён бўлади. Яна шуни айтиш керакки, Амирий шеъриятидаги бадиий ифоданинг бу тури Шайх Камол Хўжандий диди ва истеъдоди таъсиридадир. Кейинги ғазалида у ўз тилини ранг-баранг қилиш учун оғзаки жинсдан фойдаланган. Чунончи, қуйидаги байтдаги “хумор” (роҳат) ва “хум ор” (хум ни олиб кел) сўзлари асосий араб ёзувида бир хил бўлса-да, шоирнинг сўзлашув услубида турли маъноларда ифодаланган.

Набвад дигарам тоқати хамёза кашидан,
Хум ор, ки бетобиям аз дарди хумор аст. (2: 43)

(Таржима: эснаш учун бошқа тоқатим қолмади, хумни олиб кел, менинг тоқатсизлигим хумордандир).

Амир Умархон ижодида аллегория (ташбеҳ, ўхшатиш) санъати алоҳида ўрин тутади. У бу санъат туридан ҳам тожик, ҳам ўзбек шеъриятида кенг фойдаланган ва бу санъат унинг барча асарларида мавжуд десак хато бўлмайди.

Мумтоз адабиётимизда метафора сан’ати ўхшатиш сан’атидан кейинги ўринда туради. Чунки мана шу санъат орқали нотиқлар ўзларининг юксак маҳоратини намоён этадилар. Таъкидлаш жоизки, адабиётда метафора бир сўз ўрнида қўлланадиган бадиий санъат тури ҳисобланади. Масалан, “Девони Амирий”дан мажоз санъати мазмунида қўлланган кўплаб мисолларни келтириш мумкин. Бу байтда шоир “кўз”ни маст наргисга ўхшатади:

Бо шаҳидон теғи абрӯи ту шодоб дар ситам,
Бо асирон наргиси масти ту саршори ҷафо. (2: 14)

(Таржима: шоҳидларга сенинг абрӯйинг кӯп ситамдир, асирларга эса, маст наргисинг кӯп жафодир).

Амирий шеъриятида яққол кўзга ташланадиган яна бир бадиий услуб тазод, яъни қарама-қаршиликдир. Бу санъатлар икки фикр қарама-қарши қўйиладиган, бошқача айтганда, икки шахс ёки икки нарсанинг сифат ва хусусиятлари қиёсий жиҳатдан қарама-қарши қўйиладиган бадиий ифода воситаларидан энг самаралиси ҳисобланади. Масалан, у бир сатр ёки мисра ичидаги фикрни ифодалаш учун икки қарама-қарши сўз ишлатган. Жумладан, қуйидаги байтда “гиребон” (ёқа) ва “доман” (юбка) сўзлари бир-бирига қарама-қарши қўлланиб, нозик маъно ҳосил қилган.

Ту бо тавқи вафо нозиву ман бо дидаи гирён,
Туро гул дар гиребону маро дар доман, эй қумрӣ. (2: 237)

(Таржима: сен вафо тавқи билан хурсанд бӯлсанг, мен дидагирёнман, сенда гул гирибонингда бӯлса,мени домонимда қумрий).

Яна шуни айтиш жоизки, Амир Умархоннинг айрим қарама-қаршиликлари мазмун ва маъно жиҳатидан ранг-баранг бўлиб, ўқувчи уларни у ёки бу воқеа тарихига оид тушунча ва билим билан бошдан кечириши мумкин. У ўз ижодида оддийдан мураккабгача қарама-қаршиликлардан кенг фойдаланган.

Амир Умархон икки тилда –тожик ва ӯзбек тилларида сўзлашувчи бўлганлиги сабабли унинг асарларида тилларнинг таъсири яққол кўзга ташланади. У ўзининг тожик тилидаги асарларида асосан Камол Хўжандий, Жомий, Бедилга эргашган бўлса, ўзбекча асарларида А.Навоий, Лутфий, Фузулийга эргашган.

Хулоса ўрнида шуни айтиш кифояки, зуллисонайн адиб Амир Умархон ўз шеъриятида тазод ва қарама-қаршилик, ташбеҳ, ўхшатиш, такрор, савол-жавоб, муболаға каби турли санъатлардан кенг ва мўл-кўл фойдаланган ва шу орқали асарларининг бадиий сифатини оширган. Оғзаки ва маънавий метафораларнинг қўлланилиши унинг бадиий жиҳатини юксалтириш, шоир нутқини таъсирли ва

мақбул қилиш имконини берган. Унинг икки тилда ижод қилгани, мана шундай олижаноб ва мазмунли шеърлар яратганидан шаҳодат беради. Амир Умархоннинг бундай ноёб ва бетакрор шеърларни яратишда юксак нотиқлик маҳоратига эга бўлганлиги, форс-тожик, ўзбек адабиётини бойитишга муносиб ҳисса қўшганидан далолат беради. Шунинг учун ҳам унинг асарлари бугунги кунда ҳам ўрта мактаб дарсликларига, ҳам Ўзбекистон ва Тожикистон олий ўқув юртлари ўқув қўлланмаларига киритилган ва ўқитилмоқда.

Адабиётлар:

1. Қайюмов, П. (Пўлотжон Қайюми) Тазкираи Қайюмий / Пўлотжон Қайюми - Нашрга тайёрловчи Азиз Қайюмов.- Тошкент, 1998.
2. Амирӣ. Девон. Нусхаи хаттии Китобхонаи Миллии Ҷумҳурии Тоҷикистон, тақти рақами 11/92.-220 с.
3. Айнӣ, Садриддин. Намунаи адабиёти тоҷик / Садриддин Айнӣ. - Аз хати форсӣ таҳия ва тасҳеҳи Мубашшири Акбарзод.- Душанбе, Адиб, 2010.
2. Амирӣ. Девон. Нусхаи хаттии Китобхонаи Миллии Ҷумҳурии Тоҷикистон, таҳти рақами 11/92.
3. Амирӣ. Девон/ Амирӣ - ба забони форсӣ. - Истамбул, чопи сангӣ, соли 1299 ҳичрӣ.
4. Возеҳ, Қорӣ Раҳматуллоҳ. Туҳфат-ул-аҳбоб фи тазкират-ил-асҳоб. /Матни интиқодӣ бо муқаддима ва тасҳеҳи Асғари Ҷонфидо. Зери назари Абдулғанӣ Мирзоев. - Душанбе: Дониш, 1977.
5. Зоҳидов В. Ўзбек адабиёти тарихидан: китоби дарсӣ / Воҳид Зоҳидов. - Тошканд, 1961.
6. Қобилова З. Б. Амирӣ ва фаъолияти адабии ӯ. Автореферат барои дарёфти дараҷаи илмии номзади илмҳои филологӣ.- Тошкент, 2007.
7. Қаюмов А. Қўқон тарихи ва адабиёти. - Т. 1. / А.Қаюмов. – Тошканд, 1998.
8. Қаюмов А. Қўқон тарихи ва адабиёти. - Т. 2. / А.Қаюмов. – Тошканд, 1998.
9. Охунҷонова Н. Рисола. Поэтикаи ашъори шоирони ҳавзаи адабии Хӯқанд. — Хуҷанд, 2018.
10. Брагинский И. С. Из истории таджикской и персидской литературы / И.С.Брагинский. - Москва: Наука, 1972.
11. Ҳикматов Ҳикмат Султонович. ЎЗБЕК - ТОЖИК ЗУЛЛИСОНАЙН АДИБЛАРИНИ XX АСР АДАБИЁТИ БОШЛАРИДА. Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti, o’zbek tili va adabiyoti fakulteti, O’zbek filologiyasining dolzarb masalalari va uni o’qitish metodikasi muammolari. Xalqaro anjuman materiallari 2 kitob. 13-dekabr 2023-yil, Jizzax. 98-100 betlar.
12. Ҳикмат Султонович Ҳикматов. ЯК НАЗАР БА НАМУНАҲОИ АШЪОРИ ДУЗАБОНА ДАР АДАБИЁТИ БАДЕИИ АСРҲОИ XVII-XIX. Academic

Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 8 | 2023. ISSN: 2181-1385 ISI: 0,967 | Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,9 | ASI: 1,3 | SJIF: 5,771 | UIF: 6,1.

LIRIK ASARLARNI TAHLIL QILISH USULLARI

Sabitova Tadjixon
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
professor v.b., pedagogika fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Ushbu maqolada lirik asarlarni tahlil qilishning asosiy usullari yoritilgan. Lirik qahramon, badiiy tasvir vositalari, obrazlar tizimi, kompozitsiya, ohang va janr xususiyatlarini tahlil qilish orqali asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini ochib berish masalalariga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, lirik asarlarni tahlil qilishda matn bilan ishlash va o‘quvchining estetik tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: lirik asar, tahlil, lirik qahramon, obraz, badiiy tasvir, kompozitsiya, janr, ohang, g‘oya, estetik tafakkur.

Abstract: This article examines the main approaches to the analysis of lyrical works. Particular attention is given to revealing the ideological and artistic content of a literary work through the analysis of the lyrical persona, literary devices, the system of images, composition, tone, and genre characteristics. The article also highlights the possibilities of working with the text in the analysis of lyrical works and explores ways of developing the reader’s aesthetic thinking.

Keywords: lyrical work, analysis, lyrical persona, image, literary devices, composition, genre, tone, idea, aesthetic thinking.

Lirik asarlarni o‘rganish adabiy ta’limning o‘ziga xos va murakkab yo‘nalishlaridan biridir. Chunki lirika epik yoki dramatik asarlardan farqli ravishda voqealar tizimini batafsil bayon qilishdan ko‘ra, insonning ichki kechinmalari, ruhiy holati, hayot va borliqqa munosabati, quvonch va iztiroblari, orzu-intilishlari hamda estetik qarashlarini ifodalashga yo‘naltiriladi. Shu sababli lirik matnni o‘rganishda faqat “she’rda nima haqida gapirilgan?” degan savol bilan cheklanib qolish yetarli emas. O‘quvchi asarda qanday tuyg‘u ifodalangani, bu tuyg‘u qanday badiiy vositalar orqali yuzaga chiqarilgani va shoirning o‘quvchiga qanday estetik ta’sir ko‘rsatishni ko‘zlaganini ham anglay olishi lozim.

Lirik asarning asosiy janriy belgilaridan biri unda kechinmaning yetakchilik qilishidir. Shoir tashqi voqelikni bevosita tasvirlash o‘rniga, uning o‘z ruhiyatida uyg‘otgan taassurotini badiiy shaklga soladi. Natijada tabiat manzarasi, ayriliq, uchrashuv, Vatan, muhabbat, insoniylik, vaqt yoki xotira kabi mavzular oddiy ma’lumot sifatida emas, balki muayyan hissiy munosabat bilan ifodalanadi. O‘quvchi lirik matnni o‘zlashtirish jarayonida ana shu hissiy qatlamni ilg‘ashi, shoirning kayfiyati va badiiy qarashlarini his etishi muhimdir.

Masalan, shoir “kuz” obrazini tasvirlaganda, uning maqsadi faqat faslning kelganini bildirish bo‘lmasligi mumkin. Kuz ayriliq, umrning o‘tkinchiligi, xotira yoki sokinlik timsoliga aylanishi ehtimoldan xoli emas. Demak, lirik asarni o‘rganishda tasvirlangan predmet yoki hodisaning ramziy va hissiy ma’nosini aniqlash muhim metodik vazifa hisoblanadi.

Lirik asarning yana bir muhim xususiyati – lirik qahramonning mavjudligidir. Lirik qahramon har doim ham shoirning o‘zi bilan aynan bir shaxs bo‘lavermaydi. U shoir tomonidan badiiy jihatdan yaratilgan, muayyan kechinma va qarashlarni ifodalovchi obrazdir. Shuning uchun o‘quvchilarga “she’rda shoir nima qilgan?” degan savoldan ko‘ra, “she’rda qanday ruhiy holatdagi inson obrazi namoyon bo‘lmoqda?” kabi savollar berish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv o‘quvchini muallif shaxsiyati bilan lirik qahramon obrazini farqlashga va badiiy matnni chuqurroq idrok etishga o‘rgatadi.

Namuna. Masalan, lirik qahramon ayriliq haqida so‘z yuritayotgan bo‘lsa, o‘quvchilarga quyidagi savollarni berish mumkin:

Lirik qahramonning kayfiyati qanday?

U nimadan iztirob chekmoqda?

Uning kechinmasi matndagi qaysi so‘z va obrazlarda yaqqol ko‘rinadi?

Qahramonning holati sizda qanday taassurot uyg‘otdi?

She’rda aytilgan fikr bilan qahramonning ichki kechinmasi o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?

Bunday savollar o‘quvchini she’r mazmunini oddiy qayta aytishga emas, balki matnning ichki poetik mazmunini anglashga yo‘naltiradi.

Lirik asarning badiiy-estetik tabiati, avvalo, uning so‘z tanlash, obraz yaratish, ohang, ritm, qofiya, takror, tashbeh, metafora, jonlantirish, mubolag‘a, ramz va boshqa poetik vositalardan foydalanish xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. She’riy matndagi har bir so‘z oddiy axborot tashuvchi birlik emas, balki muayyan kayfiyat va estetik ma’noni yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Shu bois o‘quvchi she’rni o‘rganishda so‘zlarning lug‘aviy ma’nosi bilan birga ularning kontekstual, obrazli va hissiy ma’nosini ham aniqlay olishi zarur. Masalan, “yurak” so‘zi oddiy biologik a’zo ma’nosida emas, balki “his-tuyg‘u”, “muhabbat”, “ruhiy iztirob” yoki “insonning ichki olami” ma’nolarida ishlatilishi mumkin. “Yo‘l” so‘zi esa ayrim lirik matnlarda oddiy harakat yo‘nalishini emas, balki “hayot yo‘li”, “taqdir”, “izlanish” yoki “maqsad sari intilish” tushunchalarini anglatishi mumkin. O‘quvchi ana shunday ko‘chma ma’nolarni aniqlay olgandagina lirik matnning estetik mazmuniga chuqurroq kirib boradi. Lirik asarni o‘rganishda ifodali o‘qish alohida ahamiyatga ega. Chunki she’rdagi mazmun ko‘pincha uning ohangi, pauzasi, urg‘usi, ritmi va tovushlar uyg‘unligi orqali to‘liq namoyon bo‘ladi. Bir xil matnni

turlicha ohangda o‘qish turli hissiy taassurotlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi she’rni o‘quvchilarga tahlil qildirishdan oldin uning namunali ifodali o‘qilishini tashkil etishi maqsadga muvofiq. O‘quvchilar esa matnni o‘qish davomida qaysi so‘zga urg‘u berilishi, qayerda pauza qilinishi va qanday ohang tanlanishi kerakligini aniqlashlari mumkin.

Amaliy namuna. O‘qituvchi lirik she’rni dastlab o‘zi ifodali o‘qiydi. Shundan so‘ng o‘quvchilarga quyidagi topshiriq beriladi:

“She’rni yana bir bor o‘qing. Muallifning kayfiyatini kuchaytirayotgan so‘zlarni belgilang. Qaysi misralarni sekin, qaysilarini kuchliroq ohangda o‘qish kerakligini aniqlang. Nima uchun aynan shunday ohang tanlaganingizni matn asosida izohlang.”

Mazkur topshiriq o‘quvchining nafaqat ifodali o‘qish malakasini, balki badiiy matnni hissiy idrok etish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Lirik asarni tahlil qilishda mazmun va shakl birligiga e’tibor berish ham muhimdir. She’rning g‘oyasi uning shakliy xususiyatlaridan ajratilgan holda to‘liq anglanmaydi. Masalan, takrorning ko‘p qo‘llanishi qahramonning hayajonini yoki qat’iyligini ifodalashi, qisqa misralar ruhiy keskinlikni kuchaytirishi, cho‘ziq ohang esa sokinlik yoki iztirobni yuzaga chiqarishi mumkin. Demak, o‘quvchi “shoir nima demoqchi?” degan savol bilan bir qatorda “u bu fikrni qanday badiiy shaklda ifodalagan?” degan savolga ham javob topishi kerak. Masalan, quyidagi shartli misralarni olaylik:

Ketdi bahor, qoldi xazon,
Ko‘nglimda bir sokin armon.

Bu ikki misrada tashqi tabiat hodisasi bilan insonning ichki holati o‘zaro bog‘langan. “Bahor” yangilanish va quvonchni, “xazon” esa so‘nish yoki ayriliqni ifodalashi mumkin. “Ko‘nglimdagi armon” esa tashqi manzaradan ruhiy kechinmaga o‘tishni ta’minlaydi. O‘quvchiga “Bahor qachon ketadi?” degan savoldan ko‘ra, “Nima uchun shoir bahorning ketishini inson qalbidagi armon bilan bog‘lamoqda?” degan savol berish badiiy-estetik tahlil uchun samaraliroqdir.

Lirik asarning janriy xususiyatlarini o‘rganishda uning mavzusi, g‘oyasi, lirik qahramoni, ruhiy holati, obrazlar tizimi, badiiy tasvir vositalari, poetik shakli va ohangini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish zarur. Bunda tahlil oddiy ketma-ket savol-javob shaklida emas, balki o‘quvchini fikrlashga undaydigan muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilsa, yuqori natijaga erishish mumkin.

Masalan, “Shoir tabiatni tasvirlaganmi yoki inson ruhiyatini?” degan muammoli savol o‘quvchini matnni qayta o‘qishga va undagi yashirin ma’nolarni izlashga undaydi. Yoki “Agar she’rda aynan shu metafora ishlatilmaganida, asarning hissiy ta’siri qanday o‘zgargan bo‘lardi?” degan topshiriq badiiy vositaning funksiyasini anglashga yordam beradi.

Lirik asarlarni o‘rganishda o‘quvchining shaxsiy estetik munosabati ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. O‘quvchi she’rni faqat tayyor ilmiy xulosalar asosida qabul qilmasdan, o‘z munosabatini bildira olishi, muayyan obraz yoki fikrga qo‘shilishi yoki undan farqli qarashni ilgari surishi mumkin. Biroq shaxsiy fikr albatta matndan dalillar bilan asoslanishi lozim. Shu jihatdan “Menimcha, she’r menga yoqdi” tarzidagi umumiy bahodan ko‘ra, “She’rning falon misrasidagi obraz menga ta’sir qildi, chunki...” shaklidagi javob ilmiy-metodik jihatdan samaraliroqdir.

Namuna topshiriq:

“She’rda sizga eng kuchli ta’sir qilgan obrazni tanlang. Uning qanday badiiy vosita yordamida yaratilganini aniqlang. Mazkur obraz lirik qahramonning ruhiy holatini ochishda qanday vazifa bajarayotganini izohlang.”

Bunday topshiriq orqali o‘quvchi matnni o‘qish → obrazni aniqlash → badiiy vositani topish → ruhiy holatni anglash → shaxsiy munosabat bildirish kabi izchil tahliliy faoliyatni amalga oshiradi. Shuningdek, lirik asarlarni o‘rganishda ularni boshqa san’at turlari bilan bog‘lash ham o‘quvchining estetik idrokini kengaytiradi. Masalan, tabiat lirikasini o‘rganishda she’rda tasvirlangan manzaraga mos musiqa yoki rassomlik asari bilan qiyoslash, muhabbat lirikasida esa qahramonlarning ruhiy holatini ifodalovchi badiiy obrazlarni taqqoslash mumkin. Bunda asosiy maqsad boshqa san’at turini o‘rganish emas, balki she’riy obrazning o‘ziga xosligini chuqurroq anglashdan iborat bo‘lishi kerak.

Bizningcha, lirik asarni o‘rganishning eng maqbul yo‘li o‘quvchini tayyor xulosani qabul qiluvchi emas, balki badiiy ma’noni mustaqil kashf etuvchi faol subyekt sifatida tashkil etishdir. Chunki lirik matnning estetik qiymati uning yuzaki mazmunidagina emas, balki so‘z, obraz, ohang va kechinmaning yaxlit badiiy tizimga birlashishida namoyon bo‘ladi. O‘quvchi ushbu birlikni anglagan sari she’rni shunchaki “o‘qilgan matn” sifatida emas, balki inson ruhiyatini anglash vositasi sifatida qabul qila boshlaydi. Shunday qilib, lirik asarning janriy xususiyatlari va badiiy-estetik tabiatini o‘rganish jarayonida asosiy e’tibor voqeani qayta hikoyalashga emas, kechinmani anglashga; tayyor xulosani takrorlashga emas, badiiy ma’noni kashf etishga; faqat mazmunni tushunishga emas, mazmun va shakl uyg‘unligini idrok etishga qaratilishi lozim. Ana shunday yondashuv o‘quvchilarda badiiy-estetik didni, mustaqil tahlil qilish qobiliyatini, obrazli fikrlashni va adabiy asarga shaxsiy munosabat bildirish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Lirik asarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘quvchilarga tushuntirishda nazariy ma’lumot bilan cheklanib qolmasdan, aniq she’riy matn asosida amaliy tahlil tashkil etish samarali hisoblanadi. Bunda o‘quvchi she’rning mavzusi va g‘oyasini aniqlash bilan birga, lirik qahramonning ruhiy holati, badiiy obrazlar, poetik vositalar va asarning hissiy ta’sirini ham anglaydi.

Masalan, Abdulla Oripovning Vatan mavzusidagi mashhur she’riy satrlarini olaylik:

“Men nechun sevaman O‘zbekistonni,
Tuprog‘in ko‘zimga aylab to‘tiyo?”

Ushbu misralar asosida lirik asarning asosiy janriy xususiyatlarini aniqlash mumkin. Birinchi navbatda, she’rda muayyan voqea-hodisani izchil bayon qilish emas, balki lirik qahramonning Vatanga bo‘lgan samimiy muhabbati va faxr tuyg‘usi yetakchilik qilayotganini ko‘rish mumkin. “Sevaman” fe’lining qo‘llanishi qahramonning Vatanga munosabatini bevosita ifodalasa, “tuproq” va “ko‘zimga aylab to‘tiyo” obrazli ifodasi bu tuyg‘uning nihoyatda yuksak ekanini ko‘rsatadi. O‘quvchilarga quyidagi savol-topshiriqlar berilishi mumkin:

Lirik qahramon kimga yoki nimaga murojaat qilmoqda?

Misralarda qanday asosiy tuyg‘u ifodalangan?

“Tuproqni ko‘zga to‘tiyo qilish” iborasini qanday tushunasiz?

Shoir nima uchun Vatan tuprog‘ini aynan ko‘zga surtiladigan to‘tiyoga qiyoslamoqda?

Agar ushbu misralar oddiy, obrazsiz gaplar bilan ifodalanganida, ularning ta’sir kuchi qanday o‘zgarardi?

Sizningcha, she’rda Vatan obrazi qanday estetik qiymat kasb etgan?

Mazkur savollar o‘quvchini she’r mazmunini qayta aytib berishdan ko‘ra, undagi obrazli ma’noni izlashga yo‘naltiradi.

Lirik asarning yana bir muhim belgisi – lirik qahramonning ichki kechinmasini ifodalashidir. Buni quyidagi misollar orqali ham kuzatish mumkin:

“O‘zbekiston, Vatanim manim,
Mag‘rur ona, go‘zal diyorim.”

Bu kabi misralarda Vatan oddiy geografik hudud sifatida emas, balki lirik qahramon uchun ona, muqaddas maskan va faxr manbai sifatida gavdalanadi. Demak, lirik asarda tashqi obyekt shoirning ichki munosabati orqali yangi badiiy ma’no kasb etadi.

O‘quvchilarga “Vatan qanday tasvirlangan?” degan savol bilan bir qatorda “Shoirning Vatanga munosabati qaysi so‘zlarda namoyon bo‘lmoqda?” degan savolni berish maqsadga muvofiq. Chunki ikkinchi savol o‘quvchini matndagi konkret badiiy birliklarga murojaat qilishga undaydi. Lirik asarning badiiy-estetik tabiatini tushuntirishda tashbeh, metafora, jonlantirish, mubolag‘a, ramz, takror va boshqa poetik vositalarni matn asosida aniqlash ham muhimdir.

Lirik asarning badiiy-estetik tabiatini tushuntirishda tashbeh, metafora, jonlantirish, mubolag‘a, ramz, takror va boshqa poetik vositalarni matn asosida aniqlash ham muhimdir. Masalan, shartli she’riy namuna:

Bahor keldi – uyg‘ondi zamin,
Daraxtlarda kuldi yashil yaproq.
Qalbimdagi so‘ngan bir umid ham
Yana ochdi gulday beg‘ubor chog‘.

Bu to‘rtlik asosida o‘quvchilar quyidagi jihatlarni aniqlashlari mumkin:

Tahlil jihati	O‘quvchi aniqlashi mumkin bo‘lgan xususiyat
Mavzu	Bahor va inson qalbidagi yangilanish
Lirik kechinma	Umid, quvonch, ruhiy uyg‘onish
Lirik qahramon	Hayotga yangicha umid bilan qarayotgan inson
“Uyg‘ondi zamin”	Jonlantirish
“Daraxtlarda kuldi yashil yaproq”	Jonlantirish va obrazlilik
“Umid ochdi gulday”	Tashbeh
Bahor obrazi	Yangilanish va umid ramzi
Asosiy g‘oya	Tabiatdagi yangilanish inson ruhiyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi

Ushbu namuna orqali o‘quvchi tabiat tasviri aslida insonning ichki holatini ifodalashga xizmat qilayotganini anglaydi. Demak, “bahor” bu yerda faqat fasl nomi emas, balki yangilanish, umid va ruhiy uyg‘onish ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, lirik matnni tahlil qilishda ifodali o‘qishga alohida e’tibor beriladi. Masalan:

Bahor keldi – uyg‘ondi zamin...

misrasini o‘qishda “Bahor keldi” birikmasidan keyingi pauza tabiatdagi o‘zgarishning ahamiyatini ta’kidlashi mumkin. “Uyg‘ondi” so‘ziga urg‘u berilishi esa tabiatning jonlanish holatini kuchaytiradi. Demak, ifodali o‘qish orqali o‘quvchi she’rning mazmuninigina emas, balki uning ohangi va hissiy qatlamini ham idrok etadi.

Lirik asarni o‘rganishda quyidagi ketma-ketlikdan foydalanish mumkin:

she’rni tinglash → ifodali o‘qish → mavzuni aniqlash → lirik qahramon kechinmasini anglash → badiiy vositalarni aniqlash → obrazlarning ramziy ma’nosini ochish → shaxsiy estetik munosabat bildirish.

Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarga: “Agar she’rda ‘bahor’ obrazi ishlatilmaganida, shoirning umid va yangilanish haqidagi fikri qanday ifodalangan bo‘lardi?” degan muammoli savolni berishi mumkin. Bu topshiriq o‘quvchini badiiy obrazning asardagi vazifasini tushunishga olib keladi.

Shu tariqa, lirik asarni o‘rganish jarayonida o‘quvchidan she’rni nasriy shaklda qayta hikoyalash emas, balki uning badiiy mazmunini his qilish, poetik obrazlarning ma’nosini ochish, lirik qahramon ruhiyatini anglash va o‘z estetik munosabatini matnga tayangan holda asoslash talab etiladi. Aynan shunday yondashuv lirik asarning janriy xususiyatlari va badiiy-estetik tabiatini chuqur o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.Олимов Ш.Ш. Академик лицей, касб-хунар коллежлари ўқувчиларида аҳлоқий-эстетик идеални шакллантиршнинг педагогик асослари. Пед.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. -Бухоро 2002 й. 144-б.
2.Сейтхалилов Э.А. Педагогические основы оздоровительный направленности учебно-воспитательного процесса в общеобразовательных школах Узбекистана. Автореф. дис…. доктор.пед.наук. Т.2000. - 60 с.
3.Шарипов Д.Ж. Научно-педагогические основы гигиенического воспитания школьников. (на материале школ Узбекистана) докт.п.н. -Ташкент 2000 г. С-44.
4.Шарипов Ш.С. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти. Пед.ф.д., илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. -Тошкент 2012 й. 284-б.
5.Ўразова М.Б. Бўлажак касбий таълим педагогини лойиҳалаш фаолиятига тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш. Пед.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Автороеф. -Тошкент 2015.
6.Азизходжаев Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Учебное пособие для магистратуры всех специальностей. -Ташкент 2003. С 194.
7.Гайназаров Г. Малака ошириш жараёнида мактабгача таълим ташкилотлари тарбиячилари касбий компотентлигини ривожлантириш. Педагогика фандари бўйича ф.д. (PhD) дисс. автореф. Наманган 2021.

RAQAMLI DIPLOMATIK DISKURSDA TILNING ZAMONAVIY TADQIQI

Nurmonova Sarvinoz Furqat qizi
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori (Phd)
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
sarvinoznurmanova969@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli diplomatik diskursning zamonaviy tilshunoslikdagi o‘rni va lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Raqamli kommunikatsiya muhitida diplomatik muloqotning leksik, pragmatik va diskursiv jihatlari, til birliklarining kommunikativ maqsadga muvofiq qo‘llanishi yoritiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar va yangi kommunikatsiya vositalarining diplomatik nutq shakllanishiga ta’siri hamda mazkur yo‘nalishning istiqbollari ko‘rib chiqiladi

Kalit so‘zlar: raqamli diskurs, diplomatik diskurs, diplomatik kommunikatsiya, pragmalingvistika, diskurs tahlili, raqamli kommunikatsiya, til texnologiyalari.

Annotation: The article examines current directions in linguistic research of digital diplomatic discourse. It focuses on the interaction of pragmatics, discourse analysis, corpus linguistics, multilingualism and language technologies. Particular attention is paid to lexical choice, politeness, modality, audience adaptation and multimodal communication. The study outlines methodological opportunities for analysing diplomatic communication in rapidly changing digital environments and multilingual settings.

Keywords: digital diplomacy, diplomatic discourse, pragmatics, corpus linguistics, multilingualism, language technologies, multimodality.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda tilni faqat grammatik birliklar tizimi sifatida emas, balki ijtimoiy, madaniy va texnologik muhitda faoliyat ko‘rsatuvchi kommunikativ hodisa sifatida o‘rganish tobora muhimlashmoqda. Ayniqsa, raqamli kommunikatsiyaning kengayishi natijasida matnning yaratilishi, tarqalishi va qabul qilinishi bilan bog‘liq jarayonlar o‘zgardi. Diplomatik muloqot ham bu jarayondan chetda qolmay, an’anaviy nota, bayonot, muzokara va rasmiy uchrashuvlar bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy veb-saytlar, onlayn brifinglar va multimodal platformalarda namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli raqamli diplomatik diskursni tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning amaliy ahamiyatga ega yo‘nalishlaridan biridir.

Raqamli diplomatiya bo‘yicha tadqiqotlarda diplomatik amaliyotning raqamli muhitga ko‘chishi faqat texnik o‘zgarish emasligi, balki kommunikativ usullar, auditoriya va nutqiy strategiyalarning ham yangilanishiga olib kelayotgani ta’kidlanadi [1:115]. Bunda til tanlovi, murojaat shakli, axborotni qisqa va aniq berish, ijtimoiy-madaniy kontekstni hisobga olish hamda turli auditoriyalar uchun xabarni moslashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi raqamli diplomatik diskurs misolida zamonaviy tilshunoslikning bir nechta dolzarb yo‘nalishlarini – diskurs tahlili, pragmalingvistika, korpus lingvistikasi, ko‘p tillilik, multimodal tahlil va til texnologiyalarini – o‘zaro bog‘liq holda ko‘rsatishdan iborat.

Tadqiqotda tavsifiy, kontekstual, pragmatik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish imkoniyatlari yoritiladi. Maqolaning amaliy yo‘nalishi diplomatik matnlarni tahlil qilish, tarjima va interpretatsiya jarayonlarini takomillashtirish hamda bo‘lajak diplomatlarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalalari bilan bog‘lanadi.

RAQAMLI DIPLOMATIK DISKURS VA UNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI.

Diskurs tushunchasi zamonaviy tilshunoslikda matnning o‘zi bilan cheklanmaydi. Unda kommunikativ vaziyat, ishtirokchilar, maqsad, ijtimoiy munosabatlar va matn yaratilayotgan muhit ham hisobga olinadi. Diplomatik diskursda esa ushbu omillarga siyosiy va protokol konteksti, xalqaro munosabatlar, davlat manfaatlari hamda auditoriyaning xilma-xilligi qo‘shiladi. Raqamli muhitda mazkur diskursning yana bir xususiyati – xabarning tez tarqalishi va keng auditoriya tomonidan darhol qabul qilinishidir.

Raqamli diplomatiya tadqiqotlarida ijtimoiy tarmoqlar diplomatik subyektlarga an’anaviy axborot vositalaridan tashqari bevosita auditoriyaga murojaat qilish imkonini berishi qayd etiladi [2: 1595]. Natijada diplomat yoki tashqi siyosat idorasi uchun xabarni faqat mazmunan to‘g‘ri tuzish emas, balki uning kommunikativ shaklini ham aniq belgilash zarur. Masalan, rasmiy bayonotdagi uzun va murakkab sintaktik qurilma ijtimoiy tarmoqdagi qisqa xabarda qayta tuzilishi mumkin. Biroq qisqartirish mazmunning huquqiy yoki diplomatik nozikligini yo‘qotmasligi kerak.

Shu jihatdan raqamli diplomatik diskursning muhim lingvistik belgilaridan biri kommunikativ ixchamlikdir. Ixchamlik oddiy qisqartirish emas, balki asosiy mazmunni saqlagan holda ortiqcha takror, noaniq birlik va ikki ma’noli ifodalarni kamaytirishni anglatadi. Diplomatik matnda “tomonlar masalani muhokama qildilar” kabi neytral konstruksiya ayrim holatlarda “tomonlar kelishuvga erishdilar” shakliga almashtirilishi mumkin emas, chunki ikkinchi variant birinchi gapda mavjud

bo‘lmagan natija ma’nosini bildiradi. Demak, til birliklarini tanlash mantiqiylik va faktik aniqlik bilan bog‘liq.

PRAGMALINGVISTIKA: MAQSAD, AUDITORIYA VA NUTQIY STRATEGIYA. Zamonaviy pragmalingvistika til birliklarining faqat lug‘aviy yoki grammatik ma’nosini emas, balki muayyan vaziyatda qanday kommunikativ vazifa bajarishini ham o‘rganadi. Diplomatik muloqot uchun bu masala ayniqsa muhim, chunki bir xil mazmun turli darajadagi qat’iylik, ehtiyotkorlik yoki xushmuomalalik bilan ifodalanishi mumkin. Modal birliklar, shart mayli, ehtimollik bildiruvchi vositalar, bilvosita ifodalar va murojaat shakllari diplomatik nutqning pragmatik tuzilishini belgilovchi vositalardir.

Masalan, “tomonlar kelishuvni imzolaydi” va “tomonlar kelishuvni imzolash masalasini ko‘rib chiqadi” gaplari grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, biroq ularning kommunikativ kuchi bir xil emas. Birinchi gap kelajakdagi harakatni aniqroq ko‘rsatadi, ikkinchisi esa jarayonning hali yakunlanmaganini bildiradi. Diplomatik kommunikatsiyada bunday farqlar muhim, chunki auditoriya xabardan muzokara holati, majburiyat darajasi yoki tomonlarning pozitsiyasi haqida xulosa chiqarishi mumkin.

Raqamli diplomatik kommunikatsiyada auditoriyani segmentlash ham til tanloviga ta’sir qiladi. Tashqi siyosat mutaxassislariga mo‘ljallangan xabarda terminologik aniqlik ustun bo‘lishi mumkin; keng jamoatchilikka mo‘ljallangan xabarda esa murakkab terminning qisqa izohi talab etiladi. Shunday qilib, zamonaviy tilshunoslik uchun “kimga?”, “qaysi vaziyatda?” va “qanday maqsadda?” savollari til birliklarini tahlil qilishning muhim mezonlariga aylanadi. Raqamli diplomatiya tadqiqotlari ham auditoriyaning fragmentatsiyasi va kommunikativ kanallarning o‘zgarishi diplomatik amaliyotga ta’sir qilishini ko‘rsatadi [2: 1598 – 1600].

KORPUS LINGVISTIKASI VA DIPLOMATIK MATNLARNI EMPIRIK O‘RGANISH. Zamonaviy tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri korpus lingvistikasidir. Korpus yondashuvi katta hajmdagi real matnlar asosida til birliklarining qo‘llanish chastotasi, birikuvchanligi, kontekstual xususiyatlari va funksiyalarini aniqlash imkonini beradi. Diplomatik diskurs uchun bunday yondashuv, masalan, “hamkorlik”, “muzokara”, “kelishuv”, “tinchlik”, “xavfsizlik” kabi birliklarning qaysi so‘zlar bilan ko‘proq birikishini va turli kommunikativ vaziyatlarda qanday ma’no yuklashini aniqlashda foydalidir.

Korpus asosidagi tadqiqotlarda faqat so‘z chastotasini sanash yetarli emas. Bir birlikning qaysi kontekstda qo‘llangani, qanday grammatik qurilmada kelgani va boshqa birliklar bilan qanday munosabat hosil qilgani ham tahlil qilinishi kerak. Masalan, “muzokara olib borildi”, “muzokaralar davom etdi”, “muzokara yakunlandi” birikmalarida bir xil leksema turli predikativ munosabatlar orqali

jarayonning bosqichlarini ifodalaydi. Bunday kuzatuvlar diplomatik matnlarning terminologik va sintaktik modelini aniqlashga yordam beradi.

So‘nggi tadqiqotlarda o‘zbek tilini tabiiy tilni qayta ishlash tizimlariga moslashtirish uchun belgilangan korpuslar ham yaratilmoqda. 2026-yilda e’lon qilingan UzbekPOS ma’lumotlar to‘plami o‘zbek tilidagi turli sohalarga oid gaplarni so‘z turkumlari bo‘yicha belgilashga qaratilgan bo‘lib, korpus lingvistikasi va NLP tadqiqotlari uchun amaliy baza sifatida taqdim etilgan [3]. Bunday resurslarning rivojlanishi o‘zbek tilidagi diplomatik matnlarni avtomatik tahlil qilish, terminlarni ajratish va matnlarni qiyoslash imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

KO‘P TILLILIK, TARJIMA VA DIPLOMATIK KOMMUNIKATSIYA. Diplomatik muloqot ko‘pincha ko‘p tilli muhitda amalga oshiriladi. Shu sababli zamonaviy tilshunoslikda ko‘p tillilikni faqat tarjima muammosi sifatida emas, balki kommunikativ tenglik, auditoriyaga kirish imkoniyati va madaniy kontekst bilan bog‘liq hodisa sifatida o‘rganish zarur. UNESCO 2025-yilda raqamli davrda ko‘p tillilikni qo‘llab-quvvatlash va til texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha global yo‘l xaritasini ilgari surdi; unda raqamli muhitda kam resursli tillarning ham texnologik qo‘llab-quvvatlanishi muhim vazifa sifatida ko‘rsatiladi [4].

Diplomatik tarjimada mazmuniy ekvivalentlik bilan birga pragmatik ekvivalentlik ham muhim. Masalan, bir tildagi ehtiyotkorlik, rasmiylik yoki hurmat darajasi boshqa tilda aynan bir xil grammatik shakl bilan emas, boshqa kommunikativ vosita orqali berilishi mumkin. Shuning uchun diplomatik tarjimon so‘zning lug‘aviy ma’nosini ko‘chirish bilan cheklanmasdan, uning vaziyatdagi funksiyasini ham hisobga olishi lozim. Tadqiqotlarda tarjima va interpretatsiya qilingan diplomatik nutqning original nutqdan ayrim lingvistik o‘lchamlar bo‘yicha farqlanishi ko‘rsatilgan [5: 1–3].

O‘zbek, ingliz va rus tillarida diplomatik terminlarning qo‘llanishini qiyoslash ham dolzarb masalalardan biridir. Masalan, “hamkorlik” va “cooperation”, “muzokara” va “negotiation”, “kelishuv” va “agreement” birliklari umumiy semantik yaqinlikka ega bo‘lsa-da, ularning barcha kontekstlarda mutlaq ekvivalent bo‘lishi shart emas. Tarjima jarayonida terminning huquqiy, siyosiy va institutsional konteksti aniqlanmasdan turib, faqat lug‘aviy moslik asosida qaror qabul qilish mazmuniy siljishga olib kelishi mumkin.

SUN’IY INTELLEKT VA TIL TEXNOLOGIYALARINING YANGI IMKONIYATLARI. Sun’iy intellekt, mashina tarjimasi, nutqni tanish, avtomatik tahlil va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari zamonaviy tilshunoslikning tadqiqot obyektini ham, metodologik vositalarini ham kengaytirmoqda. Til texnologiyalari katta hajmdagi matnlarni tezkor qayta ishlash, terminlarni aniqlash, mavzularni guruhlash va turli matnlar o‘rtasidagi o‘xshashliklarni topish imkonini beradi. Biroq

avtomatik natijani inson ekspertizasidan mustaqil ravishda mutlaq to‘g‘ri deb qabul qilish ilmiy va amaliy jihatdan xavfli bo‘lishi mumkin.

UNESCOning raqamli ko‘p tillilik bo‘yicha yo‘l xaritasida mashina tarjimasi, nutqni tanish va tabiiy tilni qayta ishlash kabi texnologiyalar tillarning raqamli ishtirokini kuchaytiruvchi vositalar sifatida ko‘rsatiladi [6]. Bu holat o‘zbek tili uchun ham muhim. Tilning raqamli resurslari qancha ko‘p va sifatli bo‘lsa, avtomatik tarjima, qidiruv, ovozli xizmatlar va matn tahlili kabi tizimlarning imkoniyatlari shuncha kengayadi.

Diplomatik sohada sun’iy intellektdan foydalanishda esa aniqlik, maxfiylik, kontekst va inson nazorati masalalari alohida ahamiyatga ega. Masalan, avtomatik tarjima “agreement” so‘zini umumiy ma’noda “kelishuv” deb berishi mumkin, biroq huquqiy hujjatning konkret nomi yoki institutsional konteksti boshqa terminni talab qilishi ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun tilshunoslikka oid tadqiqotlarda texnologik vosita natijani ishlab beruvchi yakuniy hakam emas, balki katta hajmdagi ma’lumotni tahlil qilishga yordam beruvchi vosita sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

MULTIMODAL DISKURS: MATN, TASVIR VA RAQAMLI BELGILAR. Raqamli kommunikatsiyada ma’no faqat yozma matn orqali yaratilmaydi. Rasm, video, subtitr, grafik element, emoji, havola va sahifalash kabi vositalar ham xabarning qabul qilinishiga ta’sir qiladi. Shu sababli multimodal diskurs tahlili zamonaviy tilshunoslikda tobora muhimlashmoqda. Diplomatik kommunikatsiyada davlat ramzlari, rasmiy uchrashuv tasvirlari, bayroq, xarita, subtitr va qisqa matnning birgalikdagi qo‘llanishi xabarning kommunikativ ramkasini shakllantirishi mumkin.

2026-yilda e’lon qilingan tadqiqotlardan birida raqamli diplomatiya materiallarini matn, vizual kadr, ovoz, ikki tilli subtitr va emoji kabi bir nechta semiotik qatlamlar orqali tahlil qilish metodikasi taklif qilingan [7]. Bunday yondashuv tilshunoslikning yangi vazifasini ko‘rsatadi: endi tadqiqotchi faqat “qaysi so‘z ishlatilgan?” degan savol bilan cheklanmay, “so‘z qaysi tasvir bilan birga berilgan?”, “matn va vizual komponent o‘rtasida qanday ma’no munosabati mavjud?” kabi savollarni ham qo‘yadi.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI UCHUN ISTIQBOLLI YO‘NALISHLAR. Yuqoridagi jarayonlar o‘zbek tilshunosligi oldiga bir qator istiqbolli vazifalarni qo‘yadi. Birinchidan, diplomatik va xalqaro munosabatlarga oid o‘zbekcha korpuslarni shakllantirish zarur. Bunday korpuslar rasmiy bayonotlar, nutqlar, intervyular, diplomatik yozishmalar, xalqaro tashkilotlar materiallari va ommaviy axborot vositalaridagi tegishli matnlarni janr va kommunikativ vazifalar bo‘yicha tartiblashi mumkin. Ikkinchidan, diplomatik terminologiyaning o‘zbek, ingliz va rus tillaridagi ekvivalentlarini kontekst asosida tavsiflash muhim.

Uchinchidan, o‘zbek tilidagi diplomatik diskursning pragmatik xususiyatlarini tizimli o‘rganish kerak. Bunda murojaat shakllari, muloyimlik strategiyalari, modal birliklar, ehtiyotkor ifodalar, inkor va tasdiq konstruksiyalari, shuningdek, siyosiy va xalqaro mavzulardagi metaforalar alohida tadqiqot obyektiga aylanishi mumkin. To‘rtinchidan, o‘zbek tilining raqamli resurslarini ko‘paytirish, morfologik va sintaktik belgilangan korpuslarni kengaytirish sun’iy intellekt asosidagi til texnologiyalarini rivojlantirish uchun zarur ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA.

Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari tilning yangi kommunikativ muhitlarda qanday ishlashini tushuntirish bilan chambarchas bog‘liq. Raqamli diplomatik diskurs bu jarayonni kuzatish uchun qulay va amaliy jihatdan muhim sohalardan biridir. Unda pragmatika, diskurs tahlili, korpus lingvistikasi, ko‘p tillilik, tarjimashunoslik, multimodal tahlil va til texnologiyalari o‘zaro kesishadi. Shu sababli diplomatik diskursni faqat an’anaviy matn sifatida emas, balki auditoriya, platforma, vizual muhit va texnologik vositalar bilan bog‘langan murakkab kommunikativ tizim sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot nuqtayi nazaridan eng muhim vazifalardan biri o‘zbek tilidagi raqamli va diplomatik matnlar bazasini shakllantirish hamda ularni aniq lingvistik mezonlar asosida belgilashdir. Bunday resurslar kelajakda terminologik tadqiqotlar, avtomatik tarjima, nutqni tahlil qilish, diplomatik yozuv va interpretatsiya metodikasini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin. Demak, zamonaviy tilshunoslikning istiqboli an’anaviy nazariy yondashuvlarni yangi texnologik metodlar bilan uyg‘unlashtirish, ayni paytda inson ekspertizasining ilmiy nazoratini saqlab qolish bilan bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008. – 320 b.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 414 b.
3. Mengliyev B. Funksional stilistika. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2020. – 224 b.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
5. Shokirova X. O‘zbek tilida pragmalingvistik yondashuv imkoniyatlari // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali. – 2026. – № 2. – B. 396–399.
6. Yi R. Granularising digital diplomacy: a multimodal analysis of China MFA spokesperson’s highlights on X // Discourse, Context & Media. – 2026. – Article 100991.

7. Danziger R., Schreiber M. Digital diplomacy: Face management in MFA Twitter accounts // Policy & Internet. – 2021. – Vol. 13, No. 4. – P. 586–605.

IDEOGRAFIK LUG‘ATCHILIK – AMALIY LEKSIKOGRAFIYA TARMOG‘I SIFATIDA

Saidov O‘lmas Raxmatovich,
CHDPU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri, f.f.f.d. (PhD)
ORCID: 0009-0007-1413-9715
email: saidov7502@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ideografik lug‘atchilikning amaliy leksikografiyaning muhim tarmog‘i sifatidagi o‘rni, nazariy asoslari va o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Ideografik lug‘atlarning so‘z va tushunchalarni ma’no munosabatlari asosida tizimlashtirish, leksik birliklar o‘rtasidagi semantik aloqalarni ochib berish hamda tilning konseptual tizimini aks ettirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ideografik lug‘atlarni tuzish tamoyillari, leksik-semantik guruhlash mezonlari, lug‘at maqolasining tuzilishi va foydalanuvchi uchun amaliy ahamiyati masalalariga e’tibor qaratiladi. Tadqiqotda ideografik lug‘atchilikning zamonaviy leksikografik jarayonlardagi o‘rni, uning ta’lim, ilmiy tadqiqot va tarjima amaliyotidagi imkoniyatlari hamda o‘zbek leksikografiyasini takomillashtirishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: ideografik lug‘atchilik, amaliy leksikografiya, ideografik lug‘at, leksikografiya, semantika, leksik birlik, semantik munosabat, leksik-semantik guruh, tushuncha, konseptual tizim.

Abstract: This article examines the role and significance of ideographic lexicography as an important branch of practical lexicography, as well as its theoretical foundations and specific features. The study analyzes the potential of ideographic dictionaries to systematize words and concepts based on semantic relations, reveal connections between lexical units, and reflect the conceptual system of a language. Particular attention is paid to the principles of compiling ideographic dictionaries, criteria for lexical-semantic grouping, the structure of dictionary entries, and their practical value for users. The article also highlights the role of ideographic lexicography in contemporary lexicographic processes and its potential applications in education, academic research, and translation. The significance of ideographic lexicography for the further development and improvement of Uzbek lexicography is substantiated.

Keywords: ideographic lexicography, practical lexicography, ideographic dictionary, lexicography, semantics, lexical unit, semantic relations, lexical-semantic group, concept, conceptual system.

Kirish. Mustaqillik yillarida o‘zbek leksikografiyasi qator yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Qisqa davr ichida quyidagi olamshumul ishlar amalga oshirildi: 1) lug‘atshunoslik nazariyasi va amaliyotiga bag‘ishlangan ilmiy metodik xarakterdagi ishlar bajarildi, nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Buning pirovard natijasida besh jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (2006-2008, 2020) yaratildi; 2) mustaqillik mafkurasi bilan sug‘orilgan turli lug‘atlar yaratilib, xalqimizning boy ma’naviy xazinasi o‘z o‘rnini topdi; 3) nashr etilgan lug‘atlarda xalqimizning milliy qadriyatlari, urf-odatlarini ifodalovchi leksemalar o‘zining haqiqiy bahosini oldi; 4) leksikografiyaga kompyuter lingvistikasi kirib keldi. Ammo o‘zbek lug‘atchiligini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘lida qilinishi kerak bo‘lgan ishlar hali bisyor. Masalan, Yevropada bir yarim asrdan ortiqroq vaqtdan beri mavjud bo‘lgan va til o‘rganish jarayonida beminnat yordamchi vazifasini o‘tab kelayotgan ideografik lug‘atning tezaurus, analogik, tematik, assotsiativ kabi ko‘rinishlari turli tillarda allaqachon chop etilib kelayotgan bo‘lsa-da, o‘zbek lug‘atchiligi bu borada hamon oqsab kelmoqda. Demak, o‘zbek lug‘atchiligiga dunyo tilshunosligining eng yangi yutuqlarini, zudlik bilan tatbiq etish va amaliyotda bundan samarali foydalanish sira kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalarimizdan biridir.

A.Hojiyevning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” da “tezaurus” atamasiga shunday izoh beriladi: “TEZAURUS (yun. thesauros – xazina) Tilga oid leksik tarkibni to‘la hajmda aks ettiruvchi lug‘at[6]”. “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”da ideografiya va tezaurus atamalariga berilgan to‘liq ma’lumotlarni uchratamiz. “IDEOGRAFIK LUG‘AT – lug‘at turi. Bunday lug‘atlar alifbo tartibida emas, balki mavzu bo‘yicha tuziladi[7]”. “TEZAURUS (yun. thesauros – xazina, boylik) – 1) Muayyan tildagi barcha so‘zlarni qamrab oladigan, ularning matnda qo‘llanish holatlarini to‘la-to‘kis aks ettiradigan lug‘at. 2) Biron bir ilm-fan sohasiga oid lug‘aviy birlik(so‘z)lar mavzu tartibida joylashtirilgan va ana shu birliklar o‘rtasidagi semantik (jins-tur, sinonimik va boshq.) munosabatlar aks ettirilgan lug‘at. Bunda so‘zlar alifbo tartibida emas, balki bir mavzu, bir tushunchaga aloqador so‘zlarning barchasi bir joyda beriladi; kerakli so‘z tushunchaga qarab qidiriladi[8]”.

Mashhur rus tilshunosi L.V.Shcherba o‘zining lug‘atchilik nazariyasiga bag‘ishlangan maqolasida turli lug‘atlar doirasida olti xil qiyoslashni ko‘rsatar ekan, tezaurus va ideografik (olim ularni ideologik deb atagan) lug‘atlarni lug‘atning

[6] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2002.

[7] Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2000.

[8] Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2000.

alohida-alohida ko‘rinishlari sifatida talqin qiladi. Olimning fikricha, tezaurusning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda ma’lum tildagi so‘zlarning barchasi, eng kam qo‘llanadiganlari ham, hatto nutqda bir bora bo‘lsa-da uchraganlari ham qayd etiladi. Oddiy (ya’ni odatdagi) lug‘atlarni olim “fonetik so‘zlar ro‘yxati” deya atagani holda, ideografik lug‘atlarga “so‘z-tushunchalar va ularning ma’nodoshlarining tartibli tizmasi” deb baho beradi[9].

Ideografik lug‘at tuzishning nazariy asosini ishlab chiqish va bunday lug‘at namunalarini keltirishdan oldin birinchi galda G‘arb va Sharq ideografiyasining paydo bo‘lish va rivojlanish tarixiga murojaat qilindi.

G‘arb ideografiyasi falsafiy bosqich, nazariy bosqich, amaliy bosqich kabi uch bosqichga ajratildi. Falsafiy bosqich antik dunyo faylasuflari va O‘rta asrlarda yashagan Yevropa olimlarining qarashlarini o‘z ichiga oladi. Nazariy bosqich G‘arb uyg‘onish davri bilan bog‘liq holda paydo bo‘ldi va rivoj topdi.

Ideografik lug‘at yaratishning amaliy bosqichi ingliz olimi Mark Piter Rojening 1852-yilda yaratilgan “Inglizcha so‘z va iboralar Tezaurusi” bilan bevosita bog‘liq holda yuzaga kelib, F.Dornzayf, X.Kasares, H.Mayyer, M.Moliner, Sh.Balli, R.Xallig, V.Vartburg, Y.Karaulov, M.Morkovkin, O.Baranov kabi ingliz, ispan, nemis, fransuz, rus olimlari tomonidan davom ettirildi.

Ko‘plab olimlar lug‘atlarning har ikki turini (ya’ni ideografik lug‘at va tezaurusni), ma’lum umumiyliklar mavjudligi sabab, bir siraga kiritadilar. Nazariyotchi olimlarning bu boradagi ishlarini o‘rganib chiqar ekanmiz, tezaurus va ideografik lug‘atning bir turdagi lug‘atlar sanalishiga quyidagi umumiy jihatlar sabab bo‘lgan, degan xulosaga kelamiz: 1) asoslarini onomasiologik usul tashkil etadi; 2) ma’lum til leksik boyligi butunlay qamrab olinadi; 3) so‘z emas, so‘z orqali ifodalanayotgan tushuncha izohlanadi; 4) tushunchalar mavzuviy tamoyil asosida iyerarxik joylashtiriladi; 5) tushunchalar o‘rtasidagi leksik-semantik munosabat ko‘rsatiladi; 6) leksik sath sistema sifatida namoyon bo‘ladi; 7) tushunchani talqin qilishiga ko‘ra, ular izohli lug‘atga yaqin turadi; 8) so‘zgina emas, kattaroq birlik (mas. so‘z birikmasi, ibora)lar ham kiritiladi. Ko‘rinadiki, ushbu umumiyliklarning o‘zi Mark Rojening “Tezaurus”i “ideografik lug‘at” degan nomni olishi uchun yetarlicha asos bo‘lgan. Rus olimi V.V.Morkovkin Rojening “Tezaurus”iga “jahon leksikografiyasidagi misli ko‘rilmagan hodisa” - deya baho bergan edi. Olimning fikriga ko‘ra, ushbu kitob til leksikasining mantiqiy tartibga solingan maketini (nusxasini) yaratish yo‘lidagi dastlabki ilmiy asoslangan urinish bo‘lgan.

Sharqda ideografik yo‘nalishning yuzaga kelishida islomning muqaddas kitobi sanalgan “Qur’on” muhim rol o‘ynadi. Garchi musulmon Sharqida tom ma’nodagi

[9] Л.В. Щерба.Опыт теории общей лексикографии. – М.: Избранные работы по языкознанию и фонетики, 1940.

ideografik tezaurus yaratilmagan bo‘lsa-da, VII-IX asrda arab leksikograflari tomonidan amalga oshirilgan olamshumul ishlar butun Sharq olami tilshunosligida, xususan, lug‘atshunoslik sohasida o‘ziga xos inqilob yasash bilan birga G‘arb leksikografiyasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Arab leksikografiyasi tarixini tadqiq etish borasida ilmiy izlanish olib borgan olim A.Y.Bertels Mahmud Zamaxshariyning lug‘ati hamda nemis olimi F.Dornzayfning (oradan 8 asr o‘tib dunyoga kelgan) ideografik lug‘atini qiyoslab ko‘rar ekan, ularda tushunchalarni mavzuviy guruhlarga ajratish uslublari o‘rtasidagi bir xilliklarni aniqlagan, ushbu ikki lug‘atni farqlovchi jihat faqat ulardan birining (ya’ni “Muqaddimat ul-adab”ning) ikki tilli ekanligida deb qayd etgan edi. Bunga sabab qilib esa o‘rta asrlarda G‘arb ilm-fani va madaniyatining arab va fors, ya’ni Sharq ta’sirida rivoj topganligini ko‘rsatgan .

Turkiy tildagi ideografiyaning boshlovchisi sifatida Zahiriddin Muhammad Boburning nomini tilga olish mumkin. U ideografik lug‘at yaratmagan bo‘lsa-da, o‘zining “Boburnoma” asarida ideografik tahlil usullarini keng qo‘llagan. Keyinchalik boburiylar saroyida yashab ijod qilgan Mahammad Yoqub Chingiyning “Kelurnoma” lug‘ati zamonamiz olimlari tomonidan uyali (ideografik) lug‘atning ajoyib namunasini sifatida baholanadi.

“Kelurnoma” muallifi so‘zlarni ma’lum tadrijiylik va tartib asosida bergan. Shuningdek, ma’lum darajada so‘zlar orasidagi leksik-semantik munosabatni ifodalagan. Masalan: odam-bosh-kiprik so‘zlari orasida iyerarxik (pog‘onali), tana – bosh, yelka, qo‘l, oyoq so‘zlari yoki ko‘z – nenek (qorachig‘) so‘zlari o‘rtasida partonimik (butun-bo‘lak), nenek va bebenek so‘zlari orasida sinonimik (ma’nodoshlik), ko‘z - qinir (g‘ilay) so‘zlari orasida assotsiativ (eslatish) munosabatlari yuzaga chiqqan. Bizningcha, “Kelurnoma” ning eng muhim belgilari quyidagidan iborat: 1) asar eski o‘zbek tilining lug‘at boyligini va grammatikasini o‘rganishda eng muhim manba sanaladi; 2) lug‘atning tuzilishi sodda, so‘zlarning berilishi izchil. Olim so‘zlarni fe’l, ism, qo‘shimcha ko‘rinishida izohlashga uringan. Ayniqsa, 15-bobda ismlarni keltirishda deduktiv tamoyilga tayanilganligi – lug‘atning yutug‘i; 3) “Kelurnoma” – ideografik yo‘nalishda bajarilgan ilk tajriba. Ism (ot) larning muayyan mavzular ostida berilishi turkiy lug‘atshunoslikda birinchi bor amalga oshirildi; 4) lug‘atda keltirilgan so‘zning aksariyati sof turkiy, olim ularning forsiy tarjimalarini ham bergan. Bu bilan lug‘atning amaliy ahamiyatini yanada oshirgan; 5) Muhammad Yoqub Chingiy asosiy e’tiborni boburiyzodalarga hayotda bevosita kerak bo‘ladigan narsalar: jism, hayvon, qurol-aslaha, qavm-qarindoshlik nomlariga qaratgan. Xuddi shu jihatlariga ko‘ra, “Kelurnoma” nafaqat o‘zbek tili tarixi, balki bugungi kunda istiqbolli deb tan olinayotgan struktur tilshunoslik uchun ham g‘oyatda qadrli.

Ma’lumki, ideografiyaga doir aksariyat manbalarda onomasiologik yondashuv asosida butun olam bir-biri bilan uzviy ravishda bog‘langan uchta yirik tushuncha maydoni – “Tabiat”, “Jamiyat” va “Inson’ ga bo‘linib ketadi. Ammo yuqoridagi bo‘linishda hali butun olamning asosini, yashovchanligini tashkil qiluvchi harakat, holat, miqdor va munosabat (baho)ga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Shunga ko‘ra, semantik shaklning yangicha talqinida mazkur kategoriyalarni “Tabiat-Inson-Jamiyat” uchburchagining ichki qismiga joylashtirishni ma’qul topdik. Sababi ushbu kategoriyalar yuqoridagi uchta maydonning barchasiga birdek tegishli sanaladi.

Masalan, turmoq, yurmoq, chiqmoq, yotmoq, o‘tirmoq kabi fe’llarni olaylik. Solishtirish uchun quyidagi misollarga e’tibor bering: 1. Odam o‘ylanib turibdi; Yulduz xira nur sochib turibdi; Zavod anchadan buyon ishlab turibdi. 2. O‘rtog‘im men tomon yurdi; Oy g‘arbga qarab yurdi; Mashina sekin yurdi. 3. Onam uydan chiqdi; Quyosh charaqlab chiqdi; Avtobus dovonning eng baland joyiga chiqdi. Demak, ish-harakat, holat, miqdor va munosabat (baho) bilan bog‘liq leksemalarni bir joyga yig‘ish, ularni alohida tushuncha maydoni sifatida tadqiq etish, ideografik lug‘at yaratish chog‘ida ulardan unumli foydalanish juda muhim.

Ideografik lug‘atda maydon nazariyasidan, sistemaviylikdan samarali foydalaniladi. Sh.Iskandarova ta’kidlaganidek, “maydon nazariyasi ideografik lug‘atlar tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday lug‘atlarni tuzish bugungi o‘zbek tilshunosligi uchun g‘oyat dolzarb masalalardan biri sanaladi. Bu masalani hal qilish, birinchi navbatda, maydon nazariyasini keng, chuqur o‘rganish bilan uzviy bog‘liqdir”. Maydon nazariyasi esa deduksiyaga asoslanadi. Misol uchun suzmoq fe’lini ideografik tahlilga tortib ko‘ramiz: bosh (yetakchi) leksema: suzmoq (I); mikromaydon: jismoniy faoliyat; makromaydon: inson; ma’nodosh so‘z: cho‘milmoq, hopitmoq; zid ma’noli so‘z: cho‘kmoq, g‘arq bo‘lmoq; butun ifodasi: harakat qilmoq; bo‘lak ifodasi: quloch otmoq; tur-jins: bross, baterfley; sintaktik aloqa: ko‘lda suzmoq, daryoda suzmoq, dengizda suzmoq, kemada suzmoq, qayiqda suzmoq, syorfingda suzmoq va hokazo; assotsiatsiyalar: suv, dengiz, ko‘l, basseyn, sohil, plyaj, suzuvchi, tushmoq, tashlamoq, sho‘ng‘imoq, iliq, sovuq, musobaqa, raqib, birinchi, g‘olib, kema, qayiq, syorfing, ho‘l va hokazo. Bunda suzmoq fe’lining insonga nisbatan qo‘llanishi ko‘zda tutilgan. Agar mazkur fe’l kema yoki qayiqqa nisbatan olinsa, u holda mikromaydon sifatida transport, sinonimlari o‘rnida esa siljimoq, yurmoq kabi so‘z tilga olingan bo‘lur edi. Tabiiyki, bunda assotsiatsiyalar ham mutlaq o‘zgarib ketadi. Demak, suzmoq fe’lida ma’lum nuqtadan boshqa nuqtaga ko‘chish maqsadida suvda harakatlanib borish’ semalari bor. Cho‘milmoq fe’li esa suzmoqqa sinonim bo‘lib, unda suvda harakatlanish semasi mavjud bo‘lsa-da, “borish” semasi yo‘q. Shu bois kema, qayiq kabi transport turlariga nisbatan bu

so‘zni qo‘llab bo‘lmaydi. Yuqoridagi kabi tahlilni suzmoq (II) – shoxi bilan suzmoq; suzmoq (III) – ovqatni suzmoq; bo‘yicha ham o‘tkazish mumkin.

Til leksikasini mana shunday ideografik tahlil asosida o‘rganish tilning lug‘at tarkibi semantik maydonlardan tashkil topgan butun bir tizim ekanligini ochib ko‘rsatishda va tafakkurni o‘stirishda yordam beradi. Ideografik lug‘atni tuzishda maydon nazariyasiga tayanar ekanmiz, butun ish sistemaviylik negizida bajariladi. Obyektga ham amaliy, ham nazariy tilshunoslik jihatidan sistemali yondashuv talab etiladi. Shunga ko‘ra, ideografik lug‘at oldiga quyidagi filologik talablar qo‘yiladi: 1) ideografik lug‘atda berilayotgan materiallar o‘zbek tilshunosligida erishilgan yutuqlarga har tomonlama mos kelishi, xususan, ideografiya nazariyasining amaliyotdagi ko‘rinishi bo‘lmog‘i zarur; 2) yaratilajak ideografik lug‘at ilmiy, nazariy jihatdan puxta bo‘lishi kerak. Unda keyingi 15-20 yil ichida o‘zbek tilshunosligida keng quloch otib rivojlanayotgan sistemaviylik yo‘nalishi o‘z aksini topgan bo‘lishi zarur; 3) materiallar muayyan ketma-ketlik, izchillik asosida, “sakrash”dan xoli holda berilishi kerak. Masalan, “Tabiat” makromaydonidan keyingi pog‘onada “Noorganik olam” hamda “Organik olam” mikromaydonlari, undan so‘ngra “Organik olam” qamrovida “O‘simliklar dunyosi” va “Hayvonot olami” semantik maydonlarining berilishi maqsadga muvofiq; 4) lug‘atni tuzishda umumiylik-xususiylik dialektikasiga tayanib ish ko‘rish lozim. Mazkur usul leksemalar orasidagi semantik munosabatlarni, shuningdek, tushunchaning serqirraligini yoritib berishda qo‘l keladi; 5)ideografik lug‘atda berilayotgan leksemalar aniq va tushunarli, sodda bo‘lishi talab etiladi. Masalan, kulmoq fe’li ostida “xursandchilik”, “biror narsadan shodlanish” semalari bor. Ushbu leksemaning o‘yin, kulgi, yaxshi xabar, to‘y kabi leksemalar bilan ma’noviy birikishi natijasida alohida ijobiy tushuncha maydonini hosil qilishi (jilmaymoq, qiqirlamoq, xandon otmoq), ikkinchi tomondan “yoqmaslik” semasi bilan “irjaymoq”, “tirjaymoq”, “tishining oqini ko‘rsatmoq” ko‘rinishidagi semantik qatorni hosil qilishini anglab yetish va shu asosda izohsiz izoh chiqarish mumkin; 6) lug‘at so‘zligi alifbo tamoyilidan butkul chekingan holda, faqat mazmuniy maydonlar doirasida berilishi lozim. Bu usul kishilarni tayyor materialdan ko‘r-ko‘rona foydalanish bilan cheklanib qolishga emas, balki mustaqil izlanishga, fikr yuritishga, izoh va xulosalar chiqarishga o‘rgatishda qo‘l keladi.

Ideografik lug‘at tuzishda tushuncha maydonidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda harakat va holatni ifodalovchi fe’l leksemalarning paradigmatik, sintagmatik va iyerarxik xususiyatlarini inobatga olish zarur. Sababi, fe’llar bu borada rang-barang xususiyatlarga ega. Masalan, “kirmoq” fe’liga murojaat etib ko‘ramiz. Unda ikki xil o‘xshashlik (paradigmatik) belgisi mujassam: 1) shakliy o‘xshashlik. Ushbu leksemaning asos qismi - kir uchta so‘zga shaklan o‘xshaydi.

Bular quyidagilar: a) KIR 1. sifat. Nopok, ifloslangan, kirlangan. Kir ko‘ylak; b) KIR 2. ot. Ifloslik, nopoklik. Pul - qo‘lning kiri; v) KIR 3. ot. Ifloslangan yoki yuviladigan kiyim-kechak. Kir yuvmoq; 2) ma’noviy o‘xshashlik. Kirmoq, o‘rnashmoq, joylashmoq. Ushbu so‘zlar ma’no jihatidan bir-biriga yaqin tursa-da, sintagmatik va shu kabi xususiyatlariga ko‘ra o‘zaro zidlanadi. Masalan, o‘qishga kirmoq, joylashmoq, o‘rnashmoq deyish mumkin, ammo stulga joylashmoq birikmasidagi joylashmoqni kirmoq bilan aslo almashtirib bo‘lmaydi. Ideografik lug‘atda bu kabi masalalar, shubhasiz, o‘z yechimini topgan bo‘ladi. Shuningdek, bunday lug‘atda butun-bo‘lak (yemoq-cho‘qimoq, kesmoq-butamoq, urmoq-turtmoq, ichmoq-ho‘plamoq kabi), jins-tur (pishirmoq-dimlamoq-qovurmoq, boqmoq-parvarish qilmoq, o‘rganmoq-tadqiq qilmoq), daraja (imillamoq – yurmoq – yugurmoq – chopmoq – g‘izillamoq – uchmoq; ming‘irlamoq – gapirmoq – so‘zlamoq – laqillamoq – vaysamoq – javramoq) singari munosabatlar aks etadi. Shu tariqa ideografik lug‘atda olam – ong – til dialektik munosabati asos qilib olinadi va bu munosabatni yoritish o‘zbek tilshunosligi oldida turgan eng muhim vazifa sanaladi.

Umuman olganda, ideografik lug‘atda “BORLIQ” tushunchasi tahlil va tasnifga olinar ekan, birinchi galda “TABIAT” makromaydoni bilan bog‘liq fe’llarni keltirish maqsadga muvofiq. Masalan, “TABIAT” makromaydonidagi “Noorganik olam” qamroviga kiritiladigan “Tabiat hodisalari” mazmuniy maydonida qo‘llanuvchi fe’llarni quyidagicha berish mumkin: boshlanmoq, tomchilamoq, uchqunlamoq, yog‘moq; qoplamoq, bosmoq savalamoq, quymoq, tezlashmoq, jadallashmoq, sekinlashmoq, tinmoq, esmoq, ko‘tarilmoq, uvillamoq.

Til individual hodisa emas, balki jamiyat mahsuli. Shu bois tildagi rang-baranglik, soddalik, aniqlik, ayni paytda o‘ta murakkabliklarning asosini uning negizi hisoblanuvchi jamiyatdan qidirish lozim. Sistem-struktur yo‘nalishning asoschilaridan biri Ferdinand de Sossyur “til – bu bir ijtimoiy jamoaga mansub bo‘lgan kishilarning nutqiy amaliyoti orqali to‘plangan xazina. Til hech qachon alohida individual holda to‘liq mavjud bo‘lmaydi, u to‘la holda faqat jamoada mavjud bo‘ladi”, – deb yozgan edi. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, alohida sistemani tashkil qilish va o‘z ichida mayda sistemachalarga bo‘linib ketish borasida “Jamiyat” mikromaydoni yetakchilik qiladi. Shunga mos ravishda unda qo‘llaniluvchi fe’llar ham ifodaga boy va keng qamrovli. Bizningcha, “JAMIYAT” makromaydonidagi fe’llarni quyidagi mikromaydonlar ichida o‘rganish va shunga muvofiq tarzda ideografik lug‘atga kiritish mumkin: 1. DAVLAT mikromaydonida qo‘llanuvchi fe’llar: tuzmoq, tashkil etmoq, tasdiqlamoq, e’lon qilmoq, qo‘riqlamoq, chegaralanmoq, asrab-avaylamoq, himoya qilmoq, rivojlanmoq, taraqqiy etmoq, obod bo‘lmoq va hokazo. 1.1. Davlat boshqaruv organlari mazmuniy maydoniga aloqador fe’llar: saylamoq, boshqarmoq, idora qilmoq, yuritmoq, farmon chiqarmoq,

qaror qilmoq, ijro etmoq, qabul qilmoq, axborot bermoq kabilar; 1.2. Ma'muriy-hududiy birliklar mazmuniy maydonida ishlatiluvchi fe'llar: yashamoq, istiqomat qilmoq, faxrlanmoq, g'ururlanmoq, asramoq, saqlamoq, himoya qilmoq, bo'linmoq, ajramoq, kengaymoq, toraymoq kabilar; 1.3. Aholi mazmuniy maydoniga tegishli fe'llar: yashamoq, istiqomat qilmoq, iborat bo'lmoq, ko'paymoq, ozaymoq, tug'ilmoq, o'lmoq, uyushmoq, qo'shilmoq, birlashmoq, hashar qilmoq va hokazo; 1.4. Ichki xizmat organlari mazmuniy maydoniga oid fe'llar: muhofaza qilmoq, ushlamoq, qo'lga olmoq, surishtirmoq, tergov qilmoq, qoralamoq, ayblamoq, oqlamoq, afv etmoq, ozod etmoq va hokazo.

"Jamiyat" mazmuniy maydoni ham ancha keng ko'lamli bo'lib, "Madaniyat" (san'at, musiqa, adabiyot), "Sport", "Aloqa vositalari", "Fan va texnika", "Transport", "Xalq ta'limi" kabi semantik maydonlar ham mazkur maydondan o'rin topadi.

Dunyo tilshunosligidagi mashhur ideografik lug'atlarning mualliflari eng keng va markaziy o'rinni "Inson" semantik maydoniga ajratgan edilar. Chunki tilda inson bilan bog'liq mazmuniy maydonlar va ushbu maydonlarda iste'molda bo'luvchi tushunchalar ko'pchilikni tashkil etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, harakat va holatni ifodalovchi leksemalar orasida ham eng ko'pchiligi inson tushunchasiga aloqador ekan. Ideografik lug'atda ularni quyidagicha guruhlash mumkin: 1. INSON – BIOLOGIK ORGANIZM. 1.1.Tashqi ko'rinish bilan bog'liq mazmuniy maydonda ishlatiluvchi fe'llar: semirmoq, to'lishmoq, go'zallashmoq, ozmoq, oriqlamoq, xunuklashmoq va hokazo. 1.2. Tana harakati bilan bog'liq mazmuniy maydonda qo'llanuvchi fe'llar: aylanmoq, egilmoq, qimirlamoq, yotmoq, ag'anamoq, yumalamoq, yonboshlamoq, yiqilmoq, toymoq kabi. 1.3. Ichki a'zolar bilan bog'liq mazmuniy maydonga oid fe'llar: og'rimoq, hazm qilmoq, dukillamoq, lo'qillamoq, sanchmoq, cho'zilmoq, g'o'ldiramoq, kekirmoq kabi. 1.4. Hayot bosqichlari bilan bog'liq mazmuniy maydonga oid fe'llar: tug'ilmoq, o'smoq, ulg'aymoq, voyaga yetmoq, ko'zi ochilmoq, ulg'aymoq, keksaymoq, o'lmoq, vafot etmoq, qazo qilmoq va hokazo.

Insonning ruhiy olami bilan bog'liq tushuncha maydonlari, ya'ni ruhiy holat, ruhiy faoliyat, qobiliyat, xarakter, iroda, shuningdek, aqliy faoliyat, nutqiy faoliyat kabi mazmuniy maydonlar bilan bog'liq fe'llar ikkinchi "INSON – ONGLI MAVJUDOT" mikromaydonidan joy oladi.

"INSON" mikromaydonining uchinchi semantik maydoni "INSON– JAMIYAT A'ZOSI" deb nomlanib, unga "Insonning ijtimoiy holati", "Oila", "Qavm-qarindoshlik", "Turar joy", "Uy jihozlari", "Idish-tovoq", "Kiyim-kechak" kabi mazmuniy maydonga kiruvchi fe'llar kiritiladi. Chunki inson aynan jamoa ichida, jamiyatning bir bo'lagi sifatida mazkur tushunchalar bilan bevosita bog'liq.

Umuman olganda, mazmuniy maydonlar qanchalik keng va sertarmoq bo‘lsa, ularda qo‘llanuvchi fe’llar ham shu qadar rang-barang bo‘ladi. Ideografik lug‘atni tuzishda buni e’tiborga olish, albatta, zarur.

Shunday qilib, fe’l turkumi misolida minimal ideografik lug‘atda 2,5 mingdan 3 mingtagacha bo‘lgan fe’l leksemani tushuncha maydoniga ajratilgan holda berish mumkin. Shuni ham tan olishimiz kerakki, bu hisob nisbiy. Chunki bir fe’l-leksemaning o‘zi turli ma’nolari bilan har xil maydonlarda uchraydi. Masalan buzilmoq fe’li aynimoq, yeyishga yaroqsiz holga kelmoq semalari bilan “Oziq-ovqat” mazmuniy maydoniga aloqador bo‘lsa, ishdan chiqmoq, ta’mirtalab bo‘lmoq ma’nolari bilan “Texnika” mazmuniy maydonida ham qo‘llanadi. Bu narsa, shubhasiz, fe’l-leksemalarning ko‘p ma’nolilik xususida nihoyatda rang-barang ekanligini ko‘rsatib isbotlashda qo‘l keladi. Bundan tashqari, “fe’lning daraja formasi o‘zgarishi bilan harakatning subyekt va obyektga bo‘lgan munosabati ham o‘zgaradi”. Tabiiyki, bunda so‘z (leksema) takribida yangi sememalar – ma’no bo‘lakchalari ham yuzaga keladi. Shunga ko‘ra, masalan, “ko‘tarmoq” fe’lining aniq daraja (nisbat) shakli “Inson” mikromaydonining “Jismoniy faoliyat” maydoniga aloqador bo‘lsa, uning majhul daraja shakli – “ko‘tarilmoq” “Transport’ mikromaydonining havodagi qatnov bilan bog‘liq mazmuniy guruhidan joy oladi. Shuningdek, harakat va holatni ifodalovchi so‘zlarni semantik maydonlarga kiritishda har bir fe’l-leksemaning sinonimi, antonimi, graduonimi kabilar ham nazardan chetda qolmasligi kerak. Shundagina bugungi ehtiyoj va talablarimizga javob bera oladigan, chiroyli va ravon matn tuzish jarayonida har birimizga asqotadigan lug‘at yuzaga keladi.

Fe’llardagi eng ko‘p uchraydigan munosabat turidan biri – bu ma’nodoshlik. Ushbu hodisa o‘zbek tilida keng ishlangan, ammo unga maydon nuqtayi nazaridan baho berish endigina boshlandi.

Annotatsiya. Maqolada nutqiy faoliyatning psixologik va lingvistik mexanizmlari faoliyat nazariyasi asosida yaxlit tizim sifatida tahlil qilinadi. Nutq yaratishning motivdan artikulyatsiyagacha bo‘lgan bosqichlari, nutqni idrok etishning akustik tahlildan pragmatik talqingacha bo‘lgan izchilligi hamda ichki nutqning oraliq bog‘lovchi o‘rni nazariy jihatdan yoritiladi. Xotira, diqqat va emotsiyalarning nutqiy jarayonlarga ta’siri psixolingvistik, kognitiv va neyrolingvistik manbalar asosida asoslanadi. Tahlil natijasida nutq yaratish va idrok etish bosqichlarining mazmunan o‘zaro mosligini aks ettiruvchi integrativ sxema taklif etiladi, shuningdek, ta’lim jarayoni va keyingi tadqiqotlar uchun takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: psixolingvistika, nutqiy faoliyat, faoliyat nazariyasi, nutq yaratish, nutqni idrok etish, ichki nutq, ishchi xotira, diqqat, emotsional nutq, pragmatika.

Abstract. This article analyzes the psychological and linguistic mechanisms of speech activity as an integrated system based on activity theory. It provides a theoretical overview of the stages of speech production—ranging from motivation to articulation—and the sequence of speech perception—extending from acoustic analysis to pragmatic interpretation—as well as the role of inner speech as an intermediary link. The influence of memory, attention, and emotions on speech processes is substantiated through psycholinguistic, cognitive, and neurolinguistic sources. Based on this analysis, an integrative scheme reflecting the functional correspondence between the stages of speech production and perception is proposed, alongside recommendations for the educational process and future research.

Keywords: psycholinguistics, speech activity, activity theory, speech production, speech perception, inner speech, working memory, attention, emotional speech, pragmatics.

Kirish. Insonning nutqiy faoliyati til, tafakkur, xotira, diqqat va hissiyot kabi bir qator tizimlarning hamkorligida amalga oshadigan murakkab jarayondir. Psixolingvistikaning markaziy muammolaridan biri inson qanday qilib fikrni nutqqa

aylantirishi masalasidir [4, 8-b]. Mazkur masala XX asr davomida turli nazariyalar asosida o‘rganilgan bo‘lsa-da, hozirgi paytda faoliyat nazariyasiga asoslangan yondashuv eng izchil model sifatida e’tirof etiladi [7, 15–16-b; 8]. Bu yondashuv nutqni alohida til birliklarining yig‘indisi sifatida emas, balki motiv, niyat, dasturlash va nazoratni o‘z ichiga olgan maqsadli faoliyat sifatida talqin qiladi [7, 20–21-b].

So‘nggi o‘n yilliklarda kognitiv psixologiya, neyrolingvistika va sun’iy intellekt sohalaridagi yutuqlar nutqiy faoliyatning ichki mexanizmlarini yangi eksperimental va hisoblash usullari bilan o‘rganish imkonini berdi [3, 19-b; 13; 22]. Biroq nutq yaratish, nutqni idrok etish, xotira, diqqat, emotsiya va ichki nutq masalalari ko‘pincha bir-biridan alohida tahlil qilinadi. Natijada nutqiy faoliyat yagona tizim sifatida yetarlicha yaxlit talqin etilmaydi. Mazkur holat tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi – nutqiy faoliyatning psixologik va lingvistik mexanizmlarini o‘zaro bog‘liq tizim sifatida tahlil qilish va nutq yaratish hamda nutqni idrok etish jarayonlarining mazmunan mosligini asoslashdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: nutq yaratishning ketma-ket bosqichlarini aniqlash; nutqni idrok etish bosqichlarini tavsiflash; ichki nutqning ushbu jarayonlardagi o‘rnini yoritish; xotira, diqqat va emotsiyalarning nutqiy faoliyatga ta’sirini ilmiy manbalar asosida asoslash. Tadqiqot obyekti – inson nutqiy faoliyati, predmeti esa nutqni yaratish, idrok etish va ichki nutq jarayonlarini ta’minlovchi psixik mexanizmlardir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. A.A.Leontyev nutqni motiv, orientirlash, rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat bosqichlarini o‘z ichiga olgan faoliyat sifatida tavsiflaydi [7, 15–16-b; 8]. L.S.Vigotskiy fikr va so‘zning o‘zaro munosabatini asoslab bergan [9]. N.I.Jinkin fikrdan nutqqa o‘tish jarayonini kodlar almashinuvi sifatida talqin qilgan [5, 28-b], A.R.Luriya esa ifodaning motiv va fikrdan ichki nutq hamda chuqur sintaktik tuzilma orqali yuza tuzilmaga yoyilishini bosqichma-bosqich tasvirlagan [10].

Ushbu masalalar V.P.Belyanin [4, 8-b], A.A.Zalevskaya [6, 25-b] asarlarida hamda o‘zbek olimlari S.R.Usmanova va Sh.Q.Shamsiyevaning darsligida [1] tizimlashtirilgan. R.E.Zaripovning neyrolingvistikaga oid uslubiy qo‘llanmasida nutqiy jarayonlarning neyrofiziologik asoslari yoritilgan [3, 19-, 9-b].

Xorijiy tadqiqotlarda nutq yaratish jarayoni V.Levelt tomonidan konseptualizator, formulyator va artikulyator komponentlaridan iborat model sifatida ishlab chiqilgan [11]. Keyinchalik leksik tanlash bosqichlari eksperimental asosda aniqlashtirilgan [12]. Nutqni idrok etish sohasida G.Hikok va D.Pepel nutq qayta ishlanishining ikki oqimli modelini taklif etdi: ventral oqim tovushni ma’noga, dorsal oqim esa tovushni artikulyatsion harakatlarga bog‘laydi [13]. M.Kutas va S.Hillyard

tadqiqoti ma’no jihatidan nomuvofiq gaplarni idrok etishda taxminan 400 millisekund atrofida alohida elektrofiziologik reaksiya (N400) paydo bo‘lishini ko‘rsatdi [14]. Nutqning pragmatik talqini masalasi esa H.P.Grays tomonidan suhbat implikaturalari nazariyasida asoslangan [15].

Xotira va diqqat masalalari bo‘yicha A.Baddeli ishchi xotiraning ko‘p komponentli modelini [16], N.Kouan esa ishchi xotira hajmining cheklanganligini asoslab berdi [17]. D.Kaneman diqqatni cheklangan resurs sifatida talqin qilgan [18], M.Pozner va S.Petersen esa diqqatning neyron tarmoqlari muammosini tahlil qilgan [19]. Emotsiyalar masalasida K.Sherer ovoz orqali emotsiyalarning ifodalanishi va idrok etilishi bo‘yicha tadqiqotlarni umumlashtirgan [20], A.Shirmer va S.Kots emotsional prosodiyani qayta ishlashning bosqichli modelini taklif etgan [21]. Emotsional nutqni avtomatik aniqlash yo‘nalishi esa hisoblash usullariga asoslanadi [22]. Ichki nutqning rivojlanishi, funksiyalari va neyrobiologiyasi B.Alderson-Dey va Ch.Fernihou tomonidan sharhlangan [23].

Ko‘rib chiqilgan manbalar nutqiy faoliyatning har bir tarkibiy qismi chuqur o‘rganilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ularni yagona integrativ sxemada birlashtirish va nutq yaratish hamda idrok etish bosqichlarini o‘zaro taqqoslash masalasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu maqolada aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga harakat qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-konseptual xarakterga ega. Xulosalar mavjud ilmiy manbalarni tahlil qilish va umumlashtirishga asoslanadi. Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi: ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish; nutq yaratish va idrok etish bosqichlarini qiyosiy taqqoslash; faoliyat yondashuvi asosida funksional tahlil; olingan natijalarni integrativ sxema shaklida modellashtirish; nutqiy faoliyat qonuniyatlarini izohlovchi lingvistik misollarni tahlil qilish.

Manbalar sifatida psixolingvistika va neyrolingvistika bo‘yicha darsliklar, monografiyalar hamda xalqaro nufuzli jurnallardagi maqolalar tanlandi. Tanlashda manbaning fundamental ahamiyati, nazariy modelning keng e’tirof etilgani va maqola mavzusiga bevosita aloqadorligi inobatga olindi. Tadqiqotning cheklovi shundaki, taklif etilayotgan sxema o‘zbek tili materialida eksperimental tekshiruvdan o‘tkazilmagan; bu keyingi tadqiqotlar uchun yo‘nalish sifatida belgilandi.

Tahlil va natijalar.

Nutq yaratish va ichki nutq.

Nutq yaratish har doim ehtiyoj va motivdan boshlanadi [7, 20–21-b]. Agar kommunikativ ehtiyoj mavjud bo‘lmasa, nutq ham yuzaga kelmaydi. Masalan, ilmiy konferensiyada ma’ruza qilish zarurati tadqiqotchida nutqiy faoliyatni yuzaga keltiradi. Motiv asosida kommunikativ niyat shakllanadi. Niyat esa nutqning

mazmuniy yo‘nalishini belgilaydi. Keyingi bosqichda ichki dasturlash amalga oshadi [5, 28-b]. Bu bosqichda kelajakdagi ifodaning umumiy semantik modeli yaratiladi. Shundan keyingina til birliklarini tanlash jarayoni boshlanadi. Leksik tanlash davomida minglab so‘zlar orasidan kommunikativ maqsadga eng mos birliklar tanlab olinadi [12]. Keyinchalik grammatik struktura hosil qilinadi va fonologik kodlash amalga oshiriladi. Oxirgi bosqichda esa artikulyatsiya mexanizmi ishga tushadi. Mazkur ko‘p bosqichli tizim inson nutqining naqadar murakkab ekanligini ko‘rsatadi.

Bu ketma-ketlik V.Levelt modeliga mazmunan mos keladi: ichki dasturlash konseptualizator, leksik tanlash, grammatik va fonologik kodlash formulyator, artikulyatsiya esa artikulyator faoliyatiga tengdir [11]. Levelt modelida nutq yaratish tizimi o‘z nutqini nazorat qilishda nutqni idrok etish tizimidan ham foydalanishi ko‘rsatilgan [11]. Demak, nutq yaratish va idrok etish bir-biridan butunlay ajralgan jarayonlar emas.

Ichki dasturlash bosqichi ichki nutq bilan bevosita bog‘liq. L.S.Vigotskiyga ko‘ra ichki nutq tashqi nutqning ichkilashuvi natijasida shakllanadi va qisqargan, predikativ xususiyatga ega [9]. N.I.Jinkin fikrdan nutqqa o‘tishda universal-predmet koddan til kodiga o‘tish sodir bo‘lishini ko‘rsatadi [5, 28-b]. A.R.Luriya modelida ifoda motiv va fikrdan ichki nutq hamda chuqur sintaktik tuzilma orqali yuza tuzilmaga yoyiladi [10]. Zamonaviy sharhlar ichki nutqning ishchi xotira, o‘zini kuzatish va ijro funksiyalari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi [23]. Shunga ko‘ra ichki nutqni fikr va tashqi nutq o‘rtasidagi oraliq bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida qarash mumkin.

Nutqni idrok etish.

Nutq yaratish qanchalik murakkab bo‘lsa, nutqni tushunish ham shunchalik murakkab jarayondir[2]. Nutqni idrok qilishning asosiy vazifasi tashqi signal ortida yashiringan ma’noni tiklashdan iborat [6, 25-b]. Tinglovchi eshitilgan nutqni quyidagi bosqichlarda qayta ishlaydi: akustik tahlil, fonologik identifikatsiya, leksik tanish, grammatik tahlil, semantik interpretatsiya va pragmatik talqin. Neyrofiziologik jihatdan bu jarayon ikki oqim orqali amalga oshadi: ventral oqim tovushni ma’noga bog‘laydi, dorsal oqim esa eshituv va artikulyatsion tizimlarni o‘zaro uyushtiradi [13]. Semantik nomuvofiqlik N400 reaksiyasini keltirib chiqarishi ma’no tahlili idrok jarayonida tezkor amalga oshishini ko‘rsatadi [14].

Pragmatik talqin bosqichi alohida ahamiyatga ega. Masalan, bir xil gap turli vaziyatlarda turlicha ma’no kasb etishi mumkin: “Siz vaqtida keldingiz.” Mazkur gap samimiy maqtov ham, kinoya ham bo‘lishi mumkin. Agar so‘zlovchi tinglovchining kechikkanini bilsa, gap ochiq ma’nosi bilan haqiqatga mos kelmaydi va tinglovchi undan kinoyali implikaturani chiqaradi [15]. Shuning uchun nutqni tushunishda nafaqat lingvistik bilimlar, balki kommunikativ vaziyat haqidagi bilimlar ham muhim

rol o‘ynaydi. Bu esa psixolingvistikaning pragmatika, diskurs tahlili va kognitiv lingvistika bilan yaqin aloqadorligini ko‘rsatadi [1].

Xotira tizimlarining roli.

Nutqiy faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshishi xotira tizimlarining samarali ishlashiga bog‘liq [3, 19-b]. Nutq yaratish jarayonida uzoq muddatli xotira, qisqa muddatli xotira va ishchi xotira bir vaqtning o‘zida faoliyat ko‘rsatadi. Masalan, ma’ruzachi ilmiy terminlarni uzoq muddatli xotiradan oladi, gapning tarkibiy qismlarini ishchi xotirada ushlab turadi va tinglovchining reaksiyasiga qarab nutqini moslashtiradi. Shu bilan birga, ishchi xotirada bir vaqtning o‘zida saqlanadigan birliklar soni cheklangan bo‘lib, taxminan to‘rt birlik atrofida baholanadi [17]. Bu holat murakkab gaplarni qismlarga ajratib rejalashtirish zarurligini izohlashi mumkin. Shu sababli xotira va nutq o‘rtasidagi munosabat psixolingvistikaning eng muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [1; 3, 9-b].

Diqqat va nutqiy faoliyatni boshqarish.

Psixolingvistika insonning nutqiy faoliyatini faqat til birliklarining qo‘llanilishi bilan emas, balki nutqning yuzaga kelishi va qabul qilinishida ishtirok etadigan barcha psixik jarayonlar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Ana shunday psixik jarayonlarning eng muhimlaridan biri diqqat hisoblanadi. Chunki diqqat nutq yaratish, nutqni idrok etish, matnni tushunish va kommunikativ faoliyatni boshqarishning markaziy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Psixologiyada diqqat ongning ma’lum obyektga yo‘naltirilishi va jamlanishi sifatida tavsiflansa, psixolingvistikada diqqat nutqiy faoliyatning barcha bosqichlarini boshqaruvchi kognitiv mexanizm sifatida talqin qilinadi [1]. Agar insonning diqqati yetarli darajada masalaga qaratilmasa, nutqni tushunish ham, nutq yaratish ham murakkablashadi. Masalan, auditoriyada murakkab ilmiy ma’ruza tinglayotgan magistrantning diqqati ma’ruzachi nutqiga qaratilgan bo‘lsa, u matnning semantik strukturasini muvaffaqiyatli tiklay oladi, biroq uning diqqati tashqi omillar ta’sirida chalg‘isa, ma’ruzadagi mantiqiy bog‘lanishlar uzilib qoladi va axborotni o‘zlashtirish sifati pasayadi.

Nutqiy faoliyatda diqqatning uch asosiy shakli ishtirok etadi: ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan keyingi diqqat [1]. Ixtiyorsiz diqqat ko‘pincha yangi yoki noodatiy nutqiy signallar ta’sirida yuzaga keladi. Masalan, auditoriyada kutilmaganda yangi termin ishlatilsa yoki notanish til elementi qo‘llansa, tinglovchilar diqqati avtomatik ravishda mazkur birlikka qaratiladi. Ixtiyoriy diqqat esa ongli boshqaruvni talab qiladi. Ilmiy matn o‘qiyotgan tadqiqotchi murakkab nazariy mulohazalarni tushunish uchun ongli ravishda diqqatini matnga qaratadi. Nutqiy faoliyat davomida diqqatning taqsimlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki so‘zlovchi bir vaqtning o‘zida fikr mazmunini nazorat qiladi, grammatik vositalarni tanlaydi,

auditoriya reaksiyasini kuzatadi va talaffuzni boshqaradi. Shu sababli nutqiy faoliyat diqqatning murakkab ko‘pkanalli boshqaruviga asoslanadi.

Diqqatning cheklangan resurs sifatidagi talqini [18] bir vaqtning o‘zida bir nechta nutqiy vazifani bajarish qiyinligini tushuntiradi. Neyrokognitiv tadqiqotlarda diqqat hushyorlik, yo‘naltirish va ijrochi nazoratini ta’minlovchi tarmoqlar orqali amalga oshishi ko‘rsatilgan [19].

Emotsiyalar va nutq.

Nutq faqat kognitiv jarayon emas, balki emotsional jarayon ham hisoblanadi. Chunki inson nutqida nafaqat bilim va axborot, balki hissiyot, munosabat, baholash va individual tajriba ham ifodalanadi. Psixolingvistika emotsiyalarning nutq yaratish va nutqni idrok etish jarayonlariga ta’sirini ham o‘rganadi [3, 9-b]. Eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kuchli emotsional holatlarda nutqning barcha komponentlari o‘zgarishi mumkin: nutq sur’ati, intonatsiya, pauzalar, ovoz balandligi, leksik tanlov, sintaktik qurilish [20]. Masalan, hayajonlangan inson nutqida qisqa gaplar, takrorlar va pauzalarning ortishi kuzatiladi. Aksincha, xotirjam holatda nutq grammatik jihatdan ancha mukammal va mantiqiy izchil bo‘ladi. Ovoz orqali emotsiyalar ifodalanishi va tinglovchilar tomonidan tasodifiy darajadan yuqori aniqlikda farqlanishi tadqiqotlarda aniqlangan [20].

Emotsiyalar nutqni tushunishga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, “Bu juda qiziqarli natija” jumlasi turli intonatsiyalar yordamida hayrat, quvonch, istehzo yoki shubha ma’nolarini ifodalashi mumkin. Shuning uchun nutqning mazmunini anglash faqat lingvistik birliklarni dekodlash bilan cheklanmaydi, balki emotsional signallarni ham interpretatsiya qilishni talab qiladi. Emotsional prosodiyani qayta ishlash akustik belgilarni tahlil qilish, emotsional jihatdan muhim belgilarni birlashtirish va ularni baholash bosqichlaridan iborat ekanligi ta’kidlanadi [21]. So‘nggi yillarda emotsional nutqni avtomatik aniqlash texnologiyalarining rivojlanishi psixolingvistika va sun’iy intellektning yangi integrativ yo‘nalishlarini yuzaga keltirdi [22].

Integrativ sxema va tahlil natijalari.

Tahlil asosida nutq yaratish va nutqni idrok etish bosqichlari o‘zaro taqqoslandi. 1-jadvalda har bir bosqichga mos keladigan asosiy psixik mexanizm ko‘rsatilgan.

1-jadval. Nutq yaratish va idrok etish bosqichlarining o‘zaro mosligi (adabiyotlar tahlili asosidagi muallif sintezi) [7, 20–21-b; 11; 13]

Nutq yaratish bosqichi	Nutqni idrok etish bosqichi	Asosiy psixik mexanizm

Nutq yaratish bosqichi	**Nutqni idrok etish bosqichi**	**Asosiy psixik mexanizm**
Ehtiyoj, motiv va kommunikativ niyat	Pragmatik talqin	Motivatsiya, diqqat, vaziyat haqidagi bilimlar
Ichki dasturlash	Semantik interpretatsiya	Ichki nutq, tushunchaviy bilimlar, ishchi xotira
Leksik tanlash	Leksik tanish	Uzoq muddatli xotira
Grammatik struktura hosil qilish	Grammatik tahlil	Ishchi xotira, nazorat
Fonologik kodlash	Fonologik identifikatsiya	Fonologik tizim
Artikulyatsiya	Akustik tahlil	Eshituv va motor tizimlarining o‘zaro aloqasi

Tahlil natijalari quyidagicha umumlashtirildi. Birinchidan, nutq yaratish motivdan artikulyatsiyagacha bo‘lgan ko‘p bosqichli faoliyat sifatida amalga oshadi. Ikkinchidan, nutqni idrok etish yaratish bosqichlariga teskari yo‘nalishda kechsa-da, tuzilishi jihatidan ularga mos keladi; ikki jarayon o‘z nutqini nazorat qilish va eshituv-artikulyatsion aloqa orqali bog‘lanadi. Uchinchidan, xotira va diqqat nutqiy faoliyatning barcha bosqichlari uchun umumiy, cheklangan resurs vazifasini bajaradi. To‘rtinchidan, emotsiyalar nutq yaratishda ham, idrok etishda ham mazmun va shakl darajasiga ta’sir qiladi. Beshinchidan, ichki nutq fikr va tashqi nutq o‘rtasidagi oraliq bo‘g‘in bo‘lib, dasturlash va xotira jarayonlari bilan bog‘liqdir.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot nutqiy faoliyatni psixologik va lingvistik jihatdan yagona tizim sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq ekanini ko‘rsatdi. Faoliyat nazariyasi asosida nutq yaratish ehtiyoj va motivdan boshlanib, kommunikativ niyat, ichki dasturlash, leksik tanlash, grammatik tuzish, fonologik kodlash va artikulyatsiya bosqichlaridan o‘tadi. Nutqni idrok etish esa akustik tahlildan pragmatik talqinga qadar izchil davom etadi. Xotira, diqqat va emotsiyalar bu jarayonlarning barchasida ishtirok etadi, ichki nutq esa fikrdan nutqqa o‘tishdagi muhim bog‘lovchi bo‘g‘in hisoblanadi. Maqolada taklif etilgan integrativ sxema nutq yaratish va idrok etishning o‘zaro mosligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar asosida quyidagi takliflar beriladi. Birinchidan, psixolingvistika va neyrolingvistika kurslarida nutqiy faoliyatni alohida mavzular yig‘indisi sifatida emas, yaxlit tizim sifatida o‘qitish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, o‘zbek tili materialida nutq yaratish, ishchi xotira va diqqat bilan bog‘liq eksperimental tadqiqotlar, jumladan, reaksiya vaqti va prosodik tahlilga asoslangan

tadqiqotlar o‘tkazilishi zarur. Uchinchidan, o‘zbek tilidagi emotsional nutq korpusini yaratish nutqni avtomatik aniqlash tizimlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. To‘rtinchidan, ichki nutqning o‘zbek tilidagi xususiyatlari, uning rivojlanishi va nutqiy faoliyatdagi o‘rni alohida tadqiqot predmeti bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Usmanova S.R., Shamsiyeva Sh.Q. Psixolingvistika. Darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 186 b. URL: https://aps.tsuos.uz/storage/users/136/books/DPERtpFqqz4t1V64XVb8N8YoVHPXFD7ig
QmoWLyX.pdf
2. Zaripov R.E. Shaxslararo va madaniyatlararo kommunikatsiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent – “Ilm ziyo zakovat” - 2025. 140-bet.
3. Zaripov R.E. Neyrolingvistika. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent. – “Ilm ziyo zakovat”. – 2025. 119-bet.
4. Белянин В.П. Психолингвистика. – М., 2004. – С. 8.
5. Жинкин Н.И. О кодовых переходах во внутренней речи // Вопросы языкознания. – 1964. – № 6. – С. 28.
6. Залевская А.А. Введение в психолингвистику: Учебник для студентов высших учебных заведений. – М., 1999. – С. 25.
7. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики: Учебник для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Смысл, 1999. – С. 15–16, 20–21.
8. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М., 1969.
9. Выготский Л.С. Мышление и речь // Собрание сочинений: в 6 т. Т. 2. – М.: Педагогика, 1982.
10. Лурия А.Р. Язык и сознание. – М.: Изд-во МГУ, 1979. – 320 с.
11. Levelt W.J.M. Speaking: From Intention to Articulation. – Cambridge, MA: MIT Press, 1989. – 566 p.
12. Levelt W.J.M., Roelofs A., Meyer A.S. A theory of lexical access in speech production // Behavioral and Brain Sciences. – 1999. – Vol. 22, No. 1. – P. 1–38.
13. Hickok G., Poeppel D. The cortical organization of speech processing // Nature Reviews Neuroscience. – 2007. – Vol. 8, No. 5. – P. 393–402.
14. Kutas M., Hillyard S.A. Reading senseless sentences: Brain potentials reflect semantic incongruity // Science. – 1980. – Vol. 207, No. 4427. – P. 203–205.
15. Grice H.P. Logic and conversation // Cole P., Morgan J.L. (eds.). Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41–58.
16. Baddeley A. Working memory: Looking back and looking forward // Nature Reviews Neuroscience. – 2003. – Vol. 4, No. 10. – P. 829–839.

17. Cowan N. The magical number 4 in short-term memory: A reconsideration of mental storage capacity // Behavioral and Brain Sciences. – 2001. – Vol. 24, No. 1. – P. 87–114.
18. Kahneman D. Attention and Effort. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1973. – 246 p.
19. Posner M.I., Petersen S.E. The attention system of the human brain // Annual Review of Neuroscience. – 1990. – Vol. 13. – P. 25–42.
20. Scherer K.R. Vocal communication of emotion: A review of research paradigms // Speech Communication. – 2003. – Vol. 40, No. 1–2. – P. 227–256.
21. Schirmer A., Kotz S.A. Beyond the right hemisphere: Brain mechanisms mediating vocal emotional processing // Trends in Cognitive Sciences. – 2006. – Vol. 10, No. 1. – P. 24–30.
22. El Ayadi M., Kamel M.S., Karray F. Survey on speech emotion recognition: Features, classification schemes, and databases // Pattern Recognition. – 2011. – Vol. 44, No. 3. – P. 572–587.
23. Alderson-Day B., Fernyhough C. Inner speech: Development, cognitive functions, phenomenology, and neurobiology // Psychological Bulletin. – 2015. – Vol. 141, No. 5. – P. 931–965.

TEZAURUS VA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK MASALALARI

Suyunov Baxodir Turdiyevich
filologiya fanlari doktori (DSc),
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti dotsenti,

Annotatsiya. Maqolada tezaurus tushunchasi, uning lug‘at turlari orasidagi o‘rni va zamonaviy tilshunoslikdagi ahamiyati yoritiladi. Leksik birliklar o‘rtasidagi semantik munosabatlar, tushunchalar asosida axborot qidirish hamda sohaviy terminlarni tizimlashtirish masalalari muhokama qilinadi. Tezaurusning izohli lug‘at va til korpusi bilan aloqasi tavsiflanadi. Elektron tezauruslardan foydalanish, ularni kompyuter lingvistikasi vazifalariga tatbiq etish va o‘zbek tilining raqamli resurslarini rivojlantirishga doir amaliy mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: tezaurus, leksikografiya, semantik munosabatlar, terminologiya, til korpusi, kompyuter lingvistikasi, elektron lug‘at.

Annotation. This article discusses the concept of a thesaurus, its place among lexicographic resources, and its relevance to modern linguistics. It examines semantic relations, concept based information retrieval, and the organization of specialized terminology. The relationship between thesauri, explanatory dictionaries, and language corpora is considered, alongside practical observations on electronic thesauri and the development of digital resources for Uzbek.

Keywords: thesaurus, lexicography, semantic relations, terminology, language corpus, computational linguistics, electronic dictionary.

Tezaurus – hozirgi kundagi zamonaviy tilshunoslikda leksik birliklar o‘rtasidagi semantik aloqalar – omonim, sinonim, antonim, paronim, giponim, giperonim va boshqa tushunchalarni ko‘rsatadigan umumiy yoki maxsus lug‘at, shunday lug‘atlarning maxsus turi hisoblanadi. Bu lug‘at boshqa lug‘atlardan farqli o‘laroq, biror bir ilm-fan sohasiga oid lug‘aviy birliklar yoki biror mavzu tarkibida joylashtirilgan ana shunday birliklar o‘rtasidagi semantik munosabatlar aks ettirilgan ideografik lug‘atdir.

Unda kerakli so‘zlar tushunchaga qarab qidiriladi. Nazariy jihatdan tezaurus leksik-semantik tizimning ehtimoliy modellaridan biridir. Amalda undan individual lug‘atni boyitish va tezkor qidiruv vositasi sifatida foydalaniladi. Shu ma’noda tezaurus lug‘atning aksi hisoblanadi.

Odatda, biror-bir so‘zning ma’nolarini emas, balki so‘zning o‘zini qidirilganda, tezauruslarga murojaat qilinadi. Ya’ni bu yerda tushuncha ma’lum bo‘lsa-da, biroq shu tushuncha ostidagi so‘zlar guruhi yoki so‘z shakllari haqida ma’lumotlar olinadi. Bu tizim ichida turgan bo‘lishi mumkin-u, ammo so‘zning o‘zi nimaligini

bilmasligimiz mumkin. Shu bois, manbalarda ta'kidlanganidek, tezaurus – bu lug'at bo'lib, so'zlar uchun omborxona vazifasini o'taydi.

Tezaurus umumiy ma'noda – maxsus terminologiya, ya'ni lug'at, ma'lumotlar yig'indisi, korpus yoki jamlanma, ma'lum sohadagi bilimlar yoki faoliyat sohasidagi tushunchalar, ta'riflar va terminlarni to'liq o'z ichiga oladi.

Tezaurus – yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "xazina", "boylik", "zaxira" demakdir. Mazkur tushuncha maxsus bilimlar sohasi yoki faoliyat sohasining tushunchalari, ta'riflari va atamalarini matnlarda ishlatish misollari bilan to'liq qamrab oluvchi ma'lumotlar to'plami hisoblanadi. [8: 23].

Tezaurus muayyan tilda barcha so'zlarni qamrab oladigan, ularning matnda qo'llanish holatlarini to'la-to'kis aks ettiradigan lug'at. Muayyan yozuv yodgorliklaridan leksik birliklarni yoppasiga terib olishga asoslangan (masalan, yunon, lotin tillarida tuzilgan) lug'atlar shunday lug'atlardan hisoblanadi. So'z tanlash tamoyillariga ko'ra yozuvchilar yoki ularning ijodiga mansub biror asar tili bo'yicha tuzilgan lug'atlar ham tezaurus hisoblanadi.

U leksik-semantik, korporativ kommunikatsiya (bir fan yoki kasb orqali o'zaro bog'liq bo'lgan shaxslarning muloqotda bir-birlarini tushunishlari) uchun xizmat qiladi. Tezauruslar ma'lum bir fanni talqin qilishda muhim vositalardan biridir.

Tezaurus tushunchasini yuqoridagi sifatlari bilan birgalikda, lug'atning bir turi deb olsak, unda quyidagicha qiyosiy fikr yuritishimiz mumkin:

Lug'at va tezaurus tushunchalarining har ikkisi so'z va uning ma'nolarini bilish uchun xizmat qilsa-da, biroq ularning so'z ma'nolari haqida ma'lumot berish usullari har xil, ya'ni o'zaro farqlanadi.

Lug'at va tezaurus so'zlari lug'aviy ma'nosiga ko'ra, ot hisoblanadi. Lug'at ko'proq til o'rganuvchilar tomonidan so'zlarning ma'nolari, talaffuzi va orfografiyasini aniqlash uchun ishlatilsa, tezaurus tadqiqotchilar tomonidan so'zning sinonim, antonim, omonim va boshqa ma'no shakllarini topish uchun ishlatiladi.

Tezaurus – so'z yoki terminning tegishli tushunchalar guruhidagi ro'yxati. U murojaat qilinayotgan so'z bilan bir xil bo'lgan boshqa so'zlar to'g'risida ham keng qamrovli ma'lumotlar beradi.

Aksariyat tadqiqotchilar sinonim, antonim, paronim va boshqa shu kabilarni bilish uchun tezaurusdan foydalanishadi. [7: 74]. Odatda, tezaurus tilda so'zlarning kelib chiqishiga unchalik bog'liq bo'lmaydi, xususan, so'zlarning etimologiyasi haqida qo'shimcha ma'lumotlar bermaydi. Ammo, tezaurus so'zlarning boshqa shakllari, masalan, nominal shakllari, sifatlar va adverbial shakllar haqida juda ko'plab ma'lumotlar beradi.

Lug'at – bu tildagi so'zlarni (odatda alifbo tartibida) ro'yxatga oladigan va ularning ma'nosini izohlab beradigan yoki shunday so'zlarni boshqa tilda beradigan,

ko‘pincha, to‘g‘ri talaffuz haqida ma’lumot beradigan kitob yoki elektron manba hisoblanadi. Boshqacha qilib ifodalasak, lug‘at tildagi so‘zlar haqida bilim beradigan etimologik va grammatik vositadir.

Lug‘atda so‘zning jinsi va nutqda ishlatilishi haqida qo‘shimcha ma’lumotlar mavjud. U tildagi birorta so‘z bilan bir qatorda, unga qo‘shimcha ravishda ma’lumotlar ham berishi mumkin. Lug‘at bir nechta aniq tillarda tuzilishi mumkin, masalan, ingliz, fransuz, rus va boshqa tillarda. Bir tilda tuzilgan lug‘atda boshqa tillardagi shu so‘zning ekvivalent ma’nolari ham beriladi. Odatda, bu sifatlar tezaurusga tegishli emas.

Birinchi zamonaviy ingliz tezaurusi Piter Mark Roger tomonidan 1805-yilda yaratilgan. Mazkur tezaurus 1852-yilda Angliyada nashr etilgan, taxminan 15 mingta tushunchani o‘z ichiga oladi va shu vaqtdan beri foydalanib kelinadi. Bunday lug‘atlarning asosiy maqsadi matn yozishda tegishli so‘zlarni tanlashga yordam berish, mavzu doirasida atama yoki termin o‘rtasidagi munosabatlarni tavsiflovchi ma’lumotlarni qidirib topishdan iborat. Bunday lug‘atlar ma’lum bir soha mutaxassislari tomonidan yaratilgan va mavzu doirasidagi ma’lumotni qidirib topish uchun mo‘ljallangan.

1870-yillarda tezauruslardan ma’lumot izlash ishlarida faol foydalanila boshlandi. Shunday lug‘atlardan yana biri Vikilug‘at deb ataladi. U ko‘p tilli bepul yangilanadigan lug‘at va tezaurus bo‘lib, “Vikimediya” fondi loyihasi doirasida yaratilgan va 2004-yildan hozirgi kungacha ishlatilib kelinadi. Unda 250 mingta tushuncha va 67 mingta semantik munosabatlar o‘z aksini topgan.

Rus tilidagi xuddi shunday tezauruslardan biri “RuTez” deb nomlangan. Bu lug‘at 1997-yilda Axborot tadqiqotlar markazi tomonidan avtomatik indeksatsiya vositasi sifatida yaratilgan. U hozirgi kunga qadar ishlab chiqilgan 45 mingta tushuncha, 107 mingta so‘z va iboralar, 177 mingta semantik munosabatlarni qamrab oladi.

O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida tezaurus terminiga quyidagicha izoh berilgan:

“Tezaurus (yun. thesaurus – “xazina”, “boylik”) – 1) muayyan tildagi barcha so‘zlarni qamrab oladigan, ularning matnda qo‘llanish holatlarini to‘la-to‘kis aks ettiradigan lug‘at”. [11: 329].

Tezaurus – bu lug‘atlar tushunchasi va uning birliklari o‘rtasidagi sobit semantik aloqalar bo‘lib, har ikkala mustaqil xususiyat ham tushunchani aniqlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

“Tezaurus termini, avvalambor tilning lug‘at fondini maksimal darajada to‘liqlik bilan ifodalaydigan xazina sifatida talqin etiladi. Matnlarning adekvat talqini

va ma’lumotlari uning sistem ma’nolarini o‘zida mujassam etgan va soha vakillari tomonidan e’tirof etilgan tezaurusda aniqlanadi”. [9: 19].

Hozirgi vaqtda ushbu tushunchaga kompyuter texnologiyalarida so‘zlarni qidirishda axborot texnologiyalarining tarqalishi, Internet va mashina tarjimasi bilan bog‘liq lug‘atlar kiradi. Psixologiyada shaxsning tezaurusi ma’lumotni idrok etish va tushunish bilan xarakterlanadi. Bunda aloqa nazariyasi va uning elementlari o‘zaro ta’sir ko‘rsatadigan murakkab tizimning umumiy tushuncha-tezislari ko‘rib chiqiladi. Kompyuter lingvistikasining tarkibiy qismi bo‘lgan tezauruslar leksemalarning o‘z va ko‘chma ma’nolari, kommunikativ xususiyatlari, emotsional-ekspressiv vazifalari haqida keng ma’lumot berishi bilan qimmatlidir. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, jahon tilshunosligida kompyuter lingvistikasi, korpus tushunchasiga doir ilk ma’lumotlar XX asrning qirqinchi yillarida yuzaga kelganligi ilmiy manbalarda qayd etilgan. [4: 314]. O‘zbek tilshunosligida korpus lingvistikasi masalalari keyingi yillarda ilmiy tadqiqot ishlari sifatida keng o‘rganila boshladi.

Xususan, Sh.M. Hamroyevaning “O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari” nomli dissertatsiyasida o‘zbek tilshunosligida birinchi marta korpus, uning o‘ziga xos xususiyatlari, nazariy asoslari, til korpusining lingvistik hamda nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. [3: 15]. Shuningdek, korpus lingvistikasining shakllanish tarixi, taraqqiyot yo‘li, o‘ziga xos xususiyatlari va bugungi holati masalalari atroflicha talqin qilingan.

O‘zbek tilini jahon tillari qatorida rivojlantirish, uni dunyoviy tillar sirasiga kiritish va til o‘rganish hamda o‘rgatishda kompyuter lingvistikasi fani dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Texnika taraqqiyoti mahsuli bo‘lgan kompyuter tizimi barcha sohalarda qulayliklar yaratadi, ma’lumotlarning tezkor yetkazib berilishini, tarjima, tahrir jarayonlarining mashina yordamida qisqa muddatlarda amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Kompyuter lingvistikasi amaliy tilshunoslik yo‘nalishlaridan biridir. “Amaliy lingvistika” termini esa ko‘p ma’noli termin bo‘lib, bu termin umumtilshunoslikda har xil talqin qilinadi. G‘arb tilshunosligida applied linguistics, angewandte Linguistik termini, birinchi navbatda, o‘qitish metodikasi, grammatik xususiyatlarni qamrab olgan holda, ona tili va chet tillarini o‘qitish amaliyoti bilan bog‘lanadi. Aslida mazkur tushunchalar kompyuter texnologiyalarining ishlab chiqilishi va axborotni qayta ishlash tizimi (boshqaruvning avtomatlashgan tizimi, informatsion qidiruv tizimi, matnni qayta ishlashning avtomatik tizimi) shakllanishi jarayonida yuzaga kelgan.

Ayrim rus tilidagi adabiyotlarda, ko‘p hollarda, “kompyuter lingvistikasi” (“computational linguistics”), “hisoblash lingvistikasi”, “avtomatik lingvistika”, “injener lingvistikasi” tarzida qo‘llaniladi. [1: 5]. Amaliy lingvistikaning mazkur

nomlar bilan yuritilishi uning faoliyati xarakterini belgilaydi. Ushbu terminlarda amaliy lingvistikaning integratsiyaga asoslanishi, avtomatlashish xususiyati o‘z ifodasini topgan.

Lingvistik masalalarni tezkor hal etishda, kompyuter texnologiyalari va informatikaning o‘rni beqiyosdir. Ularning milliy tilshunoslikka tatbiq etilishi axborotlarning tezkorlik bilan o‘zlashtirilishini, shuningdek bajariladigan amallarning aniqligini ta’minlaydi. Tilshunoslik muammolarining kompyuter yordamida hal qilinishi, ayni paytda, tilning qo‘llanish doirasi kengayishi, ichki imkoniyatlarning ortishiga xizmat qiladi.

Kompyuter lingvistikasi har bir tilning o‘ziga xos tabiatini hisobga olib, muayyan tilning fonetik, leksik, grammatik sathlariga oid masalalarni mashina yordamida hal qilish vazifasini qo‘ygandagina lingvistik taraqqiyot omili bo‘la oladi. Shuningdek, turli xil lug‘atlar va tezauruslarga ham innovatsion kompyuter texnologiyalarini tatbiq etish bugungi kundagi tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

Tezaurus – bu umumiy ma’noda maxsus bilim sohasi yoki faoliyat sohasining tushunchalari, ta’riflari, atama yoki terminlarini to‘liq qamrab oladigan maxsus terminologiya, obyektiv lug‘at, ma’lumotlar to‘plami, korpus yoki kod, demakdir. Tilda tezauruslar elektron formatda, alohida fan sohalarini tavsiflashning samarali vositalaridan biri bo‘lib, kommunikatsiyaning eng qulay va keng qamrovli elektron shaklidir.

Biror fan yoki kasb-hunar bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar va shu munosabatlardagi tushunchalarni innovatsion rivojlantirishga xizmat qiladi. U nafaqat so‘z ma’nolari, balki intellektual tizimlarning ilmiy asoslarini to‘ldirishda ishlatilishi mumkin bo‘lgan so‘zlarni boshqa tushunchalar va ularning guruhlari bilan o‘zaro bog‘lash orqali ochib berishga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baranov A. Vvedeniye v prikladnuyu lingvistiku. – Moskva, 2001.
2. Eshmo‘minov A. O‘zbek tili milliy korpusining sinonim so‘zlar bazasi: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Qarshi, 2019.
3. Hamroyeva Sh. M. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Qarshi, 2018.
4. Kutuzov A. B. Korpusnaya lingvistika: kurs. URL: http://lab314.brsu.by/kmp-lite/kmp-video/CL/CorporeLingva.pdf.
5. Mahkamov N. Terminologik tamoyillar va xalqaro terminelementlar // Xorijiy so‘z va terminlardan foydalanishda me’yor va milliy-assotsiativ fikrlash muammolari. – Toshkent, 2011.

6. Mirahmedova Z. O‘zbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari. – Toshkent: Fan, 2010.
7. Rasulov R., Suyunov B., Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent, 2010.
8. Suyunov B. T. Tibbiy terminlar semantikasi va tezaurusi: monografiya. – Toshkent, 2022.
9. Valitova N. R. Formirovaniye professionalnogo tezaurusa u studentov fizkulturnogo vuza: avtoref. diss. … kand. ped. nauk. – Omsk, 2012.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
11. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2004.

ПОЛИПРЕДИКАТИВТІ СӨЙЛЕМДЕРДІҢ ПРОПОЗИЦИЯЛЫҚ ҚҰРЫЛЫМЫ

Айтбаев Ділшатқожа Темірбайұлы
Низами атындағы Өзбекстан ұлттық педагогика
университетті профессоры, ф.ғ.д. (DSc).

АННОТАЦИЯ

Мақалада полипредикативті сөйлемдердің пропозициялық құрылымы мен семантикалық-синтаксистік ерекшеліктері қарастырылады. Пропозиция, предикация, предикативтілік, полипре-дикативтілік және полипропозитивтілік ұғымдарының арақатынасы талданып, сөйлем құра-мындағы пропозициялардың себеп-салдарлық, шарттық, мезгілдік, мақсаттық және басқа да мағыналық байланыстары сипатталады. Зерттеу нәтижесінде полипредикативті сөйлемнің семантикалық негізін өзара байланысқан бірнеше пропозиция құрайтыны анықталады.

Тірек сөздер: Кілт сөздер: полипредикативті сөйлем, пропозиция, пропозициялық құрылым, предикация, предикативтілік, полипропозитивтілік, семантикалық синтаксис, жағдаят, предика-тивтік орталық, семантикалық қатынас.

Аннотация

В статье рассматриваются пропозициональная структура и семантико-синтаксические особенности полипредикативных предложений. Анализируется соотношение понятий пропозиции, предикации, предикативности, полипредикативности и полипропозитивности, описываются причинно-следственные, условные, временные, целевые и другие смысловые связи пропозиций в составе предложения. В результате исследования установлено, что семантическую основу полипредикативного предложения составляют несколько взаимосвязанных пропозиций.

Ключевые слова: полипредикативное предложение, пропозиция, пропозициональная структура, предикация, предикативность, полипропозитивность, семантический синтаксис, ситуация, предикативный центр, семантическое отношение.

Abstract

The article examines the propositional structure and semantic-syntactic features of polypredicative sentences. The relationship between the concepts of proposition, predication, predicativity, polypredicativity, and polypropositivity is analyzed, and the causal, conditional, temporal, objective, and other semantic connections of

propositions within a sentence are described. The study reveals that the semantic basis of a polypredicative sentence consists of several interconnected propositions.

Keywords: polypredicative sentence, proposition, propositional structure, predication, predicativity, polypropositivity, semantic syntax, situation, predicative center, semantic relation.

Қазіргі синтаксистік зерттеулерде сөйлемнің табиғатын тек оның грамматикалық құрылымы арқылы сипаттау жеткіліксіз деп танылады. Сөйлем белгілі бір объективті жағдаятты бейнелеп қана қоймай, сөйлеушінің коммуникативтік мақсатын, бағасын және сол жағдаятқа қатысты көзқарасын да білдіреді. Осыған байланысты қазіргі тіл білімінде синтаксистік құрылымдарды семантикалық және коммуникативтік тұрғыдан зерттеуге ерекше мән берілуде. Сөйлемнің мазмұндық ұйымдасуын анықтауда пропозиция, преди-кация, предикативтілік және полипредикативтілік ұғымдары өзара сабақтастықта қарас-тырылады.

Пропозиция ұғымы алғашында логика мен философияда қалыптасып, кейін тіл білімінің семантикалық синтаксис саласында кеңінен қолданыла бастады. Лингвист-ғалым Н.Д.Арутюнова еңбектерінде пропозиция сөйлемнің мағыналық құрылымын сипаттайтын маңызды категория ретінде қарастырылады. Ғалым сөйлемнің грамматикалық формасы мен оның білдіретін мағыналық мазмұнын ажырата отырып, сөйлем мағынасын логикалық-семантикалық тұрғыдан талдаудың қажеттілігін көрсетеді [1; 2].

Жалпы алғанда, пропозицияны белгілі бір жағдаяттың тілдік тұрғыдан концеп-туалданған семантикалық моделі ретінде түсіндіруге болады. Оның негізінде предикат және сол предикатпен мағыналық қатынасқа түсетін актанттар орналасады. Мәселен, *Студент мақала жазды* сөйлемінің пропозициялық құрылымын ***студент – жазу – мақала*** түрінде көрсетуге болады. Мұнда *жазу* әрекеті предикат қызметін атқарса, *студент* пен *мақала* сол әрекетке қатысушы актанттар ретінде танылады.

Сөйлем мен пропозицияның арақатынасы олардың бір-бірімен тікелей теңдеспейтінін көрсетеді. Сөйлем белгілі бір тілдің грамматикалық заңдылықтарына сәйкес ұйымдасқан нақты тілдік құрылым болса, пропозиция осы құрылым арқылы берілетін жағдаяттық мазмұнды сипаттайды. Бір пропозиция әртүрлі синтаксистік құрылымдар арқылы берілуі мүмкін. Мысалы, *Зерттеуші мақаланы жазды* және *Мақаланы зерттеуші жазды* сөйлем-дерінің коммуникативтік ұйымдасуында айырмашылық болғанымен, олардың негізгі маз-мұндық өзегі бірдей. Бұл жағдай пропозицияның сөйлемнің сыртқы формасына тәуелсіз семантикалық құрылым ретінде сипатталуына мүмкіндік

береді. Пропозициялық құрылым-ның қалыптасуында предикация ерекше орын алады. Предикация субъект пен предикат арасындағы мағыналық байланысты білдіреді және белгілі бір объектінің іс-әрекетін, күйін немесе белгісін сипаттайды. Мысалы, *Студент зерттеу жүргізді* сөйлемінде *студент* субъект ретінде, *зерттеу жүргізді* предикат ретінде көрініп, олардың арасындағы қатынас белгілі бір оқиғаның мазмұнын қалыптастырады.

Предикация мен предикативтілік ұғымдары өзара байланысты болғанымен, олардың қызметі бірдей емес. Предикация, ең алдымен, семантикалық қатынасты білдірсе, предика-тивтілік осы қатынастың сөйлем деңгейінде грамматикалық тұрғыдан ұйымдасуын көрсе-теді. «Русская грамматикада» предикативтілік сөйлемнің негізгі грамматикалық мағына-ларының бірі ретінде сипатталып, оның объективтік модальділік пен синтаксистік уақыт арқылы жүзеге асатыны көрсетілген [3]. Осы тұрғыдан сөйлемнің семантикалық құрылы-мын шартты түрде ***субъект → предикат → предикация → пропозициялық*** мазмұн жүйесі арқылы сипаттауға болады.

Егер сөйлем құрамында бір емес, бірнеше предикативтік орталық болса, полипре-дикативті құрылым қалыптасады. Полипредикативтілік дегеніміз – сөйлем құрамындағы екі немесе одан да көп предикативтік компоненттің белгілі бір синтаксистік және семантикалық қатынас негізінде ұйымдасуы. Мысалы, *Көктем келді де, табиғат қайта жанданды* сөйлемінде екі предикативтік орталық бар: *көктем келді* және *табиғат жанданды*. Әрбір компонент жеке жағдаятты білдіреді және олардың арасында уақыттық әрі себептік сипат-тағы мағыналық байланыс қалыптасады.

Осыған байланысты полипредикативті сөйлемнің құрылымын оның құрамындағы предикативтік бөліктердің жай ғана қосындысы ретінде қарастыруға болмайды. Әр предикативтік компонент белгілі бір пропозицияны білдіреді, ал бірнеше пропозицияның өзара байланысы сөйлемнің тұтас семантикалық құрылымын қалыптастырады. Демек, полипредикативті сөйлемді ***пропозиция + семантикалық байланыс + пропозиция*** үлгісімен сипаттауға болады. Құрамындағы компоненттер саны артқан сайын пропози-циялық құрылым да күрделене түседі.

Полипредикативті сөйлемдердегі пропозициялар әртүрлі мағыналық қатынастар арқылы байланысады. Олардың қатарында *себеп-салдарлық, шарттық, мезгілдік, мақсат-тық, қарсылықтық, түсіндірмелік* және *нәтижелік* қатынастарды атауға болады. Мысалы, *Зерттеу аяқталды, сондықтан алынған нәтижелер сараланды* сөйлемінде екі пропозиция бар: **P_1** – *зерттеудің аяқталуы* және **P_2** – *нәтижелердің сарала-нуы*. Бұл пропозициялар арасында себеп-салдарлық байланыс орнаған. Ал *Егер қажетті деректер*

жиналса, зерттеу жалғастырылады сөйлемінде шарттық қатынас көрінеді: **P₁** *– қажетті дерек-тердің жиналуы*, **P₂** *– зерттеудің жалғасуы*.

Үш және одан да көп предикативтік компоненттен тұратын құрылымдарда пропози-циялық байланыстардың сипаты күрделене түседі. Мысалы, *Зерттеу жүргізілді, алынған мәліметтер сараланды және негізгі заңдылықтар анықталды* сөйлемінде үш предика-тивтік орталық бар. Олар үш пропозицияға сәйкес келеді: **P₁** *– зерттеудің жүргізілуі,* **P₂** *– мәліметтердің сараланууы,* **P₃** *– заңдылықтардың анықталуы.* Бұл пропозициялар жеке жағдаяттарды білдіргенімен, барлығы бір ғылыми әрекеттің кезеңдері ретінде бір семантикалық тұтастыққа бірігеді.

Полипредикативтілік пен полипропозитивтілік ұғымдарының арақатынасын ажырату да маңызды. Полипредикативтілік бірінші кезекте грамматикалық-синтаксистік құрылымға қатысты болса, полипропозитивтілік семантикалық мазмұнның көпқабаттылығын білдіреді, яғни бір сөйлемде бірнеше пропозиция болуы мүмкін, дегенмен олардың барлығы бірдей дербес предикативтік орталық ретінде ұйымдаспауы ықтимал. Мысалы, *Мен оның зерт-теуді аяқтағанын білдім* сөйлемінде негізгі грамматикалық предикация *мен білдім* құрылымында жүзеге асады. Сол сияқты, *оның зерттеуді аяқтағаны* деген құрылым дербес жағдаяттық мазмұнды білдіреді. Семантикалық тұрғыдан мұнда екі жағдаят бар: *оның зерттеуді аяқтауы* және *менің оны білуім.* Осы себепті сөйлемді полипропозитивті құрылым ретінде сипаттауға болады, бірақ оның грамматикалық полипредикативтілігі арнайы талдауды қажет етеді. Демек, полипропозитивтілік ұғымының семантикалық аясы полипредикативтілікке қарағанда кең болуы мүмкін [6].

Полипропозитивтілік қарапайым сөйлемдердің құрамынан да байқалады. Сыртқы құрылымы жағынан бір предикативті болып көрінетін сөйлем кейде бірнеше жағдаяттық мазмұнды қамтиды. Мысалы, *Шаршаған зерттеуші кабинеттен шықты* сөйлемінде негізгі предикация *– зерттеушінің кабинеттен шығуы*. Сол сияқты, *шаршаған зерттеуші* тіркесі зерттеушінің шаршағаны туралы қосымша жағдаяттық ақпарат береді. Осылайша, сөйлемнің семантикалық құрылымында негізгі және қосымша пропозициялық қабаттар қалыптасады.

Мұндай құрылымдар синтаксистік әдебиетте қосымша немесе жартылай предика-тивтілік, семантикалық күрделілік және полипропозитивтілік тұрғысынан қарастырылады. О.М.Дуброва қарапайым күрделенген сөйлемдерді зерттей отырып, олардың сыртқы жағы-нан монопредикативті болғанымен, мазмұндық тұрғыдан бірнеше компоненттік мағынаны қамтуы мүмкін екенін

көрсетеді [7]. Бұл құбылыс сөйлемнің формалды және семантикалық құрылымдарының әрдайым бірдей болмайтынын дәлелдейді.

Сөйлемнің пропозициялық құрылымын күрделендіретін элементтердің бірі – кіріспе компоненттер. Мысалы, *Өкінішке қарай, зерттеу нәтижелері күткен деңгейде болмады* сөйлемінде негізгі пропозиция зерттеу нәтижелерінің күтілген деңгейге сәйкес келмеуін білдіреді. Ал *өкінішке қарай* компоненті сөйлеушінің осы мазмұнға эмоционалдық-бағалау қатынасын білдіреді. Ал, Е.И.Тимошенко кіріспе сөздер мен конструкциялардың сөйлемнің семантикалық күрделілігін арттырып, қосымша модустық мазмұн қалыптастыратынын атап көрсетеді [8]. Мұндай жағдайда сөйлем құрамында диктумдық және модустық қабаттар қатар көрінеді.

Полипредикативті құрылымдардың семантикалық мүмкіндіктері, әсіресе, ғылыми мәтінде айқын байқалады. Ғылыми стильде бір-бірімен логикалық тұрғыдан байланысты бірнеше ойды бір құрылым ішінде беру қажеттілігі жиі туындайды. Автор себеп пен салдарды, шарт пен нәтижені, уақыт пен әрекетті немесе бірнеше зерттеу кезеңін бір сөйлем құрамында байланыстыра алады. Осы арқылы ақпараттың жүйелілігі мен логикалық тұтастығы қамтамасыз етіледі. Мысалы, *Алынған деректер салыстырылды, негізгі көр-сеткіштер анықталды және зерттеу нәтижелері жүйеленді* сөйлемі үш пропозициядан тұрады: бірінші пропозиция деректердің салыстырылуын, екіншісі негізгі көрсеткіштердің анықталуын, үшіншісі зерттеу нәтижелерінің жүйеленуін білдіреді. Бұл компоненттер бір-бірімен мағыналық жағынан байланысып, зерттеу жұмысының өзара сабақтас кезеңдерін көрсетеді. Сондықтан полипредикативті құрылым ғылыми мәтінде тек синтак-систік күрделілікті емес, ақпараттық-коммуникативтік ұйымдасуды да қамтамасыз етеді [4; 5].

Полипредикативті сөйлемнің пропозициялық құрылымын зерттеу сөйлемнің ішкі семантикалық ұйымдасуын нақтылауға мүмкіндік береді. Оның негізгі компоненттері ретінде жеке пропозициялар, олардың предикативтік орталықтары және сол пропозиция-ларды байланыстыратын семантикалық қатынастар танылады. Осы тұрғыдан полипредика-тивті сөйлемнің жалпы моделін мынадай түрде көрсетуге болады: ***[P₁] + [семантикалық қатынас] + [P₂] (+ [P₃] + ...)***. Мұндағы ***P₁, P₂, P₃*** – жеке жағдаяттарды білдіретін пропози-циялар, ал олардың арасындағы қатынас сөйлемнің жалпы семантикалық құрылымын айқындайды.

Қорыта келгенде, полипредикативті сөйлемнің семантикалық негізін бірнеше пропо-зицияның өзара байланысы құрайды. Пропозиция белгілі бір жағдаяттың мазмұнын білдірсе, предикация сол мазмұнның субъект пен предикат арасындағы қатынас арқылы қалыптасуын көрсетеді. Предикативтілік

предикативтік қатынастың сөйлем деңгейінде грамматикалық ұйымдасуын қамтамасыз етеді. Ал полипредикативтілік бірнеше предика-тивтік орталықтың синтаксистік тұрғыдан бірігуін білдіреді.

Полипредикативтілік пен полипропозитивтілік өзара тығыз байланысты болғанымен, олардың зерттеу нысаны бірдей емес. Біріншісі сөйлемнің грамматикалық-синтаксистік ұйымдасуын сипаттаса, екіншісі оның семантикалық мазмұнының көпқабаттылығын көрсе-теді. Сондықтан полипредикативті сөйлемдерді талдауда олардың сыртқы синтаксистік құрылымымен қатар, құрамындағы пропозициялардың сипатын, олардың арасындағы семантикалық қатынастарды және коммуникативтік қызметін де ескеру қажет. Бұл бағыт-тағы зерттеулер қазақ тіліндегі құрмалас сөйлемдердің, есімше-инфинитивтік құрылым-дардың, күрделенген сөйлемдердің және қосымша предикативтік компоненттердің семантикалық табиғатын тереңірек түсіндіруге мүмкіндік береді.

Пайдаланылған әдебиеттер:

1. Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысл: Логико-семантические проблемы. – М.: Наука, 1976. – 383 с.
2. Арутюнова Н.Д. Понятие пропозиции в логике и лингвистике // Известия АН СССР. Серия литературы и языка. – 1976. – Т. 35. – № 1. – С. 46–54.
3. Русская грамматика: в 2 т. Т. 2: Синтаксис / Н.Ю. Шведова, В.В. Иванов, Н.Д. Арутюнова и др. – М.: Наука, 1980.
4. Коломийцева А.С. Способы реализации коммуникативно-прагматических задач полипредикативных сложных предложений-абзацев в научном стиле речи // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 2: Филология и искусствоведение. – 2011. https://cyberleninka.ru/article/n/sposoby-realizatsii-kommunikativno-pragmaticheskih-zadach-polipredikativnyh-slozhnyh-predlozheniy-abzatsev-v-nauchnom-stile-rechi.
5. Балахова В.П. Стилистический потенциал полипредикативного сложного предложения // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 2: Филология и искусствоведение. – 2012. https://philology.snauka.ru/2014/06/817.
6. Дативный субъект и предикативность: к типологии инфинитивных групп в русском языке // Филологические исследования. VERBA. Северо-Западный лингвис-тический журнал. – 2023. – 2(7). – С. 25–37. DOI: 10.34680/VERBA-2023-2(7)-25–37.

Frazeologizmning asosiy xususiyati uning yaxlit ma'no anglatishidir. Ot + sifat modelidagi birikmalarda ham butunlik ma'nosi komponentlar ma'nosidan farq qilishi mumkin. Mazkur model doirasida semantik munosabatlarni bir necha turga ajratish mumkin.

5.1. Inson xarakteri va shaxsiy xususiyatlarini ifodalovchi frazeologizmlar. Bu guruhdagi birliklar insonning: saxiyligi; xasisligi; ochiq ko'ngilligi; samimiyligi; makkorligi; mehribonligi; qattiq qo'lligi; yumshoq ko'ngilligi kabi xususiyatlarini ifodalashi mumkin. Bunda ot komponenti insonning ichki dunyosi yoki ruhiy xususiyati bilan bog'liq obrazni yaratadi, sifat esa ushbu obrazning baholovchi belgisini belgilaydi.

Masalan: ko'ngli ochiq — samimiy, saxiy, odamiyligi yuqori shaxsni tavsiflashga xizmat qiladi. Bu birikmada ko'ngil insonning ichki dunyosi ramzi sifatida ishtirok etadi, ochiq esa jismoniy ochiqlik emas, balki ma'naviy-ruhiy ochiqlikni anglatadi.

5.2. **Insonning nutqiy xususiyatlarini ifodalovchi birliklar.** Insonning nutqi, muomalasi va boshqalar bilan muloqoti ham frazeologizmlarda obrazli tarzda ifodalanadi. Masalan, tili shirin kabi birikmada til fiziologik a'zo sifatida emas, balki

nutq va muloqot ramzi sifatida ishtirok etadi. Shirin komponenti esa ta’m semasidan emotsional-baholovchi semaga o‘tadi. Natijada: til + shirin → nutqning yoqimliligi → insonning xushmuomalaligi kabi semantik zanjir yuzaga keladi.

5.3. **Insonning ruhiy holatini ifodalovchi birliklar.** Ko‘ngil, dil, yurak kabi otlar bilan bog‘liq frazeologik birliklar insonning emotsional holatini ifodalashda faol ishtirok etadi. Bu turdagi birliklarda sifat komponenti insonning ichki holatini baholash funksiyasini bajaradi. Masalan: dili og‘riq, ko‘ngli tor, yuragi keng kabi konstruksiyalarda jismoniy belgilar ruhiy va psixologik holatni ifodalash uchun metaforik vosita sifatida qo‘llanadi.

5.4. **Baholovchi ma’no ifodalovchi birliklar.** Ot + sifat modelidagi frazeologizmlarning katta qismi inson yoki voqelikka nisbatan sub’ektiv bahoni ifodalashi mumkin. Baholovchi semantika: ijobiy, salbiy, neytral ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.Ijobiy baholashda ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan maqbul xususiyatlar aks ettiriladi. Salbiy baholashda esa insonning nomaqbul xulq-atvori, xarakter xususiyatlari yoki munosabatlari obrazli tarzda ifodalanadi.

6. FRAZEOLOGIKLASHUV JARAYONI VA MA’NO TRANSFORMATSIYASI

Ot + sifat modelidagi har qanday birikmani frazeologizm deb bo‘lmaydi. Uning frazeologik birlik maqomiga ega bo‘lishi uchun muayyan shartlar mavjud. Birinchidan, birikma semantik yaxlitlikka ega bo‘lishi lozim. Ikkinchidan, komponentlar o‘rtasida muayyan barqarorlik shakllangan bo‘lishi kerak.Uchinchidan, birikmaning umumiy ma’nosi komponentlarning to‘g‘ri ma’nolari yig‘indisiga teng bo‘lmasligi lozim. To‘rtinchidan, birikma nutqda muayyan darajada tayyor qolip sifatida qo‘llanishi kerak.

Frazeologiklashuv jarayonini quyidagi sxema asosida ifodalash mumkin: Erkin birikma → takroriy qo‘llanish → obrazlilik → semantik yaxlitlashuv → barqarorlik → frazeologik birlik. Bu jarayonda metaforalashuv muhim rol o‘ynaydi. Masalan, insonning ichki xususiyati tashqi predmet yoki tana a’zosi bilan bog‘lanadi. Keyin ushbu obraz ko‘p marta qo‘llanishi natijasida tilda barqarorlashadi va mustaqil frazeologik ma’no kasb etadi.Shuning uchun frazeologizmlarni modellashtirishda sinxron holat bilan bir qatorda ularning shakllanish mexanizmini ham hisobga olish zarur.

7. OT + SIFAT MODELINING STRUKTUR-SEMANTIK SXEMASI

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, ot + sifat modelidagi frazeologik birlikning umumiy struktur-semantik sxemasini quyidagicha belgilash mumkin: N + Adj → Object/Body-part + Quality → Image → Metaphorical transfer → Phraseological meaning.

O‘zbek tilida buni quyidagi tarzda ifodalash mumkin: Ot + sifat → predmet/tana a’zosi + belgi → obraz → ko‘chirish → yaxlit frazeologik ma’no.

Ushbu modelda ot komponenti, odatda, obrazning predmetlik asosini ta’minlaydi. Sifat komponenti esa mazkur obrazga semantik yo‘nalish beradi. Masalan: ko‘ngil + ochiq birikmasida: ko‘ngil — insonning ichki dunyosi bilan bog‘liq konseptual obraz; ochiq — fizik holat belgisi; ko‘ngilning ochiqligi — metaforik obraz; umumiy ma’no — insonning samimiy, saxiy yoki ochiqko‘ngil ekanini ifodalash.

Shu tarzda: til + shirin modelida: til → nutq; shirin → yoqimli ta’m; ta’m → emotsional baholash; nutqning shirinligi → xushmuomalalik. Bu misollar frazeologizmda ma’noning bir komponentdan emas, balki butun konstruksiyadan kelib chiqishini ko‘rsatadi.

8. FRAZEOLOGIZMLARDA OBRAZLILIK VA MILLIY-MANAVIY MAZMUN

Frazeologizmlar xalqning milliy tafakkuri bilan bevosita bog‘liq. Ot + sifat modelidagi birliklarda ham milliy-madaniy konseptlar aks etadi. O‘zbek tilida insonning ichki dunyosi ko‘pincha ko‘ngil, dil, yurak kabi konseptual birliklar orqali ifodalanadi. Bu leksemalar nafaqat fiziologik yoki anatomik tushunchalarni, balki insonning ma’naviy-ruhiy holatini ham anglatadi. Masalan, ko‘ngil konsepti o‘zbek frazeologiyasida mehr, niyat, xohish, kayfiyat, samimiyat va insonlararo munosabatlar bilan bog‘liq keng semantik maydonni tashkil etadi.

Shu nuqtai nazardan ot + sifat modelidagi frazeologizmlar milliy konseptual dunyoni tadqiq etish uchun ham muhim material hisoblanadi. Frazeologik birlikdagi obraz xalqning voqelikni idrok etish tarzini aks ettiradi. Shu sababli bir tildagi frazeologik model boshqa tilda formal jihatdan o‘xshash ko‘rinishda bo‘lsa ham, uning semantik mazmuni va madaniy konnotatsiyasi farq qilishi mumkin. Demak, frazeologizmlarni modellashtirish nafaqat grammatik strukturani, balki lingvomadaniy modelni ham ochib berish imkonini beradi.

9. OT + SIFAT MODELIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Mazkur model asosidagi frazeologik birliklar nutqda turli vazifalarni bajaradi. Nominativ vazifa: Frazeologizmlar muayyan voqelik, shaxs xususiyati yoki holatni nomlashga xizmat qiladi.

Ekspressiv vazifa: Frazeologizm oddiy neytral leksemaga nisbatan kuchliroq emotsional ta’sir hosil qiladi.

Baholovchi vazifa: Inson yoki voqelikka nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalaydi.

Obrazli vazifa: Murakkab mavhum tushunchani konkret obraz orqali anglatish imkonini beradi.

Kommunikativ vazifa: Frazeologizmlar nutqni ta’sirchan va mazmundor qiladi.

Badiiy matnlarda mazkur xususiyatlar yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Yozuvchi yoki shoir inson xarakterini uzoq tavsiflash o‘rniga bitta frazeologik birlik orqali uning muhim xususiyatini obrazli va ta’sirchan tarzda ifodalashi mumkin.

10. OT + SIFAT MODELINING MODELLASHTIRISHDAGI AHAMIYATI

Frazeologizmlarni modellashtirish nazariy tilshunoslik bilan bir qatorda amaliy ahamiyatga ham ega. Avvalo, model asosida frazeologik birliklarni tasniflash va lug‘atlarda tizimlashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Ikkinchidan, frazeologik birliklarni avtomatik tanish masalasida struktur modellardan foydalanish mumkin. Kompyuter lingvistikasida matn tarkibidagi ot + sifat konstruksiyalarini avtomatik ajratib olish, ularning erkin so‘z birikmasi yoki frazeologik birlik ekanini aniqlash uchun qo‘shimcha semantik va statistik mezonlar ishlab chiqish mumkin.

Uchinchidan, frazeologik modellar elektron lug‘atlar uchun qulay ma’lumotlar bazasini shakllantirish imkonini beradi. Masalan, elektron frazeologik lug‘atda har bir birlik uchun quyidagi parametrlar belgilanishi mumkin:

Parametr	Mazmun
Frazeologizm	birlikning shakli
Model	N + Adj
Ot komponenti	leksik birlik
Sifat komponenti	leksik birlik
Grammatik munosabat	aniqlovchi-aniqlanmish
Umumiy ma’no	frazeologik izoh
Semantik soha	xarakter/holat/baho va boshqalar
Konnotatsiya	ijobiy/salbiy/neytral
Obraz asosi	metaforik manba
Qo‘llanish sohasi	badiiy/so‘zlashuv/publitsistik va h.k.

Bunday modellashtirish frazeologik materialni tizimli tarzda raqamlashtirish uchun muhimdir.

11. OT + SIFAT MODELIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNI TASNIFLASH MEZONLARI

Tadqiqot natijasida mazkur modeldagi frazeologizmlarni quyidagi mezonlar asosida tasniflash mumkin:

1. Struktur mezon. Komponentlarning morfologik turkumi: N + Adj.
2. Sintaktik mezon. Ot va sifatning aniqlovchi-aniqlanmish munosabati.
3. Semantik mezon. Frazeologizm anglatgan ma’no: xarakter; ruhiy holat; tashqi ko‘rinish; nutq; munosabat; axloqiy sifat; ijtimoiy baholash.
4. Obraziy mezon. Frazeologik ma’noning: metafora; metonimiya; milliy-madaniy obraz; antropomorfik ko‘chish asosida shakllangani.
5. Emotsional-baholovchi mezon. Birlikning ijobiy yoki salbiy konnotatsiyasi.
6. Funksional mezon. Frazeologizmning qo‘llanish sohasi va uslubiy xususiyati. Bu mezonlar asosida frazeologik birliklarni ko‘p bosqichli modelda tavsiflash mumkin: Forma → struktura → sintaksis → semantika → obraz → konnotatsiya → funksiya. Mazkur ketma-ketlik frazeologizmni kompleks tahlil qilish uchun samarali metodik sxema bo‘la oladi.

12. FRAZEOLOGIK MODELLASHTIRISH VA KOGNITIV YONDASHUV

Zamonaviy tilshunoslikda frazeologizmlarni kognitiv nuqtai nazardan o‘rganishga ham katta e’tibor berilmoqda. Kognitiv yondashuvda frazeologizmlar insonning voqelikni qanday konseptuallashtirishi va tilda qanday obrazlar orqali ifodalashini ko‘rsatuvchi vosita sifatida qaraladi. Ot + sifat modelida inson tanasiga oid otlarning faolligi insonning jismoniy va ruhiy dunyosi o‘rtasidagi konseptual aloqadorlikni ko‘rsatadi. Masalan:yurak → jasorat/his-tuyg‘u, ko‘ngil → ichki dunyo, dil → ruhiy holat,til → nutq/muloqot. Bu yerda aniq predmet nomi abstrakt konseptni ifodalash uchun kognitiv asos vazifasini bajaradi.

Sifat esa mazkur konseptning xususiyatini belgilaydi: keng → ma’naviy bag‘rikenglik, tor → dunyoqarash yoki munosabat cheklanganligi, shirin → yoqimli nutq, ochiq → samimiylik, qattiq → murosasizlik yoki qat’iylik. Shunday qilib, ot + sifat modeli inson tafakkuridagi konkretdan abstraktga konseptual ko‘chish jarayonini namoyon qiladi.

13. OT + SIFAT MODELINING BARQARORLIK DARAJASI

Frazeologik birliklarda komponentlarning almashinuvchanligi muhim masalalardan biridir. Erkin so‘z birikmasida ot yoki sifatni oson almashtirish mumkin: katta uy → kichik uy → yangi uy → eski uy.

Frazeologik birlikda esa komponentlarning almashtirilishi ko‘pincha frazeologik ma’noning buzilishiga olib keladi. Masalan, frazeologik birlikda muayyan sifatning saqlanishi uning barqarorligini ta’minlaydi. Agar sifatni sinonim bilan almashtirish natijasida birikma o‘zining odatiy ko‘chma ma’nosini yo‘qotsa, bu holat frazeologik birlikning barqarorligini ko‘rsatadi.

Shu sababli modellashtirishda: komponentlar barqarorligi, leksik cheklanganlik, sintaktik barqarorlik, semantik yaxlitlik kabi belgilar alohida e’tiborga olinishi kerak.

14. OT + SIFAT MODELIDAGI BIRLIKLAR VA ERKIN SO‘Z BIRIKMALARI

Frazeologik birliklarni erkin so‘z birikmalaridan ajratish nazariy va amaliy jihatdan muhimdir. Ularni quyidagi xususiyatlar asosida farqlash mumkin:

Belgi	Erkin so‘z birikmasi	Frazeologik birlik
Ma’no	komponentlar ma’nosiga yaqin	yaxlit, ko‘chma ma’no
Komponent almashinuvi	nisbatan erkin	cheklangan
Obrazlilik	shart emas	ko‘pincha mavjud
Barqarorlik	nisbatan past	yuqori
Ekspressivlik	neytral bo‘lishi mumkin	ko‘pincha kuchli
Nutqda qo‘llanish	erkin tuziladi	tayyor holda qo‘llanadi
Semantik yaxlitlik	nisbatan past	yuqori

Biroq mazkur chegara har doim ham keskin emas. Tilda erkin birikmadan frazeologik birlikka o‘tish jarayoni mavjud bo‘lib, ayrim konstruksiyalar oraliq holatni egallashi mumkin. Shuning uchun frazeologizmlarni modellashtirishda faqat formal strukturaga tayanish yetarli emas. Semantik yaxlitlik va qo‘llanish chastotasi kabi mezonlar ham hisobga olinishi lozim.

15. TADQIQOT NATIJALARINING UMUMLASHTIRILISHI

Ot + sifat modelidagi frazeologik birliklarni tahlil qilish natijasida bir qator umumiy xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, mazkur model o‘zbek tili frazeologik tizimida muayyan struktur qolip sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, ot komponenti frazeologik obrazning predmetlik va konseptual asosini shakllantiradi. Uchinchidan, sifat komponenti obrazning belgisini ifodalash bilan birga, ko‘p hollarda baholovchi va ekspressiv sema hosil qiladi. To‘rtinchidan, ot + sifat modelida frazeologik ma’noning shakllanishida metaforalashuv jarayoni muhim o‘rin tutadi. Beshinchidan, inson tana a’zolarini bildiruvchi otlar mazkur modelda faol ishtirok etib, insonning ichki dunyosi, xarakteri va ruhiy holatini ifodalash uchun konseptual asos vazifasini bajaradi. Oltinchidan, bir xil formal model turli semantik guruhlarga mansub frazeologizmlarni shakllantirishi mumkin. Demak, frazeologik

modelning formal belgisi bilan uning semantik mazmuni o‘rtasida birma-bir tenglik mavjud emas. Yettinchidan, ot + sifat modelidagi frazeologizmlar o‘zbek tilining milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

XULOSA

O‘zbek tili frazeologik tizimini modellashtirish frazeologik birliklarning ichki strukturasi va semantik tabiatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ot + sifat modeli mazkur tizimda alohida struktur-semantik xususiyatlarga ega bo‘lgan modellardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, ot + sifat modelidagi frazeologizmlarning tashqi qurilishi oddiy aniqlovchili so‘z birikmasiga o‘xshash bo‘lsa-da, ularning ichki semantik tashkillanishi ancha murakkabdir. Frazeologizm tarkibida ot komponenti obrazning nominativ asosini tashkil etsa, sifat komponenti ushbu obrazning belgisini, emotsional-baholovchi xususiyatini va semantik yo‘nalishini belgilaydi.

Mazkur modelda frazeologik ma’no, asosan, komponentlarning to‘g‘ri ma’nolaridan metaforik ma’noga ko‘chish asosida shakllanadi. Ayniqsa tana a’zolarini bildiruvchi ko‘ngil, dil, yurak, til kabi otlar insonning ichki dunyosi, his-tuyg‘ulari, xarakter xususiyatlari va muloqot jarayonlarini ifodalashda faol konseptual vosita sifatida ishtirok etadi.

Ot + sifat modelidagi frazeologik birliklar semantik jihatdan inson xarakteri, ruhiy holati, axloqiy xususiyatlari, nutqiy faoliyati, shaxslararo munosabatlar va baholash kabi semantik maydonlarni qamrab oladi.

Frazeologizmlarni modellashtirishda struktur, sintaktik, semantik, obraziy, konnotativ va funksional mezonlarning kompleks qo‘llanishi maqsadga muvofiq. Faqat morfologik strukturaga asoslangan tasnif frazeologik birlikning ichki semantik tabiatini to‘liq ochib bera olmaydi.

Ot + sifat modeli asosidagi frazeologizmlarni tadqiq etishning amaliy ahamiyati ham katta. Ushbu model elektron frazeologik lug‘atlar yaratish, korpus lingvistikasi, avtomatik matn tahlili, mashina tarjimasi va frazeologik birliklarni avtomatik identifikatsiya qilish jarayonlarida qo‘llanishi mumkin.

Shunday qilib, ot + sifat modeli o‘zbek tili frazeologiyasida formal-grammatik struktura bilan milliy-madaniy va kognitiv semantikaning uzviy aloqasini namoyon etuvchi muhim modellardan biri hisoblanadi. Uning tadqiqi o‘zbek tili frazeologik tizimining struktur tashkillanishi, semantik taraqqiyoti va milliy-mental xususiyatlarini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berdiyorov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984. – 122 b.
2. Berdiyorov X., Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasiga doir bibliografik ko‘rsatkich. – Samarqand, 1977.
3. Mengliev B., Xudoyberdieva M., Boymatova O. O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
4. Mamatov A. O‘zbek frazeologiyasi, Toshkent, 2019. - 264 b.
5. Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
6. Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – 380 b.
7. Rahmatullaev Sh. Leksikologiya bilan frazeologiya. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent, 1992. – 49-186 b.
8. Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. – Samarqand, 2007.

EPIK ASARLAR TAHLILIDA VIZUAL YONDASHUVDAN FOYDALANISH USULLARI
(O‘. Hoshimov va O.Yoqubov hikoyalari misolida)

Sobitova Mahmuda
mahmudasobitova@gmail.com
https://orcid.org/0009-0004-5788-8546

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablarining 6-sinf adabiyot darslarida epik asarlarni, jumladan, O‘tkir Hoshimov va Odil Yoqubov ijodini o‘qitishda vizual yondashuvlardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida matnli tahlil bilan bir qatorda “Konseptual xarita”, “Ona qalbining rangli olami” hamda “Vijdon tarozisi” kabi interfaol vizual metodlarni tatbiq etish orqali o‘quvchilarning tanqidiy tafakkuri va emotsional idrokini rivojlantirish yo‘llari ochib berilgan. Shuningdek, darslikdagi muammoli savollarning o‘quvchilarda axloqiy-estetik fazilatlarni shakllandirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Epik asar, vizual yondashuv, 6-sinf adabiyot, Konseptual xarita, Vijdon tarozisi, O‘tkir Hoshimov, Odil Yoqubov, tahlil, metodika.

Abstract: This article highlights the scientific and methodological foundations of using visual approaches in teaching epic works in 6th-grade literature classes of secondary schools, specifically focusing on the works of Otkir Khashimov and Odil Yakubov. During the research, ways to develop students' critical thinking and emotional perception through the application of interactive visual methods such as “Conceptual Map”, “Color World of Mother's Heart” and “Conscience Scale” alongside textual analysis are revealed. Furthermore, the significance of problematic questions in the textbook for shaping students' moral and aesthetic qualities is scientifically substantiated.

Keywords: Epic work, visual approach, 6th-grade literature, Conceptual Map, Conscience Scale, Otkir Khashimov, Odil Yakubov, analysis, methodology.

Аннотация: В данной статье освещены научно-методические основы использования визуальных подходов при изучении эпических произведений на уроках литературы в 6-х классах общеобразовательных школ на примере творчества Ўткира Хашимова и Одиля Якубова. В процессе исследования раскрыты пути развития критического мышления и эмоционального восприятия учащихся посредством внедрения таких интерактивных визуальных методов, как «Концептуальная карта», «Цветной мир материнского сердца» и

«Весы совести» наряду с текстовым анализом. Также научно обоснована значимость проблемных вопросов учебника в формировании духовно-нравственных и эстетических качеств школьников.

Ключевые слова: Эпическое произведение, визуальный подход, литература 6 класса, «Концептуальная карта», «Весы совести», Уткир Хашимов, Одил Якубов, анализ, методика.

Zamonaviy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida adabiyot fanini o‘qitish samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida rivojlantirish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Adabiyot ta’limi, xususan, umumta’lim maktablarida epik asarlarni o‘rganish o‘smirlarda ma’noviy-axloqiy fazilatlarni, estetik idrokni va kognitiv faollikni shakllantirishda poydevor vazifasini bajaradi. Biroq an’anaviy matnga asoslangan tahlil usullari bugungi raqamli avlodning vizual axborotni qabul qilish xususiyatlariga to‘la mos kelmasligi sababli ba’zi cheklovlarga duch kelmoqda. Shu bois, adabiy tahlil jarayoniga vizual yondashuvni joriy etish muhim metodik zaruratga aylanmoqda.

Keng qamrovli sujetlar, murakkab qahramonlar tizimi va chuqur psixologik qatlamlar bilan ajralib turuvchi epik asarlar o‘quvchilardan puxta tahliliy vositalarni talab qiladi. O‘zbekiston maktablarining 6-sinf adabiyot darsliklariga kiritilgan O‘tkir Hoshimovning (jumladan, “Dunyoning ishlari” qissasidan parchalar va hikoyalari) hamda Odil Yoqubovning asarlari insonparvarlik, ma’naviy poklik va milliy o‘zlikni anglashning yorqin namunalaridir. Ushbu matnlarning pedagogik qiymati yuqori bo‘lishiga qaramay, o‘quvchilar keng ko‘lamli sujet chiziqlarini tuzishda, psixologik ostmatnlarni farqlashda va qahramonlar xarakterini mustaqil ravishda sintez qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar. An’anaviy o‘qish va tahlil usullari ko‘pincha faol va chuqur kognitiv yondashuvdan ko‘ra passiv qabul qilishga olib keladi. Ushbu bo‘shliqni bartaraf etish uchun zamonaviy metodika **vizual yondashuvga** asoslangan usullarga konseptual xaritalar, interfaol syujet tog‘lari, qiyosiy Venn diagrammalariga murojaat qilmoqda. Vizual vositalar mavhum adabiy tushunchalarni tashqi ko‘rinishga keltirishga, chiziqli matnni strukturali kognitiv sxemalarga aylantirishga yordam beradi. Garchi umumiy pedagogik vizualizatsiya bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, turkiy tillardagi adabiyotlar, xususan, o‘rta maktab epik matnlariga moslashtirilgan vizual vositalarni qo‘llashga bag‘ishlangan empirik va metodik tadqiqotlar yetarli darajada o‘rganilmagan. Mazkur tadqiqot 6-sinf darsliklariga kiritilgan O‘tkir Hoshimov va Odil Yoqubovning hikoyalari misolida epik asarlarni tahlil qilishda vizual yondashuvlardan foydalanishning metodik usullarini o‘rganish va tizimlashtirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda dunyo va o‘zbek pedagogikasida hikoyalarni o‘qitishda an’anaviy yondashuvlardan butunlay voz kechilib, Luiza Rozenblattning o‘quvchining shaxsiy emotsional tajribasiga tayanuvchi “O‘quvchi javobi” va Volfgang Iserning matndagi sirli o‘rinlarni to‘ldirishga qaratilgan “Bo‘shliqlar” nazariyalari keng qo‘llanilmoqda [2.98], [4]; shuningdek, XX asr boshlaridagi jadid ma'rifatparvarlarining milliy uyg‘onish g‘oyalari hamda Qozoqboy Yo‘ldoshev kabi o‘zbek metodist olimlarining o‘quvchida badiiy idrok, tanqidiy fikrlash va hayotiy pozitsiyani shakllantirishga oid qarashlari uyg‘unlashtirilib, bugungi kunda darslar raqamli vositalar, loyiha asosidagi ta'lim va interaktiv formatlar yordamida o‘qituvchi, matn va o‘quvchi o‘rtasidagi jonli muloqot tarzida olib borilmoqda [6].


O‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakili Odil Yoqubov ijodiy merosini ta’lim jarayoniga tatbiq etish, asosan, mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin tizimli tus oldi. Atoqli adabiyotshunos olim Qahramon Yo‘ldoshevning fikricha, adibning nasriy asarlari jamiyatda ma’naviy bo‘shliq paydo bo‘lishining oldini olib, insoniy tuyg‘ular va ko‘ngil nafosatini saqlab qolishda ulkan vazifani bajargan [7]. Darhaqiqat, Odil Yoqubov ijodi shunchaki o‘z davrining mahsuli bo‘lib qolmay, balki o‘z davrining adabiy-estetik muhitini yaratib bergan qudratli hodisadir. Bugungi kunda o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida voyaga yetkazish, ularning tafakkurida yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda adib asarlarini o‘qitish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Yoshlar qalbiga tez singib boruvchi bu asarlar milliy ruhimizni, xalqimizning azaliy an’analari va hayotiy falsafasini o‘zida mujassam etgan. Shu boisdan ham istiqlol yillarida uzluksiz ta’limning barcha bosqichlaridagi o‘quv dasturlariga Odil Yoqubov ijodini chuqur o‘rganishga oid mavzular maxsus kiritilib, yoshlarning adabiy savodxonligini oshirishga xizmat qilib kelmoqda. Odil Yoqubovning “Yaxshilik” hikoyasi yosh avlodni insonparvarlik, mehr-oqibat, sadoqat va sabr-toqat ruhida tarbiyalashda beqiyos ma'naviy-pedagogik ahamiyat kasb etadi [5]. Mazkur asar Ikkinchi jahon urushi davrining mashaqqatli sinovlari fonida oddiy insonlarning ruhiy matonati, qalb go‘zalligi va fidoiyligini ochib berib, o‘quvchilarning dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, u o‘tmish xotirasini e’zozlash, xalqimizning azaliy qadriyatlarini qadrlash, tinchlikning qadriga yetish hamda hayotning har bir kuniga shukrona keltirish tuyg‘ularini chuqur singdiradi. Hikoyadagi ta’sirchan obrazlar va hayotiy voqealar o‘quvchilarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish barobarida ularning estetik tafakkurini ham yuksaltiradi.

Umumta’lim maktablarining 6-sinfida O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning “Yaxshilik” hikoyasini o‘qitish va o‘rganish jarayonini tashkil etishda ilmiy-metodik jihatdan puxta, har tomonlama chuqur asoslangan yondashuvlarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi [3.48]. Ilmiy tadqiqotlar va metodik tahlillarga

ko‘ra, bu jarayonda o‘quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini qat’iy inobatga olish, ya’ni ularning tafakkur darajasi ba’zan asardagi o‘ta murakkab ijtimoiy-psixologik vaziyatlarni, jumladan, yosh kelin-kuyovning nozik kechinmalarini to‘laqonli idrok etishda qiyinchilik tug‘dirishi mumkinligini inobatga olib, matnni ularning yoshiga mos keladigan sodda, hayotiy va ta’sirchan usullar yordamida tushuntirish talab etiladi. Shuningdek, “Yaxshilik” hikoyasi 6-sinf Adabiyot darsligining 1-faslidagi “Har bir kun — saboq” nomli rukndan o‘rin olganligidan kelib chiqib, darsni rejalashtirishda aynan shu ruknning tarbiyaviy g‘oyasiga tayanish, o‘quvchilarda o‘tgan asrning 40-yillaridagi og‘ir urush davri, front ortidagi mashaqqatli hayot, insoniy sabr-toqat va qadriyatlar haqida chuqur tushuncha hosil qilish zarur. Hikoyani tahlil qilish jarayonida tog‘a, kelinoyi, jiyan va buvi obrazlari o‘rtasidagi mushtaraklikni yoritish, bosh qahramon bo‘lgan bolaning yaxshilik qilishga intilgan sof ko‘ngil kechinmalarini ochib berish, tabiat hodisalaridagi o‘zgarishlarning omillari xususida o‘quvchilarni fikrlashga undash ularning intellektual salohiyatini oshiradi. Shu bilan birga, zamonaviy adabiy ta’lim o‘quvchiga tayyor xulosalarni yodlatishni emas, balki uni matn tubiga kirib borishga, mustaqil mushohada yuritishga va ijodkor qalbini his etishga o‘rgatishni taqozo etishidan kelib chiqib, o‘quvchilarni faollashtiradigan hamda ularning shaxsiy munosabatini uyg‘otadigan konseptual savol-topshiriqlardan unumli foydalanish ta’lim samaradorligini keskin oshiradi.

Umumta'lim maktablarining 6-sinfida Odil Yoqubovning “Yaxshilik” hikoyasini o‘qitish jarayonida “Konseptual xarita” metodining qo‘llanilishi o‘quvchilarning matnni chuqur va tizimli ravishda anglab yetishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metod orqali o‘quvchilar asarning g‘oyaviy-tarbiyaviy mazmunini, jumladan, Ikkinchi jahon urushi davri va front ortidagi mashaqqatli hayotni, tog‘a, kelinoyi, jiyan hamda buvi obrazlari o‘rtasidagi mushtaraklikni yaqqol tasavvur qiladilar. Shuningdek, bosh qahramon bolaning yaxshilik qilishga intilgan sof ko‘ngil kechinmalari hamda tabiat hodisalaridagi o‘zgarishlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni mantiqiy tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Eng muhimi, mazkur metod o‘quvchilarda o‘tmish xotirasini e’zozlash, tinchlikning qadriga yetish va har bir kunga shukrona keltirish kabi yuksak insoniy tuyg‘ularni ongiga chuqur singdirishga xizmat qiladi. “Konseptual xarita” metodining ta'limiy-tarbiyaviy jarayondagi ahamiyati shundan iboratki, u o‘quvchilarga tarqoq ma'lumotlarni yagona tizimga keltirish, voqealar va tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni aniq ko‘ra olish imkonini beradi. Ushbu metod orqali o‘quvchilar nafaqat asar voqealarini yodda saqlaydi, balki matn tubiga kirib borib, obrazlarning ichki olami va muallif g‘oyasini chuqur tahlil qilish ko‘nikmasini egallaydilar.

1-chizma: Idrok xaritasi.



Odil Yoqubovning "Yaxshilik" hikoyasini o'qitishda qo'llaniladigan "Konseptual xarita" metodi doska yoki daftar markaziga "Yaxshilik" tushunchasini yozib, undan tarmoqlar chiqarish orqali amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar asosiy tushunchani urush davridagi og'ir turmush muhiti, buvi, tog'a, kelinoyi va jiyan kabi obrazlar tizimi, bosh qahramon bolaning sof kechinmalari hamda tabiat hodisalarining ruhiyat bilan uyg'unligi kabi to'rtta yo'nalishga bo'lib mantiqiy chiziqlar orqali bog'laydilar. Ushbu vizual chizma bolalarga asardagi tarqoq voqea va tushunchalarni yagona tizimga keltirib, muallif g'oyasini chuqur tahlil qilish hamda yaxshilikning mohiyatini yaxshiroq anglab yetish imkonini beradi.


Shuningdek, u o'quvchilarning tanqidiy va tahliliy tafakkurini rivojlantirib, darslikdagi mavzularni mustaqil ravishda mushohada qilishiga va hayotiy xulosalar chiqarishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, mazkur metod o'quvchilarda dars davomida olgan bilimlarini hayotiy tajriba bilan bog'lash, murakkab g'oyalarni vizual tarzda oson o'zlashtirish hamda estetik va axloqiy qarashlarini yanada boyitishda muhim ko'prik vazifasini bajaradi.

O'tkir Hoshimov asarlarini maktab dasturlariga kiritishning bosh sababi yozuvchi tilining xalqchil, sodda, ta'sirchan va o'quvchi qalbiga yo'l topa oladigan darajada samimiy ekanligidadir. Uning asarlarida oddiy odamlarning taqdiri, hayotiy haqiqatlar, mehr-oqibat, vijdon, ota-ona oldidagi burch va vatanga sadoqat kabi umumbashariy tushunchalar yorqin aks etgan. Bugungi yosh avlodni ma'nan boy, irodali va adolatli qilib tarbiyalashda adibning asarlari eng ta'sirchan tarbiyaviy vosita

bo‘lib xizmat qiladi. O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasini 6-sinf o‘quvchilariga tushuntirishda “Ona qalbining rangli olami” usulidan foydalanish bolalarga asarni nafaqat o‘qish, balki uni o‘z yuragidan o‘tkazish imkonini beradi. Bu yoshdagi o‘quvchilar o‘qigan narsalarini ko‘z oldiga yaqqol keltirgani uchun yaxshiroq tushunishadi, shuning uchun bu usul ularga yordam beradi. Bunda bolalar asardagi har bir hikoyani o‘qib chiqqach, o‘zlarining tasavvurlari va kichik ijodiy ishlari orqali onaning cheksiz fidoiyligi va hayotiy qiyinchiliklarni ranglar va belgilarga bo‘tab ko‘rsatib beradilar. Masalan, ular onaning hech qanday g‘arazsiz, beg‘ubor va oppoq niyatli qalbini toza oq rang orqali, urushdan keyingi og‘ir zamon, yo‘qchilik va mashaqqatli turmush sinovlarini esa to‘q kulrang tuslar yordamida ifodalashadi. Shuningdek, qorong‘u kunlarda ham farzandining hayot yo‘lini doim yoritib turguvchi, hech qachon so‘nmaydigan ona mehrini yonib turgan sham timsolida o‘z daftarlariga chizib chiqadilar. Bunday qiziqarli yondashuv bolalarga asardagi og‘ir va murakkab hayotiy haqiqatlarni oddiy, tushunarli hamda ta’sirli tarzda his qilishga yo‘l ochadi, natijada ular ona qadrini yanada chuqurroq anglaydilar.

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidagi “Eng og‘ir gunoh” hikoyasini 6-sinf o‘quvchilariga o‘qitishda vizual yondashuvga asoslangan “Vijdon tarozisi” metodidan foydalanish o‘ta samarali bo‘lib, u bolalarga onaning ko‘nglini og‘ritishdek ulkan ma'naviy xatoni chuqur anglab yetishga yordam beradi [3.52]. Bunda o‘quvchilar daftar yoki doskada ikki pallali tarozi chizib, bir pallasiga bolaning o‘ylab qilmagan yengil-elpi xatti-harakatlarini, ikkinchi pallasiga esa onaning cheksiz sabri hamda farzandi deb tortgan ma'naviy azoblarini joylashtiradilar, tarozining markaziy qismiga esa “Ona qalbini og‘ritishdan og‘irroq gunoh yo‘q” degan hayotiy xulosani vizual tarzda muhrlaydilar. Ushbu usul mavhum axloqiy tushunchalarni ko‘rgazmali shaklga keltirish orqali o‘quvchilarning emotsional idrokini kuchaytiradi hamda ularda ota-ona qadriga yetish va vijdoniy poklik tuyg‘ularini shakllantiradi.


2-chizma: “Vijdon tarozisi” metodi.



O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidagi “Eng og‘ir gunoh” hikoyasini 6-sinf o‘quvchilariga o‘qitish jarayonida darslikda keltirilgan “Nega ona yolg‘on gapirdi? U yolg‘on gapirib to‘g‘ri qildimi? Agar haqiqatni aytganda voqea qanday yakun topgan bo‘lardi?” tarzidagi savollarning o‘rni va tarbiyaviy ahamiyati favqulodda kattadir. Bu kabi muammoli savollar o‘quvchilarni matnni shunchaki yuzaki o‘qib o‘tishga yoki voqealarni yodlab aytib berishga emas, balki asar tub mohiyatiga kirib borishga, qahramonlarning ruhiy olamini tahlil qilishga hamda chuqur mantiqiy mushohada yuritishga undaydi.

Dars davomida “Vijdon tarozisi” metodi bilan uyg‘unlashtirilib o‘rganiladigan ushbu savollar bolalarga onaning har bir xatti-harakati, hattoki uning og‘ir sharoitdagi majburiy yolg‘oni ham aslida farzandini asrash, uning nozik qalbini ortiqcha og‘riq va azoblardan himoya qilishdek buyuk ona mehridan kelib chiqqanini yurakdan his etishga yordam beradi. Agar ona o‘sha vaziyatda haqiqatni yashirmasdan aytganida, bolaning ma'naviy dunyosida ulkan ruhiy tanglik, o‘zini kechira olmaslik va umrbodiy vijdon azobi yanada kuchaygan bo‘lar edi.

3-chizma: Asar yuzasidan darslikda berilgan savollar.



Nega ona yolg‘on gapirdi? U yolg‘on gapirib to‘g‘ri qildimi? Agar haqiqatni aytganida voqea qanday yakun topgan bo‘lardi?

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?
2. Yozuvchining onalar haqida bunday ta’sirli asar yozishi sabablarini qanday izohlagan bo‘lardingiz?
3. Onasining haqorat eshitishini ko‘rib turib ham bolaning sukut saqlaganini oqlaysizmi? Bolaning o‘rnida siz qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?
4. O‘z onangiz va asarda tasvirlangan ona obrazida qanday o‘xshash va farqli jihatlarni kuzatdingiz? Fikrlaringizni matn asosida dalillashga harakat qiling.
5. Asar sarlavhasi bilan bog‘liq avvalgi va keyingi xulosalaringizda qanday farqlarni ko‘rdingiz? Nimalar o‘zgardi? “Eng og‘ir gunoh” deganda muallif nimani nazarda tutmoqda? Asardagi gunohkor kim?

Shu boisdan ham, bunday topshiriqlar 6-sinf o‘quvchilarining emotsional idrokini o‘stirish bilan bir qatorda, ularda hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri xulosa chiqarish, ota-ona qadriga yetish, har bir qadamini o‘ylab bosish va o‘z vijdoniga qarab ish tutish naqadar muhim ekanligini anglatishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablarining 6-sinf adabiyot darslarida epik asarlarni, xususan, O‘tkir Hoshimov va Odil Yoqubov ijodini o‘qitishda an'anaviy yondashuvlardan chekinib, zamonaviy vizual texnologiyalar va interfaol metodlarni

tatbiq etish ta'lim samaradorligini keskin oshiradi. “Konseptual xarita”, “Ona qalbining rangli olami” hamda “Vijdon tarozisi” kabi vizual vositalar o‘quvchilarning mavhum adabiy tushunchalarni oson o‘zlashtirishiga, matn tubiga kirib borishiga va tanqidiy-ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, darslikdagi muammoli savollar va tahliliy yondashuvlar orqali o‘quvchilar asar qahramonlarining ruhiy olamini chuqur his etadilar. Bu esa yosh avlodda o‘tmish xotirasini e’zozlash, tinchlik va ota-ona qadriga yetish, mehr-oqibat hamda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari: Qissa va hikoyalar. — Toshkent: Sharq, 2021.
2. Iser W. The Act of Reading: A Theory of Aesthetic Response. — Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1978.
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. — Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2022.
4. Rozenblatt L. M. The Reader, the Text, the Poem: The Transactional Theory of the Literary Work. — Carbondale: Southern Illinois University Press, 1994.
5. Yoqubov O. Tanlangan asarlar. — Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
6. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
7. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. — Toshkent: Akademnashr, 2020.

ZAMONAVIY QOZOQ TILSHUNOSLIGINING DOLZARB YO‘NALISHLARI: KORPUS LINGVISTIKASI, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA TIL SIYOSATI

Baybulatova Komila Jasarbek qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Qozoq tili va adabiyoti yo‘nalishi o‘qituvchisi
baybulatovakomila@gmail.com
Sipatayeva Fariza Nurjan qizi
Guliston davlat pedagogika institute
Qozoq tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi
farizanurjanqyzy@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada XXI asrda qozoq tilshunosligining rivojlanish tendensiyalari, xususan, korpus lingvistikasi, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, terminologiya, lotin yozuvi va sotsiolingvistika masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy korpus, elektron lug‘atlar, avtomatik tarjima va matn tahlili kabi yo‘nalishlarning qozoq tili taraqqiyotidagi ahamiyati yoritilib, zamonaviy texnologiyalarning tilshunoslikning nazariy va amaliy imkoniyatlarini kengaytirayotgani ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: qozoq tilshunosligi, korpus lingvistikasi, milliy korpus, raqamli lingvistika, sun’iy intellekt, terminologiya, lotin yozuvi, sotsiolingvistika, turkiy tillar, elektron lug‘at.

Аннотация. В данной статье анализируются тенденции развития казахского языкознания в XXI веке, в частности вопросы корпусной лингвистики, цифровых технологий, искусственного интеллекта, терминологии, латинской графики и социолингвистики. Также освещается значение таких направлений, как национальный корпус, электронные словари, автоматический перевод и анализ текста в развитии казахского языка. Подчеркивается, что современные технологии расширяют теоретические и практические возможности лингвистической науки.

Ключевые слова: казахское языкознание, корпусная лингвистика, национальный корпус, цифровая лингвистика, искусственный интеллект, терминология, латинская графика, социолингвистика, тюркские языки, электронный словарь.

Abstract. This article examines the main development trends of Kazakh linguistics in the 21st century, focusing on corpus linguistics, digital technologies, artificial intelligence, terminology, the Latin script, and sociolinguistics. It also

highlights the significance of such areas as the national corpus, electronic dictionaries, machine translation, and text analysis in the development of the Kazakh language. The study emphasizes that modern technologies are expanding both the theoretical and practical possibilities of linguistic research.

Keywords: Kazakh linguistics, corpus linguistics, national corpus, digital linguistics, artificial intelligence, terminology, Latin script, sociolinguistics, Turkic languages, electronic dictionary.

XXI asrda jahon tilshunosligida til hodisalarini o‘rganishning an’anaviy usullari bilan bir qatorda raqamli texnologiyalar, korpus lingvistikasi, statistik tahlil, sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan lingvistik vositalardan foydalanish kengaydi. Natijada tilshunoslikning tadqiqot obyekti va metodologik imkoniyatlari sezilarli darajada kengayib, real nutq materiallarini katta hajmda qayta ishlash, til birliklarining qo‘llanish chastotasini aniqlash, ularning semantik va funksional xususiyatlarini statistik asosda tahlil qilish imkoniyati yuzaga keldi.

Mazkur jarayon qozoq tilshunosligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Mustaqillik yillarida qozoq tilining davlat tili sifatidagi mavqeini mustahkamlash, milliy til siyosatini takomillashtirish, terminologik tizimni rivojlantirish, yozuv islohoti va elektron lingvistik resurslarni shakllantirishga katta e’tibor qaratildi. A.Qaydar qozoq tilining dolzarb masalalarini yoritishda milliy tilning taraqqiyoti va uning jamiyatdagi funksional imkoniyatlarini alohida ta’kidlaydi [1]. S.Isayevning tadqiqotlari esa zamonaviy qozoq tilining nazariy asoslarini yoritishda muhim manbalardan biri hisoblanadi [2].

Bugungi kunda qozoq tilshunosligi oldida tilning raqamli resurslarini kengaytirish, milliy korpusni takomillashtirish, yangi terminlarni tartibga solish, lotin grafikasi asosidagi yozuv tizimini rivojlantirish, internet va yoshlar nutqidagi o‘zgarishlarni tadqiq etish kabi vazifalar turibdi. Shu jihatdan zamonaviy qozoq tilshunosligining rivojlanish tendensiyalarini kompleks o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir.

Hozirgi qozoq tilshunosligining istiqbolli yo‘nalishlaridan biri korpus lingvistikasi hisoblanadi. Korpus lingvistikasi til birliklarini real matnlar asosida o‘rganish imkonini berib, tilning amaldagi qo‘llanish holatini empirik dalillar asosida aniqlashga xizmat qiladi. Korpus materiallari orqali so‘zlarning qo‘llanish chastotasi, kontekstual xususiyatlari, semantik o‘zgarishlari, uslubiy taqsimoti va yangi tendensiyalarini aniqlash mumkin [3].

Qozoq tilining milliy korpusini rivojlantirish jarayonida badiiy, ilmiy, publitsistik, rasmiy va og‘zaki nutqqa oid materiallarni yagona raqamli bazaga jamlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, terminologik, dialektologik,

tarixiy, internet va parallel korpuslarni shakllantirish tilning turli qatlamlarini kompleks tadqiq etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

G. Kuchumova, D. Muhamejanova va A. Ibrayevaning tadqiqotlarida korpus lingvistikasining empirik til tadqiqotlarini amalga oshirishdagi metodologik imkoniyatlari va Qozog‘istondagi rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan [3]. Korpus texnologiyalaridan foydalanish tilshunoslik tadqiqotlarida subyektiv kuzatuvdan ko‘ra katta hajmdagi real til materiallariga tayanish imkonini beradi.

Shu bilan birga, korpuslarni shakllantirishda reprezentativlik masalasi muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar nutqi, yangi ilmiy va texnik sohalar leksikasi hamda zamonaviy internet kommunikatsiyasi materiallarini korpusga yetarli darajada kiritish uning zamonaviy til holatini aks ettirish imkoniyatini oshiradi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi qozoq tilshunosligi oldiga yangi ilmiy-amaliy vazifalarni qo‘ymoqda. Elektron lug‘atlar, avtomatik tarjima tizimlari, nutqni tanish, matnni avtomatik tahlil qilish, imloni tekshirish va matn generatsiyasi kabi texnologiyalar uchun qozoq tilining katta hajmdagi sifatli raqamli ma’lumotlariga ehtiyoj mavjud.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining tilga tatbiq etilishi, avvalo, lingvistik resurslarni raqamlashtirish va standartlashtirishni talab qiladi. Bunda milliy korpus, akademik korpus, terminologik ma’lumotlar bazasi, parallel korpus va elektron lug‘atlar sun’iy intellektga asoslangan tizimlarning lingvistik bazasi vazifasini bajarishi mumkin. Ayniqsa, akademik qozoq tili korpusining rivojlanishi ilmiy uslubning leksik, grammatik va sintaktik xususiyatlarini aniqlash uchun muhimdir. Ilmiy matnlarning katta hajmda elektron shaklda jamlanishi terminlarning qo‘llanish chastotasi, kollokatsiyalari va kontekstual xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Kelgusida avtomatik tarjima, avtomatik tahrirlash, nutqni matnga va matnni nutqqa aylantirish, semantik qidiruv hamda matn generatsiyasi kabi yo‘nalishlarda qozoq tilining raqamli imkoniyatlarini kengaytirish tilshunoslik va axborot texnologiyalari integratsiyasini yanada kuchaytirishi mumkin.

Ilm-fan va texnika taraqqiyoti natijasida yangi tushunchalarning yuzaga kelishi terminologik tizimning muntazam ravishda yangilanib borishini talab etadi. Shu sababli terminologiya zamonaviy qozoq tilshunosligining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yangi terminlarni shakllantirishda milliy tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanish, xalqaro terminlarni qozoq tilining fonetik va grammatik xususiyatlariga moslashtirish hamda mavjud terminlarning qo‘llanishini standartlashtirish muhimdir. J. Mankeevaning tadqiqotlarida qozoq tilshunosligidagi antropotsentrik yo‘nalishlar bilan bir qatorda til va milliy tafakkur munosabatlariga ham e’tibor qaratiladi [4]. Bu

masala termin yaratish jarayonida ham milliy-lisoniy omillarning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Terminologik korpuslarni shakllantirish ushbu jarayonni ilmiy asosda tashkil etish imkonini beradi. Bunday korpuslar orqali terminlarning real matnlardagi qo‘llanishi, variantlari, sinonimik munosabatlari va turli sohalardagi funksional xususiyatlarini kuzatish mumkin.

Zamonaviy qozoq tilshunosligidagi muhim masalalardan biri yozuv tizimini takomillashtirishdir. Lotin grafikasi asosidagi yozuvga o‘tish jarayoni faqat alifboni almashtirish bilan cheklanmay, fonetik tizimni grafik jihatdan ifodalash, imlo me’yorlarini belgilash, lug‘atlarni yangilash va ta’lim tizimini yangi grafikaga moslashtirish kabi masalalarni ham qamrab oladi.

Z. Bazarbayeva va T. Chukayeva qozoq tilining lotinlashtirilgan yangi yozuvi masalasini tadqiq etib, grafik tizimni qozoq tilining fonetik xususiyatlariga moslashtirish muhimligini ko‘rsatadi [5]. Y.Maralbek va G.Oralbai esa Qozog‘istondagi alifbo islohotining tarixiy va lingvistik asoslarini tahlil qilgan [6].

Lotin grafikasi asosidagi yozuvni takomillashtirish jarayoni elektron kommunikatsiya, ta’lim, raqamli lug‘atlar va axborot texnologiyalariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli yangi grafik tizim uchun elektron korpuslar, avtomatik imlo tekshirgichlar va raqamli lug‘atlarni moslashtirish ham muhim vazifalardan hisoblanadi.

Globallashuv sharoitida til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish qozoq tilshunosligining dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Qozoq tilining turli ijtimoiy qatlamlar nutqidagi qo‘llanishi, ko‘p tillilik, shahar va qishloq nutqi, yoshlar tili, internet kommunikatsiyasi hamda ommaviy axborot vositalari tili zamonaviy sotsiolingvistik tadqiqotlarning muhim obyektlari hisoblanadi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar kommunikatsiyaning yangi shakllarini yuzaga keltirib, til birliklarining tez o‘zgarishiga sharoit yaratmoqda. Yangi so‘zlar, qisqartmalar, o‘zlashmalar va aralash kommunikativ shakllarning paydo bo‘lishi qozoq tilining zamonaviy funksional imkoniyatlarini muntazam kuzatib borishni talab etadi. N.Orazaliyevaning kognitiv lingvistika bo‘yicha tadqiqotlari til, tafakkur va bilim o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishning nazariy asoslarini kengaytiradi [7].

Qozoq tilshunosligining muhim yo‘nalishlaridan yana biri turkiy tillarni qiyosiy o‘rganishdir. Qozoq, o‘zbek, qoraqalpoq, qirg‘iz va boshqa turkiy tillarning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini qiyoslash umumturkiy til taraqqiyoti va tarixiy-lingvistik jarayonlarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Qiyosiy tadqiqotlarda raqamli korpuslardan foydalanish yangi metodologik imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Parallel korpuslar yordamida turkiy tillardagi ekvivalent birliklar, tarjima munosabatlari, terminologik mosliklar va grammatik

konstruksiyalarni katta hajmdagi material asosida qiyoslash mumkin. A.Axmetovning turkiy tillarning qiyosiy grammatikasiga oid ishlari mazkur yo‘nalishning nazariy ahamiyatini ko‘rsatadi [8].

Umuman, zamonaviy qozoq tilshunosligi an’anaviy nazariy tadqiqotlar bilan bir qatorda korpus lingvistikasi, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish orqali rivojlanmoqda. Milliy va akademik korpuslarni kengaytirish, terminologik tizimni takomillashtirish, lotin grafikasi asosidagi yozuvni rivojlantirish, elektron lug‘atlar, avtomatik tarjima va matn tahlili vositalarini yaratish, shuningdek, internet va yoshlar nutqini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlarni tashkil etadi. Xulosa qilib aytganda, qozoq tilshunosligining istiqboli zamonaviy texnologiyalar, sifatli lingvistik resurslar va qiyosiy-tadqiqiy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon qozoq tilining ilmiy, ta’limiy va raqamli makondagi imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қайдар Ә. Қазақ тілінің өзекті мәселелері. – Алматы: Ана тілii, 1998. – 304 б.
2. Исаев С. Қазіргі қазақ тілі. – Алматы: Мектеп, 2007. – 528 б.
3. Kuchumova G., Muhamejanova D., Ibrayeva A. Corpus linguistics as a methodology for conducting empirical language studies and its development in Kazakhstan // Bulletin of Karaganda University. – 2024. – № 2. – B. 96–105.
4. Манкеева Ж. Қазақ тіл білімінің антропоөзектік бағыттары. –Алматы,2018. – 312 б.
5. Bazarbayeva Z., Chukayeva T. The new Kazakh latinized script // Bulletin of L.N. Gumilyov ENU. – 2021. – № 3. – B. 24–30.
6. Maralbek Y., Oralbai G. Alphabet Reform in Kazakhstan: History and Linguistic Foundations // GEMA Online Journal of Language Studies. – 2024.
7. Оразалиева Н. Когнитив Н. Когнитив лингвистика негіздері. – Алматы, 2007. – 286 б.
8. Ахметова А. Еуркі тілдерінің салыстырмалы грамматикасы. – Астана,2020. – 420 б.

SO‘Z TURKUMLARI TASNIFI VA QIYOSIY-TIPOLOGIK YONDASHUV

Isaqov Zokirjon Soliyevich
Qo‘qon davlat universiteti dotsent,
filologiya fanlari nomzodi,
isaqovzokirjon1@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek tilshunosligining dolzarb nazariy masalalaridan biri – so‘z turkumlarini tasniflash muammosi tahlil qilinadi; semantik, morfologik va sintaktik mezonlarning ilmiy ahamiyati, ularning bahsli jihatlari ochib beriladi. Ingliz tilidagi word-class classification tajribasi qiyoslanadi, bu tajriba mexanik ko‘chirish emas, balki uning metodologik imkoniyatlaridan o‘zbek tilining agglyutinativ tabiatini hisobga olgan holda foydalanish zarurligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: so‘z turkumlari, tasnif, morfologiya, sintaksis, distributsiya, qiyosiy tipologiya, korpus lingvistikasi.

Annotation. This article examines the classification of parts of speech as a pressing theoretical issue in modern Uzbek linguistics. It reveals the value of semantic, morphological and syntactic criteria and their disputable aspects, comparing them with English word-class classification. The article argues for adapting English linguistics’ methodological potential, rather than transferring it mechanically, to the agglutinative nature of Uzbek.

Keywords: parts of speech, classification, morphology, syntax, distribution, comparative typology, corpus linguistics.

Аннотация. В статье анализируется одна из актуальных теоретических проблем современного узбекского языкознания – классификация частей речи. Раскрывается научная значимость семантического, морфологического и синтаксического критериев, а также их дискуссионные аспекты, проводится сопоставление с английской традицией word-class classification. Обосновывается необходимость не механического заимствования английского опыта, а адаптации его методологического потенциала с учётом агглютинативной природы узбекского языка.

Ключевые слова: части речи, классификация, морфология, синтаксис, дистрибуция, сопоставительная типология, корпусная лингвистика.

Tilning grammatik qurilishini ilmiy tavsiflashda so‘z turkumlarini tasniflash masalasi markaziy o‘rinlardan birini egallab kelgan, so‘zlarni muayyan grammatik sinflarga ajratish nafaqat morfologiyaning, balki sintaksis, leksikologiya, semantika va lug‘atshunoslikning ham nazariy asoslaridan biri sanaladi.

O‘zbek tilshunosligida so‘z turkumlari muammosi uzoq yillar davomida tadqiq etib kelinmoqda; 1975–1976-yillarda ikki jildli “O‘zbek tili grammatikasi”ning yaratilishi morfologiya va sintaksis tadqiqotlarida muhim bosqich bo‘lib [8], [9], bu masaladagi muammoni ancha yorqinlashtirdi. Keyingi davrlarda o‘zbek tilshunosligida ham so‘z turkumlarini funksional, substansial, semantik-sintaktik kabi boshqa yondashuvlar asosida qayta talqin qilishga harakatlar juda kuchaydi.

Maqolaning asosiy maqsadi – o‘zbek tilida so‘z turkumlarini tasniflashning an’anaviy va zamonaviy tamoyillarini tanqidiy tahlil qilish, ingliz tilidagi word-class classification tajribasining o‘zbek tili uchun foydali jihatlarini belgilash va o‘zbek tili tabiatiga mos ko‘p mezonli yondashuvni taklif etishdan iborat.

O‘zbek tilshunosligida so‘z turkumlari tasnifining nazariy asoslari. O‘zbek tilida so‘zlarni turkumlarga ajratishda tarixan an’anaviy ravishda uch asosiy mezonga tayanilib kelinadi: semantik, morfologik va sintaktik mezon. Semantik mezon so‘zning umumiy lug‘aviy-grammatik ma’nosini, morfologik mezon grammatik shakllanishini, sintaktik mezon esa gapdagi vazifasi va boshqa birliklar bilan munosabatini aniqlashga xizmat qiladi.

Bu mezonlarning har birining o‘z vazifasi bor, biroq ulardan birortasini mutlaqlashtirish muayyan nazariy qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin, ya’ni tasnifni to‘laqonli bo‘lishiga olib kelmaydi.

An’anaviy tasnifning yutuqlari va bahsli jihatlari. O‘zbek tilshunosligida shakllangan an’anaviy tasnifning muhim yutug‘i – so‘zlarni faqat ma’nosiga qarab emas, balki ma’no, shakl va sintaktik vazifaning birligi asosida tasniflashga intilishidir. Shu bilan birga, ayrim birliklarning grammatik maqomi munozarali bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, olmosh, ravish, modal so‘zlar, taqlid so‘zlar va undovlarning turkumiy maqomi turli nazariy nuqtayi nazardan turlicha talqin qilinishi mumkin [2]. Demak, so‘z turkumlarining chegarasi har doim ham mutlaq va o‘zgarmas emas ekan.

So‘z turkumlari va turkumlararo o‘tishlar. So‘z turkumlari tizimidagi murakkab hodisalardan biri – transpozitsiya, ya’ni bir turkumga xos birlikning boshqa turkum vazifasida qo‘llanishidir. Masalan: yaxshi → yaxshilar; yaxshi bola → yaxshi o‘qidi; bir → bir kitob; bir → bir keldi, bir ketdi. Bunday misollar so‘z turkumini aniqlashda leksik birlikning lug‘atdagi maqomi bilan uning muayyan kontekstdagi funksiyasini farqlash zarurligini ko‘rsatadi.

Ingliz tilida so‘z turkumlarini tasniflash tajribasi. Ingliz tilshunosligida word classes masalasi grammatik nazariyaning muhim qismlaridan biridir. Zamonaviy ingliz grammatikasida noun, verb, adjective, adverb kabi sinflar ajratiladi. Masalan: book – noun; book – verb; fast – adjective; fast – adverb.

Demak, ingliz tilida ham so‘z turkumi faqat lug‘aviy ma’no bilan emas, kontekst va sintaktik distributsiya bilan bog‘liq. A. Aikhenvald turli tillarda so‘z turkumlari morfologik, sintaktik, semantik va ba’zan fonologik mezonlar asosida ajratilishini ta’kidlaydi [4: 81].

Ingliz tilidagi distributiv yondashuv va uning ahamiyati. Distributiv yondashuv so‘zning ma’nosidan tashqari uning qaysi pozitsiyada kelishi va qanday birliklar bilan birika olishiga e’tibor qaratadi. Masalan, ingliz tilida the book birikmasida book ot ekanini uning distributiv xususiyati ham ko‘rsatadi. Very beautiful birikmasida beautiful sifatning o‘ziga xos distributiv xususiyati namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv o‘zbek tilida ham so‘z turkumlarini chegaralashning qo‘shimcha mezoni sifatida qo‘llanishi mumkin.

Ingliz va o‘zbek tillarida so‘z turkumlarini tasniflash: qiyosiy tahlil. O‘zbek va ingliz tillarida so‘z turkumlarini ajratishda umumiy mezonlar mavjud bo‘lsa-da, ularning grammatik ifodalanishi bir xil emas [12]. Ingliz tilidan tasnifning natijasini emas, mezonlar tizimini o‘rganish maqsadga muvofiq.

Ingliz tili tajribasidan foydalanishning eng maqbul yo‘li – tayyor grammatik modelni qabul qilish emas, balki tasniflash metodologiyasining universal jihatlarini o‘zbek tilining ichki tabiatiga moslashtirishdir.

Ingliz tili tajribasini o‘zbek tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirish mumkinmi? Yo‘q, albatta. Ammo undan metodologik manba sifatida foydalanish mumkin. Ingliz tili analitik xususiyatlari kuchli til bo‘lsa, o‘zbek tili agglyutinativ xususiyatga ega bo‘lib, grammatik ma’nolarni ifodalashda affiksatsiya muhim o‘rin tutadi [7], shu sababli ingliz tilidagi grammatik tasnifni o‘zbek tiliga ko‘chirish mumkin emas; ammo tasniflash metodologiyasining ayrim universal jihatlaridan foydalanish mumkin. Ingliz modeli tayyor tasnif emas, balki metodologik tajriba sifatida o‘zbek tiliga moslashtirilishi lozim.

Artikl va yordamchi kategoriyalar misolida tipologik chegara. Ingliz va o‘zbek tillarining farqini ko‘rsatish uchun artikl kategoriyasi qulay misoldir. Ingliz tilida a book, the book kabi shakllarda artikl muhim grammatik vazifa bajaradi [1]. O‘zbek tilida esa ingliz tilidagi artikl tizimiga aynan teng keluvchi alohida grammatik kategoriya mavjud emas. Shu sababli ingliz tilidagi determiner yoki article kategoriyasini o‘zbek tilida mustaqil so‘z turkumi sifatida joriy etish ilmiy jihatdan asoslanmagan bo‘lar edi.

O‘zbek tili uchun ko‘p mezonli tasnif modeli. O‘zbek tilida so‘z turkumlarini aniqlashda quyidagi ko‘p mezonli modeldan foydalanish mumkin: 1) semantik mezon; 2) morfologik mezon; 3) sintaktik mezon; 4) distributiv mezon; 5) funksional mezon; 6) kontekstual mezon. Bunday model an’anaviy semantika + morfologiya +

sintaksis uchligini inkor qilmaydi, balki uni distributsiya va funksiya bilan boyitadi hamda kontekstni alohida tekshirish imkonini beradi.

“So‘z turkumi” va “kontekstdagi vazifa”ni farqlash. Nazariy jihatdan muhim masalalardan biri – so‘z turkumi bilan sintaktik vazifani bir-biriga tenglashtirmaslikdir. Masalan: “Bu dunyoda yaxshi inson el hurmatini qozonadi” gapida yaxshi – sifat. “Bola maktabda barcha fanlarni yaxshi o‘qiydi” gapida esa yaxshi fe’l – harakat belgisini aniqlab, ravish funksiyasini bajarmoqda, shuning uchun zamonaviy tahlilda leksik-grammatik kategoriya bilan kontekstual sintaktik funksiyani farqlash muhimdir.

Matn va korpus asosida so‘z turkumlarini aniqlash. Zamonaviy tilshunoslikda so‘z turkumlarini real matn va korpus materiallari asosida o‘rganish tobora muhimlashmoqda. Bunday yondashuv so‘zning real qo‘llanish chastotasi, tipik kontekstlari, omonimiya holatlari, ko‘p ma’noliligi, turkumlararo o‘tishi va sintaktik distributsiyasini aniqroq kuzatish imkonini beradi [3], [13: 1495].

Kelajakda o‘zbek tili so‘z turkumlarini tasniflashda korpus lingvistikasi materiallaridan tizimli foydalanish muhim vazifalardan biri bo‘lishi kerak.

So‘z turkumlari tasnifi va kompyuter lingvistikasi. Mazkur muammoning yana bir muhim jihati – uning tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari bilan bog‘liqligidir. NLP sohasida POS tagging, ya’ni matndagi har bir so‘zni muayyan so‘z turkumi belgisi bilan teglash muhim vazifalardan biridir [3], [14], shu sababli so‘z turkumlarining nazariy tasnifini takomillashtirish o‘zbek tili uchun NLP texnologiyalarining rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Tasnifni takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari. So‘z turkumlari nazariyasini rivojlantirish uchun quyidagilar istiqbolli: so‘z turkumlarini ajratish mezonlarini ierarxiyaga solish; turkumlararo o‘tishlarni tizimli o‘rganish; distributiv tahlilni kengaytirish; korpus materiallari asosida real qo‘llanish modellarini belgilash; o‘zbek tilining avtomatik morfologik tahlili uchun ilmiy asoslangan POS-tagset ishlab chiqish; boshqa tillar bilan qiyosiy tadqiqotlarni kuchaytirish; kognitiv, funksional va pragmatik yondashuvlarni grammatik tasnif bilan uyg‘unlashtirish [5: 1897], [6: 1778].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

1) An’anaviy semantik–morfologik–sintaktik uchlikni distributiv, funksional va kontekstual mezonlar bilan boyitish zarurligi asoslanadi; 2) ingliz tilidagi word-class classification modeli tayyor grammatik tasnif emas, balki qiyosiy-tipologik va metodologik manba sifatida baholanadi; 3) so‘zning leksik-grammatik turkumi bilan uning kontekstdagi sintaktik funksiyasini farqlash zarurligi asoslanadi; 4) o‘zbek tilida so‘z turkumlarini aniqlash uchun semantik → morfologik → sintaktik →

distributiv → funksional → kontekstual model taklif etiladi; 5) mazkur nazariyaning korpus lingvistikasi va NLP texnologiyalaridagi ahamiyati ko‘rsatiladi.

Xulosa. So‘z turkumlari masalasi o‘zbek tilshunosligining an’anaviy va doimo yangilanib boruvchi nazariy muammolaridan biridir. O‘zbek tilshunosligida shakllangan semantik, morfologik va sintaktik mezonlar o‘zining ilmiy qimmatini saqlab qolmoqda, biroq tilning funksional, kommunikativ, kognitiv va kompyuter texnologiyalari bilan bog‘liq holda o‘rganilayotgani so‘z turkumlari tasnifiga yangi mezonlar asosida yondashish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ingliz tilidagi word classes tasnifini o‘zbek tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish mumkin emas, biroq ingliz tilshunosligida so‘z turkumlarini aniqlashda qo‘llanadigan distributiv, sintaktik, morfologik va semantik diagnostika usullari o‘zbek tili tadqiqi uchun katta metodologik ahamiyatga ega.

Shunday qilib, zamonaviy o‘zbek tilshunosligi oldidagi vazifa an’anaviy so‘z turkumlari tizimidan voz kechish emas, balki uni yangi lingvistik metodlar bilan boyitish, mezonlar o‘rtasidagi munosabatni aniqlashtirish va milliy til materiallari asosida takomillashtirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aarts, B., Haegeman, L. English Word Classes and Phrases. In: The Handbook of English Linguistics. 2020. https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1002/9781119540618.ch7
2. Abdullayev, I. Towards A Unified Structural Theory of Parts of Speech in Modern Linguistics. American Journal of Philological Sciences. – P.25-28.
3. Abjalova, M., Adilova, M. So‘z turkumlarini teglash usullari. O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika, 2025. https://tsuull.uz/sites/default/files/uzbekistonda_til_va_madaniyat.pdf
4. Aikhenvald, A. Y. Word Classes. In: The Art of Grammar: A Practical Guide. Oxford University Press, 2014. – P. 81–102.
5. Badikova, O. G. O‘zbek tilida so‘z turkumlarining grammatik tabiati va tasnif tamoyillari. Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali, 2026, 8(04). – B. 1897–1903.
6. Bolbekova, Z. A. O‘zbek tilshunoslikda mustaqil so‘z turkumlari va ularning tadqiqi masalasi. Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali, 2026, 8(04). – B. 1778–1786.
7. Nurmonov, A., Mahmudov, N., Sobirov, A., Yusupova, Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2010. – 192 b.
8. O‘zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. – Toshkent: Fan, 1975. – 516 b.
9. O‘zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. – Toshkent: Fan, 1976. – 560 b.

10. Sayfullayeva, R., Mengliyev, B., Boqiyeva, G., Qurbonova, M., Yunusova, Z., Abuzalova, M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 416 b.
11. Sayfullayeva, R. R., Mengliyev, B. R., Raupova, L. R., Qurbonova, M. M., Abuzalova, M. Q., Yo‘ldosheva, D. N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. – 460 b.
12. Shodieva, G. O‘zbek va ingliz tillarida so‘zlarni turkumlarga ajratish masalalari. – New Renaissance Conference, 2025. – №8. P.770-774.
13. So‘z turkumlari va ularni matn asosida tasniflash masalasi. ARES, Volume 2, Issue 4. – B. 1495–1501.
14. Word Classes. Oxford Bibliographies in Linguistics. Oxford University Press. https://academic.oup.com/reference/62381/reference-article-abstract/555020002?redirectedFrom=fulltext

QADIMGI TURKIY AXLOQ VA ISLOM MA'RIFATI

Shermurodov Tohir
Alisher Navoiy nomidagi Toshken davlat
O'zbek tili va adabiyoti universiteti
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
ehrom@list.ru

Annotatsiya. Qadimgi turkiy xalqlarning islomgacha bo'lgan tarixidagi ma'naviy-madaniy hayotning, poetik ma'rifatning o'ziga xos taraqqiy tamoyillari, axloqiy mezonlari, bitiglari orqali ma'lum yozuvlari, dunyoqarash tarzlari islomlashuv jarayonida qanday ahamiyatga molik bo'lganligi tadqiq etilgan. Islomning kirib kelishiga qadar bo'lgan turkiy xalqlardagi diniy shaklning, yakkaxudilik (tavhid)ning, ommaviy amal qilingan og'zaki to'ra qonunining va boshqa bir qator ma'naviy-ma'rifiy an'analarning haq dinga muvofiq jihatlari borasida yangicha ilmiy-nazariy qarashlar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar. turkiy axloq, poetik ma'rifat, diniy shakl, yakkaxudolilik, to'ra qonuni.

Annotation. The significance of the spiritual and cultural life of the ancient Turkic peoples in the pre-Islamic history, the specific principles of development of poetic enlightenment, ethical criteria, and certain writings and worldviews in the process of Islamization is studied. New scientific and theoretical views are put forward on the aspects of the religious form, monotheism (tawhid), the widely practiced oral Torah law and a number of other spiritual and enlightening traditions in the Turkic peoples before the advent of Islam, in accordance with the true religion.

Keywords. Turkic morality, poetic enlightenment, religious form,

Qadim turkiy xalqlarning barcha zamonlarda ko'proq dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik bilan shug'ullangani tadqiqotlarda ta'kidlanadi. Hind, Xitoy manbalarida turkiy xalqlarning axloq-odobi, o'zgalar bilan samimiy munosabati, murosasi, qiynalganlarga ko'makdoshligi ibrat qilib ko'rsatilgan. Tarixiy va keyingi tadqiqiy kuzatishlarning jahon xalqlari madaniyati, ma'rifati borasidagi muhim bir xulosasi shundan iboratki, ko'p asrlar mobaynida yunonlarning birlamchi xosligi ularning go'zal san'atida, rumliklarning o'ziga xosligi ularning huquqiy bilimlarida, turkiylarning sifati ularning axloqan olijanobligida degan ilmiy tasavvur keng yoyilgan.

To'qqizinchi asr arab adabiyotining yirik namoyandasi, arab adabiy tanqidchiligining asoschisi, ''Baxillar haqida kitob'', ''Kvadrat va doira haqida

risola'' kabi satirik asarlar muallifi, turlicha aql-idroklar, dogmatizmlar tahlilchisi Al-Jahiz (776-868) o'zining "Turkiylarning fazilatlari" asarida turkiy qavmlarni vasf etadi. Uning xulosalaridan biri quyidagicha:

"Turkiylar nimaga qasd qilsa, unga albatta erishadi. Basra adabiyoti, Yunoniston donoligi, Xitoy san'ati turklarga anchadan beri ma'lum bo'lgan. Turkiylar baquvvat, jangovar, faol va aqlli. Ularning axloqiy qiyofasi moddiy qadriyatlardan ustundir. Ular yer yuzida urush mas'uliyati bilan la'natlanmagan yagona xalqdir.

Turkiylarda vatanparvarlik tuyg'usi juda kuchli. Turkiylar xushomad, tilanchilik, yolg'onchilik, ikkiyuzlamachilik, bo'hton, firibgarlik, do'stlarga nisbatan kibr, nafrat nima ekanini bilishmaydi. Ularda puch g'oyalar, asossiz maqsadlar yo'q. Turkiylar gapiradigan til ularning tanalari va ovozlari kabi ajoyibdir".

Qadimgi turkiy xalqlar ma'rifiy ijodkorligining yirik yodgorliklari bo'lgan Kul tigin (Shahzoda Kul), Bilga xoqon, To'nyuquq, Ungin (Ongin), Kuli chur, Moyun chur (Urxun bitigtoshlari), Enasoy bitigtoshlari, Irq bitigi, shuningdek, uyg'ur yozuvida bitilgan Xuastuanift, Qalyanamqara, Papamqara shahzodalar qissasi, Oltin yoruq, Sekiz yukmak, Atavaka devi afsonasi, Budda afsonalari yuqorida kuzatganimiz asosida diniy ta'limotlar talqini yetakchi bo'lgan manbalardan ko'p xususiyatlariga ko'ra farqlanadi.

Bularning aksariyati o'z davri turkiy xalqlarning moddiy-ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy hayotini, maishiy turmush tarzini, yuksak maqsadlar yo'lidagi fidokorliklari, orzu-umidlarini real tarixiy voqealar, qahramonlar, aniq ma'lumotlar asosida bayon qiladi. Bayonlari badiiy ijodga xos ifoda yo'sinlariga, obrazli poetik unsurlarga boy ekanligi bilan diqqatga sazovor.

Bitigtoshlar mazmunida tangrini bir deb tushinish, namma bo'lib o'tgan narsalar uning irodasi bilan sodir bo'lganini e'tirof qilish, shukrona keltirish, tangriga tavakkul, keyingi hayotga ishonch tushunchalari yetakchi. Tangriga yana boshqa qandaydir ilohni, kuch-qudrat sohibini sherik bilib qarash bularda yo'q. Najotning faqat tangridan ekanligi, undan ko'p ne'matlar, marhamatlar yog'ilgani bot-bot takrorlanadi. Bu kabi fazilatlar ifodasi tosh bitiglarga yuksak, unutilmas poetik ruh bag'ishlagan.

Nasimxon Rahmon turkiy xalqlar hayolotining kelajak avlodlarga ulkan meros qoldirganini alohida ta'kidlar ekan, quyidagi fikrlarni bildiradi:

"Ayniqsa, turklar yaratgan afsonalar alohida diqqatga sazovor. Afsonalar turk xalqi hayolotining naqadar kengligi, fikrining teranligini ko'rsatadi. Ular fazodagi jamiki yaratilgan mavjudod va hodisalardan ilmiy haqiqatni izlashga harakat qildilar. Ko'k tangri, shamol, havo, g'or-tuproq, suvning kelib chiqishi haqidagi to'rt unsurga asoslangan afsonalar hanuz turklar folklorini bezaydi va butun doston, hikoyatlarda

yashab keladi. Siz o'qigan bi afsonalarda hikmat ko'p. Odamzodning ilk bor Xudoga sajda qilishga o'rganishini bilib olamiz. Shuningdek, yovuzlar har doim o'limga mahkum, degan g'oya jaranglaydi. Shu bilan birga, shaytonlardan ehtiyot bo'ling, deb ogohlantirib turadi"(Rahmon Nasimxon, 1993, 58).

Turkiy xalqlarning qadim xarakter xosliklari, madaniyati, tinch-totuvlikka va ezguliklarga tarafdorlik sifatlarining jahoniy nufuzini birinchi navbatda ularning o'z madaniy-ma'rifiy meroslari – solnomalari, bitiglari, yodgorliklari, dunyo ilm-fanida mashhur yozma manbalari dalillab turadi. Chunonchi, o'z zamonasiga xos mahdud ilohiy tasavvurlaridan qat'i nazar, boshdan-oxir hayotbaxsh g'oyalarga, dunyoni va qalbni obod etishga qaratilgan amallarga chorlovchi zardushtiylik ta'limotining "Avesto" kitobi turkiy madaniyatga va davlatchilikka uch ming yillar avval asos solinganligining yorqin tasdig'idir. Buddaviylik aqidasida mujassam qarashlarda sobitlik bilan yozilgan bo'lsa-da, miloddan oldingi I asrda sanskrit tilida yaratilgan, qadimiy turkiy tilga IX asr oxiri – X asr boshlarida tarjima qilingan "Oltun yorug" sutrasi (budda ta'limotlarini matniy umumlashtirgan kitob) ham turkiy xalqlar madaniyatining jahon maydonidagi zalvorli o'rnini ko'rsatuvchi qadimiy yozma adabiy manbadir. "Oltin yorug'" sutrasining pafosini insoniyat salohiyati va imkoniyatlariga ishonch, uni yer yuzida barqaror, halovatli yashashga undov, bir-birlariga o'zaro yaxshiliklar ulashib, ruhan va jismonan sog'lom yashab yurish g'oyalariga chorlov tashkil etadi (Oltun yorug'. 1,2-kitoblar, 2009, 2013).

Turkiy xalqlarning islomdan oldingi hayotida uzoq zamon hukm surgan tanho iloh – tangriga bo'lgan e'tiqodi ilmlarda yetarli darajada o'rganilmagan. Garchi tangrini tafakkur qilish ularda aql bovar qilmas ulkan va bepoyon osmon (falak, ko'k) tasavvuri bilan uyg'unlashgan holda cheklangan bo'lsa-da, uni boshqa sherigi yo'q qudrat egasi sifatida bilishlari itoatkorlikning o'sha davr insoniyatidagi katta afzallik edi. Turkiylarga xos diniy ongning bu mustahkam shakli ular ma'naviyati hamda butun turmush tarzida asosan og'zaki to'planib joriylanib ketgan, "to'ra" nomi ostida tushunilgan qonunlar majmuini vujudga keltirgan edi.

To'ra qoida-qonunlari har avlodga ta'lim-tarbiya asosi sifatida og'zaki o'rgatilgan, yodlatilgan. Shu tariqa to'ra qonunchiligi islomgacha o'tgan davrlarda ularning qalb salomatligini, axloq go'zalligini muhofazalab, har jihatdan kamolga intiltirib kelgan. Qonunlar hayot kechirishning hamma jabhasini qamrab olgan bo'lib, ular har bir xatti-harakat, muomala-munosabat, axloqiy holat, faoliyatning jamiyat siyosatidagi me'yorlari, yaxshi-yomon hukmlari sifatida tushinilgan. Hammaning zimmasiga to'rada o'rgatilgan qoidalarga itoat, unda buyurilgan ishlarni qilish, unda qaytarilgan narsalardan qaytish ma'suliyati yuklatilgan. Turkiylar amaliyotidagi ayni qonunchlikka vaziyat taqozo etgan holatlarda juz'iy o'zgartirishlar kiritilib, bu tartib intizom asoslari mustahkamlanib borgan.

O’zgartirishlar katta-kichik qavmlar rahbarlarining masala yechimi bo’yicha bir xulosaga kelishlari orqali amalga oshirilib kelingan. To’ra qonuni o’z jiddiyati hamda qamroviga ko’ra insoniyatning boshqa xalqlarida kuzatilmagan, og’zaki ta’limot darajasiga ko’tarilgan, turkiy xalqlarning mamnuniyat bilan islomiylashuvida buyuk omil bo’lgan tarixiy tajribadir.

Yetuk ma’rifatparvar, olim va adib Ziyo Ko’kalp (1876-1924)ning “Turk to’rasi” asari mazkur mavzuga bag’ishlangan dastlabki va eng diqqatga sazovor tadqiqotdir. Ko’kalp turkiylarning qadim dinlari, rasm-rusumlari, Urxun bitiglari, “Qo’rqut ota” dostonlari, Koshg’ariyning “Devoni lug’atit turk”iga, maqollar, iboralarga murojaat qiladi. Turk to’rasi mohiyati va ahamiyatini ulardagi ifoda, belgi-alomatlar bilan sharhlaydi. Uning fikricha, davlat va to’ra so’zlari bir ma’noda qo’llanilsa-da, “to’ra” (qonun) so’zining ma’nosi “qonun” so’zining ma’nosiga o’xshab cheklanmagan:

“Ritualda yozma qonunlardan tashqari, yozilmagan urf-odatlar, diniy va axloqiy odatlar ham mavjud”. Demak, davlat bilan teng ko’riladigan qonun ma’nosidagi “to’ra”dan xalq hayotidagi to’raning ma’no-mohiyati, amali juda kengdir. “Qo’l tashlab ketar, to’ra tashlamas” degan qadim maqolning ma’nosi shuki, davlat yoki mamlakatni tark etish (unga qo’l siltash) mumkin, ammo madaniyatni (to’rani) tashlab ketib bo’lmaydi” (Ziya Ko’kalp, 1976, 13).

Yapon turkologi Masao Mori qadim turkiylarning to’ra qonunini uzoq o’rganib, aholining bundagi qoidalarga ommaviy itoatini, ilk tarbiya va ta’limdan boshlab farzandlar hayotiga uning tabiiy singdirilishini, bu esa jamiyatlarda o’z-o’zidan xotirjamlik madaniyatini vujudga keltirib borganligini ulug’ milliy jarayon nisoblagan. Masao Mori og’zaki, ammo har qanday yozma qonundan bo’ysinilishi yengil, maroqli, boshqaruv uchun bundan yaxshi muqobili bo’lmagan to’raning o’ttiz uchta bandini sanab ko’rsatadi. Ularning hammasi hamma makon va zamonda qo’llasa bo’ladigan umuminsoniy sifatlarga ega va bamisoli turkiylar hayotiga endi kirib kelishi kutilayotgan islom haqiqatlariga tayyorgarlik amallariga o’xshashi bilan ajoyib qoidalardir. Yapon olimi tasnif etgan turk qonunlaridan ba’zilarini keltirib o’tamiz:

Tangri tanho yaratuvchidir; kim tangridan qut istasa, boshqaga yukunmasin; hech kim to’radan ustun emas; xoqon xalqidan, erkak oilasidan, cho’pon suruvidan so’raladi; ota-onangga ta’zimda bo’l; qo’shningga, qarindoshlaringga mehribon bo’l; o’g’riga jazo – jon bilan javob berish; jangdan qochganga – jahannam; omonlik so’raganga qilich urilmaydi, panoh so’ragandan yuz o’girilmaydi; adolat istaganga adolat ber; hamma (irqlar) tengdir; kekdan, kibrdan uzoqda bo’l; mazlumga marhamat, zolimga azob; bolalarni e’zozla, zaiflarga ko’maklash; qiz o’z ixtiyori bilan erga tegishi shart; daraxtni kesma, suvni iflos qilma, bulg’ama; hamma narsani

bilgandan so’ra; zaifga sabr, kuchliga kechirimlilik kerak; taqdirga sabr qil; birov qilgan yaxshilikni unutma, o’zing qilgan yaxshilikni unut va boshqalar (htt ps: // eurasia digital. medium. Com //).

Shunday oqillarcha tuzilgani, butun xalq unga amal qilgani, islom ma’rifatiga mos-munosibligi bois turkiylarning bu og’zaki qonuni to’la islomlashilgandan so’ng ham asrlar bo’yi e’tiborli sanalib kelgan. “Temur tuzuklari”da shunday ma’lumotlar bor:“Tahgri taologa shukr aytib, Muhammad va uning xonadoniga iltijo qilib, Tangri taologa yolvordim: “Menga din-u shariatni yangilash va unga rivoj berishda madad bergil!”

“Din-u shariat ishlari tuzukini tartibga keltirganimdan so’ng, saltanatim korxonasining tuzukini tuzishga kirishdim. Saltanat ishlarini qonun va qoidalar (to’ra va tuzuk)ka solib, uning martabalari (ahvoli)ni mustahkamladim. Saltanatning martabalari tuzukini quyidagilarga tayanib tuzdim:

Birinchidan, saltanatim qonun-qoidalarini islom dini va kishilarning eng xayrlisi (hazrati Muhammad)ning shariatiga bog’lab, izzat-u hurmatlash vojib bo’lgan onhazratning avlodi va sahobalariga muhabbat bildirgan holda ularni mustahkamladim. Saltanatim martabasini qonun-qoidalar asosida shunday saqladimki, saltanatim ishlariga aralashib, ziyon yetkazishga hech bir kimsaning qurbi yetmasdi”.(Темур тузуклари, 1991, 63).

Keyingi davr adabiyotshunosligi bevosita, islomdan keyin davr hisoblanib, o‘ziga xos an’ana, tizim va janrlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu davrga oid minglab tadqiqotlar e’lon qilingan, yana minglab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Islom va undan keyingi davr ajdodlarimizning ilm-fan, badiiy adabiyot, adabiy-nazariy ta’limotlar borasida erishgan yuksak muvaffaqiyatlarini atroflicha o‘rgangan jadidchilik davri adabiyotshunosi va munaqqidi Vadud Mahmud (1898-1976) o‘zining “Navoiygacha turk adabiyoti”, “Alisher Navoiy” (1925-1926) maqolasida shunday yozadi: “Hijriy 5-asr ila 10-asr orasidag‘i besh yuz yilliq bu davr Xuroson va Movarounnahrda islom madaniyatining gullagan mavsumi edi… Mana shu zamonlarda edikim, islom madaniyatining yetishtirg‘on hakim va adiblari dunyoda yagonalik tug‘ini ko‘targan edilar” (Vadud Mahmud, 2007, 29).

Bugungi insoniyatning dinlar tarixiga doir savodxonligida yangi va oxirgi din bo’lgan islom ta’limotlarining shu haqdagi xabarlari masalaga ilmiy-metodologik yondashuvning eng ishonchli ko’rsatmalari hisoblanadi. Jahon dinshunoslari endilikda yer yuzining barcha mintaqalarida Allohni bir va bor deb bilish, ya’ni tavhidiy e’tiqod tuyg’usi hukmron ekanligini e’tirof etadi. Dinlar mohiyatiga oid nazariy ma’lumotlarni xolis tadqiq etayotgan olimlarning barchasi avvalgi samoviy dinlarning ham aslida islom bo’lganini, har qaysi din bilan birga o’z davrida shu dinga mos shariatlar berib kelinganini, so’ng ularda ilohiy sahifalar, kitoblar va

oqibatda qarashlarning buzilishlari ro'y berganini, xullas, barcha dinlar masdari – odamzod murabbiysi, tarbiyachisi (Robb) Alloh ekanini tasdiqlab kelmoqda.

Shuningdek, diniy tarix sohasidagi tadqiqotlarda, ilm-fanlarda, falsafa va filologiyaning dinga bog'liq mavzularida dunyo xalqlari o'tmishidagi xilma-xil noto'g'ri ilohiy tasavvurlar, botil sig'inish, yukunish, tavoflar ojiz inson zotining dinda kechgan og'ishuvlari sifatida qaralsa-da, bu jarayonlar tadqiqi va talqini tarixni, ilohiyotni, odamzodning tafakkur tadrijini bilish, Yaratganni tanish, haq ta'limotni o'rganish, hikmatlarni anglash kabi maqsadlar nuqtayi nazaridan juda muhim deb izohlanmoqda. Bu tamoyillarga amal qilish adabiy-nazariy ilmlar uchun ham maqsadga muvofiqdir.

Turkiy xalqlarning islomdan avvalgi madaniy, ma'rifiy, diniy, adabiy merosi, turli yozuv shakllari tarixi singari sarchashmalarining islomlashuv jarayonidagi afzal xususiyatlarini fundamental ilmiy o'rganish bugungi filologik fanlarning ham dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маҳмуд В. (2007). *Танланган асарлар*. – Тошкент., Маънавият.
2. Oltun yorug‘. 1,2-kitoblar. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2009, 2013.
3. Rahmon N. Turk xoqonligi. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
4. Ziya Ko'kalp. Türk töresı. Hozırlayan: Hıkmet Dısparoçlı. Bırıncı basılış, - DEVLET kıtapları, - 1976.
5. htt ps: // eurasia digital. medium. Com //
6.Темур тузуклари. Форсчадан Алихон Соғуний ва Ҳабибулло Кароматов таржимаси. Т.: 1991.

ILMIY VA BADIIY MATNLAR VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING ILMIY-TAHLILIY VA KREATIV FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Abdirimova Intizor Kamilovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti
intizorabdirimova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ilmiy va badiiy matnlar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning ilmiy-tahliliy va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi yoritilgan. Maqolada ilmiy matnlarning mantiqiy va dalillarga asoslangan fikrlashni, badiiy matnlarning esa obrazli, mustaqil va kreativ tafakkurni rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, ilmiy va badiiy matnlarni qiyosiy o‘rganish, muammoli savollar, ijodiy topshiriqlar hamda interfaol metodlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ilmiy matn, badiiy matn, ilmiy-tahliliy fikrlash, kreativ fikrlash, matn bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, mustaqil fikrlash, interfaol metodlar, ijodiy topshiriq, ta’lim.

Abstract. This article examines the development of students’ scientific-analytical and creative thinking skills in the process of working with scientific and literary texts. The article analyzes the role of scientific texts in developing logical and evidence-based thinking, as well as the role of literary texts in fostering imaginative, independent, and creative thinking. It also discusses the pedagogical potential of comparative analysis of scientific and literary texts, the use of problem-based questions, creative tasks, and interactive teaching methods.

Keywords: scientific text, literary text, scientific-analytical thinking, creative thinking, working with texts, critical thinking, independent thinking, interactive methods, creative task, education.

Аннотация. В данной статье освещается вопрос развития навыков научно-аналитического и креативного мышления учащихся в процессе работы с научными и художественными текстами. В статье анализируется роль научных текстов в развитии логического и доказательного мышления, а также художественных текстов — в формировании образного, самостоятельного и креативного мышления. Кроме того, рассматриваются педагогические возможности сравнительного изучения научных и художественных текстов, использования проблемных вопросов, творческих заданий и интерактивных методов обучения.

Ключевые слова: научный текст, художественный текст, научно-аналитическое мышление, креативное мышление, работа с текстом, критическое мышление, самостоятельное мышление, интерактивные методы, творческое задание, образование.

Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarga tayyor bilimlarni berish bilan cheklanib qolmasdan, ularni mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish, muammolarga turli nuqtayi nazardan yondashish va yangicha g‘oyalar ilgari surishga o‘rgatishdan iborat. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchining bilimni qay darajada eslab qolishi emas, balki undan amaliy va ijodiy faoliyatda foydalana olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda matn bilan ishlash o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish uchun keng pedagogik imkoniyat yaratadi. Ilmiy matnlar o‘quvchini aniq dalillar, tushunchalar, sabab-oqibat munosabatlari va mantiqiy xulosalar bilan ishlashga yo‘naltirsa, badiiy matnlar tasavvur, obrazli tafakkur, hissiy munosabat va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Shu nuqtayi nazardan, ilmiy va badiiy matnlarni ta’lim jarayonida maqsadli ravishda uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning ilmiy-tahliliy va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Axborot oqimi jadal sur’atlarda rivojlanayotgan hozirgi davrda o‘quvchidan turli manbalardan olingan ma’lumotlarni to‘g‘ri tushunish, taqqoslash, tahlil qilish va baholash talab etiladi. Bunda matnni shunchaki o‘qish yetarli emas. O‘quvchi matnning asosiy g‘oyasini aniqlashi, muhim va ikkilamchi ma’lumotlarni farqlashi, muallif pozitsiyasini anglash hamda o‘z fikrini dalillar asosida ifodalashi lozim.

Ilmiy-tahliliy fikrlash o‘quvchining kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish, sabab va oqibatni aniqlash, dalillarni baholash va asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatlari bilan bog‘liq. Kreativ fikrlash esa mavjud bilim va tasavvurlardan foydalangan holda yangi g‘oya yaratish, muammoga noodatiy yechim topish va hodisaga yangicha nuqtayi nazardan qarashni nazarda tutadi.

Ilmiy va badiiy matnlar mazkur ikki yo‘nalishdagi fikrlashni rivojlantirish uchun bir-birini to‘ldiruvchi didaktik vosita sifatida xizmat qiladi. Ilmiy va badiiy matnlar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning ilmiy-tahliliy va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda samarali metod va topshiriqlarni tavsiya etish matn ustida ishlash jarayonining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ilmiy-tahliliy fikrlash o‘quvchining ma’lumotlarni izchil tahlil qilishi, dalillarni ajratishi, ularni taqqoslashi, sabab va oqibat munosabatlarini aniqlashi hamda asoslangan xulosa chiqarishi bilan tavsiflanadi. Bunday fikrlash shaklini rivojlantirishda ilmiy matnlarning o‘rni nihoyatda katta. Ilmiy matnlar aniq

ma’lumot, ilmiy tushuncha, fakt, dalil va xulosalarga asoslanganligi sababli o‘quvchini mantiqiy fikrlashga yo‘naltiradi.

Amerikalik pedagog va faylasuf Jon Dyui refleksiv fikrlashning ahamiyatini alohida ta’kidlab, uni “dalillarni va ulardan kelib chiqadigan xulosalarni hisobga olgan holda har qanday e’tiqod yoki bilim shaklini faol, izchil va ehtiyotkorlik bilan ko‘rib chiqish” jarayoni sifatida izohlaydi.[2:6] Ushbu fikrdan ko‘rinadiki, haqiqiy fikrlash tayyor ma’lumotni qabul qilish bilangina cheklanmaydi. Shaxs ma’lumotni tahlil qilishi, uning asoslanganligini tekshirishi va tegishli xulosaga kelishi lozim.

Matn tahlil qilishda, avvalo, ilmiy va badiiy matnlarning o‘quvchi tafakkurini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini aniqlash hamda ularning o‘quvchilarning fikrlash faoliyatiga ta’sirini o‘rganish nazarda tutiladi. Shuningdek, matn bilan ishlash jarayonida ilmiy-tahliliy fikrlashning asosiy komponentlarini belgilash, o‘quvchilarda tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlarni aniqlash, ularning mazmuni va samaradorligini asoslash, ilmiy va badiiy matnlar asosida interfaol metodlardan foydalanish yo‘llarini ko‘rsatish, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydigan zamonaviy pedagogik yondashuvlarni aniqlash ham ko‘zda tutiladi. Nihoyat, matn bilan ishlashning samarali shakl va usullarini taklif etish orqali o‘quvchilarning ilmiy-tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi belgilanadi.

Matn bilan ishlashda pedagogik kuzatish, tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, suhbat, matn mazmunini o‘rganish va pedagogik tajribalarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Ilmiy va badiiy matnlar bilan ishlash jarayonida o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlash asosiy metodik tamoyil sifatida belgilandi. Bunda o‘quvchiga tayyor xulosani berish o‘rniga uni savol qo‘yish, dalil izlash, muammoni aniqlash va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltirishga e’tibor qaratiladi.

Ilmiy matnlar aniq ma’lumot, tushuncha, dalil va ilmiy xulosalarga asoslanishi bilan ajralib turadi. Bunday matnlar bilan ishlash jarayonida o‘quvchi ma’lumotni shunchaki qabul qiluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi subyekt sifatida ishtirok etishi zarur. Ilmiy matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchiga “Matn nima haqida?” yoki “Matnning asosiy g‘oyasi nima?” kabi oddiy savollar bilan cheklanib qolmasdan, yuqori darajadagi fikrlashni talab qiluvchi savollar berish maqsadga muvofiq. Masalan, “Muallif o‘z fikrini qanday dalillar bilan asoslagan?”, “Matndagi qaysi ma’lumot asosiy ahamiyatga ega?”, “Muallifning xulosasi qanchalik asoslangan?”, “Ushbu fikrga qarshi qanday dalil keltirish mumkin?” kabi savollar o‘quvchini matnni chuqurroq tahlil qilishga undaydi. Mazkur savollar o‘quvchini

matnni chuqurroq o‘qishga va undagi ma’lumotlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni aniqlashga undaydi.

Ilmiy matnlar asosida taqqoslash, tasniflash, sabab-oqibatni aniqlash, jadval va sxemalar tuzish kabi topshiriqlardan foydalanish ham samaralidir. Bunday topshiriqlar o‘quvchida tahliliy fikrlashning izchilligini ta’minlaydi. Ilmiy matnning yana bir muhim jihati uning mantiqiy tuzilishidir. Odatda ilmiy matn kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo‘ladi. Har bir gap avvalgi fikrni davom ettiradi yoki uni asoslaydi, bu esa matnning yaxlitligini ta’minlaydi.[3:104]

Ilmiy matnlar bilan ishlashda “dalil – tahlil – xulosa” ketma-ketligidan foydalanish ham samarali natija beradi. O‘quvchi avvalo matndan muayyan dalilni topadi, keyin uning mazmunini izohlaydi va nihoyat mustaqil xulosa chiqaradi. Bunday faoliyat o‘quvchining mantiqiy fikrlashini rivojlantirib, o‘z fikrini dalillar asosida asoslashga o‘rgatadi.

Badiiy matn o‘quvchining estetik didi, tasavvuri, hissiy munosabati va obrazli tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Badiiy asardagi voqealar, obrazlar, konflikt va muammolar o‘quvchini turli nuqtayi nazarlardan fikrlashga undaydi. Matn ustidagi ishlarning tarkibiy bo‘lagi sujetli asarlarni qayta hikoyalash bo‘lib, bunda “asar voqealarini qayta bayon qilish emas, balki badiiy asardagi muallif qo‘llagan so‘zlardan foydalangan holda qayta hikoyalashga, asardagi so‘zlovchi shaxsini o‘zgartirib hikoyalashga, asar mazmunidagi asosiy o‘rinlarni saqlagan holda, uni qisqartirib aytib berishga, asar voqealariga o‘z shaxsiy munosabatlarini bildirgan holda hikoyalashga e’tibor berish ko‘proq samara beradi. [4:53]

Badiiy matn asosida o‘quvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan turli topshiriqlarni tashkil etish mumkin. Jumladan, o‘quvchilarga asar voqealarining muqobil yakunini yaratish, qahramon nomidan kundalik yoki maktub yozish, voqealarni boshqa qahramon nuqtayi nazaridan bayon qilish kabi ijodiy vazifalar beriladi. Shuningdek, qahramonlarning xatti-harakatlariga mustaqil baho berish, asarda ko‘tarilgan muammolarga zamonaviy yechim taklif qilish, matn mazmuni asosida savollar tuzish hamda asar mazmunini rasm, sxema yoki klaster orqali ifodalash o‘quvchilarning mustaqil, mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maktabda badiiy asarni tahlil qilishdan asosiy maqsad asarda ifodalangan hayotiy voqeani yoritish orqali o‘quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat yaratishdan iboratdir. O‘quvchilarning yozuvchi oldinga surgan g‘oya, muammolarni to‘liq tushunishlariga erishmay turib, adabiyotning yoshlarni tarbiyalashdagi vazifasini amalga oshirib bo‘lmaydi. [5:160]

Tahlil jarayonida o‘quvchidan badiiy asar qahramonining muayyan vaziyatdagi harakatini izohlash va “Agar siz uning o‘rnida bo‘lganingizda qanday yo‘l tutardingiz?” degan savolga javob berish so‘ralsa, o‘quvchi nafaqat matnni tushunadi, balki o‘z tajribasi va tasavvuriga tayangan holda mustaqil fikr yaratadi. Badiiy asarda borliqni voqelikni obrazlar vositasida tasvirlash, obyekt mazmun va subyektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun nazariy-amaliy ahamiyatga ega.

Birinchidan, badiiy asar ustida ishlashni tashkil qilishda obrazlar va muallifning asarda tasvirlangan voqealarga munosabati o‘qituvchining diqqat markazida turadi. O‘quvchilar voqelikni obrazlar orqali tasvirlashning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuna boradilar.

Ikkinchidan, har qanday badiiy asarda aniq tarixiy davrdagi voqealar tasvirlanadi. Shuning uchun asarda tasvirlangan voqealarga tarixiy yondashilgan taqdirdagina matnni to‘g‘ri tushunish, dalillar va voqealarni haqqoniy baholash mumkin. Buni tadbiq etganda, avvalo, bolalarni asarda tasvirlangan davr bilan qisqacha tanishtirish, keyin o‘quvchilarda qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakatini ular yashagan davr va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda baholashni o‘stirish zarur.

Uchinchidan, yozuvchining hayoti va qarashlarini o‘quvchilarning yoshlariga mos ravishda tanishtirish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, badiiy asarni tahlil qilishda o‘quvchilarni asarning g‘oyaviy yo‘nalishini tushunishga o‘rgatish muhimdir, bu asarni to‘g‘ri idrok etish uchun, matn ustida ishlash ko‘nikmasini, o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish uchun zarur. [6:260]

Bizning fikrimizcha, matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarda asarda aks ettirilgan hayotiy voqealar, ijtimoiy hodisalar hamda insonlar o‘rtasidagi munosabatlarga nisbatan mustaqil va shaxsiy munosabatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o‘quvchilarning muallifning hayotiy voqea va hodisalarga munosabati asarda ifodalangan konkret faktlar asosida namoyon bo‘lishini, aynan shu jihatlar asarning badiiy-g‘oyaviy mazmunini shakllantirishini anglab yetishlariga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy va badiiy matnlarni o‘zaro qiyosiy o‘rganish esa ilmiy-tahliliy va kreativ fikrlashni birgalikda rivojlantirish imkonini beradi. Bir mavzuga oid ilmiy va badiiy matnlar tanlanib, ular o‘quvchilarga taqdim etiladi. O‘quvchilar matnlarning maqsadi, mazmuni, tili, uslubi va fikrni ifodalash shakllarini qiyoslaydilar.

Masalan, tabiat hodisasiga oid ilmiy matnda ushbu hodisaning sabablari, belgilari va ilmiy xususiyatlari aniq faktlar asosida tushuntirilishi mumkin. Shu mavzudagi badiiy matnda esa ayni hodisa obrazli tasvir, o‘xshatish, sifatlash va

boshqa badiiy vositalar yordamida ifodalanadi. O‘quvchi ushbu ikki matnni taqqoslash orqali ilmiy va badiiy tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlarini anglaydi.

Bunday faoliyat davomida o‘quvchidan “Ikki matnda qanday umumiy jihatlar mavjud?”, “Ularning maqsadi nimasi bilan farq qiladi?”, “Qaysi matnda muallif o‘z fikrini faktlar orqali, qaysi matnda obrazlar orqali ifodalagan?”, “Siz ushbu mavzuni yana qanday usulda ifodalagan bo‘lardingiz?” kabi savollarga javob berish talab qilinadi. Natijada tahlil, taqqoslash, baholash va yangi g‘oya yaratish jarayonlari o‘zaro uyg‘unlashadi.

Matn bilan ishlash jarayonida interfaol metodlardan foydalanish ham o‘quvchilarning fikrlash faolligini oshiradi. Xususan, “Aqliy hujum” metodi o‘quvchilarni mavzu yuzasidan erkin fikr bildirishga undaydi. “Klaster” metodi matndagi asosiy tushuncha va g‘oyalarni tizimlashtirish imkonini beradi. “INSERT” metodi matnni o‘qish jarayonida yangi va avvaldan ma’lum bo‘lgan ma’lumotlarni ajratishga yordam beradi. “Venn diagrammasi” esa ilmiy va badiiy matnlarning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash uchun qulay vosita hisoblanadi.

Bundan tashqari, muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ham samarali hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quvchiga tayyor xulosani bermasdan, uni muayyan muammo ustida fikrlashga undashi lozim. Masalan, badiiy matndagi qahramonning qarori muhokama qilinayotganda “Siz uning o‘rnida bo‘lganingizda qanday qaror qabul qilgan bo‘lardingiz?” degan savol berilishi mumkin. O‘quvchi o‘z javobini matndan olingan dalillar bilan asoslaydi. Shu tariqa kreativ fikrlash ilmiy-tahliliy fikrlash bilan uyg‘unlashadi.

Matn bilan ishlash jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish ham muhimdir. Birinchi bosqichda o‘quvchi matn mazmunini tushunadi va asosiy fikrni aniqlaydi. Ikkinchi bosqichda matndagi ma’lumotlar tahlil qilinadi, dalillar va sabab-oqibat munosabatlari aniqlanadi. Uchinchi bosqichda o‘quvchi muallif fikrini baholaydi va o‘z munosabatini bildiradi. To‘rtinchi bosqichda esa o‘quvchidan yangi fikr, g‘oya yoki yechim yaratish talab qilinadi. Bunday yondashuv “o‘qish – tushunish – tahlil qilish – baholash – yaratish” tamoyiliga asoslanadi.

Ilmiy va badiiy matnlar o‘quvchilarning ilmiy-tahliliy hamda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta pedagogik imkoniyatlarga ega. Ilmiy matnlar o‘quvchini dalillar bilan ishlash, ma’lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash va asoslangan xulosa chiqarishga o‘rgatsa, badiiy matnlar tasavvur, obrazli tafakkur, mustaqil fikr va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Matn bilan ishlash jarayonida interfaol metodlar, muammoli savollar, qiyosiy tahlil va ochiq ijodiy topshiriqlardan foydalanish o‘quvchining ta’lim jarayonidagi faolligini oshiradi. Ayniqsa, ilmiy va badiiy matnlarni bir mavzu doirasida o‘zaro qiyoslash o‘quvchilarda turli uslub va fikrlarni

tahlil qilish, umumiy va farqli jihatlarni aniqlash hamda mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Demak, ta’lim jarayonida ilmiy va badiiy matnlardan maqsadli foydalanish nafaqat o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini, balki ularning ilmiy-tahliliy, tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu bois matn bilan ishlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar mazmunini o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini rag‘batlantiradigan tarzda takomillashtirish bugungi ta’limning muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi. **“**Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2020.
2. Dewey J. *How We Think*. Boston: D.C. Heath & Co., 1910.- 6p
3. Abdirimova I. Amaliy o‘zbek (rus) tili. O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi. Darslik. -T.: “ZEBO PRINTS”, 2026. - 104 b.
4. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 53-b.
5. Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
6. Matchonov S. va boshq. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – 260 b.
7. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. – Toshkent: Fan, 1995.

WORD-FORMATION INSTRUCTION AND VOCABULARY DEVELOPMENT IN UZBEK EFL LEARNERS

Karimbaeva Mavluda,
acting associate professor,
Tashkent International University of Financial
Management and Technologies (TIFT),
kmm.and.1974@gmail.com

Annotation. This article reports a quasi-experimental study examining the effect of explicit word-formation instruction on the vocabulary knowledge of Uzbek EFL learners. Framed against the typological contrast between analytic English and agglutinative Uzbek morphology, the study compared an experimental group receiving explicit morphological instruction with a control group taught traditionally. Pre- and post-test results on vocabulary and morphological-awareness measures show significantly greater gains in the experimental group, supporting the integration of contrastive word-formation instruction into EFL vocabulary teaching.

Keywords: word formation, morphological awareness, vocabulary acquisition, EFL, Uzbek learners, typology, explicit instruction.

Аннотация. В статье представлено квазиэкспериментальное исследование влияния эксплицитного обучения словообразованию на словарный запас узбекских учащихся, изучающих английский язык. Опираясь на типологический контраст между аналитическим английским и агглютинативным узбекским языками, исследование сравнивает экспериментальную группу, получившую целенаправленное обучение морфологии, с контрольной группой, обучавшейся традиционно. Результаты пред- и посттестирования показывают значительно более высокий прирост показателей в экспериментальной группе, что подтверждает целесообразность включения сопоставительного словообразовательного анализа в обучение лексике.

Ключевые слова: словообразование, морфологическая осознанность, усвоение лексики, английский как иностранный, узбекские учащиеся, типология, эксплицитное обучение.

Introduction

Word formation is one of the principal means by which a language renews its lexicon, and mastery of word-formation patterns is widely recognized as central to vocabulary development in a foreign language. English, an analytic Germanic language, and Uzbek, an agglutinative Turkic language, realize word formation through markedly different mechanisms: English relies extensively on zero derivation

(conversion), back-formation, and a mixture of prefixal and suffixal affixation with considerable polysemy, whereas Uzbek relies almost exclusively on regular, monosemous suffixation with high semantic transparency. This typological distance is a plausible source of difficulty for Uzbek learners of English, who may expect the same regularity and transparency in English derivation that characterizes their first language.

Previous research indicates that Uzbek EFL learners experience persistent difficulties with vocabulary knowledge due to limited exposure to English outside the classroom, and that insufficient word-formation competence negatively affects reading comprehension and academic writing at university level. Nation notes that approximately 97% of English words are morphologically complex, which underlines the pedagogical value of teaching morphology explicitly rather than relying on rote memorization of individual word meanings [3: 191]. However, it remains unclear how much explicit, contrastive instruction in word formation actually improves vocabulary outcomes for learners whose first language differs typologically from English.

The present study addresses this gap by testing whether explicit instruction in English word-formation processes measurably improves the vocabulary knowledge and morphological awareness of Uzbek university-level EFL learners, compared with traditional instruction that does not foreground morphological structure.

Methods

Participants. The study involved 40 first-year female university students enrolled in an English-medium program at Tashkent International University of Financial Management and Technologies (TIFT), studying English for approximately 18 hours per week over a 15-week academic term. Participants were divided into an experimental group (n = 20) and a control group (n = 20).

Instruments. Two instruments were used. The New Vocabulary Level Test (NVLT), adapted from McLean and Kramer's model, measured receptive and productive knowledge of high-frequency vocabulary through two ten-item sections, with a maximum score of ten points. The Morphological Awareness Test (MAT), adapted from McBride-Chang et al., comprised a five-item Morphological Structure Test and a five-item Morpheme Identification Test, each scored out of five points, assessing learners' ability to generate and segment morphologically complex words.

Procedure. Both groups completed the NVLT and MAT as a pre-test in the second week of the semester. During the 14-week intervention, the experimental group received explicit instruction in English word-formation processes, including systematic teaching of prefixes, suffixes, and roots, categorization tasks, derivational tables, and gamified revision activities, while the control group followed the standard

vocabulary curriculum without targeted morphological instruction. Both groups completed the same tests as a post-test at the end of the term. Scores were analyzed using the Statistical Package for the Social Sciences (SPSS), with descriptive statistics and paired- and independent-sample t-tests applied to pre- and post-test results.

Results

Table 1 presents the mean scores, standard deviations, and variances of both groups on the NVLT and MAT at the pre-test and post-test stages.

Test	Group	Pre-test M	Post-test M	Pre-test SD	Post-test SD
NVLT	Experimental	4.05	7.25	1.959	1.517
NVLT	Control	3.75	4.05	2.552	0.466
MAT	Experimental	6.90	8.80	1.682	1.005
MAT	Control	6.45	6.25	1.791	1.681

Table 1. Mean scores and standard deviations of the experimental and control groups on the NVLT and MAT.

Мұндай тәрбиенің басты ерекшелігі – отансүйгіштікті тек ұран немесе формалды түсінік ретінде емес, адамның нақты өмірлік ұстанымына айналдыру. Нағыз патриотизм туған елді сүюмен бірге оның дамуына үлес қосу, қоғам алдындағы жауапкершілікті сезіну, өз мәдениетін құрметтеу және басқа мәдениеттерге құрметпен қарау арқылы көрінеді.

Осы тұрғыдан алғанда түркі халықтары әдебиетін оқыту студенттерге бір мезгілде екі маңызды дүниені түсінуге мүмкіндік береді: біріншісі – өзінің ұлттық болмысын тану, екіншісі – ортақ түркілік мәдени кеңістіктің ерекшелігін түсіну. Бұл ұстаным ұлттық сана мен мәдени ашықтықтың қатар қалыптасуына жағдай жасайды.

Түркі халықтары әдебиеті – студенттердің ұлттық сана-сезімі мен отансүйгіштік құндылықтарын қалыптастырудың маңызды рухани-педагогикалық ресурсы. Оның тәрбиелік қуаты халықтың тарихи тәжірибесін, мәдени жадын, моральдық ұстанымдарын және ұлттық дүниетанымын көркемдік тұрғыдан жеткізуімен байланысты.

Қазақ, өзбек және басқа да түркі халықтарының әдеби мұрасын өзара салыстыра оқыту арқылы студенттер ортақ рухани құндылықтарды, тарихи сабақтастықты және ұлттық ерекшеліктерді терең түсіне алады. Сонымен қатар шығармаларды заманауи педагогикалық әдістермен және цифрлық технологиялармен ықпалдастыра оқыту әдеби білім берудің мазмұнын жаңартып, студенттің белсенді оқу әрекетін күшейтеді.

Сондықтан қазіргі жоғары білім беру жүйесінде түркі халықтары әдебиетін тек эстетикалық немесе теориялық пән ретінде ғана емес, ұлттық сана, азаматтық жауапкершілік және отансүйгіштік құндылықтарды қалыптастыратын тәрбиелік кеңістік ретінде қарастырудың маңызы зор. Әдеби шығарма арқылы өткенді таныған, ұлттық құндылықтарды бағалай білетін және болашаққа жауапкершілікпен қарайтын студент – қоғамның рухани әрі әлеуметтік дамуына үлес қоса алатын тұлға.

Пайдаланылған әдебиеттер тізімі:

1. Әуезов М. *Әр жылдар ойлары.* Алматы: Жазушы, 2011.
2. Бердах. *Танламалы шығармалары.* Нөкіс: Қарақалпақстан, 1991.
3. Келімбетов Н. *Ежелгі дәуір әдебиеті.* Алматы: Ана тілі, 1991.
4. Нәжімеденов Ж. *Ежелгі түркі әдебиетінің антологиясы.* Алматы: 2005.
5. Қоңыратбаев Ә. *Түркі шежіресі.* Алматы: Жасушы, 1994.
6. Чулпон А. Асарлар *(Шығармалар жинағы).* Ташкент: Шарқ, 1994.

HAMDNING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Iskandarov Fayzulla Mashrabovich,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent, Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU,
@mafayzullaiskandarov

Mustaqillik yillarida o‘zbek adabiyotshunosligida diniy-tasavvufiy mavzudagi asarlarni xolis o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ldi. N.Komilovning tasavvuf talqinlari, I.Haqqulning Navoiy va Yassaviy ijodiga oid tadqiqotlari, Y.Is’hoqovning mumtoz poetikaga bag‘ishlangan ishlari bu yo‘nalishda muhim qadam bo‘ldi. Ayniqsa, Sharq mumtoz adabiyoti namunalari bo‘lgan asarlarni tasavvuf ta’limoti asosida tekshirish, Qur’oni karim va hadislarga asoslanib sharhlash, ijodkor adabiy-estetik qarashlarini o‘rganish, diniy-tasavvuviy dunyoqarashlarini tushunishda muhim vositaga aylandi. Sababi musulmon Sharqi xalqlari madaniyati islom ma’rifati bilan sug‘orilgan va bu ma’rifatning ta’siri, ayniqsa, inson his-tuyg‘ulari va ilhomining mahsuli hisoblangan badiiy adabiyotda yorqinroq namoyon bo‘ladi. Sharq, xususan, o‘zbek adabiyotining tadrijiy takomilida islom falsafasi, nubuvvat masalasi va islomiy ma’rifat ta’sirida shakllangan hamd, tavhid, munojot, Asmoyi husna, tafsir, siyrat, me’rojnoma, shafoatnoma, axloq un-nabiy, hijrat un-nabiy, g‘azavot un-nabiy, vafot un-nabiy, mavlid, arba’in va qisas ul-anbiyo kabi asarlarning o‘rni beqiyosdir.

Sharqda kitob bitish “adabi tasnif”iga ko‘ra har bir doston, devon yoki nasriy asar Yaratganga hamd aytilmasdan boshlanmagan. Bu odat shunchaki rasmiy an’ana emas, balki ijodkorning dunyoqarashi, e’tiqodi va badiiy tafakkurini ifoda etuvchi adabiy-estetik hodisadir. Hamd mumtoz asarning “ochqichi” bo‘lib, kitobxonni ijodkorning ma’naviy olamiga olib kiradi, muallifning so‘z va ijod haqidagi qarashlarini dastlabki baytlardayoq namoyon etadi.

“Hamd” (حمد) so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, “maqtash, olqishlash, sano aytish, shukr qilish” ma’nolarini anglatadi. Arab tilshunosligida hamd ma’nodosh so‘zlar – *madh*, *sano* va *shukr* bilan qiyoslab izohlanadi. Rog‘ib Isfahoniy “Al-Mufradot fi g‘aribil-Qur’on” asarida hamdni “fazilat uchun Allohni maqtash” deb ta’riflaydi va uning madhdan xosroq, shukrdan esa umumiyroq ekanini ta’kidlaydi. Ya’ni madh ixtiyoriy va ixtiyorsiz sifatlarga ham aytiladi (masalan, inson husni yoki bo‘yi uchun), hamd esa faqat ixtiyoriy kamolot va ezgulik uchun aytiladi. Shukr faqat ko‘rsatilgan ne’mat evaziga bo‘ladi, hamd esa ne’mat bo‘lsa ham, bo‘lmasa ham, Zotning o‘z kamoloti uchun aytiladi.

Forsiy va turkiy tillarga hamd so‘zi islom bilan birga kirib, o‘z ma’nosini saqlagan holda yangi ma’nodosh qatorlar bilan boyidi: forsiyda *sitoyish*, *niyoyish*,

sipos, turkiyda *alqish*, *ögdi* (maqtov), *sano*. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida hamdni duo va olqish ma’nosida *alqış* so‘zi bilan ko‘rsatadi.

Mumtoz hamdlarning bevosita nazariy va badiiy manbayi – Qur’oni karimdir. “Hamd” so‘zi va uning o‘zakdoshlari Qur’onda o‘nlab o‘rinlarda qo‘llangan. Eng muhimi shundaki, Qur’onning o‘zi hamd bilan ochiladi. “Fotiha” surasining ikkinchi oyati: *Al-hamdu lillahi Robbil-’olamiyn* – “Hamd olamlarning Robbi bo‘lmish Allohgadir” (Fotiha, 1:2). Kalomullohning birinchi so‘zlari aynan hamd bilan boshlanishi qalam ahli uchun ijodiy namuna – *o‘rnak* bo‘ldi: muqaddas Kitob hamd bilan ochilgan ekan, inson yozgan har qanday kitob ham shu yo‘ldan borishi lozim, degan tushuncha qaror topdi.

Qur’onda yana to‘rtta sura “al-hamdu lillah” kalimasi bilan boshlanadi: An’om (6:1), Kahf (18:1), Saba’ (34:1) va Fotir (35:1). Bu suralar mazmun-mohiyati bilan bevosita yaratilish (*xalq*) bilan bog‘lanadi. Aynan shu bog‘liqlik – Allohni yaratgan olami orqali ulug‘lash – mumtoz hamdlarning asosiy kompozitsion tamoyiliga aylangan: shoirlar hamdda osmon, yer, yulduzlar, tun va kun, nur va zulmat tasviriga keng o‘rin berishgan. Qur’onda *“Va in min shay’in illa yusabbihu bihamdih”* – “Hech bir narsa yo‘qki, Uni hamd bilan poklab yod etmasa” (Isro, 17:44). Ushbu oyat mazmunidan ko‘rinadiki, hamdlarning markaziy g‘oyasiga – butun borliqning, har bir zarraning Yaratganni o‘z tilida madh etishi lozimligi uqtiriladi. Buyuk sharq klassiklari Attor, Rumiy, Navoiy asarlarida qushlar, gullar, daraxtlar, hatto toshlarning zikr aytishi motivi aynan shu oyatga borib taqaladi. Tasavvufiy timsollarning tub negizida ham aslida, haqni ulug‘lash, madh etish bilan bog‘liq shoirlarimizning diniy-tasavvufiy qarashlari, bilim va tasavvurlari aks etadi.

Hamdlarning ikkinchi manbasi payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam hadislari hisoblanadi. Hadislarda hamdning fazilati va uning har bir ishni boshlashdagi ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Jumladan, quyidagi hadis sharqdagi debocha an’anasida hamdlarning muqim o‘rin olishiga asos bo‘lgan: “Kullu amrin ziy bolin la yubda’u fiyhi bil-hamdi lillahi fahuva aqta” – “Hamd bilan boshlanmagan har bir muhim ish (barakadan) kesikdir” (Abu Dovud, Ibn Moja rivoyati).

Bu hadis bevosita keyingi davr ijodkorlari tomonidan ijodiy qoida sifatida qabul qilinib, asarlarining muqaddimasidan mustahkam o‘rin olib, har bir asarni hamd bilan boshlash an’anasi “adabi tasnif”ga aylandi. Shu tariqa hamd shunchaki odat emas, balki *sunnat* – Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam ko‘rsatgan yo‘lga ergashishning yorqin isboti edi.

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning *“Ahmad”, “Mahmud”* va *“Muhammad”* ismlari hamd o‘zagidan yasalgan bo‘lib, Haqqa to‘xtovsiz hamd aytuvchi degan ma’noni anglatadi. Hadisi shariflarda qiyomat kunidagi *“Liva’ul-hamd”* (Hamd bayrog‘i) va *“Maqomi mahmud”* (Maqtalgan maqom) haqidagi

bashoratlar ham adabiyotda keng talqin qilingan. Aynan shu tushunchalar orqali shoirlar hamddan na'tga mantiqiy va obrazli o'tishni amalga oshirganlar: Allohga hamd aytgan banda, tabiiy ravishda, "Ahmad" nomli, "Hamd bayrog'i" sohibi bo'lgan Payg'ambarni madh etishga o'tadi.

Hamd so'zi istilohiy ma'noda mumtoz adabiyotda – Allohning birligi, qudrati, sifatlari va ne'matlarini ulug'lab yozilgan she'riy yoki nasriy asar, shuningdek, katta hajmli asarlar boshida keladigan an'anaviy muqaddima qismdir. Y.Is'hoqov "So'z san'ati so'zligi" asarida hamdni Allohni ulug'lash va Unga shukronalik izhor etish maqsadida yaratilgan asar deb ta'riflab, uning mumtoz asarlar debochasida munojot va na't bilan birga kelishini alohida qayd etadi.

Mumtoz adabiyotda hamd bilan yondosh, ammo vazifasi jihatidan farqlanadigan bir qator istilohlar mavjud:

Istiloh	**Mazmuni**	**Murojaat yo'nalishi**
Hamd	Allohni sifatlari va ne'matlari uchun ulug'lash	Banda → Alloh (vasf)
Tavhid	Allohning yagonaligini isbotlash va tasdiqlash	Falsafiy-aqidaviy
Munojot	Allohga iltijo, tavba, kechirim so'rash	Banda → Alloh (iltijo)
Na't	Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam madhi	Banda → Rasul
Me'roj	Payg'ambarning me'roj kechasi tasviri	Na'tning bir ko'rinishi
Madh	Hukmdor yoki sahoba, avliyo madhi	Banda → inson

Jadvaldan ko'rinadiki, biz o'rganayotgan hamd, mavzu va janriy tushuncha o'laroq, arab adabiyotda janr sifatida o'rganilsa, forsiy va turk adabiyotida mavzu va janriy shakllar ifodasi tarzida tadqiq etiladi. Munojot, na't, me'roj kabi janriy shakllar mavzu motiviga ko'ra bir-biriga eng yaqin ijodiy hodisalar bo'lsa-da, hamdda shoir Yaratganning ulug'ligini *madh* etadi, munojotda esa o'zining ojizligini *iqror* etsa, na'tlarda Rasulullo vasfi bayon etiladi.

Hamdning ildizlari islomdan ancha avvalgi davrlarga – insoniyatning ilk diniy-mifologik tasavvurlariga borib taqaladi. Yaratuvchi kuchni ulug'lovchi madhiyalar deyarli barcha qadimgi madaniyatlarda mavjud bo'lgan. Hamdning genetik asoslarini turkiy-forsiy madaniy makon misolida quyidagi bosqichlarda kuzatish mumkin.

Birinchi bosqich: *eng qadimgi madhiyalar*. Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”dagi madhiya-qo‘shiqlar, hudolarni ulug‘lovchi turli she’riy parchalar hamdning dastlabki yozma adabiyotdagi namunalariga misol bo‘ladi.

Ikkinchi bosqich: *qadimgi turkiy diniy-mifologik matnlar*. Qadimgi turklarning Tangri haqidagi tasavvurlari Urxun-Enasoy bitiglarida aks etgan. “Kul tigin” va “Bilga xoqon” bitiglarida voqealar ko‘pincha “Tangri yorlaqagani uchun” iborasi bilan bog‘lanadi. Bu ibora, garchi hamd janri bo‘lmasa-da, har bir ishni oliy ilohiy irodaga nisbat berish, muvaffaqiyatni Tangrining marhamati deb bilish dunyoqarashini aks ettiradi.

Uchinchi bosqich: *qadimgi uyg‘ur moniy va buddaviy madhiyalari*. VIII–X asrlarga oid moniy va buddaviy uyg‘ur yodgorliklarida (masalan, moniylarning tavba duosi “Xuastuanift”, turli madhiya parchalari) ilohiy zotni ulug‘lash, gunohdan kechirim so‘rash, nurni madh etish motivlari mavjud. Ularda takrorlanuvchi murojaatlar, nur va zulmat ziddiyati, “ulug‘ zot”ga sig‘inish ohangi kuzatiladi. Turkiy she’riyatdagi madhiya ritmikasi va obrazliligi, ayniqsa nur obrazi, keyinchalik islomiy hamd va munojotlarga ham o‘tgan, deb hisoblash uchun asoslar bor.

To‘rtinchi bosqich: *islomiy hamd an’anasining shakllanishi*. VII–IX asrlarda islom dini va arab tili orqali hamd yangi, aniq aqidaviy mazmun kasb etdi: u endi ko‘p xudolik yoki dualizm ruhidagi madhiya emas, balki *tavhid* – yagona Allohni ulug‘lash vositasiga aylandi. IX–X asrlarda shakllangan forsiy-tojik adabiyoti (Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy) va XI asrda yuzaga kelgan islomiy turkiy adabiyot (“Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit-turk”, Yassaviy “Devoni Hikmat”) hamdni yozma adabiyotning taqozoviy qismiga aylantirdi.

Hamd va she’riy shakllar

XV asrgacha bo‘lgan turkiy-forsiy adabiyotda hamd quyidagi shakllarda yaratilgan:

She’riy shakl	**Hamdning o‘rni va xususiyati**	**Namunalar**
Masnaviy	Doston debochasining birinchi bobi; keng hajmli, kompozitsion jihatdan murakkab	Firdavsiy, Sanoiy, Nizomiy, Attor, Navoiy “Xamsa”si
Qasida	Mustaqil tavhid-hamd qasidalari; yuksak pafos	Sanoiy, Xoqoniy, Navoiyning forsiy “Ruh ul-quds” qasidasi
G‘azal	Devonning birinchi g‘azali; ixcham, lirik	Lutfiy, Navoiy devonlari
Ruboiy	Falsafiy-tasavvufiy hamd; aforistik	Abu Sa’id Abulxayr,

She'riy shakl	**Hamdning o'rni va xususiyati**	**Namunalar**
	ixchamlik	Attor, Navoiy ruboiylari
Hikmat	Xalqona, zikr bilan qorishiq	Ahmad Yassaviy "Devoni hikmat"i
Tarji'band / tarkibband	Takroriy band orqali tavhid g'oyasini kuchaytirish	Forsiy irfoniy she'riyat
Nasriy debocha	Saj' (qofiyali nasr) bilan, she'riy parchalar aralash	Sa'diy "Guliston", Rabg'uziy, Navoiyning nasriy asarlari

Xulosa qilib aytganda, hamd lug'aviy va istilohiy ma'nolarga ega tushuncha bo'lib, mumtoz adabiyotda muqaddima boblarning bir qismi bo'lib, ijodkorlarning adabiy-estetik, diniy-tasavvufiy hamda falsafiy qarashlari, bilim va tasavvurlarini o'rganishda muhim vosita hisoblanadi. Hamdlarni o'rganish va tadqiq etish adabiyotshunosligimizning dolzarb masalalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Toshkent islom universiteti.
2.Abu Dovud. Sunan.
3.Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat.
4.Is'hoqov Y. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983.
5.Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: Zarqalam, 2006.
6.Uzun M. "Hamdele", "Münâcât", "Tevhid" maddeleri // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. – İstanbul: TDV.

ALISHER NAVOIYNING DO‘STLIK TUYG‘USIGA MUNOSABATI

Raxmanova Nafisa Azatbekovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi,
n.raxmanova@cspu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xusrav, Shirin va Farhod sevgisi qalamga olingan Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Orif Ardabiliy va Alisher Navoiy asarlaridagi Shopur obrazlari misolida mualliflarning do‘st, do‘stlik tushunchalariga munosabati tahlilga tortilgan.Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod bilan Shopurning do‘stligi xos insonlar, ya’ni abrorlar do‘stligining go‘zal namunasi ekanligi isbotlab berilgan.

Kalit so‘zlar: do‘st, Xusrav, Farhod, Shopur, abror, xos insonlar do‘stligi.

Abstract. This article analyzes the authors' attitude to the concepts of friend and friendship using the images of Shapur in the works of Nizami Ganjavi, Shapur Dehlavi, Arif Ardabili and Alisher Navoi, which depict the love of Khusrav, Shirin and Farhad. It has been demonstrated that the friendship between Farhad and Shopur in Navoi’s epic poem “Farhad and Shirin” serves as a beautiful example of the friendship between noble individuals—that is, the righteous (“abror”).

Keywords: friend, Khusrav, Farhad, Shapur, noble individuals, friendship of the righteous.

Shopur obrazini “Xusrav va Shirin” dostoni sujetiga birinchi bo‘lib ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy olib kirgan. Shu tariqa bu obraz “Xusrav va Shirin”, “Farhod va Shirin” deb ataluvchi mashhur sevgi dostonlarining bosh qahramoniga aylandi. Shopur Nizomiy va Xusrav Dehlaviy asarlarida Xusrav Parvezning, Orif Ardabiliy bilan Alisher Navoiy dostonlarida Farhodning do‘sti sifatida keladi. Bu obrazlarni qiyosiy o‘rganganimizda mualliflarning *do‘stlik, do‘st* haqidagi tasavvurlarida farq borligi kuzatildi. Bosh qahramoni xudbin va maishatparast Xusrav bo‘lgan asarlarda avom do‘stligi qalamga olingan, uning do‘sti Shopur mukammal inson emas, yutuq va kamchiliklari bilan Xusrav Parvezning oynadagi aksiday taassurot qoldiradi. Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida qalamga olingan Farhod bilan Shopurning do‘stligi esa go‘zal fazilatlar asosiga qurilgan xoslar do‘stligidir, aniqroq qilib sharhlasak, abrorlar qalbidagi majoziy ishqning bir ko‘rinishi bo‘lgan ilohiy ne’matdir.

Do‘st so‘ziga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shunday ta’rif beriladi: “**Do‘st** – *forscha:* shafqatli o‘rtoq, yor, oshna, mahbub(a); qarashlari, dili, ish faoliyati yaqin

bo‘lgan, inoqlik, ahillik bilan bog‘langan ikki va undan ortiq kishining har biri” [2:677].

Tasavvuf atamalari lug‘atida bu so‘zning ma’nolari yana-da chuqurroq izohlangan:”**Do‘st** -*fors*. Yor, sevgili, o‘rtoq, ahbob, muhabbat va sevgi. Bandasining Allohni sevishidan avval azaldan Allohning o‘z bandasini sevishi va do‘st deb bilishi. Haq eranlari jonlari siqilganda va yolg‘izlikdan qutulishni istaganlarida “Yo Do‘st!”, “Haq Do‘st!” deydilar. Bu murojaatlar “Alloh o‘z do‘stini tashlab qo‘ymaydi” ma’nosida qo‘llanadi. Zotan, “Zunar” surasining 36-oyatida “Alloh o‘z bandasiga yetarli emasmi?” deyiladi [7:110]. Alisher Navoiy ham o‘z asarlarida “do‘st” so‘zini “yaqin o‘rtoq, qalin oshna”, “mehribon yor”, “mahbuba”, “ma’shuqa”, “xudo” ma’nolarida qo‘llaganlar [2:521].

Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostonidagi Shopur - juda murakkab obraz. U shunchaki rassom yoki oddiy saroy xizmatchisi emas, balki Xusravning do‘sti va sirdoshi, shuningdek, mohir siyosatchi, mashhur sayohatchi, iste’dodli qissago‘y va tajribali ruhshunos. Xusravning barcha ishqiy sarguzashtlarida ishtirok etadi: shahzoda Xusrav bir dehqonning uyida qilgan nomaqbul ishlari uchun otasi Xurmuz tarafidan qattiq jazolanadi. Suyukli kanizagidan ajralib, tushkunlikka tushgan paytida Shopur uning ko‘nglini ko‘tarish maqsadida Shirin haqida so‘zlab beradi, qizning go‘zalligini shunday tasvirlaydiki, natijada Xusrav Shiringa g‘oyibona oshiq bo‘lib qoladi – alaloqibat, kanizagini unutadi. Shopur Arman zaminiga elchi sifatida keladi va rohib qiyofasiga kirib, avval o‘zi chizgan Xusravning rasmi bilan, keyin sehrli so‘zlari bilan Shirinni shunchalik sehrlaydiki, Shirin ham Xusravning o‘zini ko‘rmasdan unga oshiq bo‘ladi. Shopur ta’sirida Shirin umridagi eng katta xatoga yo‘l qo‘yadi: o‘z yurtini, xolasini va do‘stlarini tashlab, Madoyinga qochadi. Qasri Shirinda yolg‘iz qolgan kunlarida Shopur uning ishonchiga kirib, sirdoshiga aylanadi.

Shopur mohir rassom bo‘lsa-da, ma’naviyati kambag‘al inson. Maryamning o‘limidan so‘ng azador shohga taqdirga ko‘nib, marhumaning hurmatini saqlash o‘rniga, Shiringa uylanishni taklif qilıshı, Shirin nikohsiz sevgini rad etganida esa, “U bo‘lmasa, boshqasi” deb, Isfahon malikasi Shakarga uylanıshga undashi va Xusravning buzuq ongini yanada chalg‘itishi Shopurning eng zaif va eng nuqsonli tomoni hisoblanadi. Do‘st sifatida Xusravga bir marta ham ijobiy ta'sir ko‘rsatmaydi. Xusrav esa Shopurdan xohlaganicha foydalanadi, aniqrog‘i, do‘stiga sevgi vositachisi sifatida qaraydi. Bu Xusravning Shopur bilan suhbatlashish uslubi va uning ifoda shaklida aniq ko‘rinadi [7].

Dehlaviyning dostonida Shopur - Xusravning xos nadimi va roviysi, iste’dodli rassom. Voqealar silsilasida ko‘p qatnashmaydi, Nizomiyning Shopuriga nisbatan passivroq obraz. Xusrav qo‘mondon Bahrom Cho‘bin bilan bo‘lgan jangda yengilib, Madoyinni tashlab ketayotgan lavhada o‘quvchi roviy Shopur bilan yuzlashadi. U

mag‘lubiyatdan ezilgan shahzodaga hikmatlar, afsona-yu naqllarni shunday mahorat bilan so‘zlab beradiki, natijada yo‘llar qisqa tuyuladi, aql mot bo‘ladi. U Chin, Xitoy, Rum va boshqa o‘lkalarda ko‘rgan go‘zalliklar haqida so‘z ochib, eng hayratlisi Chinda tahsil olgan bir ajamlik naqqosh tarafidan Shirinning ipakka tushirilgan rasmi bo‘lganini ta’kidlaydi. Bu go‘zallikning nusxasini qog‘ozga tushirib olganini aytib, uni Xusravga ko‘rsatadi. Shopurning Xusravga qilgan bu yaxshiligi va sadoqati mukofotsiz qolmaydi: u Shirinning kanizagi Mushtariyga uylanadi.

Dehlaviyning Shopuri ham ma’naviy yetuk inson emas. O‘tkinchi havasni sof muhabbatdan, nafsoniy va shaytoniy sevgini rahmoniy sevgidan farqlay olmaydi. Shohrud sohilidagi ziyofatda iffatli Shirin nikohsiz yaqinlikni rad etganida, Shopur do‘sti Xusravga sovchilarni jo‘natib, nikoh o‘qitishni maslahat bermaydi. Aksincha, shohlik g‘ururini yerga urmasdan, unga g‘oyibona oshiq bo‘lib yurgan isfahonlik Shakarga uylanishni taklif etadi. Shopurning sa’y-harakatlari tufayli kohin Xusrav bilan Shakarni zardushtiylik dini odatlariga ko‘ra nikohlab qo‘yadi, Shirin esa bilvosita Shakarning qotiliga aylanadi [4].

Orif Ardabiliyning ikki qismdan iborat “Farhodnoma”sidagi Shopur – abxaziyalik mashhur rassom. U Chin shahzodasi sharafiga qurilgan qasr devorlariga dunyo go‘zallarining rasmlarini chizadi. Qoranning qizi Gulistonning rasmiga mahliyo bo‘lib qolgan shahzoda Farhod bilan do‘stlashadi. Asarning “Farhod va Guliston” qismidagi Shopur - har tomondan yetuk inson. U do‘sti Farhodni o‘limdan qutqaradi, Abxaziyada o‘z baxtini topishiga yordam beradi. Farhodning pok sevgisini qadrlab, uni har qanday vaziyatda qo‘llab-quvvatlaydi. “Farhod va Shirin” deb ataluvchi ikkinchi qismdagi Shopur esa beva Farhodning tubanlik botqog‘iga botishiga yo‘l qo‘yib beradi. Do‘stining Xusravga unashtirilgan Shirin bilan xufyona uchrashuvlariga qarshi chiqmaydi, aksincha, o‘zi Farhodni Madoyinga boshlab keladi. Shirinning hirs to‘la sevgisi tufayli Farhod qotillikka qo‘l uradi [5]. Qiyosiy tahlildan ko‘rinib turibdiki, uchala asardagi Xusrav va Shopur do‘stligi avom do‘stligidan boshqa narsa emas.

Navoiyning Shopuri - na qissaxon, na Xusravning bolalikdan hamrohi. Navoiy ularni tasodifan kemada uchrashtiradi. Farhod kema ahlini qaroqchilardan qutqarganida Shopur Farhod bilan qiziqib qoladi. Shopur rassomligi bilan tanilgan go‘zal qalb egasi edi. Hatto Farhodning ustozi Moniy unga o‘z ishlarini ko‘rsatib rassomlikka yorliq so‘raganida undan yorliq ololmagan, chunki Shopur Moniyning rasmlaridan qoniqmagan edi. Ana shunday buyuk iste’dod va nozik did egasi nimadandir qattiq azob chekayotgan Farhodga do‘stlik va yordam qo‘lini cho‘zadi. Abu Homid G‘azzoliyning quyidagi o‘giti Shopurning bu harakatini izohlab beradi: “Kuching yetsa, hojat chiqar, do‘stingga yordam ber, dardini ol, g‘amdan qutqar, musibat yo‘liga devor bo‘l. Kenglikka yetishganingda yaxshilik qil, ey shunqor!

Sening ham kuning kelar hojatga intizor" [6:309]. Shopur do‘stining eng og‘ir damlarida yordamga keladi: Arman yurtiga boshlab boradi, ariq qazish ishlarida yordamlashadi, Shirinni yaqindan ko‘rib hushidan ketgan Farhodni bag‘riga bosib yig‘laydi, Farhodni hushsiz qilgan shumkampirni o‘ldiradi, Salosil qo‘rg‘onida hibsda saqlanayotgan do‘stini qidirib topadi, uning maktubini Shiringa yetkazadi. "So‘zi pok-u o‘zi pok" sodda Farhodni o‘limdan qutqara olmaganidan vijdon azobida qoladi. Shopurning asar oxirida Bahrom bilan birga Farhod qabriga mujovir bo‘lib qolishi chin do‘st do‘stining vafotidan keyin ham uning xotirasiga sodiq qolishini isbotlaydi. Bu bilan Navoiy chin do‘stlik go‘zal qalblar birlashuvidan hosil bo‘luvchi ilohiy tuyg‘u ekanini ta’kidlaydi.

Voqealar rivojida Shopur Farhoddan ta’sirlanib, o‘zidagi barcha go‘zal fazilatlarni rivojlantiradi. Do‘stlik, ezgulik, odamiylik yo‘lidagi qoyimligi tufayli Mehinbonu va Shirinning mehrini, ishonchini qozonadi. Shirin Farhodga yozilgan maktublarini faqat Shopurga ishonadi. Mehinbonu, Shirin, Bahrom, hatto Sheruya ham qiyin vaziyatlarda donishmand Shopurdan maslahat so‘raydilar,

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida shunday yozadi:" Do‘st visolin tilar bo‘lsang oshiq bo‘l va o‘zlugung bila bo‘la olmasang, oshiqlar tegrasida o‘gril, oshiqlar atrofida aylan. Ul o‘t shu’lasi agar senga havasdur, bir uchqun sening sari yuzlansa basdur" [3:164]. 27-tanbehdagi do‘st so‘zi "Alloh" ma’nosida kelgan. Shopur ham Allohning oshig‘i, shu tufayli oshiq Farhodga hamroh bo‘lishni, Farhodning butun vujudini qamrab olgan o‘t shu’lasining bir zarrasi unga yuzlanishini istadi. Zotan, Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) do‘stning hojatini chiqarish haqida shunday deganlar: "Kimda-kim musulmon birodariga yordam berish, biron bir foyda keltirish uchun yo‘lga chiqsa, Unga Alloh yo‘lida jihod qilganlar savobi tegadi". Yana bir hadisda shunday deyiladi: "Rasulullоh dedilar: "Kimki musulmon qardoshi bilan uning ehtiyojini ta’minlash maqsadida yursa va unga nasihat qilsa, Alloh taolo u bilan Jahannam orasiga yetti xandaq qo‘yadi va bu xandaqlar orasidagi masofa yer bilan osmon o‘rtasidagi masofaga teng bo‘ladi"" [6:307]. Shu sababdan Shopur Farhodga hamroh bo‘lib bosib o‘tadigan yo‘lini jannatga olib boruvchi yo‘l deb hisoblaydi:

Sen ersang hamrahim jannat durur yo‘l,
G‘araz bu ersa bismillah ravon yo‘l.

Allohga eltuvchi yo‘llarning adadi cheksiz. Shu yo‘llarning biri do‘stlik deb ataladi. Sof va sadoqatli do‘stlik ikki toifa insonlarga xosdir: 1) go‘zal fe’l va axloq bilan bezangan oddiy insonlarga; 2) xoslarga, ya’ni ulug‘ zotlarga. Navoiyning nazdida haqiqiy do‘stlik "pok ko‘zni pok nazar bilan pok yuzga solmoqdir", ya’ni solih insonning do‘sti ham solih bo‘ladi, pok insonning do‘sti ham pok bo‘ladi. Farhod qalbini tavhid nuri, Alloh bilan birga bo‘lish istagi bilan poklagan, nafsi

ammorani jilovlay olgan go‘zal fe’l-atvorga ega tariqi abrordir. Shu sababli uning dosti Shopurni ham ichki va tashqi taqvoga amal qiluvchi abrorlar safiga qo‘shsak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин.МАТ. 20 томлик, 8-том. – Т.: “Fan”, 1991.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 jildlik. / 1-jild.-T., 1983.
3. Alisher Navoiy.Mahbub ul-qulub. Muhokamat ul-lug‘atayn. – T,: G‘afur G‘ulom, 2021.
4. Əmir Xosrov Dəhləvi. Şirin və Xosrov. -Bakı, “Avrasiya Press”, 2006.
5. Ardabiliy, Orif. Farhodnoma. – Baku, 2007.
6. G‘azzoliy, Abu Homid. Mukoshafat ul-qulub: qalblar kashfiyoti. – T.: “Munir”, 2023.
7. Uludağ, Süleyman. Tasavvuf terımlerı sözlüğü.-Istanbul, Kabalcı yayıncılık, 2016.
8. Shayx Nizomiy Ganjaviy.Xusrav va Shirin/ Jamol kamol tarjimasi. – T.,2018.

O‘QUVCHI MA’NAVIY KAMOLOTINI TA’MINLASHDA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYASINING O‘RNI

Shermatova Umida Sapayevna
ChDPU O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi
dotsenti, p.f.fd. (PhD),
Tel: +99899 640 76 02
E-mail: shermatovau9@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o‘quvchi ma’naviy kamolotini ta’minlashda muammoli ta’lim texnologiyasining imkoniyatlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Ma’naviy kamolot «anglash – qadrlash – amal qilish» uch tarkibli jarayon sifatida talqin etilib, muammoli vaziyat uning har bir tarkibini faollashtiruvchi didaktik vosita sifatida asoslanadi. Muallif tomonidan adabiy ta’lim materiali asosida ma’naviy muammoli vaziyatlar tasnifi, besh bosqichli «Muammo – qadriyat – tanlov» modeli, ma’naviy kamolot darajalari tasnifi hamda muammoli darsni loyihalash namunasi taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: ma’naviy kamolot, muammoli ta’lim, muammoli vaziyat, ma’naviy tanlov, qadriyat, adabiy ta’lim, munozara, refleksiya, ma’naviy kamolot darajalari.

Аннотация. В статье теоретически и практически анализируются возможности технологии проблемного обучения в обеспечении духовного совершенствования учащихся. Духовная зрелость рассматривается как трёхкомпонентный процесс «осознание – ценностное отношение – действие», а проблемная ситуация обосновывается как дидактическое средство, активизирующее каждый из этих компонентов. Автором предлагаются классификация духовно-нравственных проблемных ситуаций на материале литературного образования, пятиэтапная модель «Проблема – ценность – выбор», классификация уровней духовной зрелости и пример проектирования проблемного урока.

Ключевые слова: духовная зрелость, проблемное обучение, проблемная ситуация, нравственный выбор, ценности, литературное образование, дискуссия, рефлексия, уровни духовной зрелости.

Abstract. The article analyses, in theory and in practice, the potential of problem-based learning technology for ensuring the spiritual maturity of pupils. Spiritual maturity is interpreted as a three-component process of “understanding –

valuing – acting", and the problem situation is substantiated as a didactic tool that activates each of these components. The author proposes a classification of moral problem situations drawn from literary education, a five-stage "Problem – Value – Choice" model, a classification of levels of spiritual maturity and a sample design of a problem-based lesson.

Keywords: spiritual maturity, problem-based learning, problem situation, moral choice, values, literary education, debate, reflection, levels of spiritual maturity.


Bugungi kunda axborot oqimi nihoyatda kuchaygan, qadriyatlar o‘rtasidagi to‘qnashuvlar tobora ko‘payib borayotgan global muhitda yosh avlod ma’naviy kamolotini ta’minlash ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, ta’lim sifati va yoshlar bilan ishlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlari sifatida belgilangani ham shundan dalolat beradi [10].

Biroq amaliyotda ma’naviy tarbiya ko‘pincha tayyor axloqiy qoidalarni tushuntirish va yodlatish bilan cheklanib qoladi. Natijada «bilish» bilan «yashash» o‘rtasida uzilish yuzaga keladi: o‘quvchi halollik, adolat va sadoqat haqida to‘g‘ri gapiradi, ammo bu qadriyatlar uning o‘z oldida real tanlov sifatida turganda qiynaladi. Holbuki, ma’naviy kamolot aynan ikki qadriyat to‘qnash kelgan, osonlik bilan javob topilmaydigan vaziyatda sinaladi. Abdulla Avloniy tarbiyani millat taqdiri bilan bog‘lab, uni ta’limning eng muhim vazifasi sifatida ko‘rgan edi [1].

Ana shu ziddiyatni bartaraf etishda muammoli ta’lim texnologiyasi alohida imkoniyatlarga ega. Chunki muammoli vaziyat o‘quvchini tayyor xulosani qabul qiluvchi emas, balki ziddiyat ichida o‘z pozitsiyasini izlovchi, tanlov qiluvchi va tanlovi uchun javob beruvchi shaxsga aylantiradi. Maqolaning maqsadi – muammoli ta’lim texnologiyasining o‘quvchi ma’naviy kamolotini ta’minlashdagi o‘rnini nazariy asoslash va adabiy ta’lim materiali misolida uning amaliy mexanizmini taklif etishdir. Maqola nazariy-metodik tahlil xarakteriga ega bo‘lib, unda muallif tomonidan ma’naviy muammoli vaziyatlar tasnifi, besh bosqichli «Muammo – qadriyat – tanlov» modeli, ma’naviy kamolot darajalari tasnifi va muammoli darsni loyihalash namunasi ishlab chiqilgan.

Ma’naviy kamolot tushunchasi va uning tarkibi. Ma’naviyat tushunchasi I.A. Karimov asarlarida insonning ruhiy poklanishi, qalban ulg‘ayishi, irodasi va e’tiqodini mustahkamlovchi ichki kuch sifatida talqin etiladi [8]. Shu asosda ma’naviy kamolotni shaxsning umuminsoniy va milliy qadriyatlarni anglashi, ularni ichki e’tiqodiga aylantirishi hamda hayotiy tanlovlarida shu qadriyatlarga amal qila olishi jarayoni va natijasi sifatida ta’riflash mumkin. Bu ta’rif ma’naviy kamolotning uch tarkibini ajratish imkonini beradi (1-sxema): *anglash* (qadriyat mohiyatini tushunish), *qadrlash* (unga nisbatan ichki, hissiy munosabat) va *amal qilish* (tanlov

va mas'uliyat). Ulardan birining yetishmasligi kamolotning bir tomonlama bo‘lishiga olib keladi: faqat bilim quruq ma'rifatparvarlikka, faqat his-tuyg‘u sentimentallikka, faqat xatti-harakat esa ongsiz taqlidga aylanadi.



1-sxema. *Ma'naviy kamolotning uch tarkibi va muammoli vaziyatning o‘rni*

Tarbiya nazariyasida bu uch tarkibning birligi ko‘p marta ta'kidlangan. L.S. Vigotskiyning fikricha, tarbiya o‘quvchining o‘z faolligi orqali amalga oshadi, o‘qituvchi esa bu faollik kechadigan muhitni tashkil etadi [13]. V.A. Suxomlinskiy ham axloqiy e'tiqod so‘z bilan emas, bola qalbidan o‘tgan tajriba va amaliy ezgu ishlar orqali tug‘ilishini ta'kidlagan [18]. L. Kolberg esa axloqiy mulohaza darajasi o‘quvchi o‘z darajasidan biroz yuqori turgan dilemmalar bilan to‘qnashib, ularni muhokama qilganda rivojlanishini ko‘rsatgan [9]. Bu qarashlarning umumiy xulosasi shuki, ma'naviy kamolot tayyor qoidalarni uzatish bilan emas, balki o‘quvchi uchun haqiqiy ma'naviy muammo yaratish va uni mustaqil hal etishga o‘rgatish bilan shakllanadi.

Muammoli ta'lim texnologiyasining nazariy asoslari. Muammoli ta'limning ildizlari J. Dyuining fikrlash nazariyasiga borib taqaladi: u fikrlash qiyinchilik yoki shubha hissidan boshlanishini asoslagan [4]. J. Bruner o‘quvchi bilimni tayyor holda olmay, kashf etish jarayonida o‘zlashtirganda u chuqurroq va mustahkamroq bo‘lishini ta'kidlagan [3]. V. Okon, A.M. Matyushkin va M.I. Maxmutov asarlarida muammoli vaziyat o‘quvchi duch kelgan va hal etish zarurligini anglagan bilish qiyinchiligi sifatida talqin etiladi [15; 16; 17]. I.Ya. Lerner muammoli bayon, qisman-izlanish (evristik) va tadqiqot usullarini muammoliligi ortib boruvchi bosqichlar sifatida ajratgan [14]. Zamonaviy ko‘rinishdagi muammoga asoslangan ta'lim (Problem-Based Learning) H. Barrouz va boshqalar tomonidan ishlab chiqilib [2], tadqiqotlarda u o‘quvchining mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari, hamkorlik va

ichki motivatsiyani rivojlantirishi qayd etilgan [6]. O‘zbekistonda bu texnologiya innovatsion ta’lim texnologiyalari tizimida o‘rganilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda [7].

Muammoli ta’lim texnologiyasi deganda o‘qituvchi tomonidan muammoli vaziyat yaratilishi, o‘quvchi uni anglab, qabul qilishi, hal etish yo‘llari bo‘yicha gipoteza ilgari surishi, ularni dalil asosida tekshirishi va xulosa chiqarishidan iborat izchil jarayon tushuniladi. Ma’naviy tarbiya nuqtai nazaridan uning an’anaviy yondashuvdan farqi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Ma’naviy tarbiyada an’anaviy va muammoli yondashuvning qiyosiy tavsifi

Mezon	**An’anaviy yondashuv**	**Muammoli ta’lim texnologiyasi**
Qadriyatga yondashuv	Tayyor qoida sifatida beriladi	Ziddiyat ichida kashf etiladi
O‘qituvchi o‘rni	Axloqiy xulosa beruvchi, nasihatchi	Ma’naviy muammoni qo‘yuvchi va fikrni yo‘naltiruvchi
O‘quvchi o‘rni	Tinglovchi, qoidani takrorlovchi	Tanlov qiluvchi, o‘z pozitsiyasini himoya qiluvchi
Asosiy usul	Suhbat-nasihat, namuna keltirish	Muammoli vaziyat, munozara, dilemma tahlili
Ma’naviy kamolot tarkibi	Asosan «anglash»	«Anglash», «qadrlash» va «amal qilish» birligi
Natija	Qoidani bilish, tashqi taqlid	Ichki e’tiqod, mas’uliyatli tanlov

Muammoli ta’limning ma’naviy kamolotga ta’sir mexanizmi. Muammoli vaziyatning tarbiyaviy kuchi to‘rt jihatda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, u qadriyatni ziddiyat ichida ko‘rsatadi: «halollik yaxshi» degan qoida emas, balki halollik foydaga, burch istakka, haqiqat qulaylikka qarshi turgan holat o‘quvchi fikrini ishga soladi (anglash). Ikkinchidan, muammo o‘quvchini qahramon holatiga qo‘yib, uni hamdardlik va shaxsiy munosabatga yo‘naltiradi: «men nima qilgan bo‘lardim?» savoli qadriyatni «begona» qoidadan «o‘zimniki»ga aylantiradi (qadrlash). Uchinchidan, tanlov va uning oqibatini oldindan ko‘rish mas’uliyat hissini shakllantiradi (amal qilish). To‘rtinchidan, muammo guruhda muhokama qilinganda o‘quvchi boshqa nuqtai nazarni tinglashga, o‘z fikrini hurmat bilan himoya qilishga o‘rganadi.

Milliy adabiy merosda bu tamoyil yangi emas: Yusuf Amiriyning «Bang va Chog‘ir» munozarasidan tortib, Abdurauf Fitratning «Munozara» asarigacha ikki qarashning bahsi orqali haqiqatni izlash an’anasi mavjud. Fitrat adabiyotni inson tuyg‘usi va fikriga ta’sir etuvchi san’at deb bilgan [5], ya’ni badiiy asar ma’naviy muammoni his qildirib, o‘ylantirishga qodir material hisoblanadi.

Ma’naviy muammoli vaziyatlar tasnifi. Adabiy ta’lim ma’naviy muammoli vaziyatlar uchun eng boy materialdir, chunki badiiy asar insonni qadriyatlar to‘qnashgan lahzalarda tasvirlaydi. Q. Yo‘ldoshev adabiy ta’limning asosiy maqsadini asarni mustaqil anglay oladigan kitobxon tarbiyalashda ko‘rgan [12]; muammoli yondashuv aynan shu maqsadni ma’naviy tarbiya bilan uyg‘unlashtiradi. Dasturdagi asarlar asosida ma’naviy muammoli vaziyatlarni besh turga ajratishni taklif etamiz (2-jadval).

2-jadval

Ma’naviy muammoli vaziyatlar tasnifi (muallif taklifi)

Vaziyat turi	Adabiy material	Muammoli savol	Shakllanadigan ma’naviy sifat
Burch va shaxsiy istak ziddiyati	A. Qodiriy, «O‘tkan kunlar»	Otabekning ikkinchi nikohga rozi bo‘lishida farzandlik burchi qanday o‘rin tutadi va bu burch kimning baxti hisobiga ado etildi?	Burch hissi, mas’uliyat
Adolat va befarqlik	Cho‘lpon, «Kecha va kunduz»	Zebining fojiasida kim aybdor: jamiyatmi, oilami yoki jim qolgan atrofdagilarmi? Siz bunday vaziyatda jim turarmidingiz?	Adolat tuyg‘usi, befarqlikka qarshi turish
Sadoqat va manfaat	A. Navoiy, «Farhod va Shirin»	Boylik evaziga muhabbatdan voz kechish taklifini Farhod nega rad etadi? Uning tanlovi aql mezonlariga to‘g‘ri keladimi?	Sadoqat, irodaning mustahkamligi
Taqlid va yangilanish	A. Fitrat, «Munozara»	Mudarris va farangi bahsida kimning dalillari ishonarliroq? Bugun ularning qaysi biri bilan hamfikrsiz?	Ma’rifatparvarlik, fikr mustaqilligi, o‘zga fikrni tinglash

Vaziyat turi	**Adabiy material**	**Muammoli savol**	**Shakllanadigan ma’naviy sifat**
Vijdon va manfaat	A. Qahhor, «Sarob»	Saidiy qaysi nuqtada vijdonidan yuz o‘girdi va u paytda boshqacha tanlov qilish imkoni bormidi?	Vijdon, o‘zini anglash

«Muammo – qadriyat – tanlov» modeli. Ma’naviy muammoli vaziyatni dars jarayonida izchil boshqarish uchun besh bosqichli «Muammo – qadriyat – tanlov» modelini taklif etamiz (2-sxema). Birinchi bosqichda o‘quvchi asardagi ziddiyatni ko‘radi va uni savol shaklida ifodalaydi. Ikkinchi bosqichda to‘qnashayotgan qadriyatlar (masalan, burch va muhabbat, manfaat va vijdon) aniqlanadi. Uchinchi bosqichda qahramon uchun mavjud variantlar va ularning oqibatlari matndagi dalillar bilan solishtiriladi: aynan shu yerda gipotezalar ilgari suriladi. To‘rtinchi bosqichda o‘quvchi asosli ma’naviy tanlov qiladi va uni guruhdagi munozarada himoya qiladi. Beshinchi bosqich – refleksiya: o‘quvchi tanlovini qayta baholaydi va qadriyatni o‘z hayotiy vaziyatiga bog‘laydi. Refleksiya yangi, murakkabroq muammoni tug‘dirib, sikl yuqoriroq darajada takrorlanadi.



2-sxema. *«Muammo – qadriyat – tanlov» modeli (muallif taklifi)*

Bosqichlar ma’naviy kamolotning uch tarkibi bilan quyidagicha bog‘lanadi: 1–2-bosqichlar «anglash»ni, 3-bosqich «anglash» va «qadrlash»ni, 4–5-bosqichlar esa «amal qilish»ni, ya’ni tanlov va mas’uliyatni shakllantiradi. Modelning amaliy qo‘llanishini A. Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni misolida ko‘rsatamiz (3-jadval).

3-jadval

«Farhod va Shirin» dostoni bo‘yicha muammoli dars loyihasi (muallif taklifi)

Bosqich	**O‘qituvchi faoliyati**	**O‘quvchi faoliyati**	**Ma’naviy natija**

Bosqich	O‘qituvchi faoliyati	O‘quvchi faoliyati	Ma’naviy natija
1. Muammo	Farhodning rad javobi bilan bog‘liq epizodni o‘qitadi va savol qo‘yadi: «Farhod boylikni nega rad etdi?»	Epizodni o‘qiydi, ziddiyatni savol shaklida ifodalaydi	Muammoni ko‘ra olish
2. Qadriyat	«Xusrav nimani, Farhod nimani afzal ko‘radi?» degan savol asosida qadriyatlar jadvalini to‘ldirishni so‘raydi	Manfaat va sadoqat, hokimiyat va muhabbat kabi qadriyatlarni ajratadi	Qadriyatlar to‘qnashuvini anglash
3. Variantlar	Guruhlarga «Farhod rozi bo‘lsa, nima bo‘lardi?» topshirig‘ini beradi	Variantlar va oqibatlarni matndagi dalillar bilan solishtiradi	Oqibatni oldindan ko‘ra olish
4. Tanlov	Munozara tashkil etadi, hakam vazifasini bajaradi	O‘z pozitsiyasini asoslab himoya qiladi, qarshi dalilni tinglaydi	Asosli tanlov, bag‘rikenglik
5. Refleksiya	«Bugun siz qanday vaziyatda sadoqat va manfaat o‘rtasida tanlov qilasiz?» savolini beradi	Esse yoki kundalikda shaxsiy xulosa yozadi	Qadriyatni hayotga bog‘lash

Ma’naviy kamolot darajalari. Muammoli ta’lim samaradorligini baholash uchun o‘quvchining ma’naviy muammoga munosabatini ko‘rsatuvchi darajalar tasnifi zarur. Muallif tomonidan to‘rt darajali tasnif taklif etiladi (4-jadval). Misol sifatida «Farhod boylik haqidagi taklifni rad etib, to‘g‘ri qildimi?» savoliga turli darajadagi javoblar keltirilgan.

4-jadval

Ma’naviy kamolot darajalari (muallif tasnifi)

Daraja	Ko‘rsatkichlar	Javob namunasi

Daraja	Ko‘rsatkichlar	Javob namunasi
I. Me’yoriy	Axloqiy qoidani takrorlaydi, muammoni ko‘rmaydi	«Farhod sevgan insoniga sadoqatli bo‘lgan, shuning uchun to‘g‘ri qilgan.»
II. Anglovchi	Sababni ko‘rsatadi, ammo yuzaki va dalilsiz	«U Shirinni sevgani uchun boylikni rad etdi, muhabbatni pulga almashtirish uyat.»
III. Mas’uliyatli	Matndan dalil keltiradi, tanlov oqibatini ko‘radi	«Farhod boylikdan ko‘ra sadoqat va mehnat yo‘lini tanladi; dostonda uning og‘ir mashaqqatga bel bog‘lashi buni ko‘rsatadi. Bu tanlov katta qurbonlik talab qilishi ham ko‘rinib turadi.»
IV. Faol-ijodiy	Qadriyatni shaxsiy hayotiga bog‘laydi, o‘z pozitsiyasini turli qarashlar bilan solishtirib himoya qiladi	«Farhod sadoqatni manfaatga almashtirmadi. Uning yo‘lini ko‘r-ko‘rona takrorlash shart emas, lekin o‘z qadriyatim narxga qo‘yilganda men ham shunday aniq pozitsiyada turishga harakat qilaman.»

O‘qituvchi o‘rni va cheklovlar. Muammoli ta’limda o‘qituvchi tayyor axloqiy xulosa beruvchi emas, ziddiyatni to‘g‘ri qo‘yuvchi va fikr yo‘nalishini boshqaruvchi tashkilotchiga aylanadi. Biroq bu «har qanday fikr to‘g‘ri» degan axloqiy nisbiylikni anglatmaydi: muhokama jarayonida halollik, adolat, mehr-oqibat, vijdon kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlar mezon bo‘lib qoladi, o‘quvchining vazifasi esa ularni asoslab, o‘z hayotiy vaziyatiga tatbiq etishdir. Texnologiyani qo‘llashda bir qator cheklovlarni hisobga olish zarur: muammoli dars an’anaviy darsga nisbatan ko‘proq vaqt talab qiladi; muammo o‘quvchi yoshi va tayyorgarligiga mos bo‘lishi, og‘riqli shaxsiy tajribalarni qo‘zg‘amasligi kerak; eng muhimi, o‘qituvchi fikr bildirgan o‘quvchini hukm qilmaydigan, xato qilishdan qo‘rqmaydigan psixologik muhit yarata olishi lozim.

Olib borilgan tahlil quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

birinchidan, ma’naviy kamolot «anglash – qadrlash – amal qilish» birligi sifatida tushunilganda, uni tayyor qoidalarni yodlatish bilan emas, o‘quvchi uchun real ma’naviy tanlov yaratadigan faoliyat bilan ta’minlash mumkin; muammoli ta’lim texnologiyasi esa ana shunday faoliyatning samarali didaktik vositasidir;

ikkinchidan, muammoli vaziyat qadriyatni ziddiyat ichida ko‘rsatib, o‘quvchini qahramon holatiga qo‘yadi, tanlov va oqibat mas’uliyatini his qildiradi hamda munozara orqali bag‘rikenglikni tarbiyalaydi;

uchinchidan, adabiy ta’lim materiali asosida ishlab chiqilgan ma’naviy muammoli vaziyatlarning besh turi (burch va istak, adolat va befarqlik, sadoqat va manfaat, taqlid va yangilanish, vijdon va manfaat) dars jarayonini maqsadli loyihalash imkonini beradi;

to‘rtinchidan, «Muammo – qadriyat – tanlov» modeli muammoli darsni besh izchil bosqichga ajratib, ma’naviy kamolotning uch tarkibini birgalikda rivojlantirishga xizmat qiladi;

beshinchidan, ma’naviy kamolotning to‘rt darajali tasnifi o‘quvchi javobini «to‘g‘ri» yoki «noto‘g‘ri» deb emas, dalillilik va mas’uliyat darajasi bo‘yicha baholashga yordam beradi; taklif etilgan model va tasnif amaliy tajriba-sinov orqali yanada takomillashtirilishi mumkin.

Xullas, ma’naviy tarbiya o‘quvchi qalbiga tayyor qoida sifatida emas, o‘zi bosib o‘tgan fikr va tanlov yo‘li sifatida kirib borgandagina chuqur ildiz otadi; muammoli ta’lim texnologiyasi ana shu yo‘lni ochuvchi samarali vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998.
2. Barrows H.S., Tamblyn R.M. Problem-Based Learning: An Approach to Medical Education. – New York: Springer, 1980.
3. Bruner J.S. The Process of Education. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960.
4. Dewey J. How We Think. – Boston: D.C. Heath & Co., 1910.
5. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
6. Hmelo-Silver C.E. Problem-Based Learning: What and How Do Students Learn? // Educational Psychology Review. – 2004. – Vol. 16, No. 3. – P. 235–266.
7. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.
8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
9. Kohlberg L. Essays on Moral Development. Vol. 1: The Philosophy of Moral Development. – San Francisco: Harper & Row, 1981.
10. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
11. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami: 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1987–2003.

12. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy va metodik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
13. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика, 1991.
14. Лернер И.Я. Проблемное обучение. – М.: Знание, 1974.
15. Матюшкин А.М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. – М.: Педагогика, 1972.
16. Махмутов М.И. Проблемное обучение: Основные вопросы теории. – М.: Педагогика, 1975.
17. Оконь В. Основы проблемного обучения. – М.: Просвещение, 1968.
18. Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. – Киев: Радянська школа, 1969.

O‘QUVCHILARINING BADIIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Rasulova Rayxon
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dots.
e-mail: r.rasulova@cspu.uz

Annotatsiya: ushbu maqolada umumta’lim maktab o‘quvchilarining badiiy savodxonligini oshirishda innovatsion texnologiyalar haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: til o‘qitish, filologiya ta'limi, innovatsiya, BLUM taksonomiyasi, kommunikativ kompetentsiya

Аннотация: В статье рассматриваются инновационные технологии повышения уровня литературной грамотности учащихся общеобразовательных школ.

Ключевые слова: обучение языку, филологическое образование, инновации, технология Блума, коммуникативная компетенция.

Annotation: The article examines innovative technologies for improving the level of literary literacy among general education school students.

Keywords: language teaching, philological education, innovations, Bloom’s technology, communicative competence.

Inson mehnat faoliyatining har qanday tarmog‘i uchun o‘zgarish va yangilanishlar – xos. Ayni shu jihat bashariyatning taraqqiyotini ta’minlaydigan omildir. Hayotning har qanday sohasidagi yangilik o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi, balki alohida iste’dodli odamlar yoki yangilik yaratish yo‘lida birgalikda mehnat qiladigan jamoalarning izlanishlari natijasida yuzaga keladigan hodisadir. Tinimsiz o‘zgarish va yangilanishlardan iborat globallashayotgan dunyo bu jarayonni tashkil etish, boshqarish va kishilik manfaatiga yo‘naltirishni taqozo qiladi. Bu hodisa ilm tilida innovatsiya, deb ataldi.

“Innovatsiya” tushunchasi lotinchadan tarjima qilinganda “yangilik, yangilanish, o‘zgartirilish” ma’nolarini anglatadi[14]. Innovatsiyalar a) ijtimoiy-iqtisodiy; b) tashkiliy-boshqaruv; v) texnik-texnologik singari uch turga bo‘linadi. Pedagogik innovatsiyalar ijtimoiy innovatsiyalarning bir tarmog‘i sanaladi[15].

[14] To‘rayeva G.H. Ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuv va axborot texnologiyalarini joriy etish metodikasi: Ped. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) diss. – Termiz: TermDU, 2019. – B.154
[15] https://studbooks.net/1890551/pedagogika/suschnost_ponyatiya_pedagogicheskaya_innovatsiya

Pedagogik kechimga nisbatan innovatsiya tushunchasi ta'lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, usul va shakllari, o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish kabi jarayonlarga kiritilgan yangiliklarni anglatadi. Pedagogika fanining kategorial apparatidan joy olgan "ta'limdagi innovatsiya" va "pedagogik innovatsiya" atamalari sinonim sifatida qo‘llaniladigan tushunchalardir. Pedagogik innovatsiya – ta'lim va tarbiyaning samaradorligini oshirish niyatida uning maqsadi, mazmuni, texnologiyasi hamda tashkil etilish yo‘siniga kiritilgan yangiliklarni anglatadi. Pedagogik innovatsiya deyilganda, ta'lim-tarbiya jarayoniga qo‘llansa, samara keltirishi mumkin bo‘lgan yangilikni yaratish, sinab ko‘rish, unga xos asosiy jihatlarni o‘zlashtirish, amaliyotda qo‘llash va yoyishga qaratilgan kompleks faoliyat tushuniladi. Ilmiy adabiyotlarda "yangilik" ma'nosida qo‘llaniladigan "novatsiya" va "innovatsiya" tushunchalari o‘zaro farqlaniladi. pedagogik innovatsiya tushunchasini *ta'lim-tarbiya tizimiga uni mavjud holatdan tubdan yangilangan yuqoriroq holatga o‘tkazishga olib keladigan unsurlar va o‘zgarishlarni maqsadga muvofiq tarzda kiritishni ko‘zda tutadigan tizimli jarayondir*[16] yo‘sinida ta'rif bersa, bo‘ladi.

Pedagogik innovatsiya kechimi quyidagi uch bosqichdan iborat bo‘ladi:

1) yangilik yaratish bosqichi;

2) yangilikning mohiyatini g‘oyaga aylantirib, undan boshqalar ham tushunishi va foydalanishi mumkin bo‘ladigan holatga keltirish bosqichi;

3) yangilikni qo‘llash bosqichi[17].

Shunga muvofiq ravishda pedagogik innovatsiya jarayonini yangi ilmiy g‘oyani yuzaga keltirish, uni amalga oshirish va ijtimoiy-pedagogik muhitda shundan kelib chiqadigan o‘zgarishlarni ilmiy va tashkiliy jihatdan o‘zaro muvofiqlashtirishdan iborat kechim deyish mumkin. *Yangilikni yaratish, uni pedagogik amaliyotga qo‘llaydigan holatga keltirish va uning hayotga tatbiq etilishini boshqarish tizimini tashkil qilishga qaratilgan amaliyot pedagogik innovatsion faoliyat* deyiladi[18].

Professor Q. Yo‘ldoshev ta'kidlaganidek, pedagogik innovatsiya jarayoni shunchaki yangilik kiritish emas, balki tizimli ketma-ketlikdan iborat murakkab kechimdir. Ushbu uch bosqichli modelni o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish metodikasiga tatbiq etish, dars samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘taradi.

1. Yangilik yaratish bosqichi (Kreativ-metodik izlanish): o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda ushbu bosqich o‘qituvchining an'anaviy, bir qolipli dars berish uslubidan voz kechib, matn tahlili orqali matnning

[16] Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldoshova M. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Akademnashr, 2022. – B.87
[17] Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldoshova M. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Akademnashr, 2022. – B.70
[18] Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldoshova M. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Akademnashr, 2022. – B.71

yashirin qatlamlarini ochishga xizmat qiluvchi yangi metodik yondashuvlarni loyihalashtirishini ko‘zda tutadi. Masalan, she’riyat bu – ramzlar va majozlar dunyosidir. Shuning uchun yangilik yaratish bosqichida o‘quvchiga matn mazmunini tayyor holda bermasdan, uni matn ustida mustaqil tadqiqot olib borishga undaydigan “muammoli savollar” yoki “estetik to‘siqlar” yaratish nazarda tutiladi. Bu bosqichda pedagog o‘z oldiga: *“Qanday qilib bu she’rdagi dardni o‘quvchining shaxsiy kechinmasiga aylantira olaman?”* degan savolni qo‘yadi va yangi metodik konstruksiyani shakllantiradi.

2. Yangilik mohiyatini g‘oyaga aylantirish bosqichi (Metodik adaptatsiya): Yaratilgan yangi metodik g‘oya barcha uchun tushunarli va qo‘llash mumkin bo‘lgan holatga keltirilishi shart. Ayniqsa, lirik tahlilda bu murakkab nazariy tushunchalarni o‘quvchining yosh xususiyatiga (7-9-sinf) moslashtirish demakdir. Masalan, g‘azal mulkidagi “ishq” tushunchasini o‘smir o‘quvchi o‘zining hissiy intellekti (EQ) darajasida tushuna olishi uchun, o‘qituvchi o‘sha yangi g‘oyani interfaol strategiyalar ko‘rinishiga keltiradi. Bu bosqichda innovatsiya shunchaki nazariy g‘oyadan amaliy, boshqarish mumkin bo‘lgan metodik vositaga (algoritmga) aylanadi.


3. Yangilikni qo‘llash va ijtimoiy-pedagogik natija bosqichi (Amaliy realizatsiya): Ushbu yakuniy bosqichda innovatsion faoliyat bevosita dars jarayoniga tatbiq etiladi. Bunda o‘quvchining ijtimoiy-pedagogik qiyofasida o‘zgarish sodir bo‘ladi: u endi darsda shunchaki tinglovchi emas, balki matnni o‘zining hayotiy tajribasi bilan qiyoslaydigan, shoir niyatini o‘zicha “hazm qiladigan” faol subyektga aylanadi[19]. Lirik asar tahlili jarayonida o‘quvchi o‘zini[20]ng mustaqil munosabatini bildira boshlagan lahzada, Q. Yo‘ldoshev aytgan “ijtimoiy-pedagogik muhitdagi o‘zgarish” sodir bo‘ladi. Ya’ni sinf muhiti deklarativ (axborot beruvchi) muhitdan tadqiqotchi va munozarachi muhitga o'zgaradi.

Shu nuqtayi nazardan, pedagogik innovatsion faoliyat o‘qituvchidan yuksak metodik mahorat va ijodkorlikni talab etadi. Badiiy asar tahlilida mustaqil fikrlashni shakllantirishga yo'naltirilgan bunday tizimli innovatsion faoliyatning eng mukammal texnologik namunasi Blum taksonomiyasidir. U yuqoridagi barcha bosqichlarni o‘zida mujassam etib, bilimlarni oddiy eslab qolish darajasidan yuqori darajali tahliliy mushohada darajasiga ko‘tarishda asosiy boshqaruv mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi.

[19] To‘rayeva G.H. Ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuv va axborot texnologiyalarini joriy etish metodikasi: Ped. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) diss. – Termiz: TermDU, 2019. – B.155

[20] Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2019. – B.54

Taksonomiya – tartibga solish va turli mezonlarga ko‘ra tasniflash ilmi. Murakkab obyektlar yoki tushunchalarni muayyan qonuniyat, iyerarxiya (quyi pog‘onadan yuqoriga qarab) asosida tasniflash va tizimlashtirishdir. Ta’limda bu – o‘quv maqsadlari va natijalarini izchil tartibda joylashtirish tizimi degani. Blum taksonomiyasi Benjamin Blum tomonidan fanga olib kirilgan bilimlarning iyrearxik tizimlashtirilgan modelidir[21]. Blum taksonomiyasining asosiy maqsadi – ta’lim jarayonini shunchaki ma’lumot uzatish (reproduktiv) bosqichidan, o‘quvchining intellektual salohiyatini to‘liq namoyon etuvchi kognitiv (bilish) bosqichlariga ko‘tarishdir. Ushbu tizim ta’lim oluvchining tafakkurini “oddiy eslab qolish” darajasidan “yangi g‘oya yaratish” darajasigacha bo‘lgan bosqichli iyerarxiyaga soladi. U quyidagi bosqichlardan iborat:



1.2.1-rasm. Blum taksonomiyasi bosqichlari

Blum taksonomiyasi bosqichlarini lirik asarlar tahliliga tatbiq etish jarayonida savollar tizimi shunchaki tekshirish vositasi emas, balki o‘quvchi tafakkurini ma’lum iyerarxiya asosida harakatlantiruvchi metodik mexanizm hisoblanadi. Bunda savollar matn mazmuniga izchil singdirilib, o‘quvchini bosqichma-bosqich yuzaki idrokdan chuqur falsafiy mushohada darajasiga ko‘tarishi lozim.

Dastlab, **bilish** bosqichida metodik e’tibor matnning faktik asoslariga qaratiladi. Bunda o‘quvchidan asar muallifi, uning yozilish davri, janr xususiyatlari hamda matndagi tayanch lug‘atlarni aniqlash talab etiladi. Bu bosqich tahlil uchun fundament vazifasini o‘taydi. So‘ngra, jarayon **tushunish** bosqichiga o‘tadi; bu yerda o‘quvchi she’rning umumiy mavzusi, ilgari surilgan g‘oyasi va lirik qahramonning ruhiy holatini o‘z so‘zlari bilan qayta bayon etish orqali matnning mazmuniy butunligini anglab yetadi. Bu darajadagi savollar o‘quvchida shoir niyatini interpretatsiya qilish ko‘nikmasining ilk kurtaklarini shakllantiradi. Matn tahlili **qo‘llash** bosqichiga ko‘tarilgach, o‘quvchi nazariy adabiy bilimlarni amaliyotga

[21] Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2019. – B.54

ko‘chiradi. U she’riy matn tarkibidan tashbeh, istiora, jonlantirish kabi badiiy tasviriy vositalarni mustaqil ajratib oladi va ularning lirik qahramon hissiyotlarini ochib berishdagi funksional vazifasini izohlaydi. Eng muhim burilish nuqtasi bo‘lgan **tahlil** bosqichida esa, savollar yanada murakkablashadi: o‘quvchi nima uchun shoir aynan ma’lum bir ramziy obrazni tanlagani, she’r bandlaridagi kayfiyat o‘zgarishlari va obrazlar tizimi o‘rtasidagi ziddiyatli aloqalarni tadqiq qila boshlaydi. Aynan shu yerda o‘quvchining tanqidiy mushohadasi yashirin ma’nolar qatlamiga kirib boradi.

Mustaqil fikrlashning eng yuqori cho‘qqisi **baholash** va **yaratish** bosqichlarida namoyon bo‘ladi. **Baholash** darajasida o‘quvchi asar xotimasining mantiqiy yakuniga munosabat bildiradi, asarning estetik qiymatini bugungi kun yoshlari dunyoqarashi prizmasidan o‘tkazadi va asar uning ichki olamida qanday hissiy xulosa yasaganini tahlil qiladi. Yakuniy, ya’ni **yaratish** bosqichida esa barcha olingan bilim va hissiy tajribalar sintezlanadi.[22] O‘quvchi tahlil qilingan she’r ruhiga mos ravishda kichik esse yozadi, asarning muqobil talqinini yaratadi yoki shoir ko‘targan muammoni zamonaviy uslubda ifodalash orqali o‘zining intellektual va ijodiy mahsulotini taqdim etadi. Shunday qilib, Blum taksonomiyasi asosida qurilgan yaxlit savollar tizimi lirik asar tahlilini quruq yodlashdan tirik va ijodiy jarayonga aylantiradi.

Blum taksonomiyasi orqali tizimlashtirilgan kognitiv iyerarxiya bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida joriy etilgan Milliy o‘quv dasturi (MO‘D) konseptual asoslari bilan uzviy bog‘liqdir. MO‘D o‘quvchining shunchaki bilim olishini emas, balki kognitiv va hayotiy kompetensiyalarni egallashini ustuvor vazifa qilib belgilaydi. Milliy o‘quv dasturida adabiyot fani bo‘yicha belgilangan talablar Blum taksonomiyasining yuqori bosqichlari bo‘lgan tahlil, baholash va yaratish ko‘nikmalariga tayanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldoshova M. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Akademnashr, 2022.
2.To‘rayeva G.H. Ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuv va axborot texnologiyalarini joriy etish metodikasi: Ped. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) diss. – Termiz: TermDU, 2019.
3.Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2019.
4.Raykhan Rasulova. Formation of text-formating competence of students in the process of literary education based on an integrative approach. THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL SCIENCE AND TEXHNOLOGY.

[22] Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2019. – B.54

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI TILINING XUSUSIYATLARI

Mavlonova Mohigul Uralovna,
CHDPU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tili lingvopoetik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Asardagi leksik boylik, sinonimik va antonimik munosabatlar, rang bildiruvchi birliklar, ko‘chimlar, o‘xshatish, sifatlash, tazod, takror, sintaktik parallelizm, inversiya hamda tovush takrori kabi vositalarning badiiy matn yaratishdagi vazifasi yoritiladi. Doston tilida so‘zning faqat lug‘aviy ma’nosi emas, balki uning obraz, ruhiy holat, makon, tabiat va muallif munosabatini ifodalash imkoniyati ham muhim ekani ko‘rsatiladi. Tahlil natijasida Navoiy so‘z tanlash, so‘z ma’nosini kengaytirish, majoziy ifoda va sintaktik qurilishdan foydalanish orqali matnning estetik ta’sirchanligini kuchaytirgani asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, “Farhod va Shirin”, lingvopoetika, badiiy til, leksika, semantika, metafora, o‘xshatish, tazod, takror, rang leksikasi, sintaktik parallelizm.

Abstract. This article examines the language of Alisher Navoi’s “Farhod va Shirin” from a linguopoetic perspective. It focuses on the artistic functions of lexical richness, synonymy and antonymy, colour vocabulary, metaphorical transfers, simile, epithet, contrast, repetition, syntactic parallelism, inversion and sound patterning. The analysis shows that the poetic value of a word in the epic is determined not only by its dictionary meaning but also by its ability to create imagery, express psychological states, organise landscape and space, and convey the author’s aesthetic attitude. Navoi’s careful lexical choice and his combination of semantic, figurative and syntactic devices make the text highly expressive and aesthetically coherent.

Keywords: Alisher Navoi, “Farhod va Shirin”, linguopoetics, poetic language, vocabulary, semantics, metaphor, simile, contrast, repetition, colour vocabulary, syntactic parallelism.

Lingvopoetika badiiy matnda til birliklarining qanday estetik vazifa bajarishini o‘rganadigan yo‘nalishdir. Bunda so‘z, birikma, gap, tovush, grammatik shakl yoki sintaktik qurilish oddiy aloqa vositasi sifatida emas, badiiy obraz yaratadigan va muallifning estetik niyatini yuzaga chiqaradigan vosita sifatida tahlil qilinadi. Shuning uchun badiiy matnni lingvopoetik o‘rganishda “nima deyilgan?” savoli bilan birga “qanday deyilgan?”, “nega aynan shu so‘z yoki qurilish tanlangan?”, “bu tanlov tasvir va hissiy ta’sirni qanday kuchaytirgan?” kabi savollar ham muhim bo‘ladi. Dilmurod Quronov badiiy asarning shakl va mazmuni o‘zaro ajralmas birlik ekanini

ta’kidlaydi; til esa ana shu birlikning bevosita moddiy shakli hisoblanadi [4; 136]. Shu jihatdan Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni lingvopoetik tahlil uchun nihoyatda boy manbadir.

“Farhod va Shirin” Alisher Navoiyning “Xamsa”si tarkibidagi ikkinchi doston bo‘lib, unda muhabbat, sadoqat, mehnat, ilm-hunar, insoniy komillik, adolat va fidoyilik g‘oyalari yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Asarning g‘oyaviy salmog‘i nafaqat voqealar tizimida, balki ularni ifodalagan til vositalarida ham namoyon bo‘ladi. Navoiy qahramon xarakterini bevosita tavsiflash bilangina cheklanmaydi; uning ruhiy holatini rang, tabiat, harakat, tovush, qarama-qarshilik, tashbeh va majoz vositasida ko‘rsatadi. Natijada til voqea haqida xabar berish vazifasidan chiqib, voqelikni badiiy idrok etishning asosiy vositasiga aylanadi. Navoiyshunoslikka oid tadqiqotlarda shoir poetikasining obrazlilik, badiiy san’atlar, vazn, qofiya va so‘z tanlash bilan uzviy bog‘liqligi qayd etilgan [2; 3]. “Farhod va Shirin” tilini lingvopoetik nuqtayi nazardan o‘rganish ana shu poetik tizimning aynan til sathida qanday ishlashini ko‘rsatadi.

Doston tilining eng muhim xususiyatlaridan biri uning leksik boyligidir. Asarda turkiy qatlamga mansub so‘zlar bilan bir qatorda arabiy va forsiy-tojikcha birliklar ham faol qo‘llanadi. Biroq bu qatlamlar matnda shunchaki lug‘aviy ko‘plik hosil qilmaydi. Navoiy ularni ma’no nozikligi, uslubiy ohang va obraz talabiga qarab tanlaydi. Kundalik ma’noga yaqin sodda turkiy so‘zlar harakat, holat va tabiiy manzarani aniq tasvirlashga xizmat qilsa, kitobiy va mumtoz qatlamdagi birliklar ayrim tasvirlarga tantanavorlik, noziklik yoki baland uslub bag‘ishlaydi. Masalan, yashil rangning “yashil”, “sabz”, “axzar” kabi turli ifodalari bir umumiy rang maydoniga mansub bo‘lsa-da, ularning uslubiy qiymati bir xil emas. “Yashil” so‘zi bevosita va tabiiy nomlashga yaqin; “sabz” mumtoz she’riy nutqda ko‘p uchraydigan obrazli birlik; “axzar” esa arabiy-kitabiy ohangni kuchaytiradi. Navoiy bir ma’noga yaqin birliklarni turli kontekstlarda qo‘llash orqali matnda lug‘aviy takrorni kamaytiradi va har bir vaziyatga alohida poetik tus beradi.

Rang bildiruvchi leksikalar dostonning lingvopoetik tizimida alohida o‘rin tutadi. Rang Navoiyda ko‘pincha predmetning oddiy tashqi belgisi bo‘lib qolmay, tabiat holati, qahramon ruhiyati yoki voqeaning hissiy fonini ifodalovchi poetik belgiga aylanadi. Masalan, chaman tasvirida: “Yashil safha chamanning marg‘zori, / Kumush jadvaldek oning jo‘ybori” [1, 76.] misralarida “yashil” va “kumush” ranglari bir-biriga uyg‘un holda ishlatiladi. “Yashil safha” birikmasi chaman yuzasini sahifaga o‘xshatadi, “kumush jadval” esa oqar suvning yorqin va toza ko‘rinishini obrazlashtiradi. Bu yerda rang, metaforik o‘xshatish va predmetning harakati birlashib, o‘quvchida jonli vizual tasavvur hosil qiladi. Demak, rang leksemasining poetik vazifasi faqat nomlash emas, balki tasvirni ko‘rinarli qilishdir.

“Axzar” leksemasi qo‘llangan “Bo‘yig‘a nazm solg‘on hulla axzar, / Dema to‘ti, degil Xizri payg‘ambar” [1, 18.] misralarida esa yashil rangning ma’nosi yana kengayadi. “Hulla axzar” yashil kiyimni bildiradi, biroq Xizr obrazi bilan birikishi natijasida yashil rang tiriklik, yangilanish va baraka haqidagi madaniy-poetik tasavvurlarni ham uyg‘otadi. Lingvopoetik jihatdan muhim tomoni shundaki, rang bir vaqtning o‘zida ko‘rish tasvirini ham, ramziy ma’noni ham yuzaga keltiradi. Shu sababli mazkur birlikni faqat rang nomi sifatida izohlash yetarli emas; uning obraz tizimidagi vazifasini ham hisobga olish lozim.

Navoiy ranglar orqali ruhiy holatni ifodalashda ham katta mahorat ko‘rsatadi. “Sarig‘ gul uzra oqizdi qizil gul” [1, 280.] misrasida “sariq” va “qizil” ranglari oddiy rang qarama-qarshiligi emas. Sariq rang rangsizlangan, iztirobga tushgan yuzni, qizil esa qonni obrazli ifodalaydi. “Gul” so‘zining har ikki rang bilan birikishi tasvirni bevosita aytishdan ko‘ra kuchliroq qiladi: yuz ham, qon ham gul timsoli orqali poetik shaklga kiradi. Natijada bitta qisqa misrada jismoniy holat, ruhiy iztirob va rang kontrasti jamlanadi. Bu hodisa Navoiy tilida ko‘chma ma’no, metaforik obraz va tazodning bir-biriga qo‘shilib ketishini ko‘rsatadi.

Doston leksikasida sinonimik qatorlarning faol qo‘llanishi ham muhim lingvopoetik xususiyatdir. Shoir bir tushunchani takror-takror bir xil so‘z bilan atamaydi. U ma’no jihatdan yaqin, ammo uslubiy va emotsional bo‘yoqlari farqli birliklardan foydalanadi. Masalan, go‘zallik, yorug‘lik, g‘am, ishq, hijron, ko‘ngil, ko‘z, yuz, soch kabi semantik maydonlarda ko‘plab sinonimik yoki kontekstual yaqin birliklar uchraydi. Bunday tanlov bir tomondan she’riy nutqning rang-barangligini ta’minlasa, ikkinchi tomondan qahramon holatining nozik darajalarini ifodalashga yordam beradi. Lingvopoetik tahlilda sinonimlarning aynan qaysi vaziyatda tanlangani muhim, chunki ma’nodosh so‘zlarning badiiy qiymati doimo teng bo‘lavermaydi.

Antonimik va qarama-qarshi ma’noli birliklar ham doston poetikasining faol vositalaridan biridir. Navoiy yorug‘lik va qorong‘ilik, oq va qora, visol va hijron, hayot va o‘lim, shodlik va g‘am kabi qarama-qarshi tushunchalarni yonma-yon keltirish orqali voqealarning dramatik kuchini oshiradi. Bunday tazodlar ayniqsa muhabbat va ayriliq bilan bog‘liq lavhalarda qahramon kechinmasining keskinligini ko‘rsatadi. Tazodning lingvopoetik ahamiyati shundaki, ikki qarama-qarshi birlik bir-birining ma’nosini kuchaytiradi. Masalan, qora sochning yorug‘ yuz bilan, sariq yuzning qizil qon bilan, qishning oq-sovuq manzarasining bahordagi rang-baranglik bilan qarama-qarshi qo‘yilishi tasvirni aniq va ta’sirchan qiladi.

Qish tasvirida rang va holatning birlashishi ham e’tiborga molik. “Sovurdi chun shajar bargini sarsar, / Suvning simobini day qildi marmar” [1, 78.] misralarida “simob” va “marmar” so‘zlari rangni ham, moddaning tashqi va jismoniy

xususiyatini ham eslatadi. Suvning simobdek yaltirashi va keyin marmardek qotishi qishning sovuq kuchini obrazli ravishda ko‘rsatadi. Bu misolda metafora faqat ko‘rinishni emas, jarayonni ham ifodalaydi. Harakatdagi suvning qattiq muzga aylanishi rang, yaltiroqlik va moddiylik orqali sezdiriladi. Shu tariqa til birligi tabiatdagi o‘zgarishni ko‘z oldiga keltiradi.

Doston tilida metafora markaziy badiiy vositalardan biridir. Metafora bir predmet yoki hodisaning xususiyatini ikkinchisiga ko‘chirish orqali yangi poetik ma’no hosil qiladi. Navoiyning metaforalari ko‘pincha an’anaviy mumtoz obrazlar bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ularning konkret kontekstda qo‘llanishi o‘ziga xosdir. Gul, quyosh, oy, sham, parvona, dengiz, tog‘, tosh, qon, dur, gavhar, la’l, bulbul singari birliklar ayrim hollarda o‘z lug‘aviy ma’nosida, ayrim hollarda esa insonning qiyofasi, muhabbati, g‘ami yoki ma’naviy holatini ifodalovchi obraz sifatida keladi. Lingvopoetik jihatdan bunday ko‘chimlar matnda ikki qatlamli ma’no yaratadi: o‘quvchi bir paytning o‘zida predmetning asl ma’nosini ham, uning obrazli ma’nosini ham his qiladi.

O‘xshatishlar ham “Farhod va Shirin”ning tasviriy qudratini oshiradi. Navoiy ko‘pincha qahramon yuzini oyga, labni la’lga, ko‘zni nargisga, sochni tun yoki zanjirga, qomatni sarvga, ko‘z yoshini durga o‘xshatadigan mumtoz poetik tizimdan foydalanadi. Biroq o‘xshatishning ahamiyati faqat go‘zallikni maqtashda emas. U predmetning belgisini aniqroq ko‘rsatadi, matnga emotsional ohang beradi va muayyan estetik idealni shakllantiradi. O‘xshatish vositalari bir necha so‘zli qisqa qurilma shaklida ham, kengaytirilgan tasvir ko‘rinishida ham kelishi mumkin. Ayniqsa tabiat, me’moriy inshootlar va qahramon portretida o‘xshatishlar tasvirning fazoviy va rangli ko‘lamini oshiradi.

Sifatlash, ya’ni epitetlar doston tilining yana bir muhim belgisi hisoblanadi. Navoiy sifatlovchi birlik orqali predmetning oddiy belgisini emas, muallif uchun estetik ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatini ajratib ko‘rsatadi. “Gulgun”, “axzar”, “za’faroni”, “kofuriy”, “siyah”, “simin”, “la’lgun” singari rang va materialga asoslangan sifatlashlar tasvirni boyitadi. Epitet ko‘pincha metafora va o‘xshatish bilan birgalikda ishlaydi. Shu bois bir birlikni alohida “sifat” deb qo‘yishdan ko‘ra, uning butun birikma ichidagi poetik funksiyasini aniqlash muhim. Masalan, rangni bildiruvchi sifatlovchi qahramon libosini tasvirlashi mumkin, lekin ayni paytda uning kayfiyati yoki sahnaning umumiy ohangiga ham xizmat qiladi.

Dostonning lingvopoetik ta’sirini kuchaytiruvchi vositalardan yana biri takrordir. Takror mumtoz she’riyatda faqat shakliy bezak emas; u ma’no markazini ajratish, hissiy zo‘riqishni kuchaytirish va nutqqa ritmik uyg‘unlik berish vazifasini bajaradi. Navoiy ayrim so‘z, birikma, sintaktik model yoki mazmuniy birlikni qayta qo‘llash orqali qahramonning kuchli hissiy holatini sezdiradi. Ishq, g‘am, hijron,

dard, ko‘ngil singari tushunchalar doston davomida qayta-qayta uchrashi tasodifiy emas. Ularning takroriy paydo bo‘lishi asarning asosiy semantik maydonini shakllantiradi. Bunday takrorlar voqealar orasida ma’noviy bog‘lanish hosil qilib, butun dostonning badiiy yaxlitligini ta’minlaydi.

Sintaktik parallelizm ham Navoiy nutqining ta’sirchan vositalaridan biridir. Tuzilishi o‘xshash misralarning ketma-ket kelishi fikrni tartibli va ohangdor qiladi, ikki hodisani qiyoslash yoki qarama-qarshi qo‘yishga qulay sharoit yaratadi. Parallel qurilishda bir xil grammatik model takrorlanadi, lekin undagi muhim leksik unsurlar almashadi. Natijada o‘quvchi bir vaqtning o‘zida o‘xshashlikni ham, farqni ham sezadi. Bunday usul ayniqsa qahramonlarning holatini qiyoslashda, tabiat manzarasining ketma-ket belgilarini sanashda va kuchli emotsional nutqda samarali ishlaydi.

Inversiya, ya’ni gap bo‘laklarining odatdagi tartibdan farqli joylashtirilishi ham she’riy nutqda ma’no va ohangni boshqaradi. Aruz vazni va qofiya talabi ba’zan so‘z tartibining o‘zgarishiga sabab bo‘lsa-da, Navoiydagi inversiyani faqat vazn zarurati bilan izohlash yetarli emas. Muhim so‘zning misra boshiga yoki oxiriga chiqarilishi unga mantiqiy va emotsional urg‘u beradi. Kesimning oldinga chiqishi harakatni kuchaytirishi, sifatlovchining o‘zgacha o‘rni esa predmet belgisini alohida ta’kidlashi mumkin. Shuning uchun lingvopoetik tahlilda she’riy sintaksisni vazn, ma’no va uslubning birligi sifatida ko‘rish zarur.

Doston tilida undov, murojaat, ritorik savol va hayrat ifodalovchi sintaktik qurilmalar ham ko‘p uchraydi. Ular qahramon nutqining emotsionalligini oshirib, o‘quvchini voqeaga yaqinlashtiradi. Oddiy xabar gap voqeani betaraf bildirishi mumkin, ritorik so‘roq esa javob talab qilmagan holda iztirob, ikkilanish, hayrat yoki norozilikni ko‘rsatadi. Murojaat shakllari qahramonning kimga yoki nimaga yuzlanganini bildirish bilan birga uning ruhiy ehtiyojini ham ochib beradi. Ba’zan qahramon inson bilan emas, ko‘ngil, falak, tun, tog‘, shamol yoki boshqa obrazli tushuncha bilan “gaplashadi”. Bunday personifikatsiya badiiy olamni jonlantiradi.

Navoiy personifikatsiyadan tabiat tasvirida ayniqsa unumli foydalanadi. Bahor kelishi, shamol esishi, gul ochilishi, qishning sovuqligi singari tabiiy jarayonlar ba’zan inson harakatiga xos fe’llar bilan ifodalanadi. Natijada tabiat voqealar fonida qolmay, asarning faol ishtirokchisiga aylanadi. Farhod yoki Shirin ruhiy holati bilan tabiat manzarasi o‘rtasida ma’no aloqasi yuzaga keladi. Qahramon shod bo‘lsa, atrofdagi ranglar yorqinlashgandek; qayg‘uli holatlarda esa qorong‘ilik, sarg‘ayish, sovuqlik yoki tun obrazlari kuchayadi. Bu hodisa psixologik parallelizmga yaqin bo‘lib, badiiy matnning emotsional tizimini mustahkamlaydi.

Fe’llarning tanlanishi ham dostonning harakat dinamikasini belgilaydi. Farhod obrazi mehnat, harakat va mashaqqat bilan bog‘liq bo‘lgani uchun uning tasvirida

kesmoq, qazimoq, urmoq, yurmoq, chopmoq, ko‘tarmoq kabi kuchli dinamik ma’noli fe’llar muhim o‘rin tutadi. Muhabbat va iztirob sahnalarida esa yonmoq, yig‘lamoq, oqizmoq, kuymaq, sarg‘aymoq kabi holat va hissiy jarayonni bildiruvchi fe’llar faollashadi. Shunday qilib, fe’l semantikasi qahramonning xarakteri va voqeaning ruhiy toniga moslashadi. Lingvopoetik tahlil fe’lni faqat grammatik turkum sifatida emas, tasvir tempi va emotsional harakatni belgilovchi vosita sifatida ko‘rishga imkon beradi.

Ot va sifatlarning poetik imkoniyati ham alohida e’tiborga loyiq. Qimmatbaho toshlar, gullar, osmon jismlari, hayvon va qush nomlari, me’moriy buyumlar, kiyim-kechak va tabiat unsurlari Navoiy tilida keng obrazlar tizimini tashkil etadi. “La’l”, “dur”, “gavhar”, “kumush”, “billo‘r” kabi predmet nomlari ko‘pincha rang, yaltiroqlik, qimmat va go‘zallik semalarini birlashtiradi. Shu sababli ular bir paytning o‘zida ham nominativ, ham baholovchi, ham estetik funksiyani bajaradi. So‘zning bunday ko‘p qatlamliligi mumtoz badiiy tilning muhim xususiyatidir.

Dostonda so‘zning kontekstual ma’nosi juda katta ahamiyatga ega. Masalan, “qora” yoki “siyah” har doim salbiy ma’noni anglatmaydi. Qora soch go‘zallik belgisi bo‘lishi mumkin; tun tasvirida esa u tabiiy rang; ayrim fojiaviy lavhalarda esa qayg‘u va zulmat bilan bog‘lanadi. Xuddi shuningdek, “oq” qishning sovuqligini ham, poklik va yorug‘likni ham ifodalashi mumkin. Demak, rang yoki boshqa obrazli birlikni tayyor ramzga tenglashtirib qo‘yish ilmiy jihatdan soddalashtirish bo‘ladi. Lingvopoetik tahlilda ma’no aynan kontekstda, boshqa birliklar bilan munosabatda aniqlanadi.

Navoiy tilining fonetik tashkilida tovushlarning takrorlanishi ham poetik ta’sirni kuchaytiradi. Alliteratsiya va assonans she’rning ohangdorligini oshiradi, ayrim hollarda ma’lum tovushlarning takroriy kelishi harakatning keskinligi, yumshoqligi yoki cho‘zilishini sezdirishi mumkin. Bunday holatni har bir misrada ataylab yaratilgan tovush tasviri deb talqin qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi; chunki vazn, qofiya va tilning tabiiy fonetik tuzilishi ham tovush takroriga sabab bo‘ladi. Ammo ma’lum lavhalarda tovush va ma’no uyg‘unlashganda lingvopoetik effekt yuzaga keladi. Mumtoz poetikada qofiya va radif ham faqat formal unsurlar emas, semantik markazni mustahkamlovchi vosita bo‘la oladi [3; 5].

“Farhod va Shirin”ning tilida dialog va monologlar qahramon xarakterini ochishning muhim vositasidir. Muallif nutqi ko‘pincha keng tasvir, umumlashtirish va baholashga moyil bo‘lsa, qahramon nutqi uning ayni vaziyatdagi hissiy holatiga yaqin turadi. Farhodning nutqida qat’iyat, fidoyilik va ishq bilan bog‘liq semantik birliklar, Shirin nutqida muhabbat, sadoqat, iztirob va tanlov, Xusrav bilan bog‘liq lavhalarda esa hukmronlik, raqobat va manfaatga oid ma’no qatlamlari kuchayishi mumkin. Demak, leksik tanlov obrazlar o‘rtasidagi xarakter farqini ham ko‘rsatadi.

Asarda xalqona va kitobiy ifoda imkoniyatlarining uyg‘unligi ham Navoiy mahoratining bir belgisi hisoblanadi. Shoir bir tomondan yuksak mumtoz poetik an’anaga xos arabiy-forsiy istilohlar, timsollar va badiiy formulalardan foydalanadi, ikkinchi tomondan turkiy tilning sodda, harakatchan va aniq ifoda imkoniyatlarini ishga soladi. Ayniqsa mehnat, yo‘l, tog‘, tosh, suv, tabiat va kundalik harakat bilan bog‘liq tasvirlarda turkiy fe’l va otlarning kuchli ifoda imkoniyati seziladi. Shu tarzda doston tili murakkablik bilan tabiiylikni, kitobiylik bilan jonli tasvirni birlashtiradi.

Navoiy tilida badiiy detal ham lingvopoetik qiymatga ega. Qahramonning ko‘zi, yuzi, sochi, libosi, oti, quroli yoki uning atrofidagi biror rangli predmet ba’zan butun vaziyatning hissiy mazmunini o‘zida jamlaydi. Masalan, yuzning sarg‘ayishi alohida izohsiz ham ruhiy qiynalishni anglatadi; ko‘z yoshining durga qiyoslanishi yig‘ini estetik obrazga aylantiradi; qorong‘i tun yoki sovuq qish manzarasi voqeaning fojiaviy ohangini kuchaytiradi. Detalning kuchi shundaki, muallif uzun psixologik sharh bermasdan, bir necha til birligi orqali keng ma’noni sezdiradi.

Dostonning lingvopoetik yaxlitligi alohida san’atlarning ko‘pligida emas, ularning bir-biri bilan uyg‘un ishlashida namoyon bo‘ladi. Metafora rang bilan, rang tazod bilan, tazod sintaktik parallelizm bilan, takror esa ritm va emotsional urg‘u bilan qo‘shilib ketadi. Masalan, “Sarig‘ gul uzra oqizdi qizil gul” misrasini faqat ranglar yoki faqat metafora doirasida tahlil qilish uning badiiy kuchini to‘liq ochmaydi. Bu yerda rang kontrasti, metaforik nomlash, takroriy “gul” komponenti, qisqa sintaktik tuzilish va fojiaviy mazmun birgalikda ishlaydi. Lingvopoetikaning afzalligi ham shunda: u badiiy vositalarni alohida sanab chiqishdan ko‘ra, ularning matndagi umumiy estetik funksiyasini tushuntirishga intiladi.

Shu nuqtayi nazardan, “Farhod va Shirin” tilini o‘rganishda faqat badiiy san’at nomlarini topish bilan cheklanmaslik kerak. Metafora, tashbeh, tazod yoki takrorning mavjudligini aniqlash tahlilning boshlanishidir, xolos. Asosiy masala — bu vosita nima sababdan aynan shu o‘rinda tanlanganini, qahramon obrazi yoki sahna kayfiyatiga qanday xizmat qilganini, boshqa birliklar bilan qanday aloqaga kirishganini ko‘rsatishdir. Masalan, rang leksemasining ma’nosini lug‘atdan aniqlash zarur, ammo undan keyin u qaysi predmet bilan birikgani, qanday fe’l yoki sifatlar bilan yonma-yon kelgani, qanday hissiy natija hosil qilganini tahlil qilish lozim. Ana shunda lingvistik kuzatuv poetik xulosaga aylanadi.

Doston tilining yana bir muhim tomoni — obrazlarning semantik tizim sifatida takrorlanib borishidir. Tog‘ va tosh Farhodning kuchi, mehnati va sinovi bilan; suv hayot, yo‘l ochish va harakat bilan; gul va bahor go‘zallik hamda yangilanish bilan; tun, hijron va qorong‘ilik iztirob bilan; nur, oy, quyosh va yorug‘lik esa husn, umid yoki ulug‘lik bilan bog‘lanadigan kontekstlarni hosil qiladi. Bu birliklar har safar aynan bir ma’noni takrorlamaydi, biroq doston davomida ular o‘zaro bog‘liq

semantik tarmoq yaratadi. O‘quvchi ana shu tarmoq orqali asarning poetik olamini yaxlit holda idrok qiladi.

Xulosa qilib aytganda, “Farhod va Shirin” dostoni tili Alisher Navoiyning so‘z ustasi sifatidagi ulkan imkoniyatlarini namoyon etadi. Asarning lingvopoetik xususiyatlari leksik boylik, sinonimik va antonimik munosabatlar, rang semantikasi, metafora, tashbeh, sifatlash, tazod, takror, personifikatsiya, sintaktik parallelizm, inversiya, ritorik qurilmalar, fonetik ohangdorlik va obrazli detallar orqali yuzaga chiqadi. Bu vositalar alohida-alohida emas, yagona poetik tizim sifatida ishlaydi. Navoiy so‘zni predmet nomi darajasida qoldirmaydi; unga rang, his, ramz, baho va harakat yuklaydi. Shu sababli dostondagi til birliklari voqeani aytishdan tashqari, qahramonlarning ichki dunyosini ochadi, tabiat va makonni jonlantiradi, dramatik qarama-qarshilikni kuchaytiradi hamda o‘quvchida kuchli estetik taassurot hosil qiladi. “Farhod va Shirin”ning lingvopoetik tahlili mumtoz o‘zbek adabiy tilining badiiy imkoniyatlarini, Navoiy uslubining o‘ziga xosligini va so‘z ma’nosining kontekstda qay darajada kengayishini anglashga xizmat qiladi. Doston tili bugungi tilshunoslik va adabiyotshunoslik uchun ham sermahsul tadqiqot manbai bo‘lib, uni leksik-semantik, stilistik, sintaktik va poetik jihatlarning uzviy birligida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Navoiy, Alisher. Farhod va Shirin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 536 b.
2. Sirojiddinov, Sh.; Yusupova, D.; Davlatov, O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 576 b.
3. Is’hoqov, Yo. Navoiy poetikasi (“Xazoyin ul-maoniy” asosida). – Toshkent: Fan, 1983. – 168 b.
4. Quronov, D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
5. Hojiahmedov, A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1999. – 240 b.
6. Quronov, D.; Mamajonov, Z.; Sheraliyeva, M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 408 b.
7. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 jildlik. – Toshkent: Fan, 1983–1985.

LATIFALARDA LINGVOPOETIK SATHLAR SINTEZI VA KULGI ESTETIKASI
(Erkin Vohidovning “Donishqishloq latifalari” turkumidagi she’rlar misolida)

Murodova Firuza Jalolovna
CHDPU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti v.b.
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Erkin Vohidovning «Donish qishloq latifalari» asarida kulgi estetikasining yuzaga kelishida ishtirok etuvchi lingvopoetik vositalar kompleks tarzda tadqiq etiladi. Badiiy matnning fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfologik va sintaktik sathlarida namoyon bo‘luvchi til birliklarining o‘zaro munosabati hamda ularning kulgi ta’sirini shakllantirishdagi vazifalari yoritiladi. Tahlil jarayonida latifa matnida so‘z o‘yini, ma’no ko‘chishi, polisemantik munosabatlar, xalqona leksika, dialogik qurilish, sintaktik ixchamlik, kutilmagan ma’noviy burilish kabi hodisalarning bir-biri bilan uyg‘unlashuvi asosiy e’tibor markaziga qo‘yiladi. Kulgi birgina leksik yoki sintaktik vosita natijasi emas, balki turli lingvopoetik sathlarning sintezi asosida yuzaga keladigan murakkab estetik hodisa ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: lingvopoetika, badiiy matn, lingvopoetik sath, kulgi estetikasi, latifa, xalqona nutq, so‘z o‘yini, polisemiya, kinoya, ironiya, poetik semantika.

ABSTRACT:

This article examines the aesthetic representation of humour in Erkin Vohidov’s *Donish qishloq latifalari* through a comprehensive analysis of its linguopoetic devices. Particular attention is paid to the interaction of linguistic units at the phonological, lexical-semantic, morphological, and syntactic levels and their role in producing a humorous effect. The study focuses on such phenomena as wordplay, semantic shifts, polysemy, colloquial vocabulary, dialogic structures, syntactic brevity, and unexpected semantic turns. The analysis demonstrates that humour in the text does not result from an isolated linguistic device; rather, it emerges through the interaction and synthesis of different linguopoetic levels. This approach makes it possible to reveal the aesthetic and pragmatic potential of linguistic choices in the creation of humorous meaning.

Keywords: linguopoetics, literary text, linguopoetic level, aesthetics of humour, anecdote, colloquial speech, wordplay, polysemy, irony, semantic shift, poetic semantics.

Zamonaviy tilshunoslikda tilni faqat grammatik qoidalar va til birliklarining ichki munosabatlari tizimi sifatida o‘rganishdan uni inson tafakkuri, milliy-madaniy dunyoqarashi, nutqiy faoliyati va badiiy-estetik tafakkuri bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etishga yo‘nalish kuchayib bormoqda. Ayniqsa, antropotsentrik, kognitiv, pragmalingvistik, lingvomadaniy va matn lingvistikasi kabi zamonaviy yo‘nalishlarning rivojlanishi tilning nafaqat axborot yetkazish, balki insonning borliqni idrok etishi, baholashi va estetik jihatdan qayta yaratishidagi imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganishga zamin yaratdi. Shu nuqtai nazardan badiiy matn tilning estetik imkoniyatlari eng to‘liq namoyon bo‘ladigan murakkab nutqiy hodisa sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Badiiy matnni o‘rganishda til birliklarining lug‘aviy yoki grammatik xususiyatlarini aniqlashning o‘zi yetarli emas. Ularning matnda qanday ma’no kasb etishi, nima sababdan aynan shu shaklda tanlangani, obraz yaratish, emotsional ta’sirni kuchaytirish, muallif munosabatini ifodalash hamda estetik taassurot uyg‘otishdagi vazifasini aniqlash muhimdir. Shu jihatdan lingvopoetika badiiy nutqdagi til vositalarining estetik-funksional xususiyatlarini va badiiy mazmunni shakllantirishdagi ishtirokini o‘rganib, fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfologik va sintaktik vositalarning yaxlit badiiy-kommunikativ tizimdagi o‘zaro munosabatini ochib beradi. Ayniqsa, kulgi, kinoya, ironiya va yumor kabi murakkab estetik-emotsional hodisalarni tahlil qilishda til sathlariaro munosabatni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi

Kulgi badiiy matnda voqelikka munosabatni ifodalashning o‘ziga xos estetik shakllaridan biri bo‘lib, uning yuzaga kelishida leksik ma’no, kontekst, nutqiy vaziyat, sintaktik qurilish, intonatsiya, so‘z o‘yini va personajlar nutqi kabi omillar bir vaqtning o‘zida ishtirok etishi mumkin. Demak, kulgi estetikasini faqat bir sath doirasida o‘rganish badiiy matndagi komik effektning to‘liq mexanizmlarini ochib berish imkonini cheklaydi.

O‘zbek badiiy nutqida xalqona yumor va kulgi ifodasining o‘ziga xos namunasini Erkin Vohidov ijodida kuzatish mumkin. Adibning “Donish qishloq latifalari” asarida xalq og‘zaki ijodiga xos latifa an’analari yozma adabiyotning badiiy imkoniyatlari bilan uyg‘unlashib, xalqona so‘zlashuv tili, obrazli ifodalar, so‘z o‘yini, ma’noviy ziddiyat, kinoya, kutilmagan javoblar va dialogik qurilish kabi vositalar orqali o‘ziga xos kulgi muhitini yuzaga keltiradi. Shu bois asarda kulgi estetikasini faqat alohida til vositalari doirasida emas, balki ularning fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfologik va sintaktik sathlarda o‘zaro shartlangan holda qo‘llanishi asosida tadqiq etish muhimdir. Zero, badiiy-estetik ta’sir ko‘pincha birgina til birligi bilan emas, balki turli sathlarga mansub vositalarning muayyan matniy vaziyatda birlashib, yagona estetik-kommunikativ vazifani bajarishi natijasida

yuzaga keladi. Shu ma’noda, lingvopoetik sathlar sintezi Erkin Vohidov latifalaridagi xalqona kulgining yuzaga kelish mexanizmlarini hamda adibning badiiy mahoratini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Erkin Vohidovning “Donish qishloq latifalari” asarida mazkur xususiyat, avvalo, voqelik bilan uni ifodalash shakli o‘rtasidagi nomutanosiblik orqali namoyon bo‘ladi. Asarning kirish qismidayoq Donishqishloq ahli “donish” timsoli sifatida taqdim etilsa-da, keyingi misralarda ularning “donoligi” mutlaqo g‘ayrioddiy harakatlar orqali ochiladi: *“Jo‘yak tortib tomiga, Makka ekkan o‘shalar”, “Kalishini perronga, Yechib ketgan o‘shalar”, “Echkini sartaroshga Olib borgan u yerlik”,* kabi. Bu yerda kulgi faqat g‘ayrioddiy voqeadan emas, balki gapning grammatik jihatdan to‘g‘ri, ammo mazmunan mantiqsiz tuzilishidan yuzaga keladi. *“Makka ekkan”, “echkini sartaroshga olib borgan”* kabi birikmalarda grammatik xato yo‘q, lekin ularning mazmuni kutilmaganligi kulgini paydo qiladi. Demak, kulgi leksik ma’no va sintaktik qurilishning o‘zaro ta’siri asosida yuzaga keladi. *“O‘shalar”, “u yerlik”* kabi birliklarning takrorlanishi voqealarni oddiy va odatiy holatdek ko‘rsatadi. Aslida esa tasvirlanayotgan harakatlar g‘ayrioddiy. Ya’ni mazmun g‘ayrioddiy, ifoda esa xotirjam. Aynan shu qarama-qarshilik kulgini yuzaga keltiradi. Bu o‘rinda olmoshlar mazmundagi nomutanosiblikni kuchaytirib, kulgi ta’sirini izchil davom ettirishga xizmat qiladi.

Keyingi misralarda bu usul yanada kuchayadi: *“Oyga chiqmoq yo‘li bor, Juda oson degan ham, Temir yo‘lni ko‘tarsa, Tayyor narvon degan ham”.* Bu parchada kulgi *“temir yo‘l”*ni *“narvon”*ga tenglashtirish kabi mantiqsiz o‘xshatish asosida yuzaga keladi. *“Ko‘tarsa”* fe’li esa bu g‘ayrioddiy fikrni oddiy amaliy harakatdek ko‘rsatadi. Natijada so‘zlar o‘z ma’nosini saqlagan holda, kontekstdagi bog‘lanish kutilmagan xulosaga olib keladi. Demak, kulgi so‘zlarning ma’nosi, ularning gapdagi bog‘lanishi va kutilmagan xulosa orqali yuzaga kelib, qahramonning sodda va o‘ziga xos fikrlash tarzini namoyon etadi.

Latifalarda kulgi yaratishning muhim usullaridan biri — bir so‘z yoki birikmaning kontekstda turlicha ma’noda tushunilishidir. “Matmusaning dutori”da kulgi aynan shu yo‘l bilan yuzaga keladi. Matmusa yangi musiqa asbobini xotiniga tushuntirar ekan, uning qismlarini sodda, xalqona nomlar bilan izohlaydi: “Manov bog‘ichni parda, Manov ipni tor deydi. Manov quloq, bu xarrak, Ya’ni, eshak boladir”. Bu parchada “manov” so‘zining takrorlanishi nutqni so‘zlashuvga yaqinlashtirib, Matmusaning individual nutqiy qiyofasini ochib beradi.

Asosiy kulgi esa “qulog‘ini burardi” birikmasida yuzaga keladi. Bu ifoda bir tomondan frazeologik ma’noni, ikkinchi tomondan esa dutorning “quloq” qismi bilan bog‘liq bevosita ma’noni anglatadi. Xotinning bu ikki ma’noni aralashtirib tushunishi Matmusaning “Bobong parda qidirgan, Men uni topdim” degan javobi bilan yanada

kuchayadi. Natijada kulgi so‘z ma’nosi, frazeologik ifoda va qahramonlarning uni turlicha tushunishi asosida yuzaga keladi. Dialogdagi savol-javoblar esa bu ma’noviy ziddiyatni bosqichma-bosqich ochib beradi.

“Matmusa — rassom” latifasida kulgi boshqa usulda yuzaga keladi. Matmusa muzeydagi abstrakt san’atni tushunmaydi: *“Abstrakt san’atga / Tushunmadi mutlaqo”.* Shundan so‘ng u rassom bo‘lishga qaror qilib, oddiy buyumlardan *“mo‘yqalam”* yasaydi: *“Guldek mo‘yqalam bo‘ldi / Echkisining soqoli”.*

Bu yerda kulgi san’atga oid terminlar bilan oddiy maishiy tasavvurning to‘qnashuvi asosida quriladi. *“Abstrakt san’at”, “izm”, “yangi oqim”* kabi terminlar aslida maxsus estetik tushunchalarni bildiradi. Ammo ular Matmusaning sodda ijodiga nisbatan qo‘llanganda, terminlarning jiddiy ma’nosi bilan tasvirlanayotgan holat o‘rtasida nomutanosiblik yuzaga keladi. Natijada terminlar oddiy nomlash vazifasidan tashqari, *kinoyaviy ma’no* ham kasb etadi.

Latifadagi kulgi faqat Matmusaning soddaligiga emas, balki uning ishini jiddiy san’at sifatida talqin qilayotgan muhitga ham qaratilgan. Shu tariqa terminologik leksika, voqea va muallifning kinoyaviy munosabati birlashib, kulgining ijtimoiy-estetik mazmunini kuchaytiradi.

“Matmusaning charxpalagi”da kulgi asosan sintaktik takror va ma’noviy ziddiyat uyg‘unligi orqali yuzaga keladi. Matmusa charxpalakni *“shartta”* teskari qo‘yib, uni suvsiz holda aylantiradi. Qishloq ahlining “*ilmiy”* bahslari esa vaziyatni hal qilish o‘rniga yanada chigallashtiradi: *“Kim charxpalak kosasin / Yalpoq qilish kerak, der, / Kim kosaga osma sim / Qopqoq qilish kerak, der”. “Kim... der, kim... der”* shaklidagi sintaktik parallelizm fikrlarning ko‘pligini ko‘rsatsa-da, ularning amaliy samarasizligini ham ta’kidlaydi. Shakliy tartib va mazmuniy samarasizlik o‘rtasidagi nomutanosiblik shu orqali kulgini kuchaytiradi.

Kulminatsiya *“Teskariga oqizmoq / To‘g‘ri bo‘lar daryoni”* misralarida yuzaga keladi. *“Teskari” va “to‘g‘ri”* kabi qarama-qarshi ma’noli leksemalarning bir konstruksiyada qo‘llanishi qahramonning mantiqiy jihatdan g‘ayrioddiy xulosasini yuzaga chiqaradi. Demak, bu latifada kulgi leksik ziddiyat → sintaktik parallelizm → kutilmagan xulosa izchilligi asosida shakllanadi. Shu tariqa turli til sathlari vositalari birlashib, yagona komik mazmunni yuzaga keltiradi.

Frazeologik ma’noning qayta talqin qilinishi ham asarda muhim rol o‘ynaydi. “Matmusaning tandiri”da kulgi voqea bilan tildagi tayyor ifodalar o‘rtasidagi nomutanosiblik asosida yuzaga keladi. Matmusa tandir qurishda o‘z tanasidan qolip sifatida foydalanib, oxirida o‘zi qurgan tandir ichida qolib ketadi: *“Pilla yorar kapalak, / Qil so‘rilar xamirdan. / Lek Matmusa chiqolmas / O‘zi qurgan tandiridan”*. Bu yerda kapalakning pilladan chiqishi kabi tabiiy jarayon Matmusaning o‘zi yaratgan muhitdan chiqa olmasligi bilan qarama-qarshi qo‘yilib,

vaziyatning g‘ayrioddiyligi kuchaytiriladi. Kulgi “*Bir chora bor: arralang / Matmusaning boshini”* misralarida yanada keskinlashadi. Oddiy muammoni hal qilish uchun o‘ta keskin vositaning taklif etilishi vaziyatdagi nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi. Matmusaning bu taklifni deyarli tabiiy holdek qabul qilishi esa kulgini yanada kuchaytiradi. Demak, bu latifada kulgi vaziyat, obrazli ifoda va qahramon nutqidagi mantiqiy nomutanosiblikning birlashuvi orqali shakllanadi.

Shoir so‘z o‘yinidan ijtimoiy kinoyaga o‘tishda ham o‘zgacha usul qo‘llaydi. “Matmusaning Amerika ochishi”da kulgi oddiy so‘z o‘yinidan kengayib, ijtimoiy hodisalarni kinoyaviy tasvirlash darajasiga ko‘tariladi. Matmusa Amerika kashf etilishini o‘zicha talqin qilib, “*Shu joydan yer kavlasak / Nyu-Yorkdan chiqamiz”, “Naq Oq uyning tagidan”* kabi g‘ayrioddiy rejani taklif qiladi. “Amerika”, “Nyu-York”, “Oq uy” kabi geografik-siyosiy nomlarning oddiy *“yer kavlash”* harakati bilan bir kontekstda qo‘llanishi turli mazmun va miqyoslarning to‘qnashuvini yuzaga keltiradi.

Asar oxirida Amerikaga chiqish o‘rniga suv chiqishi, qishloqning “Mingquduq”, Matmusaning esa “Mirquruq” deb atalishi avvalgi fantastik tasavvurni real natija bilan bog‘laydi.

Demak, bu latifada kulgi geografik-siyosiy nomlar, maishiy leksika, g‘ayrioddiy sintaktik qurilish va kutilmagan natijaning o‘zaro birikuvi orqali yuzaga keladi. Shu jihatdan asarda lingvopoetik sathlar sintezi nafaqat kulgi, balki ijtimoiy kinoyani shakllantirish vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagi tahlillar “Donish qishloq latifalari”da kulgi bir xil usulda qurilmasligini ko‘rsatadi. Bir holatda asosiy mexanizm leksik-semantik ikkilanish bo‘lsa, boshqa holatda sintaktik parallelizm, yana bir holatda terminologik diskursning maishiy nutq bilan to‘qnashuvi, boshqasida esa frazeologik ma’noning qayta interpretatsiya qilinishi asosiy vazifani bajaradi. Biroq ularni birlashtirib turuvchi umumiy xususiyat mavjud**:** kulgi til sathlarining o‘zaro ta’sirida paydo bo‘ladi**.**

Shu nuqtai nazardan Erkin Vohidov latifalaridagi kulgini faqat yumoristik mazmun emas, balki tilning turli sathlaridagi birliklarni estetik maqsad asosida qayta funksionallashtirish natijasida yuzaga keladigan lingvopoetik hodisa sifatida baholash mumkin.

Ayniqsa, asarda Matmusa obrazining yaratilishida uning “nodonligi”ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tavsiflashdan ko‘ra, nutqi, so‘z tanlovi, mantiqiy xulosalari, savol-javoblari va g‘ayrioddiy nomlashlari orqali ko‘rsatish ustuvor. Shu sababli qahramon xarakteri bilan uning tili o‘rtasida bevosita munosabat mavjud: Matmusani til yaratadi, tildagi nomutanosiblik esa kulgini yaratadi. Shu tariqa “Donish qishloq

latifalari”da lingvopoetik sathlar sintezi kulgining tashqi bezagi emas, balki uning struktur-semantik asosi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, Erkin Vohidovning “Donish qishloq latifalari” asari kulgi estetikasi birgina yumoristik syujet yoki alohida badiiy-tasviriy vosita asosida emas, balki fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfologik va sintaktik sathlarga mansub birliklarning matniy-kontekstual munosabati va o‘zaro sintezi asosida shakllanadi. Asarda so‘zning kontekstual ma’no kasb etishi, polisemantik munosabatlar, so‘z o‘yini, xalqona leksika, terminologik birliklarning maishiy kontekstga ko‘chirilishi, sintaktik parallelizm, takror, dialogik qurilish, kutilmagan ma’noviy burilish kabi vositalar turli lingvopoetik sathlarni bir-biri bilan bog‘lab, komik vaziyatni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, Matmusa obrazining nutqiy qiyofasi uning tafakkur tarzi, voqelikni idrok etishi va baholash xususiyatlari bilan uyg‘un holda shakllanib, qahramon xarakterini til vositalari orqali ochishning o‘ziga xos namunasini namoyon etadi. Demak, “Donish qishloq latifalari”da kulgi lingvopoetik sathlarning oddiy yig‘indisi emas, balki ularning funksional-semantik integratsiyasi natijasida yuzaga keluvchi estetik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. –Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2010.
2. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. Toshkent: Fan, 1990.
3. Yo‘ldoshev M.Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.
4. Yusubova R. Tejamlilik va ortiqchalikning lingvopoetik xususiyatlari. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2021. – 313 b.
5. Vohidov E. Tabassum. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2017.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV RIVOJLANISHIDA NOVERBAL VOSITALARNING METODIK AHAMIYATI

N.A.Abduvaliyeva
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
nodiraxonabduvaliyeva@gmail.com
ORCID ID 0000-0002-9824-4622

ANNOTATSIYA:

Mazkur tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ rivojlanishida verbal va noverbal kommunikatsiya vositalarining o‘rni pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Maktabga qabul qilinish bilan bolaning ijtimoiy rivojlanish vaziyati o‘zgarishi, uning o‘qituvchi, tengdoshlar va boshqa kattalar bilan muloqot doirasining kengayishi kommunikativ ko‘nikmalarning yangi sifat bosqichiga ko‘tarilishini taqozo etadi. Tadqiqotda mimika, jest, pantomimika, ko‘z qarashi, tana holati, proksemik va paralingvistik vositalarning bolaning muloqot jarayonidagi funksional imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, kichik maktab yoshida refleksiya, ixtiyoriylik va ichki harakat rejasining shakllanishi noverbal signallarni idrok etish, anglash va interpretatsiya qilish qobiliyatlari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, kichik maktab yoshi, kommunikativ kompetensiya, pedagogik muloqot, verbal kommunikatsiya, noverbal kommunikatsiya, mimika, jest, pantomimika, ko‘z qarashi, proksemika, paralingvistika, refleksiya, kommunikativ ko‘nikma, pedagogik o‘zaro ta’sir.

Аннотация: В данном тезисе с педагогико-психологической точки зрения анализируется роль вербальных и невербальных средств коммуникации в коммуникативном развитии учащихся начальных классов. Изменение социальной ситуации развития ребёнка с поступлением в школу и расширение круга его общения с учителем, сверстниками и другими взрослыми обусловливают переход коммуникативных навыков на новый качественный уровень. В исследовании раскрываются функциональные возможности мимики, жестов, пантомимики, зрительного контакта, положения тела, проксемических и паралингвистических средств в процессе общения ребёнка. Также формирование рефлексии, произвольности и внутреннего плана действий в младшем школьном возрасте рассматривается во взаимосвязи со способностью воспринимать, понимать и интерпретировать невербальные сигналы.

Ключевые слова: начальное образование, младший школьный возраст, коммуникативная компетентность, педагогическое общение, вербальная коммуникация, невербальная коммуникация, мимика, жест, пантомимика, зрительный контакт, проксемика, паралингвистика, рефлексия, коммуникативный навык, педагогическое взаимодействие.

Abstract: This thesis analyzes, from a pedagogical and psychological perspective, the role of verbal and nonverbal means of communication in the communicative development of primary school pupils. The change in a child's social situation of development upon entering school and the expansion of communication with teachers, peers, and other adults require communicative skills to develop to a new qualitative level. The study examines the functional possibilities of facial expressions, gestures, pantomime, eye contact, body posture, proxemic, and paralinguistic means in the child's communication process. It also considers the development of reflection, volitional self-regulation, and an internal plan of action in primary school age in relation to the ability to perceive, understand, and interpret nonverbal signals.

Keywords: primary education, primary school age, communicative competence, pedagogical communication, verbal communication, nonverbal communication, facial expressions, gesture, pantomime, eye contact, proxemics, paralinguistics, reflection, communicative skill, pedagogical interaction.

Bolaning maktabga qabul qilinishi uning hayotida yangi ijtimoiy rivojlanish vaziyatining shakllanishiga olib keladi. Maktabgacha davrda bolaning asosiy faoliyati ko‘proq o‘yin bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, boshlang‘ich maktab davrida o‘quv faoliyati yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, bolaning ijtimoiy munosabatlari ham kengayib, u yangi kommunikativ hamkorlar o‘qituvchi, sinfdoshlar, boshqa pedagoglar va kattalar bilan muntazam muloqotga kirishadi. Natijada bolaning kommunikativ faoliyatiga qo‘yiladigan talablar ham ortadi. O‘quv faoliyati faqat bilimlarni egallash jarayoni bo‘lib qolmay, balki bolaning ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirishishining muhim vositasi hisoblanadi. V.V.Davidov kichik maktab yoshidagi o‘quv faoliyatini tahlil qilib, uning jarayonida bolaning ijtimoiy ong shakllarini egallashi, nazariy fikrlashi, tahlil qilish, rejalashtirish va refleksiya kabi intellektual imkoniyatlari rivojlanishini ko‘rsatadi [1: 30-b.]. Shu jihatdan, o‘quv faoliyati jarayonida shakllanadigan refleksiya bolaning o‘z xatti-harakatlari bilan bir qatorda, boshqa insonlarning xatti-harakatlarini kuzatishi va anglashiga ham zamin yaratadi. L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishini ijtimoiy muhit, faoliyat va muloqot bilan uzviy bog‘liq holda talqin qiladi [2:74-b]. Shu nuqtayi nazardan, bolaning kommunikativ tajribasi uning tafakkuri, nutqi va shaxsiy rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. A.N.Leontev ham

shaxsning shakllanishi faoliyat va ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi [3: 62-b].

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida kommunikatsiya o‘quvchining bilimlarni o‘zlashtirishi, topshiriqlarni bajarishi, savol berishi, o‘z fikrini ifodalashi, o‘qituvchi ko‘rsatmalarini anglash va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishining asosiy shartlaridan biridir. Shu sababli bolaning kommunikativ rivojlanishini faqat lug‘at boyligi yoki og‘zaki nutqning shakllanganligi bilan baholash yetarli emas. Muloqot jarayonida insonning yuz ifodasi, ko‘z qarashi, jestlari, tana holati, ovoz ohangi, nutq tempi, pauza va boshqa paralingvistik belgilar ham muhim kommunikativ axborot tashuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi [5: 34-b]. Insonlararo muloqotda tana harakatlari, mimika va boshqa noverbal belgilar kommunikativ mazmunni yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. M.Argyle noverbal xatti-harakatlarni shaxslararo kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib, tana holati, yuz ifodasi, ko‘z qarashi va boshqa belgilar orqali ijtimoiy munosabatlarning turli jihatlari ifodalanishini ta’kidlaydi [7: 111-b.]. A.Mehrabian esa emotsional munosabat va munosabat mazmunini ifodalashda verbal hamda noverbal signallarning o‘zaro aloqadorligiga e’tibor qaratadi [6: 68-b]. Zamonaviy tadqiqotlarda o‘qituvchining jestlari o‘quv materialini tushuntirish va o‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida qaralmoqda. O‘qituvchining spontan va maqsadli jestlari ta’lim jarayonidagi kommunikativ vazifalarni bajarib, ayrim holatlarda o‘quvchilarning materialni tushunishiga ko‘maklashishi mumkin. Ta’lim jarayonida jestlardan foydalanishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham jestlar murakkab tushunchalarni tushuntirishda qo‘shimcha kommunikativ resurs bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatiladi. Bu holat noverbal vositalarning faqat emotsiyani ifodalash vositasi emas, balki kognitiv va didaktik funksiyani ham bajarishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun o‘qituvchining yuz ifodasi, ovoz ohangi va jestlari ko‘pincha verbal mazmun bilan birgalikda idrok qilinadi. Masalan, o‘qituvchining rag‘batlantiruvchi so‘zlari samimiy tabassum, bosh irg‘ash yoki ko‘z bilan aloqa orqali qo‘llab-quvvatlansa, o‘quvchi ushbu kommunikativ signalni yanada yaxlit qabul qilishi mumkin. Aksincha, verbal jihatdan ijobiy mazmun ifodalangan bo‘lsa-da, mimika, ovoz ohangi yoki tana holati salbiy bo‘lsa, bola kommunikativ signallar o‘rtasidagi nomuvofiqlikni sezishi mumkin [7: 322-b]. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini noverbal kommunikatsiyaga o‘rgatishda asosiy vazifalardan biri verbal va noverbal signallar o‘rtasidagi munosabatni anglash qobiliyatini rivojlantirishdir. Bola nafaqat “nima aytilganini”, balki “qanday aytilganini”, “qanday qaralayotganini”, “tana qanday holatda ekanini” va “vaziyat qandayligini” ham tahlil qilishni o‘rganishi zarur.

Noverbal vositalarning muhim turlaridan biri mimikadir. Mimika yuz mushaklarining harakati orqali insonning emotsional holati, munosabati va kommunikativ niyatining ayrim jihatlarini ifodalash imkonini beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mimik signallarni farqlash ijtimoiy-emotsional rivojlanish bilan bevosita bog‘liq. Quvonch, hayrat, xafa bo‘lish, norozilik, qo‘rquv yoki qiziqish kabi holatlarni yuz ifodasidan anglash bolaning tengdoshlari va kattalar bilan samarali munosabat o‘rnatishiga yordam beradi [5: 86-b]. Biroq mimikani o‘rganishda uni universal va mutlaq belgilar tizimi sifatida talqin qilish metodik jihatdan to‘g‘ri emas. Shuning uchun o‘quvchi mimikani vaziyat, verbal nutq, ovoz ohangi va boshqa noverbal belgilar bilan birgalikda tahlil qilishga o‘rgatilishi lozim. Aynan shu yondashuv noverbal xulq-atvorni interpretatsiya qilishning kontekstual xarakterini ta’minlaydi.

Jestlar ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ faoliyatida muhim o‘rin egallaydi. Qo‘l harakatlari, boshning harakati, yelka va tana holati muloqot jarayonida turli funksiyalarni bajarishi mumkin. Ular ma’lum predmet yoki harakatni ko‘rsatish, nutq mazmunini ta’kidlash, suhbatdoshning e’tiborini jalb qilish yoki kommunikativ munosabatni ifodalash uchun xizmat qiladi. M.Argyle noverbal tana harakatlarini insonlararo muloqotning muhim kommunikativ resurslaridan biri sifatida izohlaydi [7: 324-b].

Paralingvistik vositalar ham noverbal kommunikatsiyaning muhim qismi bo‘lib, ovoz balandligi, tembr, intonatsiya, nutq tempi, ritmi va pauza kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchining ovoz texnikasi o‘quvchilarning diqqatini boshqarishda muhim vosita hisoblanadi. Bir xil verbal jumla turli intonatsiya bilan aytilganda turli kommunikativ ta’sirga ega bo‘lishi mumkin. Shu sababli o‘quvchilarni tinglash va nutqning faqat leksik mazmunini emas, balki uning intonatsion xususiyatlarini ham anglashga o‘rgatish kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim [5: 65-b.]. Shu nuqtayi nazardan, pedagogning professional kommunikativ kompetensiyasi o‘quvchilarning noverbal signallarini kuzatish, ularni kontekstual tahlil qilish va pedagogik vaziyatga mos ravishda javob qaytarish qobiliyatini ham o‘z ichiga olishi kerak. O‘qituvchi bolaning jim qolishi, ko‘zini olib qochishi yoki tana holatining o‘zgarishini darhol salbiy xulq sifatida baholamasligi lozim. Bunday belgilar turli psixologik, ijtimoiy yoki vaziyatli sabablar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu bois noverbal belgilarni interpretatsiya qilishda bir nechta signalni birgalikda tahlil qilish va vaziyat kontekstini hisobga olish muhimdir.

Noverbal kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonida refleksiyaning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Bola o‘zining muloqotdagi xatti-harakatlarini kuzata boshlagan sari o‘z kommunikativ xatti-harakatlarini baholash imkoniyatiga ega

bo‘ladi [1: 93-b.]. Shuning uchun boshlang‘ich ta’limda noverbal kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga tizimli yondashuv zarur. Mazkur yondashuvda noverbal vositalarning alohida turlari bilan bir qatorda ularning o‘zaro integratsiyasi, kommunikativ vaziyat, ijtimoiy kontekst, suhbatdoshning yoshi, munosabatlar xarakteri va muloqot maqsadi hisobga olinishi kerak. Bunda bolaning emotsional intellekti ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi suhbatdoshning emotsional holatini qanchalik to‘g‘ri anglay olsa, kommunikativ vaziyatga shunchalik mos javob qaytara oladi. Noverbal vositalardan foydalanishning samaradorligi esa ularni alohida va mexanik o‘rgatish bilan emas, balki verbal nutq, emotsional holat va ijtimoiy vaziyat bilan integratsiyalashgan holda o‘rgatish orqali ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аргайл М. Психология межличностного поведения. – М.: Прогресс, 2005.
2. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999.
3. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения: Опыт теоретического и экспериментального психологического исследования. – М.: Педагогика, 1986. – 240 с.
4. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1975.
5. Эльконин Д.Б. Психология игры. – М.: Педагогика, 1978.
6. Argyle M. Bodily Communication. – London: Methuen, 1988. – 220 p.
7. Mehrabian A. Silent Messages: Implicit Communication of Emotions and Attitudes. – Belmont, CA: Wadsworth, 1972. – 112 p.

THE DISTINCTIVE FEATURES OF THE RHYME SYSTEM IN HALIMA KHUDOYBERDIYEVA'S LYRIC POETRY

Pardayeva Nigora Kuysinboyevna
Doctoral Researcher (DSc), Jizzakh State Pedagogical University;
Lecturer, University of World Economy and Diplomacy;
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
E-mail: nigora.pardayeva@jdpu.uz
Tel.: +998 95 081 86 18
ORCID ID: 0009-0003-9840-8572

Annotation. The article examines the rhyme system in the lyric poetry of Halima Khudoyberdiyeva, a prominent representative of twentieth-century Uzbek poetry. In the practical section of the study, the theoretical and scholarly foundations of rhyme are explored through the analysis of more than ten poems written by the poet in different periods of her creative career. Particular attention is also paid to the forms of rhyming employed in poetic texts, the interaction between meter and intonation, and their distinctive rhythmic features. In this context, special emphasis is placed on the role of rhyme in shaping poetic discourse and enhancing its artistic expressiveness.

Keywords: Halima Khudoyberdiyeva, Uzbek poetry, rhyme theory, full and incomplete rhyme, double rhyme, rhyme order.

СВОЕОБРАЗИЕ СИСТЕМЫ РИФМОВКИ В ЛИРИКЕ ХАЛИМЫ ХУДОЙБЕРДИЕВОЙ

АННОТАЦИЯ:

В статье исследуются вопросы системы рифмы в лирике Халимы Худойбердиевой, выдающейся поэтессы узбекской литературы XX века. В практической части данного научного исследования на примере более десяти стихотворений поэтессы, написанных в разные годы, раскрываются научные основы рифмы. Кроме того, анализируются формы рифмовки в поэтическом тексте, гармония метра и интонации, а также их своеобразные ритмические особенности. Особое внимание уделяется роли рифмы в формировании поэтической речи.

Ключевые слова*:* Халима Худойбердиева, узбекская поэзия, теория рифмы, полная и неполная рифма, двойная рифма, порядок рифмовки.

Introduction

Rhyme is one of the principal poetic elements that contributes to the artistic perfection of poetic discourse. It performs a number of important functions, including reinforcing the rhythmic structure of a poem, creating euphonic harmony between lines, enhancing the expressive power of artistic imagery, vividly conveying the emotional experiences of the lyrical persona, and ensuring the aesthetic integrity of the work. Therefore, the study of rhyme not merely as an element of poetic form, but also as an artistic and aesthetic phenomenon that contributes to the formation of poetic meaning, is of considerable theoretical and practical significance. In recent years, Halima Khudoyberdiyeva's literary legacy has been examined in scholarly articles and research from various perspectives, including the representation of women's psychological experiences [1], the spiritual image of Uzbek women in lyric poetry [2], the poetic expression of national values [3,4], the depiction of the inner world in women's poetry [5], and the poetic features of her poems [6]. However, the rhyme system of the poet's lyric poetry and its distinctive characteristics have not yet been sufficiently investigated as a separate object of scholarly inquiry. This gap determines the relevance of the present study. The present research is based on hermeneutic, comparative, descriptive-analytical, and poetic analysis methods in order to identify the artistic and aesthetic features and poetic functions of rhyme in Halima Khudoyberdiyeva's poetry. These methods make it possible to examine rhyme not only as a phonetic and rhythmic phenomenon, but also as an important poetic element that shapes the semantic, compositional, and emotional-expressive structure of the poetic text.

Recent studies devoted to Halima Khudoyberdiyeva's literary legacy have examined the relationship between tradition and modernity in her lyric poetry, the distinctive features of poetic cycles, and the artistic transformation of folk-lyrical traditions [7, 8, 9]. These studies have contributed to illuminating important aspects of the poet's individual poetics. However, the structural, phonostylistic, and artistic-aesthetic features of the rhyme system in Halima Khudoyberdiyeva's lyric poetry have not yet been sufficiently investigated as an independent object of scholarly inquiry. This gap highlights the need for a focused study of rhyme as a significant component of the poet's individual poetic style.

In classical Eastern poetics, rhyme was regarded as an integral component of poetic text. Although rhyme is commonly associated with lyric poetry, it originally emerged in ordinary speech and was subsequently transferred into poetry. Literary scholar Izzat Sultan comments on this issue as follows: "Rhyme is most often used in poetry; however, it is not a phenomenon exclusive to poetry. The consistent use of rhyme in proverbs demonstrates that rhyme was, in fact, transferred from ordinary

speech into poetry. There is no doubt that proverbs emerged before poetic works, since a proverb expresses a single, unified idea, whereas a poem conveys a multitude of thoughts and emotions" [10:344]. While Izzat Sultan focuses on the historical and evolutionary origins of rhyme, K. Begley and L. Wash draw attention to its aesthetic and semantic functions: "Rhyme and other devices of phonetic harmony are consciously employed not only in poetic texts but also in rhetorical discourse as poetic devices that enhance aesthetic and semantic effect" [11:526–539].

In contemporary Uzbek literary studies, these traditional criteria, along with the poetic features of the structure of poetic discourse, are also being examined on the basis of new analytical approaches. In particular, N. Jabborov emphasizes that the criteria of poetry and its aesthetic perfection are formed in direct relation to the historical period and the evolution of artistic thought [12]. At the same time, while addressing issues concerning the editing of literary texts and their poetic structure, the scholar points out that poetic form and phonetic elements contribute to ensuring the overall semantic integrity of the text [13]. This phenomenon constitutes an important factor determining the heuristic nature of poetic imagery and formal experimentation in Uzbek national poetry, particularly in twentieth-century lyric poetry [14].

In Turkic literature, one of the earliest theoretical works devoted to literary studies, Shaykh Ahmad ibn Khudaydad Tarazi's *Funun al-Balagha*, includes a separate chapter on the theory and analysis of rhyme. The scholar states: "The essence of poetry is rhyme, and poetry without rhyme is impossible" [15:32]. This theoretical view demonstrates that, in Eastern poetics, rhyme was regarded not merely as a form of phonetic harmony, but as a fundamental poetic unit that ensures the compositional integrity and aesthetic perfection of a poem. This scholarly and theoretical perspective continues to serve as an important methodological basis for the historical-poetic study of rhyme and rhythmic segmentation. In addition, the scholar described such components of rhyme as *rawi*, *ridf*, *wasl*, and *khuruj*, thereby contributing to the formation of a systematic scholarly framework for the theory of rhyme in Eastern poetics.

In classical poetry, rhyme was regarded as one of the principal elements of verse. Each genre of classical literature, including the ghazal, rubai, fard, masnavi, and various forms of musammat, had its own established rhyme scheme. Abdurauf Fitrat comments on this issue as follows: "Rhyme occupied a very important place in our earlier poetry. … Depending on the form of verse, there was a specific order of rhyming. For example, if a work was a masnavi, each pair of lines had its own distinct rhyme…" [16:37].

In Uzbek literary studies, issues related to the types of rhyme, rhyme schemes, their governing principles, and the determination of their poetic structure have been

investigated by scholars such as I. Sultan, D. Quronov, and H. Umurov, who have also discussed three fundamental principles of rhyme [10, 17, 18].

From the perspective of historical poetics, the systems of rhyme and rhythmic segmentation are not static poetic phenomena, but rather products of historical development. Twentieth-century Uzbek poetry underwent a transition from the traditional poetic system to modern formal and thematic structures. The lyric poetry of this period is characterized by such features as the diversification of genres, the refinement of the system of poetic imagery, and the integration of the experience of world poetry with national poetics.

Results and Analysis

The examination of the range of rhyme types employed in Halima Khudoyberdiyeva's lyric poetry and the determination of their role in the structure of the poetic text make it possible to classify the rhyme patterns used by the poet into several major groups according to their structural organization, morphological characteristics, and degree of phonetic correspondence. Microstructural analyses demonstrate that, alongside traditional rhyming patterns, the poet also employs more complex forms characteristic of her individual poetic style. These include full rhyme, open rhyme, free rhyme, and double rhyme.

Below, the artistic and aesthetic functions of these rhyme types within the poetic text, as well as their role in shaping lyrical psychologism, are examined through specific examples. The poem "Tog' sayrida" ("A Mountain Excursion"), included in the poet's collection *Ilk muhabbat* (*First Love*, 1968), follows an a-b-a-b, c-d-c-d, **…** rhyme scheme, and this versification pattern is consistently maintained throughout the poem.

Tog'lar! *Tog'lar!* *Serviqor* *tog'lar!* – a
Muncha *ko'rkam,* *muncha* *buyuksiz.* – b
Sayr *etgani* *chiqqanim* *chog'lar* – a
Muncha dilga yaqin, suyuksiz. – b [21:16]

In the stanza cited above, the odd-numbered lines (*tog'lar – chog'lar*) and the even-numbered lines (*buyuksiz – suyuksiz*) rhyme with one another. Phonetic variation can be observed through the alternation of the initial consonant sounds in the rhyming words (t–ch, b–**s**). At the same time, the complete correspondence of the remaining vowel and consonant sounds, together with the attachment of the plural suffix -lar and the second-person predicative suffix **-siz** to the root words, results in the formation of full and grammatical rhyme.

For the rhyming words, the poet employs lexical items belonging to different parts of speech, namely nouns (*tog'* "mountain", *chog'* "time/moment") and adjectives (*buyuk* "great", *suyuk* "beloved/dear"). The phonetic and morphological

harmony of the rhyming words lends musicality to the text and contributes to the organization of the poem's rhythmic structure. The words selected for rhyme serve to convey the lyrical persona's admiration for the grandeur, beauty, charm, and distinctive appeal of nature, as well as the sense of tranquillity and well-being it brings to the human spirit. At the same time, they contribute to the vivid and emphatic expression of the lyrical subject's inner experiences and emotions. "Rhyme is the two wings of thought. Speech without rhyme becomes plain and ordinary. Rhyme assists in expressing ideological content beautifully and emphatically, and thereby acquires aesthetic significance" [19:368].

The poet also makes effective use of this rhyme scheme in a number of poems written in different years, including "Dorilamon kunlar keldi" ("Days of Peace Have Come"), "Qaytish" ("Return"), "Hech narsa yo'qdir dunyoda mavhum" ("Nothing in the World Is Abstract"), "Mening bog'im" ("My Garden"), "Rasul Hamzatovga" ("To Rasul Gamzatov"), "Senga barcha otilgan toshlar" ("All the Stones Thrown at You"), "…ga" ("To …"), "Yolg'iz ayol xati" ("A Lonely Woman's Letter"), "O'ylaymanki, uning qalbi yo'q" ("I Think She Has No Heart"), "Uyga" ("Home"), "To'g'on" ("The Dam"), and "Asir qushim" ("My Captive Bird").

The possibilities of rhyme organization in Halima Khudoyberdiyeva's lyric poetry are not limited to the a-b-a-b pattern. The poet also employs distinctive structural forms in the organization of rhyme. In particular, the poem "Biz olmamiz" ("We Are Apples") follows an a-a-b-b rhyme scheme:

Biz olmamiz shoxlardagi, to'kmasinlar, aytingiz – a
Daryo bo'lar ko'z yoshimiz, cho'kmasinlar, aytingiz – a
G'o'rmiz hali aytingizki, g'o'r mevani uzmaylar, – b
Go'dakning ham tonggi shirin uyqusini buzmaylar – b [22:28]

In the first two lines of the poem, the word aytingiz functions as a radif (refrain), while the preceding words (to'kmasinlar – cho'kmasinlar) form the rhyme. No radif is employed in the third and fourth lines; instead, the line-final words (uzmaylar – buzmaylar) constitute the rhyming pair. The root words used in these lines (to'k – cho'k; uz – buz) belong to the category of verbs. The repetition of the grammatical morphemes attached to these verbal stems—the negative suffix -ma, the imperative-optative marker -sin, the converb-forming morpheme -y, and the third-person plural/person-number marker -lar—strengthens the phonetic correspondence between the rhyming words and contributes to the poetic musicality of the lines. This morphological and phonetic correspondence results in the formation of full rhyme.

This poem was included in the poet's first collection of poetry. In it, the author, who was then entering the literary world, compares her own psychological state and artistic explorations, as well as those of other young writers, to "apples on a branch."

Through metaphorical imagery, the poem emphasizes the need to protect and preserve the still inexperienced feelings of the young poet, represented by the image of "unripe fruit," as well as her pure and untouched emotions, symbolized by "a child's sleep." An analysis of the rhyming words used in the subsequent lines of the poem shows that the pairs *rom – jom* and *jo'shib – qo'shib* form full rhyme due to the high degree of phonetic correspondence between them. By contrast, the pairs *boshladik – odamdek* and *charxlog'liq – bog'liq* constitute incomplete rhyme.

The theoretical essence of rich and open rhyme (full and incomplete rhyme) is explained in literary studies as follows: "In contemporary Uzbek poetry, rhymes are classified as open (incomplete) and rich (full) according to the degree of correspondence between their sounds. In rich rhyme, the sound structure of the rhyming words corresponds completely, whereas in open rhyme the correspondence is only partial" [10:368].

In Halima Khudoyberdiyeva's poetics, rhyme organization is not confined solely to the masnavi pattern of paired rhyme (a-a, b-b); the poet also makes effective use of the rhyme scheme characteristic of the murabba, namely a-a-a-b, c-c-c-b, d-d-d-b, …. In addition, a number of the poet's works written in different chronological periods, including "Ketaman" ("I Am Leaving"), "Qush tiliga yovuq kelsa qush tili" ("When the Language of Birds Comes Close to the Language of Birds," 24 July 1984), "Omon bo'ling" ("Farewell / Stay Well," 26 May 1988), "Bolalarim qadni ko'taring" ("My Children, Raise Your Heads," 12 September 1990), and "Haqqim yo'q" ("I Have No Right," 16 March 1997), also serve as important textual sources for the analysis of this particular rhyme system.

One of the relatively rare and structurally complex poetic devices in Uzbek poetry is double rhyme. As literary scholar I. Sultan notes, "The distinctive feature of double rhyme is that it occurs at the end of a line before the principal rhyme" [7:334]. A fine example of this device can be observed in the opening stanza of Halima Khudoyberdiyeva's poem "Bizning tog'da" ("In Our Mountains"), written on 22 April 1967:

Tog' boshida ro'molim qoldi, – a
O'sha-o'sha tinchim yo'qoldi. – a
Duch keladi unga qay ovchi, – b
Qaysi sayyoh, qaysi yo'lovchi. – b
Tog' boshida ro'molim qoldi. – a [21:22]

In the stanza structured according to the a-a-b-b-a rhyme scheme, the poet makes effective use of the possibilities of double rhyme in order to intensify both phonetic harmony and emotional expression. In the first and second lines, the words *qoldi – yo'qoldi* form the principal rhyme, while *ro'molim – tinchim* constitute the

internal rhyme. The double rhyme employed in this stanza does not merely create musicality; it also performs an important artistic and aesthetic function. The anxiety arising from the fact that a headscarf has been left behind on the mountain and may be found by someone else, together with the youthful excitement associated with this situation, conveys the psychological state of the lyrical persona. The subsequent stanzas of the poem continue in the same rhyme pattern. They artistically depict the moral qualities traditionally associated with Uzbek fathers, the courage and bravery of young men, as well as Uzbek national values.

Alongside traditional rhyme patterns, Halima Khudoyberdiyeva's poetics also employs the enclosed rhyme scheme (a-b-b-a), which serves to preserve a sense of compositional suspense within the stanza. This form, which is relatively less common in Uzbek poetry, demonstrates the breadth of the poet's formal experimentation. In particular, the following stanza from the four-stanza poem "G'orat uy…" ("The Plundered House…"), written on 1 July 1996, may serve as evidence of this observation:

Endi baliq bo'lib tutqazmayman dum, – a
Boshin silaganim boshimni yanchdi, – b
Ko'ksin ko'targanim ko'ksimga sanchdi, – b
Ko'zimga sepildi menga sirdosh qum! – a [22:446]

This biographical poem reflects the poet's life experiences, psychological state, and strong sense of self-confidence. The use of nouns (*dum – qum*) and verbs (*yanch – sanch*), together with the past-tense suffix -di attached to the verbal stems, not only contributes to the phonetic harmony of the lines but also serves to express the poet's determination. As literary critic Alexander Genis observes: "A poet is revealed not by the ideas that express his or her convictions, but by rhymes, which expose the poet's inner essence more impartially than any sincere confession. Such poems serve as monuments to a particular moment, preserving within themselves the uniqueness of lyrical experience" [23:128].

The rhyme system in Halima Khudoyberdiyeva's lyric poetry is not uniformly confined to a single fixed structural pattern. Changes in the poet's emotions and perspectives are reflected through shifts in the rhyme scheme from one stanza to another. The seven-stanza poem entitled "Manim arzu dodim bo'lak…" ("My Desire and Lament Are Different…") may serve as evidence of this observation.

Bu dunyoda *arz-u dod mo'l*, – a
Manim arzu *dodim* bo'lak. – b
Hamma xotir bilan *tirik*, – c
Manim xotir, *yodim* bo'lak. – b

Birovda *mol-u dunyo mo‘l*, – a
Ucharlarga tuzoq *qo‘ygay*. – d
Manim tuzoq, tuzim *so‘zdir*, – e
Zabonim, navvotim bo‘lak. – b

Qo‘sh olchadek ikki *qizcha*, – f
Uch o‘g‘ildir *orttirganim*. – g
Bu tiriklik *dunyosida*, – h
Yo‘qdir *daromadim* bo‘lak. – b [21:446]

In the opening lines cited above, concepts presented as common to everyone—such as “others possess abundant wealth and worldly goods” and “everyone lives with memories”—are immediately contrasted, through the rhyming words, with the lyrical persona’s individual inner world, as expressed in such phrases as “my memories and recollections are different” and “my snare and my order are words.” Here, rhyme functions not merely as a formal device of sound correspondence, but as a poetic means of vividly emphasizing the distinction between two worlds: the collective or external world and the poet’s personal inner world. The word *bo‘lak*, repeated in the fourth line of each stanza, functions as a radif (refrain). The preceding nouns—*dodim, yodim, navvotim, daromadim, halovatim, xarobotim,* and *tilovatim*—all contain the first-person singular possessive suffix -im and form an instance of incomplete rhyme. This type of rhyme, together with the accompanying radif, gives the poem a distinctive flow and an internal musical rhythm. The resulting sound pattern enables the reader to perceive a steady, melancholic, and restrained emotional tone that corresponds to the lyrical persona’s inner suffering.

Conclusion

The analysis demonstrates that, in Halima Khudoyberdiyeva’s poetry, rhyme is not merely a matter of phonetic harmony or lexical correspondence, but functions as a major aesthetic device that conveys the poetic idea of the work and reflects the psychological experiences of the lyrical persona. By making effective use of both traditional and modern rhyme schemes, the poet expands their semantic and phonostylistic potential. Overall, the rhyme system in Halima Khudoyberdiyeva’s poetry reveals the maturity and distinctiveness of the poet’s individual artistic style.

REFERENS

1.Qurbonboyeva, N. (2024). Ayol ruhiyati talqinida mazmunning poetik vazifasi [The poetic function of content in the interpretation of female psychology]. O‘zbekiston: til va madaniyat, (1/2).

2. Rustamova, X. (2026). O‘zbek ayolining ma’naviy qiyofasi: Halima Xudoyberdiyeva va Nodira Afoqova lirikasida. *Turkiy xalqlar adabiyoti*

taraqqiyotida ayollarning o‘rni: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qo‘qon, pp. 102-108.
3. Oripov, A. (2020). Jonfidolik. In H. Xudoyberdiyeva, *Tanlangan asarlar*. Sharq, pp. 3-14.
4. Yo‘ldoshev, Q. (2018). So‘z yolqini [The Flame of the Word]. Tashkent: G‘afur G‘ulom, p. 177.
5. Xalova, M. (2024). Hozirgi o‘zbek ayollar she’riyatida qalb tasviri va talqini (H.Xudoyberdiyeva, H.Ahmedova, Z.Mirzo ijodi misolida) [Depiction and Interpretation of the Soul in Modern Uzbek Women's Poetry]. Doctoral dissertation (DSc). Samarkand.
6. Xaytaliyeva, N. (2022). Hozirgi o‘zbek lirikasining poetik xususiyatlari (90-yillar ayollar she’riyati misolida) [Poetic Features of Modern Uzbek Lyrics]. Candidate dissertation (PhD). Tashkent.
7. Pardayeva, N. K. (2026). Tradition and modernity in lyrics: The case of Anbar Otin and Halima Xudoyberdiyeva. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 7*(05), 334–340. https://doi.org/10.37547/mesmj-V7-I5-39 Mental Journal
8. Pardayeva, N. K. (2026). Modern Uzbek poetry: Poetic cycles in the works of Halima Khudoyberdiyeva. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 7*(4), 523–525. https://doi.org/10.37547/mesmj-V7-I4-58
9. Pardayeva, N. K. (2026). Traditions of folk lyricism in the poetry of Halima Khudoyberdiyeva. *Экономика и социум, 6*(145).
10. Sulton, I. (1986). *Adabiyot nazariyasi* [Theory of Literature]. Tashkent: O‘qituvchi, p. 344.
11. Begley, K., & Wash, L. (2025). Towards a Computational Study of Ancient Greek Rhyme. In T. Arnold, M. Fantoli, & R. Ros (Eds.), *Computational Humanities Research 2025* (Vol. 3: Anthology of Computers and the Humanities, pp. 526–539). https://doi.org/10.63744/wzq90UqABYVz
12. Jabborov, N. (2014). Badiiy matn tahririning xususiyatlari [Features of literary text editing]. In “O‘zbek adabiyotshunosligining talqin va tahlil muammolari” mavzusidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari (pp. 28–32). Tashkent: Mumtoz so‘z.
13. Jabborov, N. (2015). Zamon, mezon, she’riyat [Time, Criterion, Poetry]. Tashkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 288 p.
14. Jabborov, N. (2019). Uzbek textology and text criticism in it, the role of scientific and critical text terminology. In Theoretical and source bases of studying Uzbek classical literature: Materials of conference (p. 9). Tashkent: Mumtoz soz.
15. Taroziy, A. (2002). Funun ul-balog‘a [Arts of eloquence]. *O‘zbek tili va adabiyoti*, (3), p. 32.

16. Fitrat, A. (2006). *Tanlangan asarlar* [Selected Works] (Vol. 4, H. Boltaboyev, Ed.). Tashkent: Ma'naviyat, p. 37.
17. Quronov, D. (2020). Adabiyot nazariyasi asoslari. Innovatsion-Ziyo.
18. Umurov, H. (2004). Adabiyotshunoslik nazariyasi. Xalq merosi.
19. *Adabiyot nazariyasi* [Theory of Literature] (Vol. 2). (1979). Tashkent: Fan, p. 368.
20. Quronov, D., Mamajonov, Z., & Sheraliyeva, M. (2010). Adabiyotshunoslik lug'ati. Akademnashr.
21. Xudoyberdiyeva, H. (2020). *Tanlangan asarlar* [Selected Works]. Tashkent: Sharq.
22. *Turkiy adabiyot durdonalari* [Masterpieces of Turkic Literature] (Vol. 29, F. Xudoyqulova, Comp.). (2022). Tashkent: O'zbekiston.
23. Genis, A. (2010). *Jahon adiblari adabiyot haqida* [World Writers on Literature] (M. Sharafiddinova & Sh. To'ychiyeva, Compilers and Translators). Tashkent: Ma'naviyat, p. 128.

TIL TA'LIMIDA FANLARARO INTEGRATSIYANING METODIK IMKONIYATLARI

Muxtarova Shaxnoza Mashrabovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
O'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi
shaxnoza1977xon@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada til ta'limida fanlararo integratsiyani tashkil etishning mazmuniy va metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ilmiy manbalarni qiyoslash asosida umumiy mavzu, nutqiy vazifa va baholash o'rtasidagi muvofiqlik yoritiladi. Madaniy xarita loyihasi misolida tarix, geografiya va adabiyot materiallarini til o'rganishga yo'naltirish usullari taklif etiladi. O'qituvchilar hamkorligi, individual ishtirok hamda ko'nikmalarni yangi vaziyatga ko'chirish integratsiyalashgan faoliyatning muhim shartlari sifatida asoslanadi. Tavsiyalar nazariy-metodik xususiyatga ega.

Kalit so'zlar: til ta'limi, fanlararo integratsiya, nutqiy faoliyat, loyiha, o'qituvchilar hamkorligi, baholash, ko'nikmalar transferi.

Annotation. This article examines methodological opportunities for interdisciplinary integration in language education. Comparative analysis of selected sources informs the alignment of shared topics, communicative tasks, and assessment. A cultural mapping project illustrates connections among history, geography, literature, and language learning. The proposed approach emphasizes teacher collaboration, individual participation, source reliability, and transfer to new contexts. Its recommendations are theoretical and methodological.

Keywords: language education, interdisciplinary integration, communicative activity, project, teacher collaboration, assessment, transfer of learning.

Til ta'limida o'quvchi o'zlashtirgan bilimning amaliy qiymati undan yangi vaziyatda foydalana olishida namoyon bo'ladi. Tarixiy ma'lumotni tushuntirish, xaritadagi yo'nalishni tavsiflash, badiiy matndagi fikrni sharhlash yoki kuzatish natijasini taqdim etish til vositalarini maqsadga muvofiq tanlashni talab qiladi. Fanlararo integratsiya ana shu ehtiyojlarni ta'lim mazmuniga olib kiradi. Bunda til boshqa fanlarga oid axborotni anglash vositasi bo'lishi bilan birga, o'quvchining mustaqil fikrini ifodalash imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Maqolada fanlararo integratsiyaning metodik imkoniyatlari umumta'lim maktabining ona tili mashg'ulotlari misolida tahlil qilinadi. Maqsad integratsiyalashgan ta'limni loyihalashda mazmun, nutqiy faoliyat va baholash o'rtasidagi bog'liqlikni asoslashdan iborat. Tadqiqot ilmiy-metodik manbalarni

qiyosiy tahlil qilish va o‘quv vaziyatlarini modellashtirishga tayangan. Natija sifatida darsni rejalashtirishga oid metodik tavsiyalar taklif etiladi; ular maxsus pedagogik tajribada o‘lchangan samaradorlik ko‘rsatkichlari sifatida talqin qilinmaydi.

B. To‘xliyev, M. Shamsiyeva va T. Ziyodova o‘zbek tili o‘qitish metodikasining pedagogika, psixologiya, mantiq va boshqa fanlar bilan aloqasini yoritib, umumdidaktik tamoyillar bilan birga kommunikativlik hamda nutqiy faoliyat shakllarining o‘zaro aloqadorligini ta’kidlaydi. [4: 14]. Bu nazariy asos darsdagi integratsiyaga tayanch bo‘ladi, lekin metodika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi va maktabdagi o‘quv predmetlarini birgalikda o‘qitish bir xil hodisa emas. Birinchisi metodikaning ilmiy asoslarini, ikkinchisi esa muayyan o‘quv vazifasining tashkil etilishini tavsiflaydi.

D. Yuldasheva integrativ yondashuvda turli fanlardan olingan bilim, ko‘nikma va tajribaga tayanish orqali kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishni nazarda tutadi. Ona tilining barcha fanlarni o‘rganish va o‘rgatish vositasi ekanligi bu yondashuvni asoslaydi. [5: 193–194]. Mazkur qarashdan kelib chiqib, til darsidagi integratsiyani o‘quvchining turli mazmundagi axborot bilan yagona nutqiy vazifa doirasida ishlashi sifatida tashkil etish mumkin.

S. M. Drake integratsiyalashgan o‘quv mazmunini hamkorlikda ishlab chiqish tajribasida multidissiplinar, interdissiplinar va transdissiplinar yondashuvlarni farqlaydi. Muallif umumiy mavzu ustida ishlash jarayonida fanlar o‘rtasidagi aloqalar va birgalikdagi faoliyat imkoniyatlari qanday aniqlanganini ko‘rsatadi. [1: 20–22]. Bu tajribani maktab amaliyotiga moslashtirishda integratsiyaning har bir ko‘rinishini dars maqsadi va mavjud sharoit bilan muvofiqlashtirish lozim.

Masalan, “Mahalla” mavzusining tarix, geografiya va ona tili darslarida alohida yoritilishi mavzuviy yaqinlikni ta’minlaydi. O‘quvchi shu fanlardan olgan ma’lumotlarini birlashtirib, mehmonlar uchun mahalla haqida izohli xarita tayyorlasa, fanlararo faoliyat yuzaga keladi. Loyihada mahalliy hamjamiyatning haqiqiy ehtiyoji o‘rganilib, yakuniy mahsulot shu ehtiyojga xizmat qilsa, faoliyatning hayotiy muammoga yo‘naltirilganligi kuchayadi. Ushbu misollar maqolada ishlab chiqilgan metodik talqin bo‘lib, barcha darslar aynan bir yo‘l bilan tashkil etilishi kerakligini anglatmaydi.

Integratsiyaning chuqurligi darsga nechta fan nomi kiritilgani bilan belgilanmaydi. Muhim jihat — o‘quvchi vazifani bajarishda ularning ma’lumotlari va ishlash usullarini o‘zaro bog‘lashga ehtiyoj sezishidir. Agar tarixiy matndan faqat sifatlarni ko‘chirib yozish talab qilinsa, matn mavzusi tarixga oid bo‘lsa ham, uning tarixiy mazmuni vazifani hal qilishda yetakchi o‘rin tutmaydi. Ayni matn asosida voqea sababini tushuntirish va tegishli til vositalarini tanlash so‘ralsa, mazmuniy hamda nutqiy faoliyat bir-biriga bog‘lanadi.

Darsni rejalashtirishda o‘quvchining yakunda qanday ishni mustaqil bajara olishi aniqlashtiriladi. “Fanlararo bilimni kengaytirish” kabi umumiy maqsad o‘rniga “ikki manbadagi ma’lumotni qiyoslab, dalillangan izoh berish” yoki “sxemadagi ma’lumotni tushunarli og‘zaki yo‘riqnomaga aylantirish” kabi kuzatiladigan natija belgilanishi maqsadga muvofiq. Shunda fan materiali, topshiriq va baholashning bir-biriga mosligi tekshiriladi.

Mazmun tanlashda mavzuning fanlar uchun tabiiy umumiyligi, o‘quvchining yoshiga mosligi va til o‘rganishga xizmat qilishi hisobga olinadi. Masalan, “o‘zgarish”, “vaqt”, “makon”, “sabab va oqibat” tushunchalari turli fanlarda uchraydi. Biroq ularni birlashtirishda har bir fanning dalilga qo‘yadigan talabi saqlanadi. Tarixiy voqea sanasi manba bilan, geografik tavsif xarita bilan, badiiy talqin esa asar matni bilan tekshiriladi. Bir sohada qo‘llangan izohlash usulini boshqasiga asossiz ko‘chirish integratsiya mazmunini soddalashtirib yuboradi.

S. Graham va M. Hebertning tadqiqotlar sharhida o‘qilgan matn haqida yozish turli fanlarga oid materialni tushunishga yordam berishi ko‘rsatilgan. [3: 25]. Ushbu natija o‘qish va yozishni birgalikda rejalashtirish uchun asos beradi. Til ta’limidagi moslashtirishda o‘quvchi ma’lumotni qayta ifodalaydi, manbadagi asosiy fikrni ajratadi va unga munosabat bildiradi. Bu faoliyatni maqsadli tashkil etish uchun o‘qituvchi qaysi mazmuniy va tilga oid qiyinchilik yuz berishini oldindan hisobga oladi.

Integratsiyalashgan topshiriqning hajmi ham muhim. Ko‘p manba, murakkab terminlar va bir nechta yangi janrni bitta mashg‘ulotga jamlash o‘quvchining asosiy vazifaga e’tiborini kamaytirishi mumkin. Dastlab bitta qisqa matn va bitta vizual manbani bog‘lash, keyinchalik material turini kengaytirish maqsadga muvofiq. Notanish terminlar izohi, savol yo‘riqnomasi yoki namunaviy jumla zarur o‘rinda vaqtinchalik yordam bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchi mustaqillashgani sari bunday tayanchlar qisqartiriladi.

7–8-sinflar uchun tavsiya etiladigan “Mahallamizning madaniy xaritasi” loyihasida yakuniy mahsulot sifatida yangi kelgan o‘quvchilar yoki mehmonlarga mo‘ljallangan izohli xarita va qisqa og‘zaki taqdimot tanlanadi. Loyihaning asosiy savoli: “Hududimizdagi muhim joylarni begona kishiga qanday aniq va ishonchli tanishtira olamiz?” Tilga oid vazifa axborotni saralash, manbani ko‘rsatish, fazoviy munosabatlarni ifodalash hamda auditoriyaga mos uslub tanlashdan iborat bo‘ladi.

O‘qituvchi mahalliy tarixga oid tekshirilgan qisqa ma’lumot, hududning shartli rejasi va o‘rganilayotgan adabiy asardan mavzuga mos parcha tayyorlashi mumkin. Materiallar aynan bir joy haqida bo‘lmasa, ularning o‘zaro munosabati alohida tushuntiriladi: adabiy parcha hudud tarixini isbotlash uchun emas, makon tasvirining

til xususiyatlarini kuzatish uchun olinadi. Bu ajratish badiiy tasavvur bilan tarixiy dalilning aralashib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Guruh xaritaga kiritiladigan joylarni tanlar ekan, har bir obyektga yoziladigan izohda nom, joylashuv, ahamiyat va foydalanilgan manbani qayd etadi. Tarixiy ma’lumot yetarli bo‘lmagan holatda taxmin aniq fakt sifatida yozilmaydi. “Mahalliy rivoyatga ko‘ra” va “manbada qayd etilishicha” kabi birliklarning vazifasi shu o‘rinda tushuntiriladi. Til tanlovi axborotning ishonchlilik darajasini ifodalashga xizmat qiladi.

Og‘zaki taqdimotga tayyorgarlikda o‘quvchi yozma izohni aynan o‘qib berish bilan cheklanmay, xaritaga qarab asosiy ma’lumotni tushuntiradi. Tinglovchi yo‘nalish yoki obyekt haqidagi noaniq o‘rinni savol bilan aniqlashtiradi. Masalan, “uning yonida” ifodasidagi olmosh qaysi joyga tegishli ekanligi tushunarsiz bo‘lsa, muallif obyekt nomini qayta qo‘llaydi. Bu kichik tahrir referensiya aniqligi, so‘z takrori va matnning tushunarliligi o‘rtasidagi munosabatni amaliy ko‘rsatadi.

Xaritadagi qisqa izoh bilan taqdimotdagi kengroq tushuntirishni qiyoslash uslubiy sezgirlikni rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Xarita uchun ma’lumot ixcham va tez o‘qiladigan bo‘lishi kerak; og‘zaki nutqda esa tinglovchining savoliga mos qo‘shimcha izoh beriladi. Shu mazmun asosida kichik e’lon yoki sayohat taklifnomasi tayyorlansa, o‘quvchi adresat va maqsad o‘zgarganda til vositalari ham o‘zgarishini kuzatadi. Barcha matnlarni bir darsda yaratish shart emas; ularning hajmi o‘quv rejasiga mos belgilanadi.

Mazkur loyihada tarix faktlarni tekshirishni, geografiya makondagi munosabatlarni anglashni, adabiyot tasvir vositalarini kuzatishni ta’minlaydi. Til ta’limi esa shu bilimlarni o‘quvchining mustaqil nutqiy mahsulotiga birlashtiradi. Integratsiya natijasi fanlarga oid parchalarning yonma-yon joylashishida emas, ularning tushunarli taqdimot yaratish uchun xizmat qilishida ko‘rinadi.

Integratsiyalashgan mashg‘ulotni bir necha o‘qituvchining bir vaqtda o‘tishi shart emas. Muhim hamkorlik material tanlash, faktlarni tekshirish va kutiladigan natijalarni kelishishda amalga oshadi. Til o‘qituvchisi tarixiy ma’lumotning ishonchliligini tarix o‘qituvchisi bilan muhokama qilishi, geografik yo‘nalishlarning aniqligini tegishli mutaxassis bilan tekshirishi mumkin. Vazifalar oldindan kelishilsa, bir fan doirasida o‘rganilgan mazmun boshqa darsda maqsadli qo‘llanadi.

Nutqiy faoliyatni tashkil etishda o‘qituvchi murakkab ishning bajarilish usulini ko‘rsatadi. S. Graham va hammualliflar yozuv strategiyalarini o‘rgatishda namuna, amaliyot va refleksiyani birlashtirishni hamda mas’uliyatni asta-sekin o‘quvchiga topshirishni tavsiya qiladi. [2: 19]. Loyihada ushbu tamoyil bitta obyekt haqidagi ma’lumotdan izoh tuzishni ko‘rsatish, boshqa obyekt uchun izohni o‘quvchining mustaqil yozishi va yakunda tanlangan ifodalarni asoslash orqali qo‘llanishi mumkin.

Baholash mezonlari loyiha boshlanishida tushuntiriladi. Mazmun bo‘yicha ma’lumotning aniqligi va manbaga tayanishi, nutq bo‘yicha izchillik va auditoriyaga moslik, integratsiya bo‘yicha esa turli manbalarning yagona vazifaga xizmat qilishi kuzatiladi. Rangli bezak yoki texnik murakkablik mazmuniy kamchilikni yashirmasligi kerak. Qog‘ozda tayyorlangan tushunarli xarita ham belgilangan nutqiy maqsadga to‘liq xizmat qilishi mumkin.

Guruh mahsuloti bilan birga har bir o‘quvchining hissasi ham aniqlanadi. Buning uchun undan o‘zi tanlagan ma’lumotni, yozgan izohini va tahrir sababini qisqa tushuntirish so‘raladi. “Men bu gapni nega o‘zgartirdim?” savoliga asosli javob o‘quvchining til vositasini ongli tanlayotganini ko‘rsatadi. Guruhdagi taqdimotchi faol bo‘lgani uchun barcha ishtirokchilarning nutqiy ko‘nikmasi bir xil baholanmaydi.

O‘zlashtirishning yangi vaziyatga ko‘chishini tekshirish uchun keyingi mashg‘ulotda boshqa mazmundagi kichik topshiriq beriladi. Masalan, madaniy xarita ustida o‘rganilgan aniqlik va manbaga tayanish talablari maktab kutubxonasi haqida ma’lumotnoma tuzishga tatbiq etiladi. O‘quvchi yangi mazmunda ham usuldan foydalana olsa, o‘qituvchi ko‘nikmaning qo‘llanish doirasi haqida ma’lumot oladi. Bunday kuzatuv metodik qaror chiqarishga yordam beradi; integratsiyaning sababiy samarasi haqidagi qat’iy xulosa esa alohida tadqiqot dizaynini talab qiladi.

Til ta’limida fanlararo integratsiyaning metodik imkoniyati o‘quvchini turli manbalardan ma’no yaratish va uni aniq nutqiy vaziyatda ifodalashga jalb etish bilan belgilanadi. Buning uchun darsda umumiy mavzu, fanlarga xos dalillash usullari va kuzatiladigan nutqiy natija o‘zaro muvofiqlashtirilishi kerak. Integratsiyalashgan faoliyatni kichik, bajarilishi mumkin bo‘lgan loyiha doirasida tashkil etish, har bir o‘quvchining hissasini aniqlash va o‘rganilgan usulni yangi mazmunda qo‘llatish amaliy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Shu asosda integratsiya ta’lim mazmunini bog‘lash bilan birga, o‘quvchining axborotga mas’uliyatli munosabati va mustaqil muloqot tajribasini shakllantirishga yo‘naltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Drake S. M. Integrating the Curriculum: How Our Team Dissolved the Boundaries // Educational Leadership. – 1991. – October. – P. 20–22. – URL: https://files.ascd.org/staticfiles/ascd/pdf/journals/ed_lead/el_199110_drake.pdf.
2. Graham S., Bruch J., Fitzgerald J., Friedrich L., Furgeson J., Greene K., Kim J., Lyskawa J., Olson C. B., Smither Wulsin C. Teaching Secondary Students to Write Effectively. NCEE 2017-4002.

3. Graham S., Hebert M. A. Writing to Read: Evidence for How Writing Can Improve Reading. – Washington, DC: Alliance for Excellent Education, 2010. – P. 25.
4. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 184 b.
5. Yuldasheva D. N. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. – Buxoro: Durdona, 2021. – 424 b.

KADIN SIYASI LIDERLERIN SÖYLEMINDE SIYASI VE DIPLOMATIK DEYIMLERIN KULLANIMI

Halbekova Nigora Ummatkulovna
Özbek Dili, Edebiyatı ve Folklör Enstitüsü
Araştırmacısı

Özet: Dünya kadın siyasi liderlerin kullandıkları siyasi-diplomatik dil hemde deyimler konusu modern dilbilimcilik alanında yeni aktif gelişmeye başlamış daldır. Pratik bakımdan araştırma konumuz İngiltereli kadın liderlerin siyasi söylem ve istifade ettikleri dili hem teorik hem pratik bakımdan incelemektedir.

Anahtar kelimeler: Siyasi söylem, kadın siyasi lider, siyasi-diplomasi deyim, konuşma dili.

Abstract: The study of the political-diplomatic language and idioms employed by female political leaders worldwide is a field that has recently begun to develop actively within modern linguistics. From a practical perspective, this research examines the political discourse and language usage of female political leaders from the UK, analyzing them from both theoretical and practical standpoints.

Keywords: Political discourse, female political leader, political-diplomatic idiom, spoken language.

Giriş. Siyasal iletişim ve diplomasi, geleneksel olarak eril bir hegemonik alan olarak şekillenmiş ve uzun yıllar boyunca ataerkil dil yapıları tarafından domine edilmiştir. Ancak 20. yüzyılın ikinci yarısından itibaren küresel siyasette kadın liderlerin sayısının artması, siyasi söylemde yeni bir dönemin kapılarını aralamıştır. Kadın siyasi liderler; karar alma mekanizmalarında varlık gösterirken yalnızca politikalarını değil, aynı zamanda kullandıkları kavramsal çerçeveleri, metaforları, deyimleri ve diplomatik hitabet biçimlerini de dönüştürmektedirler. Bu makale, kadın siyasi liderlerin hem iç politikada (siyasi) hem de uluslararası ilişkilerde (diplomatik) başvurdukları deyim ve kalıp ifadelerin yapısal özelliklerini, retorik stratejilerini ve işlevsel boyutlarını incelemektedir (unwomen.org).

İnceleme. Siyasi ve diplomatik söylemde toplumsal cinsiyet ve dil konusunda gerçekleştirilen araştırmalar az bulunmaktadır. İlkin Ruth Wodak ve "Dursley Okulu" yaklaşımı hakkında bahsetmek lazım. Ünlü dilbilimci Ruth Wodak, siyasi söylemde cinsiyetin ve gücün nasıl üretildiğini inceleyen öncülerdendir. Araştırmalarında, kadın liderlerin hem kamusal alanda otorite kurmak hem de toplumsal cinsiyet kalıplarını (stereotypes) aşmak için dili nasıl esnettiklerini diskursif-tarihsel yaklaşım ile analiz etmiştir. Yanı sıra, Avrupalı Mary Talbot ve Sara Mills gibi bilim adamları tarafından konu ile ilgili önemli araştırmalar hayata uygulanmıştır. Bu araştırmacılar,

dilin kadınlar üzerinde kurduğu "çift yönlü bağı" konusunu (double bind) makalelerinde detaylıca ele almışlardır. Kadın liderlerin kullandığı deyimlerin (örneğin uzlaşı veya sertlik içeren kalıpların) medya tarafından nasıl çarpıtıldığını veya cinsiyetçi bir süzgeçten geçirilerek okuyucuya sunulduğunu metin çözümlemeleriyle ortaya koymuşlardır (). Bu bilim adamlar sırasına, **Robin Lakoff,** Dil ve cinsiyet çalışmalarının öncüsüdür. 1975 yılında yayımladığı *"Language and Woman's Place"* kitabı ile kadınların dil kullanımındaki (kararsızlık belirteçleri, onay soruları, kibarlık kalıpları) dilbilimsel özellikleri ortaya koymuş, sonraki dönemlerde kadın siyasilerin hitabet analizlerine temel oluşturmuştur; **Deborah Tannen:** Kadın ve erkeklerin iletişim ve hitabet tarzlarındaki dilbilimsel farklılıkları (rapor dili ve yakınlık dili) incelemiştir. Kadın liderlerin kamusal alanda güç ve otorite kurarken kullandıkları dil stratejilerini araştırmıştır; **Norman Fairclough:** Doğrudan kadın dilbilimci olmasa da, geliştirdiği **Eleştirel Söylem Analizi yöntemi**, günümüzde Margaret Thatcher, Angela Merkel, Jacinda Ardern ve Sanna Marin gibi kadın liderlerin nutuklarındaki güç, ideoloji ve kimlik unsurlarını inceleyen modern dilbilimciler tarafından en çok kullanılan yöntemdir; **Sylvia Shaw:** Özellikle kadın politikacıların parlamentodaki konuşma dillerini, dilsel stratejilerini ve erkek egemen siyasi dille nasıl baş ettiklerini *"Women, Language and Politics"* gibi çalışmalarında dilbilimsel verilerle (söz kesmeler, hitap şekilleri vb.) incelemiştir (www.woman-polıtıcal-leaders). Tabiiki Doğulu bilim adamları tarafından bu konu ele alınmıştır. Özellikle Türk dilbilimciler bu yönde başarılı işler gerçekleiştirmişler. Örneğin, **Onur Yılmaz:** Türk ve Alman siyasetinde kadın liderlerin dilini politik dilbilim açısından incelemiştir. Angela Merkel ve Tansu Çiller'in hükümet programlarındaki ve nutuklarındaki dilsel yapıları karşılaştırmalı olarak analiz etmiştir. **Bezen Balamir-Coşkun ve Selin Akyüz:** Dünya siyasetinin güçlü kadın liderleri olan Angela Merkel, Theresa May ve Federica Mogherini'nin söylemlerini ve medyaya yansıyan imajlarını göstergebilimsel (semiyotik) ve dilbilimsel bir okumayla araştırmışlardır. **Şükriye Ruhi:** Türkiye'de dil, toplumsal cinsiyet ve pragmatik (edimbilim) üzerine öncü çalışmalar yapmış, kadınların kamusal alandaki dil kullanımlarına ve nezaket stratejilerine odaklanmıştır (turkey.unwomen.org). Bizim üzerinde çalıştığımız konu esas olarak İngiltereli kadın lider Margaret Thatcher hemde Kraliçe II. Elizabeth'in (Elizavetta) kullandıkları siyasi söylem hemde istifade ettikleri deyimlere odaklanacaktır.

Kadın Liderlerin Siyasi Deyimlerinin Özellikleri. Bahsettiğimiz lider kadınların genel olarak kullandıkları deyimler, adete benzerlik taşımaktadır. İç politika ve parti içi mücadelelerde onların başvurduğu deyimler, genellikle iki temel amaca hizmet eder: marjinalleştirme çabalarına karşı meşruiyet kazanmak ve tabanla

samimi bir bağ kurmak. Bu bağlamda kadın liderlerin kullandığı siyasi ve diplomatik deyimler şu temel özelliklerle şekillenir:

- **Kapsayıcılık ve Toplumsal Bağlantı:** Soyut ve mesafeli siyasi terimler yerine, geniş halk kitlelerinin günlük yaşam tecrübelerine hitap eden deyimlerin seçilmesi.
- **Yumuşatılmış Güç (Soft Power) Vurgusu:** Sert retorik ve tehdit dili yerine, dolaylı anlatım ve imalı deyimler vasıtasıyla diplomatik esneklik kazanılması.
- **Empati ve İş Birliği Odaklılık:** Diplomaside kilitlenmeleri çözmek amacıyla kolektif sorumluluğa ve ortak değerlere atıfta bulunan kalıp ifadelerin kullanımı.
- **Ev İçi ve Yerel Metaforların Politikleşmesi:** Kadın liderler, geleneksel olarak kamusal alanın dışında bırakılan "ev" ve "toplum" kavramlarını birer siyasi deyim havuzu olarak kullanabilmektedir. Örneğin, bütçe yönetimi veya kriz yönetimi gibi karmaşık siyasi süreçler, halkın kolayca anlayabileceği ev içi düzen ve denge deyimleriyle harmanlanarak aktarılır.
- **Dayanışma ve Sabır Odaklı Deyimler:** Siyasi engeller ve cam tavan sendromu ile mücadele ederken, uzun soluklu mücadeleyi ve kararlılığı simgeleyen deyimler ön plana çıkar. Bu ifadeler, edilgen bir bekleyişi değil; stratejik, sabırlı ve dirençli bir politik duruşu temsil eder.
- **Direnç ve Esneklik (Resilience) İfadeleri:** Siyasetteki cinsiyetçi engellere karşı geliştirilen deyimler, genellikle fiziksel güçten ziyade mental esnekliğe ve kriz anında bükülmeyip ayakta kalmaya odaklanır.

Bunun dışında, geleneksel diplomatik krizlerde kullanılan "kırmızı çizgiler" veya "savaş ilanı" niteliğindeki keskin deyimlerin yerini, müzakere alanını açık tutan "köprüler kurmak", "ortak paydada buluşmak" veya "diyalog kapılarını aralık tutmak" gibi yapıcı deyimler almaktadır. Diplomatik deyimlerin içeriği, sadece devletler arası mekanik çıkarlardan ziyade insani güvenlik, iklim krizi, mülteci hakları ve sosyal adalet gibi temaları kapsayacak şekilde genişletilmektedir. Uluslararası zirvelerde ve ikili görüşmelerde, karşı tarafın kültürel kodlarını ve hassasiyetlerini gözeten, diplomatik nezaketi en üst düzeyde tutan ancak kararlılıktan ödün vermeyen dolaylı anlatım kalıpları tercih edilir. Kadın liderlerin deyim ve metafor tercihleri her zaman özgür bir alan içinde gerçekleşmez. Siyaset sahnesindeki kadınlar, ikili bir baskıyla karşı karşıyadır: Çok sert bir dil kullandıklarında "fazla erkeksi" olmakla eleştirilirler; geleneksel olarak "yumuşak" kabul edilen bir dil kullandıklarında ise zayıf olmakla ya da krizleri yönetememekle suçlanırlar. Bu nedenle kadın liderlerin diplomatik deyim kullanımındaki en belirgin stratejik özellik "stratejik denge"dir. Kraliçe II. Elizabeth, aktif siyasetin üzerinde, tarafsız ve birleştirici bir figür olarak onlarca yıl boyunca eşsiz bir diplomatik hitabet geliştirmiştir. Onun dili, Thatcher'ın çatışmacı tarzının aksine, Brown ve Levinson'ın

Yüz Teorisi (Politeness Theory) çerçevesinde kusursuz bir edimbilimsel incelik barındırır.

Dolaylılık ve Yüzü Koruma (Face-Saving): Kraliçe'nin ulusa seslenişlerinde veya devletler arası krizlerde kullandığı deyimler ("Zamanın testinden geçmek", "Ortak değerlerin paydasında buluşmak"), asla doğrudan bir tehdit veya emrivaki içermez. Bunun yerine, "İstişare kapılarını açık tutmak" gibi yapıcı kalıplarla negatif yüz tehditleri (FTAs) minimuma indirilir. Margaret Thatcher, erkek egemen bir siyaset sahnesinde iktidarı elinde tutabilmek için geleneksel olarak erkeksi kodlanan siyasi deyimser alanları benimsemiş ve hatta bunlara yeni bir boyut kazandırmıştır. **Ontolojik Metaforlar ve Savaş Dili:** George Lakoff ve Mark Johnson'ın *Kavramsal Metafor Teorisi* bağlamında, Thatcher'ın söyleminde **"Siyaset bir savaştır"** ($Politics\ is\ war$) ontolojik metaforu baskındır. "Demir Leydi" (The Iron Lady) lakabı, bizzat Sovyet basını tarafından verilmiş ancak Thatcher tarafından benimsenerek kurumsal bir deyimsel kimliğe dönüştürülmüştür. Thatcher; "Geri adım atmayacağım" (*No turning back*), "Hattı korumak" veya "Çelik irade" gibi katı kalıp ifadeleri sıklıkla kullanmıştır. Bu deyimler, bilişsel düzlemde esnek olmayan, dikey ve hiyerarşik bir otorite modelini temsil eder. Thatcher örneği, kadın liderlerin iktidar alanında var olabilmek için bazen tamamen eril bir deyim dağarcığını içselleştirerek (mimesis stratejisi) sistemi kendi silahıyla alt etmeye çalıştığını gösterir. Bu liderler, geleneksel askeri deyimler yerine; "Köprüler kurmak", "Ortak evimizi korumak" (çevre ve kriz politikalarında) veya "Krizin yükünü birlikte omuzlamak" gibi toplumsal iş birliğini tetikleyen deyimsel kalıplara yönelirler. Kraliçe'nin dilinde günlük argodan arındırılmış, arkaik ancak son derece işlevsel diplomatik deyimler yer alır. Bu deyimler, anlık krizlerin ötesinde kalıcı bir istikrar algısı yaratır.

Sonuç. Kadın siyasi liderlerin siyasi ve diplomatik deyim kullanımları, eril politik dilin tek tip yapısını kıran ve zenginleştiren önemli bir dönüştürücü güçtür. Bu liderler, dili sadece bir iktidar aracı olarak değil, aynı zamanda toplumsal barışı, kapsayıcılığı ve sürdürülebilir diplomasiyi inşa etmenin bir enstrümanı olarak konumlandırmaktadırlar. Siyasi söylemde evrensel insani değerleri öne çıkaran bu yaklaşım, hem iç politikadaki kutuplaşmaları yumuşatmakta hem de uluslararası ilişkilerde diyalog odaklı yeni bir diplomatik gramerin temellerini atmaktadır.

Kaynaklar:

1. Kütükçü, A. (2017). Türkiye'de Kadın Liderlik Alanında Yapılan Lisansüstü Tezlerin İncelenmesi, İstanbul Üniversitesi Kadın Araştırmaları Dergisi, 26-47.
2. LAKOFF, R. (1973). "Language and Woman's Place". Language in Society, Vol. 2, No. Cambridge University Press.
3. Smith, D.G. & Nikolov, C.M. (2018). Kadın ve Erkek Liderleri Tanımlarken Farklı Sözcükler mi Kullanıyorsunuz?, Harvard Business Review, Türkiye, 14-17.

4. Yılmaz, Ş. (2018). Exploring Female Leadership Behaviours In Regards Of Barriers, Yönetim ve Organizasyon Doktora Tezi, Bahçeşehir Üniversitesi, İstanbul. YÖK, (2020). https://istatistik.yok.gov.tr/
5. Yule .G. (2020). The Study of Language. Cambridge University Press. Seventh Edition.

ODIL YOQUBOVNING “ULUG‘BEK XAZINASI” ROMANIDA BOSHQA TILLARDAN KIRGAN LEKSEMALAR

Butayev Akramjon Achilovich
Jizzax DPU o‘qituvchisi
a.butayev.048@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanida boshqa tillardan o‘zlashgan leksemalarning qo‘llanish xususiyatlari tadqiq etilgan. Asar leksikasida arabcha va forsiy birliklardan tashqari, sanskritcha, so‘g‘dcha, xitoycha, yunoncha hamda mo‘g‘ulcha o‘zlashmalarning mavjudligi aniqlanib, ularning tarixiy-lisoniy xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqotda ayrim o‘zlashmalarning etimologiyasi, semantik taraqqiyoti va roman matnidagi ma’no xususiyatlari manbalar asosida tahlil qilingan. Xususan, *fil, bog‘, rang, chang, zumrad, marmar, piyola, qandil, navkar, dorug‘a, hirovul, javong‘ir, barong‘ir* kabi leksemalarning qo‘llanishi tarixiy va qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mazkur birliklarning qadimgi va o‘rta asr yozma manbalaridagi shakl hamda ma’nolari bilan qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqot natijalari romandagi o‘zlashmalar o‘zbek tili leksik tarkibining tarixiy boyish jarayonini aks ettirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Ulug‘bek xazinasi, Odil Yoqubov, o‘zlashma leksemalar, tarixiy leksika, etimologiya, semantika, sanskritcha o‘zlashmalar, so‘g‘dcha o‘zlashmalar, mo‘g‘ulcha o‘zlashmalar, o‘zbek tili.

Аннотация. В данной статье исследуются особенности употребления лексем, заимствованных из других языков, в романе Одила Якубова «Сокровище Улугбека». Наряду с арабскими и персидскими элементами в лексическом составе произведения выявлены заимствования из санскрита, согдийского, китайского, греческого и монгольского языков. В работе рассматриваются историко-лингвистические особенности данных единиц, их этимология, семантическое развитие и функционирование в художественном тексте. Особое внимание уделяется таким лексемам, как *fil, bog‘, rang, chang, zumrad, marmar, piyola, qandil, navkar, dorug‘a, hirovul, javong‘ir* и *barong‘ir*. Их значения и формы сопоставляются с соответствующими единицами, зафиксированными в древних и средневековых письменных памятниках тюркских языков. Анализ показывает, что заимствованная лексика романа отражает длительные языковые и культурные контакты народов Центральной Азии. Исследование также раскрывает роль заимствований в формировании

исторического колорита произведения и художественном воссоздании языковой среды эпохи Улугбека.

Ключевые слова: «Сокровище Улугбека», Одил Ёкубов, заимствованные лексемы, историческая лексика, этимология, семантика, тюркские языки, монгольские заимствования, согдийские заимствования, языковые контакты.

Abstract. This article examines the use of lexical units borrowed from other languages in Odil Yoqubov's historical novel *Ulug'bek xazinasi* (*Ulugbek's Treasure*). In addition to Arabic and Persian elements, the lexical composition of the novel contains borrowings from Sanskrit, Sogdian, Chinese, Greek, and Mongolian. The study focuses on the historical and linguistic characteristics of these lexical units, including their etymology, semantic development, and contextual meanings in the literary text. Particular attention is paid to such words as *fil, bog', rang, chang, zumrad, marmar, piyola, qandil, navkar, dorug'a, hirovul, javong'ir,* and *barong'ir*. Their forms and meanings are compared with relevant examples found in ancient and medieval written sources. The analysis demonstrates that borrowed vocabulary in the novel reflects long-term linguistic and cultural contacts among the peoples of Central Asia. It also contributes to the reconstruction of the historical linguistic environment and demonstrates the role of lexical borrowings in creating historical authenticity and enriching the language of Uzbek historical prose.

Keywords: Ulugbek's Treasure, Odil Yoqubov, borrowed lexemes, historical vocabulary, etymology, semantics, Sanskrit borrowings, Sogdian borrowings, Mongolian borrowings, language contacts.

"Ulug'bek xazinasi" romanida arabcha va forsiy istilohlardan tashqari juda oz bo'lsa-da, sanskritcha (fil), so'g'dcha (namoz, bağ, raŋ), xitoycha (čaŋ), yunoncha (zumrad, daftar, Rum), mo'g'ulcha (barlos, bakovul, yasovul, navkar, hirovul, shaqovul, chapovul, dubulg'a, dorug'a, javong'ir, barong'or) [1:72-79]. so'zlar ham qo'llangan.

Ilk bor Ahmad Yugnakiyning "Hibatul-haqoyiq" asarida uchragan sanskrit- cha fil o'zlashmasi "Ulug'bek xazinasi" romanida ayni shakl va qayd etilgan ma'noda ko'zga tashlanadi: Bu fillar uning suvoriylariga dahshat solgani boisidan u dorussaltana tomon chekinmoqni lozim ko'rgan. A.Shcherbakning fikricha, pil ning eron tillari leksik qatlamiga mansublik ehtimoli kam. Shuning uchun uni sanskritcha pilu va assuriycha piru so'zlariga qiyoslash mumkin [4:139].

So'g'dcha bog' so'zi Turfon matnlarida "mevazor, chamanzor" ma'nosini anglatgan: Azu bağ borluqï tarïğ – Yoki bog', uzumzor, ekinzorda. Mahmud Koshg'ariyning "Devoni"da "uzumzor", "Qisasi Rabg'uziy" asarida "mevazor"

ma’nosini ifodalagan: Xatunï aydï: bir qonaq keldi... bağda yatur, barïb körgil, ta’am tiläsä bergil tedi. Leksema tadqiq qilinayotgan asar lug‘at tarkibida o‘zining asl sememasida qayd etilgan: …yo‘l bo‘yidagi yuksak sarvlarga, kechasi yomg‘irda cho‘milgan bog‘larga, adirlarni qoplagan ho‘l maysalarga, musaffo osmonda milt-milt yongan so‘nggi yulduzlarga suqlanib qarar, qarab to‘ymas edi.

Alisher Navoiy asarlarida “bo‘yoq”, “xil, tur”, “naf, foyda”, “ko‘rinish yuz”, “o‘xshash”, “yurish-turish”, “boylik, mansab” kabi ma’nolarni anglatgan **rang** atamasi “Ulug‘bek xazinasi”da “tus, bo‘yoq”ni, **rangi o‘ch-** iborasi tarkibida kelib, “qo‘rqmoq, sarosimaga tushmoq” sememasini bildirgan: *Oldinda borayotgan murid, devorlari och firuza rangga bo‘yalgan dahlizdan o‘tib chap qo‘ldagi o‘ymakor eshikni ochdi*; *Shahzoda Abdul’aziz rangi o‘chib, ko‘zlari bejo javdirab o‘tirar, pastki jag‘i g‘alati qaltirar edi*.

Romanda xitoy tilidan o‘zlashgan **chang** so‘zi “musiqa asbobi” ma’nosini bergan: *U tushidagina emas, o‘ngida ham dod solib baqirib yubordi chamasi, chang va setor ovozi kelayotgan yondosh xonadan balxlik saroybon bilan yana bir mahram yugurib chiqdi*. Termin “Oltun yoruq” yodgorligida “qo‘ng‘iroqcha”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “zarbli musiqa asbobining tarelkasi” ma’nolarida kelgan: *Sol iligintä čang tutar*. O‘zlashma XIV asr Xorazm yodnomalarida “musiqa asbobi” semasini anglatgan: *Sewär šāhlïqdïn artuq čang ünin* **[1:78].**

Turkiy tillar so‘z boyligidagi yunoncha o‘zlashmalar asrlar mobaynida olib borilgan madaniy munosabatlar va arab tili ta’sirida kirib kelgan **[1:79].** Xususan, XIV asr Xorazm yodnomalarida qo‘llanishda bo‘lgan “oliy sifatli, och yashil tusli qimmatbaho tosh” ma’nosidagi **zumarrad/zumurrud [1:80]** tadqiqot ob’ekti qilib olingan asarda **zumrad** shaklida uchraydi: *...faqat parda chetini ushlagan zaifaning oppoq qo‘li ko‘rinar, zumrad ko‘zli qo‘sh uzuk taqilgan nozik barmoqlar go‘yo nimanidir timirskilaganday titrar edi...* Shu bilan birga, romanda ushbu so‘zning arabcha **zabarjad** ma’nodoshi ham ishlatilgan: *Katta sandiq yal-yal yongan olmos, la’l, yoqut, inju, zabarjad va yana qandaydir nafis tovlangan qimmatbaho toshlar bilan limmo-lim edi*.

Marmar сўзи “ганч” маъносини англатиш учун хизмат қилган: *Qïzïl altundïn tört azaqlarïğa marmar ornatmiš*. Ўзлашма «Гулистон бит-туркий» асарида ҳам айни маънода ишлатилган: *Faraší kök marmar* **[1:81].** Мазкур ўзлашма “Ulug‘bek xazinasi” романида зикр қилинган маънони акс эттирган: *Bu – devorlari qora marmar bilan qoplangan, shifti past, torgina chorsi xona bo‘lib, ichi muzday sovuq edi*.

Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida «suv ichiladigan yassi kosacha» **piyāla**, «osma chiroq turi» esa **qandil** deb nomlangan: *Qārunma altun piyāla čïqarïb*

Musā utrusïnda qoyub mutriblar hāzir qïlïb…xamr ičär erdi; *Butaqlarï kümüšdin bir qandil qïldï*. Har ikkala leksema oldingi davr yodnomalarida kuzatilmasa-da, XIV asr Xorazm manbalarida o‘z ma’nolarida qo‘llanilgan: *Sundï piyāla*; *Taqï tört yüz kümüšdin qandillar qïldurdï* **[1:82]**. Ushbu o‘zlashmalarni o‘rganilayotgan manbada ham ko‘rsatilgan sememalarda uchratish mumkin: *Bu – odatda beriladigan piyolaning yuzidekkina arpa nonga o‘xshamas, jo‘xori unidan yopilgan, qalin yumaloq to‘qach edi*; *Shiftdagi qandil va tokchalardagi oltin shamdonlarga terilgan shamlarning ko‘pchiligi o‘chirilgan, mehmonxona g‘ira-shira edi*.

Hozirgi turkiy tillar leksikasining o‘zlashgan qatlamining ma’lum qismini mo‘g‘ul tilidan olingan so‘zlar tashkil qiladi. Bunga asosiy sabab, bir tomondan, o‘tmishda turk, mo‘g‘ul, tungus-manjur urug‘ va qabilalarning genetik birligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, keyingi davrlarda turkiy qabilalar uyushmalari va elatlari yashaydigan deyarlik butun hududlarning mo‘g‘ullar tomonidan istilo qilinishidir. Qayd etish joizki, turkiy va mo‘g‘ul tillarining o‘zaro aloqasi, tabiiy, ikki tomonlama kechgan. Mo‘g‘ul tili turkiy tillarga ta’sir etgani kabi, o‘z navbati- da, turkiy tillar ham mo‘g‘ul tiliga o‘z ta’sirini o‘tkazgan [2:37].

“Ulug‘bek xazinasi” asarida **navkar** harbiy termini “mulozim, xizmatkor, xizmatch” ma’nosiga ega: *Lekin mash’al ushlagan navkarlar undan oldin yetib borib, suvoriylarni otdan tushira boshlashdi*. Bobur va Shayboniyxon qo‘shinida mo‘g‘ulcha *navkar* o‘zlashmasining qo‘llanish darajasi baland bo‘lgan. Chingiziylar davrida *navkar* istilohi xon yoki boshqa mo‘g‘ul rahnamolari xizmatida bo‘lgan shaxs (drujinachi)larga nisbatan qo‘llangan. Tarix navkarlarning mustaqil korpus va qo‘shinga qo‘mondonlik qilganidan dalolat beradi [3:68].

Romanda “shahar tartibini nazorat qiluvchi mirshab, bosh mirshab” **dorug‘a** nomi bilan yuritilgan: – *Bilmasang bilib qo‘y: bul chanoqiyga dorussaltana dorug‘asi Mironshoh bilan shayxulislom Burhoniddin janoblari lutfan tashrif buyurmishlar!* Movarounnahr hukmdorligi mo‘g‘ullar tomonidan Mahmud yalavochga berilgach, mo‘g‘ul harbiy guruhlar boshqaruviga *darug‘a*lar tayinlangan. Temuriylar saltanatida mahalliy sulola vakillari yoxud nomdor sarkardalarga davlat oldidagi xizmatlari evaziga *darug‘a* lavozimi berilgan va ular nafaqat qal’a, qo‘rg‘on yoki shaharning harbiy komendanti, shuningdek, muayyan hududning rahbari sifatida faoliyat yuritib, harbiy, fuqarolik va moliliya masalalarida mas’ul hisoblangan [3:25].

Shuningdek, romanda **hirovul** (qo‘shinning ilg‘or qismi), **javong‘ir** (qo‘shinning chap qanoti), **barong‘ir** (qo‘shinning o‘ng qanoti), **chopovul** (bosqin, talon-taroj) va **shaqovul** (pistirmadagi asosiy qo‘shin) singari mo‘g‘ulcha so‘zlar ham kuzatiladiki, ushbu o‘zlashmalar bugungi adabiy tilimizda qo‘llanmaydi: *Bobosi Amir Temur bunday holatlarda g‘animning hirovul qo‘shinlarini oldinga o‘tkazib*

yuborar, so‘ng banogoh javong‘ir va barong‘ir suvoriylari bilan qurshab olib, qopqonga tushirar edi. Agarchi g‘anim lashkarlariga yordam kelsa ehtiyotda turgan chopovul va shaqovul qo‘shinlarini jangga solib, qatlu qirg‘in qilardi.

“Ulug‘bek xazinasi” romanidagi o‘zlashma so‘zlarining lingvistik tahlili o‘zbek tarixiy romanchiligi tilining shakllanishi, tilimizning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, uning boshqa tillar bilan boyish jarayonlarini hamda asardagi o‘zlashmalarning uslubiy xususiyatlarini o‘rganishda katta o‘rin tutadi. Bu esa yozuvchining til boyligidan qanchalik mahorat bilan foydalanganini va tarixiy voqelikni badiiy shaklda tiriltirganini yaqqol namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдушукуров Б. Туркий манбалар лексикаси. – Тошкент: BOOKMANY PRINT, 2022.
2. Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 2009.
3. Dadaboev H., Yodgorov H. O‘zbek harbiy terminologiyasi. – Toshkent: SAHHOF, 2021.
4. Историческое развитие лексики тюркских языков. –М.: Изд-во АНСССР,1961.

BEVOSITA TARJIMALARDA ASARNING IDEOLOGIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI

Sodiqova Dinora Ilhom qizi
Xalqaro Nordik universiteti katta o‘qituvchisi
Toshkent davlat transport universiteti doktoranti
ORCID: 0000-0002-5001-0923
d.sodiqova@nordicuniversity.org

Abstract. This article examines the preservation of ideological meanings and stylistic features in direct literary translation. A qualitative analysis of selected passages from George Orwell’s Nineteen Eighty-Four identifies the functions of slogans, institutional names, neologisms, and narrative perspective. The study distinguishes direct translation from literal rendering and proposes contextual criteria for evaluating Uzbek translation choices without assuming automatic equivalence.

Keywords: direct translation; ideology; literary style; equivalence; political irony; Newspeak; translation assessment

KIRISH

Badiiy asarni bevosita tarjima qilish muallif yaratgan ma’no va uslub munosabatini asl matndan turib o‘rganish imkonini beradi. Biroq asliyat tilini bilishning o‘zi estetik va mafkuraviy mazmunning to‘liq saqlanishini kafolatlamaydi. Siyosiy shior, kinoyali nom, ataylab g‘ayritabiiy tuzilgan so‘z yoki qahramon nutqidagi takror lug‘aviy jihatdan to‘g‘ri o‘girilsa ham, uning badiiy vazifasi o‘zgarishi mumkin. Shu sababli bevosita tarjimaning afzalligi tayyor sifat belgisi sifatida emas, asl matnga qaytib tekshirish va asosli qaror qabul qilish imkoniyati sifatida baholanishi lozim.

Ulug‘bek Yo‘ldoshev o‘zbek tarjimachiligida bilvosita tarjima amaliyotidan asliyat tillari bilan bevosita ishlash imkoniyatlarini kengaytirishga bo‘lgan ehtiyojni qayd etadi [1: 3]. Ushbu ehtiyoj faqat tillararo aloqa yo‘lining qisqarishi bilan cheklanmaydi. Asar qanday hikoya qilinayotgani, unda kimning nuqtayi nazari ustunligi va qaysi ifodalar baholash vazifasini bajarishini tushunish ham zarur. Ayniqsa, antiutopiyada hukmron mafkura alohida bayonotlarda emas, kundalik nutq, muassasa nomlari va tilni me’yorlashtirish amaliyotida namoyon bo‘ladi.

Mazkur maqolada bevosita tarjima atamasi asarning dastlabki tilidan tarjima tiliga vositachi tarjimasiz o‘girish ma’nosida qo‘llanadi. Bu tushuncha so‘zma-so‘zlik bilan tenglashtirilmaydi. Asliyatdan ishlayotgan tarjimon sintaktik qayta qurish, modulyatsiya yoki izohdan foydalanishi mumkin; ushbu amallar tarjimaning

bevositaligini bekor qilmaydi. Aksincha, boshqa tildagi tarjimaga tayangan matn shaklan juda yaqin bo‘lsa ham, kelib chiqish yo‘li jihatidan bilvosita bo‘lib qoladi. Demak, tarjima yo‘li va tarjima usuli ikki alohida tahlil darajasidir.

Yosh tadqiqotchilarning bevosita va bilvosita tarjima masalalariga bag‘ishlangan maqolasida “strategy selection is irreducibly contextual” degan xulosa ilgari suriladi [2: 520]. Ya’ni strategiya tanlovini kontekstdan ajratib bo‘lmaydi. Ushbu fikr mazkur tadqiqot uchun muhim, biroq o‘sha ishda shaklga yaqinlik hamda funksional moslashuv asosida muhokama qilingan strategiyalar bu yerda tarjimaning vositachi til orqali amalga oshirilishi masalasidan ajratiladi. Bunday terminologik aniqlik bevosita tarjimani har qanday formal muvofiqlikning sinonimi sifatida talqin qilishdan saqlaydi.

Tadqiqotning maqsadi bevosita badiiy tarjimada ideologik mazmun va stilistik belgilar o‘rtasidagi aloqani aniqlash hamda ularni baholash mezonlarini ishlab chiqishdir. Jorj Oruellning “1984” romani misolida uch savol qo‘yiladi: mafkuraviy ma’no qaysi til vositalarida mujassamlashadi; o‘zbekcha ifodada qaysi o‘zgarishlar ushbu ma’noni siljitishi mumkin; tabiiy bayon bilan muallif yaratgan g‘ayritabiiylik o‘rtasidagi muvozanat qanday saqlanadi? Maqolaning tahliliy hissasi bevositalikni sifat kafolati deb emas, kontekstual tekshirish sharti deb izohlashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot sifat tahliliga asoslanadi. Asosiy material sifatida “1984” romanining inglizcha elektron matnidan besh turdagi birlik tanlandi: partiya shiorlari, vazirlik nomlari, Nyuspik- Yangi Til (Newspeak) so‘z yasash qatori, Saym nutqidagi baholovchi jumla va tarixni boshqarish haqidagi shiorning so‘roq sahnasida takrorlanishi. Misollar mafkuraviy vazifa bilan kuzatiladigan formal belgi birgalikda mavjud bo‘lishi mezoni asosida maqsadli saralandi. Ushbu tanlov roman bo‘yicha barcha tarjima hodisalarining statistik asosi hisoblanmaydi.

Har bir birlik to‘rt bosqichda o‘rganildi. Dastlab asliyatdagi denotativ mazmun va so‘zlovchi aniqlandi. Keyin takror, parallelizm, baholovchi leksika, so‘z yasalishi yoki nutq registri kabi stilistik belgi ajratildi. Uchinchi bosqichda ushbu belgi hokimiyat, itoat, xotira yoki fikrlash erkinligi bilan qanday bog‘lanishi tekshirildi. Yakunda o‘zbekcha variant va ehtimoliy muqobilning ma’no hamda uslubga ta’siri qiyoslandi. Baholash predmet mazmuni, formal munosabat, ovozga mansublik va matn bo‘ylab izchillik mezonlariga tayandi.

Naydaning dinamik ekvivalentlikni “the closest natural equivalent to the source-language message” deb tavsiflashi mazmun va tabiiylikni birgalikda hisobga olishga yo‘naltiradi [3: 136]. Bu ta’rifning o‘zbekcha mazmuni manba xabariga eng yaqin tabiiy muqobilni yaratishdir. Biroq tabiiylik mazkur tadqiqotda barcha noodatiy

ifodalarni silliqlashtirish deb tushunilmaydi: asliyatda ideologik vazifa bajarayotgan g‘alizlik tarjimada ham sezilishi mumkin. O‘quvchiga qulaylik bilan muallifning tilga ataylab yuklagan qarshiligi farqlanadi.

Metodik jihatdan D. Sodiqovaning emotsional diskurs tahlili haqidagi ishida birlashtirilgan tavsifiy-lingvistik, qiyosiy va diskursiv yondashuvlar ham hisobga olindi [7: 879]. Ushbu yondashuvlar bu yerda hissiy intensivlikni o‘lchash uchun emas, birlikning nutq vaziyatidagi vazifasini aniqlash uchun qo‘llandi. Tadqiqotda respondentlar ishtirokidagi tajriba o‘tkazilmagan; o‘quvchi talqiniga oid mulohazalar matn belgilariga asoslangan tahliliy ehtimollar sifatida ifodalanadi. Shuningdek, vositachi matn bilan uch tomonlama qiyoslash o‘tkazilmagani sababli bevosita va bilvosita tarjimalarning umumiy ustunligi haqida empirik da’vo qilinmaydi.

NATIJALAR

Birinchi kuzatuv: shiorning mafkuraviy kuchi uning parallel tuzilishida namoyon bo‘ladi. Roman boshida “WAR IS PEACE / FREEDOM IS SLAVERY / IGNORANCE IS STRENGTH” shiorlari beriladi [6: 7]. Bevosita tarjima varianti: “URUSH — TINCHLIK / ERKINLIK — QULLIK / BILIMSIZLIK — KUCH”. Uchala jumlaning bir xil tuzilishi ziddiyatli tushunchalarni bir xil qat’iyat bilan tenglashtiradi. Bu yerda siyosiy mazmun faqat alohida otlarda emas, dalilsiz tenglashtirishni odatiy haqiqat sifatida ko‘rsatuvchi sintaktik shaklda ham mavjud.

O‘zbek tilida hozirgi zamon ot kesimli gapning bog‘lamasiz tuzilishi inglizcha “is” shaklini so‘z bilan takrorlamasdan ham parallelizmni saqlaydi. Demak, sintaktik shaklning grammatik qayta tashkil etilishi stilistik sadoqatga zid emas. “Urush tinchlikka olib keladi” kabi muqobil esa tenglashtirishni sabab-oqibat izohiga aylantiradi. Natijada shiorning mantiqni majburan almashtirish xususiyati yumshaydi. Bu farq bevosita tarjimada har bir grammatik kengaytirish semantik jihatdan betaraf bo‘lavermasligini ko‘rsatadi.

Uchinchi shior uchun “jaholat” muqobili ham ko‘rib chiqilishi mumkin. Biroq u o‘zbekcha qo‘llanishda bilim yetishmasligidan tashqari keskin salbiy axloqiy bahoni ham faollashtirishi mumkin; “bilimsizlik” esa bilimdan mahrum etish jihatini oldinga chiqaradi. Mazkur kuzatuv bir variantni barcha vaziyatlarda yagona to‘g‘ri yechim deb belgilamaydi. Tanlov butun roman davomida bilim, ong va itoat o‘rtasidagi aloqaning qanday ifodalanishi bilan muvofiqlashtirilishi kerak. Alohida so‘zning ta’sirchanligi umumiy konseptual izchillik o‘rnini bosa olmaydi.

Ikkinchi kuzatuv: muassasa nomidagi ijobiy ma’no bilan uning faoliyati o‘rtasidagi ziddiyat kinoyani yuzaga keltiradi. “The Ministry of Peace” va “The Ministry of Love” nomlari romanda urush hamda qo‘rqituvchi davlat apparati tasviri bilan yonma-yon keladi [6: 7–8]. Taklif etilayotgan muqobillar “Tinchlik vazirligi” va “Muhabbat vazirligi”dir. Mazkur nomlar rasmiy uslubdagi odatiy birikma sifatida

eshitilishi, ayni vaqtda voqealar bilan to‘qnashganda o‘zining yolg‘on niqob ekanini ochishi lozim. Kinoya nomning ichida tayyor izoh sifatida emas, nom va harakat munosabatida shakllanadi.

“Muhabbat vazirligi”ni “Qiynoq vazirligi” deb tushuntirib tarjima qilish muassasaning amaliy vazifasini ochiq ko‘rsatishi mumkin, ammo hokimiyatning zo‘ravonlikni ijobiy atama bilan yashirish mexanizmini yo‘qotadi. Aksincha, nom saqlanib, keyingi tasvirdagi tahdidlar yumshatilsa, kinoyaning ikkinchi tayanchi zaiflashadi. Shunday qilib, ideologik mazmunning saqlanishi nomning o‘ziga emas, matndagi qarama-qarshi unsurlarning birgalikda uzatilishiga bog‘liq. Tarjimon butun munosabatni tekshirishi, birikmani ajratib baholamasligi kerak.

Uchinchi kuzatuv: sun’iy so‘z yasash usuli fikrni cheklash g‘oyasini moddiylashtiradi. Syme “good”, “ungood”, “plusgood”, “doubleplusgood” qatorini izohlaydi [6: 49]. Tadqiqot uchun shartli muqobillar “yaxshi”, “noyaxshi”, “plyusyaxshi”, “ikkiplyusyaxshi” tarzida taklif etildi. Ushbu variantlar tayyor adabiy me’yor yoki majburiy termin sifatida berilmaydi. Ularning vazifasi umumiy o‘zak, inkor elementi va darajani mexanik oshiruvchi unsur orqali birgina so‘zdan cheklangan ma’nolar qatori hosil qilinishini namoyish etishdir.

Qatorni “yaxshi”, “yomon”, “ajoyib”, “nihoyatda zo‘r” deb tarjima qilish ayrim denotativ ma’nolarni tushunarli beradi, biroq sinonimik boylikni yo‘qotishga qaratilgan loyiha o‘rniga tabiiy tilning xilma-xilligini qayta tiklaydi. Bu holatda ravonlashtirish mafkuraviy ma’noga zid natija berishi mumkin. Taklif etilgan mexanik shakllarning ham cheklovi mavjud: ular o‘zbekcha o‘qishda qo‘shimcha qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun yakuniy tanlovda yagona so‘z yasash tamoyili, tushunarlilik va roman ichidagi izohlarning yetarliligi birgalikda tekshirilishi zarur.

To‘rtinchi kuzatuv: qahramon bahosi muallif hukmi bilan aralashtirilmasligi kerak. Syme so‘zlarni yo‘qotish haqida “It’s a beautiful thing, the destruction of words” deydi [6: 49]. Bevosita variant: “So‘zlarni yo‘q qilish — naqadar go‘zal ish”. “Go‘zal”ning ijobiy bahosi bilan “yo‘q qilish”ning vayronkor mazmuni o‘rtasidagi ziddiyat personajning mafkuraga singib ketgan tafakkurini ochadi. Bu jumlada so‘zlovchi zavq bilan baholayotgan hodisani o‘quvchi xavfli deb anglash imkoniga ega; badiiy ta’sir aynan shu masofadan tug‘iladi.

Agar tarjimada “so‘zlarni yo‘q qilishning dahshati” kabi salbiy baho kiritilsa, qahramonning mafkuraviy pozitsiyasi oldindan fosh etiladi va uning o‘z nutqidagi samimiy ishonch yo‘qoladi. “Tilni takomillashtirish” deb yumshatish esa vayronkor harakatning ochiqligini kamaytiradi. Demak, tarjimonning asarda tasvirlangan mafkuraga munosabati personajning so‘z tanlovini qayta yozishga asos bo‘la olmaydi. Ideologik sadoqat hukmron g‘oyani ma’qullash emas, matnda uning kim tomonidan va qanday ohangda aytilganini to‘g‘ri ko‘rsatishdir.

Beshinchi kuzatuv: takrorning ma’nosi nutq vaziyati bilan o‘zgaradi. So‘roq sahnasida Uinston “Who controls the past controls the future: who controls the present controls the past” shiorini takrorlaydi [6: 227]. Taklif etilayotgan variant: “O‘tmishni boshqargan kelajakni boshqaradi: bugunni boshqargan o‘tmishni boshqaradi”. “Boshqaradi” fe’lining takrori hamda “o‘tmish — kelajak — bugun — o‘tmish” tartibi vaqt ustidan nazoratni yopiq mantiqiy tizim shaklida beradi. Takrorni uslubiy ortiqchalik deb kamaytirish shiorning yodlanadigan va qayta aytiladigan shakliga ta’sir qiladi.

Mazkur sahnada gapning lug‘aviy mazmuni bilan uning majburlash vazifasi farqlanadi. Uinstonning javobni itoat bilan qaytarishi, O’Brayenning tasdiqlashi va og‘riq xavfi shiorni oddiy siyosiy aforizmdan nazorat vositasiga aylantiradi [6: 227]. Tarjima jumlaning o‘zini aniq o‘girib, atrofidagi ko‘rsatkichlarni qisqartirsa, bosim ostida aytilayotgan nutq erkin bildirilgan fikrdek ko‘rinishi mumkin. Shu bois tahlil birligi zarur hollarda jumladan butun nutq epizodiga kengaytiriladi.

Beshta kuzatuvning umumiy natijasi shuki, ideologik mazmun leksik ma’nodan tashqari sintaktik tenglashtirish, nom va faoliyat qarama-qarshiligi, so‘z yasashdagi cheklov, bahoning muayyan ovozga tegishliligi hamda vaziyatli takror orqali yuzaga chiqadi. Har bir holatda tarjima qarori shu munosabatlardan qaysi birini saqlashi yoki o‘zgartirishi asosida baholandi. Natijalar muayyan nashr tarjimoniga baho berish emas, asliyatdan tarjima yaratish va tahrirlash uchun matnga tayangan mezonlarni ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Olingan kuzatuvlar natijalari bevosita tarjima jarayonida ideologiya va uslubni mustaqil qatlamlar sifatida ajratish cheklanganligini ko‘rsatadi. Shiorning ixchamligi, nomning rasmiyligi va neologizmning sun’iyligi g‘oyani bezamaydi, balki uni yuzaga chiqaradi. Shu bois mazmun saqlanib, uslub erkin o‘zgartirildi degan xulosa har doim ham yetarli emas. Agar o‘zgartirilgan belgi asarda fikrlashni boshqarish vositasi bo‘lsa, stilistik siljish bir vaqtning o‘zida mafkuraviy siljishga aylanadi. Bunday birliklarning bahosi matnning kengroq tashkil topishiga bog‘lanishi kerak.

G‘aybulla Salomov “bir nechta nozik lavhani chiqara olmaslik” va xarakterli detallarni tashlab ketish badiiy ta’sirni susaytirishi mumkinligini ta’kidlaydi [4: 42]. Ushbu mulohaza tahlildagi kichik shakliy belgilar ahamiyatini tushuntirishga yordam beradi. Masalan, takrorni sinonim bilan almashtirish yoki rasmiy nomni izohlab yuborish yirik lug‘aviy xato bo‘lmasligi mumkin. Ammo aynan shu o‘zgarishlar muallif tashkil etgan ichki munosabatni buzishi ehtimoli bor. Tarjima tahriri faqat xato so‘zlarni qidirish bilan cheklanmasligi shundan kelib chiqadi.

Ulug‘bek Yo‘ldoshev: “So‘zlar turli tillarda o‘zlarining denotativ ma’nolariga ko‘ra bir biriga mos tushadi, lekin ifoda ma’nolariga ko‘ra farq qilishi mumkin”, deb

yozadi [1: 132]. Ushbu farq “bilimsizlik” va “jaholat” kabi muqobillarni baholashda dolzarbdir. Lekin lug‘aviy konnotatsiya bilan cheklanish ham yetarli emas: badiiy kontekst betaraf so‘zni tahdidli, ijobiy so‘zni esa kinoyali qilishi mumkin. Shuning uchun birikmaning umumiy qo‘llanishdagi ma’nosi uning muayyan sahnadagi ma’nosi bilan qiyoslanadi.

Entoni Pymning “risk is not the same thing as translative difficulty” degan fikri e’tiborni tarjima qarorining oqibatiga qaratadi [5: 72]. Tarjima qiyinligi bilan kommunikativ xatar bir narsa emas. Mazkur maqolada bu yondashuv badiiy tahlilga tatbiq etilib, oson ko‘ringan so‘zning ham katta talqin yukiga ega bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatildi. “Muhabbat” yoki “go‘zal”ni tarjima qilish lug‘aviy jihatdan murakkab bo‘lmasa-da, ularning matndagi qarama-qarshi vazifasini yo‘qotish asarning siyosiy kinoyasini sezilarli o‘zgartirishi mumkin. Bu Pymning Oruell haqidagi xulosasi emas, uning mezonining mazkur materialga tatbiqidir.

Natijalardan amaliy tahrir tartibi kelib chiqadi. Avvalo, mafkuraviy yuklangan takroriy birliklar uchun izchil muqobillar ro‘yxati tuziladi. Keyin har bir birlikning so‘zlovchisi, registri va kontekstual bahosi qayd etiladi. Shundan so‘ng tanlangan o‘zbekcha ifoda asliyatdagi qarama-qarshilikni saqlashi tekshiriladi. Izoh kerak bo‘lsa, u personaj nutqiga qo‘shimcha baho sifatida singdirilmasdan, tegishli paratekst vositasida berilishi mumkin. Yakuniy o‘qishda esa terminlarning barqarorligi bilan tabiiy dialog o‘rtasidagi muvozanat baholanadi; barcha so‘zlar uchun bitta mexanik strategiya belgilanmaydi.

D. Sodiqova emotsional diskursga bag‘ishlangan tadqiqotida “a multi-layered analytical approach is necessary” deb ta’kidlaydi [7: 878]. Ko‘p darajali tahlil zarurati ideologik-stilistik materialda ham asosli ko‘rinadi: lug‘aviy aniqlik, nutq vaziyati va badiiy tuzilish birgalikda tekshiriladi. Biroq ushbu maqolaning mezonlari hali mustaqil baholovchilar o‘rtasidagi muvofiqlik yoki o‘quvchilar javobi orqali sinovdan o‘tkazilmagan. Ularni kelgusida bir asarning bir nechta tarjimasi va tarjima yo‘li hujjatlashtirilgan materiallar asosida tekshirish ilmiy xulosalarning doirasini kengaytiradi.

Bevosita tarjimada vositachi matnning oldindan shakllantirgan talqini majburiy boshlang‘ich nuqta bo‘lmaydi. Shunga qaramay, tarjimonning individual qarashlari, til odatlari va tahririy talablar saqlanib qoladi. Shu sababli bevositalikni mafkuraviy betaraflikka tenglashtirish mumkin emas. Mazkur tadqiqot aynan shu farqni qo‘llab-quvvatlaydi: asliyatga bevosita kirish tanlovni tekshirish imkonini oshiradi, biroq tanlovning asoslanganligi alohida dalillanishi kerak. Bilvosita tarjimadagi har bir siljishni vositachi tilga yuklash uchun esa tegishli oraliq nusxa va tarjima tarixi zarur.

XULOSA

Tadqiqotda “1984”dan tanlangan birliklar asosida bevosita tarjimada ideologik va stilistik xususiyatlarning o‘zaro bog‘liqligi ochib berildi. Shior parallelizmi, muassasa nomlarining kinoyasi, neologizmlarning mexanik tuzilishi, personaj bahosi va vaziyatga bog‘liq takror alohida tarjima muammolari sifatida aniqlandi. Ularni baholashda ma’noning lug‘aviy mosligi bilan birga formal munosabat, ovozga mansublik va matniy izchillikni tekshirish taklif etildi. Ushbu mezonlar muallif uslubini mavhum sadoqat talabi emas, kuzatiladigan belgilar majmui orqali baholashga imkon beradi.

Bevosita tarjimaning asosiy imkoniyati so‘zlarni o‘zgartirmasdan ko‘chirishda emas, muallif yaratgan ma’no munosabatlariga asl manbadan murojaat qilishdadir. O‘zbekcha ifodaning tabiiyligi muhim bo‘lsa-da, asliyatdagi mafkuraviy ziddiyat va maqsadli g‘ayritabiiylikni yo‘qotmasligi kerak. Tavsiya etilgan variantlar shu muvozanatni ko‘rsatadigan tahliliy yechimlardir. Natijalar tanlangan epizodlar bilan chegaralanadi; ularning boshqa janrlar va tarjima yo‘llariga tatbiqi alohida qiyosiy tadqiqotlarda tekshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev, U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari : monografiya / U. Yo‘ldoshev. — Samarqand : Samarqand davlat chet tillar instituti nashriyoti, 2022. — 170 b.
2. Sodiqova, D. I. Differences, Problems, and Theoretical Basis of Direct and Indirect Translation / D. I. Sodiqova // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar. B seriya. — 2026. — Vol. 8, № 5. — P. 514–520. — DOI 10.70728/b.series.fil.v08.i05.070.
3. Nida, E. Principles of Correspondence / E. Nida // The Translation Studies Reader / edited by L. Venuti. — London ; New York : Routledge, 2000. — P. 126–140.
4. Salomov, G‘. Tarjima nazariyasiga kirish : darslik / G‘. Salomov ; qayta nashrga tayyorlovchi X. Hamidov. — Toshkent : [nashriyot ko‘rsatilmagan], 2022. — 192 b.
5. Pym, A. Translating as Risk Management / A. Pym // Journal of Pragmatics. — 2015. — Vol. 85. — P. 67–80. — DOI 10.1016/j.pragma.2015.06.010.
6. Orwell, G. Nineteen Eighty-Four / G. Orwell. — Project Gutenberg of Australia, 2001. — eBook— 284 p. — Matn : elektron.
7. Sodiqova, D. Methodological Foundations of Emotional Discourse Analysis in Translation Studies / D. Sodiqova // Global lingvistika: yangi yondashuvlar va tadqiqotlar : xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. — 2025. — Vol. 1, № 2. — P. 878–882. — DOI 10.5281/zenodo.15465856.

ONA TILI TA'LIMIDA ÖQUVÇILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRIŞNING METODIK ASOSLARI

Nursulton Şayxislamov
pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori (PhD),
Çirçiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili ta'limi jarayonida öquvçilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirişning nazariy va metodik asoslari tahlil qilinadi. Nutqiy kompetensiya öquvçining faqat til birliklari haqidagi bilimlari bilan emas, balki ularni muayyan kommunikativ vaziyatda maqsadga muvofiq qöllay olişi, tinglangan va öqilgan axborotni tuşunişi, öz fikrini oğzaki hamda yozma şaklda izçil ifodalaşi, suhbatdoş bilan samarali muloqot qilişi bilan belgilanadigan kompleks qobiliyat sifatida yoritiladi. Tadqiqotda nutqiy kompetensiyaning tinglab tuşuniş, öqib tuşuniş, sözlaş va yoziş komponentlari özaro uzviylikda qaraladi. Şuningdek, matn asosida işlaş, muammoli vaziyat, ijodiy topşiriq, dialogik va monologik nutqni rivojlantiriş, refleksiv faoliyat hamda kommunikativ vazifalardan foydalanişning metodik imkoniyatlari oçib beriladi. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirişda grammatik bilimlarni amaliy nutqiy faoliyat bilan integratsiyalaş zarurligi asoslanadi.

Kalit sözlar: nutqiy kompetensiya, ona tili ta'limi, nutqiy faoliyat, tinglab tuşuniş, öqib tuşuniş, sözlaş, yoziş, kommunikativ faoliyat, matn, lingvodidaktika, kompetensiyaviy yondaşuv.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING STUDENTS' SPEECH COMPETENCE IN MOTHER TONGUE EDUCATION

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations of developing students' speech competence in mother tongue education. Speech competence is considered not merely as knowledge of linguistic units, but as an integrated ability to use them appropriately in specific communicative situations, understand spoken and written information, express ideas coherently in oral and written forms, and communicate effectively with interlocutors. The study examines listening, reading, speaking, and writing as interconnected components of speech competence. The methodological potential of text-based activities, problem situations, creative tasks, dialogic and monologic speech development, reflective activities, and communicative tasks is also discussed. The article substantiates the necessity of integrating grammatical knowledge with practical speech activity.

Keywords: speech competence, mother tongue education, speech activity, listening comprehension, reading comprehension, speaking, writing, communicative activity, text, linguodidactics, competency-based approach.

Bugungi ta’lim jarayonida öquvçining faqat nazariy bilimlarni özlaştirişi yetarli natija sifatida qaralmaydi. Ta’limning asosiy natijalaridan biri özlaştirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qöllay oliş, turli kommunikativ vaziyatlarda mustaqil fikr yuritiş va öz fikrini aniq ifodalaş qobiliyatini şakllantirişdan iborat. Ayniqsa, ona tili ta’limida bu masala alohida ahamiyatga ega. Çunki ona tili fani öquvçining nafaqat til haqidagi bilimlarini, balki uning real muloqotdagi nutqiy faoliyatini ham rivojlantirişga xizmat qiladi.

Ona tili ta’limida kompetensiyaviy yondaşuvning kuçayişi natijasida nutqiy kompetensiya tuşunçasi ta’lim natijalarini belgilovçi muhim kategoriyalardan biriga aylandi. Zamonaviy tadqiqotlarda nutqiy kompetensiya öquvçining tinglaş, öqiş, sözlaş va yoziş faoliyatlarini samarali amalga oşira olişi bilan boğlanadi. Özbek tilini öqitiş metodikasiga oid tadqiqotlarda ham mazkur masala izçil örganilmoqda. Xususan, N.Alavutdinovaning 2023-yilda naşr etilgan monografiyasida umumiy örta ta’lim maktablarida nutqiy kompetensiyalarni şakllantiriş metodikasi, ijodiy fikrlaş va yozma işlarning imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Şuningdek, sönggi tadqiqotlarda nutqiy kompetensiyaning tinglab tuşuniş, öqib tuşuniş, sözlaş va yoziş kabi tarkibiy qismlari özaro boğliq holda tahlil qilinmoqda. Bu esa ona tili darslarida alohida grammatik mavzuni örgatişdan köra, öquvçining mazkur bilimlardan real nutqiy vaziyatlarda foydalaniş imkoniyatlarini kengaytiriş zarurligini körsatadi.

Şu nuqtayi nazardan, uşbu maqolaning maqsadi ona tili ta’limida öquvçilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirişning metodik asoslarini aniqlaş, nutqiy faoliyat turlarining özaro aloqadorligini yoritiş hamda ta’lim jarayonida foydalaniş mumkin bölgan samarali metodik vositalarni asoslaşdan iborat.

Nutqiy kompetensiya tuşunçasining mazmunini aniqlaşda, avvalo, “til” va “nutq” munosabatiga e’tibor qaratiş lozim. Til ijtimoiy jihatdan şakllangan belgilar tizimi sifatida mavjud bölsa, nutq mazkur tizim birliklarining konkret kommunikativ vaziyatda qöllanişini ifodalaydi. Demak, öquvçi grammatik qoidani bilişi mumkin, biroq bu bilimni nutq jarayonida töğri qöllay olmasa, uning nutqiy kompetensiyasi töliq şakllangan deb bölmaydi.

Şu jihatdan nutqiy kompetensiya “biliş” va “qöllaş” örtasidagi farqni yaqqol namoyon etadi. Masalan, öquvçi sifatdoşning grammatik xususiyatlarini nazariy jihatdan tuşuntirib bera olişi mumkin. Ammo undan foydalanib, muayyan vaziyatga mos ravişda mazmunan izçil gap yoki matn tuza olişi uning amaliy nutqiy

kompetensiyasini körsatadi. Şuning uçun ona tili darslarida grammatik bilimlar nutqiy faoliyat bilan boğlanişi lozim.

N.Alavutdinova tadqiqotida ham nutqiy kompetensiyalarni şakllantiriş masalasi ijodiy fikrlaş, yozma işlar va psixologik omillar bilan uzviy aloqada qaralgan. Bu yondaşuv nutqiy kompetensiyani tor lingvistik hodisa emas, balki öquvçining tafakkuri, kommunikativ ehtiyoji va faoliyati bilan boğliq pedagogik hodisa sifatida tuşunişga imkon beradi.

Nutqiy kompetensiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri tinglab tuşunişdir. Tinglab tuşuniş oddiy eşitişdan farqli ravişda qabul qilingan axborotni anglaş, asosiy va ikkilamçi ma’lumotlarni ajratiş, mazmuniy boğlanişlarni aniqlaş va tegişli xulosa çiqarişni nazarda tutadi. Şuning uçun ona tili darslarida öquvçiga faqat matnni öqitiş emas, balki audio matn, suhbat, dialog, qisqa ma’ruza yoki hikoyani tinglaş va uning mazmunini qayta işlaşga doir topşiriqlar beriş muhimdir.

Tinglab tuşuniş kompetensiyasini rivojlantiriş uçun topşiriqlarni bosqiçma-bosqiç murakkablaştiriş mumkin. Dastlab öquvçi matnning umumiy mazmunini aniqlaydi. Keyingi bosqiçda asosiy fikr, muhim dalillar yoki sabab-oqibat munosabatlarini topadi. Yuqori bosqiçda esa muallifning maqsadi, munosabati yoki yaşirin ma’nosini aniqlaşga yönaltiriladi. Bunday topşiriqlar öquvçining eşitilgan axborotni faol qayta işlaş könikmasini şakllantiradi.

Nutqiy kompetensiyaning navbatdagi muhim komponenti öqib tuşunişdir. Öqiş jarayonida öquvçi grafik şaklda berilgan til birliklarini şunçaki idrok etmaydi, balki matn mazmunini anglaydi, muallif fikrini aniqlaydi, ma’lumotlarni taqqoslaydi, xulosa çiqaradi va matnga nisbatan öz munosabatini bildiradi. Şu sababli öqib tuşunişni rivojlantirişda matn ustida işlaş markaziy metodik vositalardan biri bölişi kerak.

Matn bilan işlaş jarayonini “matngaça”, “matn jarayonida” va “matndan keyingi” faoliyatga ajratiş mumkin. Matngaça bölgan bosqiçda mavzu böyiça taxminlar ilgari suriladi, asosiy tuşunçalar faollaştiriladi. Matnni öqiş jarayonida asosiy fikr, kalit sözlar va muhim dalillar aniqlanadi. Matndan keyingi bosqiçda esa mazmunni umumlaştiriş, baholaş va şaxsiy fikr bildiriş amalga oşiriladi. Bunday tizim öquvçini passiv öquvçidan faol interpretatorga aylantiradi.

Sözlaş kompetensiyasi esa öquvçining fikrini oğzaki şaklda aniq, izçil, mantiqiy va vaziyatga mos tarzda ifodalaş qobiliyatini anglatadi. Sözlaşni rivojlantirişda monologik va dialogik nutq şakllarini uyğunlaştiriş zarur. Dialogik nutqda öquvçi suhbatdoşning fikrini tinglaydi, unga munosabat bildiradi, savol beradi yoki javob qaytaradi. Monologik nutqda esa muayyan mavzu böyiça nisbatan mustaqil va izçil fikr bayon qiladi.

Ona tili darslarida sözlaş kompetensiyasini rivojlantiriş uçun real hayotga yaqin kommunikativ vaziyatlarni modellaştiriş samarali hisoblanadi. Masalan, “Döstingizga kitob tavsiya qiling”, “Muayyan masala böyiça öz nuqtayi nazaringizni himoya qiling”, “Suhbatdoşdan kerakli ma’lumotni aniqlang”, “Berilgan muammoga yeçim taklif qiling” kabi vazifalar öquvçini til birliklarini tayyor qolip asosida emas, kommunikativ maqsad asosida qöllaşga undaydi.

Yoziş kompetensiyasi ham nutqiy kompetensiyaning muhim tarkibiy qismidir. Yozma nutqda öquvçi fikrini oldindan rejalaştirişi, mazmuniy izçillikni ta’minlaşi, söz va gaplarni vaziyatga mos tanlaşi, matnning kompozitsion yaxlitligini saqlaşi va adabiy til me’yorlariga amal qilişi talab etiladi. Şu sababli yozma topşiriqlar faqat diktant yoki grammatik maşq bilan çegaralanmasligi kerak.

Yozma nutqni rivojlantirişda qisqa fikr yoziş, matnni davom ettiriş, voqea tavsifi, munosabat bildiriş, dalillaş, xat yoziş, e’lon yoki xabar tuziş, muayyan masala böyiça kiçik esse yaratiş kabi topşiriqlardan foydalaniş mumkin. Bunday faoliyat öquvçining til haqidagi bilimlarini real yozma kommunikatsiyaga köçiriş imkonini beradi.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirişda matnning imkoniyatlari alohida ahamiyatga ega. Çunki matn til birliklarining real qöllaniş muhitini yaratadi. Alohida gap yoki söz ustida işlaş öquvçiga grammatik bilim berişi mumkin, biroq matn asosidagi faoliyat til birliklarining kommunikativ va funksional xususiyatlarini anglaşga yordam beradi.

Şu sababli grammatik mavzularni matn asosida örganiş maqsadga muvofiq. Masalan, fe’l mavzusini örganişda öquvçilarga fe’l şakllarini topiş bilan birga ularning matndagi vazifasi, zamon ma’nosi, harakatning davomiyligi yoki nutq mazmuniga ta’siri haqida savollar berilişi mumkin. Bunday yondaşuv grammatik bilimni nutqiy faoliyat bilan boğlaydi.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirişning yana bir muhim şarti – öquvçining kommunikativ ehtiyojini yuzaga keltirişdir. Agar topşiriq öquvçidan faqat “töğri javob”ni talab qilsa, u köpinça tayyor bilimni takrorlaş bilan çeklanadi. Agar topşiriq muayyan maqsadga erişiş uçun muloqot qilişni talab etsa, öquvçi til vositalarini faol tanlay boşlaydi. Şu ma’noda kommunikativ yondaşuv nutqiy kompetensiyani rivojlantirişning muhim metodik asosi hisoblanadi.

Sönggi tadqiqotlarda ona tili ta’limida kommunikativ yondaşuv, interfaol metodlar va real kommunikativ vaziyatlardan foydalaniş öquvçilarning nutqiy faolligini oşirişi ta’kidlangan.

Nutqiy kompetensiyani şakllantirişda muammoli ta’lim elementlaridan foydalaniş ham samarali natija beradi. Muammoli vaziyat öquvçini tayyor javobni izlaşga emas, öz fikrini asoslaşga undaydi. Masalan, “Nima uçun aynan şu söz

tanlangan?”, “Uşbu gapni boşqa şaklda ifodalaş mumkinmi?”, “Berilgan fikrga qarşi qanday dalil keltiriş mumkin?” kabi savollar öquvçining analitik va nutqiy faoliyatini bir vaqtda faollaştiradi.

Bunda nutqiy kompetensiya va kreativ fikrlaş örtasidagi aloqa ham namoyon böladi. Öquvçi bir fikrni turli şaklda ifodalaş, muqobil yeçim taklif qiliş, matnga boşqa yakun beriş yoki öz nuqtayi nazarini dalillar bilan himoya qiliş jarayonida nutqiy vositalardan ijodiy foydalanadi.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirişda refleksiya ham muhim metodik vosita hisoblanadi. Dars oxirida öquvçidan “Bugun nimani örgandim?”, “Qaysi topşiriqda qiynaldim?”, “Fikrimni ifodalaşda qanday vosita menga yordam berdi?”, “Keyingi safar nimani yaxşiroq bajarişim kerak?” kabi savollarga javob oliş öquvçining öz nutqiy faoliyatini anglaşiga yordam beradi.

Şuningdek, nutqiy kompetensiyani baholaşda faqat grammatik xatolar soniga tayaniş yetarli emas. Baholaş mezonlari kommunikativ vazifaning bajarilişi, mazmunning izçilligi, fikrning aniqligi, luğat boyligi, grammatik va uslubiy töğrilik, matnning yaxlitligi hamda kommunikativ vaziyatga moslikni qamrab olişi kerak. Bunday baholaş öquvçining real nutqiy imkoniyatlarini aniqroq körsatadi.

Özbekistonda ona tili ta’limiga oid metodik materiallarda ham nutqiy va lingvistik kompetensiyalar alohida yönaliş sifatida körsatilgan. Xususan, boşlanğiç ta’lim böyiça malaka talablari va metodik materiallarda ona tili ta’limida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni şakllantiriş masalasi qayd etilgan.

Şu bilan birga, nutqiy kompetensiyani rivojlantiriş bir martalik metodik tadbir emas, balki izçil va bosqiçma-bosqiç taşkil etiladigan jarayon bölişi lozim. Quyi bosqiçlarda oddiy kommunikativ vaziyatlar, qisqa dialoglar, rasm asosida hikoya qiliş va sodda yozma topşiriqlar ustuvor bölsa, yuqori bosqiçlarda dalillaş, munozara, tahliliy matn yaratiş, muammoli vaziyatni yeçiş va mustaqil fikrni himoya qiliş kabi murakkab nutqiy faoliyat turlariga ötilişi kerak.

Demak, nutqiy kompetensiyani rivojlantiriş metodikasining samaradorligi uç asosiy omilga boğliq: birinçidan, til bilimlarini nutqiy faoliyat bilan boğlaş; ikkinçidan, öquvçini real yoki modellaştirilgan kommunikativ vaziyatlarga jalb etiş; uçinçidan, öquvçining öz nutqiy faoliyatini tahlil qiliş va takomillaştirişiga imkon yaratiş. Aynan şu uçlik kompetensiyaviy yondaşuvning amaliy mazmunini belgilaydi.

Ona tili ta’limida öquvçilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiriş zamonaviy ta’limning muhim metodik vazifalaridan biridir. Nutqiy kompetensiya faqat grammatik bilimlar majmui emas, balki öquvçining til vositalaridan turli kommunikativ vaziyatlarda maqsadga muvofiq foydalanişi, axborotni tinglab va öqib tuşunişi, fikrini oğzaki hamda yozma şaklda izçil ifodalaşi bilan belgilanadigan kompleks qobiliyatdir.

Tahlillar asosida nutqiy kompetensiyaning tinglab tuşuniş, öqib tuşuniş, sözlaş va yoziş komponentlari alohida emas, özaro integratsiyalaşgan holda rivojlantirilişi lozimligi aniqlandi. Bu komponentlarning birgalikdagi rivoji öquvçining real kommunikativ faoliyatga tayyorgarligini ta'minlaydi.

Ona tili darslarida matn bilan işlaş, kommunikativ vaziyatlarni modellaştiriş, dialog va monolog taşkil etiş, muammoli hamda ijodiy topşiriqlardan foydalaniş, yozma nutqni rivojlantiriş va refleksiv faoliyatni yölga qöyiş nutqiy kompetensiyani rivojlantirişning samarali metodik yönalişlari sifatida namoyon böladi.

Şuningdek, nutqiy kompetensiyani baholaşda öquvçining faqat grammatik töğriligi emas, balki fikrining mazmuniy izçilligi, kommunikativ maqsadga erişişi, luğat boyligi, uslubiy mosligi va mustaqil fikr bildira olişi ham hisobga olinişi kerak.

Şunday qilib, ona tili ta'limida "bilim → nutqiy faoliyat → kommunikativ vaziyat → refleksiya → takomillaştiriş" izçilligiga asoslangan metodik tizimni şakllantiriş öquvçilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirişning samarali şarti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar röyxati

1. Alavutdinova, N. G. (2023). Ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi. Toshkent: Bookmany Print.
2. G'aniyeva, Sh., & Nabiyeva, O. (2025). Ona tili ta'limida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish. Educational Yield Insights & Breakthroughs.
3. Jo'raboyeva, F. A. (2025). Ona tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv: nazariya va amaliyot. Modern Education and Development, 26(3), 352-357. https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.mead.117454
4. Umurova, R. (2025). Ona tili ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyalar ustida ishlash. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. https://doi.org/10.5281/zenodo.15757541
5. Ne'matov, O. E., & Jo'rayev, J. (2026). Ona tili darslarida AKT vositalari yordamida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish. Yosh olimlar, 4(47), 126-129.
6. Umarova, Y. T. (2026). Ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning lingvokognitiv asoslari va mexanizmlari. Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali, 8(2), 701-706. https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.101
7. Yusupova, I. A. (2026). Nutq va nutqiy kompetensiya tushunchasining lingvistik pedagogik mohiyati. Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali.
8. Gafurova, Sh. A. (2025). Ona tili darslarida 6-7-sinf o'quvchilarining mantiqiy va kreativ fikrlashga oid nutqiy kompetensiyalarini lingvometodik rivojlantirish mexanizmi. Inter Education & Global Study, 2025(3).

9. Shayxislamov, N. (2026). Nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda kommunikativ topshiriqlar tizimi. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(26), 33-42.
10. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics, 1(1), 1-47.
11. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics (pp. 269-293). Penguin Books.

QIZILQUM HUDUDI AREALIDA UMUMTURKIY ETNONIMLARNING NOMLANISHI

Lazzat Duysenovna Berdimuratova,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent v.b.
“Qozoq tili va adabiyoti“ kafedrasi
Navoiy davlat unuversiteti,
Email: berdimuratovalazzat022@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada hududdagi etnotoponimlar areal-xronologik va genetik shakllanish jihatlariga ko‘ra, jahon tilshunosligi tadqiqotlariga tayanilib, tahlil qilingan. O‘zbek va qozoq etnonimiyasi umumturkiy xalqlar etnik tizimining ajralmas qismi bo‘lib, ushbu xalqlarning urug‘-qabila nomlari turkiy dunyoning turli hududlarida uchrash hollari bilan ajralib turadi. Shu jihatdan, etnotoponimlarning tarixiy, tadrijiy va subordinativ asoslari ularning shakllanish qonuniyatlarini belgilashi yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: areal, turkiy tillar, toponim, etnonim, geografik atama

Annotation. The article discusses the distribution of regional ethnotoponyms based on their linguistic characteristics, the period of formation to the present day, and their affiliation with a particular clan or tribe, based on areal maps, and areal analytical data.

Key words: area, Turkic languages, toponym, ethnonym, geographical term

Areal atamasi lotincha *arealis* — maydon, kenglik ma’nosini anglatib, tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida til hodisalarining muayyan hududlarda tarqalish qonuniyatlarini o‘rganadi. Bu jarayonda lingvistik geografiya metodlari asosida tillararo hamda dialektlararo aloqalar tahlil qilinadi. Qizilqum hududi esa o‘ziga xos mikrotoponimik xususiyatlarga ega bo‘lib, u etnoslar o‘rtasidagi faol muloqot natijasida shakllangan. Ushbu mintaqa etnik jihatdan murakkab tarkibga ega bo‘lib, madaniy va lingvistik o‘zaro ta’sirning yaqqol namunasidir. Bunday hududlar ilmiy adabiyotlarda ko‘pincha “etnomuloqot hududi” tushunchasi bilan tavsiflanadi, chunki bu yerda turli etnoslarning tarixiy va ijtimoiy omillar asosida shakllangan aloqalari intensiv ravishda kechgan. Mazkur masala yuzasidan jahon nomshunosligi (onomastikasi)da e’tiborli va teran ilmiy ildizli tadqiqotlar yaratilgan.

Ma’lum bir urug‘ va qabila nomlarining geografik taqsimotini areal-lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilish esa o‘zbek etnonimlari va etnotoponimlarini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. Shu jihatdan, etnotoponimlarning tarixiy, tadrijiy va subordinativ asoslari ularning shakllanish qonuniyatlarini belgilaydi. Tarixiy

manbalarda qayd etilgan nomlarning bugungi kungacha yetib kelgan izlari Qizilqum, Tomdibuloq, Zarafshon kabi toponimlar misolida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu hududlar qadimdan turkiy etnoslarning hayot kechirgan makonlari bo‘lib, ularning madaniy merosi, ijtimoiy holati va urf-odatlari ushbu nomlarning semantik qatlamida aks etgan. Ayrim tarixiy yozma manbalar hamda og‘zaki xalq ijodi namunalarida saqlanib qolgan rivoyatlar va afsonalar bu hududlarda yashagan qadimiy qabilalarning etnik tarkibini o‘rganishda muhim dalillar sifatida xizmat qiladi.

Turkiy tillar onomastikasini o‘rganish manbalaridan biri sifatida turkiy atamalarni arab leksikografiyasi mezonlariga muvofiq sharhlagan va shu bilan birga, bu yigirmadan ortiq turkiy qabila istiqomat qilgan hududlardagi joy nomlarini ham qayd etib, yo‘l-yo‘lakay ilmiy tahlil qilgan, ba’zi bir toponimlarning o‘sha vaqtdagi ma’no nozikliklarini mavjud manbalar asosida talqin qilgan M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ot it-turk” asariga borib taqaladi. Bu asar A.N.Kononovning fikricha, “XI asr turkiy xalqlarining hayoti, turmush tarzi, ... etnonimlar va toponimlar. ... qavm-qarindoshlik atamalari,.... geografik nomlar va atamalar, ... turli tarixiy, mifologik qahramonlarning nomlari, diniy, etnik atamalar va boshqalar haqida ma’lumot beruvchi yagona manbadir” [1:13]; [3-17]. Ta’kidlash joizki, ushbu asarda turkiy tillarning keng qamrovli onomastik qatlami batafsil yoritilgan va ilmiy asosda tahlil qilingan.

“Boburnoma” tarixiy geografiya nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Unda Movarounnahr va unga qo‘shni hududlarning o‘sha davrdagi nomlanishi, ayniqsa, joy nomlari va suv obyektlari bilan bog‘liq gidronimlar aniq qayd etilgan. Bobur mirzo o‘z asarida Koson, Axsi, O‘zgand, Zomin, Samarqand, Buxoro, Shoxruxiya, Sayram, Toshkand, Saripul, Qo‘lba yalangligi, Ko‘hak tepaligi, Dabusiya qal’asi, Karmana kabi toponimlarni eslatib o‘tgan. Bundan tashqari, asarda Xo‘jand suvi (Sirdaryo), Chirchiq suvi, Ko‘hak suvi (Zarafshon daryosi), Siyohob, Qorasuv, Xoqon arig‘i kabi gidronimlarga oid ma’lumotlar ham uchraydi. Bu ma’lumotlar tarixiy geografiya va toponimiya tadqiqotlari uchun muhim manba bo‘lib, suv obyektlarining nomlanishi va ularning o‘sha davrdagi ekologik hamda xo‘jalik ahamiyatini aniqlashda katta ilmiy ahamiyat kasb etadi [2: 440].

Qizilqum hududida yashovchi xalqning tarixi, geografik joylashuvi, madaniy merosi, og‘zaki ijodi hamda lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganish ilmiy jihatdan dolzarb masalalardan biridir. Ushbu hududga oid bilimlarni kengaytirish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya va geografiya fanlari nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qizilqum toponimiyasining tahlili ilmiy tadqiqotlar uchun muhim vositalardan biri bo‘lib, hali to‘liq o‘rganilmagan masalalarga yechim topish uchun muhim hisoblanadi. Geografik obyektlarga berilgan nomlar ularning tabiiy va madaniy

xususiyatlarini aks ettirib, mintaqaning rivojlanish tarixi, iqlim sharoiti va etnik tarkibi haqida qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shu sababli, hudud nomlarining kelib chiqishi va semantik qatlamlarini o'rganish ilmiy jihatdan muhim natijalarga olib kelishi mumkin.

Qadimgi Sharq ham bu masalada o'zining ilmiy qarashlari bilan ajralib turadi. Qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniy geografik nomlarning o'zgarishi haqida shunday fikrni beradi, "Tili boshqa bo'lgan xalqlarning yerli xalqqa hukmronlik qila boshlashi bilan nomlar tezroq o'zgaradi. Ko'pincha, tillari (boshqa xalq) u so'zlarni kelishtirib ayta olmay, qabul qiladi (natijada o'sha), ismlarning ma'nolari o'zgarib, shu ko'yicha, ynonlar odati singari, o'z tillariga kiradi. Beruniy bu fikriga dalil sifatida Toshkent ismini arablar o'zgartirib yuborganini keltiradi. "Tosh so'zi,-deydi Beruniy, - (asli) turkcha bo'lib, Shosh ko'rinishini olgan. Toshkent – toshli qishloq demakdir. Jug'rofiya kitobida u "Burj al Hijora" (Tosh qal'a) deb nomlangan" [3:17]. Bundan kelib chiqadiki, boshqa tilli kishilarning talaffuzi joyning haqiqiy nomining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi.

Qizilqum hududi arealida umumturkiy (qozoq) tilda berilgan geografik atamalarning xos belgilari
(«3.1-jadvalga qarang»)

Nomlanish xususiyatiga ko'ra	**Qizilqum hududidagi qozoq tilida berilgan joy nomlari**
Relyef xususisyatlariga bog'liq tog', qir, do'ng, adir, jar, to'qay, tepa, cho'l belgilari bilan ifodalanuvchi joy nomlari	Bo'kantov, Quljuqtov, Aristantov, Beltov, Keregetov, Tulkitov, Qasqirtov, To'qtitov, O'giztov, Aytimtov, Auminzadatov, Muruntov, Tomditov, Oqtov, Qoratov, Yetimtov, Sulton Uvays tog'i, Shoqitov, Dauqiztov, Lau-lautov, Derbistov, Balpantov, Tobabergentov, Besapantov, Altintov, Pistelitov, Boztov, Qoratov, Aytimtov, Baqalitov, Boshog'itmatov, Jalpaqtov, Tumshiqtov, Alimtov, Sulton Uvays tog'i, Shoqitov, Dauqiztov, Tauabergen tog'i, Quldar tog'i, Qo'shpaqtov, Qo'rg'antov, Qayraqtov, Qazaqtov, Keriztov, Jetimtov, Erler tog'i, Gujimlitov, Burkittov, Beltov, Amantaytov

Daryo, soy, ko‘l, ariq, suv, buloq, quduq, ko‘prik, kechik kabi suv obyektlari bilan aloqador joy nomlari	O‘g‘risoy, Tomdibuloq, To‘rtquduq, Sariqiya, Sirdaryo, Qizonaning qayig‘i, Ko‘rikning qayig‘i, Muytenning qayig‘i, Yassikeshu, Shobanqazg‘an qudug‘i, Qora to‘qa qudug‘i, Ko‘nek quduq, Ushquduq, Qulquduq, Uzunquduq, To‘rtko‘l, Jusantepa qudug‘i, Og‘itma ko‘li, Toldi quduq, Qizil quduq, Urazjon quduq, Qulanqoq, Ot quduq, Beshquduq, O‘gizquduq, Yangiqazg‘on quduq, Qo‘sh quduq, Arnasoy, Oqsoy, Qayroqlisoy, Kampirsoy, Kengsoy, Toyloqqoq, Asauqoq, Mektepqoq, Beshqoq, Nurmuratqoq, Qoqota, Yulduzqoq, Boqayqoq, Qoqqush, O‘risqoq, Borqoq, Buyanqoq, Ashchilisoy,
Muayyan o‘simlik va daraxt turlarining (saksavul, tol, terak, qayrag‘och, pista, qamish, tikan) nomlari bilan shakllangan toponimik birliklar	Jing‘ildi, Saksavul o‘rmon, Qamishli, Shengeldi, Ajiriqli, Gujimditov, Toldi quduq, Paxtaker, Keskanterak ovuli, Pistelitov, Tikanli
Rang-tus (qizil, qora, ko‘k, sariq, ola, chipor) hamda maza-ta’m (achchiq, shirin, sho‘r) bilan bog‘liq so‘zlariga aloqador nomlar	Qizilqum, Ko‘kcha, Qizil quduq, Ko‘kayaz qishlog‘i, Qizil ko‘pir, Oqbaytal, Oqbo‘ta, Qizildaryo, Oq murt quduq, Oq quduq, Boshiqora qudug‘i, Qora cho‘qqi, Qora bo‘get suv ombori, Qora tepa, Qorao‘y, Oqsoy, Oqjar, Ko‘ktov, Ko‘kbuloq bulog‘i, Qizilbuloq bulog‘I, Achchiqqorasuv, Sho‘rko‘l, Shirinquduq
Qush va hayvonlar nomi bilan ataladigan nomlar	Qasqirtov, Tulkitov, Jilandi, Qulanqoq, Bo’ kenay, Qora qarg‘a dovoni, O‘giztov, To‘qtitov, Ot quduq, Oqbaytal, Oqbo‘ta, Tuya ovul, Baqalitov, Burkittov, Sugirquduq, Kuyiktov
Sonni, miqdorni ifodalovchi so‘zlar yordamida hosil qilingan nomlar	Qo‘shquduq, Ushtepa, Beshquduq, To‘rtquduq, Jetisoy, Oqsoy, Beshqoq, Beshachchiq, Oltiachchi, Uchachchiq,

	Uchquduq tumani, Juzquduq ovuli, Tuqqiztepa, Mingshuqir.
Urug‘, qabila nomlari asosida yuzaga kelgan nomlar	Sarbas, Qorasaqal, Qoratoqa, Ko‘nek, Ayuteren, Nayman, Jalayir, Uyrot, Do‘rman, Arg‘in, Muyten, Uyrot, Qorasiraq, Mang‘it, Qoraxitoy, Balqi, Teleu, To‘qmang‘it.
Foydali qazilmalar mavjudligi to‘g‘risidagi nomlar	Altintov, Ko‘mir to‘kken joli, Zarafshon, Tuztepa, Temirshi
Maza-ta’m va hid bildiruvchi shirin, achchiq, sho‘r, nordon, chuchuk, taxir, xushbo‘y so‘zlariga aloqador nomlar	Sho‘rquduq, Sho‘rsha, Sho‘rtepa, Sho‘rko‘l, Sasiqko‘l, Sasiqbuloq, Achchiq quduq, Jilmanachchiq, Itachchiq, Achchiqbuzon (antonim juftlik Tuchchibuzon (chuchuk), Muytenbayachchiq, Qospanachchiq qudug‘i, Sadirachchiq qudug‘i, Sultonachchiq qudug‘i, Baynazarachchiq qudug‘i, Achchiq qamishli qudug‘i, Pirmanachchiq qudug‘i, Qosoyachchiq qudug‘i, Amantayachchiq qudug‘i, Achchiqbuloq, Achchiqtepa, Nishanbayachchiq, Nurjauachchiq, Oltiachchiq, Nazarbekachchiq,
Inson a’zolari bilan ifodalanadigan nomlar	Muruntov, Kichiko‘z, Ulkenko‘z, Ayaqquduq, Oyoqog‘itma, Mo‘yinqum.
Kishi ismlari va laqablari bilan bog‘liq nomlar	Qora botir, Qora bura, Boymurod ovuli, Utamurod ovuli, Qulynbet ovuli, Urazjan ovuli, Sugurali ovuli, Taspen ovuli, Shontibay ovuli, Eltoy ovuli, Fazilbek ovuli, Urazjon qudug‘i, Qaroq ota, Azanur avliyo, Erler ota, Beder ota, Qanarbay ota, Mo‘min ota, Qilish ota, Mix ota qabristoni, Mo‘min ota ziyoratgohi, Qo‘chqor ota ziyoratgohi
Qatnov yo‘llari bilan bog‘liq nomlar	Ko‘mir to‘kken joli, Jau joli, Maya joli, Qashqin joli

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, hudud xalqi aholisi joy nomlarini ko‘chmanchi turmush tarzi bilan bog‘lagan. Masalan, mahalliy aholi geografik nomlar orqali hududning tabiiy-iqlimiy sharoitlarini aks ettirib, uning xo‘jalik yuritish va yashash uchun qulay yoki noqulay jihatlarini belgilagan. Aynan joy nomlari orqali qaysi mintaqalar chorvachilik va dehqonchilik uchun mos ekanligi yoki aksincha, qattiq iqlim sharoiti tufayli yashash va faoliyat yuritish qiyinligi haqida tasavvur berilgan. Shuningdek, toponimlar xalqning tarixiy tajribasi va ekologik sharoitlar haqidagi bilimlarini aks ettirib, ma’lum hududning tabiiy resurslari, yer-suv imkoniyatlari va ob-havo sharoitlari to‘g‘risida bevosita ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qilgan. Shu sababli, geografik nomlarning lingvistik tahlili nafaqat tilshunoslik, balki ekologiya, etnologiya va xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq muhim ma’lumotlarni ochib berishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Qizilqum hududi toponimlarining orasida etnotoponimlar ko‘pligini turkiy xalqlar orasida etnik nomlar keng tarqalganligi bilan izohlasak bo‘ladi. Etnotoponimlarning shakllanishida qadimdan mavjud bo‘lgan elat va qabila nomlari muhim o‘rin tutadi. Xususan, Qizilqum hududidagi joy nomlari tarkibida antropotoponimlarning keng tarqalganligi kuzatiladi. Bu esa ushbu mintaqa toponimiyasining etnik va shaxsiy ismlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan olib qaraganda, Qizilqum toponimlari tarkibida etnonimlar va antroponimlar sezilarli darajada uchraydi. Bu holat hudud tarixi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, qadimgi elat va qabila nomlari hamda ayrim shaxslarning ismlari joy nomlarining shakllanishida muhim omil bo‘lganini ko‘rsatadi. Natijada, ushbu mintaqadagi geografik nomlar xalqning etnik tarkibi, tarixiy o‘zgarishlari va madaniy merosini aks ettiruvchi muhim lingvistik manba sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Наханова Л.А. Историко-семантическая интерпретация топонимов в Орхоно-Енисейских памятниках. Диссертация на соискание ученой степени (PhD) доктора философии. – Астана, 2014. – 13 с.; Кононов А.Н. Махмуд Кашгарский и его «Дивану лугат-ит турк».// Советская Тюркология. – 1972. №1. – С.3-17.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома – Ҳозирги ўзбек тилига табдил қилган: В.Раҳмонов, К. Муллахўжаев. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2019. – 440 б.
3. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. Том 2. Тошкент, ”Фан”, 1965. – 17 б.

«БАУЫРЖАН МОМЫШҰЛЫНЫҢ СӨЗ МӘДЕНИЕТІ ЖӘНЕ ТІЛДІК НОРМАНЫ САҚТАУ ҰСТАНЫМДАРЫ»

ҒАЛЫМЖАН КУРСАНТӘЛІҰЛЫ РАХЫМБАЕВ,
Гүлстан мемлекеттік университеті Қазақ филологиясы бағытының оқытушысы
rahimbaevgalimzan@gmail.com

Аннотация

Мақалада көрнекті қолбасшы, жазушы Бауыржан Момышұлының сөз мәдениеті, тіл тазалығы және тілдік нормаларды сақтау төңірегіндегі лингвистикалық әрі этикалық ұстанымдары сараланады. Автор Б. Момышұлының поэзиялық және прозалық мұрасына дискурстық талдау жасай отырып, оның тілді ұлттық қауіпсіздіктің, мемлекеттіліктің және рухани болмыстың басты құралы ретінде қарастырғанын негіздейді. Б. Момышұлының «Ана тілін ардақта», «Ескертпе», «Тырнақтап жина әр жерден», «Әскер аты» және «Біреулерге» сияқты шығармалары мысалында тілдік шұбарлануға, сөз жүйесіздігіне қарсы көзқарастары мен сөздің дәлдігі, ойдың жүйелілігі, көркемдік пен этикалық нормалардың сабақтастығы жан-жақты талданады. Батырдың тіл саясаты мен сөз мәдениетіне қатысты тұжырымдары жаһандану дәуіріндегі ұлттық тілді сақтау мен дамытудың маңызды бағдары ретінде бағаланады.

Тірек сөздер: сөз мәдениеті, тілдік норма, тіл тазалығы, дискурстық талдау, ұлттық қауіпсіздік, лексикалық дәлдік, кодтардың араласуы.

Аннотация

В статье анализируются лингвистические и этические принципы выдающегося военачальника и писателя Бауыржана Момышулы, касающиеся культуры речи, чистоты языка и соблюдения языковых норм. На основе дискурс-анализа его литературного наследия обосновывается позиция автора о языке как о ключевом факторе национальной безопасности, государственности и духовной идентичности. На примере таких произведений, как «Ана тілін ардақта», «Ескертпе», «Тырнақтап жина әр жерден», «Әскер аты» и «Біреулерге», подробно рассматриваются его взгляды на проблему смешения языковых кодов, точность словоупотребления, логическую последовательность мысли и взаимосвязь эстетических и этических норм. Сформулированы выводы о том, что идеи Б. Момышулы о культуре речи сохраняют высокую актуальность для современной языковой политики в условиях глобализации.

Ключевые слова: культура речи, языковая норма, чистота языка, дискурс-анализ, национальная безопасность, лексическая точность, смешение кодов.

Abstract

This article examines the linguistic and ethical principles of the prominent military commander and writer Bauyrzhan Momyshuly regarding speech culture, language purity, and adherence to language norms. Through a discourse analysis of his literary heritage, the paper substantiates his view of language as a strategic tool for national security, statehood, and cultural identity. Analyzing works such as *"Ana tilin ardaqta"*, *"Eskertpe"*, *"Tyrnaqtap zhina ar zherden"*, *"Asker aty"*, and *"Bireulerge"*, the study highlights his critique of language contamination and code-mixing, while emphasizing lexical precision, logical consistency, and the synthesis of aesthetic and ethical standards. Momyshuly's conceptual insights on language culture are positioned as a vital orientation for modern language policy in the era of globalization.

Keywords: speech culture, linguistic norm, language purity, discourse analysis, national security, lexical precision, code-mixing.

Тіл – ұлттың тек қарым-қатынас құралы ғана емес, оның ішкі қуаты мен өміршеңдігінің басты өлшемі. Бауыржан Момышұлының пайымдауынша, «Тіл байлығы, тіл тазалығы – ұлт қасиетінің, салт-санасының негізгі өнегесі, нағыз белгісі», ал тіл байлығы – елдің ғылымын, өнерін, тіпті жауынгерлік дәстүрі мен мемлекеттік құрылымын айқындайтын «сөзсіз дәлелді мөлшер». Батырдың мұрасын зерттеуде қолданылған дискурстық талдау әдістері оның тілді ұлттық қауіпсіздік нысаны ретінде қарастырғанын айғақтайды. Ол үшін тіл – мемлекетті меңгерудің, қоғамды тәрбиелеудің және халықаралық аренада ұлттық болмысты танытудың басты стратегиялық қаруы. «Өнер алды – қызыл тіл» деген бабалар аманатын ол «Қазақ тілі – сұлулығымен бой балқытып, тамыр шымырлататын, жан жүйеңді жандырып, құлақ құрышын қандыратын, өткірлігімен қысылтаяң тұста ер мен елге бірдей медет беріп, адам түгіл жағдайдың өзінің аузына құм құятын ғажап кемел тіл» деп таныды.

Найзадан қол босаса қалам алдым,
Толғанып оқиғаны көп ойландым.
Тырмысып әл келгенше көргенімді,
Жалтақтамай, именбей ашық жаздым.

«Найзадан қол босаса қалам алдым» деп өзі толғағандай, Бауыржан Момышұлының қаламгерлік қызметі – оның майдан даласындағы ерлігінің заңды жалғасы. Батыр өзінің «Ескертпе» атты өлеңінде жазушылық затынан

бұрын, сөздің парқын білу мен оқырман алдындағы адал еңбекті бірінші орынға қояды. Бұл ұстаным оның бүкіл лингвистикалық концепциясының, яғни сөз мәдениеті мен тілдік норманы сақтау қағидаларының іргетасы болып табылады. Момышұлы үшін тіл – жалтақтамай, именбей ашық жазудың құралы, ал сөздің парқын түсіну – ұлттық сана мен мәдениеттің биік көрсеткіші.

Батыр өзінің «Ескертпе» өлеңінде сөздің парқын білу мен оқырман алдындағы адал еңбекті бірінші орынға қойса, «Тырнақтап жина әр жерден» туындысында сөзбен жұмыс істеудің ғылыми әдістемесін ұсынады.

Сұлу сөзге құл болма,
Зеректік онда көп болмас.
Қол-аяғы болмаса,
Орнынан адам тұра алмас.

Ол үшін тілдік материалды жинау – «асылын елеп теріп алу» мен «кірпіштен үй құрау» секілді жауапты процесс. Момышұлы «сұлу сөзге құл болмауға» шақыра отырып, тілдік норманың басты шарты – сыртқы әсемдік емес, ойдың жүйелілігі («қол-аяғының болуы») екенін негіздейді. Бұл ұстанымдар оның бүкіл лингвистикалық концепциясының іргетасы болып табылады.

Батырдың сөз мәдениетіне қатысты ұстанымдары оның «Ана тілін ардақта» атты толғауында лингвистикалық және этикалық тұрғыдан жан-жақты ашылады.

Ержеткендер сөйлейді орысшалап,
Кім отыр сөз құрылысын қынап-сынап.
«Мамасы» мен «папасы» шүршіт болып,
Күйдірді-ау, шүршітшілеп, бала жылап.

Момышұлы тілдің шұбарлануын (кодтардың араласуын) ұлттық мінездің әлсіреуімен тікелей байланыстырады. Көшедегі «орысшалап жырқылдау» мен отбасындағы «мамасы» мен «папасы» секілді кірме сөздердің белең алуын ол ұлттық тәрбие діңгегіне түскен құрт ретінде сынайды. Автор үшін тілдік норма – бұл тек грамматикалық ереже емес, бұл «сөз құрылысын қынап-сынау» арқылы келетін ішкі тәртіп пен мәдени кемелдік. Газет пен кітап тіліндегі жүйесіздікті, мағынасыз «былжыр» сөздерді ол мемлекеттік деңгейдегі сауатсыздық деп есептеп, қоғамнан сөздің киесі мен жүйесін талап етті.

Бауыржан Момышұлының сөз мәдениетіне қоятын басты талабы — сөздің дәлдігі мен заттық атауының сәйкестігі. Оның «Әскер аты» өлеңі — осы принциптің жарқын айғағы. Мұнда автор қазақ тілінің бай лексикалық қорын шебер пайдаланып, «бура санды», «құймақ тұяқ», «сағақ мойын» секілді нақты сипаттамалар арқылы тұлпардың кескінін мүсіндейді. Бұл батырдың «сөздің

парқын білу» туралы ұстанымының практикалық көрінісі. Ол әрбір детальды тілдік нормаға сай дәл атау арқылы оқырманға логикалық тұрғыдан мінсіз, эстетикалық жағынан толыққанды ақпарат береді. Сондай-ақ, өлең соңындағы ат пен адам сұлулығын шендестірудегі авторлық позициясы оның ұлттық мәдени-этикалық нормаларға деген адалдығын көрсетеді. Момышұлы үшін сөз мәдениеті — бұл тек дұрыс сөйлеу емес, бұл — әлемді ұлттық таным тұрғысынан нақты әрі жүйелі қабылдаудың көрінісі.

«Біреулерге» арнаған бұл сықағында қазақтың байырғы төрт түлік малға қатысты лексикасы мен ұлттық метафоралары шебер қолданылған. Б. Момышұлы кейіпкердің «тұлғасыздығын» (пікірінің жоқтығын, жалтақтығын) сипаттау үшін жай ғана сын есімдерді қолданбайды. Ол жан-жануарлар әлеміндегі «жарамсыз» образдарды («үш көтерем өгіз», «белі сынған түйе», «азуы жоқ кәрі қошқар», «дүрегей ит») тізбектейді. Бұл — сөз мәдениетіндегі бейнелілік пен дәлдіктің ұштасуы. «Аузын бағып сөйлеу» және «Бетке алуан бояу жағу» сияқты фразеологизмдер арқылы автор тілдік норманың тек дыбыстық емес, адамгершілік (этикалық) нормамен сабақтастығын көрсетеді. Батыр үшін тіл тазалығы — адам жанының тазалығынан басталады. Өленедегі әрбір шумақ — сұрапыл соққы секілді. Бұл Бауыржан Момышұлының «өткірлік» ұстанымын айқындайды. Ол тілдің мүмкіндігін пайдалана отырып, екіжүзділікті «қиып түседі». Сөз мәдениеті — тек сыпайы сөйлеу емес, керек жерінде «өтін сыртқа шығарып, долдандырып» (өзіңіз жоғарыда келтірген мәтіндегідей) шындықты айту.

Талдау барысы көрсеткендей, қазақ тілінің тазалығы мен оның прагматикалық қуаты Бауыржан Момышұлының өмірлік кредосына айналған. «Сөз сүйектен өтеді», «Сөз жүйесін табады» деген халықтық афоризмдерді ол майдандағы жауынгерлік рухты оятудың, ел намысын қорғаудың пәрменді құралына айналдырды. Оның пайымындағы тіл – жан-жүйеңді жандырып, құлақ құрышын қандыратын эстетикалық құрал ғана емес, қиын-қыстау кездерде қайрап, егеп, ерге медет болатын күш. Ана тілінен ажыраған елдің «құмға сіңген судай» дерексіз жоғалатыны туралы ескертуі – бүгінгі жаһандану дәуіріндегі тіл саясаты мен сөз мәдениеті үшін темірқазық боларлық тұжырым. Түйіндей келгенде, Бауыржан Момышұлының мына бір ұлағатты сөзімен аяқтағанды жөн көрдік.

О, адамдар, қадіріне жетіңдер,
Ана тілің – анаң! Сыйлап өтіңдер.
Туған тілін танымаған көр соқыр,
Болып өтер, ертең мәңгі өкінер...

Пайдаланған әдебиет:

1. Момышұлы Б. Жүрекпен жырлап толғаймын. Көптомдық шығармалар жинағы. – Т.30. Алматы: Өнер, 2010. – 248 бет.

2. Момышұлы Б. Өсиет сөздер. Алматы: Өнер, 2012. – 48 бет.

JADIDLAR DAVRIDA MATBUOT LEKSIKASINING SHAKLLANISHI

Bekmurodov Tog‘oymurod Panjiyevich,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
togaymurod192@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadidlar davri matbuot va nashriyot terminlarining shakllanishi, lingvistik xususiyatlari hamda qo‘llanish doirasi tadqiq etiladi. Shuningdek, terminlarning semantik, strukturaviy va funksional jihatlari tahlil qilinib, davr matbuotida terminologik tizimning shakllanish jarayoniga ilmiy baho beriladi.

Kalit so‘zlar: Matbuot, Turkiston viloyatining gazeti, Tarjimon, Taraqqiy, Osiyo, Sadoi Farg‘ona, pressa, Kengash jurnalist, muxbir, axborot, axborot vositachisi, jurnalist, muxbir.

Annotation. This article examines the formation, linguistic characteristics, and scope of use of press and publishing terms in the Jadid period. It also analyzes the semantic, structural, and functional aspects of these terms and provides a scholarly assessment of the formation and development of the terminological system in the press of that period.

Keywords: press, *Turkiston Viloyatining Gazeti*, *Tarjimon*, *Taraqqiy*, *Osiyo*, *Sadoi Farg‘ona*, pressa, Kengash, journalist, correspondent, information, information intermediary, journalist, correspondent.

Аннотация. В статье исследуются процессы формирования, лингвистические особенности и сфера употребления терминов прессы и издательского дела в период джадидизма. Анализируются семантические, структурные и функциональные характеристики данных терминов, а также даётся научная оценка процессу формирования и развития терминологической системы в периодической печати рассматриваемого периода.

Ключевые слова: пресса, «Туркестанская туземная газета», «Тарджиман», «Тараккий», «Осиё», «Садои Фаргона», пресса, Кенгаш, журналист, корреспондент, информация, информационный посредник.

O‘zbekiston va unda yashayotgan xalqning tarixiga nazar solib qaraydigan bo‘lsak, bir necha ming yilga borib taqaladi. Bunday deyishimizga sabab shundaki, u turli xalqlar tarkibida turlicha nomlarda yashagan, o‘z davlatchiligiga ega bo‘lgan eng ko‘hna shajaralardan birdir. Ular qadimdan o‘ziga tegishli va unga yondosh bo‘lgan xalqlarga ziyo va ma’rifat ulashib kelgan xalq sanaladi. Shu nuqtayi nazardan o‘rta asrlarda jahon tamaddunining beshigini tebratgan bobokolonlarimiz dunyoga quyosh

yang‘liq nur sochgan. Jumladan, Farobiy, Al–Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Al-Beruniy, Al-Buxoriy, G‘azzoliy, Qamadoniy, G‘ijduvoniy va boshqa ulug‘ zotlarning hayot tarzi, ilm uchun fidoiyligi, e’tiqod - imonining pokligi bilan dunyoga ibrat bo‘lgan [Xayrullayev 1994]. Bundan tashqari Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Xoja hakim at-Termiziy, Shayx Abu Mansur al-Maturdiy as-Samarqandiy, Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy, Xoja Axmad Yassaviy, Sulaymon Baqirg‘oniy, Shayx Najmiddin Kurbo, Xoja Ali Romitaniy, Yusuf Hamadoniy, Buhovuddin Naqshband kabi siymolar ilohiy marifat yo‘lining rahnamolari bo‘lganlar [Ma’naviyat yulduzlari 1999]. Bu ro‘yxatni qatorlab davom ettirishimiz mumkin. O‘sha davrlarda ham marifatni va ma’naviyatni targ‘ib qilish vositalari sirasiga turli xil qo‘lyozmalar, she’riy parchalar, diniy va dunyoviy kitoblar va ijtimoiy va siyosiy yangiliklarni xalqqa ovoza qilib yuradigan jarchilar orqali tarqatilgan. Qaysidir ma’noda yuqorida sanagan vositalarimiz bugungi kunda matbuot deb atayotgan va u bajarayotgan vazifani o‘sha davrda bajargan deyishimiz mumkin. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo‘lsan, ular o‘sha davrning o‘ziga xos matbuot tizimi bo‘lgan.

Shu o‘rinda jadidlar faoliyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Turkistonda jadidchilik g‘oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi. Bu harakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o‘lka ijtimoiy-siyosiy xayotida muhim rol o‘ynadi. Bugungi kunda respublikamiz tarixchi olimlari jadidchilik harakatida quyidagi uchta bosqichni farqlashmoqda:

1) XIX asr oxirlaridan 1915-yilgacha-ma‘rifatchilik;

2) 1915-yildan - 1918-yil fevraligacha-muxtoriyatchilik;

3) 1918-yil fevralidan - 20-yillar oxirlarigacha mustabid sovetlar davridagi faoliyati.

Turkistonning madaniy markazlaridan biri bo‘lgan Toshkent shahrida o‘lkaning to‘ng‘ich gazetasi “Turkestanskiy vedomosti” 1870-yil 28-aprelda chiqa boshlagan edi. Ushbu gazeta Rossiya guberniya vedomostlariga tenglashtirilgan bo‘lib, unga amaldorlar obuna bo‘lishi majburiy edi [ЎзР МДА. 1-жамғарма, 17-рўйхат, 734-иш, 28-б]. Turkiston general-gubernatorligi bu gazeta orqali o‘z g‘oyalarini tarqatishni maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsa-da, amalda matbuot o‘lkani har tomonlama o‘rganib hamda rus aholini Turkiston hayoti bilan tanishtirish, ularga madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy xabarlar berish borasida alohida ahamiyat kasb etgan edi.

Turkistondagi birinchi o‘zbek tilidagi gazeta “Turkiston viloyatining gazeti” 1870-1883-yilgacha “Turkestanskiн vedomosti” gazetasiga “Ilova” tarzida chiqarilar edi. Bu gazeta bir oyda 4 marta – 2 marta o‘zbek tilida va 2 marta qirg‘iz tilida chiqa boshladi. 1883-yil 30-yanvardan 500 nusxada alohida gazeta sifatida chiqa boshladi. 1888 yilga kelib gazeta 600 nusxadagina bosilib, uning asosiy qismi majburiy obunachilarga aylantirilgan mahalliy amaldorlarga jo‘natilgan [ЎзР МДА. 1-

жамғарма, 28-рўйхат, 60-иш, 82-б]. “Turkiston viloyatining gazeti”ning muharriri N. Ostroumov gazetaning o‘quvchilari kamligini milliy tildagi dastlabki gazeta bo‘lganligi va mahalliy aholi uchun pulga gazeta sotib olib o‘qish yangilik ekanligi bilan izohlagan edi [ЎзР МДА. 1-жамғарма, 28-рўйхат, 35-иш, 39-45-б]. Aslida esa Turkiston aholisi ziyolilari orasida Ismoil Gasprinskiy muharrirligida chiqqan “Tarjimon” gazetasi mashhurroq bo‘lgan o‘sha davrning o‘zidayoq “Turkiston viloyatining gazeti” xalq orasida katta obro‘ga ega emasligi sabablarini ochishga ma’lum ma’noda harakat qilingan. Mazkur gazetaning moliyaviy ahvoli ancha og‘ir bo‘lib, ayniqsa 1912-yilning oxiri – 1913-yillarda mablag‘ yetishmasligidan gazetaning yopilish xavfi ham bor edi. Faqat Toshkentda mahalliy tilda xususiy gazetalar chiqarishga harakat qilinayotganligi, bu esa hukumatga qarshi kayfiyatlar tarqalishiga olib kelishini hisobga olgan Turkiston general-gubernatorligi “Turkiston viloyatining gazeti”ni moliyaviy tomondan qo‘llab turishga uringan edi. Hatto, 1913 yilning 5 yanvarida Turkiston general-gubernatori harbiy vazirga xat yozib, ushbu gazetani bosib chiqarishga mablag‘ so‘ragan [ЎзР МДА. 1-жамғарма, 17-рўйхат, 734-иш, 117-б], so‘ralgan mablag‘ning nechidir foizi qoplab berilganligi haqida ham ma’lumotlar bor. Lekin “Turkiston viloyatining gazeti” Rossiyaning boshqa joylarida, ya’ni Gelsingfros, Qozon, Qashg‘ar, Boqchasaroy, Moskva, Omsk, Peterburg shaharlarida ham oz bo‘lsada o‘quvchilariga ega edi. Ushbu gazeta sahifalarida, Turkistonda boshqa milliy gazeta yo‘qligi tufayli Ishoqxon Ibrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Mirmuhsin Shermuhamedov va shu kabi taraqqiyparvarlar madaniy-ma’rifiy mavzudagi maqolalari bilan qatnashib, mahalliy aholining dunyoviy ilmlarga, fan va texnika, boshqa xalqlarning ilg‘or madaniy va adabiy merosiga qiziqishini kuchaytirganlar.

XIX asrning 90-yillariga kelib Turkistonda matbuot sohasida burilish yuz berdi. Bu davrda o‘lkada rus tilidagi dastlabki xususiy gazetalar paydo bo‘la boshladi. Dastlab Samarqandda, keyin Toshkentda 1890-1907-yillarda chop etilgan “Okraina” va 1898-1907-yillarda Toshkentda chop etilgan “Russkiy Turkestan” gazetalari shular jumlasidandir. Mazkur gazeta faoliyatida N. Likoshin, N. Xanikov va A. Divaevlar faol ishtirok etishgan. Bu gazetalar universal bo‘lib, uning sahifalarida o‘lkaning tarixi, geografiyasi, iqtisodiy hayoti va madaniy-ma’rifiy masalalari muntazam yoritib borilgan. 1904-yilda “Tashkentskiy listok” gazetasi chop etila boshlagan edi, unda telegrammalar, e’lonlar va mahalliy xronikalar ham berib borilgan. Ushbu gazeta 1906-yildan “Tashkentskiy kurer”, 1908-yildan esa “Turkestanskiy kurer” nomi ostida chiqqan.

XX asr boshlarida Toshkentda milliy taraqqiyparvar kuchlar bir qancha gazetalar chiqarishga muvaffaq bo‘lganligi o‘lka ijtimoiy hayotida muhim voqea bo‘lgan. 1905-1907-yillardagi inqilobdan vahimaga tushgan hukumat matbuot

sohasida ham yon berishga majbur bo‘lgan. Gazetaning xalq ijtimoiy-siyosiy ongini oshirishdagi rolini tushungan jadid taraqqiyparvarlari milliy gazetalar chiqarishga muvaffaq bo‘lishgan. Bunday gazetalarning ko‘pchiligi avvalo Toshkent shahrida chop etilgan. Milliy taraqqiyparvar kuchlar chiqargan gazetalar “Taraqqiy” (1906 y.), “Xurshid” (1906 y.), “Shuhrat” (1907 y.), “Osiyo” (1908 y.) hukumat tomonidan qattiq ta’qib ostiga olinib, gazetaning har bir sonlaridagi maqolalar tarjima qilinib kuzatib borilgan. Hukumat gazetasi bo‘lgan “Turkiston viloyatining gazeti” sahifalarida ushbu gazetalar qattiq tanqid ostiga olingan. Bu milliy gazetalar juda qisqa vaqt nashr qilingan va hukumatga qarshi yo‘nalishlari uchun to‘xtatib qo‘yilgan. Jadid taraqqiyparvarlari tashkil etgan milliy gazetalarda millatni jaholatdan qutqarish va uning taraqqiy topishiga erishish masalalari diqqat markazida bo‘lgan. Ular milliy ongni o‘stirishga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Biz jadidlarning faoliyati davomida ochilgan va faoliyat yuritgan matbuot nashrlarini birma-bir sanar ekanmiz ularning qanchalar murakkab vaziyatlarda faoliyat yuritganini va qanchadan-qancha to‘siq va muammolarga duch kelganligini chuqurroq his qilishga harakat qilmog‘imiz kerak. Jumladan, qattiq siquvga olingan milliy taraqqiyparvar kuchlar uzoq vaqt matbuotga ega bo‘lish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan edilar. Bu haqda milliy taraqqiyparvarlardan biri Rauf Muzaffarzoda shunday deb yozgan: “Bizda “Taraqqiy”dan so‘ng ko‘pgina gazetalar chiqib, oz fursatda yana yopilib qoldi. Agar o‘sha paytda chiqib, so‘ng yopilgan jaridalarni yig‘sak, juda katta jarida mozori hosil bo‘ladi. Lekin jadidlar muntazam ravishda bu yo‘lda harakat qilgan edilar. Natijada XX asrning 10-yillarida Turkistonning qator shaharlarida, jumladan Toshkent shahrida ham milliy matbuotni yo‘lga qo‘yishga muvaffaq bo‘lingan. 1914-1915-yillarda Ubaydulla Xo‘ja Asadullaxo‘jaev muharrirligida “Sadoi Turkiston” gazetasi chop etildi. Ushbu gazeta faoliyatida Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Tavallo, Saidnosir Mirjalilov, Hamza Hakimzoda, Xolid Said, Abdulhamid Sulaymon, Mo‘minjon Muhammadjonov, Abdulla Erg‘oziyev, Nushiravon Yovushev, Siddiqiy, Lutfulla Olimiy, Mulla Said Ahmad Vasliy, Fuzayil Jonboev, Muhammadjon (mudarris), Badriddin A’lami, Hoji Muin, Sh. Rahimiy kabi millat fidoiylari muharrirga yaqindan yordam berdilar. Turkiston taraqqiyparvarlaridan Mahmudxo‘ja Behbudiy ham ushbu gazetani chiqarishni davom ettirish uchun millat jonkuyarlari moddiy va ma’naviy tomondan yordam berishlarini, chunki dunyoda 10 million aholiga ega bo‘lgan davlatlar minglab matbuot nashrlariga ega ekanligini ta’kidlab, milliy taraqqiyparvar kuchlarni mushtariy yig‘ishga yordam berishga chorlagan edi. Ammo milliy taraqqiyparvarlarning sa’y-harakatlariga qaramay, 1915-yil 10-aprelda mablag‘ yetishmaganidan “Sadoi Turkiston” gazetasining 66-soni chiqarilib, to‘xtatib qo‘yildi. Arxiv ma’lumotlariga ko‘ra, keyinchalik Ubaydulla

Xo‘jaev gazetani yana chiqarishga urungan, lekin hukumatdan rasmiy ruxsat ololmagan.

Xulosa sifatida shuni takidlshimiz mumkinki, jadidlarimiz tomonidan tashkil qilinga bu kabi gazeta va jurnallar O‘zbekiston matbuot taraqqiyotini misli ko’rilmagan darajada ildamlashiga asos bo‘lgan. Matbuot va nashiriyot sohalarining bu darajada shiddat bilan shakillanishi jarayonida shu sohaga tegishli bo‘lgan terminlar va tushunchalar ham kirib kela boshlagan. Bu jarayon o‘z navbatida shu sohani his qiladigan kadrlar masalasini ham o‘rtaga tashlagan. Buni yaxshi anglab yetgan ziyolilarimiz yosh o‘zbek yigit va qizlarni har tamonlama rivojlangan xorijiy davlatlarga yuborish va u yerning ta’lim tizimi va matbuot sohasidagi yutuqlarini o‘rganib kelish vazifalari yuklatilishi ko‘zda tutilgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ma’naviyat yulduzlari. 1999. Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar.
2. Кастелская З. Д. “Из истории Туркестанского края (1865 - 1917)”. М., 1980.
3. ЎзР МДА. 1-жамғарма, 17-рўйхат, 534-иш, 5-бет
4. ЎзР МДА. 1-жамғарма, 28-рўйхат, 60-иш, 82-бет
5. ЎзР МДА. 1-жамғарма, 28-рўйхат, 35-иш, 39-45 – бетлар
6. ЎзР МДА. 1-жамғарма, 17-рўйхат, 734-иш, 117-бет
7. Остроумов Н.П., “Сарты”, Т., 1894 й
8. Окраина. 1893. № 129
9. Туркистон вилоятининг газети. 1906, 25, 29, 30, 33, 35-37, 44, 51-сонлар
10. Рауф Музаффарзода. Бизда зиёлилар ва миллий матбуот, Садои Туркистон. 1914, № 44

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN ADABIY TA’LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Achilova Emina Sa’dulloyevna
ChDPU O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada adabiyot darslarini o‘quvchi shaxsi, uning qiziqishi va ichki imkoniyatlariga tayangan holda tashkil etish masalasi yoritilgan. Zamonaviy pedagogik paradigmalar va yondashuvlar qisqacha tavsiflanib, shaxsga yo‘naltirilgan adabiy ta’lim muhitining mohiyati, variativlik tamoyili asosida asar va matn tanlash talablari hamda bu muhitning an’anaviy ta’limdan farqli jihatlari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan adabiy ta’limning PISA xalqaro baholash tadqiqoti talablari bilan bog‘liqligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, adabiy ta’lim muhiti, pedagogik paradigma, variativlik tamoyili, PISA, o‘qish savodxonligi, XXI asr ko‘nikmalari.

Har qanday jamiyatning ertangi kuni bugun maktabda qanday shaxs tarbiyalanayotganiga bog‘liq. Ta’lim jamiyatni isloh qilish, uni tashqi dunyo uchun yanada ochiq hamda yangi texnologiya va bilimlarga yo‘naltirilgan jamiyatga aylantirishning asosiy omili sanaladi[23]. Rivojlangan davlatlar tajribasi va ta’lim sifatini baholovchi xalqaro baholash dasturlari natijalari mamlakat taraqqiyoti milliy ta’lim tizimining samaradorligi bilan chambarchas bog‘liq ekanini yana bir bor ko‘rsatdi. Globallashuv sharoitida axborot oqimining keskin ko‘payishi, ijtimoiy tarmoqlarning faollashuvi o‘quvchidan tayyor bilimni eslab qolishni emas, balki axborotni saralash, tahlil qilish va unga mustaqil munosabat bildirishni talab etmoqda. Shu bois zamonaviy maktab oldiga raqobatbardosh, XXI asr ko‘nikmalarini egallagan, butun hayoti davomida ta’lim olishga qodir shaxsni tarbiyalash vazifasi qo‘yilmoqda. Adabiyot fani bu vazifani hal etishda alohida o‘rin tutadi, chunki badiiy matn ustida ishlash o‘quvchining tafakkuri, hissiyoti va nutqini bir vaqtda rivojlantiradi. Mazkur maqolada adabiy ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etishning metodik jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar pedagogik paradigmalar zamirida shakllanadi. Paradigma ta’lim tizimi va uning istiqboldagi yo‘nalishlarini

[23] Raximov Z.T. Pedagogik kompetentlik ta’lim jarayoni rivojlanishining muhim omili sifatida. // “Zamonaviy ta’lim” ilmiy-amaliy ommabop jurnali, 2019 yil № 7-son. – 3-8-b.

belgilaydigan yetakchi g‘oya bo‘lib, bugungi pedagogikada quyidagi paradigmalar ajratib ko‘rsatiladi:

1. Kognitiv paradigma o‘quvchiga maksimal miqdorda bilim berishni, uning aqliy rivojlanishini ustuvor deb biladi. Bunda o‘qituvchining majburlash istagi yetakchilik qiladi, o‘quvchining istak va qiziqishlari esa yetarlicha hisobga olinmaydi.

2. Shaxsiy paradigma bolaning hissiy va ijtimoiy rivojlanishini birinchi o‘ringa qo‘yadi, o‘quvchining qiziqish va muammolariga katta e’tibor qaratadi, o‘quvchilarga qo‘yiladigan me’yorlar esa qat’iy belgilanmaydi.

3. Madaniy paradigma o‘quvchini ma’naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashni, madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirishni maqsad qiladi. Bu paradigmada ham majburlash elementlari mavjud, chunki madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish zaruratini to‘g‘ri anglaydigan o‘quvchilar ko‘pchilikni tashkil etmaydi.

4. Kompetentlik paradigmasi kognitiv-axborot paradigmasidan o‘sib chiqqan bo‘lib, axborotni cheksiz uzatishdan voz kechib, uni muayyan kompetensiyalarni rivojlantirish uchun maqsadli berishni ma’qullaydi.

Zamonaviy ta’limni rivojlantirish strategiyasi ushbu paradigmalarning uyg‘unlashuviga tayanishi lozim. Jahon pedagogikasida keng qo‘llanilayotgan va ijobiy samara berayotgan zamonaviy yondashuvlar qatoriga shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, akmeologik va evristik yondashuvlar kiradi. Ularning barchasida o‘quvchi shaxsini har tomonlama takomillashtirish, unga individual yondashish, nazariy bilimlarning amaliy ahamiyatini oshirish va o‘quvchi iqtidorini yuzaga chiqarish nazarda tutiladi[24].

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchi shaxsini, uning qiziqishlari, ruhiy olami va ichki imkoniyatlarini ta’lim jarayonining markaziga qo‘yishni anglatadi. Bu yondashuvda ta’lim oluvchi ta’limning bosh dominanti hisoblanadi, o‘qituvchi esa har bir o‘quvchining ruhiy, jismoniy va yosh xususiyatlarini, fanga tayyorlik darajasini hisobga olib, uning qobiliyatini rivojlantirish uchun zarur pedagogik va psixologik shart-sharoitni yaratadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (keyingi o‘rinlarda – ShYT) muhitida insonparvarlik tamoyillari didaktik asos sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday muhitni yaratishda o‘quvchining qobiliyati bilan bir qatorda o‘qituvchining zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorligi ham muhim ahamiyatga ega. Klassik yondashuvlardan farqli ravishda, ShYT markazida o‘zining maksimal imkoniyatlarini ishga solib bilim olishga intiladigan, yangi tajribalarni qabul qila oladigan, turli

[24] Якиманская И.С. Основы личностно-ориентированного образования. – М.: «Бином. Лаборатория знаний», 2011.

vaziyatlarda mustaqil qaror chiqaradigan, nostandart fikrlaydigan o‘quvchi shaxsi turadi[25].

Bugungi o‘quvchida o‘zini ijtimoiy hayotga tayyorlaydigan, o‘z «men»ini anglashga yordam beradigan, zamon bilan hamnafas asarlarni o‘rganishga ishtiyoq kuchli. PISA xalqaro baholash tadqiqoti topshiriqlarida ham o‘quvchining shaxsiy bilim va tajribasini nafaqat baholaydigan, balki yo‘naltiradigan matnlar tanlanadi. PISA tahlillariga ko‘ra, o‘quvchining o‘z qiziqishlari asosida kasb tanlashi uning kelajakda faol ijtimoiylashuviga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan shaxsga yo‘naltirilgan adabiy ta’lim muhiti faqat adabiyot o‘qituvchisi, shoir yoki yozuvchini tarbiyalashni maqsad qilmaydi. Uning asosiy natijasi – jamoa oldida o‘z fikrini ta’sirli, ishonarli va asosli bayon qila olish ko‘nikmasi bo‘lib, bu fazilat barcha kasb egalari uchun zarur.

Shaxsga yo‘naltirilgan adabiy ta’lim muhitida variativlik tamoyiliga ko‘ra adabiy asarlar va axborot matnlari o‘quvchilarning qiziqishi, xohishi va ehtiyojiga qarab tanlanadi. Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tomonidan tayanch maktablar uchun o‘qish savodxonligi yo‘nalishida tavsiya etilgan matnlar bunga misol bo‘la oladi: ular o‘quvchilarda nafaqat o‘qish savodxonligini, balki tanqidiy fikrlash, kreativlik va kommunikativlik ko‘nikmalarini ham shakllantiradi, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi. Variativlik tamoyili asosida o‘quvchilarda fikrlash operatsiyalari rivojlanadi. Natijada matnni faqat axborot sifatida qabul qiladigan o‘quvchi badiiy mutolaa zavqini his eta oladigan kitobxonga aylanadi.

Sinfdan tashqari o‘qish va mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan asarlarning mazmuni o‘quvchiga zamondosh bo‘lishi, u yashayotgan davrni qamrab olishi va yangilik bo‘yog‘ini saqlashi muhim. O‘quvchi yashamagan davr va makon tili bilan tasvirlangan voqealar unga ko‘pincha yot tuyuladi, shuning uchun turfa shakl va mazmundagi variativ asar va matnlarni tanlash zamonaviy adabiyot darslariga qo‘yilayotgan asosiy talablardan biridir. Ta’lim muhitining o‘quvchilarning bilim darajasi, salohiyati va tafakkuriga mos holda bosqichma-bosqich tashkil etilishi esa o‘quvchi bilan individual ishlash mexanizmini sifatli amalga oshirishni ta’minlaydi.

Shaxsga yo‘naltirilgan adabiy ta’lim muhitining an’anaviy ta’limdan farqi ham shu yerda ko‘rinadi. An’anaviy adabiyot darslarida o‘qituvchi yangi mavzuni o‘rnatilgan qoidalar asosida tushuntirar, darsning tarkibiy qismlariga qat’iy amal qilar edi: dars avvalida o‘tgan mavzu so‘ralib baholanar, so‘ng yangi mavzu bo‘yicha asar

[25] Indiaminov N., Babajanov B. Ta’lim samaradorligini oshirida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim // Zamonaviy ta’lim. 2014. №8. 18-22-betlar.

muallifi haqidagi biografik va statistik ma'lumotlar to'liq tanishtirilardi. O'quvchidan asar muallifining tarjimayi holi, u qaysi tashkilotlarda ishlagani, asarlari qaysi yillarda nashr etilgani va voqealar qaysi davrni qamrab olishi haqidagi ma'lumotlarni yodlash talab etilardi. Yangi avlod darsliklari esa o'quvchini o'zini o'zi tahlil va nazorat qilishga, mustaqil fikr bildirishga, o'zini anglash va ichki imkoniyatlarini ochishga yo'naltirgani bilan farq qiladi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsga yo'naltirilgan adabiy ta'lim muhiti o'quvchining shaxsiy xususiyatlari va ichki imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan shart-sharoitlar yaratilganda yuzaga keladi. Kompetensiyaviy, akmeologik va evristik yondashuvlar ham ta'limni o'quvchi shaxsiga yo'naltirish bilan bog'liq umumiy xususiyatlarga ega. Shu bois, bizningcha, ularni alohida belgilarga ega yondashuvlar sifatida «shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi» tushunchasida birlashtirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raximov Z.T. Pedagogik kompetentlik ta'lim jarayoni rivojlanishining muhim omili sifatida. // "Zamonaviy ta'lim" ilmiy-amaliy ommabop jurnali, 2019 yil № 7-son. – 3-8-b.
2. Якиманская И.С. Основы личностно-ориентированного образования. – М.: «Бином. Лаборатория знаний», 2011.
3. Indiaminov N., Babajanov B. Ta'lim samaradorligini oshirida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim // Zamonaviy ta'lim. 2014. №8. 18-22-betlar.
4. Radjiyev A.B., Ismailov A.A., Narziyev J.R., Tog'ayeva H.P. O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi. Qo'llanma. 2019-yil.
5. Векслер Д. Тест Векслера. Описание методики // psiholog.org. http://psihologn.org/index.php/psihologam-main3/373-test-vekslera-normativnye-tablitsy-1
6. Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992. – 37-bet.
7. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. – T.: 2018.

EUPHEMISM TRANSLATION IN LITERARY DISCOURSE: A CONTEXTUAL AND PRAGMATIC APPROACH

Boltaboyeva Umida Maxamadjanovna
ORCID ID: 0009-0003-4466-9144
PhD(doktorant), Turan International University
Namangan, Uzbekistan
umidaboltabaeva50@gmail.com

Annotation

Euphemisms represent a significant challenge in literary translation because their meaning cannot always be determined by their lexical form alone. In literary discourse, a euphemistic expression may simultaneously convey a referential meaning, a communicative intention, an evaluative attitude, and culturally conditioned associations. Therefore, the interpretation of euphemisms requires attention to the context in which they are used and to the relationship between the speaker, the addressee, and the subject of communication. This thesis examines the role of contextual interpretation in translating euphemisms from English into Russian and Uzbek. The analysis is based on selected examples from Jane Austen's *Pride and Prejudice*, Charlotte Brontë's *Jane Eyre*, and George Orwell's *Nineteen Eighty-Four*, together with their Russian and Uzbek translations. The study demonstrates that contextual interpretation enables translators to identify the communicative function of euphemistic expressions and select target-language solutions that preserve not only their basic meaning but also their pragmatic and stylistic value. The findings suggest that successful euphemism translation depends on the interaction of semantic accuracy, contextual appropriateness, pragmatic effect, and cultural compatibility.

Keywords: euphemism, literary translation, context, pragmatic meaning, contextual interpretation, translation equivalence, linguocultural meaning.

ПЕРЕВОД ЭВФЕМИЗМОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ДИСКУРСЕ: КОНТЕКСТУАЛЬНЫЙ И ПРАГМАТИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Болтабоева Умида Махамаджановна
ORCID ID: 0009-0003-4466-9144
PhD(докторант), Turan International University
Наманган, Узбекистан
umidaboltabaeva50@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Эвфемизмы представляют собой значительную проблему в художественном переводе, поскольку их значение не всегда может быть определено исключительно на основе лексической формы. В художественном дискурсе эвфемистическое выражение может одновременно передавать предметное значение, коммуникативное намерение, оценочное отношение и культурно обусловленные ассоциации. В связи с этим интерпретация эвфемизмов требует учёта контекста их употребления, а также взаимоотношений между говорящим, адресатом и предметом коммуникации. В настоящем тезисе рассматривается роль контекстуальной интерпретации при переводе эвфемизмов с английского языка на русский и узбекский языки. Анализ основывается на отдельных примерах из произведений Джейн Остин «Гордость и предубеждение», Шарлотты Бронте «Джейн Эйр» и Джорджа Оруэлла «1984», а также их русских и узбекских переводов. Исследование показывает, что контекстуальная интерпретация позволяет переводчику определить коммуникативную функцию эвфемистических выражений и выбрать такие средства языка перевода, которые сохраняют не только их основное значение, но и прагматическую и стилистическую ценность. Полученные результаты свидетельствуют о том, что успешный перевод эвфемизмов определяется взаимодействием семантической точности, контекстуальной уместности, прагматического эффекта и культурной совместимости.

Ключевые слова: эвфемизм, художественный перевод, контекст, прагматическое значение, контекстуальная интерпретация, переводческая эквивалентность, лингвокультурное значение.

BADIIY DISKURSDA EVFEMIZMLARNING TARJIMASI: KONTEKSTUAL VA PRAGMATIK YONDASHUV

Boltaboyeva Umida Mahamadjanovna
ORCID ID: 0009-0003-4466-9144
PhD (doktorant), Turan International University
Namangan, O‘zbekiston
umidaboltabaeva50@gmail.com

ANNOTATSIYA

Evfemizmlar badiiy tarjimada muhim muammolardan birini tashkil etadi, chunki ularning ma’nosini har doim ham faqat leksik shakli asosida aniqlash mumkin emas. Badiiy diskursda evfemistik ifoda bir vaqtning o‘zida referensial ma’no, kommunikativ maqsad, baholovchi munosabat hamda madaniy jihatdan shartlangan

assotsiatsiyalarni ifodalashi mumkin. Shu sababli evfemizmlarni talqin qilishda ularning qo‘llanilish konteksti, shuningdek, so‘zlovchi, tinglovchi va muloqot predmeti o‘rtasidagi munosabatlarni hisobga olish zarur. Mazkur tezisda evfemizmlarni ingliz tilidan rus va o‘zbek tillariga tarjima qilishda kontekstual talqinning o‘rni tadqiq etiladi. Tahlil Jeyn Ostinning *“G‘urur va xurofot”*, Sharlotta Brontening *“Jeyn Eyr”* va Jorj Oruellning *“1984”* asarlaridan olingan ayrim misollar hamda ularning rus va o‘zbek tillaridagi tarjimalariga asoslanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kontekstual talqin tarjimonga evfemistik ifodalarning kommunikativ funksiyasini aniqlash hamda ularning nafaqat asosiy ma’nosi, balki pragmatik va uslubiy qiymatini ham saqlab qoluvchi tarjima vositalarini tanlash imkonini beradi. Natijalar evfemizmlarni muvaffaqiyatli tarjima qilish semantik aniqlik, kontekstual muvofiqlik, pragmatik ta’sir va madaniy moslikning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: evfemizm, badiiy tarjima, kontekst, pragmatik ma’no, kontekstual talqin, tarjima ekvivalentligi, lingvokulturologik ma’no.

Introduction

Euphemism is traditionally understood as an indirect or softened way of referring to a concept that may be considered unpleasant, sensitive, socially inappropriate, or potentially offensive. However, in literary discourse, euphemistic expressions perform functions that extend beyond simple mitigation. They may characterize a speaker, indicate social distance, express politeness, conceal an unpleasant reality, or reveal culturally specific attitudes toward a particular phenomenon.

The interpretation of a euphemism therefore depends considerably on its context. The same lexical expression may acquire different pragmatic meanings in different communicative situations. A translator who focuses exclusively on its dictionary meaning may reproduce the referential content while losing the communicative intention or stylistic effect of the original. This problem becomes particularly important when a euphemistic expression is transferred between languages with different cultural conventions of politeness, indirectness, and social communication.

The present study focuses on the contextual interpretation of euphemisms in English literary works and their Russian and Uzbek translations. Particular attention is given to the way context helps determine the intended meaning of euphemistic expressions and influences the translator’s choice of an appropriate target-language equivalent.

Context as a Key Factor in Euphemism Interpretation

The meaning of a euphemism is closely connected with the communicative situation in which it occurs. Allan and Burridge (2006) emphasize the social and

communicative nature of euphemistic language, while pragmatic approaches to meaning demonstrate that linguistic expressions frequently communicate more than their literal semantic content.

Context may clarify whether an expression functions primarily as a polite substitute, a means of avoiding taboo, an indication of social status, or a stylistic device. In literary texts, contextual interpretation is further complicated by characterization and narrative perspective. The choice of a euphemism can reveal the speaker's education, social position, emotional state, attitude toward another character, or awareness of social conventions.

For this reason, euphemistic meaning should be interpreted at several interconnected levels. The first is the *semantic level,* which concerns the concept referred to by the expression. The second is the *pragmatic level*, which concerns the communicative intention and expected effect. The third is the *stylistic level,* including register, tone, and emotional colouring. Finally, the *linguocultural level* reflects associations and social conventions that may not have a direct equivalent in another language.

Euphemisms in Literary Translation

The translation of euphemisms demonstrates particularly clearly that equivalence cannot always be achieved through formal similarity. Nida's concept of dynamic equivalence (1964) and later communicative approaches to translation emphasize the importance of reproducing the effect and function of the source text rather than mechanically reproducing its linguistic form.

A euphemistic expression may therefore require a translation that differs structurally from the original but performs a comparable communicative function. In some cases, a functional equivalent can preserve the indirectness and politeness of the source expression. In others, a descriptive translation may be necessary when the implicit meaning of the original is not sufficiently transparent in the target language. Compensation may also be used when a particular stylistic or pragmatic effect cannot be reproduced in exactly the same position.

Contextual modification represents another important solution. A translator may alter the lexical choice, degree of explicitness, or stylistic register in accordance with the communicative situation and cultural expectations of target readers. Such modification should not be regarded as a departure from equivalence if it enables the target text to preserve the communicative function of the original.

Contextual Interpretation in English–Russian and English–Uzbek Translation

The comparison of English euphemisms with their Russian and Uzbek translations demonstrates the importance of considering target-language conventions. English literary discourse frequently employs indirectness as a means of politeness,

social restraint, or avoidance of explicit reference. Russian and Uzbek may employ different lexical and stylistic resources to perform similar functions.

In Russian translation, the semantic content of an English euphemism may sometimes be retained while its degree of indirectness or emotional colouring is adjusted. In Uzbek translation, cultural norms concerning respect, interpersonal relations, social hierarchy, and sensitive subjects may require additional contextual adaptation. Consequently, the same source-language euphemism does not necessarily require identical translation procedures in Russian and Uzbek.

The three literary works considered in the study illustrate different contextual conditions. In Jane Austen's *Pride and Prejudice*, euphemistic language is closely associated with social etiquette, interpersonal relations, and the conventions of polite conversation. In Charlotte Brontë's *Jane Eyre*, euphemistic expressions may interact with moral attitudes, social relationships, and emotional restraint. In George Orwell's *Nineteen Eighty-Four*, indirect language can acquire a broader ideological and political significance, demonstrating that euphemism may also function as a means of controlling or reshaping perception.

These differences confirm that translation decisions should be based on contextual interpretation rather than on isolated lexical correspondences. A formally close equivalent may be less successful than a structurally different expression if the latter better preserves the communicative intention and pragmatic effect of the source.

Discussion

The analysis indicates that contextual interpretation can serve as an important stage in achieving pragmatic equivalence. Before selecting a target-language equivalent, the translator needs to determine what the euphemism accomplishes in the particular passage. Is it mitigating an unpleasant concept? Maintaining politeness? Concealing information? Characterizing the speaker? Creating irony? Reflecting a culturally accepted way of referring to a sensitive subject?

This approach makes it possible to distinguish between *semantic preservation* and *pragmatic preservation*. The former concerns the transmission of the basic referential meaning, whereas the latter concerns the communicative function and intended effect. These two forms of preservation may coincide, but they do not necessarily do so.

Accordingly, the translation of euphemisms can be viewed as a process of contextual interpretation followed by pragmatic and linguocultural adaptation. The translator does not simply replace one lexical item with another but reconstructs the meaning of an expression within a new linguistic and cultural environment.

Conclusion

Euphemisms in literary discourse demonstrate that meaning is inseparable from context. Their translation requires consideration of semantic content, communicative intention, stylistic characteristics, and culturally conditioned associations. A literal or formally similar translation may preserve the reference of an expression while weakening its pragmatic effect.

The analysis of English literary euphemisms and their Russian and Uzbek translations shows that contextual interpretation provides a necessary basis for selecting appropriate translation solutions. Functional equivalence, descriptive rendering, compensation, and contextual modification can be employed when direct lexical correspondence fails to reproduce the intended effect.

Thus, the successful translation of euphemisms should be understood not as a search for the closest lexical substitute, but as a process of reconstructing meaning within another linguistic and cultural context. Context becomes the key mechanism that allows the translator to determine what a euphemistic expression means in a particular situation and how this meaning can be effectively communicated to the target reader.

REFERENCES

1. Allan, K., & Burridge, K. (2006). *Forbidden words: Taboo and the censoring of language*. Cambridge University Press.
2. Austen, J. (1813). *Pride and prejudice*.
3. Baker, M. (2018). *In other words: A coursebook on translation* (3rd ed.). Routledge.
4. Brontë, C. (1847). *Jane Eyre*.
5. Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), *Syntax and semantics: Vol. 3. Speech acts* (pp. 41–58). Academic Press.
6. Leech, G. N. (1983). *Principles of pragmatics*. Longman.
7. Newmark, P. (1988). *A textbook of translation*. Prentice Hall.
8. Nida, E. A. (1964). *Toward a science of translating*. E. J. Brill.
9. Orwell, G. (1949). *Nineteen Eighty-Four*. Secker & Warburg.

O‘ZBEK TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISHDA AUTENTIK VIDEO MATERIALLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Ergasheva Lobarxon O‘tkir qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi,
lobarkhonn@icloud.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet tili sifatida o‘zbek tilini o‘qitishda autentik video materiallardan foydalanish masalasi ko‘rib chiqiladi. Video materialning boshqa manbalardan farqi, uch bosqichli (namoyishdan oldingi, namoyish jarayonidagi, namoyishdan keyingi) ish metodikasi, video tanlash mezonlari va yuzaga keladigan qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Video materialning nafaqat leksik, balki grammatik ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi o‘rni ham ko‘rsatiladi. Xulosa qilib aytganda, video material to‘g‘ri metodik yondashuv bilan qo‘llanilganda, o‘quvchining tabiiy nutq muhitini idrok etish qobiliyatini samarali rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: autentik material, video material, chet tili sifatida o‘zbek tili, uch bosqichli metodika, tinglab tushunish, grammatik kompetensiya.o‘

Annotation. This article examines the use of authentic video materials in teaching Uzbek as a foreign language. It analyzes how video differs from other authentic sources, the three-stage methodology of working with video (pre-viewing, while-viewing, post-viewing), criteria for video selection, and challenges that arise. The article also shows the role of video material in developing not only lexical but also grammatical competence. In conclusion, when applied with a sound methodological approach, video material effectively develops learners' ability to perceive a natural speech environment.

Keywords: authentic material, video material, Uzbek as a foreign language, three-stage methodology, listening comprehension, grammatical competence.

Zamonaviy til o‘qitish metodikasida bitta talab kundan-kunga kuchayib bormoqda. O‘quvchi nafaqat tilning grammatik-leksik tizimini bilishi kerak. U tilning tabiiy, real muloqot muhitini ham his qilishi kerak. Shu sababli autentik materiallar, xususan video manbalar, alohida ahamiyat kasb etmoqda.

D. Wilkins o‘zining analitik o‘quv dasturi tushunchasida tilni grammatik ketma-ketlik emas, balki kommunikativ maqsad va funksiyalar asosida o‘rgatishni taklif qildi - bu esa til materialining sun’iy soddalashtirilgan emas, real muloqot vaziyatlariga yaqin bo‘lishini talab qiladi [1: 76]. K. Morrow esa bu tushunchani aniqlashtirdi. U autentik matnni real mualliflar yoki so‘zlovchilar tomonidan, haqiqiy kommunikativ maqsadda yaratilgan matn sifatida belgilaydi [2: 13].

O‘zbek tilini chet tili sifatida o‘qitish borasida video materiallarning o‘rni hali yetarli o‘rganilmagan. Aynan shu bo‘shliq mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi. Maqolaning maqsadi - autentik video materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlarini aniqlash va ularni amaliy tavsiyalar shaklida tizimlashtirishdir.

Video materialning boshqa autentik manbalardan asosiy farqi bor. U audio va matnli axborot bilan bir qatorda, vizual-kontekstual axborotni ham qo‘shadi [3: 364]. U orqali o‘quvchi nafaqat so‘zlovchining nutqini, balki uning tana tili va vaziyat kontekstini ham kuzatadi. Unda so‘zlovchining yuz ifodasi, imo-ishorasi, atrof-muhit va vaziyat konteksti aks etadi. Masalan, chet ellik talaba o‘zbek tilidagi “xafa bo‘lma” iborasini faqat audioda eshitsa, uning ma’nosini faqat intonatsiyadan taxmin qiladi. Biroq video orqali so‘zlovchining yuz ifodasini ko‘rganda bu ma’no ancha aniq bo‘ladi. Xuddi shunday, kundalik suhbatdagi “voy” undovi ham turlicha tushunilishi mumkin. U hayrat, xursandchilik yoki afsuslanishni bildirishi mumkin. Video esa aynan shu vaziyatni ko‘rsatib, noaniqlikni yo‘qotadi.

Video materialning bu ko‘p qatlamli xususiyati uni darsga tayyorgarliksiz olib kirishga yo‘l qo‘ymaydi. Shu sababli video bilan ishlash odatda uch bosqichga bo‘linadi [4: 12]: namoyishdan oldingi (pre-viewing), namoyish jarayonidagi (while-viewing) va namoyishdan keyingi (post-viewing) bosqichlar.

Buni ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan qisqa bir video misolda ko‘rsak bo‘ladi [5]. Unda mehmonxona qabulxonasidagi suhbat aks etgan. Mijoz “to‘qqizda keldim, to‘qqizda ketaman” deb, xona bo‘shatish vaqtini o‘zicha hisoblab, xonadan chiqmoqchi bo‘ladi. Administrator esa check-out vaqti kelish soatiga emas, balki belgilangan vaqtga (masalan, soat 12:00 ga) bog‘liqligini tushuntiradi. Namoyishdan oldingi bosqichda o‘qituvchi “check-out”, “xonani topshirmoq”, “muddat” kabi so‘zlarni tanishtiradi. Namoyish jarayonida talaba avval videoning umumiy vaziyatini aniqlaydi: kim, qayerda, nima haqida gaplashyapti. So‘ng video qayta ko‘rsatilganda, u mijoz va administrator dalillarining farqini ajratadi. Namoyishdan keyingi bosqichda esa talabalarga o‘xshash vaziyat taqdim etiladi. Bunday izchillik autentik videoning tabiiy murakkabligini bosqichma-bosqich yengishga yordam beradi.

Video materialni darsga tanlashda bir qator mezonlarga amal qilish muhim. Birinchidan, videoning uzunligi o‘quvchining diqqati va til darajasiga mos bo‘lishi kerak. B1-B2 darajasi uchun odatda 1-3 daqiqalik parchalar qulay hisoblanadi. Ikkinchidan, nutq tezligi muhim omillardan biri. Uchinchidan, videoning mavzusi darslik mazmuni bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. To‘rtinchidan, videoda ortiqcha fon shovqini bo‘lmasligi lozim.

Video materialdan foydalanishda bir qator qiyinchiliklar ham yuzaga keladi. Eng ko‘p uchraydigan muammo - so‘zlashuv nutqiga xos qisqartirilgan shakllar.

Shevaga oid so‘zlar yoki tez talaffuz qilingan iboralar talaba uchun tushunarsiz bo‘lib qolishi mumkin. Bunday holatda o‘qituvchi videoni bir necha marta ko‘rsatishi tavsiya etiladi: birinchi safar umumiy mazmun uchun, ikkinchi safar esa aniq so‘z va iboralarni ajratish uchun. Yana bir muammo - texnik jihat: internet aloqasi yoki video sifatining pastligi darsni qiyinlashtirishi mumkin, buning oldini olish uchun videoni oldindan yuklab, oflayn tarzda ko‘rsatish maqsadga muvofiq. Uchinchi muammo - vaqt boshqaruvi: video uch bosqichli ishlov ko‘p vaqt talab qilgani uchun, o‘qituvchi dars rejasida bunga yetarli vaqt ajratishi zarur. Nihoyat, ba’zi videolarda nomaqbul kontent xavfi ham bor, shu sababli o‘qituvchi videoni darsdan oldin to‘liq ko‘rib chiqishi shart.

Jadval 1. CEFR darajalari bo‘yicha video topshiriqlarining farqlanishi

Daraja	**Asosiy topshiriq turi**	**Talab etiladigan kognitiv operatsiya**
A1	Ishtirokchilar sonini, tashqi ko‘rinishini aytish	Kuzatish, tanish
A2	Asosiy vaziyatni aniqlash (kim, qayerda, nima)	Umumiy mazmunni tushunish
B1	Kelishmovchilik sababini tushuntirish	Oddiy xulosa chiqarish
B2	Tomonlarga shaxsiy munosabat bildirish	Baholash, argumentatsiya

Video materiallardan foydalanish odatda faqat leksika va tinglab tushunish bilan bog‘lanadi. Biroq uning grammatik ko‘nikmalarni tabiiy kontekstda mustahkamlashdagi ahamiyati ham katta. Bir sharhda 2006-2018-yillarda chop etilgan 31 ta empirik tadqiqot tahlil qilingan [6]. Natijada video materialning grammatikani kontekstual, nolisoniy va autentik kirish ma’lumoti orqali o‘zlashtirishga yordam berishi aniqlangan. D. Nunan ham shunga o‘xshash fikrni ilgari surgan edi [7: 105]: grammatika alohida, mavhum qoidalar tizimi sifatida emas, balki muloqot kontekstida o‘rgatilishi kerak.

Video materialning samarali qo‘llanilishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining tayyorgarligiga bog‘liq. A. Rice va S. Stempleskining fikricha, aynan o‘qituvchi videoni tanlaydigan shaxs hisoblanadi [3: 366]. U videoni o‘quvchilar ehtiyojiga moslaydi, faol tomosha qilishni rag‘batlantiradi va videoni umumiy o‘quv dasturi bilan bog‘laydi. Boshqa bir tadqiqotda ham muhim jihat ta'kidlanadi [8: 20]: autentik

videolarni tanlash va ularga mos topshiriqlar tayyorlash o‘qituvchidan sezilarli vaqt talab qiladi.

Darsda foydalaniladigan video janri ham muhim ahamiyatga ega. Intervyu, yangiliklar lavhasi, hujjatli parcha yoki vlog - bularning har biri o‘quv maqsadiga qarab tanlanishi kerak [3: 365]. Xususan, vlog turlari gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun qulay hisoblanadi [9: 3058]. Umumyevropa til kompetensiyalari tizimi (CEFR) ham til darajasiga qarab material tanlashning ahamiyatini ko‘rsatadi [10]. A1 va A2 darajada lug‘at o‘rganishi yoki tushirib qoldirilgan so‘zlarni yozishi mumkin. B1 darajasida o‘quvchidan matnning umumiy mazmunini aniqlash so‘raladi. B2 darajasida esa u so‘zlovchi fikriga munosabat bildirishi yoki argumentatsiya keltirishi mumkin.Video asosidagi nutqiy topshiriqlarni baholashda odatda bir necha mezonga tayaniladi [11: 2505]: mazmun, ijodkorlik, taqdimot, til bilimi, ravonlik va texnik sifat.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarning aksariyati ingliz tilini chet til sifatida o‘qitish tajribasiga asoslangan. Ularda qo‘llanilgan uch bosqichli metodika va video tanlash mezonlari umumiy pedagogik tamoyillar hisoblanadi, shuning uchun ular o‘zbek tilini chet til sifatida o‘qitishga ham moslashtirilishi mumkin. Biroq bu borada bevosita o‘zbek tili misolida o‘tkazilgan alohida tadqiqot hali ma'lum emas. Bu esa mazkur maqola mavzusining ilmiy dolzarbligini yana bir bor asoslaydi.

CEFR darajaga qarab material tanlash tamoyili (Council of Europe, 2001) video ustida ishlashda ham izchil qo‘llanilishi kerak. Buni bitta video misolida - masalan, mehmonxona qabulxonasidagi suhbat videosi - barcha darajalar uchun qanday moslashtirilishi mumkinligini ko‘rsatib o‘tamiz.

A1 darajasida o‘quvchidan videoda ishtirok etuvchilar sonini aytish yoki ularning kiyimi/tashqi ko‘rinishini tavsiflash so‘raladi - bu til bilimidan ko‘ra kuzatuvchanlikka asoslangan, minimal til bilimini talab qiluvchi topshiriq. A2 darajasida esa u “kim, qayerda, nima haqida gaplashyapti” kabi asosiy vaziyatni aniqlashi kerak.B1 darajasida o‘quvchidan mijoz va administrator o‘rtasidagi kelishmovchilikning sababini o‘z so‘zi bilan tushuntirish so‘raladi, bu esa oddiy xulosa chiqarishni talab qiladi. B2 darajasida esa u ikkala tomonning fikriga shaxsiy munosabat bildiradi va shunga o‘xshash vaziyatda o‘zi qanday harakat qilishini asoslaydi.

Bu misol shuni ko‘rsatadiki, bitta video - to‘rtta har xil darajadagi guruh uchun to‘rtta har xil topshiriq manbai bo‘la oladi. Bu, video materialning boshqa autentik matnlarga (masalan qat’iy matnli hikoyalarga) nisbatan afzalligi: video ko‘p qatlamli bo‘lgani uchun (vizual, og‘zaki, kontekstual), undan turli murakkablikdagi topshiriqlarni chiqarib olish mumkin.

Yuqorida keltirilgan tahlil asosida amaliyotchi o‘qituvchilar uchun bir necha aniq tavsiya berish mumkin. Video tanlashni har doim uning to‘liq transkripti yoki kamida qo‘lda tinglab yozib olingan asosiy gaplari bilan boshlash lozim; faqat sarlavha yoki tavsifga qarab video tanlash til darajasini noto‘g‘ri baholashga olib kelishi mumkin. Bitta video uchun bir nechta darajaga mo‘ljallangan topshiriq varianti tayyorlab qo‘yish - aralash darajali guruhlarda samarali yechim bo‘lishi mumkin. Video davomiyligi oshgani sari nazorat topshiriqlari sonini ham mutanosib ravishda oshirish kerak, aks holda uzun video o‘quvchi diqqatini yo‘qotadi. Eng muhimi texnik tayyorgarlik (oldindan yuklab olish, subtitr mavjudligini tekshirish) darsdan kamida bir kun oldin amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

Bizningcha, video materialning eng qimmatli tomoni - uning “xato qilish imkoniyati past” ekanligida emas, aksincha, o‘quvchini nazorat qilinmaydigan, tabiiy til muhitiga astalik bilan ko‘niktirishida. Yozma autentik matndan farqli o‘laroq, video o‘quvchiga til va nolisoniy signallarni (imo-ishora, ohang, vaziyat) birgalikda idrok etish tajribasini beradi - bu esa aynan real muloqotda talab qilinadigan ko‘nikma. Shu nuqtai nazardan, video materialni faqat qo‘shimcha “qiziqarli” vosita emas, balki o‘quv dasturining tarkibiy qismi sifatida ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

Amaliy kuzatishga ko‘ra, o‘qituvchi qisqa va sifatli o‘zbek tilidagi videolarni turli manbalardan izlab topishi mumkin. Bunga YouTubedagi sayohat va vlog kanallari, Telegramdagi milliy taomlarga bag‘ishlangan kanallar hamda Instagramdagi kundalik hayot va mehmondorchilikka oid qisqa videolar misol bo‘la oladi. Bunday manbalarning tabiiy, kundalik nutqni aks ettirishi afzalligi , kamchiligi esa - ularning til darajasi va sifatini oldindan tekshirish zaruratida, chunki bu platformalardagi kontent maxsus ta’lim maqsadida yaratilmagan.

Autentik video materiallar o‘zining Autentik video materiallar audio, vizual va kontekstual unsurlarni birlashtirgan tabiati bilan ajralib turadi. Aynan shu xususiyat video materialga chet tili sifatida o‘zbek tilini o‘qitishda alohida metodik ahamiyat kasb etadi. Ularni to‘g‘ri bosqichlar asosida qo‘llash o‘quvchining tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Video material, shuningdek, grammatik ko‘nikmalarni ham tabiiy kontekstda mustahkamlash imkonini beradi. Shu sababli uni faqat leksik vosita sifatida emas, balki kompleks til o‘rgatish vositasi sifatida qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Kelgusi tadqiqotlarda bu masalani aynan o‘zbek tili misolida, amaliy tajriba-sinov asosida chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wilkins, D.A. Notional Syllabuses. - Oxford: Oxford University Press, 1976. - 96 p.

2. Morrow, K. Authentic Texts and ESP // Holden, S. (ed.) English for Specific Purposes. - London: Modern English Publications, 1977. - P. 13–17.
3. Rice, A., Stempleski, S. Video in the ELT Classroom: The Role of the Teacher // Methodology in Language Teaching: An Anthology of Current Practice. - Cambridge: Cambridge University Press, 2001. - P. 364–367.
4. Stempleski, S., Tomalin, B. Video in Action: Recipes for Using Video in the Language Classroom. - New York: Prentice Hall, 1990. - 173 p.
5. Mehmonxona qabulxonasidagi suhbat // Instagram, 2025. - URL: https://www.instagram.com/p/DYw1YaMgCg5/ (murojaat sanasi: 11.07.2026).
6. Rodgers, M. Teaching Grammar to English Language Learners with Video: An Integrative Literature Review on Effectiveness, Perceptions, and Practices, 2022.
7. Nunan, D. Teaching Grammar in Context // ELT Journal. - 1998. - Vol. 52, No. 2. - P. 101–109.
8. Saeidi, M., Ahmadi, H. The Effects of Watching Videos in Pre-reading on EFL Learners' Reading Comprehension and Attitudes // TESOL International Journal. - 2016. - Vol. 11, Issue 2. - P. 15–44.
9. Anrasiyana, A., Sulistyaningsih, S., Syakur, A. Creating Vlog as Media in English Language Teaching (ELT): Teaching Speaking // Jurnal Basicedu. - 2022. - Vol. 6, No. 2. - P. 3055–3064.
10. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. - Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
11. Manuel, M.J.M. Practices and Perspectives in Using Vlogs as Speaking Performance Assessment: A Proposed Assessment Tool // International Journal of Multidisciplinary: Applied Business and Education Research. - 2024. - Vol. 5, No. 7. - P. 2499–2514.

LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF HOMELAND PROVERBS AS A TOOL FOR DEVELOPING INTERCULTURAL COMPETENCE

Mavlanova Dildora Saidnazarovna,
PhD candidate (doctoral student),
Abdulla Qodiriy Jizzakh State Pedagogical University,
[dildoramavlanova102@gmail.com]

Annotation. The article examines English and Uzbek proverbs representing the concept of Homeland from structural-semantic and linguocultural perspectives. It identifies shared semantic models and culturally specific images, and demonstrates how their analysis can be used to develop students' intercultural communicative competence. Pedagogical experiment results at three universities confirm the effectiveness of the proposed linguocultural approach.

Keywords: proverbs, paremiology, concept "Homeland", linguoculture, intercultural communicative competence, English, Uzbek.

Аннотация. В статье рассматриваются английские и узбекские пословицы, репрезентирующие концепт «Родина», в структурно-семантическом и лингвокультурологическом аспектах. Выявляются общие семантические модели и культурно-специфические образы, показывается возможность использования их анализа для развития межкультурной коммуникативной компетенции студентов. Результаты педагогического эксперимента в трёх университетах подтверждают эффективность предлагаемого подхода. Статья адресована лингвистам, преподавателям иностранных языков и исследователям пословичной картины мира.

Ключевые слова: пословицы, паремиология, концепт «Родина», лингвокультура, межкультурная коммуникативная компетенция, английский язык, узбекский язык.

1. Introduction

In the era of globalization, the ability to communicate effectively across linguistic and cultural boundaries has become a key outcome of foreign language education. The Common European Framework of Reference for Languages and its Companion Volume treat learners as social agents who mediate between languages and cultures and draw on plurilingual and pluricultural repertoires [3: 15]. Within this paradigm, language teaching cannot be limited to grammar and vocabulary; it must develop learners' awareness of how cultural meanings are encoded in linguistic units.

Proverbs are among the most compact carriers of such meanings. As traditional, fixed and metaphorically rich statements, they condense collective

experience, moral values and ways of categorizing reality [7; 10]. Concepts that occupy a central place in a national worldview, such as Homeland, are especially productive for comparison because they combine emotional, ethical, civic and spatial components. The present article analyzes English and Uzbek proverbs that represent the concept of Homeland and shows how the results can be used to form intercultural communicative competence (ICC) in university students.

The aim of the study is to reveal the structural-semantic and linguocultural features of English and Uzbek proverbs representing the concept "Homeland/Vatan" and to substantiate their potential for developing ICC. The objectives are: (1) to define the theoretical foundations of ICC and its relation to the proverbial picture of the world; (2) to identify common semantic models and culturally specific images in the two proverb corpora; (3) to design a teaching sequence based on proverb analysis; and (4) to test its effectiveness experimentally.

2. Theoretical background

The most influential model of ICC remains that of Byram, who describes it as a combination of attitudes of curiosity and openness, knowledge of social groups and their practices, skills of interpreting and relating, skills of discovery and interaction, and critical cultural awareness [1 : 32]. Later work has extended the model towards education for intercultural citizenship, in which learners not only understand other cultures but also act on social issues in cooperation with others [2 : 43]. These approaches shift the goal of teaching from the imitation of a "native speaker" to the development of an intercultural speaker who is able to mediate between perspectives.

At the same time, contemporary scholarship warns against an essentialist reading of culture. Dervin argues that interculturality should be treated as a process of negotiation rather than as a set of fixed national traits [5 : 87], and Piller emphasizes that cultural difference is constructed in discourse and should be examined critically [8 : 34]. This position is important for the analysis of proverbs: they reflect shared cultural conceptualizations, but they do not describe the behavior of every member of a community. Sharifian's Cultural Linguistics provides a useful framework here, since it views language as a repository of cultural schemas, categories and metaphors that are distributed across a speech community [10 : 9]. Proverbs, in this view, are linguistic traces of such conceptualizations.

The link between language and culture also has an ideological dimension. Kramsch shows that language is a form of symbolic power through which speakers construct identities, belonging and difference [6 : 45]. The concept of Homeland is closely connected with exactly these processes. Research on proverbs as a source of worldview and stereotypes, for example on gender images, confirms that paremiological material can be used to discuss cultural values openly and critically in

the classroom [7 : 13]. Finally, studies of language textbooks show that learning materials always transmit particular represe ntations of the world [9 : 28], which makes it necessary to enrich them with authentic, culturally marked units such as proverbs.

3. Materials and methods

The research material consists of English and Uzbek proverbs and proverbial sayings in which the concept of Homeland is verbalized through the lexemes home, country, land, native place and their Uzbek counterparts vatan, yurt, ona yurt, el and uy. The units were selected from paremiological dictionaries and collections of both languages by continuous sampling. The following methods were used: structural-semantic analysis, componential analysis, linguocultural (conceptual) analysis, the comparative method, and a pedagogical experiment with questionnaires, diagnostic tests and statistical processing of results.

4. Results and discussion

4.1. Structural-semantic features. In both languages, Homeland proverbs are short, rhythmically organized and based on a small number of syntactic models. English proverbs about this concept most often use simple declarative sentences with the copula (“home is best”) or locative and comparative constructions, and they frequently rely on binary opposition (“east or west”). Uzbek proverbs, in contrast, typically use the nominal, copula-less model “X — Y”, in which the dash marks metaphorical identification: ona yurt — oltin beshik (“native land is a golden cradle”). This model makes the metaphor explicit and gives the proverb an aphoristic, almost definitional character.

A lexical difference is also noteworthy. In the English material the concept is verbalized predominantly through the lexeme home, which merges the ideas of dwelling, family and native land, whereas explicit national lexemes are comparatively rare. In Uzbek, the lexical field is wider and includes vatan, yurt, ona yurt and el, among which the word-combination ona yurt (“mother land”) carries a strong kinship metaphor. Semantically, the proverbs of both languages can be grouped into several models: Homeland as home and shelter; Homeland as a source of life and emotional attachment; Homeland as natural habitat; and Homeland as a moral and spiritual obligation. Table 1 presents illustrative examples.

Table 1. Semantic models of Homeland proverbs

Semantic model	**English**	**Uzbek**
Homeland as home and shelter	East or west, home is best.	O‘z uying — o‘lan to‘shaging. (One’s own house is one’s own soft bed.)

Semantic model	English	Uzbek
Homeland as affective center	Home is where the heart is.	Ona yurt — oltin beshik. (Native land is a golden cradle.)
Homeland as natural habitat	Every bird likes its own nest best.	Vatansiz odam — nolasiz bulbul. (A person without a homeland is a nightingale without its song.)
Homeland as sovereign or moral value	A man's home is his castle.	Vatanni sevmoq — imondandir. (Loving one's homeland is part of faith.)

4.2. Linguocultural features. The comparison reveals both universal and culturally specific components. The universal core is the association of Homeland with home, belonging and emotional security, and the recurring image of a bird and its nest or song, which appears in both languages and suggests a shared cognitive basis. The differences are located mainly in the value orientation. The English proverb "a man's home is his castle" foregrounds the individual, privacy and protected personal space, while the Uzbek units emphasize the collective, kinship and spiritual duty towards the native land. The image of the cradle and the maternal metaphor in ona yurt place Homeland within a family and generational framework. These observations should be treated as tendencies in the analyzed material and not as fixed national characteristics, in line with the critical approaches discussed above [5; 8].

4.3. Pedagogical implementation. On the basis of the analysis, a four-stage teaching sequence was developed. At the cognitive stage, students identify Homeland proverbs in both languages and clarify the meaning of key lexemes. At the analytical stage, they examine syntactic models, images and semantic components. At the linguocultural stage, they compare the values behind the proverbs, discuss possible interpretations and reflect on their own cultural assumptions, using structured intercultural activities such as story circles [4 : 5]. At the communicative stage, students apply proverbs in dialogues, role plays, short presentations and mediation tasks in which they explain an Uzbek proverb to a foreign interlocutor and vice versa. This sequence combines knowledge, skills and attitudes in the sense of Byram's model [1 : 14] and responds to the call of the Companion Volume for mediation and pluricultural competence [3 : 9].

4.4. Experimental results. The experiment was conducted with 120 students at three universities. Abdulla Qodiriy Jizzakh State Pedagogical University served as the experimental site, while Chirchik State Pedagogical University and Samarkand State Institute of Foreign Languages served as diagnostic sites. ICC was assessed by a 100-point test and a Likert-scale questionnaire covering four components of competence. In the experimental group, the share of students at the high level increased from 13% to 46%. Statistical processing yielded $t = 10.54$ and $U = 0$ at $p < 0.05$, which indicates that the difference between the experimental and control results is statistically significant. These results support the conclusion that systematic work with Homeland proverbs improves students' ability to interpret, compare and mediate cultural meanings.

The findings should be interpreted with caution. The experiment covers one concept and two languages, and the long-term retention of the effect requires further observation. Nevertheless, the approach can be transferred to other concepts, such as family, work, hospitality or friendship, and to other Turkic and non-Turkic languages, which makes it relevant for comparative research on Turkic languages and for language teaching methodology.

5. Conclusion

The study shows that English and Uzbek proverbs representing the concept of Homeland share a common semantic core connected with home, belonging and emotional attachment, while differing in syntactic models, lexical verbalization and value orientation. These differences are not obstacles but resources: when analyzed critically, they allow students to notice their own cultural assumptions and to understand the perspective of others. The proposed four-stage sequence, based on structural-semantic and linguocultural analysis, proved effective in raising the level of ICC in the experimental group. Future research may extend the corpus, include digital tools for proverb analysis, and compare Homeland proverbs across several Turkic languages.

References:

1. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence: Revisited. – Bristol: Multilingual Matters, 2021.- 32,14 p.
2. Byram M., Golubeva I., Han H., Wagner M. (Eds.). From Principles to Practice in Education for Intercultural Citizenship. – Bristol: Multilingual Matters, 2017.- 43 p.
3. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.- 15,9 p.

4. Deardorff D.K. Manual for Developing Intercultural Competencies: Story Circles. – London; New York: Routledge; Paris: UNESCO, 2020.- 5 p.
5. Dervin F. Interculturality in Education: A Theoretical and Methodological Toolbox. – London: Palgrave Macmillan, 2016.- 87 p.
6. Kramsch C. Language as Symbolic Power. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021.-45 p
7. Litovkina A.T. Women Through the Lens of Gendered Proverbs. – Cham: Palgrave Macmillan, 2019.- 13 p.
8. Piller I. Intercultural Communication: A Critical Introduction. 2nd ed. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2017.- 34 p.
9. Risager K. Representations of the World in Language Textbooks. – Bristol: Multilingual Matters, 2018.- 28 p.
10. Sharifian F. Cultural Linguistics: Cultural Conceptualisations and Language. – Amsterdam: John Benjamins, 2017.- 9 p.

SAHNA ASARIDA NUTQIY XARAKTERISTIKA, MILLIY RUHIYAT VA PRAGMATIK TAHLIL

Komilova Gulmira Temirovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy o'zbek qishlog'i hayotiga bag'ishlangan sahna asari (telefonga bog‘liqlik va kitobxonlik mavzusi) lingvopragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Personajlar nutqining individual xususiyatlari, milliy mentalitet va psixologik holatning til vositalarida ifodalanishi, nutq aktlari, kommunikativ strategiyalar, konflikt va presuppozitsiyaning psixolingvistik talqini yoritiladi.

Аннотация. В статье с лингвопрагматической точки зрения анализируется сценическое произведение, посвящённое жизни современного узбекского села (темам зависимости от телефона и чтения книг). Освещаются индивидуальные особенности речи персонажей, выражение национального менталитета и психологического состояния посредством языковых средств, речевые акты, коммуникативные стратегии, а также психолингвистическая интерпретация конфликта и пресуппозиции.

Kalit so'zlar: drama tili, idiolekt, milliy mentalitet, nutq akti, kommunikativ strategiya, presuppozitsiya, konflikt, psixolingvistika.

Kirish

Dramatik asarda muallifning o‘z so'zi deyarli bo'lmaydi: voqealar, xarakterlar va ziddiyatlar asosan personajlar dialogi orqali ochiladi. Shu sababli nutq drama tahlilida markaziy o'rinni egallaydi. Tahlil qilinayotgan asar asosiy g'oyasi jihatidan dolzarb: telefon va internet oila a'zolarini bir-biridan uzoqlashtirib borayotgan sharoitda muallim Laziz kitobni insonni qutqaruvchi kuch sifatida taklif qiladi. Asar hajviy tarzda yozilgan bo‘lsa-da, unda qimor, g'iybat, bolaning ma'naviy tarbiyasi kabi jiddiy muammolar ko'tariladi.

Maqolaning maqsadi uch yo'nalishda tahlil o'tkazishdir: (1) personaj nutqining individual xususiyatlarini aniqlash; (2) milliy mentalitet va psixologik tasvirning til vositalarida aks etishini ko'rsatish; (3) nutq aktlari, kommunikativ strategiyalar, konflikt va presuppozitsiyani pragmatik hamda psixolingvistik nuqtai nazardan talqin qilish. Tahlil asarning birinchidan beshinchi sahnasigacha bo'lgan matniga asoslandi.

Dramada har bir qahramon o'ziga xos nutq uslubiga, ya'ni idiolektga ega bo'ladi. Idiolekt personajni boshqalardan ajratadi va uning ijtimoiy mavqei, bilim darajasi hamda ruhiy holatini ochadi.

Laziz muallim

Lazizning nutqi kitobiy va ritorik. U ritorik so'roqlar (“Biz shunday xalqmidik, tog'a?”, “Odamlar, ko'rayapsizlarmi?”), metaforalar ("muz ustidagi hayot", "jar yoqasi") va tomoshabinga to'g'ridan-to'g'ri murojaatdan foydalanadi. Uning nutqi ikki registrdan iborat: monologlarda u ma'rifatchi va publitsist, oila a'zolari bilan suhbatda esa "tog'a", "jiyan" kabi qarindoshlik murojaatlari bilan gapiradigan oddiy qishloq yigiti. Ikki registr orasidagi masofa uning "xalq vijdoni" va oddiy insoni sifatidagi ikki rolini ko'rsatadi.

Tohir nutqi xalqona, kinoyaga boy va maqol ohangida. U Lazizni "jiyanjon", "jiyanboy" deb ham hurmat qiladi, ham pisanda qiladi. Interjeksiyalar ("Hay-yy-it!") uning o'yinqaroq tomonini ochadi. Eng muhimi, uning nutqi asar davomida o'zgaradi: dastlab "Xo'sh, nima qilish kerak?" kabi qisqa va mudofaaviy gaplar ishlatsa, 3-sahnada "O'g'liim... bolajonim... o'qiyapsanmi?" deganda cho'ziq unlilar, to'xtashlar va sahna remarkasidagi "titroq" ovoz yumshoqlikni bildiradi. Bu ichki o'zgarishning til belgisidir.

Saida nutqi ikki qatlamli. Yuzaki xushomad ("Siz kabi dono va aqlli xeshim borligidan faxrlanaman") ko'pincha kinoyaga aylanadi. G'iybat nutqi tez, takrorlarga boy va bo'rttirilgan ("Voyna! Istalingrad jangi bo'ladi"). "Himm" tovushi norozilik, ogohlantirish yoki sir bildiruvchi nutqiy belgi bo'lib xizmat qiladi. Keyingi sahnalarda Saida ichki holatini ifodalaydi ("o'zimga taskin bera boshlayapman"), bu tashqi nutqdan ichki nutqqa o'tishdir.

Zuhraning nutqi uzuq-yuluq va chalkash, "garangsib", "dovdirab" kabi remarkalar bilan birga keladi. U so'zlarni buzadi ("isport"), ko'chma ma'noni to'g'ri ma'noda tushunadi ("Biz cho'kayapmizmi?"). Shu orqali u komik personajga aylanadi va boshqalarning metaforik nutqi bilan ommaviy tushunish o'rtasidagi ziddiyatni ko'rsatadi.

Hamid, Ali va Erka.

Hamid dag'al hazil va qo'pol so'zlar ("tutruqsiz", "supraqoqdisi") bilan gapiradi, rus tilidan olingan qo'shimchalar ("shest sekund") va shaxsiy jargon ("Romsovxozning vinosi") nutqini yorqin qiladi. "Sevgi" mavzusiga o'tganda esa nutqi shoshqaloq va noaniq bo'lib qoladi ("Shu... gap bor"). Ali rus tilida gapirganda duduqlanadi ("P-p-privet d-d-dorogaya"): bu uning ichki noaniqligi va tashqi niqobining belgisidir. Qimor fojiasidan keyin nutqi qisqa va yig'lamsirash ohangida bo'ladi ("Endi nima qilaman-a?").

Erka nutqida o'zgarish eng aniq ko'rinadi. Dastlab o'yin leksikasi ("Yest!", "Qirdim, barini!") ustun bo'lsa, kitob o'qigach, uning nutqi lirik tus oladi: "Ot yigitning do'sti, qanoti ekan. Otlar hatto yig'larkan". Bolaning ma'naviy o'zgarishi lug'at tarkibining o'zgarishida namoyon bo'ladi.

Milliy mentalitet tilda eng avvalo murojaat shakllari, qadriyat bildiruvchi leksika, maqollar va madaniy obrazlar orqali ifodalanadi. Asarda quyidagi qatlamlar ajralib turadi.

Qarindoshlik va hurmat leksikasi. "Tog'a", "jiyan", "muallimjon", "xola", "aka" murojaatlari va -jon, -boy qo'shimchalari ierarxik yaqinlikni ko'rsatadi. "Begona emasmiz-ku" iborasi qarindoshlikni ijtimoiy kapital sifatida ishlatish odatini aks ettiradi: Saida shu bilan Laziz yordamini so'raydi.

Uyat, nomus va sharmandalik tushunchalari. Laziz "sharmandalik" so'zini takror ishlatadi, "uyning gapi ko'chaga chiqdi" ifodasi oila ichki ishining oshkor bo'lishini ma'naviy yo'qotish deb baholaydi. Bu jamoaviy ongdagi "el nima deydi" tamoyilining ifodasidir.

13. Booij G. The Grammar of Words: An Introduction to Morphology. – 3rd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2012. – 336 p.
14. Bybee J. Language, Usage and Cognition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 278 p.

15. Comrie B. Language Universals and Linguistic Typology: Syntax and Morphology. – 2nd ed. – Chicago: University of Chicago Press, 1989. – 264 p.
16. Crystal D. Language and the Internet. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – 272 p.
17. Dressler W. U. Morphology and Language Typology. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2006. – 358 p.
18. Levinson S. C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 420 p.
19. Plungian V. A. General Morphology: Introduction to the Problems of Inflection and Word Formation. – Berlin: De Gruyter, 2011. – 352 p.
20. Wierzbicka A. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. – 2nd ed. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2003. – 502 p.

GRADUONIMIK QATORLARNING SEMANTIK TUZILISHI VA ULARNI BELGILASH MEZONLARI

Ro‘ziyeva Nasiba Kilichbay qizi
IIV maktab-internati ona tili va adabiyoti
fani o‘qituvchisi, magistr
roziyevan157@gmail.com
tel: 998 88 131 11 71

Annotatsiya. Mazkur tezisda graduonimiyaning leksik-semantik tabiatiga xos belgilar, graduonimik qatorning ichki tuzilishi hamda uni aniqlash mezonlari tahlil qilinadi. Graduonimik munosabatning umumiy semantik belgi, darajali o‘zgarish, ko‘p a’zolilik, yo‘nalishlilik, tranzitivlik va nisbiylik kabi xususiyatlari tizimlashtiriladi. Shuningdek, graduonimiyaning sinonimiya, antonimiya va giperonimiya-giponimiya kabi yondosh hodisalardan farqlanishiga asos bo‘ladigan semantik mezonlar izohlanadi. Tahlil natijasida graduonimik qatorni faqat ma’no yaqinligi asosida emas, balki muayyan belgining bosqichma-bosqich namoyon bo‘lishi va birliklarning izchil semantik tartiblanishi asosida belgilash lozimligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: graduonimiya, graduonimik qator, darajalanish, semantik belgi, intensivlik, ko‘p a’zolilik, yo‘nalishlilik, tranzitivlik, nisbiylik, sinonimiya, antonimiya, giponimiya.

Abstract. This thesis analyzes the lexical-semantic nature of gradation, the internal structure of a graduonymic series, and the criteria for its identification. The main features of graduonymic relations, such as a common semantic feature, gradual change, multiplicity of members, directionality, transitivity, and relativity, are systematized. The semantic criteria that distinguish graduonymy from related phenomena, such as synonymy, antonymy, and hyperonymy-hyponymy, are also examined. The analysis demonstrates that a graduonymic series should be identified not merely on the basis of semantic similarity, but on the basis of the gradual manifestation of a particular feature and the consistent semantic ordering of its units.

Keywords: graduonymy, graduonymic series, gradation, semantic feature, intensity, directionality, transitivity.

Аннотация. В тезисе анализируются лексико-семантическая природа градуонимии, внутренняя структура градуонимического ряда и критерии его определения. Систематизируются такие особенности градуонимических отношений, как наличие общего семантического признака, градуальное изменение, множественность членов, направленность, транзитивность и

относительность. Также рассматриваются семантические критерии, позволяющие разграничить градуонимию и смежные явления, такие как синонимия, антонимия и гиперонимия-гипонимия. В результате анализа обосновывается, что градуонимический ряд следует определять не только на основе смысловой близости, но и с учётом поэтапного проявления определённого признака и последовательной семантической упорядоченности его единиц.

Ключевые слова: градуонимия, градуонимический ряд, градация, семантический признак, интенсивность, направленность, транзитивность.

Kirish

Tilning lug‘aviy tizimi o‘zaro turli munosabatlarga kirishadigan birliklardan tashkil topadi. Bu munosabatlar orasida ma’nodoshlik, zidlik, umumiylik-xususiylik kabi aloqalar bilan bir qatorda belgining turli darajalarini ifodalovchi munosabatlar ham alohida o‘rin tutadi. Graduonimiya ana shunday darajali munosabatni ifodalovchi hodisa bo‘lib, unda til birliklari muayyan sifat yoki miqdoriy belgi asosida bosqichma-bosqich tartiblanadi. Dissertatsiyaning birinchi bobida graduonimiyaning shakllanishi, uning leksik-semantik tizimdagi o‘rni va yondosh hodisalar bilan munosabati batafsil ko‘rib chiqilgan. Ushbu tezisda mazkur nazariy qarashlar graduonimik qatorni aniqlash mezonlari nuqtayi nazaridan umumlashtiriladi.

Graduonimik qatorning semantik asosi. Graduonimik qatorning yuzaga kelishida birinchi navbatda umumiy semantik belgi mavjud bo‘lishi talab etiladi. Qator tarkibidagi birliklar bir xil belgiga daxldor bo‘ladi, biroq mazkur belgi ularda bir xil darajada namoyon bo‘lmaydi. Shu jihatdan graduonimik munosabatning mohiyatini faqat leksik yaqinlik bilan izohlash yetarli emas. Masalan, “sovuq – salqin – iliq – issiq – qaynoq” qatorida umumiy semantik o‘q harorat tushunchasi bo‘lsa, birliklarning farqi ushbu belgining turli bosqichlarda namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi. Manbada ham graduonimik munosabatning uch tayanch belgisi — belgining mavjudligi, uning miqdoriy yoki sifatiy o‘zgaruvchanligi hamda qator a’zolarining ketma-ketligi qayd etilgan.

Graduonimik qatorlarda ko‘pincha markaziy, ya’ni nisbatan neytral birlikni ajratish mumkin. Bunday birlik belgining o‘rtacha darajasini ifodalab, boshqa a’zolarning yuqori yoki quyi darajalarini belgilashga yordam beradi. Masalan, “kichik – o‘rta – katta” qatorida “o‘rta” birlik markaziy nuqta sifatida qaraladi. Shu bilan birga, qator chegaralari mutlaq emas: daraja haqidagi tasavvur nutq vaziyati va kontekstga qarab o‘zgarishi mumkin.

Graduonimik qatorning struktur-semantik belgilari. Graduonimiyaning muhim belgilaridan biri ko‘p a’zolilikdir. Ikki birlik o‘rtasidagi oddiy qiyosiy

munosabatdan farqli ravishda graduonimik qator odatda bir nechta bosqichni qamrab oladi. Shu orqali semantik belgining boshlang‘ich, oraliq va yuqori yoki quyi darajalari namoyon bo‘ladi. Qatorning ko‘p a’zoli bo‘lishi belgining uzluksiz yoki bosqichli o‘zgarishini kuzatish imkonini beradi.

Ikkinchi belgi — yo‘nalishlilik. Graduonimik qator ma’lum bir semantik mezon bo‘yicha ortib yoki kamayib boradi. Demak, qator a’zolarining joylashuvi tasodifiy emas, balki darajalanish yo‘nalishiga ega. Uchinchi belgi — tranzitivlik bo‘lib, qatorning ichki mantiqiy izchilligini ta’minlaydi: agar A birlik B dan yuqori, B esa C dan yuqori darajani bildirsa, A ning C ga nisbatan ham yuqoriroq darajani ifodalashi anglashiladi. To‘rtinchi belgi — nisbiylik: birlikning darajali qiymati ko‘pincha aynan qator tarkibidagi boshqa birliklar bilan munosabatda aniqroq namoyon bo‘ladi. Ushbu xususiyatlar manbada graduonimiyaning asosiy belgilari sifatida tizimlashtirilgan.

Graduonimiyaning yondosh hodisalardan farqi. Graduonimiya va sinonimiya o‘rtasidagi chegara ayrim holatlarda murakkab bo‘lishi mumkin. Chunki ayrim birliklar bgraduonimik qatorda muayyan belgining miqdoriy yoki sifatiy o‘zgarishi asosiy mezon hisoblanadi. Manbada “katta – ulkan – muazzam – beqiyos” kabi birliklar misolida aynan shu chegaraning murakkabligi ko‘rsatilgan.

Antonimiya bilan munosabatda ham darajalanish mezoni hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sof antonimik munosabatda qarama-qarshi qutblar o‘rtasida oraliq bosqich bo‘lmasligi mumkin. Graduonimik munosabatda esa “ko‘proq – kamroq” tamoyili ustuvor bo‘lib, ikki chekka nuqta orasida bir necha daraja mavjud bo‘ladi. Shu sababli gradual antonimlarni sof antonimlardan ajratish zarur.

Giperonimiya-giponimiya munosabatida birliklar umumiylik va xususiylik asosida bog‘lanadi. Graduonimik qatorda esa bir birlik ikkinchisini o‘z tarkibiga qamrab olmaydi; ular umumiy semantik belgining turli darajalarini ifodalaydi. Masalan, “meva – olma” munosabatida umumiy-xususiy aloqa mavjud bo‘lsa, “sovuq – iliq” munosabatida ayni belgining turli darajalari kuzatiladi. Ayrim birliklarning bir vaqtning o‘zida giponimik va graduonimik munosabatlarda qatnashishi esa leksik-semantik tizimning ko‘p qatlamli ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa. Graduonimik qatorni belgilashda bitta mezonga tayanish yetarli emas. Umumiy semantik belgi, uning darajali o‘zgarishi, qator a’zolarining izchil joylashuvi, ko‘p a’zolilik, yo‘nalishlilik, tranzitivlik va nisbiylik bir butun tizim sifatida hisobga olinishi kerak. Ayniqsa, graduonimiyani sinonimiya va antonimiyadan ajratishda miqdoriy-sifatiy darajalanish mezoni muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mezonlar keyingi bosqichda she’riy matnlarda graduonimik birliklarni aniqlash va ularning lingvopoetik vazifalarini ochib berish uchun nazariy-metodologik asos vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bozorov O. Lisoniy darajalanish lingvistik qonuniyat sifatida. – 1997.
2. Orifjonova Sh. O‘zbek tilida lug‘aviy darajalanish. – Toshkent.
3. Djumabayeva J. Graduonimiya o‘zbek va ingliz tillarida: qiyosiy tahlil. – Toshkent, 2017.
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2002.

PROTOTIP VA BADIIY OBRAZ: HAYOTIY ASOS VA BADIIY TALQIN

Usmanova Ziyodaxon Ilxomjon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
tayanch doktoranti
usmanovaziyoda1991@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiyotshunoslikning muhim tushunchalaridan bo‘lgan prototip va badiiy obraz masalasi tahlil qilinadi. Badiiy obrazning adabiy ijoddagi o‘rni, uning hayotiy voqelikni aks ettirish va umumlashtirish xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, prototip tushunchasining mohiyati, uning badiiy obraz yaratish jarayonidagi vazifasi hamda real shaxs bilan badiiy qahramon o‘rtasidagi farqlarga urg‘u beriladi.

Kalit so‘zlar: prototip, badiiy obraz, obrazlilik, badiiy to‘qima, hayotiy haqiqat, xarakter, tip, qahramon, tarixiy shaxs, adabiyotshunoslik.

Аннотация. В данной статье анализируется вопрос прототипа и художественного образа как важных понятий литературоведения. Раскрываются роль художественного образа в литературном творчестве, его особенности отражения и обобщения жизненной действительности. Также акцентируется внимание на сущности понятия прототипа, его функции в процессе создания художественного образа, а также на различиях между реальным человеком и художественным персонажем.

Ключевые слова: прототип, художественный образ, образность, художественный вымысел, жизненная действительность, характер, тип, герой, историческая личность, литературоведение.

Abstract. This article analyzes the concepts of prototype and artistic image as important categories of literary studies. It examines the role of the artistic image in literary creativity, as well as its characteristics of reflecting and generalizing reality. Particular attention is also paid to the essence of the concept of the prototype, its function in the process of creating an artistic image, and the differences between a real person and a literary character.

Keywords: prototype, artistic image, imagery, artistic fiction, reality, character, type, hero, historical figure, literary studies.

Badiiy adabiyot inson va jamiyat hayotini anglash, uni obrazli tarzda ifodalash hamda o‘quvchiga estetik ta’sir ko‘rsatish imkonini beruvchi san’at turidir. Adabiyotda hayot hodisalari shunchaki bayon qilinmaydi, balki ijodkorning estetik qarashlari, dunyoqarashi va badiiy tafakkuri orqali qayta ishlanadi. Shu jihatdan badiiy obraz adabiyotning eng muhim nazariy kategoriyalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda badiiy obraz tushunchasi keng ma’noda voqelikning san’atkor tomonidan o‘ziga xos tarzda idrok etilishi va badiiy shaklda ifodalanishini anglatadi. Yozuvchi hayotda uchragan insonlar, voqealar va munosabatlarni kuzatadi, ulardan o‘zining ijodiy maqsadiga mos materiallarni tanlaydi hamda badiiy jihatdan qayta yaratadi. Natijada real hayotdagi hodisadan farq qiluvchi, biroq hayotiy haqiqat bilan bog‘liq bo‘lgan badiiy obraz vujudga keladi.

Badiiy obrazning yaratilishida hayotiy material muhim ahamiyatga ega. Yozuvchi real hayotdan ilhomlanishi, muayyan insonning xarakteri yoki taqdirini kuzatishi, tarixiy shaxs hayoti bilan bog‘liq ma’lumotlarni o‘rganishi lozim. Bunday real shaxs badiiy obrazning prototipi sifatida namoyon bo‘ladi.

Prototip va badiiy obraz o‘rtasidagi munosabat adabiyotshunoslikda alohida tadqiq etilishi lozim bo‘lgan masalalardan biridir. Chunki real shaxs bilan uning asardagi badiiy qiyofasi har doim ham bir xil bo‘lavermaydi. Ijodkor prototipning ayrim xususiyatlarini saqlab qolishi bilan birga, unga yangi sifatlar qo‘shishi, ayrim voqealarni o‘zgartirishi yoki badiiy to‘qima asosida yangi vaziyatlar yaratishi mumkin.

Bizning asosiy maqsadimiz prototip va badiiy obraz tushunchalarining o‘zaro munosabatini yoritish, badiiy obraz yaratishda hayotiy material va ijodiy fantaziyaning o‘rnini ko‘rsatishdan iborat.

Badiiy obraz adabiyotning voqelikni aks ettirish va anglash shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Adabiyotning o‘ziga xosligi ham hayot hodisalarini obrazli tafakkur asosida ifodalashida ko‘rinadi. Ilmiy tushuncha muayyan hodisaning umumiy belgilarini mantiqiy tarzda ifodalasa, badiiy obraz konkretlik va umumiylikni birlashtiradi.

Badiiy obrazning muhim jihati shundaki, unda konkret shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir qatorda, muayyan davr yoki ijtimoiy muhitga xos belgilar ham mujassam bo‘lishi mumkin. Masalan, badiiy asardagi qahramon o‘zining individual xarakteri, nutqi, tashqi qiyofasi va xatti-harakatlari bilan boshqa qahramonlardan ajralib turadi. Shu bilan birga, uning taqdiri orqali muayyan davrning ijtimoiy yoki ma’naviy muammolari ham yoritilishi mumkin.

Badiiy obrazning individualligi uning hayotiyligini ta’minlaydi. O‘quvchi qahramonning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rganida, uni tasavvurida jonlantira oladi. Qahramonning nutqi, xatti-harakati, odatlari, boshqa insonlarga munosabati uning xarakterini ochishga xizmat qiladi.

Biroq badiiy obraz faqat individuallikdan iborat emas. Unda umumlashtirish xususiyati ham mavjud. Ijodkor muayyan inson obrazida bir nechta kishilarga xos bo‘lgan xususiyatlarni umumlashtirishi mumkin. Shu tariqa individual obraz tipik mazmun kasb etadi.

D. Quronovning adabiyot nazariyasiga oid tadqiqotlarida obrazlilik san’atning muhim xususiyatlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Badiiy obraz orqali ijodkor voqelikni nafaqat ko‘rsatadi, balki unga nisbatan o‘z estetik munosabatini ham ifodalaydi.

“Prototip” tushunchasi adabiyotshunoslikda badiiy obrazning hayotiy asosini anglatadi. Ya’ni muayyan badiiy qahramon yaratilishiga asos bo‘lgan real shaxs prototip hisoblanadi. U tarixiy shaxs yoki yozuvchining hayotida uchragan zamondosh inson bo‘lishi mumkin. Prototip badiiy obraz uchun muhim hayotiy manba bo‘lsa-da, uni badiiy obraz bilan aynanlashtirish mumkin emas. Chunki real shaxsning hayoti va xarakteri yozuvchi tomonidan to‘liq ko‘chirib olinmaydi. Ijodkor prototipning o‘ziga kerakli jihatlarini tanlaydi va ularni o‘zining badiiy maqsadiga muvofiq qayta ishlaydi.

Masalan, yozuvchi real hayotdagi insonning qat’iyatliligi, samimiyligi yoki jasoratidan ta’sirlanishi mumkin. Biroq asarda yaratilgan qahramonning taqdiri, suhbatlari, ruhiy kechinmalari va ayrim xatti-harakatlari yozuvchining badiiy tasavvuri asosida shakllanadi. Demak, prototip badiiy obrazning tayyor shakli emas. U ijodkor uchun boshlang‘ich hayotiy materialdir. Shu sababli prototip asosida yaratilgan obraz real shaxsdan mustaqil badiiy-estetik hodisaga aylanishi mumkin.

Prototip va badiiy obrazning o‘zaro bog‘liqligi ularning bir xil tushuncha ekanligini anglatmaydi. Ularning asosiy farqi real hayot va badiiy voqelik o‘rtasidagi munosabatda ko‘rinadi. Prototip – real hayotda mavjud bo‘lgan konkret shaxs. Badiiy obraz esa ijodkor tomonidan badiiy asar doirasida yaratilgan qahramondir. Prototipning mavjudligi tarixiy yoki hayotiy fakt bilan bog‘liq bo‘lsa, badiiy obrazning mavjudligi asarning estetik tizimi bilan belgilanadi.

Badiiy obraz prototipga asoslangan bo‘lsa ham, unda prototipda mavjud bo‘lmagan xususiyatlar bo‘lishi mumkin. Masalan, yozuvchi prototipning bir nechta xarakter belgilarini boshqa insonlarga xos xususiyatlar bilan birlashtirishi mumkin. Natijada bitta badiiy qahramonda bir nechta real insonlarning ayrim jihatlari mujassamlashadi. Bu holat badiiy umumlashtirishning muhim ko‘rinishlaridan biridir. Yozuvchi hayotdagi alohida hodisadan umumiy ma’noga ega bo‘lgan obraz yaratadi.

Badiiy ijod hayotdan oziqlanadi. Yozuvchi o‘z atrofidagi odamlarni, jamiyatdagi munosabatlarni, tarixiy voqealarni va inson ruhiyatidagi o‘zgarishlarni kuzatadi. Ushbu kuzatuvlar ijodkorning badiiy dunyosida qayta ishlanib, obraz va syujet shakliga kiradi. Bunda hayotiy haqiqat va badiiy to‘qima bir-birini to‘ldiradi. Hayotiy haqiqat asarga ishonchlilik va hayotiylik bag‘ishlasa, badiiy to‘qima ijodkorga voqealarni yaxlit va ta’sirchan tarzda tasvirlash imkonini beradi.

Ayniqsa, tarixiy asarlarda bu masala muhim ahamiyatga ega. Tarixiy shaxsning hayoti va faoliyati hujjatlar orqali ma’lum bo‘lishi mumkin. Ammo uning ichki kechinmalari, ayrim dialoglari yoki shaxsiy hayotidagi barcha tafsilotlar tarixiy manbalarda aks etmasligi mumkin. Badiiy asarda esa muallif ana shu bo‘shliqlarni badiiy tasavvur orqali to‘ldiradi. Shuning uchun tarixiy shaxsning badiiy obrazi bilan uning tarixiy qiyofasi o‘rtasida farq mavjud bo‘lishi tabiiydir. Badiiy asar tarixiy hujjatning o‘rnini bosa olmaydi, ayni paytda tarixiy materialni inson ruhiyati va hayotiy taqdir orqali badiiy idrok etishga yordam beradi.

Prototip asosida obraz yaratish bir necha ijodiy bosqichlardan tashkil topadi. Birinchi bosqichda yozuvchi hayotiy materialni o‘rganadi. Bu material bevosita kuzatuv, xotira, suhbat yoki tarixiy manbalar orqali olinishi mumkin. Ikkinchi bosqichda muallif muhim belgilarni tanlaydi. Real insonning barcha xususiyatlari badiiy asarga kiritilmaydi. Faqat asarning g‘oyaviy mazmunini ochishga xizmat qiladigan jihatlar saralanadi. Uchinchi bosqichda umumlashtirish amalga oshiriladi. Prototipning individual xususiyatlari kengroq insoniy yoki ijtimoiy mazmun bilan boyitiladi. To‘rtinchi bosqichda badiiy to‘qima ishga tushadi. Muallif qahramonning hayot yo‘lini badiiy syujetga moslashtiradi, zarur vaziyatlarni yaratadi va personajlar o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantiradi. Beshinchi bosqichda obraz asarning umumiy tizimiga kiritiladi. Uning xarakteri boshqa qahramonlar bilan munosabatda, voqealar rivojida va turli hayotiy sinovlar jarayonida ochib beriladi. Shu tariqa prototipdan boshlangan ijodiy jarayon yakunida mustaqil badiiy obraz vujudga keladi.

O‘zbek adabiyotida real hayot va tarixiy shaxslar asosida badiiy obraz yaratish an’anasi uzoq tarixga ega. Ayniqsa, tarixiy romanlar va biografik asarlarda prototip masalasi muhim o‘rin tutadi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida Otabek va Kumush kabi obrazlar orqali XIX asr Turkistonidagi ijtimoiy va oilaviy munosabatlar keng yoritilgan. Asardagi obrazlar faqat muayyan shaxslarning taqdirini emas, balki o‘sha davr hayotining muhim jihatlarini ham ifodalaydi. Tarixiy shaxslar obrazini yaratish borasida Oybekning “Navoiy” romani ham alohida ahamiyatga ega. Asarda Alisher Navoiy tarixiy shaxs sifatida emas, balki murakkab ichki dunyoga ega bo‘lgan badiiy qahramon sifatida tasvirlanadi. Tarixiy manbalardan olingan ma’lumotlar ijodkorning badiiy talqini bilan uyg‘unlashadi. Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida Zahiriddin Muhammad Bobur obrazi yaratilgan. Asarda tarixiy shaxsning hayoti va faoliyati bilan bir qatorda, uning ruhiy kechinmalari, insoniy munosabatlari va ichki ziddiyatlari ham badiiy talqin qilinadi. Mazkur asarlar prototip va badiiy obraz munosabatini o‘rganish uchun muhim material bo‘lib xizmat qiladi. Chunki tarixiy shaxslarning real hayotdagi

qiyofasi bilan badiiy asarda yaratilgan obrazi o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar yozuvchi mahoratini anglash imkonini beradi.

Badiiy obrazning bir qator muhim xususiyatlari mavjud. Ular orasida hayotiylik, individuallik, umumlashtirish va estetik ta’sirchanlik alohida o‘rin tutadi. Hayotiylik obrazning o‘quvchi uchun ishonarli bo‘lishini ta’minlaydi. Qahramonning xatti-harakatlari, ruhiy kechinmalari va qarorlari ichki mantiqqa ega bo‘lishi kerak. Individuallik obrazning o‘ziga xosligini belgilaydi. Qahramonning nutqi, xarakteri, odatlari va dunyoqarashi uni boshqa personajlardan ajratib turadi. Umumlashtirish muayyan obraz orqali kengroq hayotiy yoki ijtimoiy hodisalarni ifodalash imkonini beradi. Bir qahramonning taqdiri orqali butun bir avlod yoki ijtimoiy muhitning muammolari yoritilishi mumkin. Estetik ta’sirchanlik esa obrazning o‘quvchiga hissiy ta’sir ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi. O‘quvchi qahramonning quvonchi, iztirobi, kurashi yoki fojeasi orqali muayyan estetik va axloqiy xulosalarga keladi.

Prototipning mavjudligi o‘z-o‘zidan mukammal badiiy obraz yaratilishini ta’minlamaydi. Asosiy masala yozuvchining hayotiy materialni qay darajada badiiylashtira olishidadir. Ijodkor prototipni oddiy tarzda tasvirlab qo‘ysa, asar biografik yoki hujjatli bayonga yaqinlashib qolishi mumkin. Badiiy adabiyot esa real materialni ijodiy qayta ishlashni talab qiladi. Shu sababli yozuvchining kuzatuvchanligi, inson ruhiyatini anglash qobiliyati, xarakter yaratish mahorati va badiiy til imkoniyatlaridan foydalanishi muhim ahamiyatga ega.

Yozuvchi prototipdan foydalanar ekan, uning individual xususiyatlarini umumlashtirib, kengroq ma’noga ega bo‘lgan obraz yaratadi. Shu nuqtai nazardan badiiy obraz prototipdan yuqoriroq darajadagi estetik hodisaga aylanishi mumkin. Masalan, real hayotdagi bir insonning jasorati yozuvchini ilhomlantirishi mumkin. Ijodkor ana shu jasoratni boshqa insoniy fazilatlar bilan birlashtirib, asarda mardlik, vatanparvarlik yoki sadoqat timsoliga aylangan qahramonni yaratishi mumkin. Bunday holda prototip konkret shaxs bo‘lsa, badiiy obraz kengroq insoniy mazmun kasb etadi.

Prototip va badiiy obraz munosabatini o‘rganish adabiy asarning yaratilish jarayonini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu masala orqali yozuvchining hayot materialidan qanday foydalangani, uni qanday o‘zgartirgani va badiiy maqsadiga qanday moslashtirgani aniqlanadi. Shuningdek, prototip masalasi ijodkor biografiyasini o‘rganishda ham muhimdir. Yozuvchining hayotidagi insonlar, tarixiy voqealar yoki shaxsiy kuzatuvlar uning ijodiga qanday ta’sir ko‘rsatganini aniqlash mumkin. Biroq badiiy obrazni faqat prototip bilan bog‘lab tahlil qilish yetarli emas. Obrazning asar ichidagi vazifasi, boshqa qahramonlar bilan munosabati, syujet va kompozitsiyadagi o‘rni ham hisobga olinishi kerak. Shu sababli prototipni aniqlash

badiiy asarni tahlil qilishning yakuniy maqsadi emas, balki obrazning shakllanish jarayonini tushunishga yordam beruvchi omillardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, badiiy obraz va prototip adabiyotshunoslikning o‘zaro bog‘liq, biroq mazmunan farqli tushunchalaridir. Badiiy obraz ijodkorning hayot haqidagi kuzatuvlari, estetik qarashlari va ijodiy tasavvuri asosida yaratiladi. Prototip esa ko‘pincha ana shu obrazning hayotiy asosini tashkil etuvchi real shaxsdir. Prototip badiiy obraz yaratish uchun muhim material beradi, ammo real shaxsning hayotini aynan ko‘chirish badiiy obraz yaratish degani emas. Yozuvchi hayotiy materialni tanlaydi, saralaydi, umumlashtiradi va badiiy to‘qima yordamida qayta ishlaydi. Natijada real shaxsdan farq qiluvchi, ammo u bilan muayyan aloqaga ega bo‘lgan mustaqil badiiy obraz yuzaga keladi. Badiiy obrazning hayotiyligi real voqelik bilan aloqada bo‘lsa, uning estetik qimmati ijodkorning badiiy mahorati bilan belgilanadi. Obrazning individualligi va umumlashtiruvchanligi uning o‘quvchi ongida yorqin taassurot qoldirishiga xizmat qiladi.

O‘zbek adabiyotidagi tarixiy romanlar va boshqa badiiy asarlar prototip va obraz munosabatini o‘rganish uchun boy material beradi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi tarixiy shaxslarning badiiy obrazlari real tarixiy ma’lumotlar bilan ijodkorning estetik talqini uyg‘unlashgan holda yaratilgan. Shunday qilib, prototipni badiiy obrazning hayotiy manbalaridan biri sifatida, badiiy obrazni esa shu materialning ijodiy qayta ishlangan va estetik jihatdan umumlashtirilgan shakli sifatida baholash mumkin. Ushbu munosabatni o‘rganish adabiy asarning badiiy tabiatini, ijodkorning hayotga munosabatini va obraz yaratish mahoratini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2018.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
3. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979.
4. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent. Akademnashr, 2010.
5. Mansurova M.A. Adabiyotshunoslikda prototip tushunchasining o‘rganilishi // Ilm sarchashmalari. – 2021.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA SO‘Z TURKUMLARI VA ULARNING TAHLILINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN SAMARALI FOYDALANISH METODIKASI

Xabibullayeva Shoira Shukurillayevna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
O’zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: shoiraxabibullayeva@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida so‘z turkumlarini o‘rgatish hamda grammatik tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish masalasi ko‘rib chiqiladi. So‘z turkumlariga oid bilimlarni tayyor ta’riflarni yodlash asosida emas, balki til birliklarini kuzatish, taqqoslash, guruhlash, matndan aniqlash va tanlangan javobni grammatik belgilar bilan asoslash orqali o‘zlashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tahlil asosida interfaol faoliyatni anglash, farqlash va tizimlashtirish, qo‘llash va nazorat bosqichlarida tashkil etishga mo‘ljallangan metodik model taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, ona tili, so‘z turkumlari, grammatik tahlil, interfaol metod, ot, sifat, son, fe’l, guruhlash, taqqoslash, teskari aloqa.*

Annotation. The article discusses the use of interactive methods in teaching parts of speech and developing grammatical analysis skills in primary–school Uzbek language lessons. Particular attention is given to learning activities based on observing, comparing and classifying linguistic units, identifying them in context, and explaining grammatical choices rather than simply memorizing definitions. Brainstorming, clustering, Venn diagrams, classification and error–detection tasks, pair work, and small–group activities are considered in relation to specific grammatical learning objectives. Based on the methodological analysis, a three–stage model consisting of comprehension, differentiation and systematization, and application and assessment is proposed.


Keywords: *primary education, Uzbek language, parts of speech, grammatical analysis, interactive methods, noun, adjective, numeral, verb, classification, feedback.*

Boshlang‘ich sinfda ona tilini o‘qitish faqat grammatik qoidalarni o‘zlashtirishdan iborat emas. Bu jarayonda o‘quvchining o‘qish va yozish ko‘nikmalari, og‘zaki va yozma nutqi, imloviy savodxonligi hamda til hodisalarini anglash qobiliyati birgalikda rivojlantiriladi. K.Qosimova, S.Matchonov, X. G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva va Sh.Sariyev kabi olimlar boshlang‘ich sinf ona tili metodikasida savod o‘rgatish, o‘qish, grammatika, so‘z yasalishi, imlo va

bog‘lanishli nutqni rivojlantirishni o‘zaro aloqador yo‘nalishlar sifatida yoritadi [1: 352 b]. So‘z turkumlarini o‘rganish ham ushbu umumiy tizimning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quvchining ot, sifat, son yoki fe’l ta’rifini aytib bera olishi hali grammatik tushunchaning to‘liq o‘zlashtirilganini anglatmaydi. Muhimi, u muayyan so‘zni nima sababdan shu turkumga kiritayotganini tushuntira olsin. Masalan, yashil so‘zini sifat deb belgilash tasnif natijasidir. *“Yashil predmetning belgisini bildiradi va qanday? so‘rog‘iga javob bo‘ladi”*, kabi izoh esa o‘quvchining tasnif mezonini anglaganini ko‘rsatadi. F.Ibragimov va D.Farsaxonova boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish jarayonida nazariy bilimni amaliyot bilan bog‘lash, pedagogik texnologiyalardan maqsadli foydalanish va ta’lim jarayonini loyihalashtirish masalalariga e’tibor qaratadi [3: 7]. A.G‘ulomov, M.Qodirov va M.Ernazarovaning darsligida ham ona tili bo‘yicha ilmiy-nazariy ma’lumotlarni amaliyotga tatbiq etish usullari metodikaning muhim masalalaridan biri sifatida qaraladi [2: 9]. Shu nuqtayi nazardan, interfaol metodlarni darsga shunchaki qiziqarli tus beruvchi vosita sifatida emas, muayyan grammatik vazifani bajarishga xizmat qiluvchi metodik vosita sifatida qo‘llash maqsadga muvofiq.


Mazkur tadqiqot ishining maqsadi boshlang‘ich sinf ona tili darslarida so‘z turkumlarini o‘rgatish va grammatik tahlilni tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash, ularni muayyan o‘quv amallari bilan bog‘lash hamda darsda qo‘llash mumkin bo‘lgan metodik modelni taklif etishdan iborat. Tadqiqot nazariy–metodik xususiyatga ega bo‘lib, maqolada tajriba–sinov natijalari keltirilmaydi. Shu sababli taklif etilayotgan modelning samaradorligi foiz yoki boshqa statistik ko‘rsatkichlar bilan ifodalanmaydi.

Boshlang‘ich sinfda grammatik tushuncha o‘quvchining til materiali bilan bevosita ishlashi jarayonida shakllanadi. Bunda misollarni kuzatish, umumiy va farqli belgilarni topish, so‘zlarni ma’lum xususiyatlariga ko‘ra guruhlash va kuzatilgan hodisani umumlashtirish muhim o‘rin tutadi. K.Qosimova va boshqa hammualliflar grammatika va so‘z yasalishini o‘qitishni boshlang‘ich ona tili metodikasining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida yoritadilar [4: 18]. So‘z turkumlarini o‘rganishda o‘quvchi uchun uchta jihat, ayniqsa, muhim bo‘lib, ularga *so‘zning nimani anglatishi, qanday so‘roqqa javob bo‘lishi va nutqda qanday qo‘llanishi* kabilarni kiritish mumkin. Ot so‘z turkumi o‘rganilganda shaxs va narsa nomlari, sifatda predmet belgisi, sonda miqdor va tartib, fe’lda harakat–holat ma’nosi asosiy kuzatish materialiga aylanadi. Mazkur belgilarni tayyor ro‘yxat sifatida berishdan ko‘ra, o‘quvchining misollar ustida ishlashi orqali aniqlatish grammatik tahlilni mazmunliroq tashkil etish imkonini beradi. Shu asosda grammatik material bilan ishlashning quyidagi ketma–ketligini taklif qilish mumkin:



Masalan, o‘quvchiga *kitob, katta, uchta, yozdi* so‘zlari taqdim etiladi va dastlab, ularning nimani anglatishi hamda qanday so‘roqqa javob bo‘lishi aniqlanadi. Shundan so‘ng so‘zlar grammatik belgilariga ko‘ra guruhlanadi. Bunday tashkil etilgan mashqda grammatik termin tayyor javob sifatida berilmaydi, aksincha o‘quvchi kuzatgan belgilarning umumlashtirilgan nomi sifatida shakllanadi.


Ushbu jarayonda interfaol metodni tanlashda uning nomidan ko‘ra, darsning qaysi vazifasini bajarishi muhimroqdir. Bir usul yangi mavzuga kirish uchun qulay bo‘lsa, boshqasi turkumlarni qiyoslash yoki o‘rganilgan bilimni tekshirishga mos keladi. Shuning uchun metod tanlashdan oldin o‘qituvchi o‘quvchi qanday grammatik amalni bajarishi kerakligini aniqlab olishi zarur. Yangi mavzuga kirishda ***“Savollar guldastasi”*** usulidan foydalanish mumkin. Masalan, doskaga *daraxt* so‘zi yoziladi. O‘quvchilarga *“Bu so‘z nimani anglatadi?”, “Unga qanday so‘roq berishimiz mumkin?”, “Shunga o‘xshash yana qanday so‘zlarni bilasiz?”* kabi savollar beriladi. *Kitob, bola, o‘qituvchi, maktab* singari misollar yig‘ilgach, ularning umumiy xususiyati aniqlanadi. Bunda asosiy maqsad imkon qadar ko‘p so‘z ayttirish emas, o‘quvchining avvalgi bilimini yangi grammatik tushunchaga bog‘lashdir. ***Klaster*** usuli o‘rganilgan ma’lumotlarni bir tizimga keltirishda samarali bo‘lib, bunda markazga *so‘z turkumlari* tushunchasi yozilib, undan *ot, sifat, son va fe’l* tarmoqlari chiqariladi. Har bir tarmoq tegishli so‘roq va misollar bilan to‘ldiriladi:



Klaster o‘qituvchi tomonidan tayyor ko‘rinishda berilsa, u asosan ko‘rgazmali material vazifasini bajaradi. O‘quvchilar bilan birgalikda shakllantirilganda esa guruhlash va umumlashtirish amallari ham mashq qilinadi.

Venn diagrammasidan turkumlarni qiyoslashda foydalanish mumkin. Masalan, ot va sifat taqqoslanganda otning shaxs yoki narsa nomini, sifatning esa predmet belgisini ifodalashi alohida ko‘rsatiladi. Bunday mashqda diagrammaning shakli ikkinchi darajali, asosiy vazifa o‘quvchini ikki grammatik hodisani muayyan mezon asosida qiyoslashga o‘rgatishdir.

“So‘zni top va guruhla” mashqida *kitob, chiroyli, besh, yugurdi, daraxt, shirin, yetti, yozdi* kabi so‘zlar aralash holda beriladi. O‘quvchi ularni *ot, sifat, son va fe’l* guruhlariga ajratadi.



Biroq mashq shu yerda tugamasligi lozim. Har bir tanlovga izoh talab qilinadi. Msalan, Yugurdi – fe’l, chunki harakatni bildiradi va nima qildi? so‘rog‘iga javob bo‘ladi”. Ana shunda oddiy guruhlash grammatik tahlilga aylanadi.

“Xatoni top” mashqida esa ataylab noto‘g‘ri tasnif berilishi mumkin: *kitob – sifat; chiroyli – ot; besh – son; yugurdi – fe’l* kabi. O‘quvchi xatolarni aniqlaydi, to‘g‘rilaydi va nima uchun xato ekanini izohlaydi. Keyinchalik shunday topshiriqni o‘quvchilarning o‘zlariga tuzdirish ham mumkin.

So‘z turkumlarini alohida so‘zlar doirasida o‘rganish dastlabki bosqich uchun qulay, biroq grammatik bilim keyinchalik gap va matnga ko‘chirilishi kerak. I.Azimova va K.Mavlonovallar hammuallifligida nashr qilingan 3-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matn va til materiali bilan ishlashga mo‘ljallangan o‘quv manbalaridan biridir [1]. Masalan, *Bahorda yashil maysalar o‘sadi.* Gapi tahlil qilinar ekan, o‘quvchi gap tarkibidagi birliklarni tahlil qiladi: *bahorda – otning kelishik shakli, yashil – sifat, maysalar – ot, o‘sadi – fe’l.* Keyin har bir javob tegishli so‘roq yoki ma’no orqali izohlanadi. Matn bilan ishlashni asta-sekin murakkablashtirish mumkin. Dastlab ajratib ko‘rsatilgan so‘zning turkumi aniqlanadi. Keyin o‘quvchi kerakli turkumdagi so‘zlarni matndan o‘zi topadi. Navbatdagi bosqichda javobini asoslaydi. So‘ng shu turkumga mansub

boshqa birlikni qo‘llab gapni o‘zgartiradi. Masalan, *yashil maysalar – mayin maysalar – yangi maysalar.* Mazkur holatda o‘quvchi sifatlarning almashishi bilan predmetga berilayotgan belgi ham o‘zgarishini bevosita kuzatadi.

Boshlang`ich sinf o‘quvchilari uchun **juftlik va kichik guruhlarda ishlash** mashqlari ham samarali bo‘lib, bunda juftlikdagi mashqni sodda grammatik amal asosida tashkil etish mumkin. Bir o‘quvchi so‘z aytadi, ikkinchisi unga so‘roq beradi va turkumini aniqlaydi. Masalan, *uchta – nechta? – son; chiroyli – qanday? – sifat; yozdi – nima qildi? – fe’l* kabi. Keyin o‘quvchilar o‘rin almashadi. Mashqning keyingi bosqichida javobni asoslash ham talab qilinadi. Bunday tashkil etish har bir ishtirokchiga muayyan grammatik vazifa beradi. Kichik guruhda ham vazifalarni taqsimlash mumkin, bunda bir o‘quvchi matndan kerakli so‘zni topadi, ikkinchisi unga so‘roq beradi, uchinchisi turkumini aniqlaydi, yana biri guruh javobini izohlaydi. Keyingi topshiriqda rollar almashtiriladi. Yuqoridagi tahlil asosida so‘z turkumlarini interfaol o‘qitishni uch bosqichda tashkil etish mumkin.

1. **Anglash.** O‘quvchi til materialini kuzatadi, savollarga javob beradi va o‘rganilayotgan grammatik hodisaning asosiy belgisini topishga harakat qiladi. *Savol-javob va “Savollar guldastasi”* shu vazifaga moslashtiriladi.

2. **Farqlash va tizimlashtirish.** Yangi tushuncha boshqa turkumlar bilan qiyoslanadi, o‘xshash va farqli belgilar aniqlanadi. *Guruhlash, klaster va Venn diagrammasi*dan foydalanish mumkin.

3. **Qo‘llash va nazorat.** O‘quvchi o‘zlashtirgan grammatik mezonni yangi so‘z, gap yoki matnga tatbiq etadi. Matn tahlili, *“Xatoni top”, mustaqil misol tuzish va juftlikdagi tekshiruv* kabilar shu bosqichga mos keladi.

“Ot” mavzusida o‘quvchilarga shaxs va narsa nomlarini bildiruvchi so‘zlar aralash holda beriladi. Ular *kim? va nima?* so‘roqlariga ko‘ra guruhlanadi. So‘ng har bir guruhdan so‘z tanlanib gap tuziladi. Shunday qilib, bitta mashqda so‘roq berish, guruhlash va so‘zni nutqda qo‘llash birlashtiriladi.

“Sifat” mavzusida olma, daraxt, kitob kabi otlarga mos belgilar topish mumkin: *qizil olma, baland daraxt, qiziqarli kitob* kabi. Keyin sifat olib tashlanganda yoki boshqa sifat bilan almashtirilganda gap mazmunidagi o‘zgarish kuzatiladi.

“Son” mavzusida uchta kitob va uchinchi kitob birikmalari qiyoslanadi. Birinchisida miqdor, ikkinchisida tartib ifodalangani aniqlanadi. Keyin o‘quvchilar shu ikki ketma-ketlik asosida o‘z misollarini tuzadilar.

“Fe’l” mavzusida “*Bola yugurdi. Qush uchdi. O‘quvchi yozmoqda”* kabi gaplardan harakatni bildirgan birliklar ajratiladi. O‘quvchi fe’lga so‘roq beradi, keyin uni boshqa fe’l bilan almashtirib, gap mazmunidagi o‘zgarishni kuzatadi.

Bir necha turkumni birgalikda tahlil qilish uchun quyidagi kichik matndan foydalanish mumkin: *Ikki bola katta bog‘da o‘ynadi. Yashil daraxtlar orasida uchta qush sayradi.*

O‘quvchilar matndan ot, sifat, son va fe’llarni topadi. Keyin har bir tanlovini so‘roq yoki umumiy grammatik ma’no bilan asoslaydi.

Grammatik tahlilni baholashda faqat javobning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini hisobga olish o‘quvchining tushunchani qay darajada anglaganini to‘liq ko‘rsatmaydi. Shu sababli maqolada baholash uchun quyidagi amaliy ketma-ketlik taklif etiladi: *so‘zni aniqlash – so‘roq berish – turkumini belgilash – tanlovni asoslash.* Masalan, *“yashil – sifat”* javobi turkumni to‘g‘ri aniqlashni ko‘rsatadi. *“Yashil – sifat, chunki predmetning belgisini bildiradi va qanday? so‘rog‘iga javob bo‘ladi”* javobida esa o‘quvchi tanlovining grammatik asosini ham ko‘rsatadi.

Teskari aloqa ham aynan bajarilayotgan vazifa va o‘quv maqsadiga bog‘lanishi kerak. L.van den Bergh, A.Ros va D.Beijaard faol ta’lim jarayonidagi o‘qituvchi teskari aloqasini o‘rgangan tadqiqotida 13 ta Niderlandiya boshlang‘ich maktabidagi 32 o‘qituvchining 1465 ta o‘qituvchi-o‘quvchi muloqotini tahlil qilgan. Tadqiqotda kuzatilgan teskari aloqaning atigi 5 foizi o‘quv maqsadi bilan bevosita bog‘langan va mualliflar faol ta’limda teskari aloqani o‘quv maqsadiga aniq bog‘lash muhimligini ta’kidlaganlar [5: 9]. Ko‘rinadiki, o‘qituvchining faqat “noto‘g‘ri” deyishi o‘rniga xatoni tuzatishga yo‘naltiruvchi izoh berishi maqsadga muvofiqdir. Masalan: *“So‘zni to‘g‘ri topding, endi unga qanday so‘roq berilishini aniqla”* yoki *“So‘z turkumini to‘g‘ri aniqlading, nima uchun sifat ekanini ham izohla”*. Bunday teskari aloqa o‘quvchini javobni qayta ko‘rib chiqishga yo‘naltiradi.

Taklif qilinayotgan ketma-ketlikda interfaol metodlar grammatik maqsaddan ajratilmaydi. Metodlar sonini ko‘paytirish emas, har bir usulni muayyan o‘quv amali bilan bog‘lash asosiy mezon sifatida olinadi. O‘quvchidan faqat tayyor javob emas, javobning grammatik asosini tushuntirish talab qilinishi ham modelning muhim xususiyatidir. Mazkur mashqlarni tashkil etish uchun murakkab texnik vositalar shart emas. Doska, kartochka, jadval va darslikdagi matnning o‘zi yetarli bo‘ladi. Raqamli vositalardan ham foydalanish mumkin, ammo ular grammatik faoliyatning o‘rnini egallamasligi, balki uni tashkil etishga xizmat qilishi lozim. Shu bois har bir topshiriqda o‘quvchi nimani kuzatishi, nimani farqlashi va yakunda qanday xulosaga kelishi oldindan aniqlanishi zarur.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, boshlang‘ich sinfda so‘z turkumlarini o‘rgatish grammatik ta’riflarni eslab qolish bilangina cheklanmasligi lozim. O‘quvchi til materialini kuzatishi, so‘zga so‘roq berishi, birliklarni o‘zaro qiyoslashi, grammatik belgilariga ko‘ra guruhlashi va tanlovini asoslay olishi kerak. Ona tili o‘qitish metodikasiga oid manbalarda ham grammatika, nutq, imlo va amaliy faoliyat

bir-biridan uzilgan holda emas, o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar sifatida qaraladi [1; 2; 4]. Ushbu tadqiqotdagi tahlil asosida *interfaol faoliyatni anglash – farqlash va tizimlashtirish – qo‘llash va nazorat* ketma-ketligida tashkil etish taklif qilindi. Bunda “Savollar guldastasi” mavjud bilimlarni faollashtirishga, klaster ma’lumotlarni tizimlashtirishga, Venn diagrammasi grammatik hodisalarni qiyoslashga, guruhlash mashqlari tasniflashga, “Xatoni top” esa o‘zlashtirilgan mezonni tekshirish va asoslashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv asosida ish olib borilganda, interfaollik metodlarning ko‘pligi bilan emas, o‘quvchining til materiali ustida qanday amal bajarayotgani bilan belgilanadi. Shu sababli mashqni tanlashda uning tashqi shaklidan ko‘ra grammatik maqsadi ustuvor bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimova I., Mavlonova K. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 3–sinf. 1–2-qismlar. – 2022.
2. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 380 b. ISBN 978–9943–10–694–9.
3. Ibragimov F., Farsaxonova D. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya–Ziyo, 2021. – 196 b. ISBN 978–9943–6792–1–4.
4. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b. ISBN 978–9943–353–11–4.

HAMZA LIRIKASIDA AN'ANAVIY POETIK OBRAZLARNING YANGICHA TALQINI

Arzikulova Sohiba Abdujabbor qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti
arzikulovasohiba@4gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziy lirikasida mumtoz o'zbek she'riyatidan meros bo'lib kelgan gul, gulshan, bog', bahor, oy, nur, zulmat, bulut, shabboda, nihol kabi an'anaviy poetik obrazlarning yangicha badiiy-semantik talqini tahlil qilinadi. Tahlil davomida an'anaviy obrazlarning avvalgi estetik funksiyasi bilan Hamza ijodidagi yangi ijtimoiy-ma'rifiy mazmuni o'rtasidagi munosabat ochib berildi. Shoir an'anaviy poetik obrazlarni shunchaki takrorlamay, ularga milliy uyg'onish, ma'rifat, taraqqiyot, mehnat va yangi hayot mazmunlarini yuklagani asoslandi.

Kalit so'zlar: Hamza, lirika, poetik obraz, an'ana, yangicha talqin, gul, nur, zulmat, ma'rifat, milliy uyg'onish.

Аннотация. В статье анализируются новые художественно-семантические интерпретации традиционных поэтических образов — таких как цветок, цветник, сад, весна, луна, свет, тьма, облако, легкий ветерок и молодой побег, — унаследованных от классической узбекской поэзии и переосмысленных в лирических произведениях Хамзы Хакимзаде Ниязи. Исследование выявляет взаимосвязь между традиционными эстетическими функциями этих образов и новым социально-просветительским содержанием, привнесенным в них автором. Показано, что поэт не просто повторял традиционные поэтические образы, а наполнял их темами национального пробуждения, просвещения, прогресса, созидательного труда и нового уклада жизни.

Ключевые слова: Хамза, лирика, поэтический образ, традиция, новая интерпретация, цветок, свет, тьма, просвещение, национальное пробуждение.

O'zbek she'riyati taraqqiyotida an'ana va yangilik munosabati muhim poetik masalalardan biridir. Har bir yangi davr shoiri mavjud badiiy tajribaga munosabat bildiradi: ayrim poetik obrazlarni davom ettiradi, ayrimlarining mazmunini kengaytiradi, ba'zilarini esa yangi estetik vazifaga bo'ysundiradi. XX asrning serqirra ijodkorlaridan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodida ham an'ana va novatorlik munosabati ko'zga tashlanadi. "Hamzaning dastlabki asarlarida jaholatga qarshi ilm-ma'rifatni ulug'lash va uni targ'ib-tashviq etish asosiy o'rinda turadi. Zotan, bu

asarlardan ma'lum bo'ladiki, Hamza she'riyati jadid adabiyotining yorqin namunasidir. Shoirning "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar" majmuasiga kirgan "Oq gul", "Qizil gul", "Pushti gul", "Sariq gul", "Yashil gul", "Safsar gul", "Atirgul" deb nomlangan she'riy to'plamlari shundan dalolat beradi. Hamza atrofdagi voqelikka loqayd qarab tura olmasdi, shu bois shoir o'z davrining muhim ijtimoiy masalalarini yoritishga harakat qila boshladi" [2: 3] Bu ma'noda Hamzaning 1915-1917-yillarda yaratilgan "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar" nomli majmuasi alohida e'tiborga loyiq. Bu majmuada davr ruhi, millat turmushi, orzu-umidlari, yechimini topish lozim bo'lgan muammolar o'z aksini topgan. Shoir xalq baxtsizligiga faqatgina ma'rifat va millat birligi barham bera olishiga ishongan. Hamza ijodining ushbu bosqichida ma'rifatga chorlov ustunlik qiladi. Hamzaning dunyoqarashiga jadidchilik harakati jiddiy ta'sir ko'rsatdi. "Hamza ijodi jadid adabiyotining asl namunalari qatorida turadi. Ijodining dastlabki davrida Hamzaning an'anaviy mumtoz adabiyotga ixlosi baland bo'lib, o'z asarlarini shu yo'nalishda yaratdi. Hamzaning "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi" nomli uch darsligi va dastlabki "Devon"ida ham diniy va ma'rifatparvarlik mavzusidagi asarlar anchagina o'rin egallagan. Hamza ko'plab mamlakatlarda bo'lib, ulardagi hayot va rivojlanish darajalarini o'z yurtidagi holat bilan solishtiradi va ijtimoiy qoloqlikdan qayg'uga tushadi. Hamza bunday holatning asosiy sababi – ilmsizlikdir degan xulosaga keladi va o'z she'rlarida xalqni ilmli bo'lishga, ma'rifat egallashga da'vat etadi. [1: 122] Hamza lirikasida gul, gulshan, bog', bahor, oy, quyosh, zulmat, bulut, shabada, nihol singari tabiat obrazlari faol qo'llanadi. Biroq bu obrazlar ko'pincha faqat tabiat manzarasini yaratish yoki lirik kechinmani ifodalash uchun xizmat qilmaydi. Shoir ularni ma'rifat, xalqning uyg'onishi, taraqqiyot, mehnat va yangi hayot g'oyalari bilan bog'laydi. Shoir she'rlari tahlili jarayonida obrazning faqat lug'aviy ma'nosi emas, balki uning she'r tarkibidagi funksiyasi, boshqa obrazlar bilan munosabati va mazmuniy o'zgarishi ham hisobga olinishi, xususan, gulshan – irfon, zulmat – nur, bahor – ma'rifat, bog' – yangi hayot, nihol – yosh avlod kabi obrazlar tizimi kontekst asosida o'rganilishi lozim. Chunki tahlilda bunday yondashuv Hamza poetikasidagi yangilikni faqat yangi obraz yaratishdan emas, balki mavjud obrazning poetik funksiyasini o'zgartirishdan ham izlash imkonini beradi.

Mumtoz Sharq she'riyatida gulshan an'anaviy poetik obrazlardan biri bo'lib, go'zallik, farog'at, bahor, hayot va ma'shuqa olami bilan bog'liq ramziy ma'nolarda qo'llanishi sir emas, Hamza esa gulshan obrazini ijtimoiy-ma'rifiy mazmun bilan boyitadi. Jumladan, Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Ko'zni oching, qardoshlar" she'rida: "*Irfon suvidan gulshanni obodlaylik*" [4: 12] degan misrani uchratamiz. Bu yerda "*gulshan*" oddiy bog' emas. Uning "*obod*" bo'lishi "*irfon suvi*"ga bog'lanmoqda. Natijada gulshan obrazining semantik maydoni kengayadi: u xalqning

ma’naviy hayoti, milliy taraqqiyoti va ma’rifiy muhitini ifodalovchi poetik birlikka aylanadi. Bu misrada ikki an’anaviy tushuncha – *suv va gulshan* – yangi mazmuniy munosabatga kirishadi. Suv hayot manbai bo‘lsa, “*irfon suvi*” ma’rifatning hayotbaxsh kuchini anglatadi. Demak, shoirning poetik modelida: *“irfon – suv – gulshan – obodlik*” ketma-ketligi yuzaga keladi. Shu jihatdan Hamza an’anaviy tabiat obrazini ijtimoiy-estetik tushunchaga aylantiradi.

“Yaxshi holin yo‘qotgan oqibatsiz Turkiston” she’rida Hamza ma’rifat va jaholatni guliston va jahliston qarama-qarshiligi orqali ifodalaydi:

“Ma’rifatdan har millat soldi turfa guliston,
Jaholatdan qutqazub qildi donishin bo‘ston,
Ilm o‘lgach musaxxar olam o‘ldi sayriston,
Ma’rifatsiz Turkiston qoldi bo‘lub jahliston!” [4: 17]

An’anaviy she’riyatda guliston va bo‘ston ko‘proq go‘zallik va farog‘at makonini bildiradi. Hamza esa ularni millatning ma’rifiy va madaniy taraqqiyoti bilan bog‘laydi. Bu yerda: guliston – ma’rifat va taraqqiyot makoni; bo‘ston – bilim va donish rivojlangan muhit; jahliston – jaholat hukmron bo‘lgan ijtimoiy muhit.

Shunday qilib, shoir tabiatga oid obrazlar tizimini ijtimoiy baholash vositasiga aylantiradi. Ayniqsa, “guliston” va “jahliston”ning qarama-qarshi qo‘yilishi obrazning semantik imkoniyatini kengaytiradi. Guliston endi faqat gullar o‘sadigan makon emas, balki ma’rifat bilan obod bo‘ladigan milliy makon sifatida talqin qilinadi.

Hamza lirikasida nur va zulmat munosabati ham an’anaviy poetik tafakkurning davomidir. Biroq shoir bu qarama-qarshilikni o‘z davrining ijtimoiy muammolariga tatbiq etadi.

Shoirning “Darmon istariz” she’riga ham e’tibor qarataylik:

“Bu qorong‘u kechamizga mohi tobon istariz,
Biz vatan avlodina ilm ila urfon istariz.” [4: 13]

Bu yerda mohi tobon – yorug‘ oy obrazi – qorong‘ulikni yorituvchi an’anaviy timsol sifatida keladi. Ammo uning mazmuniy yo‘nalishi “ilm” va “urfon” bilan bog‘lanadi. Natijada oy oddiy tabiat hodisa emas, ma’rifiy yorug‘lik ramziga aylanadi. Mazkur usul Hamzaning boshqa bir she’ridagi zulmat va guliston obrazlari bilan hamohangdir. “Darmon istariz”dagi qorong‘ilik va “Yaxshi holin yo‘qotgan...”dagi jahliston aslida bir xil semantik maydonga kiradi: jaholatni ifodalaydi.

Demak Hamza lirikasida zulmat – jaholatni, nur esa ma’rifatni ifodalaydi. Bu esa an’anaviy nur-zulmat qarama-qarshiligiga yangi ijtimoiy mazmun yuklanganini ko‘rsatadi.

Hamzaning “Ishchi bobo” she’rida tabiat manzarasi ijtimoiy va mehnat mazmuni bilan uyg‘unlashgani ko‘zga tashlanadi. Mazkur she’rda quyidagi misralar keltirilgan:

“Bahor bo‘lub, shatir-shutur
Maorif yomg‘uri yog‘di.” [4: 159]

Bu misralardagi bahor an’anaviy ravishda yangilanish, uyg‘onish va yasharish ramzidir. Hamza esa unga maorif tushunchasini bog‘laydi. “Maorif yomg‘uri” birikmasi ayniqsa e’tiborlidir. Yomg‘ir tabiatni yoshartiradi; maorif esa inson va jamiyatni rivojlantiradi. Shu asosda shoir ikki xil hodisa o‘rtasida poetik parallel yaratadi.

Hamza lirikasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, shoir an’anaviy poetik obrazlardan ijodiy foydalanib, ularning mazmuniy va funksional imkoniyatlarini ularga qo‘shimcha ma’no yuklab kengaytirgan.

Birinchidan, gulshan, guliston, bog‘ kabi obrazlar go‘zallik va tabiat makonidan chiqib, ma’rifat, milliy hayot va yangilanish makonini ifodalovchi ramzlarga aylangan.

Ikkinchidan, oy, nur, bahor, yomg‘ir, nihol obrazlari yangilanish va ma’rifat g‘oyalarini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Uchinchidan, zulmat obrazi an’anaviy qorong‘ilik ma’nosidan tashqari jaholat va ma’rifatsizlikni ifodalagan.

To‘rtinchidan, Luqmon singari an’anaviy madaniy obrazlar yangi tarixiy-estetik kontekstga olib kirilib, ma’rifat va hikmat g‘oyalarini kuchaytirgan.

Beshinchidan, Hamza poetikasida an’anaviy obrazlar bir-biri bilan semantik aloqaga kirishib, “zulmat – nur”, “jaholat – ma’rifat”, “eski hayot – yangi hayot”, “qoloqlik – taraqqiyot” kabi poetik qarama-qarshiliklarni shakllantirgan. Demak, Hamza lirikasidagi yangilik an’anadan voz kechishda emas, balki an’anaviy poetik obrazlarni yangi tarixiy, ijtimoiy va ma’rifiy mazmun bilan boyitishda namoyon bo‘ladi. Shoirning gulshani – obod bo‘lishi kerak bo‘lgan ma’naviy makon, nuri – inson va millatni yorituvchi ma’rifat, bahori – yangilanish, niholi – kelajak timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan Hamza lirikasida an’ana va yangilik bir-biriga qarama-qarshi hodisalar emas, balki an’anaviy poetik shaklning yangi tarixiy mazmun bilan uyg‘unlashuvi tarzida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Afoqova N. Jadid she'riyati poetikasi. – T.: Fan, 2005. – 140 b.
2. Arzikulova S. Hamza lirikasida ma'rifat masalasining yoritilishi//CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHT. Uzbekistan.www.caajsr.uz. 2022.
3. Begali Qosimov va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T.: Ma'naviyat, 2004.
4. Hamza. To'la asarlar to'plami. – T.: Fan, 1988. 546 b.
5. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti manzaralari. – Toshkent, 2008.
6. Xolikova N. Jadid adabiyotida xotin-qizlar obrazi. – T.: Bookmany print, 2024. – 256 b.

ZAMONAVIY NASRDA BADIIY KONSEPTLARNING SHAKLLANISH KOGNITIV MEXANIZMLARI
(XXI asr ingliz va Yevropa adabiyoti materiallari asosida)

Saidova Nozima Axrorovna
Vatan Nodavlat OTM “Filologiya
va tillar” kafedrasi v.b.dotsenti
e-mail: saidova_nozima@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur dissertatsiyada XXI asr zamonaviy nasrida badiiy konseptlarning shakllanishi asosida yotuvchi kognitiv mexanizmlar tadqiq etiladi. Badiiy konsept adabiy matn doirasida muallifning kognitiv jarayonlari, badiiy obrazlar tizimi, narrativ tuzilma hamda o‘quvchining interpretativ idroki o‘zaro ta’siri natijasida shakllanuvchi dinamik kognitiv-semantik tuzilma sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda kognitiv narratologiya, kognitiv poetika va germenevtika nazariy yondashuvlariga tayanilgan holda, sxemalashtirish, freymlash, konseptual metaforizatsiya, kategoriyalash va mental modellashtirish kabi kognitiv mexanizmlarning badiiy konsept mazmunini shakllantirish va rivojlantirishdagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, qahramon ongining badiiy ifodalanishi, fokalizatsiya, makon va zamon kategoriyalari hamda o‘quvchining interpretativ faoliyati badiiy konseptlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillar sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari badiiy konseptlar matniy, kognitiv va interpretativ jarayonlarning o‘zaro ta’siri asosida shakllanishini hamda zamonaviy nasrda mazmun hosil qilishning ko‘p qirrali xususiyatini namoyon etishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: badiiy konsept, kognitiv mexanizm, kognitiv narratologiya, kognitiv poetika, konseptual metafora, freym, mental model, fokalizatsiya, zamonaviy nasr.

Abstract. This thesis examines the cognitive mechanisms involved in the formation of artistic concepts in contemporary prose of the 21st century. An artistic concept is interpreted as a dynamic cognitive-semantic structure formed within the framework of a literary text through the interaction of the author’s cognition, the system of images, narrative structure, and the reader’s perception. Drawing on the approaches of cognitive narratology, cognitive poetics, and hermeneutics, the study identifies the role of such mechanisms as schematization, framing, conceptual metaphorization, categorization, and mental modeling in shaping the content of an artistic concept. Furthermore, the representation of character consciousness, focalization, the categories of space and time, and the reader’s interpretive activity are examined as important factors in the formation of concepts.

Keywords: artistic concept, cognitive mechanism, cognitive narratology, cognitive poetics, conceptual metaphor, frame, mental model, focalization, contemporary prose.

Kirish. XXI asr adabiyotshunosligida badiiy asarni faqat estetik hodisa sifatida emas, balki inson tafakkuri, idroki va mental tajribasining badiiy ifodasi sifatida o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, kognitiv narratologiya va kognitiv poetikaning rivojlanishi badiiy matnni yaratish va qabul qilish jarayonlarining kognitiv asoslarini tadqiq etish uchun yangi metodologik imkoniyatlarni yuzaga keltirdi.

Kognitiv yondashuv doirasida badiiy matn o‘quvchi ongida ma’lum bilimlar, assotsiatsiyalar, mental modellar va konseptual tuzilmalarni faollashtiruvchi murakkab tizim sifatida qaraladi. David Herman kognitiv narratologiyani narrativlarning inson tafakkuri va bilish jarayonlari bilan aloqasini o‘rganuvchi yo‘nalish sifatida tavsiflaydi [1; 2: 421-536]. Peter Stockwell esa kognitiv poetika doirasida badiiy matnning mazmuni va estetik ta’sirini insonning kognitiv faoliyati bilan bog‘lash zarurligini ta’kidlaydi [3:193].

Badiiy konseptni oddiy mavzu yoki g‘oya bilan aynanlashtirish mumkin emas. Konsept badiiy matnning turli qatlamlarida namoyon bo‘ladigan, muallifning individual tajribasi, madaniy bilimlar, obrazlar, metaforalar va narrativ strategiyalar orqali shakllanadigan murakkab mental-semantik birlikdir. Kognitiv yondashuv nuqtayi nazaridan badiiy konseptning shakllanishini bir nechta o‘zaro bog‘liq mexanizmlar orqali izohlash mumkin.

Birinchi mexanizm — sxemalashtirish. Inson yangi axborotni avvalgi tajribasi asosida mavjud kognitiv sxemalar bilan bog‘laydi. Badiiy matnda ham o‘quvchi personaj, makon, voqea yoki konfliktni avvaldan mavjud bilim va tajribasi asosida anglaydi. Natijada matnda bevosita ifodalanmagan ma’nolar ham qayta tiklanadi.

Ikkinchi mexanizm — freym orqali konseptualizatsiya. Freym muayyan hodisa yoki vaziyat haqidagi strukturaviy bilimlarni tartibga soluvchi kognitiv model sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, “xotira”, “uy”, “safap”, “urush”, “begonalik” kabi konseptlar o‘quvchi ongida ma’lum madaniy va tajribaviy freymlarni faollashtiradi.

Uchinchi mexanizm — konseptual metaforalashtirish. G. Lakoff va M. Johnson inson tafakkurida abstrakt tushunchalarni konkret tajriba asosida anglash imkonini beruvchi konseptual metaforalarning muhim rolini ko‘rsatadi [4:195-208]. Badiiy matnda esa metafora nafaqat stilistik vosita, balki muayyan konseptning mazmunini shakllantiruvchi kognitiv mexanizm sifatida ham faoliyat ko‘rsatadi.

To‘rtinchi mexanizm — kategoriyalashtirish. O‘quvchi matndagi voqea, obraz va hodisalarni ma’lum kategoriyalar asosida guruhlaydi. Bu jarayon badiiy olamning yaxlit mental modelini yaratishga xizmat qiladi.

Beshinchi mexanizm — mental modellashtirish. O‘quvchi narrativ axborotni qayta ishlash jarayonida badiiy olamning mental modelini yaratadi. Ushbu model personajlar, voqealar, makon, vaqt va sabab-oqibat munosabatlarini o‘z ichiga oladi. Shu sababli narrativ matn badiiy konseptni shakllantirishning muhim kognitiv vositasiga aylanadi.

David Herman narrativni insonning voqelikni anglash, tajribani tartibga solish va mental modellar yaratish jarayonlari bilan bog‘laydi [1; 2: 421-436]. Demak, narrativ struktura faqat voqealarni ketma-ket bayon qilish vositasi emas, balki badiiy konseptlarni shakllantiruvchi kognitiv mexanizm sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Badiiy konsept shakllanishida personaj ongining tasviri ham alohida ahamiyatga ega. Ichki monolog, ong oqimi, erkin bilvosita nutq, xotiralar va retrospeksiya orqali personajning individual mental olami yaratiladi. E. Semino tomonidan ishlab chiqilgan “mind style” konsepsiyasi ham personaj dunyoqarashi va idrokining lingvistik hamda kognitiv xususiyatlarini tahlil qilish imkonini beradi [5:95-122].

Shuningdek, fokalizatsiya badiiy konseptni shakllantirishda muhim vositadir. Bir voqeaning turli personajlar nuqtayi nazaridan berilishi o‘quvchida bir xil hodisa haqida turli mental modellar paydo bo‘lishiga olib keladi. Natijada “haqiqat”, “xotira”, “shaxsiyat”, “ayb”, “qo‘rquv” kabi konseptlarning mazmuni yagona va o‘zgarmas emas, balki ko‘p qatlamli xarakter kasb etadi.

Makon va zamon ham konseptual mazmunni shakllantiruvchi muhim kategoriyalardir. Masalan, yopiq makon izolyatsiya yoki qo‘rquv konseptini kuchaytirishi, yo‘l yoki chegara makoni esa o‘zgarish, izlanish va identifikatsiya konseptlari bilan bog‘lanishi mumkin. Xuddi shuningdek, retrospektiv vaqt xotira konseptining, kelajakka yo‘naltirilgan vaqt esa umid yoki xavotir konseptining shakllanishiga xizmat qilishi mumkin.

Zamonaviy ingliz va Yevropa nasrida xotira, identifikatsiya, vaqt, yolg‘izlik, migratsiya, begonalik, travma va reallik kabi konseptlar alohida ahamiyat kasb etadi. Kazuo Ishiguro, Ian McEwan va Margaret Atwood kabi ijodkorlarning asarlarida inson xotirasi, shaxsiyatning o‘zgaruvchanligi, vaqt va voqelikning subyektiv talqini kabi masalalar turli narrativ strategiyalar yordamida yoritiladi.

Masalan, xotira konsepti ko‘pincha retrospeksiya, fragmentar kompozitsiya, ishonchsiz narratsiya va subyektiv fokalizatsiya orqali shakllantiriladi. Bunda xotira oddiygina o‘tmishdagi voqealar majmui emas, balki personajning hozirgi shaxsiyatini belgilovchi faol kognitiv jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Badiiy konseptning shakllanishi faqat muallif tomonidan amalga oshiriladigan jarayon emas. O‘quvchi ham mazmunni faol ravishda qayta quradi. L. Zunshine badiiy asarni o‘qish jarayonida “Theory of Mind” — boshqa insonlarning ruhiy

holatlarini anglash va ularga mental holatlar nisbat berish qobiliyatining ahamiyatini ko‘rsatadi[6:6-17].

Shu ma’noda, badiiy konseptni quyidagi dinamik tizim sifatida tasavvur qilish mumkin: muallif tajribasi → narrativ struktura → obraz va metaforalar → personajning mental olami → o‘quvchi interpretatsiyasi → badiiy konseptning shakllanishi.

Ushbu jarayonda konsept tayyor va o‘zgarmas birlik sifatida emas, balki matn va o‘quvchi o‘rtasidagi kognitiv-interaktiv jarayon natijasida shakllanuvchi dinamik tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy nasrda badiiy konseptlarning shakllanishi murakkab kognitiv va narrativ jarayon hisoblanadi. Sxemalashtirish, freymlashtirish, konseptual metaforalashtirish, kategoriyalashtirish va mental modellashtirish kabi mexanizmlar badiiy konseptning mazmuniy va semantik tuzilishini shakllantirishda o‘zaro bog‘liq holda faoliyat ko‘rsatadi.

Narrativ struktura, fokalizatsiya, personaj ongining tasviri, makon va zamon kategoriyalari esa mazkur mexanizmlarning badiiy matnda amalga oshishini ta’minlaydi. Ayniqsa, zamonaviy nasrda xotira, identifikatsiya, vaqt, reallik, yolg‘izlik va begonalik kabi konseptlarning shakllanishi insonning individual va ijtimoiy tajribasini kognitiv jihatdan qayta ishlash jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq.

Shuningdek, badiiy konseptning yakuniy mazmuni faqat muallif tomonidan belgilanmaydi. O‘quvchining mavjud bilimlari, madaniy tajribasi va interpretativ strategiyalari ham konseptning matnni qabul qilish jarayonidagi mazmunini belgilaydi. Shu sababli badiiy konseptni muallif tafakkuri, narrativ struktura va o‘quvchi kognitiv faoliyatining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanuvchi dinamik kognitiv-semantik tuzilma sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur yondashuv zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy matnning mazmuniy tuzilishini chuqurroq anglash, muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi kognitiv munosabatlarni aniqlash hamda XXI asr adabiyotining konseptual tizimini kompleks tadqiq etish uchun nazariy va metodologik asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Herman D. Cognitive Narratology // Hühn P., Meister J.C., Pier J., Schmid W. (eds.). *Handbook of Narratology*. Berlin; Boston: De Gruyter, 2014. DOI: 10.1515/9783110316469.46.
2. Herman D. Narrative Theory and the Sciences of Mind // *Literature Compass*. 2013. Vol. 10, No. 5. P. 421–436. DOI: 10.1111/lic3.12062.

3. Stockwell P. *Cognitive Poetics: An Introduction*. London; New York: Routledge, 2002. 193 p.
4. Lakoff G., Johnson M. The Metaphorical Structure of the Human Conceptual System // *Cognitive Science*. 1980. Vol. 4, No. 2. P. 195–208. DOI: 10.1207/s15516709cog0402_4.
5. Semino E. A Cognitive Stylistic Approach to Mind Style in Narrative Fiction // Semino E., Culpeper J. (eds.). *Cognitive Stylistics: Language and Cognition in Text Analysis*. Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 2002. P. 95–122. DOI: 10.1075/lal.1.07sem.
6. Zunshine L. *Why We Read Fiction: Theory of Mind and the Novel*. Columbus: The Ohio State University Press,2006. 6-17pp.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING FORSAYT KOMPETENSIYASINI BAHOLASH MEZONLARI, INDIKATORLARI VA DARAJALARI

Sotbarov Atabek Asilbek o’g’li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika kafedrasi katta o’qituvchisi
sotbarovatabek@gmail.com,
+99833-606-81-79

ANNOTATSIYA

Maqolada bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan forsayt kompetensiyasini pedagogik baholash muammosi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot maqsadi — mazkur kompetensiyani tarkibiy jihatdan tavsiflovchi mezonlar, ularga mos indikatorlar va shakllanganlik darajalari tizimini ilmiy asoslash va ishlab chiqishdan iborat. Nazariy tahlil, tizimli-tarkibiy va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan holda kognitiv-bilim, motivatsion-qadriyat, operatsion-faoliyat va reflektiv-baholash mezonlari, ularning har biriga oid indikatorlar hamda quyi, o‘rta va yuqori darajalar ishlab chiqildi. Natijalar bo‘lajak pedagoglarning kelajakni loyihalashtirish, bashoratlash va strategik rejalashtirish ko‘nikmalarini diagnostika qilishda, shuningdek pedagogika oliy ta’lim muassasalarida ta’lim dasturlarini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: forsayt kompetensiyasi, bo‘lajak pedagog, baholash mezonlari, indikatorlar, kompetensiya darajalari, kelajakni loyihalashtirish, pedagogik kompetentlik, forsayt texnologiyalari.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается проблема педагогической оценки форсайт-компетентности будущих педагогов, приобретающей всё большее значение в их профессиональной деятельности. Цель исследования — научное обоснование и разработка системы критериев, соответствующих им индикаторов и уровней сформированности данной компетентности. На основе теоретического, системно-структурного и сравнительного анализа выделены когнитивно-знаниевый, мотивационно-ценностный, операционально-деятельностный и рефлексивно-оценочный критерии, разработаны индикаторы и уровни (низкий, средний, высокий). Результаты имеют практическое значение для диагностики умений будущих педагогов проектировать будущее и для совершенствования образовательных программ педагогических вузов.

Ключевые слова: форсайт-компетентность, будущий педагог, критерии оценки, индикаторы, уровни компетентности, проектирование будущего, форсайт-технологии.

ABSTRACT

The article addresses the problem of pedagogically assessing the foresight competence of future teachers, a competence of growing importance in professional pedagogical activity. The aim of the study is to scientifically substantiate and develop a system of criteria, corresponding indicators, and levels of formation of this competence. Using theoretical, systemic-structural, and comparative analysis, four criteria are proposed — cognitive-knowledge, motivational-value, operational-activity, and reflective-evaluative — together with indicators and three levels (low, medium, high). The results are of practical value for diagnosing future teachers' ability to anticipate change and design the future, and for improving curricula in pedagogical higher education institutions.

Keywords: foresight competence, future teachers, assessment criteria, indicators, competence levels, futures thinking, foresight technologies.

KIRISH

Ta’lim tizimining jadal raqamlashtirilishi, mehnat bozori talablarining tez o‘zgarishi va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi sharoitida zamonaviy pedagogdan nafaqat mavjud bilimlarni uzatish, balki ta’lim sohasidagi kelajak o‘zgarishlarini oldindan ko‘ra bilish, ularga tayyorgarlik ko‘rish va o‘quvchi (talaba) shaxsining istiqbolli rivojlanish traektoriyasini loyihalashtirish qobiliyati ham talab etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish ta’lim tizimida eng zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalanishni, jumladan bo‘lajak mutaxassislarning kelajakni ko‘ra bilish va tezkor o‘zgaruvchan muhitga moslashuvchan bo‘lishini taqozo etadi. [1; 9]

Ushbu talablarga javob beruvchi kasbiy-shaxsiy sifatlardan biri forsayt kompetensiyasi hisoblanadi. “Forsayt” (ingl. foresight — kelajakni ko‘ra bilish) tushunchasi dastlab strategik boshqaruv va ijtimoiy-iqtisodiy prognozlashtirish sohalarida shakllangan bo‘lib, kelajakdagi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni tizimli tahlil qilish, muqobil ssenariylarni ishlab chiqish va shu asosda joriy qarorlarni qabul qilish metodologiyasini anglatadi. Xalqaro amaliyotda kasbiy forsayt kompetensiyasi modeli, jumladan, Professional Futuristlar Assotsiatsiyasi (Association of Professional Futurists) tomonidan ishlab chiqilgan model orqali freyming (masalani chegaralash), skanerlash (o‘zgarish signallarini kuzatish), futuring (muqobil kelajaklarni aniqlash), vijining (istiqbolli kelajak obrazini shakllantirish), dizaynerlik (strategiyani loyihalashtirish) va moslashuv kabi komponentlar orqali tavsiflanadi. [9; 17]

Pedagogika sohasida forsayt kompetensiyasi bo‘lajak pedagogning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘zgarishlarni bashoratlash, o‘quvchilar (talabalar)ning kasbiy-

shaxsiy rivojlanish istiqbollarini loyihalashtirish, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni oldindan baholash hamda strategik pedagogik qarorlar qabul qilish qobiliyatlarining yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, pedagogika fanida mazkur kompetensiyani baholashning yagona, ilmiy asoslangan mezonlar, indikatorlar va darajalar tizimi hozircha yetarlicha ishlab chiqilmagan, bu esa oliy ta’lim amaliyotida uni maqsadli shakllantirish va diagnostika qilishni qiyinlashtirmoqda. [7–9]

Mazkur maqolaning maqsadi — bo‘lajak pedagoglarning forsayt kompetensiyasini tarkibiy jihatdan tavsiflovchi baholash mezonlari, har bir mezonga mos indikatorlar hamda kompetensiyaning shakllanganlik darajalarini ilmiy asoslash va yaxlit model sifatida taqdim etishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (MATERIALLAR VA METODLAR)

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: 1) mavzuga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar (jumladan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi) hamda xalqaro forsayt-kompetensiya modellarining nazariy tahlili; 2) tizimli-tarkibiy tahlil — forsayt kompetensiyasini alohida, o‘zaro bog‘liq komponentlarga (kognitiv, motivatsion, operatsion, reflektiv) ajratish uchun; 3) qiyosiy tahlil — pedagogik kompetentlikni baholashning mavjud yondashuvlari (kompetensiyaviy rubrikalar, chek-listlar, 360 daraja baholash) bilan forsayt kompetensiyasiga xos xususiyatlarni solishtirish uchun; 4) pedagogik modellashtirish — mezon-indikator-daraja ko‘rinishidagi yaxlit baholash modelini loyihalashtirish uchun. [1; 5–9]

Mezonlar va indikatorlarni ishlab chiqishda forsayt tadqiqotlarida keng qo‘llaniladigan Delfi usuli va SWOT-tahlil kabi an’anaviy usullarning mazmun-mohiyati, shuningdek pedagogik o‘lchov nazariyasida qabul qilingan mezonlarning aniqlik, o‘lchanuvchanlik, tushunarlilik va adolatlilik talablari asos qilib olindi. Darajalarni farqlashda bilim, ko‘nikma va malakaning shakllanganlik sifatini tavsiflovchi uch bosqichli (quyi — reproduktiv, o‘rta — konstruktiv, yuqori — kreativ-innovatsion) yondashuvdan foydalanildi; bu yondashuv pedagogik kompetentlikni bosqichma-bosqich rivojlanuvchi hodisa sifatida talqin qiluvchi ilmiy qarashlarga mos keladi. [9; 10; 15–17]

Ta’kidlash joizki, ushbu maqolada taqdim etilgan model nazariy-metodologik xarakterga ega bo‘lib, uning ishonchliligi va validligini statistik jihatdan tasdiqlash uchun bo‘lajak pedagoglar ishtirokida keyingi bosqichda ekspert so‘rovnomasi (Delfi usulida) va tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish nazarda tutilgan.

NATIJALAR

O‘tkazilgan nazariy tahlil asosida bo‘lajak pedagoglarning forsayt kompetensiyasi tuzilishida to‘rtta o‘zaro bog‘liq mezon ajratildi: kognitiv-bilim,

motivatsion-qadriyat, operatsion-faoliyat va reflektiv-baholash mezonlari. Har bir mezon bo‘yicha kuzatiladigan, o‘lchanadigan indikatorlar aniqlandi hamda kompetensiyaning uch darajasi — quyi (reproduktiv), o‘rta (konstruktiv) va yuqori (kreativ-innovatsion) — tavsiflab berildi (1-jadval). [7–11; 15–18]

Mezon (komponent)	**Indikatorlar**	**Quyi (reproduktiv) daraja**	**O‘rta (konstruktiv) daraja**	**Yuqori (kreativ-innovatsion) daraja**
1. Kognitiv-bilim mezoni	Ta’lim taraqqiyoti tendensiyalari va o‘zgarish signallarini bilish (skanerlash) Forsayt metodologiyasi (Delfi, SWOT, ssenariylashtirish) haqida bilimlar Kelajakni bashoratlash tushunchalari va usullarini tushunish	O‘zgarish signallarini va forsayt tushunchalarini deyarli bilmaydi, bilimlari uzuq-yuluq, tizimsiz.	Asosiy tushunchalarni biladi, biroq ularni yangi vaziyatga bog‘lay olmaydi, bilim tizimli emas.	Tendensiyalarni erkin tahlil qiladi, forsayt metodlarini chuqur biladi va ularni turli vaziyatlarga moslashtira oladi.
2. Motivatsion-qadriyat mezoni	Innovatsiyalarga qiziqish va ularni qo‘llashga ichki ehtiyoj Uzoq muddatli rejalashtirishga intilish O‘quvchi/talabaning kelajagiga mas’uliyatli qarash	Kelajakni loyihalashtirishga qiziqish sust, faoliyat faqat joriy vazifalar bilan cheklanadi.	Qiziqish mavjud, lekin barqaror emas, tashqi rag‘batlantirish talab qilinadi.	Kelajakka yo‘naltirilgan faoliyatga barqaror ichki ehtiyoj va yuksak mas’uliyat hissi shakllangan.
3. Operatsion-	Ta’lim jarayoni rivojlanishi	Amaliy topshiriqlarni	Ssenariy va loyihalarni	Bir nechta muqobil

Mezon (komponent)	**Indikatorlar**	**Quyi (reproduktiv) daraja**	**O‘rta (konstruktiv) daraja**	**Yuqori (kreativ-innovatsion) daraja**
faoliyat mezoni	bo‘yicha ssenariylar ishlab chiqish (futuring, visioning) Individual ta’lim traektoriyalarini loyihalashtirish (framing, designing) Forsayt texnologiyalarini dars/kurikulum rejalashtirishda qo‘llash	faqat namuna asosida, ijodiy yondashuvsiz bajaradi.	mustaqil tuza oladi, ammo alternativ variantlarni kam ko‘rib chiqadi.	ssenariylarni mustaqil ishlab chiqadi, ularni asoslaydi va amaliyotga moslashtiradi.
4. Reflektiv-baholash mezoni	O‘z bashoratlarini tahlil qilish va ularni yangi ma’lumotlar asosida tuzatish (adapting) Muqobil kelajak variantlarini tanqidiy baholash Kasbiy faoliyat natijalari yuzasidan refleksiya yuritish	O‘z faoliyati va bashoratlarini tahlil qilishga ehtiyoj sezmaydi.	Tashqi yordam (murabbiy, hamkasb) bilan refleksiya yurita oladi.	Mustaqil, tizimli refleksiya asosida rejalarni doimiy takomillashtirib boradi.

1-jadval. Bo‘lajak pedagoglarning forsayt kompetensiyasini baholash mezonlari, indikatorlari va darajalari.

Manba: jadval muallif tomonidan ilmiy-pedagogik adabiyotlar va forsaytga oid manbalar asosida tizimlashtirildi [7–11; 15–18].

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kognitiv-bilim mezoni bo‘lajak pedagogning forsayt metodologiyasi va ta’limdagi o‘zgarish tendensiyalari haqidagi bilimlarini, motivatsion-qadriyat mezoni — kelajakka yo‘naltirilgan faoliyatga ichki ehtiyoj va mas’uliyatni, operatsion-faoliyat mezoni — ssenariylashtirish, loyihalashtirish va texnologiyalarni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini, reflektiv-baholash mezoni esa o‘z faoliyati va bashoratlarini tahlil qilish hamda tuzatish qobiliyatini tavsiflaydi. Darajalar orasidagi farq, birinchi navbatda, bilim va ko‘nikmalarning mustaqillik, tizimlilik va ijodiylik darajasida namoyon bo‘ladi: quyi darajada faoliyat namuna asosida va tashqi yordam bilan amalga oshirilsa, yuqori darajada bo‘lajak pedagog mustaqil ravishda muqobil ssenariylar ishlab chiqadi va o‘z faoliyatini tizimli ravishda takomillashtirib boradi. [10–13; 15]

MUHOKAMA

Ishlab chiqilgan model pedagogik kompetentlikni baholashning an’anaviy yondashuvlaridan — masalan, rubrika va chek-list asosidagi formativ baholash yoki xodimlar faoliyatini 360 daraja baholash usullaridan — shu bilan farq qiladiki, u pedagogning nafaqat joriy faoliyat sifatini, balki kelajakka nisbatan bashoratlash, ssenariylashtirish va strategik rejalashtirish qobiliyatini alohida ob’ekt sifatida ajratib ko‘rsatadi. Shu bilan birga, taklif etilayotgan mezonlar mavjud pedagogik kompetentlikni baholash mezonlari (masalan, fan bo‘yicha bilim darajasi, metodik tayyorgarlik) bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, forsayt kompetensiyasini pedagogik kompetentlikning mustaqil, ammo undan ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir. [10–13]

Xalqaro tajribada forsayt ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan “Futures Literacy” (kelajak savodxonligi) tashabbuslari va pedagog kadrlarning forsayt malakasini oshirishga yo‘naltirilgan maxsus dasturlar mavjudligi taklif etilayotgan modelning dolzarbligini tasdiqlaydi: bunday tashabbuslar pedagoglarda noaniqlik sharoitida ishlash, muqobil kelajaklarni tasavvur qilish va ularga mos strategiyalar tanlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, iqtisodiy va tibbiy ta’lim sohalarida olib borilgan tadqiqotlar forsayt kompetensiyasini rivojlantirishda ishtirokchilik (partisipativ) metodlari — gorizontni skanerlash, oldinga yo‘naltirilgan tafakkur va bekasting (backcasting) — samarali ekanligini ko‘rsatgan, bu esa operatsion-faoliyat mezoni doirasidagi indikatorlarni yanada kengaytirish imkonini beradi. [16–18]

Tadqiqotning cheklovi shundan iboratki, taqdim etilgan mezon-indikator-daraja tizimi hozircha faqat nazariy tahlil asosida ishlab chiqilgan. Modelning amaliy qo‘llanilishi va o‘lchov vositasi (test topshiriqlari, kuzatuv varaqalari, o‘z-o‘zini baholash so‘rovnomalari) sifatidagi samaradorligini aniqlash uchun pedagogika yo‘nalishi talabalari ishtirokida tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish, shuningdek

ekspertlar (Delfi usulida) yordamida mezonlarning muvofiqlik darajasini statistik tasdiqlash zarur. Bu masalalar tadqiqotning keyingi bosqichi uchun istiqbolli yo‘nalish bo‘lib qoladi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida bo‘lajak pedagoglarning forsayt kompetensiyasini baholash uchun to‘rtta mezon (kognitiv-bilim, motivatsion-qadriyat, operatsion-faoliyat, reflektiv-baholash), ularga mos indikatorlar hamda uchta daraja (quyi, o‘rta, yuqori)dan iborat yaxlit model ishlab chiqildi. Taklif etilayotgan model bo‘lajak pedagoglarning kelajakni loyihalashtirish, ta’lim jarayonidagi o‘zgarishlarni bashoratlash va strategik pedagogik qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini diagnostika qilish uchun ilmiy-uslubiy asos bo‘lib xizmat qilishi, shuningdek pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv dasturlarini forsayt texnologiyalari elementlari bilan boyitishda amaliy yordam berishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda modelni empirik tekshirishga (ekspert baholash, tajriba-sinov ishlari) alohida e’tibor qaratish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi qarori. — Toshkent, 2019.

2. Dewey J. Experience and Education. — New York: Macmillan, 1938.

3. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

4. Jalilov Q. Baholash nazariyasi asoslari. — Toshkent, 2020.

5. Kasbiy pedagogik kompetensiyalarning turlari va ularni rivojlantirish masalalari // Academic Research in Educational Sciences. — 2020. — Vol. 1, Issue 3. — B. 209–215. URL: https://ares.uz/storage/app/media/2020yil/Vol_1_Issue_3/209-2015.pdf

6. Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo‘llari // Ilmiy-uslubiy jurnal maqolalar to‘plami. URL: https://universalpublishings.com/index.php/itfttdm/article/download/1307/2482/1261

7. Talabalarni pedagogik kompetensiyaga oid bilimlarni forsayt texnologiyasi asosida shakllantirish // European Journal of Academic Research (in-Academy). URL: https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/download/45152/28711/48728

8. Talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsayt texnologiyalar asosida takomillashtirish // Oriental Journal of Social Sciences. URL: https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/download/1557/1321/1400

9. Oliy ta’lim tizimida forsayt tadqiqotlari va strategik qarorlar qabul qilish. URL: https://lib.bimm.uz/items/download/11930

10. Pedagoglar faoliyatini baholash mezonlari va indikatorlari // Menejment.uz o‘quv materiallari. URL: https://www.menejment.uz/lesson_text/20

11. Zamonaviy o‘qituvchini tayanch kompetensiyalarini baholash mezonlari // Jamiyat va innovatsiyalar — Общество и инновации — Society and innovations. URL: https://www.researchgate.net/publication/355153526

12. O‘quvchilarning individual o‘quv natijalarini baholashga zamonaviy yondashuvlar. URL: https://www.researchgate.net/publication/379016030

13. Kompetensiyaga asoslangan baholash (rubrika, chek-list) mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish omili sifatida // Za’monaviy ta’lim islohotlari va ularning amaliy yechimlari: konferensiya materiallari. — 2025. — 1(4). — B. 338–344. URL: https://insightpublishing.org/index.php/zti/article/view/1343

14. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati // Modern education and development. URL: https://inlibrary.uz/index.php/mead/article/view/95184

15. Pedagogik tashxislash: mezon va ko‘rsatkichlar tizimi. URL: https://www.scribd.com/document/956670804

16. Fórizs, N. et al. Future in the Present: Participatory Futures Research Methods in Economic Higher Education — the Development of Future Competencies // Journal of Futures Studies. — 2021. — Vol. 26(2). — P. 1–18. URL: https://jfsdigital.org/future-in-the-present-participatory-futures-research-methods-in-economic-higher-education-the-development-of-future-competencies

17. Pesut D., Ankel F. #futureofmeded: Developing Foresight Competencies. — ICE Blog, 2019. URL: https://icenet.blog/2019/06/04/futureofmeded-developing-foresight-competencies/

18. European Commission Competence Centre on Foresight. Futures Literacy / Future Forward Programme. URL: https://knowledge4policy.ec.europa.eu/foresight/future-forward_en

O‘ZBEK TILI MILLIY KORPUSINI YARATISH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Eshanqulov Dilmurod,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi, o‘qituvchlsi,
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: dilmurodeshanqulov109@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbek tili milliy korpusini yaratish jarayoni, uning tilshunoslikda tutgan o‘rni, metodologik va texnik masalalari tahlil qilinadi. Milliy korpus madaniy meros sifatida tilning turli qatlamlarini jamlash va raqamli formatda saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maqolada korpus tilshunosligini rivojlantirish yo‘llari, zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida O‘zbek tilini chuqur o‘rganish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tili, milliy korpus, tilshunoslik, korpus lingvistikasi, raqamlashtirish, avtomatlashtirish, til modeli.

Аннотация: В данной статье анализируется процесс создания национального корпуса узбекского языка, его роль в языкознании, а также методологические и технические вопросы. Национальный корпус как культурное наследие имеет важное значение для сбора различных слоев языка и их сохранения в цифровом формате. Кроме того, в статье рассматриваются пути развития корпусной лингвистики и возможности глубокого изучения узбекского языка с помощью современных информационных технологий.

Ключевые слова: узбекский язык, национальный корпус, языкознание, корпусная лингвистика, цифровизация, автоматизация, языковая модель.

Kirish. Milliy korpus yaratish maqsadi korpusning keng ko‘lamli bo‘lishi ma’lumotning o‘ziga xosligini kafolatlaydi, til hodisalarining barcha qirrasini to‘liq namoyish etishni ta’minlaydi. Turli tipdagi ma’lumot til korpusida o‘zining tabiiy kontekstual shaklida joylashadi, bu esa uni har tomonlama va obyektiv o‘rganish uchun asos bo‘ladi. Bir marta tuzilgan va tayyorlangan axborotlar massivi bir necha tadqiqotchi tomonidan ko‘p marta, turli maqsadda ishlatilishi mumkin. Korpus tilni tadqiq etish (tilda so‘zning o‘zgarishi, istorizm, neologizm, ma’no kengayishi va torayishi; yangi frazeologizmlarning paydo bo‘lishini kuzatish), til o‘rganish, lug‘at tuzishda eng zamonaviy, keng imkoniyatli dasturlashtirilgan tizim.

Korpussiz bugungi kun nazariy va amaliy filologiyasini tasavvur etish qiyin. Tilshunosllkka oid tadqiqotda fakt bilan ish ko‘riladigan hollarda material yig‘ilishi, sistemaga solinishi lozim. Bunday katta hajmli ishni bajarishda korpus tilshunos

uchun vaqt va mehnatni tejaydigan ish quroli. U texnik jarayonni tezlashtiruvchi vosita bo‘lib qolmay, ma’lum til zamonaviy shaklining axborot tizimi bo‘lib, kutilmagan savolga ham javob bera oladigan, tilshunoslik oldiga avval qo‘yilmagan dolzarb muammoni qo‘ya oladigan tizim.

Korpus ma’lum maqsadda yig‘ilgan matnlar uni tashkil etuvchi til birliklari yig‘indisi, tabiiy tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og‘zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga dasturiy ta’minot asosida joylashtirilgan on-line yoki off-line tizimda ishlaydigan matnlar jamlanmasi. Lingvistik tadqiqot va amaliy topshiriqlar yechimi uchun til korpuslari zamonaviy tilshunoslikning inkor etib bo‘lmas ish quroli. U oddiy elektron kutubxonadan farqlanadi. Elektron kutubxona xalqning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, iqtisodiy hayotini aks ettiruvchi badiiy va publitsistik asarlarni nisbatan to‘liq qamrab olishni maqsad qilgan bo‘ladi.

Elektron kutubxona matnlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan leksik, morfologik, grammatik, semantik belgilar asosida ishlov berilmaganligi sababli lingvistik tadqiqot uchun noqulaylik tug‘diradi. Chunki elektron kutubxona ilmiy tadqiqot materiali bazasini tayyorlash maqsadida tuzilmaydi, balki milliy-ma’naviy merosni to‘plashni maqsad qilgan bo‘ladi.

Til korpusi esa elektron kutubxonadan farqli o‘laroq, tilni o‘rganish uchun zaruriy, foydali va qiziqarli matnlarni to‘plashni nazarda tutadi. Korpusni elektron kutubxonadan ajratib turuvchi birinchi omil undagi matnning xususiyati va qo‘shimcha ma’lumot bilan boyitilganligi hisoblanadi hamda bu belgi korpusning alohida qismi — korpus birliklariga yozilgan izohni tashkil etadi [1:30-31].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kompyuter leksikografiyasini elektron matnlar korpusi yoki parallel matnlar korpuslarisiz tasavvur qilish mumkin emas. Matnlar korpusi («corpus» lotincha «tana» degan ma’noni anglatadi) — bu elektron holda saqlanadigan ma’lum til birliklari bo‘lib, ular tilshunoslar uchun turli xil muammolarni hal etish maqsadida va turli yo‘nalishdagi tadqiqotlar uchun zaruriyatga qarab turli shakllarda tuziladi. Bular fonema, grafema, morfemalardan tortib undan kattaroq birliklar — leksema, gap va matnlar (badiiy yoki ilmiy asar, gazeta va jurnal matnlari) dan tashkil topishi mumkin. Ularning qay tarzda saqlanishiga qarab maxsus dasturlar yordamida har bir kerakli so‘z yoki so‘z birikmasining misollari, imlo bo‘yicha variantlari, sinonimik qatorlari topilishi mumkin_ Matnlar korpusiga oid ilmiy tadqiqotlar salmog‘ining ko‘payishi natijasida tilshunoslikda korpus lingvistikasi yo‘nalishi shakllandi [2:87].

Korpus lingvistikasining maqsadi til o‘rganishda empirik yondashuv negizidagi korpus lingvistikasi bilan bir qatorda korpus texnologiyalari asoslari bilan ham tanishtirishdan iborat. Shuningdek, korpuslar bilan ishlash malakalarini hosil qilish, tom ma’noda ilmiy lingvistik tadqiqot olib borishda korpuslarning nazariy va amaliy

ahamiyatini ko‘rsatish, lingvistik sohalarga oid fanlar tizimida korpus lingvistikasining o‘rnini aniqlash vazifalari belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Korpus lingvistikasi korpuslarni yaratish va ular asosida lingvistik tadqiqotlarni amalga oshirish, lisoniy tizimlarni obyektiv va lingvistik yo‘nalishlar: leksikografik tadqiqotlar, tilning leksik qatlami tavsifi, u yoki bu so‘zlarning qo‘llanish nisbati, tildagi leksik- semantik, struktur o‘zgarishlar, tabiiy tillar grammatikasining o‘rganilishi, til tizimi mohiyati va uning qo‘llanish tavsifi bilan shug‘ullanadi.

Lingvistlar, dastavval, 1960-yillarda kompyuterlashtirilgan matnlar korpusini to‘pladilar. “Kompyuterda yaratilgan birinchi matnlar korpusi Braun korpusi (BK, inglizcha Brown sorpus, VS) hisoblanadi, u 1961-yilda Braun universitetida yaratilgan, har biri 2000 so‘zli 500 ta matn fragmentini o‘z ichiga oladi. Braun korpusi (The Brown Corpus) matnlari AQShda nashr etilgan jurnallardan, amerika kitoblari, gazetalaridan olingan.

Korpus mualliflari U. Frensis va G. Kucherlar uni dastlabki statistik ishlov berilgan katta hajmdagi materiallar miqdori: har xil statistik taqsimotga asoslangan chastotali va alfavit-chastotali lug‘at sifatida shakllantirdilar. Braun korpusini yaratishdan maqsad -ingliz tilidagi yozma janrlarini o‘rganish va qiyoslashdan iborat. Tuzuvchilar, birinchi navbatda, masalani hal qilish nuqtai nazaridan yondashib, matnni saralash va tuzish prinsipiga amal qildilar. Bir tomondan: korpus statistik protsedura asosiga qurildi, ikkinchi tomondan, statistika korpus mualliflarining professional intuitsiya bazasiga asoslangan erkin qarorlari bilan belgilandi. Mazkur murakkab jarayonda maksimal darajada ob’ektivlikka erishish uchun maksimal formallashgan, shaffof protsedurani tekshirish va nazorat talab qilinar edi.

Keyinchalik yevropalik tadqiqotchilar shu prinsip asosida 1961-yilda Buyuk Britaniyada birinchi marta e’lon qilingan matnlar korpusini tuzishdi: 15 xil janr (registr), 2000 so’zli (so‘zshaklli) 5000 ta matn dan iborat.

U ingliz tilining britaniya variantiga oid 1 mln. so'zni qamrab oldi, uni britaniya va ikki norvegiya universiteti nomi bilan "Lankaster-Oslo- Bergen" yoki qisqacha LOB korpusi (The Lancaster-Oslo-Bergen Corpus) deb atashdi. Braun tipida yaratilgan boshqa korpuslar ham tadqiqotchilar uchuty muhim ahamiyat kasb etdi. 1963- yilda AQShda Braun universiteti (Brown University) da The Brown Standard Corpus of American English korpusi yäratildi. Mazkur korpus lingvistika sohasida yaratilgan bo‘lib, lingvistik tavsif va tahlillarga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Birinchilardan bo‘lib yaratilgan ikki katta korpus ingliz tilining yozma amerika va britaniya variantida yaratilgan bo‘lib, bu korpuslar hozirgi kunda ham ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, ingliz tili bo‘yicha bir qator tadqiqotlarga asos bo‘lib kelmoqda. Bu korpuslar yaratilganidan keyingi o‘n yillikda kompyuter

arzonlashdi, qudratliroq kompyuter sinflari yuzaga keldi, matnlarni jamlashning klaviatura usulidan tashqari skaner variantlari shakllandi.

Bu imkoniyatlar korpus yaratish jarayonini yengillatdi, korpuslarning milliard so‘z hajmidagi tiplari yuzaga keldi [3:6-17].

O‘zbek tilshunosligida kompyuter lingvistikasi, tabiiy tilni qayta ishlash, statistik tahlil masalalariga doir izlanishlarda korpus lingvistikasiga ham to‘xtalib o‘tilgan [4:91].

Zamonaviy lingvistikada tilni tahlil qilishning samarali usullaridan biri sifatida milliy til korpuslari katta imkoniyatlar yaratadi. Milliy korpus — ma’lum bir tilning turli janr va mavzudagi matnlar to‘plami bo‘lib, u kompyuterda saqlanadi va tilshunoslik tadqiqotlari uchun asosiy manba hisoblanadi. O‘zbek tilining yanada rivojlanishi, adabiy nutq va tilning real holatini o‘rganish uchun o‘zbek tili milliy korpusini yaratish dolzarb vazifadir. O‘zbek tili milliy korpusini yaratishdagi asosiy vazifalar

Milliy korpusni yaratishda quyidagi vazifalar muhim hisoblanadi:

- ***Raqamli matnlar bazasini yig‘ish:*** O‘zbek tilida turli janrlardan (badiiy adabiyot, ilmiy maqolalar, ommaviy axborot vositalari, rasmiy hujjatlar) matnlar yig‘ish zarur.

- ***Matnlarni standartlashtirish va markalash:*** Barcha matnlar yagona standartga mos keltirilishi, morfologik, sintaktik va semantik annotatsiyalar bilan to‘ldirilishi kerak.

- ***Texnik ta’minot:*** Zamonaviy dasturiy vositalar va tilga ishlov berish texnologiyalarini joriy etish talab qilinadi.

Malakali kadrlar tayyorlash: Kompyuter lingvistikasi, tilshunoslik va dasturlash sohasida mutaxassislar yetishtirish muhimdir.

Zamonaviy kompyuter tilshunosligi va kompyuter granulaly qidirish tizimlari (search engines), tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari O‘zbek tilidagi matnlar ustida samarali ishlash imkonini yaratmoqda. Maxsus morfologik analizatorlar, leksik tahlil vositalari va sintaktik vositalar ishlab chiqilmoqda.

Korpus yaratishning istiqbollarini rivojlantirish:

Milliy korpusning onlayn platformalarini tashkil etish, keng jamoatchilik uchun qulay interfeys yaratish kerak;

Elektron O‘zbek lug‘atlar bazasini korpusga integratsiyalash;

Xulosa va takliflar. Tilni o‘rganish va tarjima qilish uchun avtomatlashtirilgan tizimlar yaratishda milliy korpus bazaviy manba sifatida ishlatiladi.

O‘zbek tili milliy korpusini yaratish va rivojlantirish bugungi kun tilshunosligi uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Zamonaviy raqamlashtirish va kompyuter

lingvistikasining yuksalishi natijasida korpus tilshunoslik yondashuvlarini kengaytirish imkoniyatlari oshmoqda.

Ushbu loyiha milliy tilni yangi bosqichga olib chiqishi, uni xalqaro miqyosda yanada yorqinlashtirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Po‘latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi, -Toshkent, 2009.
2. Xolmanova Z.T., Kompyuter lingvistikasi, -Toshkent, 2019. – 87 b.
3. Xolmanova Z.T., Kompyuter lingvistikasi, -Toshkent, 2019. – 91 b.
4. Zaxarov V., Mengliyev B., Harnroyeva Sh. Korpus lingvistikasi. -Toshkent, 2003. – 30-31b.
5. Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика. -Иркутск ИГЛУ.2011. – 16-17b.

PERIFRAZANING O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA NAZARIY TALQINI VA SEMANTIK TABIATI

Baybulatov N.S.
Guliston davlat pedagogika instituti
musta’qil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda perifrazaning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi, uning nazariy talqini va semantik tabiati yoritiladi. Perifraza ikkilamchi nominatsiyaning muhim ko‘rinishi sifatida qaralib, uning sinonimiya, metafora, metonimiya va motivlashuv hodisalari bilan aloqasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: perifraza, ikkilamchi nominatsiya, qayta nomlash, semantika, sinonimiya, metafora, metonimiya, motivlashuv.

Аннотация. В данном тезисе рассматривается изучение перифразы в узбекском языкознании, её теоретическая интерпретация и семантическая природа. Перифраза анализируется как важная форма вторичной номинации, а также исследуется её связь с явлениями синонимии, метафоры, метонимии и мотивированности.

Ключевые слова: перифраза, вторичная номинация, переименование, семантика, синонимия, метафора, метонимия, мотивированность.

AbstractThis thesis discusses the study of periphrasis in Uzbek linguistics, its theoretical interpretation, and semantic nature. Periphrasis is considered an important form of secondary nomination, and its relationship with synonymy, metaphor, metonymy, and motivation is analyzed.

Keywords: periphrasis, secondary nomination, renaming, semantics, synonymy, metaphor, metonymy, motivation.

Tilning nominativ imkoniyatlari voqelikdagi narsa, hodisa va shaxslarni bevosita nomlash bilangina cheklanmaydi. Ularni muayyan belgi, xususiyat, funksiya, assotsiatsiya yoki baholash asosida qayta nomlash ham tilning muhim nominativ-semantik imkoniyatlaridan biridir. Bunday qayta nomlash vositalaridan biri perifraza hisoblanadi. Perifraza orqali muayyan obyektning bevosita nomi o‘rniga uning xarakterli belgisi, faoliyati, vazifasi, ijtimoiy mavqeyi yoki boshqa xususiyati asosida yangi nomlash birligi yuzaga keladi. Shu jihatdan perifraza tilning lug‘aviy boyligini kengaytirish bilan birga, nutqning mazmuniy va uslubiy imkoniyatlarini ham oshiradi.

Perifraza tilning nominativ imkoniyatlarini kengaytiruvchi, narsa, hodisa va shaxslarni ularning bevosita nomi o‘rniga muayyan belgi, xususiyat, funksiya yoki

assotsiatsiya asosida qayta nomlashga xizmat qiluvchi murakkab lingvistik hodisadir. Uning semantik tabiati ikkilamchi nominatsiya, sinonimiya, metafora, metonimiya, motivlashuv, pragmatika va lingvokognitiv jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgani sababli perifrazani faqat stilistik vosita sifatida o‘rganish uning mohiyatini to‘liq ochib berolmaydi. Shu jihatdan perifrazaning nazariy asoslarini aniqlash va uning semantik xususiyatlarini tizimli tadqiq etish zamonaviy o‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalaridan biridir [7].

O‘zbek tilshunosligida perifrazalarni maxsus o‘rganish XX asrning 90-yillaridan boshlab izchil rivojlandi. I.E. Umirovning “O‘zbek tili parafrazalari” tadqiqoti bu yo‘nalishdagi dastlabki maxsus ishlardan biri bo‘lib, unda perifrazalarning turlari, semantik xususiyatlari va qo‘llanish imkoniyatlariga e’tibor qaratilgan [6]. D.T. Aytbayevning izlanishlarida esa perifrazalarning motivlashuvi hamda ularning leksikografik talqini masalalari tadqiq etildi [2]. Keyingi tadqiqotlarda perifrazaning o‘rganilish doirasi yanada kengaydi. Jumladan, Z.Z.Qodirova perifrazalarning badiiy matndagi xususiyatlarini [5], U.Sh. Ahmadova ularning sotsial xoslanishini [1], A.B.Qobilova ingliz va o‘zbek lingvoma-daniyatidagi tibbiy perifrazalarni [4], M.A. Dedaxanova esa ma’no ko‘chishining lingvokognitiv jihatlarini o‘rgangan [3]. Bu tadqiqotlar perifrazaning faqat stilistik hodisa emas, balki nominativ, semantik, pragmatik, lingvomadaniy va kognitiv xususiyatlarga ega murakkab til hodisasi ekanini ko‘rsatadi.

Perifraza muayyan obyektni uning bevosita nomi o‘rniga tavsifiy, obrazli yoki assotsiativ belgi asosida qayta nomlaydi. Masalan, *oq oltin – paxta, qora oltin – neft, oq xalatlilar – shifokorlar, zangori ekran – televideniye* kabi birliklarda nomla-nayotgan obyektning muayyan belgisi ikkilamchi nomlash uchun asos bo‘ladi. Bunday birliklarda predmet yoki shaxsning asosiy nomi yashirin holda saqlanadi, biroq u bevosita emas, balki tavsifiy birlik orqali ifodalanadi. Natijada perifraza nafaqat nomlash, balki obyektning muhim jihatini ajratib ko‘rsatish vazifasini ham bajaradi.

Perifrazaning muhim belgilaridan biri uning ikkilamchi nominatsiya bilan bog‘liqligidir. Ikkilamchi nominatsiya jarayonida mavjud tushuncha yoki obyekt boshqa til birligi vositasida qayta ifodalanadi. Bunda obyektga xos bo‘lgan muayyan belgi yangi nomlashning motivi sifatida xizmat qiladi. Masalan, *oq oltin* perifrazasida paxtaning rangi va iqtisodiy ahamiyati, *qora oltin* birligida neftning qimmatli tabiiy boylik sifatidagi xususiyati, *oq xalatlilar* birlikida esa shifokorlarga xos tashqi belgi asosiy motiv vazifasini bajaradi. Demak, perifrazaning shakllanishida obyekt haqidagi mavjud bilim, tasavvur va assotsiatsiyalar muhim o‘rin tutadi.

Perifrazalarning semantik tabiatini aniqlashda ularni tashkil etuvchi komponentlarning ma’nosi muhim mezon hisoblanadi. Komponentlari o‘z nominativ,

ya’ni to‘g‘ri ma’nosida qo‘llangan birliklar leksik perifrazalar sifatida qaralishi mumkin. *Ilm ahli, qalam ahli, qalam sohiblari, o‘zbek adabiy tilining asoschisi* kabi birliklarda perifrazani tashkil etuvchi komponentlarning bevosita ma’nosi asosiy nominativ mazmunni shakllantiradi. Komponentlarning kamida biri ko‘chma yoki metaforik ma’noda qo‘llangan birliklar esa metaforik perifrazalarni tashkil etadi. *Oq oltin, qora oltin, dala bahodirlari, kumush tola ijodkorlari* kabi birliklarda obrazlilik va metaforik tasavvur kuchli namoyon bo‘ladi.

Predmet va hodisalar o‘rtasidagi yondoshlik, aloqadorlik yoki bog‘liqlik asosida shakllangan perifrazalarni metonimik perifrazalar sifatida ajratish mumkin. *Oq xalatlilar* perifrazasida shifokorlarning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq tashqi belgi, *zangori ekran* birligida esa televideniye bilan bog‘liq assotsiativ belgi asosida qayta nomlash yuzaga kelgan. Bunday birliklarning shakllanishida insonning obyektlar o‘rtasidagi aloqadorlikni idrok etishi va shu aloqadorlikni nomlashga asos sifatida tanlashi muhim ahamiyatga ega.

Perifrazaning oddiy sinonimdan farqli jihati ham aynan shunda namoyon bo‘ladi. Sinonimlar bir-biriga yaqin yoki bir xil denotativ mazmunni turli leksemalar yordamida ifodalasa, perifraza obyektni uning muayyan belgisi, xususiyati yoki faoliyati asosida qayta nomlaydi. Shu sababli perifrazalarda tasviriylik, motivlanganlik va ekspressivlik darajasi yuqoriroq bo‘lishi mumkin. Masalan, *shifokor* va *tabib* birliklari sinonimik munosabatni ifodalashi mumkin, *oq xalatlilar* esa shifokorlarni muayyan belgisi asosida obrazli tarzda qayta nomlaydi.

Perifrazalarni tasniflashda birgina mezondan foydalanish ularning barcha xususiyatlarini qamrab olish imkonini bermaydi. Shu sababli ularni bir necha jihatdan tasniflash maqsadga muvofiq. Semantik xususiyatiga ko‘ra perifrazalar leksik, metaforik va metonimik turlarga ajratiladi. Qo‘llanish doirasiga ko‘ra esa uzusga aylangan, umumxalq tomonidan tushuniladigan va til me’yorida barqa-rorlashgan lisoniy perifrazalar hamda muayyan nutq jarayonida yuzaga keladigan nutqiy perifrazalar farqlanadi.

Kontekstga munosabatiga ko‘ra umumtil va kontekstual perifrazalarni ajratish mumkin. Umumtil perifrazalari alohida kontekstsiz ham o‘z referentini anglatishi mumkin. Masalan, *sahro kemasi*, *dala malikasi, zangoriy ekran* kabi birliklarning ma’nosi keng nutq jamoasi uchun tushunarli. Kontekstual perifrazalar esa faqat muayyan matn yoki nutq vaziyati yordamida o‘z referentini aniq namoyon qiladi. Masalan, *“Ufq” romanining muallifi* birikmasi tegishli adabiy kontekst mavjud bo‘lgandagina muayyan shaxsni, ya’ni Said Ahmadni anglatadi.

Perifrazalarning yana bir muhim guruhi individual-muallifiy perifrazalardir. Bunday birliklar muayyan ijodkorning individual tafakkuri, estetik qarashi va badiiy uslubi asosida yuzaga keladi. Ular, ayniqsa, badiiy asarlarda obrazlilik, ekspressivlik

va muallif munosabatini ifodalashda faol qo‘llanadi. Individual-muallifiy perifrazalar ko‘pincha muayyan asar yoki kontekst doirasida tushuniladi va shu jihati bilan umumtil perifrazalaridan farqlanadi.

Perifrazalarning shakllanishida motivlashuv alohida ahamiyatga ega. Perifraza motivi obyektning tashqi belgisi, funksiyasi, kasbiy xususiyati, ijtimoiy mavqeyi, tarixiy o‘rni, iqtisodiy yoki madaniy ahamiyati, boshqa obyekt bilan o‘xshashligi yoki yondoshligi asosida shakllanishi mumkin. Demak, perifrazaning yuzaga kelishida nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik va psixolingvistik omillar ham ishtirok etadi. Insonning borliqni qanday idrok etishi, obyektlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va aloqadorlikni qanday anglashiga qarab turli perifrazalar shakllanadi.

Perifrazalarning funksional imkoniyatlari ham kengdir. Ular nutqda takroriy nomlashning oldini olish, fikrni obrazli va ta’sirchan ifodalash, obyektning muayyan belgisini ta’kidlash, baholash munosabatini bildirish, estetik ta’sirni kuchaytirish kabi vazifalarni bajaradi. Ayniqsa, badiiy, publitsistik va ommaviy axborot vositalari uslubida perifrazalardan faol foydalaniladi. Shu bilan birga, ilmiy va boshqa funksional uslublarda ham muayyan kommunikativ vazifani bajaruvchi kontekstual perifrazalar uchrashi mumkin.

Perifrazalarning leksikografik talqini ham o‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalaridan biridir. Uzusga aylangan, til jamoasi tomonidan barqaror qo‘llanadigan perifrazalar muayyan predmet, hodisa yoki shaxsning ikkilamchi nomi sifatida tilning nominativ tizimidan o‘rin oladi. Shu sababli ularni izohli lug‘atlarda aks ettirishda perifrazaning referenti, ma’nosi, qo‘llanish sohasi, uslubiy xususiyati va lisoniy yoki nutqiy xarakterini hisobga olish zarur.

Xulosa qilib aytganda, perifraza o‘zbek tilining nominativ-semantik tizimida muhim o‘rin tutuvchi ko‘p qirrali til hodisasidir. Uning mohiyatini faqat stilistik vosita sifatida izohlash yetarli emas. Perifraza ikkilamchi nominatsiya, sinonimiya, metafora, metonimiya, motivlashuv, pragmatika va kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun perifrazalarni semantik, funksional, kontekstual va lingvokognitiv jihatdan kompleks o‘rganish o‘zbek tilining nominativ imkoniyatlarini chuqurroq anglashga, perifrazaning til tizimidagi o‘rnini aniq belgilashga hamda uning yondosh hodisalardan farqli xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmadova U.Sh. Perifrazalarning sotsial xoslanishi: filol. fan. falsafa doktori (PhD) ... diss. – Buxoro, 2022.
2. Aytbayev D.T. O‘zbek tilidagi perifrazalarning motivlashuvi va leksiko-grafik talqini: filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2007.

3. Dedaxanova M.A. Modern she'riyatida ma'no ko'chishning lingvokognitiv aspekti (Rauf Parfi ijodi misolida): filol. fan. falsafa doktori (PhD) ... diss. – Toshkent, 2021.
4. Qobilova A.B. Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida tibbiy perifrazalarning xususiyatlari: filol. fan. falsafa doktori (PhD) ... diss. – Buxoro, 2022.
5. Qodirova Z.Z. Alisher Navoiyning nasriy asarlarida perifrazalar: filol. fan. falsafa doktori (PhD) ... diss. – Toshkent, 2022.
6. Umirov I.E. O'zbek tili parafrazalari: filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1996.
7. Shamsiddinov H. Perifraza xususida ayrim mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1993. – № 4. – B. 29-35.

MUSTAMLAKACHILIK TUSHUNCHASI VA UNING ASORATINING TARIXIY-FALSAFIY VA BADIIY TALQINI

Ziyadullayeva Dilafro‘z Narzulla qizi
CHDPU o‘zbek adabiyotshunosligi
kafedrasi tayanch doktoranti
tel: +99888 877 18 03

Annotatsiya Mazkur maqolada mustamlakachilik siyosatining uzoq muddatli va tizimli oqibatlari millat taqdiri, ma’naviy-ruhiy olami hamda badiiy adabiyotdagi talqini nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Shuningdek, antik davrdan to sovet totalitar tuzumigacha bo‘lgan bosqichlarda xalqlar boshiga tushgan fojialar, postkolonial nazariya asoslari hamda milliy o‘zlikni saqlab qolish va tarixiy xotirani tiklash g‘oyalarining badiiy-estetik ifodasi ilmiy-nazariy jihatdan yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Millat taqdiri, mustamlakachilik asorati, totalitar tuzum, tarixiy xotira, ma’naviy bo‘hron, milliy o‘zlik, internalizatsiyalashgan qaramlik.

Аннотация В данной статье с точки зрения судьбы нации, духовно-нравственного мира и интерпретации в художественной литературе анализируются долгосрочные и системные последствия колониальной политики. Также научно-теоретически освещаются трагедии, выпавшие на долю народов с античных времен до советского тоталитарного режима, основы постколониальной теории, а также художественно-эстетическое выражение идей сохранения национальной идентичности и восстановления исторической памяти.

Ключевые слова: Судьба нации, колониальное угнетение, тоталитарный режим, историческая память, духовный кризис, национальная идентичность, интернализированная зависимость.

Abstract This article analyzes the long-term and systemic consequences of colonial policy from the perspective of the nation's destiny, its spiritual and psychological world, and its interpretation in fiction. Furthermore, it scientifically and theoretically examines the tragedies experienced by peoples from antiquity to the Soviet totalitarian regime, the foundations of postcolonial theory, and the artistic-aesthetic expression of the ideas of preserving national identity and restoring historical memory.

Keywords: Destiny of the nation, colonial oppression, totalitarian regime, historical memory, spiritual crisis, national identity, internalized dependency.

Adabiyotshunoslik va postkolonial nazariyada mustamlakachilik tushunchasi shunchaki hududlarni bosib olish yoki siyosiy bo‘ysundirish jarayoni sifatida talqin etilmaydi. Bu hodisa butun boshli millatning tafakkuri, madaniyati, tili va ma’naviyatini yo‘q qilishga qaratilgan uzoq muddatli, tizimli siyosat sifatida baholanadi. Mustamlakachilik tushunchasi insoniyat sivilizatsiyasi bilan birgalikda yashab kelmoqda. Jahon adabiyotshunosligida mustamlakachilik va uning asoratlari haqidagi manbalar antik davr adabiyotidan beri mavjud. Xususan, buyuk Rim tarixchisi Publiy Korneliy Tasit o‘zining "Agrikola" nomli asarida Rim imperiyasining Britaniyadagi mustamlakachilik siyosatini va uning mahalliy aholi uchun fojiali oqibatlarini ko‘rsatib bergan. Asarda Britaniya qabilasi boshlig‘i Kalgakning Rim istilochilariga qarshi aytgan mashhur nutqi orqali mustamlakachilikning asl qiyofasi ochib beriladi:

«Ular dunyoni talon-toroj qilib, hamma narsani payhon qilganlaridan so‘ng, dengizni topa olmay, yerlarni qidiradilar. Agar dushman boy bo‘lsa – ular ochko‘z, agar kambag‘al bo‘lsa – hokimiyatparastdirlar... Ular o‘g‘rilik qilishni, qirg‘in qilishni, talon-toroj qilishni yolg‘on nomlar bilan “imperiya” yoki “hukmronlik” deb ataydilar; va vayronaga aylantirib, buni “tinchlik” deb ataydirlar».[1:45]

Tasit qalamiga mansub bu satrlar qadimgi davrlardayoq bosqinchilik siyosatining asl mohiyati — zo‘ravonlikni tinchlik niqobi ostida poymol qilishdan iborat bo‘lganini ko‘rsatadi. Asrlar o‘tib, bu siyosat yanada takomillashdi va XIX–XX asrlarga kelib klassik mustamlakachilik shaklini oldi. Endilikda imperiyalar nafaqat yerlarni, balki xalqlarning tarixiy xotirasini, milliy o‘zligini ham tortib olishga kirishdilar. Shu boisdan ham zamonaviy postkolonial adabiyotshunoslik mustamlakachilikning nafaqat siyosiy-iqtisodiy, balki ruhiy va madaniy asoratlarini fosh etishni o‘z oldiga bosh maqsad qilib qo‘yadi.

Postkolonial nazariyaning asoschilaridan biri Eduard Said o‘zining mashhur "Orientalizm" asarida ta’kidlaganidek, g‘arb imperiyalari yoki markaziy tuzilmalar o‘z hukmronligini o‘rnatishda nafaqat geografik hududlarni, balki "sharq" yoki "chekka hudud" haqidagi noto‘g‘ri, qaram tushunchalarni ham ongimizga singdiradi:

«Mustamlakachilik faqatgina jismoniy zo‘ravonlik yoki ma’muriy boshqaruv bilan cheklanmaydi; u markaz va periferiya o‘rtasidagi tafakkur shakllarini, madaniy diskursni ham o‘z nazoratiga oladi».[2:12]

O‘zbek adabiyotshunosligida ham mustamlakachilik va uning asorati mavzusi millatning o‘zligini yo‘qotmaslik, til va ruhiyat tushunchalari bilan bog‘liq holda asrlar davomida tahlil etilmoqda. Xususan, VIII asrda Arab xalifiligining Movarounnahrni zabt etishi mintaqada ulkan sivilizatsion o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Bu jarayon bir tomondan islom dinining kirib kelishi va yuksak ma’rifiy

uyg‘onishga asos solgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy qadimiy madaniyat, yozuv va urf-odatlarga nisbatan keskin tazyiqlar bilan kechdi.

Abu Rayhon Beruniy o‘zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida arab sarkardasi Qutayba ibn Muslimning mahalliy madaniyatni yo‘q qilishga qaratilgan siyosatini achinish bilan eslaydi. Beruniy xorazmliklarning yozuvi, tili va olimlarini qanday qilib qirishgani haqida yozar ekan, mustamlakachilikning ilk bosqichidagi madaniy genotsid fojiasini va uning millat ma’naviyatiga yetkazgan zararini ochib beradi:

«Qutayba Xorazm yozuvini yaxshi biladigan, ularning rivoyatlarini saqlovchi va bu ilm-fanni o‘rgatuvchi kishilarni halok etdi, tubdan yo‘q qilib yubordi. Natijada bu ishlar qorong‘ulikka botib ketdi, islom davridagi xalqlarning tarixi haqida haqiqatni bilib bo‘lmay qoldi».[3:48]

XIII asrda Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ullar istilosi Movarounnahrni qon va vayronagarchilikka g‘arq qildi. Bu bosqin jismoniy qirg‘inlardan tashqari, xalq tafakkurida ulkan ruhiy tushkunlik — muvozanatning mutlaq buzilishini keltirib chiqardi. Shaharlar vayron bo‘lib, ilm-fan markazlari o‘tga tashlandi. Bu davr fojiasi o‘sha davr solnomalari va mumtoz adabiyotda, xususan, Mahmud Koshg‘ariy va Nosiruddin Rabg‘uziy asarlarida, shuningdek, keyingi davr tarixiy dostonlarida aks etdi. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida ham mo‘g‘ullar istilosining asoratlari va temuriylar davridagi uyg‘onish jarayonlari qiyosiy tarzda yoritilib, xalq boshiga tushgan og‘ir sinovlar tahlil qilinadi:

«Chingizxon Movarounnahrni olg‘on vaqtda... har shahar va elga muncha balo va ofatlar tushdi».[4:24]

XVI asr boshlarida Temuriylar saltanati o‘rniga Shayboniylar sulolasining kelishi mintaqada yangi siyosiy tuzumni yuzaga keltirdi. Muhammad Solihning "Shayboniynoma" dostonida aks etganidek, bu davr mustamlakachilik emas, balki sulohiy almashinuv va madaniy muvozanatni saqlashga intilish davri sifatida xarakterlanadi.

«Keldi Shayboniyg‘a davru saltanat, Bo‘ldi elga yor ul vaqti nasib va adolat».[5:112] Bu davr adabiyotida mustamlakachilik emas, ko‘proq sulolaviy almashinuv, davrlar kesishmasidagi ma’naviy izlanishlar va madaniy muvozanatni saqlashga intilish ustun turadi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Chor Rossiyasining Turkistonni bosib olishi hamda uning mantiqiy davomi bo‘lgan XX asr Sovet totalitar tuzumi o‘zbek xalqi taqdiriga eng og‘ir, tizimli va niqoblangan mustamlakachilik asoratlarini olib keldi. Avvalgi harbiy istilolardan farqli o‘laroq, rus-sovet imperiyasi o‘lka xalqlarini faqat jismonan bo‘ysundirish bilan cheklanmay, ularni iqtisodiy qaram qilish, milliy ongni transformatsiya qilish, til va dinni yo‘q qilish siyosatini yuritdi. O‘zbek

adabiyotshunosligida mustamlakachilik asorati deganda, eng avvalo, mana shu davr millat taqdirida keltirib chiqargan ma’naviy bo‘hron va ruhiy sindirilishning badiiy in’ikosi tushuniladi. Sovet mustamlakachiligi "baynalmilalchilik", "xalqlar do‘stligi" va "ma’rifatparvarlik" kabi soxta shiorlar ostida milliy o‘zlikni yemirishga qaratilgan xavfli siyosatni olib bordi.

Bu davr fojiasi milliy adabiyotimizda jadidchilik harakati namoyondalarining asarlarida o‘zining haqqoniy fosh etilishini topdi. Jadidlar mustamlakachilikni millatni ma’naviy, madaniy va iqtisodiy jihatdan yo‘q qilishga qaratilgan fojia deb baholadilar. Jumladan, Vadud Mahmud o‘zining 1924 yilda yozilgan "Mustamlakachilik o‘z yo‘lida" nomli maqolasida imperiya siyosatining asl mexanizmlarini ochib berib, xalqning o‘z ixtiyori bilan rivojlanish huquqidan mahrum etilishini shunday ta’riflaydi:

«Bir yoqdan bir mamlakat o‘zi o‘z ixtiyori bilan o‘smasa, unda iqtisodiy tarmog‘i hosil bo‘lmaydir. Chunki u mamlakatning boyligi uchun ishlaniladir, ...»[5:7]

Sovet davri tazyiqlariga qaramay, jadidlar qoldirgan meros mustamlakachilik asoratining asl mohiyatini ko‘rsatdi. Milliy ongni sindirish va tarixdan judo qilish inson ruhiyatidagi muvozanatni izdan chiqardi.

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotshunosligida totalitar tuzum, mustamlakachilik va uning fojiali oqibatlari tanqidiy-tahliliy ruhda o‘rganilib, yetakchi olimlar tomonidan ilmiy muomalaga kiritildi. Xususan, adabiyotshunos S. Quronov o‘zining tadqiqotlarida mustaqillik davri romanchiligida shaxs erkinligining cheklanishi va mustamlakachilik keltirib chiqargan ma’naviy tanglik masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilib, sovet mafkurasi singdirgan biryoqlama qoliplardan voz kechish zaruratini asoslab bergan.

Professor I. G‘aniyevning ilmiy qarashlariga ko‘ra, mustaqillik davrida yaratilgan epik asarlarda milliy o‘zlikni anglash va tarixiy xotirani tiklash masalasi yangi bosqichga ko‘tarilgan. Mustamlakachilik davrida qurbon qilingan ziyolilar taqdiri, vatanjudalik va qatag‘on motivlari milliy travmani davolashning ilmiy-estetik vositasi sifatida baholandi. Bu kabi ilmiy-nazariy yondashuvlar mustamlakachilik siyosatining xalq ma’naviy olamiga yetkazgan og‘ir asoratlarini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan xolis ochib berishga xizmat qiladi. Shu bois, bugungi postkolonial yondashuv millat taqdirini anglash, tarixiy xotirani tiklash va ichki qullik kompleksidan xalos bo‘lish g‘oyalarini yoritishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalariga ko‘ra, mustamlakachilik siyosati faqatgina geosiyosiy hududlarni o‘zlashtirish yoki iqtisodiy resurslarni talon-toroj qilish bilan cheklanmay, balki xalqlarning tili, madaniyati, tarixiy xotirasi hamda milliy o‘zligini

yemirishga qaratilgan tizimli va uzoq muddatli transformatsiya jarayoni ekanligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi. Antik davrdan boshlab to sovet totalitar tuzumigacha bo‘lgan tarixiy bosqichlarning qiyosiy tahlili imperatorlik markazlari tomonidan qo‘llanilgan zo‘ravonlik mexanizmlari va ularning o‘zbek xalqi ma’naviy olamiga yetkazgan fojiali oqibatlarini ochib berdi.

Postkolonial nazariya tamoyillari va mumtoz hamda zamonaviy manbalar asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mustamlakachilikning eng xavfli asorati tashqi siyosiy-iqtisodiy qaramlikdan tashqari, jamiyat ongida shakllanadigan "internalizatsiyalashgan qaramlik" (ichki qullik kompleksi) va ma’naviy bo‘hronlardan iboratdir.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, o‘tmishning og‘ir sinovlari va mustamlakachilik asoratlarini xolis ilmiy-falsafiy idrok etish, tarixiy xotirani tiklash hamda zamonaviy postkolonial metodologiyalar asosida tadqiqotlarni davom ettirish milliy tafakkur erkinligini ta’minlash va ma’naviy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Quronov S. Romanda inson. – Andijon: Ilmiy bitiklar, 2024. – B. 45–48.
2. G‘aniyev I. Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligida tarixiy xotira va milliy o‘zlikni anglash konsepsiyasi // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. – 2022. – 3-son. – B. 12–19.
3. Karimov B. Badiiyat nuri. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2020. – B. 112.
4. Tasit P. K. Agrikola. – Moskva: Nauka, 1989.
5. Said E. W. Orientalism. – New York: Pantheon Books, 1978. – B. 7–9.
6. Beruniy A. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. / Tanlangan asarlar. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1968. – B. 48.
7. Ziyovuddinov Z. Boburnoma: Tarixiy-geografik sharhlar. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 45.
8. Bobur Z. M. Boburnoma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – B. 24.
9. Muhammad Solih. Shayboniynoma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – B. 112.
10. Vadud Mahmud. Mustamlakachilik o‘z yo‘lida // “Maorif va o‘qituvchi” jurnali, 1924.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA RAQAMLI IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISH: KOMPONENTLARi VA XORIJIY TAJRIBA

Sotbarova Dilfuza Ilhom qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Pedagogika” kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchida raqamli ijodkorlikni shakllantirish muammosi kompetentsiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Ushbu sifatning tarkibiy komponentlari ochib beriladi, uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar tizimlashtiriladi va xorijiy ta’lim tizimlarida qo‘llanilayotgan TPACK hamda DigCompEdu modellari asosida qiyosiy tahlil o‘tkaziladi. Tadqiqot yakunida oliy ta’lim amaliyotiga tatbiq etish mumkin bo‘lgan aniq takliflar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli ijodkorlik, kompetentsiyaviy yondashuv, bo‘lajak o‘qituvchi, TPACK, DigCompEdu, oliy ta’lim, pedagogik shart-sharoit, innovatsion faoliyat.

Abstract. The article examines the issue of fostering digital creativity in prospective teachers from the perspective of the competency-based approach. It outlines the structural components of this quality, systematizes the pedagogical conditions that facilitate its development, and presents a comparative analysis based on the TPACK and DigCompEdu models used in foreign education systems. The study concludes with specific recommendations for implementation in higher education practice.

Keywords: digital creativity, competency-based approach, prospective teacher, TPACK, DigCompEdu, higher education, pedagogical conditions, innovative activity.

1. Muammoning qo‘yilishi. Ta’lim tizimini raqamlashtirish o‘qituvchidan yangicha kasbiy sifatni — raqamli vositalar yordamida original, nostandart pedagogik yechimlar taklif eta olish qobiliyatini talab qilmoqda. Aksariyat hollarda “raqamli savodxonlik” va “raqamli kompetentlik” tushunchalari yetarli deb hisoblanadi, biroq bular texnik ko‘nikmalarni anglatadi, xolos. Ijodiy komponentsiz raqamli kompetentlik o‘qituvchini faqat tayyor vositalarni qo‘llovchi shaxsga aylantiradi, uni yaratuvchi subyekt darajasiga ko‘tarmaydi. Shu sababli “raqamli ijodkorlik” kategoriyasini alohida pedagogik hodisa sifatida ajratib tadqiq qilish zaruriyati tug‘iladi.

2. Tushunchaning nazariy talqini. Xorijiy adabiyotlarda bu masala texnologiya va ijodkorlikning o‘zaro ta’siri nuqtai nazaridan yoritiladi. D. Henriksen, P. Mishra va P. Fisser texnologik vositalarni ijodiy pedagogik faoliyatning tarkibiy qismiga aylantirish 21-asr ta’limining tizimli talabi ekanini asoslashadi [1, 29-b.]. P. Mishra, D. Henriksen va R. Mehta esa ijodkorlikni o‘qituvchining kasbiy rivojlanish jarayoniga uzviy bog‘lab, uni alohida trening emas, balki doimiy amaliyot sifatida talqin qilishadi [2, 130-b.]. Yevropa Ittifoqining DigCompEdu hujjatida esa raqamli kompetentlikning oltita sohasi orasida “ta’lim resurslarini yaratish va moslashtirish” alohida ajratilib, bu bevosita ijodiy faoliyat bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi [3, 16-b.]. Ushbu uch manba birgalikda raqamli ijodkorlikni “texnologik bilim + pedagogik mahorat + ijodiy fikrlash”ning kesishmasi sifatida ko‘rsatadi. Mahalliy tadqiqotchilar orasida N.B. Berdiyorova globallashuv sharoitida bo‘lajak pedagoglarni raqamli ijodiy faoliyatga yo‘naltiruvchi beshta tamoyilni ishlab chiqqan [4, 48-b.], A.A. Abdulxayev esa evristik texnologiyalar, loyiha-tadqiqot faoliyati va ijodiy simulyatsiyalarning bo‘lajak pedagog ijodkorligiga ta’sirini tajriba yo‘li bilan o‘rgangan [5]. Ammo bu ishlarning har biri muammoning faqat bir qirrasini yoritadi — yaxlit tarkibiy model hamon shakllanmagan.

3. Tarkibiy komponentlar. O‘tkazilgan tahlil raqamli ijodkorlikni to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponent orqali izohlash imkonini beradi. Motivatsion-ijodiy komponent — talabaning raqamli vositalar yordamida yangi narsa yaratishga ichki intilishi. Kognitiv komponent — raqamli texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari haqidagi bilimlar tizimi. Faoliyatli-ijodiy komponent — bu bilimlarni amalda original mahsulotga (interaktiv dars, multimedia loyiha, ta’limiy ilova) aylantira olish ko‘nikmasi. Refleksiv-baholash komponenti — yaratilgan mahsulotni tanqidiy baholash va takomillashtirish qobiliyati [6, 86-b.]. Bu komponentlar ketma-ket emas, balki bir-birini qo‘llab-quvvatlovchi tsiklik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi: motivatsiya bilimga, bilim faoliyatga, faoliyat esa reflekssiyaga olib keladi, reflekssiya esa yangi motivatsiyani uyg‘otadi.

4. Pedagogik shart-sharoitlar. Ushbu tsiklni ta’lim jarayonida barqaror ishga tushirish uchun bir qator shart-sharoitlar zarur: o‘quv mazmunini raqamli resurslar bilan boyitish; talabalarni loyihaviy-ijodiy topshiriqlarga tizimli jalb etish; o‘qituvchi-talaba hamkorligini raqamli platformalar orqali tashkil etish; individual ijodiy yo‘nalishlarni loyihalashtirish imkoniyati; talaba mahsulotlarini ekspert va jamoatchilik baholovidan o‘tkazish mexanizmi [6, 90-b.]. Muallif tomonidan o‘tkazilgan tajriba-sinov ishida aynan shu shart-sharoitlar joriy etilgan guruhlarda yuqori (ijodiy) darajaga erishganlar ulushi 15 foizdan 60 foizgacha oshgani qayd etilgan [7], bu esa shart-sharoitlarning nazariy emas, amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

5. Xorijiy tajriba bilan qiyosiy nuqta. Diqqatga sazovor jihati shundaki, rivojlangan ta’lim tizimlarida raqamli ijodkorlik alohida fan sifatida emas, balki barcha fanlarga singdirilgan ko‘ndalang kompetentsiya sifatida shakllantiriladi [2, 141-b.]. Mahalliy amaliyotda esa bu integratsiya hali tizimli tus olmagan — raqamli vositalar ko‘pincha faqat axborot uzatish vositasi sifatida qo‘llaniladi, ijodiy mahsulot yaratish vositasi sifatida emas. Bu farqni bartaraf etish uchun fanlararo loyihaviy topshiriqlarni o‘quv dasturlariga kiritish birinchi galdagi vazifadir.

6. Amaliyotga tatbiq etish yo‘llari. Tahlil natijalaridan kelib chiqib, quyidagi aniq qadamlar taklif etiladi: pedagogika yo‘nalishlariga “Raqamli ijodkorlik asoslari” elektiv kursini kiritish; talaba loyihalarini portfolio tizimida, aniq mezon va indikatorlar asosida baholash; professor-o‘qituvchilar uchun raqamli-pedagogik malaka oshirish dasturlarini muntazamlashtirish; talabalar o‘rtasida raqamli ijodiy g‘oyalar tanlovlarini yiliga kamida ikki marta o‘tkazish. Bu chora-tadbirlar alohida-alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida amalga oshirilgandagina barqaror natija beradi.

Xulosa. Raqamli ijodkorlik — bo‘lajak o‘qituvchining zamonaviy kasbiy tayyorgarligini belgilovchi, to‘rt komponentli, tsiklik xususiyatga ega pedagogik hodisadir. Uni rivojlantirish nafaqat texnik vositalarni o‘rgatish, balki motivatsiya, bilim, faoliyat va reflekssiyani uzviy bog‘lovchi maxsus pedagogik shart-sharoitlar tizimini yaratishni talab qiladi. Xorijiy tajribani (TPACK, DigCompEdu) mahalliy kontekstga moslashtirish, shuningdek fanlararo integratsiyani kuchaytirish — bu yo‘nalishdagi kelgusi tadqiqotlar va amaliy islohotlarning ustuvor vazifasi bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekistonda «Bir million sun’iy intellekt yetakchisi» loyihasi boshlandi // gov.uz. – 21.10.2025. – URL: https://gov.uz/oz/bv/news/view/94736
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari: monografiya. – Toshkent: Fan, 2007.
3. Abduqodirov A.A., Pardayev A. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti: monografiya. – Toshkent: Fan, 2009. – 145 b.
4. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining bilim, ko‘nikmalarini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi: monografiya. – Toshkent: TDPU rizografiyasi, 2014.
5. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitish samaradorligini oshirish yo‘llari. – Toshkent, 2010.

6. Henriksen D., Mishra P., Fisser P. Infusing creativity and technology in 21st century education: A systemic view for change // Educational Technology & Society. – 2016. – Vol. 19, №3. – P. 27–37.
7. Mishra P., Henriksen D., Mehta R. Creativity, digitality, and teacher professional development: Unifying research, theory, and practice // TPACK: Breakthroughs in Research and Practice / Ed. by M. Khosrow-Pour. – Hershey: IGI Global, 2019. – P. 123–154. – DOI: 10.4018/978-1-5225-7918-2.ch006.
8. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu / Ed. by Y. Punie. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 95 p. – DOI: 10.2760/159770.
9. Berdiyorova N.B. Bo‘lajak pedagoglarida globallashuv davrida raqamli ijodkorligini shakllantirish tamoyillari // Golden Brain. – 2026. – Vol. 4, №10. – B. 46–53. – DOI: 10.5281/zenodo.20670896.
10. Abdulxayev A.A. Bo‘lajak pedagoglarda ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning innovatsion usullari // “Boshlang‘ich ta’lim: innovatsion g‘oyalar va ilmiy-metodik taraqqiyot strategiyalari” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Namangan, 2025. – DOI: 10.5281/zenodo.15668823.
11. Musurmanov R., Sotbarova D. Bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli ijodkorlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari // Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar ilmiy jurnali. – 2026. – №3. – B. 84–93.
12. Sotbarova D.I. Talabalarni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlashda raqamli ijodkorlikni rivojlantirishning nazariy asoslari // Jamiyatning raqamli transformatsiyasi sharoitida pedagog farovonligi: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 1-qism. – Toshkent: CHDPU, 2026. – B. 1154–1157.

O‘ZBEK XALQ QAHRAMONLIK DOSTONLARI OBRAZLARIDA AXLOQIY QARASHLARNING BADIIY IFODASI (“QIRONXON” DOSTONI MISOLIDA)

Musayev Shohsuvor Tursin o‘g‘li
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek xalq qahramonlik dostonlari obrazlar tizimida vatanparvarlik, sadoqat, or-nomus, adolat va insonparvarlik kabi axloqiy qadriyatlarning badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Tadqiqot “Alpomish” va “Qironxon” dostonlari materiallari asosida olib borilib, “Qironxon” dostonidagi Odirboy va bolalar bilan bog‘liq lavha misolida yetimparvarlik, tavba va ruhiy poklanish g‘oyalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: xalq dostoni, epik obraz, alp, axloqiy ideal, or-nomus, sadoqat, tavba, yetimparvarlik, Er Xizr.

Annotation. This article analyzes the artistic expression of moral values such as patriotism, loyalty, honor, justice, and humanism in the system of characters in Uzbek heroic folk epics. The study is based on the epics "Alpomish" and "Qironxon." Using the episode of Odirboy and the children in "Qironxon" as an example, it examines the ideas of caring for orphans, repentance, and spiritual purification.

Keywords: folk epic, epic character, alp (epic hero), moral ideal, honor (or-nomus), loyalty, repentance, caring for orphans, Er Khizr.

Kirish. Xalq dostonlari millatning ma’naviy olamini, asriy orzu-istaklarini va yuksak axloqiy ideallarini o‘zida mujassam etgan ulkan badiiy merosdir [2:112]. Har bir epik asar markazida turgan qahramon obrazlari shunchaki badiiy to‘qima mahsuli bo‘lmay, balki xalqning “komil inson” haqidagi qarashlarining ko‘zgusi hisoblanadi. O‘zbek xalq dostonchiligida, xususan, qahramonlik dostonlarida axloqiy tamoyillar syujet chiziqlarining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qiladi [3:35]. Epik obrazlar tizimida xalqning adolat, sadoqat, vatanparvarlik, or-nomus va gumanizm kabi fundamental qadriyatlari o‘zining mukammal badiiy ifodasini topgan [5:98].

Dostonlar uzoq asrlar davomida baxshilar tomonidan og‘zaki ijro etilib, avloddan-avlodga o‘tgan. Shu jarayonda ular xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va hayotiy hikmatlarini o‘zida jamlagan [4:27]. Shuning uchun dostonlardagi obrazlarni o‘rganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki xalq ma’naviyati va tarbiya tarixini anglash uchun ham katta ahamiyatga ega. Maqolaning maqsadi – qahramonlik dostonlari obrazlaridagi axloqiy qarashlarning asosiy qatlamlarini aniqlash hamda “Qironxon” dostonidan olingan parcha asosida ularning badiiy ifoda usullarini tahlil qilishdir.

1. Alp obrazi va vatanparvarlik g‘oyasi. Doston poetikasida markaziy o‘rinni egallovchi alp va qahramon obrazlari, eng avvalo, vatanparvarlik va el-yurt oldidagi burch tushunchalari bilan shakllanadi [3:41]. Epik qahramonning tug‘ilishi, g‘ayritabiiy kuch-qudratga ega bo‘lishi va uning harbiy yurishlari zamirida xalqning o‘z ozodligi va tinchligini himoya qilishga bo‘lgan axloqiy intilishi yotadi. “Alpomish” va “Qironxon” kabi dostonlarda bosh qahramonning xatti-harakatlari faqat jismoniy ustunlik bilan emas, balki ma’naviy haqiqat bilan asoslanadi [4:63]. Qahramon o‘z shaxsiy manfaatidan ko‘ra jamoa, ya’ni el-yurt manfaatini ustun qo‘yadi.

Shu jihatdan “alp” obrazi axloqiy etalon darajasiga ko‘tariladi: u nafaqat jismonan baquvvat, balki so‘ziga sodiq, dushmaniga nisbatan ham adolatli va o‘z yurtining har bir qarich tuprog‘i uchun mas’ul shaxsdir [2:118]. Epik idealga ko‘ra, chinakam qahramonlik faqat jang maydonidagi jasorat emas, balki nafsoniy istaklarni jilovlay bilish va ma’naviy sinovlardan mardona o‘ta olishdir [5:101]. Bu fikr dostonlarda qahramonning kuchi doimo adolat va burch tuyg‘usi bilan uyg‘un holda tasvirlanishida yaqqol ko‘rinadi.

2. Sadoqat va va’daga vafodorlik. Dostonlardagi axloqiy qarashlarning yana bir muhim qatlamini sadoqat va va’daga vafodorlik tashkil etadi. Epik tafakkurda va’da berish va uning ustidan chiqish insoniy mohiyatning eng yuksak belgisi hisoblanadi [3:57]. Bu xususiyat nafaqat bosh qahramonlarda, balki ularning umr yo‘ldoshlari, do‘stlari va hatto epik otlar – Boychibor va G‘irot obrazlarida ham namoyon bo‘ladi [4:71].

Ayol obrazlari – Barchinoy, Xolbeka, Bo‘tako‘z va boshqalar dostonlarda oqilalik, ibo va sadoqat timsoli bo‘lib, qahramonni ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi [2:121]. Ayolning sadoqati oila va millat mustahkamligining asosi sifatida talqin qilinadi. Aksincha, bevafolik, xiyonat va sotqinlik eng og‘ir axloqiy jinoyat sifatida qattiq qoralanadi. Bu xalqning asrlar davomida shakllangan ijtimoiy-axloqiy kodeksi dostonlar vositasida avloddan-avlodga uzatilganidan dalolat beradi [5:104].

3. Ezgulik va yovuzlik qarama-qarshiligi. Dostonlarda yovuzlik va ezgulik o‘rtasidagi kurash axloqiy qarama-qarshilik shaklida namoyon bo‘ladi. Salbiy obrazlar – yovuz podshohlar, devlar, ayyor vazirlar xalq nafratiga uchragan illatlar: zulm, adolatsizlik, ochko‘zlik va kibrning tashuvchilaridir [3:63]. Ular qahramon yo‘liga to‘siq qo‘yish orqali aslida ezgu axloqiy me’yorlarni sinovdan o‘tkazadilar. Shu bois qahramonning g‘alabasi shunchaki jismoniy g‘alaba emas, balki adolatning zulm ustidan, ma’naviyatning jaholat ustidan qozongan tantanasi sifatida talqin etiladi [4:88].

Shuningdek, dostonlarda mehmondoshlik, kattaga hurmat, kichikka izzat kabi kundalik axloq me'yorlari ham asar to‘qimasiga singdirilgan. Qahramonning oqsoqollar duosini olishi yoki musofirga yordam berishi uning axloqiy portretini to‘ldiradi va xalq dunyoqarashidagi “duo bilan el ko‘karar” degan hikmatni badiiy tasdiqlaydi [5:107].

4. Or-nomus tushunchasi va qahramon ruhiyati. Axloqiy-estetik qadriyatlar tizimida “or-nomus” tushunchasi markaziy o‘rin tutadi. Epik qahramon uchun o‘lim nomusni yo‘qotishdan ko‘ra yengilroqdir va bu qarash dostonlarning pafosini belgilab beradi [1:12]. Qahramonning dushman asoratida qolishi yoki el-yurtning xo‘rlanishi uning ichki olamida kuchli psixologik dramatizmni yuzaga keltiradi. Bu o‘rinda doston poetikasi insonning ichki kechinmalarini tashqi harakatlar bilan uyg‘unlashtiradi: qahramonning ruhiy kamoloti uning jismoniy sinovlari bilan barobar kechadi [4:94]. Shu tariqa, dostonlar tinglovchida estetik zavq uyg‘otish bilan birga, uni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalovchi ma'naviy maktab vazifasini ham o‘taydi.

5. “Qironxon” dostonidan parcha tahlili. Yuqorida qayd etilgan axloqiy tamoyillar “Qironxon” dostonidagi Odirboy va bolalar uchrashuvi lavhasida alohida badiiy ifodani topgan. Parchada bolalar chol bobo – Odirboyga murojaat qilib, o‘z qismatidan shikoyat qiladilar:

Biz bilmaymiz ota bilan enani,
Katta bo‘ldik mana cho‘lda yalang‘och.
Enam kiyik, otam cho‘lda er Xizr,
Kiyik emib katta bo‘ldik yalang‘och [1:52].

Avvalo, bu satrlarda inson taqdiri va ilohiy iroda o‘rtasidagi bog‘liqlik, qanoat hamda shukronalik kabi axloqiy me'yorlar markaziy o‘rin tutadi. Bolalarning “enam kiyik, otam cho‘lda er Xizr” degan so‘zlari xalqning g‘arib va yetimlarga nisbatan yuksak insoniy qarashlarini ochib beradi. “Er Xizr” obrazi xalq tushunchasida ma'naviy homiylik, yo‘lboshchilik va “yaxshilik har doim g‘olib keladi” degan axloqiy optimizmni ifodalaydi [6:176]. Kishi qanchalik og‘ir – yalang‘och, kimsasiz sharoitda bo‘lmasin, uning ma'naviy ildizi tabiat (kiyik) va muqaddas kuchlar bilan bog‘lanishi insonning qadr-qimmati ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki sabr-toqati va pokiza ruhiyati bilan belgilanishini ko‘rsatadi [3:72].

Parchadagi “Bir mardni nomardga qilmasin muhtoj” satri o‘zbek xalqining fundamental axloqiy kodeksi – or-nomus va erksevarlik g‘oyasini aks ettiradi [1:52]. Xalq tushunchasida mardlik faqat jismoniy kuch emas, balki birovning haqqiga ko‘z tikmaslik va o‘zining mustaqil qadrini saqlashdir. Shu sababli “nomardga muhtoj bo‘lish” inson ma'naviy inqirozining eng quyi nuqtasi sifatida qoralanadi [5:110].

Odirboy obrazi orqali esa ota-onalik mas'uliyati va rahmdillik kabi fazilatlar yoritiladi. Uning bolalarni ko'rib ko'ziga yosh olishi va barmoqlarini tishlashi shunchaki hissiyot emas, balki xalqning bolajonlik va birovning dardiga hamdard bo'lish (empatiya) kabi axloqiy qadriyatlarining badiiy in'ikosidir [1:52]. Dostonda shoir tasvir vositalarini – ichki holatni ifodalovchi harakat detallari va ramziy obrazlarni – mohirona uyg'unlashtirgan [4:97].

Parchaning yakuniy qismida tavba va ruhiy poklanish masalasi yuksak badiiy-axloqiy darajada hal qilingan. Odirboyning bolalarga "chin sidqidil ota bo'lishi" va natijada "badandan to'kilgan gunohlari" haqidagi tasvirlar islomiy axloq tushunchalari bilan sug'orilgan [1:52]. Ya'ni inson qilgan xatolari va gunohlaridan faqat ezgu ishlar, yetimning boshini silash va samimiy mehr orqali xalos bo'lishi mumkinligi uqtiriladi [6:178]. Bu esa xalq dostonlari nafaqat qahramonlik sarguzashtlari, balki jamiyatning axloqiy muvozanatini saqlab turuvchi ma'naviy yo'riqnoma ekanligini isbotlaydi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qahramonlik dostonlarida mardlik, yetimparvarlik, tavba va sadoqat kabi tushunchalar obrazlar xatti-harakatida shunchaki fon emas, balki doston poetikasining asosi sifatida xizmat qiladi [2:125]. Dostonlardagi har bir obraz xalqning "yaxshi" va "yomon" haqidagi tushunchalarini badiiy tamg'alagan bo'lib, ular millatning axloqiy o'zligini saqlab turuvchi fundamental manba hisoblanadi [3:80]. Obrazlar tizimidagi axloqiy-estetik tamoyillar bugungi kun uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan; ular insoniy kamolot va ijtimoiy adolat g'oyalarini targ'ib qilishda katta ilmiy va tarbiyaviy salohiyatga ega [5:112]. Shu bois dostonlarni tadqiq etish milliy tafakkur taraqqiyotini anglashda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. Uchinchi jild. Qironxon dostoni. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 52 b.
2. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: O'qituvchi, 1990. – 352 b.
3. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.T. O'zbek xalq qahramonlik eposi. – M.: Goslitizdat, 1947. – 400 b.
4. Mirzayev T. "Alpomish" dostonining o'zbek variantlari. – T.: Fan, 1968. – 256 b.
5. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: Noshir, 2010. – 280 b.
6. Jo'rayev M. O'zbek xalq dostonlarida milliy-ma'naviy qadriyatlar talqini. – T.: Fan, 2008.

HAZINIY IJODIDA KOMIL INSON G'OYASI VA ILOHIY ISHQ TALQINI

Hayitov Muhammad To'ra o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi.
mukhammadkhayitov0703@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Haziniy Xo'qandiy ijodida ilohiy ishq, tasavvufiy tafakkur va komil inson g'oyasining talqini keng tahlil qilinadi. Shoir lirikasida ishqni insonni ruhiy poklovchi va ma'naviy kamolotga yetaklovchi kuch sifatidagi o'rni yoritib beriladi. Haziniy she'riyatida insonning Haqqa intilishi va komillikka erishish yo'llari ochib beriladi.Bu bo'ladimi

Kalit so'zlar: hadislar, she'riyat, Islom, tariqat, ilohiy ishq, komil inson, tasavvufiy ilm.

Abstract: This article presents a comprehensive analysis of the interpretation of divine love, Sufi thought, and the concept of the "perfect human" in the works of Haziniy Khoqandi. It highlights the role of love in the poet's lyrics as a force that spiritually purifies the individual and leads to spiritual perfection. Furthermore, the article explores the themes of humanity's yearning for the Divine and the paths to attaining perfection within Haziniy's poetry.

Keywords: Hadiths, poetry, Islam, Tariqa, divine love, the perfect human (insan-i kamil), Sufi knowledge.

Аннотация: В данной статье представлен всесторонний анализ трактовки божественной любви, суфийских идей и концепции «совершенного человека» в творчестве Хазини Хоканди. Особое внимание уделяется роли любви в лирике поэта как силы, духовно очищающей личность и ведущей к духовному совершенству. Кроме того, в статье рассматриваются темы стремления человека к Божественному и пути достижения совершенства, отраженные в поэзии Хазини.

Ключевые слова: хадисы, поэзия, ислам, тарикат, божественная любовь, совершенный человек (инсан-и камиль), суфийское знание.

Xaziniy lirikasining tub mohiyati ilohiy ishq va tasavvufiy tafakkur bilan chuqur sug'orilgan bo'lib, unda inson qalbining eng yuksak intilishi — Haqqa, ya'ni haqiqiy ma'shuq Allohga yetishish orzusi tarannum etiladi. Shoir nazarida muhabbat oddiy hissiy kechinma emas, balki ruhiy poklanish, ma'naviy kamolot va ilohiy haqiqat sari eltuvchi muqaddas yo'ldir. Uning asarlarida majoziy ishq — insoniy muhabbat ko'pincha bir vosita, bir ko'prik sifatida talqin qilinadi. Ya'ni bandaning yor timsolida sevgan go'zali aslida Haq jamolining aksidir. Shu bois oshiqning iztirobi,

hijron azobi, visolga intilishi — barchasi ilohiy ishq sari yo‘naltirilgan ichki safar sifatida talqin etiladi. Haziniy Xo‘qandiy ijodida nafsni jilovlash, dunyoviy havaslardan voz kechish, sabr va riyozat orqali ruhni poklash g‘oyalari markaziy o‘rin tutadi. Ishq — yorug‘ olamda insonni yashashga undovchi, unga ma’no va quvvat bag‘ishlovchi eng buyuk umiddir. Bu umid yoshlikning nozik tuyg‘ulari, beg‘ubor hislari va hayotga bo‘lgan samimiy ishonchi bilan uyg‘unlashgan holda inson qalbida shakllanadi. Haziniy esa ana shu go‘zal tuyg‘uni, shu bilan birga uning dardli va zavqli jihatlarini o‘z ijodida nihoyatda teran va nafis tarzda ifodalaydi. Shoir ishqni nafaqat hissiy kechinma, balki ruhiy kamolotga yetaklovchi kuch sifatida talqin etadi. Uning g‘azallarida ishq timsoli turli qiyofalarda namoyon bo‘ladi: ba’zan u latofatli yor siymosida gavdalanib, insoniy muhabbatni ifodalasa, ba’zan esa ilohiy qahramon — ya’ni Haqning o‘zi sifatida talqin etilib, ilohiy ishqning yuksak mohiyatini ochib beradi. Shu tariqa, Haziniy ijodida muhabbat ikki olamni — insoniy va ilohiy dunyoni bog‘lovchi ko‘prikka aylanadi. Bu ko‘prik orqali inson qalbi nafaqat sevadi, balki poklanadi, yuksaladi va o‘zining asl ma’naviy manziliga intiladi.

Hazrat Haziniyning ko‘pgina g‘azallarida ishq falsafasi markazda turadi. “Oshiq elining dardiga hojati emas, tabib”,- misralari bilan boshlanuvchi g‘azali darhol o‘quvchini tasavvufiy kayfiyatga olib kiradi. Bu yerda dard — kamchilik emas, balki kamolot belgisi sifatida berilgan. Shu jihat uni oddiy sevgi she’ridan ko‘ra chuqurroq darajaga ko‘taradi. G‘azalda hijron, g‘am, kulfat kabi tushunchalar salbiy emas, balki oshiqning yo‘ldoshi sifatida tasvirlangan. Bu esa tasavvufga xos qarash — ya’ni inson ruhiy yetuklikka aynan sinov va iztirob orqali erishadi.

Oshiq elining dardiga hojat emas tabib,
Ovora bo‘lmagin yana hoziqni oxtarib.

Bu misrada “oshiq” oddiy sevuvchi emas, balki ishq yo‘lida kuygan, ruhiy kamolot sari intilayotgan inson sifatida tasvirlanadi. Uning “dardi” esa kasallik emas — u ilohiy ishqning alomati, qalbning uyg‘onganidan darakdir. “Tabib” esa bu yerda tashqi dunyo, aql yoki oddiy davolovchi kuch timsoli. Shoir aytmoqchi: oshiqning dardi shunday bir dardki, uni hech qanday tabib davolay olmaydi — chunki bu darddan qutulish emas, balki uni saqlash va chuqurlashtirish kerak. Shu sabab bu misra aslida yashirin tarzda shuni anglatadi: haqiqiy ishq egasi dardidan shikoyat qilmaydi, aksincha uni o‘zining eng katta boyligi deb biladi.

Dil illatining marhami oshiqning suhbati,
Hijroni dilrabo etar onlarni, bil, g‘arib.

Bu yerda “dil illati” — ishq dardi. Shoir aytmoqchi: bu dardni tabib emas, yana oshiqning o‘zi — ya’ni ishqni tushunadigan inson davolaydi. Chunki bu oddiy kasallik emas, ruhiy holat. Odatda hijron azob sifatida ko‘riladi, lekin bu yerda u

“dilrabo” — ya’ni go‘zal, maftunkor qilib ko‘rsatiladi. Ilohiy ishq, ya’ni inson qalbining Haqga bo‘lgan cheksiz muhabbati. Shoir oshiqni oddiy insoniy muhabbat egasi sifatida emas, balki Haq ishqida yonayotgan, ruhiy kamolot sari intilayotgan qalb egasi sifatida tasvirlaydi. Baytlarda:

- Dard va hijron oddiy azob emas, balki ruhni yuksaltiruvchi, qalbni poklovchi ne’mat sifatida berilgan.

- Oshiqning suhbati esa tabibning davosi kabi, qalbni tinchlantiruvchi, ishqni kuchaytiruvchi vositadir.

- G‘ariblik va sirli holatlar faqat haqiqiy oshiq uchun anglanadi — chunki ilohiy ishq har doim ichki tajriba va ruhiy sinov bilan birga keladi.

Ishq-muhabbat Haziniy g‘azalliyotining yetakchi mavzusi sanaladi. Bu ko‘hna va hamisha navqiron janr salohiyatli ijodkorning “doimiy hamrohi va arg‘umog‘i” edi. Shu bois u turkiy adabiyotda haqli ravishda “ko‘p va xo‘p” g‘azal yozgan buyuk shoir sifatida tan olinadi. Ulug‘ shoir ishq-muhabbat mavzusiga badiiy sayqal berish bilan o‘ziga qadar yaratilgan Sharq g‘azalnavislik an’anasini yangicha jilolarda berib o‘tgan.

Maning xor o‘lmakimga, do‘stlar, ul mahliqo bois,
Giriftor o‘lmakimga ham ketib sharmu hayo bois.

Bu satrlarda oshiqning dunyoviy qadriyatlar bilan uyg‘unmasligi tasvirlangan, balki, tasavvufiy talqinda oshiq Haqqa bag‘ishlangan qalb bilan yashaydi, shuning uchun u “xor” bo‘ladi. Yani oshiq dunyo bilan emas ruhiy olam bilan to‘qnashadi. Oshiq xor bo‘lish orqali nafsini jilovlaydi, o‘zini Alloh ishqiga butunlay topshiradi. Oshiqning sharm-u hayajoni ruhiy poklik va Haq ishqida yurakning hayrat va ehtirosini bildiradi. Har bir his-tuyg‘u Allohga intilish bilan ifodalanadi, bu esa tasavvufiy ma’noda qalbni safarbar qiladiva ruhni poklaydi.

Avaldinkim majoziy ishqida umrimni o‘tkardim,
Qayu yerda parivash bo‘lsa, ango oshno bois.

Shoir avval hayotining dastlabki davrida insoniy muhabbat, ya’ni majoziy ishq bilan vaqtini o‘tkazganini tan oladi. Bu davr tasavvufiy talqinda inson ruhini Haq ishqiga tayyorlash jarayoni sifatida tushuniladi. Majoziy ishq, ya’ni insoniy sevgi, oshiq qalbini ruhiy jihatdan shakllantiradi va nafsni yengishga yordam beradi. “Parivash” (yor yoki sevgi ramzi) esa, majoziy ishqning ramziy tasviri sifatida ishlatiladi.

Tasavvufiy nuqtai nazarda, u oshiqning qalbini ilohiy ishqqa intilishiga yo‘naltiruvchi vositadir. Shoir shuni ta’kidlaydiki, inson avval insoniy muhabbat orqali ichki olov va his-tuyg‘ularni uyg‘otadi:

Yurakda ishq o‘ti favvora urmakka sabab shuldur,
Qamartal’at yuzi-chun xurshidi olamnamo bois.

Bu baytlar ilohiy ishqning ichki olovi va uning butun olamga tarqalishini tasvirlaydi.

Bu satrda oshiqning yuragida ishq olovi yonayotgani ifodalanadi. Tasavvufiy talqinda, yurakdagi olov Haq ishqining ramzi bo‘lib, qalbni poklaydi, ruhni uyg‘otadi va insonni kamolot sari yetaklaydi. Bu olov — insonning ichki hayoti va ruhiy o‘sishi uchun zarur, chunki u nafsni jilovlaydi va qalbni Haqqa yo‘naltiradi. Haq ishqi inson qalbidan olamga tarqaladi, tabiat va koinot bilan uyg‘unlik yaratadi. Tasavvufiy nuqtai nazarda, oshiqning qalbida yonayotgan ilohiy ishq butun mavjudotga nur, hayot va uyg‘unlik bag‘ishlaydi.

Tushub boshig‘a savdo, kimsaga izhor etolmasman,

Bu sirni maxfiy aylab yurmoqa “qolu balo” bois.

Bu baytda oshiq qalbidagi ichki olov va sirli dard tasvirlangan. Shoir “tushub boshima savdo” deb boshlaydi, ya’ni qalbda kelib chiqqan ishq olovi boshini baland tutib, uni yashirishga majbur qiladi. Tasavvufiy talqinda, bu hol ruhiy tajriba va sirning belgisidir: haqiqiy ishq, insonni ichki dunyosi bilan yakkalashishga va uni Haq bilan yuzma-yuz bo‘lishga chorlaydi. Oshiq bu olovni dunyoga yoki boshqa odamlarga izhor eta olmaydi, chunki Haq ishqi – maxfiy, ichki va shaxsiy tajriba hisoblanadi. “Qol’u balo” iborasi ham tasavvufiy nuqtai nazarda juda ramziy: u sirni oshkor qilish, ishq olovini begonalarga ko‘rsatish ruhiy xavf va balo olib kelishini bildiradi. Haqiqiy oshiq uchun bu sir qalbdagi najot va tarbiya manbaidir. Shuningdek, bu bayt Haq ishqining tashqi ko‘rinishdan yiroq, ichki olov va sirli tabiatini ta’kidlaydi. Oshiq uchun ishq faqat qalb va ruhiy olam bilan bog‘liq, uni so‘zlar yoki tashqi harakatlar orqali to‘liq ifodalash mumkin emas. Bu sirni yashirish — ruhiy poklikni saqlash va nafsni jilovlashning bir qismi.

Tasavvufiy tomondan talqin qiladigan bo‘lsak:

1. Sir saqlash – Haq ishqining tabiati shundaki, uni faqat qalb sezadi, tashqi ko‘rinish va so‘zlar orqali emas.

2. Ichki olov – Ishq qalbni yondiradi, ammo uni boshqalarga ko‘rsatish xavf tug‘diradi.

3. “Qol’u balo” – Sirni oshkor qilmaslik ruhiy intizom va xavfsizlikni bildiradi.

4. Haq ishqi bilan yuzma-yuzlik – Oshiq o‘z sirini ichki olov orqali o‘zi bilan yuzlashtiradi, bu esa ruhiy kamolotga yetaklaydi.

Azaldin qomatingning naxliga - man mubtalo muhtoj, Qilurman justujo‘ birla bo‘lay deb oshno muhtoj

Ushbu bayt oshiqning qalbida ilk bosqichdagi ruhiy intilishni ko‘rsatadi. “Azaldin qomatingning naxli” — qalbning qadimiy, avvaldan shakllangan xohishlari va intilishlari. Oshiq bolalikdan boshlab Haqqa yo‘nalgan, ruhiy o‘sishga intilgan va Alloh ishqiga “mubtalo” bo‘lgan. Tasavvufiy talqinda bu bosqich — ruhni Haq ishqiga tayyorlash, qalbni poklash va dunyoviy bog‘lanishlardan ozod qilish davri.

Oshiq dunyoviy intilishlar bilan emas, balki ilohiy ishq bilan uyg‘unlashadi. Masalan, Yosh bir dervish yoshligidan ibodat va zikr bilan shug‘ullanadi. Har bir ibodat va duoda qalbi Alloh ishqi bilan to‘ladi, ruhiy uyg‘unlikka intiladi. Shu bilan u haqiqiy ishq yo‘lida tayyorlanadi

Nasib bo‘lg‘aymukin biz qullara vaslingni jomidin?

Hamisha muntazirda man bo‘lub shomu sabo muhtoj

Bu baytda oshiq Alloh huzuridagi “vasl (birlashish)” ni kutadi. U sabr bilan, ruhiy intilish bilan Haqqa yaqinlashadi. “Shomu sabo muhtoj” - oshiq har doim intilish, kutish va ilohiy ishqning olovida haqiqiy oshiq doimo Alloh ishqi bilan uyg‘un bo‘lishni istaydi. Vasl nafaqat ruhiy, balki qalbiy uyg‘unlikni bildiradi.Masalan, bir avliyo kechasi uzoq zikr qilmoqda va qalbida Alloh ishqini his qilmoqda. Har bir ibodat, har bir duoda u Haq huzuriga yaqinlashadi, vaslga intiladi. Shu kutish qalbni yanada polkaydi va ruhiy kamolotga yetaklaydi.

Ajab savdoi ishqing tushti boshimga, qarorim yo‘q,

Saning yo‘lingda bo‘lmishman ajab xoru fano muhtoj.

Oshiqning qalbida Haq ishqi oloviga o‘xshash tuyg‘ular paydo bo‘ladi. “Ajab savdoi ishq” — ruhiy kurash, dunyo bilan cheklovlarni tark etish, qalbni Haq ishqiga bag‘ishlash. Oshiq dunyoviy barqarorlikni yo‘qotadi, chunki uning qalbi faqat Alloh ishqida.

Fano va horlik — bu qalbni poklash va ilohiy ishqqa to‘liq berilish ramzi. Oshiq bu jarayonda o‘zini yo‘qotadi, dunyodan fano bo‘ladi, faqat Haq ishqiga muhtoj bo‘ladi. Bir dervish o‘z mulkini, boylik va martabasini tark qilib, Alloh ishqiga bag‘ishlaydi. Shu orqali u ruhiy kamolotga erishadi va qalbi toza bo‘ladi.

Yor hajrida kishi devona bo‘lmoq shunchalar,
Aqlu hushidin ajab begona bo‘loq shunchalar.

Ushbu g‘azalda shoir oshiqning qalbi yor uchun shunchalik ishtiyoq bilan to‘lib toshadi-ki, u aqldan adashadi, hushidan ketadi. “Begona bo‘lish” — bu klassik sevgi hikoyalarida Majnun, Farhod yoki Yusuf kabi qahramonlarning xarakteriga xos belgilar ekanligini tasdiqlaydi. Misol uchun, Laili-Majnun hikoyasida Majnun Laylini eslab butun olamdan uzilib, “devona”ga aylanadi. Bu bayt shunday insoniy ishqning kuchini ifodalaydi.

Telba Majnun Laylining ko‘yida yig‘lar zor-zor,

Diydasi qonga to‘lub, giryona bo‘loq shunchalar.

Oshiqning yig‘lashi va azoblanishi klassik ishqning asosiy jihatidir. Yurakdagi og‘riq, ko‘z yoshlari va hatto qon bilan ifodalangan azob, sevgining jonli va dramatik tabiatini ko‘rsatadi. Masalan, Majnun Laylini eslab yig‘laganida, uning hissiyotlari butun borliqni egallaydi. Bu, ayniqsa, klassik ishq hikoyalarida ko‘p uchraydi. Farhod Shirin uchun tog‘larni yoradi, lekin unga yetolmaydi — bu ishqning fidoyilik

va azob tomonini namoyon qiladi. Xuddi Tohir Zuhra uchun jondan kechadi, bu klassik ishq hikoyalarida tez-tez uchraydigan motiv hisoblanganidek,yori visoligiga yetishishga intiladi. Masalan,quyidagi baytda ko‘rishimiz mumkinki,

Jomda ko‘rdi Zulayxo Yusufi jononini,
Topti Misr ichra ani, so‘zona bo‘lmoq shunchalar.

Yusuf va Zulayxo qissasida ishqning vasl va topilish tomonini ko‘rsatadi. Oshiq ko‘p sinovlardan o‘tadi, lekin nihoyat yorini topadi. Bu bayt ishqning mukammal vaslga yetish jarayonini ramziy tarzda beradi. Yusuf va Zulayxo qissasida ishq insonni ruhiy va hissiy jihatdan sinovdan o‘tkazadi, lekin vaslga yetganida ruhiy yuksalish yuz beradi. G‘azalda oshiqning o‘z yoriga – ma’shuqasiga bo‘lgan muhabbati samimiy, ham nihoyatda chuqur ekanligi tasvirlangan. Oshiqning sevgi tuyg‘ulari, orzulari nihoyat darajada tabiiy, bu tufayli o‘quvchiga chuqur ta’sir qiladi. Bu tabiiy va reallik g‘azalga uzoq umr baxsh etadi. Insonni haqiqiy hurlikka, ruhiy ruhiy kenglikka olib chiquvchi birgina vosita bor. U ham bo‘lsa - ishq. Anashu ishq orqali kishi Allohga yetadi. Haziniy ijodida ishq mavzusi shunday g‘oyalarni ilgari suradi. Haziniy she’riyati mazmunan chuqur, falsafiy teran bo‘lishi bilan birga badiiy jihatdan ham barkamol asarlardir. Shoir har san’atning, har bir detalning, ungacha ilg‘amagan qirralarini, borilmagan ma’naviy hudud kengliklarini kashf etishga harakat qiladi. Haziniy ijodining mavzu doirasi juda keng. Lekin u qaysi mavzuda ijod qilmasin, ishqni chetlab o‘tolmaydi. Haziniy she’riyatida ishq — iymon, e’tiqod, zakovat timsoli kabi lirik qahramonning o‘y kechinmalari, faoliyati, dunyoqarashini harakatlantiruvchi kuchdir. Shoir devonida zamon va zamondoshlari tasviri ham katta o‘rin egallagan.

Haziniy ijodi XIX asr oxiri va XX asr boshidagi murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitda "Inson kim?" degan fundamental savolga tasavvufiy nuqtayi nazardan javob izlagan merosdir. Uning komil inson konsepsiyasi bevosita Yassaviya va Naqshbandiya tariqatlari an’analarining o‘zaro sintezidan shakllangan. Ilohiy Ishq – Komillikning bosh mezoni. Haziniy nazdida insonni hayvoniy sifatlardan ajratib, ilohiy darajaga ko‘taruvchi yagona kuch — ishqdir. Shoirning "Ishq" radifli g‘azallarida komil inson obrazi "oshiqi sodiq" timsolida namoyon bo‘ladi.

“Ishq dardi birla yurgil, dardi yo‘qni odam dema,
Kimki ishqsiz bo‘lsa dahr ichra, ani odam dema”.

Bu yerda shoir insonning biologik mavjudligini (bashar) uning ma’naviy mohiyatidan (inson) ajratadi. Ishqsiz odam — shunchaki moddiy tana, komil inson esa — ruhining nurini ishq olovi bilan poklagan zotdir.

“Fano” va “Baqo” bosqichlarining badiiy ifodasi. Komillikka erishish uchun Haziniy “tazkiratun-nafs” (nafsni poklash) jarayonini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Uning she’riyatida dunyo — “choh” (quduq) yoki “puch yong‘oq" timsolida keladi. Komil

inson esa bu dunyo ziynatlaridan kechib, o‘zligini fano qilgan shaxshdir. Haziniy "Bayozi Haziniy" asarida komillikni quyidagi to‘rt ustuvor sifatda ko‘radi:

1. Sidq (Samimiylik): Riyo va nifoqdan uzoq bo‘lish.
2. Ixlosi piri komil: Ma’naviy ustozga sadoqat.
3. Xizmat: Xalqqa va keksaga xizmat qilish orqali Haqqa yetish.
4. Tazarru: Doimiy o‘zini taftish qilish va tavba.

“Xizmat qilgin keksaga, yetkur seni ul maqsadga,
Keksalar duosi birla yurasan sen jannatga”.

Bu baytda shoir komillikning amaliy tomonini — ijtimoiy axloqni diniy-irfoniy maqsad bilan bog‘laydi.

Haziniy she’riyatida komil inson — bu ilohiy ishq bilan yongan, dunyoviy g‘arazlardan voz kechib, Haqqa yaqinlashgan (solik) shaxsdir. Uning asarlarida tasavvuf ta’limoti, Qur’on va hadis ruhi ustuvorlik qiladi.

Nafs tarbiyasi va axloq: Komil inson o‘z nafsini jilovlagan, axloqi hamida (go‘zal axloq) bilan ziynatlangan, halol va pokiza inson hisoblanadi. Haziniy solikni ruhiy mushohadalarga, uzlat va xilvatda nafsni tarbiyalashga chaqiradi. Komil inson faqatgina zohiriy emas, balki botiniy (yashirin) ilmlardan ham boxabar bo‘lishi, ilohiy sirlarni anglagan bo‘lishi kerak. Haziniy ijodida komil inson ishq olovida yonib, Alloh zikri bilan yashaydi va ma’rifat gulshanidan bahramand bo‘ladi

Tasavvuf - musulmon olamida (mamlakatlarida) keng tarqalgan , butun dunyoda mashhur bo‘lgan Islom diniga asoslanuvchi buyuk ta'limot. Tasavvuf orqali insoniyat islom dinining ichki va tashqi go‘zalligini, uning buyuk insonparvarlik mohiyatini anglab yetadi. Tasavvufning magsadı insonni ruhiy, ma' naviy jihatdan poklash, ya'ni komil insonni tarbiyalashdir. Qalb pokligiga erishgan, yuksak ma'naviyatli, aqlan va insonan barkamol shaxs komil insondir. Aksariyat adabiyotlarda komil inson ruhiy poklangan inson tushunchasi bilan tenglashtiriladi. Demak ruhni poklash zarur. Poklanishning yo‘li esa bitta, u nafsni yengishdir. Haziniy ezgulik, sevgi, insoniylikning g'alabasini ana shunday xayoliy tasvirlarda ifodalab, bu tantananing muhaqqaq ekanini ta'kidlaydi.

Siz ani odam demang, ko‘nglida himmat bo‘lmasa,
Balki imoni xatar, anda g‘ayrat bo‘lmasa.”

Haziniy bu baytda haqiqiy insonni aniqlash mezonini beradi:

- Tashqi ko‘rinish va maqom yetarli emas: insonning ko‘nglida himmat (oliy maqsad va jasorat) va g‘ayrat bo‘lishi kerak.
- Imon va himmat birgalikda bo‘lsa, inson ruhiy va axloqiy jihatdan komil hisoblanadi.
- Bu bayt komillikni boshlang‘ich mezon sifatida ichki kuch va ruhiy barqarorlik bilan bog‘laydi.

- Shu tarzda Haziniy: insonni tashqi maqomdan ko‘ra, ichki fazilatlar orqali baholash zarurligini ta’kidlaydi.

Kimki johildur, biling, hamdu sanoda xordur,
Mo‘mini sodiq emas ul, tanda jur’at bo‘lmasa.

Bu baytda Haziniy ilm va sodiqlikni komil inson mezoni sifatida ko‘rsatadi.

- Johillik (bilimsizlik) insonni nafaqat dunyoviy, balki ruhiy jihatdan ham past qiladi.

- Komil inson mo‘min, sodiq va jasur bo‘lishi shart.

- Shoir shuni uqtiradiki, ilm va iymon komillikning asosiy tayanchidir.

Bu bayt orqali Haziniy: komillik — faqat tashqi obro‘ yoki mansab emas, balki insonning ruhiy va axloqiy fazilatlaridagi barqarorlik ekanini ko‘rsatadi.

Qoni bo‘lsa qatra nayson gar, sadaf durr bo‘lg‘usi, Badnihode qolgusi, anda qanoat bo‘lmasa.” Bu baytda Haziniy tashbeh va ramziy vositalardan foydalanadi: qanoatning qonini nayson, badni qimmatbaho dur bilan solishtiradi.

- Qanoat komil insonning muhim xususiyati sifatida berilgan. Inson qanchalik boy bo‘lmasin, agar u qanoatli bo‘lmasa, haqiqiy dur (qimmatbaho) kabi qadrlanmaydi.

Bayt orqali shoir: ruhiy boylik (qanoat) tashqi boylikdan ustun ekanini ta’kidlaydi. Haziniy komil inson ichki kamolotini tashqi boylikdan yuqori qo‘yadi.

Hotami Toy kofir erdi, kuymadi do‘zaxda, bil,
Kuydurur erdi egam, anda saxovat bo‘lmasa?

Haziniy bu baytda Hotami Toy tarixiy shaxsini misol qilib oladi. Baytning asosiy g‘oyasi: saxovat (ochiqko‘ngillik, bag‘rikenglik) komil insonning ajralmas belgisi. Hatto e’tiqoddan ham oldin insonning saxovati ularni yuqori maqomga ko‘taradi. Shu tarzda Haziniy komillikni nafaqat diniy, balki insoniy fazilatlar bilan ham bog‘laydi. Bu bayt shuni ko‘rsatadiki: komillik faqat imon bilan cheklanmaydi, balki insoniy fazilatlarda ham namoyon bo‘ladi.

Foniya dunyodan lahadga dastxoli bormagil,
Na qilur Xoliq sani, tuhfang ibodat bo‘lmasa?”

Shoir dunyoviy hayotning o‘tkinchiligi va foniqligini ta’kidlaydi. Komil inson faqat ibodat va Allohga bo‘lgan itoat orqali haqiqiy saodatga erishadi. Baytning asosiy g‘oyasi: ibodat — komil insonning ruhiy tayanchi, dunyoviy o‘tkinchi narsalarga bog‘lanmasligi. Shu bilan Haziniy komillikni ruhiy va diniy mas’uliyat bilan bog‘laydi. Haziniy she’riyatida komil inson g‘oyasini ochiq va tizimli ifodalovchi g‘azallaridan biri:

Ey banda, Xudo yo‘lida toatni unutma,
Ro‘zu, shabu har lahza, ibodatni unutma.”

Haziniy bu yerda komil insonning asosiy xususiyatini ko‘rsatadi: Xudo yo‘lida doimiy ibodat va toat. Ro‘zu, shab ibodat va har lahza e’tibor — komil insonning hayot tarzidir.

Bu bayt orqali shoirdagi asosiy g‘oya: komillik faqat ruhiy barkamollik va Alloh bilan yaqinlik orqali keladi. Shu tarzda Haziniy komillikni nafaqat axloqiy, balki diniy asoslar bilan mustahkamlaydi.

Bu foni jahon ayshiga mag‘rur bo‘libsan,
Diydori Xudo birla u jannatni unutma.

Shoir dunyoviy hayotning foniyligini eslatadi. Komil inson dunyoviy nafosatdan mag‘rur bo‘lmaydi, balki ruhiy boylik va jannatni eslab yashaydi. Haziniy bu baytda komillikni dunyoviy obro‘ va mol-mulkdan ustun qo‘yish bilan bog‘laydi. Baytning falsafiy g‘oyasi, komil inson dunyodan zavq oladi, lekin uning diqqatini Alloh va oxiratdan chalg‘itmaydi.

Ming yil yashasang, oxiri bir kun o‘lursan,
Oxir bo‘lasan, xoki mazallatga unutma.”

Bu bayt hayotning o‘tkinchiligini va oxiratni eslatadi. Komil inson doimiy ravishda o‘lchovli hayot kechiradi, chunki foni jahonning yakuni — o‘lim va barqaraor ruhiy holatning tekshirilishi. Komillik — nafaqat hozirgi dunyo, balki oxirat mas’uliyatini anglashdir. Bayt orqali shoirdagi g‘oya, komil inson — bu harakat va niyatlarini oxiratni eslab tartibga soladigan inson.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

I. Manbalar (Asosiy matnlar)

1. Haziniy Xo‘qandiy. Devon. (Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi: S. Rafiddinov). – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1999. – 192 b.
2. Haziniy. Bayozi Haziniy (Toshbosma nashr asosida). – Qo‘qon: Meros, 1992. – 80 b.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1. Ibn al-Arabiy. Al-Futuhot al-Makkiyya (Makka futuhoti). – Qohira: Al-Halabiy nashriyoti, 1911.
2. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Sharq, 2009. – 448 b.
3. Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 14-jild. – Toshkent: Fan, 1998. – 220 b.
4. Rafiddinov S. Majoz va haqiqat. – Toshkent: Ma’naviyat, 1995. – 96 b.
5. Haqqul I. Tasavvuf va she’riyat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. – 160 b.
6. Haqqul I. Irfon va idrok. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998. – 120 b.

III. Lug‘atlar va avtoreferatlar

1. An-Nafisiy, Said. Tasavvuf lug‘ati. – Tehron: Intishoroti zavvor, 1384 (hijriy-shamsiy).

2. O‘zbek mumtoz adabiyoti so‘zligi. (Tuzuvchi: H. Dadaboyev). – Toshkent: Fan, 2010.

ADABIY TA’LIMDA MUSTAQIL FIKRLASHNING AHAMIYATI

Jumanazarova Umidaxon
ChDPU O‘zbek adabiyotshunosligi
kafedrasi o‘qituvchisi,
Tel: +99899 474 75 40
E-mail: umidaxonjumanazarova02@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada adabiy ta’limda o‘quvchi va talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishning nazariy asoslari, milliy ildizlari va amaliy yo‘llari tahlil qilinadi. Mustaqil fikrlash pedagogik, psixologik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yoritilib, mumtoz sharh va munozara an’anasi uning milliy zamini sifatida ko‘rsatiladi. Muallif tomonidan badiiy asarni idrok etishning «Uch ko‘zgu» modeli, olti bosqichli mustaqil fikrlash sikli, «kechiktirilgan baho» usuli, talqin mas’uliyatining uch mezoni, «Sun’iy intellekt bilan bahs» topshirig‘i hamda mustaqil fikrlash darajalari tasnifi va baholash rubrikasi taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: adabiy ta’lim, mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur, talqin, talqin mas’uliyati, «Uch ko‘zgu» modeli, kechiktirilgan baho, munozara, sun’iy intellekt, baholash rubrikasi.

Аннотация. В статье анализируются теоретические основы, национальные истоки и практические пути формирования самостоятельного мышления учащихся и студентов в литературном образовании. Самостоятельное мышление рассматривается с педагогической, психологической и литературоведческой точек зрения; классическая традиция комментария (шарх) и жанра мунозара показана как его национальная основа. Автором предлагаются модель восприятия художественного произведения «Три зеркала», шестиэтапный цикл самостоятельного мышления, метод «отсроченной оценки», три критерия ответственности интерпретации, задание «Спор с искусственным интеллектом», а также классификация уровней самостоятельного мышления и рубрика оценивания.

Ключевые слова: литературное образование, самостоятельное мышление, критическое мышление, интерпретация, ответственность интерпретации, модель «Три зеркала», отсроченная оценка, мунозара, искусственный интеллект, рубрика оценивания.

Abstract. The article analyses the theoretical foundations, national roots and practical ways of developing independent thinking in pupils and students within literary education. Independent thinking is examined from pedagogical, psychological and literary-theoretical perspectives, and the classical traditions of

commentary (sharh) and the debate genre (munozara) are presented as its national foundation. The author proposes the “Three Mirrors” model of literary perception, a six-stage cycle of independent thinking, the “deferred judgement” method, three criteria of interpretive responsibility, a “Debate with Artificial Intelligence” task, as well as a classification of levels of independent thinking and an assessment rubric.

Keywords: literary education, independent thinking, critical thinking, interpretation, interpretive responsibility, “Three Mirrors” model, deferred judgement, munozara, artificial intelligence, assessment rubric.

Zamonaviy ta’lim tizimining bosh maqsadi tayyor bilimlarni yodlatish emas, balki shaxsni mustaqil fikrlashga, axborotni tahlil qilish, baholash va o‘z qarashini asosli bayon etishga o‘rgatishdan iborat. Bu vazifa adabiyot fanida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki badiiy asar insonning ma’naviy olamiga, axloqiy tanlovlariga, jamiyat va tarix haqidagi tasavvurlariga bevosita daxldor. Abdulla Avloniy tarbiyani millat uchun «yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat» masalasi deb bilgani bejiz emas: fikrlay oladigan avlodgina o‘z taqdirini ongli ravishda belgilay oladi.

Biroq amaliyotda adabiyot darslari ko‘pincha asar mazmunini qayta hikoya qilish, darslikdagi tayyor xulosalarni takrorlash va adabiyotshunoslar bahosini yodlash bilan cheklanib qoladi. Natijada o‘quvchi asar bilan emas, asar haqidagi gaplar bilan tanishadi. Bugun bu muammo yangi tus oldi: generativ sun’iy intellekt vositalari istalgan asarning «tahlili»ni bir necha soniyada tayyorlab bera oladi. YUNESKO ham bunday vositalar ta’limda inson tafakkuri va mustaqilligini susaytirmasligi, aksincha, uni kuchaytirishga xizmat qilishi lozimligini ta’kidlaydi [10,12]. Demak, tayyor javob tobora arzonlashib borayotgan davrda mustaqil fikr eng qimmatli ta’lim natijasiga aylanmoqda.

Ushbu maqolada mustaqil fikrlashning nazariy asoslari va milliy ildizlari tahlil qilinadi, shuningdek, muallif tomonidan ishlab chiqilgan bir qator model va usullar taklif etiladi. Ularning maqsadi – o‘quvchi fikrini «erkin, ammo mas’uliyatli» qilish, ya’ni shaxsiy talqinni matnga sodiqlik bilan uyg‘unlashtirishdir.

Mustaqil fikrlash – shaxsning muammoni ko‘ra bilishi, unga oid ma’lumotlarni tanlab, tahlil qilishi, turli qarashlarni solishtirib, o‘z xulosasini dalillar asosida shakllantira olishidir. Jon Dyui fikrlashni har qanday e’tiqod yoki taxminni uni asoslovchi dalillar va undan kelib chiqadigan oqibatlar nuqtai nazaridan faol, izchil va sinchkov o‘rganish sifatida ta’riflagan [1, 3]. Demak, mustaqil fikr – tasodifiy, asossiz «shaxsiy fikr» emas, balki mulohaza, dalil va mantiqqa tayangan ong faoliyatidir.

Psixologik jihatdan mustaqil fikrlash ichki nutq va tafakkurning o‘zaro bog‘liqligi bilan izohlanadi. L.S. Vigotskiy ta’kidlaganidek, fikr so‘zda shunchaki

ifodalanmaydi, balki so‘zda shakllanadi. Bu xulosa adabiyot o‘qitish uchun muhim: o‘quvchi asar haqida o‘z so‘zi bilan gapirganda, yozganda va bahslashganda uning fikri ham aniqlashadi, chuqurlashadi.

Pedagogikada bilish faoliyati darajalari B. Blum taksonomiyasida izchil tasniflangan: *bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez va baholash.* An’anaviy adabiyot darsi asosan dastlabki ikki daraja bilan cheklansa, mustaqil fikrlash yuqori darajalar bilan bog‘liq. R. Pol va L. Elder tanqidiy tafakkur standartlari sifatida aniqlik, izchillik, chuqurlik, kenglik va mantiqiylikni ko‘rsatadi.

Adabiyotshunoslikda mustaqil fikrlash kitobxon faolligi masalasi bilan uzviy bog‘liq.

L. Rozenblatt nazariyasiga ko‘ra, badiiy asar matn va kitobxon o‘rtasidagi «tranzaksiya» jarayonida yuzaga keladi [8,6]. V. Izer matndagi «bo‘shliqlar»ni kitobxon o‘z tasavvuri bilan to‘ldirishini asoslagan [5,26]. M.M. Baxtinning dialogizm konsepsiyasi esa badiiy so‘zning mohiyatan muloqotga yo‘naltirilganini ko‘rsatadi [13,7]. Bu nazariyalar o‘quvchini passiv tinglovchi emas, asar ma’nosining faol hammuallifi sifatida ko‘rishni ilmiy asoslaydi. Quyidagi jadvalda ikki xil dars modeli qiyoslanadi.

1-jadval

An’anaviy va mustaqil fikrlashga yo‘naltirilgan adabiyot darsining qiyosiy tavsifi

Mezon	**An’anaviy (reproduktiv) dars**	**Mustaqil fikrlashga yo‘naltirilgan dars**
Maqsad	Asar mazmuni va tayyor bahoni o‘zlashtirish	Asar bilan shaxsiy muloqot, asosli talqin yaratish
O‘qituvchi o‘rni	Axborot manbai, yagona «to‘g‘ri javob» egasi	Fikrlash jarayonining tashkilotchisi va yo‘naltiruvchisi
O‘quvchi o‘rni	Tinglovchi, takrorlovchi	Izlanuvchi, bahslashuvchi, hammuallif
Savol turi	«Kim? Nima? Qachon?»	«Nega? Qanday qilib? Nima bo‘lardi, agar…?»
Tanqidchi fikri	Dars boshida, yodlash uchun beriladi	Dars oxirida, bahs uchun beriladi
Xatoga munosabat	Kamchilik sifatida qoralanadi	Izlanishning tabiiy bosqichi sifatida qabul qilinadi

Mezon	**An’anaviy (reproduktiv) dars**	**Mustaqil fikrlashga yo‘naltirilgan dars**
Natija	Bir xil javoblar	Turli, lekin asosli talqinlar

Mustaqil fikrlash ko‘pincha G‘arb pedagogikasidan kirib kelgan tushuncha sifatida talqin qilinadi. Holbuki, Sharq, xususan, turkiy mumtoz madaniyatida matn ustida mustaqil fikr yuritishning boy shakllari mavjud bo‘lgan. Ulardan biri – *sharh* an’anasi. Mumtoz asarlar, jumladan, murakkab g‘azallarga yozilgan sharhlarda sharhlovchi matnni so‘zma-so‘z takrorlamaydi, balki uning yashirin ma’no qatlamlarini ochadi, o‘z talqinini dalillar bilan asoslaydi. Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» tazkirasida shoirlar ijodiga bildirilgan qisqa, ammo aniq baholar ham adabiy asarga mustaqil munosabatning namunasidir.

Ikkinchi shakl – *munozara* janri. Yusuf Amiriyning «Bang va Chog‘ir», Ahmadiyning «Ra’no va Binafsha» munozaralarida ikki tomon o‘z ustunligini dalillar asosida isbotlashga urinadi. Bu janr mohiyatan dialogik tafakkur maktabidir: har bir qarash raqib dalili bilan sinovdan o‘tadi. XX asr boshida Abdurauf Fitrat aynan shu shakldan foydalanib, «Munozara» asarida buxorolik mudarris va farangi o‘rtasidagi bahs orqali jamiyatni o‘ylashga, ko‘r-ko‘rona taqliddan voz kechishga chaqirgan.


Muallif taklifi. Mumtoz munozara janrini adabiyot darsida zamonaviy bahs usuli sifatida qayta tiklash maqsadga muvofiq. Buning uchun o‘quvchilarga «*Ikki talqin munozarasi*» topshirig‘i beriladi: ular bir asar haqidagi ikki qarama-qarshi talqinni (masalan, «Otabek – zamona qurboni» va «Otabek – o‘z tanlovi uchun mas’ul shaxs») mumtoz munozara shaklida, ikki tomonning navbatma-navbat so‘zlashi ko‘rinishida yozadi, so‘ngra «hakam» sifatida o‘z xulosasini chiqaradi. Bu usul, bir tomondan, o‘quvchini qarshi dalilni ham tushunishga majbur qiladi, ikkinchi tomondan, mustaqil fikrlashni milliy adabiy meros bilan bog‘laydi.

Badiiy asar o‘z tabiatiga ko‘ra ko‘p ma’noli. Abdurauf Fitrat adabiyotni fikr va tuyg‘ularni so‘z vositasida ifodalab, o‘quvchida ham shunga o‘xshash tuyg‘u uyg‘otish san’ati deb ta’riflagan [3,56]. Masalan, Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romanidagi Otabekning ikkinchi uylanishga rozi bo‘lishi, Kumush va Zaynab taqdirlari o‘quvchi oldiga murakkab savollarni qo‘yadi: qahramon aybdormi yoki zamona qurbonimi? Abdulla Qahhorning «O‘g‘ri» hikoyasidagi Qobil boboning jimjit iztirobi esa ijtimoiy adolat haqida chuqur mulohaza yuritishga undaydi. Bunday savollarning yagona «to‘g‘ri» javobi yo‘q.

Q. Yo‘ldoshev adabiy ta’limning asosiy maqsadini asarni mustaqil o‘qib, anglab, undan estetik zavq ola biladigan kitobxonni tarbiyalashda ko‘radi. V.G. Marantsman ham tahlil kitobxon idrokiga tayangandagina samarali bo‘lishini

ko‘rsatgan [16,32]. Biroq amaliyotda o‘quvchi idroki ko‘pincha bir tomonlama bo‘ladi: u asarni yo faqat o‘z hayotiy tajribasi bilan o‘lchaydi, yo faqat darslikdagi tarixiy izohga tayanadi.

«Uch ko‘zgu» modeli. Idrokning bir tomonlamaligini bartaraf etish uchun badiiy asarni uch «ko‘zgu» orqali ko‘rish modelini taklif etamiz (1-sxema). *Muallif ko‘zgusi* – asar yaratilgan davr, muallifning niyati va badiiy tizimi; *qahramon ko‘zgusi* – qahramon xatti-harakatining ichki mantig‘i, uning tanlovlari sababi; *kitobxon ko‘zgusi* – o‘quvchining shaxsiy tajribasi, qadriyatlari va bugungi kun savollari. Mustaqil talqin shu uch ko‘zguda aks etgan manzaralarning kesishgan nuqtasida tug‘iladi, matn esa ularning umumiy asosi bo‘lib qoladi.



1-sxema. *Badiiy asarni idrok etishning «Uch ko‘zgu» modeli*

Model amaliy jihatdan oddiy: o‘quvchi bitta savolga (masalan, «Otabek nega rozi bo‘ldi?») uch marta javob beradi – muallif, qahramon va o‘zi nomidan. Agar javoblardan biri yetishmasa, talqin to‘liq bo‘lmaydi: faqat kitobxon ko‘zgusi zamonaviy qarashni asarga zo‘rlab yuklashga, faqat muallif ko‘zgusi quruq tarixiy izohga, faqat qahramon ko‘zgusi esa qahramonni tanqidsiz oqlashga olib keladi.

Mustaqil fikr erkinligi o‘zboshimchalik degani emas. U. Eko talqin qilish va «ortiqcha talqin qilish» (overinterpretation) o‘rtasidagi farqni ko‘rsatib, kitobxon niyati (intentio lectoris) asar niyati (intentio operis) bilan cheklanishini asoslagan[2,13]. Shu g‘oyadan kelib chiqib, maktab va oliy ta’lim amaliyoti uchun *talqin mas’uliyati* tushunchasini va uni tekshirishning uch mezonini taklif etamiz: matn mezoni, izchillik mezoni va kontekst mezoni (2-jadval).

2-jadval

Asosli va o‘zboshimcha talqinni farqlash mezonlari (muallif taklifi)

Mezon	Asosli talqin	O‘zboshimcha talqin
Matn mezoni	Har bir fikr matndagi aniq o‘rin (epizod, detal, replika) bilan tasdiqlanadi	Matnda tayanchi bo‘lmagan taxminlarga suyanadi
Izchillik mezoni	Asarning boshqa qismlariga zid kelmaydi, butun tizimga mos keladi	Bir epizodni butundan uzib olib, umumiy xulosa chiqaradi
Kontekst mezoni	Davr, muallif dunyoqarashi va janr xususiyatini hisobga oladi	Bugungi qarashni asarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuklaydi
Ochiqlik	Boshqa talqinlar mavjudligini tan oladi	O‘zini yagona haqiqat sifatida taqdim etadi

Bu mezonlar o‘quvchiga «istalgan fikr to‘g‘ri» degan nisbiylikdan ham, «yagona to‘g‘ri javob» degan aqidaparastlikdan ham saqlanish imkonini beradi. Mustaqil fikr ana shu ikki chekka o‘rtasidagi muvozanatda shakllanadi.

Savol zinapoyasi. M.A. Ribnikova to‘g‘ri qo‘yilgan savol o‘quvchini matnga qayta qaytishga va o‘ylashga majbur qilishini qayd etgan [17,56]. Savollarni Blum taksonomiyasi asosida zinapoya shaklida tuzish o‘quvchini bosqichma-bosqich yuqori tafakkur darajasiga olib chiqadi (3-jadval).


3-jadval

«O‘tkan kunlar» romani bo‘yicha savol zinapoyasi

Daraja	Savol turi	Namuna
Bilish	Faktni eslash	Otabek Marg‘ilonga qanday maqsadda kelgan edi?
Tushunish	Mazmunni izohlash	Kumushning Otabekka munosabati asar davomida qanday o‘zgaradi?
Qo‘llash	Nazariy tushunchani tatbiq etish	«Badiiy detal» tushunchasini romandagi biror epizodga tatbiq eting.
Tahlil	Sabab-oqibatni ochish	O‘zbek oyimning qarorlari ortida qanday sabablar yotadi?

Daraja	Savol turi	Namuna
Sintez	Yangi matn yaratish	Voqealar Zaynab nomidan hikoya qilinsa, qaysi epizod boshqacha yoritilardi? Bir epizodni qayta yozing.
Baholash	Asosli pozitsiya bildirish	Otabek o‘z taqdiri uchun qay darajada mas’ul? Fikringizni matndan kamida uch dalil bilan asoslang.

Mustaqil fikrlash sikli. Mustaqil fikr bir martalik harakat emas, balki takrorlanuvchi jarayondir. Biz uni olti bosqichli sikl sifatida tasavvur etamiz (2-sxema): ***taassurot*** (asardan olingan birinchi his, hayrat yoki norozilik) → *savol* (taassurotni muammoga aylantirish) → ***dalil*** (matndan tayanch o‘rinlarni topish) → ***talqin*** (asosli shaxsiy xulosa) → ***muloqot*** (fikrni boshqalar qarashi bilan to‘qnashtirish) → ***refleksiya*** (talqinni qayta ko‘rib chiqish). Refleksiya yangi taassurotni tug‘diradi va sikl yuqoriroq darajada takrorlanadi.




2-sxema. *Mustaqil fikrlashning olti bosqichli sikli*

Siklning muhim jihati shundaki, u *taassurot*dan boshlanadi. An’anaviy darsda o‘quvchining birinchi hissi e’tiborsiz qoldiriladi yoki «noto‘g‘ri» deb rad etiladi. Holbuki, «Menga bu qahramon yoqmadi» degan oddiy gap ham to‘g‘ri savol bilan chuqur tahlilning boshlang‘ich nuqtasiga aylanishi mumkin.

«Kechiktirilgan baho» usuli. Psixologiyada inson birinchi eshitgan raqam yoki fikr keyingi mulohazalariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi[9,81]. Bu effektni adabiy ta’limga tatbiq etsak, muhim xulosa kelib chiqadi: agar dars nufuzli adabiyotshunosning

tayyor bahosi bilan boshlansa, o‘quvchi fikri o‘sha baho atrofida «mixlanib» qoladi va mustaqil talqin imkoniyati torayadi.

Shu sababli tanqidchi bahosini dars boshida emas, oxirida berishni taklif etamiz (3-sxema). Avval o‘quvchi o‘z taassurotini yozib qo‘yadi va uni matn bilan asoslaydi. Shundan keyingina olim fikri bilan tanishadi va unga «roziman / qisman roziman / rozi emasman» shaklida dalilli munosabat bildiradi. Bu usulda tanqidchi fikri «yodlanadigan haqiqat» emas, balki bahs uchun hamsuhbatga aylanadi.



3-sxema. *«Kechiktirilgan baho» usulining bosqichlari*

«Sun’iy intellekt bilan bahs» topshirig‘i. Sun’iy intellektni taqiqlash emas, uni tanqidiy fikrlash uchun «sparring-sherik»ka aylantirish samaraliroq. Topshiriq quyidagicha: o‘quvchiga biror asar bo‘yicha sun’iy intellekt yaratgan tayyor tahlil beriladi. Uning vazifasi 2-jadvaldagi uch mezon asosida bu tahlilni tekshirish: matnda tasdig‘i yo‘q da’volarni, umumiy va shablon gaplarni, faktik xatolarni topish hamda o‘z tahlilini yozish. Bunday topshiriq, bir tomondan, tayyor javobga ko‘r-ko‘rona ishonishning oldini oladi, ikkinchi tomondan, o‘quvchini matnga qayta qaytishga majbur qiladi.

Munozara, qiyosiy tahlil va ijodiy yozma ishlar. M. Lipman ishlab chiqqan «tadqiqot hamjamiyati» modeli sinfni birgalikda fikrlovchi jamoaga aylantirishni ko‘zda tutadi. P. Freyre ham bilimni «omonat qo‘yadigan» ta’lim modelini tanqid qilib, muloqotga asoslangan ta’limni taklif etgan. Adabiyot darsidagi munozara, «sud jarayoni», rolli o‘yin kabi shakllar shu tamoyilga tayanadi. Qiyosiy tahlil – masalan, Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonini Nizomiy va Xusrav Dehlaviy talqinlari bilan solishtirish – an’ana va novatorlik haqida mustaqil xulosaga olib keladi. Esse, kitobxonlik kundaligi, qahramon nomidan xat kabi ijodiy yozma ishlar esa fikrni izchil bayon etishga o‘rgatadi. Q. Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, o‘quvchi so‘z ustida mustaqil ishlashi, uning ma’no qirralarini o‘zi kashf etishi kerak [12,45].

Mustaqil fikrlashga yo‘naltirilgan darsda o‘qituvchi bilim uzatuvchi emas, fikrlash jarayonining tashkilotchisiga aylanadi. U o‘quvchi javobini darhol «to‘g‘ri» yoki «noto‘g‘ri» deb baholashga shoshilmay, «Buni matnning qaysi o‘rni tasdiqlaydi?», «Boshqacha qarash ham bo‘lishi mumkinmi?» kabi qo‘shimcha

savollar bilan fikrni chuqurlashtiradi. Sinfda xato qilishdan qo‘rqmaydigan psixologik muhit yaratilgandagina o‘quvchi o‘z qarashini erkin bayon eta boshlaydi.

Agar nazorat faqat faktlarni eslab qolishni tekshirsa, o‘quvchi ham yodlashga moslashadi. PISA tadqiqoti o‘qish savodxonligini matndan ma’lumot topish, uni tushunish hamda matn mazmuni va shakli haqida mulohaza yuritib, baholash qobiliyati sifatida belgilaydi. O.Yu. Bogdanova va hammualliflari ham o‘quvchi faoliyatini baholashda uning kitobxonlik rivojini hisobga olish lozimligini qayd etadi [14,72]. Shu asosda mustaqil fikrlashning to‘rt darajasini ajratishni taklif etamiz (4-jadval). Misol sifatida «Otabek Zaynabga uylanishga rozi bo‘lganida aybdormi?» savoliga turli darajadagi javoblar keltiriladi.

4-jadval

Adabiy ta’limda mustaqil fikrlash darajalari (muallif tasnifi)

Daraja	Ko‘rsatkichlar	Javob namunasi
I. Reproduktiv	Mazmunni qayta hikoya qiladi, baho bermaydi	«Otabek onasining gapiga kirib, Zaynabga uylandi.»
II. Izohlovchi	Sababni ko‘rsatadi, ammo yuzaki va dalilsiz	«Otabek onasini ranjitmaslik uchun rozi bo‘ldi, chunki u itoatli farzand.»
III. Talqin qiluvchi	Matndan dalil keltiradi, qahramon ichki ziddiyatini ochadi	«Uning roziligi zaiflik emas, farzandlik burchi va muhabbat o‘rtasidagi ziddiyat natijasi; buni Qodiriy Otabekning iztiroblari tasvirlangan sahnalarda ko‘rsatadi.»
IV. Ijodiy-tanqidiy	Turli qarashlarni solishtiradi, asarni bugun bilan bog‘laydi, o‘z pozitsiyasini himoya qiladi	«Otabek fojiasi shaxs erkinligi va an’ana to‘qnashuvidir. Uni to‘liq oqlay olmayman: matnda uning e’tiroz bildirish imkoniyati bo‘lgani ko‘rinadi; ammo davr bosimini ham inkor etib bo‘lmaydi.»

Darajalarni aniqlashni osonlashtirish uchun quyidagi baholash rubrikasini taklif etamiz
(5-jadval). U yozma ish, esse yoki og‘zaki javobni 20 ballik tizimda baholash imkonini beradi.

5-jadval

Mustaqil fikrni baholash rubrikasi (muallif taklifi)

Mezon	**Ko‘rsatkich**	**Ball**
Matnga tayanish	Fikr asardagi aniq o‘rinlar bilan tasdiqlangan	0–4
Dalillar sifati	Dalillar yetarli, o‘rinli va xilma-xil	0–4
Mantiqiy izchillik	Fikr bosqichma-bosqich, ziddiyatsiz rivojlangan	0–4
Turli qarashlarni hisobga olish	Boshqa talqinlar yoki tanqidchi fikri bilan muloqot mavjud	0–4
O‘ziga xoslik	Shaxsiy, kutilmagan, ammo asosli talqin bor	0–4
Jami		**20**

Muhimi, o‘qituvchi o‘z fikriga mos kelmaydigan, lekin asosli talqinni ham yuqori baholay olishi kerak. Rubrikadagi «o‘ziga xoslik» mezoni aynan shu maqsadda kiritilgan: aks holda mustaqil fikr o‘rnini «o‘qituvchi kutgan javob» egallaydi.

Olib borilgan tahlil quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

birinchidan, mustaqil fikrlash adabiy ta’limning qo‘shimcha emas, markaziy maqsadi bo‘lib, generativ sun’iy intellekt davrida uning ahamiyati yanada ortadi;

ikkinchidan, mustaqil fikrlash milliy ta’lim uchun yot hodisa emas: mumtoz sharh va munozara an’anasi, jadid adabiyotidagi bahs shakllari uning mustahkam milliy zamini hisoblanadi;

uchinchidan, muallif tomonidan taklif etilgan «Uch ko‘zgu» modeli badiiy asarni bir tomonlama idrok etishning oldini oladi, talqin mas’uliyatining uch mezoni esa erkin fikrni o‘zboshimchalikdan farqlash imkonini beradi;

to‘rtinchidan, olti bosqichli mustaqil fikrlash sikli, «kechiktirilgan baho» usuli va «Sun’iy intellekt bilan bahs» topshirig‘i dars jarayonini tayyor bahoni qabul qilishdan shaxsiy talqin yaratishga yo‘naltiradi;

beshinchidan, mustaqil fikrlashning to‘rt darajali tasnifi va 20 ballik rubrika yodlashni emas, dalilli mulohazani rag‘batlantiruvchi baholash tizimini yaratishga xizmat qiladi.

Xullas, adabiyot darsi o‘quvchiga tayyor javob beradigan emas, uni savol berishga, izlanishga va o‘z so‘zini aytishga o‘rgatadigan maydonga aylangandagina o‘z tarbiyaviy va ma’rifiy vazifasini to‘la ado etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dewey J. How We Think. – Boston: D.C. Heath & Co., 1910.
2. Eco U. Interpretation and Overinterpretation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1992.
3. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
4. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – New York: Herder and Herder, 1970.
5. Iser W. The Act of Reading: A Theory of Aesthetic Response. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1978.
6. Lipman M. Thinking in Education. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
7. Paul R., Elder L. The Miniature Guide to Critical Thinking: Concepts and Tools. – Dillon Beach: Foundation for Critical Thinking, 2006.
8. Rosenblatt L.M. The Reader, the Text, the Poem: The Transactional Theory of the Literary Work. – Carbondale: Southern Illinois University Press, 1978.
9. Tversky A., Kahneman D. Judgment under Uncertainty: Heuristics and Biases // Science. – 1974. – Vol. 185, No. 4157. – P. 1124–1131.
10. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. – Paris: UNESCO, 2023.
11. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy va metodik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
12. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
13. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Советский писатель, 1963.
14. Богданова О.Ю., Леонов С.А., Чертов В.Ф. Методика преподавания литературы. – М.: Академия, 1999.
15. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.; Л.: Соцэкгиз, 1934.
16. Маранцман В.Г. Анализ литературного произведения и читательское восприятие школьников. – Л.: ЛГПИ им. А.И. Герцена, 1974.
17. Рыбникова М.А. Очерки по методике литературного чтения. – М.: Учпедгиз, 1963.

MUQIMIY HAJVIYALARIDA FOLKLOR NAMUNALARINING BADIIY TALQINI

Shahodat O‘sarova
Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabining
oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: O‘zbek mumtoz adabiyotining shakllanishi, taraqqiyoti va so‘z san’ati tarixida xalq og‘zaki badiiy ijodining o‘rni beqiyosdir. Milliy adabiyot taraqqiyotiga asos bo‘lgan xalq og‘zaki ijodining maqol, matal, qo‘shiq, lapar, doston, naql, afsona va rivoyat kabi janrlari zaminida yozma adabiyotda tuyuq, ruboiy, qit’a, muammo, g‘azal, qasida va doston singari janrlar paydo bo‘lganligi shubhasizdir. Shuningdek, folklor janrlariga xos badiiy tasvir vositalari, uslublar hamda badiiy lavhalar yozma adabiyot namunalarida yangi bosqichda rivojlanib, ma’lum o‘zgarishlarga uchragan holda yanada takomillashib bordi. Ushbu maqolada Muqimiy hajviyalarida folklor namunalarining badiiy talqini masalasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: satira, hajv, hajviya, she’riyat, g‘azal, she’riy san’at, folklor.

Abstract: The role of folk oral literature in the formation and development of Uzbek classical literature and the history of verbal art is invaluable. It is undeniable that such genres of folk oral literature as proverbs, sayings, songs, *lapars* (traditional folk songs), epics, parables, legends, and oral narratives laid the foundation for the emergence of such genres in written literature as *tuyuq*, rubai, *qit’a*, *muammo*, ghazal, qasida, and epic poetry. Furthermore, the artistic devices, stylistic features, and descriptive elements characteristic of folklore genres developed further in written literary works, undergoing certain transformations and reaching a higher level of artistic refinement. This article examines the artistic interpretation of folklore elements in Muqimiy’s satirical poetry.

Keywords: satire, satirical poetry, satirical work, poetry, ghazal, poetic devices, folklore.

Muqimiy satirik asarlariga mavzuni real hayotdan, o‘zi guvoh bo‘lgan voqealardan, jiddiy o‘zgarishlar yuz berayotgan davr ruhidan oldi. U ana shu hayotiy ma’lumotlarni satirik tahlil etish, salbiy holatlarga munosabatni belgilash, ayniqsa, satirik mahoratni oshirishda o‘tmish an’analardan, Navoiy, Mashrab, Turdi, Gulxaniy, Maxmur kabi shoirlarning ijodidan ta’sirlandi, bahramand bo‘ldi. O‘tmish satirik an’analarning shoir tomonidan qabul etilib, o‘z zamonasi ruhida rivojlantirilganini isbotlovchi faktik dalillar ko‘plab topiladi. Masalan, Muqimiy ilk bor Alisher Navoiy boshlab bergan, keyinchalik esa Mashrab, Turdi, Maxmurlar davom ettirgan g‘azal janrida satira yaratish tajribasini o‘zlashtiradi, o‘zi ham qator kuchli satirik g‘azallar yozadi. Satirik muxammaslar to‘g‘risida ham shuni aytish

mumkin. Biz uning dastlabki namunalarini mohir hajvchi Turdi — Farog‘iy ijodida uchratamiz.

Muqimiy esa bu an’analarni davom ettirib o‘z davrining ko‘pgina illatlarini kuchli satira orqali fosh etuvchi muxammaslarni yaratadi. Bugina emas, Muqimiy o‘tmish shoirlar ijodidagi satiradan ijtimoiy hayot va tuzumdagi nuqsonlarni, shaxslar tabiati va faoliyatidagi salbiy belgilarni qoralash va sharmanda etish usullaridan ham, mavjud qabohat va razolatni ro‘y-rost ko‘rsatishdagi izchillik, qat’iylik va nafratli munosabatdan ham, satirik obrazlarning butun borlig‘ini yaqqolroq va ishonchliroq ko‘rsatuvchi hayotiy holatni kashf etish mahoratidan ham, ob’ektga lo‘nda, ammo kuchli haqoratlovchi tavstif berish san’atidan ham o‘rgandi. Ba’zan bu o‘rganish ayrim asarlarda shu darajada ravshan ko‘rinadiki, uni qayd etish uchun dalillarni taqqoslashning o‘zi yetarli bo‘ladi. Masalan, Alisher Navoiyning “Hayrat-ul-abror” dostonidagi shohning zo‘ravon, zulmkor amaldorlarining qishloqdagi faoliyatini tasvirlovchi epizod bilan Muqimiyning “Tanobchilar” satirasidagi qishloqqa chiqqan chor amaldorlari faoliyatini ifodalovchi misralar ana shunday namunalardan biridir. Har ikki shoir epizodlari qiyoslanganda mavzuning o‘xshashligi, ob’ektlarga munosabatning, satirik ruhning umumiyligi, hatto holat va fosh etuvchi detallariing biri-ikkinchisiga juda yaqinligi yuzaga chiqadi. Muqimiy o‘zining o‘ta zamonaviy va to‘la original “Tanobchilar” satirasidagi kuchli epizodni yaratishda, shubhasiz, ustoz Navoiyning ta’sirida bo‘lgan. Navoiyning satirik mahoratidan ijodiy o‘rganib, shoir o‘z davri materiallarini satirik tahlil etadi, o‘ziga zamondosh amaldorlarning zo‘ravonligi va zulmkorligini fosh qilib, ijtimoiy tuzumdagi adolasizlikni hayotiy misollarda haqqoniy ko‘rsatadi. O‘z navbatida shuni aytib o‘tish kerakki, shoir hajviy asarlarida hayotiy haqiqatlarni aks ettirish bilan birga obrazlarga,davr voqealariga tasvir berishda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanib,badiiy tus beradi.

Muqimiy o‘zining “Tanobchilar” satirasida ham mazmun va uslub yangilanishlari kuzatiladi. Xalq orasida nom qozongan aziz avliyolarning ismlarini tilga olish orqali tarixiy davrdagi insonlarning tafakkuriga, anbiyolar haqidagi tasavvurlariga badiiy chizgilar bergan.

Derki: «Ko‘zungga hali kal jo‘jaman,
***Maxtumi a’zamlik** o‘zim xo‘jaman.*
*Bizga bobo **hazrati Shohiig‘** mazor,*
Muxlisimiz mardumi ahli diyor.
*Ham yana **Erhubbi** bo‘lodur tag‘o,*
*Ammamizing erlaridur **Nurato.***
***Bibi Ubayda** bo‘ladur xolamiz,*
Goh kelur erdi kichik bolamiz.
***Xizr** otamlarga burodar erur,*

Chimlig‘ azizlar *menga dodar erur.*

Muqimiyning o‘tmish satiradan ta’sirlanganligini isbotlovchi yana bir misol uning “Hapalak” qishlog‘i haqidagi Maxmur g‘azaliga taxmis bog‘lashida ko‘rinadi. Bir qator o‘tkir satiralar muallifi Maxmur o‘zining bu g‘azalida Umarxon davridagi mehnatkash xalqning ayanchli ahvoli, son-sanoqsiz soliqlar, o‘lka, qishloq, shaharlarni vayronaga aylantirganini Hapalak misolida juda jonli tasvirlagan edi. Bu g‘azal keyingi davrlarda ham o‘zining zamonaviylik ahamiyatini yo‘qotmadi. Chunki, Muqimiy davrida Maxmur yashab ijod etgan davrdan xalq ommasini yashash sharoitining yaxshilanishi ma’nosida zarracha ham o‘zgarish bo‘lmadi, aksincha, xalqning turmushi ikki yoqlama zulm ostida yanada og‘irlashdi. Shuning uchun ham Muqimiyning xuddi shu satirik g‘azalga murojaat etishi tasodifiy emas: shoir Maxmur asari o‘z davrining ham holatini realistik tasvirlaydi, deb hisoblaydi va ayni zamonda, har baytga ulangan o‘z misralari bilan salafining g‘azalini yangi hayotiy faktlar bilan boyitib, mazmunini chuqurlashtiradi, satirik fosh etish ruhini kuchaytiradi. Natijada mazmun, maqsad, shakl, intilish va g‘oya jihatidan bir butun, mukammal va aytish kerakki, endilikda Muqimiy qalamiga mansub yangi satirik muxammas maydonga keldi.

Muqimiy hajviyalaridagi voqealarning boshlanma qismilarini alohida ohang, afsona tarzida qiziq bir kayfiyatda boshlaydi va tinglovchini o‘ziga jalb etadi. Xususan, Maxmur g‘azaliga muxammas tarzida yozilgan “ Hapalak qishlog‘i to‘g‘risidagi “ hajviyasida esa qissa tarzida bayon qilish uslubi yetakchilik qiladi. Bu haqda shoir asaridagi quyidagi misralarda ishora tarzida bitilganligi bilan ahamiyatlidir.

Ko‘rdi sandek shahi odilni na ins-u na malak,
Arraning zulmidin emin hama bog‘-u chakalak,
Yangi oy ko‘ziga xasmingni oturg‘a kamalak,
Ey jahondori zafar kavkabai davri falak,
Eshiting ***qissai*** *qishlog‘i xarobi Hapalak.*

Mehnatkash omma, dehqonlarning og‘ir iqtisodiy ahvoli, qishloqlarning “hapalak”lar darajasiga tushib qolganligi, ikkiyoqlama zulm ostidagi huquqsiz hayot, adolasizlik ijtimoiy hayotning har sohasida hukmron ekanligi va boshqa shu kabilar Muqimiy satirik merosida yetakchi mavzulardan biriga aylangan. Shoirning ilg‘or dunyoqarashi nuqtai nazaridan, tuzum va adolat haqidagi ijobiy ideali pozitsiyasida yoritilgan bu yetakchi mavzu doirasidagi masalalar uning deyarli barcha satirik asarlarida qo‘yiladi, rang-barang hayotiy materiallarda aniq tanqdiy maqsad bilan ishlanadi. Bu esa shoir satirasiga chuqur ijtimoiylik ruhni singdiradi. Chindan ham, Muqimiyning bir qator satiralarini o‘zbek ijtimoiy-siyosiy satirasining birinchi namunalari qatoriga kiritsa bo‘ladi. “Tanobchilar”, “Voqeai ko‘r Ashurboy hoji” kabi

satirik asarlarda ijtimoiy-siyosiy masala — jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, tabaqalanish, hukmron adolasizlik, inson tengligi, insoniy huquq kabi masalalar berilgan. O‘zbek adabiyoti tarixida Muqimiy siyosiy masala – saylov mavzusini birinchi bo‘lib badiiy adabiyotga olib kirdi. “Saylov” asari bilan adabiyotimizda bu mavzuning keyinchalik (Zavqiy va Hamza) yanada chuqur ishlanishiga yo‘l ochdi. Muqimiy jamiyatning ikki qutbga ajralganligini, unda ijtimoiy tengsizlik hukm surishini ko‘ra oldi, o‘zi yashab ijod etayotgan hayotda boylar va kambag‘allar, to‘qlar va ochlar, katta yer egalari va bechora dehdonlar, zavod- fabrika egalari va ular qo‘lida ishlovchilar mavjudligini angladi hamda ularni o‘z asarlarida aks ettirdi. Bu o‘rinda zavod egasi “Maskovchi” boy Hodixo‘ja va uning korxonasidagi ishchilar haqidagi Muqimiy misralarini eslash kifoya. Shoirning satirik merosi zaminida mehnatkash xalqqa, kambag‘al dehqonlarga samimiy xayrixohlik, tekinxo‘r tabaqa vakillariga kuchli nafrat singib ketgan. Muqimiy satiralarida jiddiy ijtimoiy masalalarning qo‘yilishi hamda g‘oyaviy-siyosiy yetuklik darajasida hal etilishi uning so‘nggi asarlaridan biri “Voqeai ko‘r Ashurboy qoji” asarida yaqqol ko‘rinadi. Shoir bu asarida axloqiy-maishiy buzuq Ashurboy hojining og‘ir jinoyati haqida so‘zlaydi, “Farg‘onada nomdor, moldor” bo‘lgan bu boyning iflos qilmishlarini yopib ketish uchun hukmron sinflarning unga qilgan homiyliklarini fosh etadi... Ashurboy hoji tun qorong‘uligida kambag‘al bir kishining uyiga yashirincha kirib, jinoyat qilayotgan vaqtida qo‘lga tushadi. Lekin jinoyatchining boy bo‘lganligi uchun ham butka boshi va mingboshilar uni qutqazib qolmoqschi bo‘ladilar, bu shoirning katta yutug‘idir:

Qorovul, istarshi-yu, mingboshilar
Chopib keldilar deb: “Nachuk, kor-zor?”
Bosib kirdilar: “Bu nachuk dod?” deb
Qorovulning uyiga beixtiyor.
Ko‘rib dedilar: “Boy ekan, qochiring!”

Misralardagi “Chopib kelishlari”, “bostirib uyga kirishlar” detallarida amaldorlarning shunday kutilmagan holatida o‘zlarini tutishlari yorqin ifodalangan bu detallarda ulardagi hovliqish va tahlika sezilib turadi, uy egasiga nisbatan zo‘ravonlik va boyga nisbatan laganbardorlik ko‘rinadi.

Haloyiq Ashurboy hojini qochmoqchi bo‘lganida tutib oladi, uni toshbo‘ron qilmoqchi bo‘ladi. Bu o‘rinda hukmron adolasizlik o‘z kuchini ko‘rsatadi. Hatto pristav va qozilar, hokimlar ham jinoyatchi boy tarafiga o‘tadilar. Muqimiy satirada hukmron sinflarning bu zo‘ravonliklariga norozilik bildiradi, adolasizlikni qattiq qoralaydi. Adolasizlik esa har sohada, turli shakllarda ko‘rinardi.

Muqimiyning “Voqeai ko‘r Ashurboy hoji” hajviyasidagi mazkur misralarda ham aynan qissa tarzida bayon qilish uslubidan uumli foydalanilgan.

Ajab xalq ekanmiz, ajab ro‘zg‘or,

Qiziq hodisa, turfa layl-u nahor.
Ashurboydin eshiting ***qissaye,***
Ayo ey bu Farg‘onada nomdor.

Aynan mazkur hajviyada shoir uslubidagi motiv xususiyatlardan yana biri , ya’ni davlat amaldorlarining lavozimlari misralarda ko‘p bor foydalanilgan.Xususan,

*a)****Qorovul, istarshi-yu mingboshilar****,*
Chopib keldilar, deb: nachuk kor-zor?!
*b)****Pristupga*** *ma’lum qilmoq uchun,*
Olib kirdilar to‘g‘ri aylab qator
c)Shariatga aylab havola, dedi:
Bu da’voga teyishli ***qozig‘a*** *bo*r

Hajviy asarda kunyalar(*taxallus, oilaviy qo‘yilgan laqab, insonning ikkinchi nomi*)ning qo‘llanilishi ham asarning xalq tiliga yaqinlashuvini, xalqona so‘zlardan andoza olish xususiyatlarini o‘zida jamlagan.

a)*O ’ris* ***to‘ra*** *oldida munkir kelib,*
Dedi: tuhmat aylar olurg‘a niqor.
b)Haqorat qilingan kishilar qolib,
Topib ***boy*** *so‘zi bunda zo‘r e’tibor*
c)Dedi: nega bosting birovning qizin,
Bobo ***hoji*** *bo‘lsang, kupes — moldor*

Muqimiy ijodida birinchi navbatda, uning satirik merosida o‘lka iqtisodiy hayotida, ijtimoiy-falsafiy ongida jiddiy siljishlar yuz berayotgan davrning ruhi, sharoit muhri chuqur iz qoldirgan. Shoir o‘zi guvoh bo‘layotgan tuzum va xalq hayotidagi o‘zgarishlarni ziyraklik bilan kuzatib bordi, yangiliklarning, tartib-qoidalarning chin mohiyatini xalqchil, ilg‘or g‘oyalar nuqtai nazaridan tushunishga intildi. Burjuacha saylovdagi qalbakilik va muttahamlikni fosh etuvchi satira xuddi shunday yondashuvning mevasidir. “Maskovchi boy ta’rifida”, “Veksel”, “Dar mazammati zamona”, “Lyaxtin” hamda “Viktor” siklidagi satiralar “Saylov” satirasi kabi shoir zamonasining muhim masalalarini turli qirralarda qamrab oladi.

“Maskovchi boy ta’rifida” satirasi bu jihatdan xarakterli. Shoir bu asarida ham aniq tarixiy sharoit, real voqelik “pishirib” bergan mavzuni tanqidiy-satirik usulda taqlil etadi. ...Uchar mahalliy boylar rus kapitalistlari va banklaridan katta-katta kreditlar olib, birlamchi shakllarda bo‘lsa-da, “o‘z” zavod-fabrikalarini sura boshladilar. Shakllanayotgan bu milliy burjuaziya, bir tomondan, rus kapitaliga bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy jihatdan unga qaram bo‘lsa, ikkinchi tomondan, o‘zi mustaqil, o‘z bozoriga o‘zi xo‘jayin bo‘lishga, daromadni o‘zigina egallashga urinar edi. Natijada, o‘zaro kuchli raqobatda bo‘lgan milliy burjuaziya rus kapitalistlari bilan ham raqobat qila boshlaydi. Ammo, juda ko‘p hollarda mahalliy kapitalistlar

krizisga uchrab “sinar” edilar. Muqimiyning bu satirasida kapitalistik munosabatlarning doimiy yo‘ldoshini Hodixo‘ja eshon nomli kichik boyning “sinishi” misolida ishonarli tasvirlaydi.

Muqimiy qalamiga mansub “Maskovchi boy ta’rifida” hajviyasi boshlanmasida go‘yoki shoir roviy kabi hikoyat qilish uslubini tanlaydi. Bu holatni quyidagi asar boshlanmasidagi misralarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Hikoyat *qilay, turfa davron ekan,*
Xaloyiq hama mahv-u hayron ekan.

Xuddi shu kabi hikoyat orqali bayon qilish uslubi “Voqeai Viktor” hajviyasining boshlanma qismida ham uchraydi.

Eshit, turfa so‘zlar hikoyat qilay,
Hikoyat *agarchi shikoyat qilay.*

“Voqeai Viktor “hajviyasining quyidagi satrlarida talmeh san’atidan mohirona foydalanilgan.Bu holat o‘z navbatida asarning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan hamda xalq og‘ziga tushgan adabiy qahramonlarning xalq hayotidagi jonli obrazini yaratishga xizmat qilgan.

a)Bu ishga jamii tijoratchilar,
*Dedilarki, devona — **Majnun** magar.*
*b)Sonur o‘zlarin **Xo‘ja Ahrori** vaqt,*
Piyoda jilovida iqbol-u baxt...

“Axtaring” radifli hajv yo‘nalishida yozilgan g‘azalida ham Navoiy boshlab bergan mumtoz an’analarga sodiqlik, hamda Navoiy asarlari orqali xalqqa afsona bo‘lgan qahromonlar obraziga murojaat qilish orqali keng ommaning badiiy tafakkuri va dunyoqarashini yanada oydinlashtirish hamda xalq og‘zaki poyetik ijodiga yaqinlik munosabati misralarda sezilib turadi.

Layli *topg‘il, desalar,* ***Majnuni*** *sargardonini(ng),*
Ko‘zlarining yoshidur rangi xino, deb axtaring.

“Darig‘o mulkimiz” nomli hajv yo‘nalishida yozilgan muxammasida diniy tushunchalarni anglatuvchi so‘zlardan keng foydalangan.Xususan, *shariat, musulmon, shayton, hidoyat,amri ma’ruf, iymon, islom, yo rab, rahbari layl* kabi so‘zlar keltirilgan. Bundan anglashiladiki, Muqimiy yashagan davr kishilari va tarixiy jarayonda insonlarni ma’naviy va diniy qarashlari , tafakkuri va estetik qarashlari ma’lum darajada shakllanganligi asardan ma’lum bo‘ladi.

Zamona ahlini bir xayli bordur hayf insonliq,
Shul insofi bilan ul aylagay da’vo ***musulmonliq****,*
Birovga hiyla-yu makr aylayur, af oli ***shaytonliq,***
Bo‘lur xursand o‘z qilg‘on ishiga buyla nodonliq,
Berib qiz keksa boyga faxr ila xesh-u tabor oimish

Xullas, Muqimiy Alisher Navoiy boshlab bergan, keyinchalik esa Mashrab, Turdi, Maxmurlar davom ettirgan satira yaratish tajribasini o‘zlashtiradi, o‘zi ham xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanib, qator kuchli satirik asarlar yozdi. Satirik muxammaslar to‘g‘risida ham shuni aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov G‘. Muqimiy, T.: Ma’naviyat. 2009.
2. Pardayev Q. Muqimiy she’riyatining matn tarixi, tahriri va talqini. Avtoreferat. – T.:2020.
3. Pardayev Q. Biz bilmagan Muqimiy. Yangi aniqlangan va matni qayta tiklangan asarlar. – T.: Muharrir nashriyoti, 2019,19-bet.
4. Qosimov Begali va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Darslik. T., 2004.
5. Yusupov Sh. Tarix va adab bo‘stoni. –T.: Ma’naviyat, 2003, 6-bet.

SINONIMIYA MUAMMOSINING HOZIRGI FILOLOGIK YONDASHUVLARDA O‘RGANILISHI

Jumanazarova Saida Rustambek qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
2-bosqich magistranti
jumanazarovasaida010@gmail.com
+998 99 474 74 74

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada sinonimiya hodisasining zamonaviy filologik yondashuvlarda o‘rganilishi, uning leksik-semantik, uslubiy va pragmatik jihatlari tahlil qilinadi. Sinonimlarning ma’no yaqinligi, differensial semantik komponentlari, kontekstual xususiyatlari hamda nutqdagi funksional roli yoritiladi. Shuningdek, sinonimiya muammosining leksikografiya, tarjimashunoslik, sotsiolingvistika va kompyuter lingvistikasi bilan bog‘liqligi ko‘rsatib beriladi. Maqolada sinonimik qatorlar tizimi, uslubiy bo‘yoq, kollokatsion imkoniyatlar va zamonaviy korpus yondashuvlari asosida sinonimlarni o‘rganish istiqbollari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Sinonimiya, sinonimlar, leksik-semantik munosabatlar, semantik komponent, kontekstual sinonimiya, uslubiy bo‘yoq, pragmatika, kollokatsiya, sinonimik qator, polisemiya, leksikografiya, korpus lingvistikasi, kompyuter lingvistikasi, nutq madaniyati, tarjimashunoslik.

ANNOTATION:

This article examines the phenomenon of synonymy within modern philological approaches, analyzing its lexical-semantic, stylistic, and pragmatic aspects. It explores the semantic proximity of synonyms, their differential semantic components, contextual features, and functional roles in speech. The study also highlights the interrelation of synonymy with lexicography, translation studies, sociolinguistics, and computational linguistics. Furthermore, the paper substantiates the prospects of studying synonyms based on synonymic sets, stylistic coloring, collocational potential, and modern corpus-based approaches.

Keywords: Synonymy, synonyms, lexical-semantic relations, semantic component, contextual synonymy, stylistic coloring, pragmatics, collocation, synonymic set, polysemy, lexicography, corpus linguistics, computational linguistics, speech culture, translation studies.

Sinonimiya hodisasi til tizimining eng murakkab va shu bilan birga eng faol qatlamlaridan biri sifatida leksik-semantik munosabatlar doirasida alohida o‘rin

egallaydi. Sinonimlar nutqning aniqligi, ifodaviyligi va uslubiy rang-barangligini ta’minlaydi; ular fikrni nozik ma’no ottenkalari bilan yetkazish, takrorni bartaraf etish, baholash va emotsional-ekspressiv munosabatni ifodalashda beqiyos vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun sinonimiya nafaqat leksikologiya va semasiologiyaning nazariy masalasi, balki uslubshunoslik, matn lingvistikasi, pragmatika, sotsiolingvistika, tarjimashunoslik hamda kompyuter lingvistikasi uchun ham dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Sinonimiya o‘rganilishi tarixan tilshunoslikning umumiy taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lib, turli ilmiy maktablar va metodologiyalar doirasida mazkur hodisaga yondashuvlar ham o‘zgarib borgan: ba’zan sinonimlar “bir xil ma’noli so‘zlar” sifatida tor talqinda ko‘rilgan bo‘lsa, keyinchalik sinonimiya mazmuni semantik yaqinlik, komponent tahlili, kontekstual shartlanganlik, uslubiy differensial belgi va pragmatik funksiyalar asosida kengroq, dinamik tushunchaga aylangan[6;32]. Bugungi kunda “mutlaq sinonimiya”ning til tizimida juda kam uchrashi, sinonimlar odatda bir-biridan uslubiy bo‘yoq, emotsional baho, so‘z qo‘llanish doirasi, kollokatsion imkoniyat yoki semantik komponentlar bilan farqlanishi haqidagi qarashlar yetakchi o‘rinda turadi.

Sinonimiya atamasining ilmiy mazmuni, avvalo, ma’no munosabatining qaysi darajada “teng” yoki “yaqin” ekanini aniqlash muammosiga borib taqaladi. Klassik semantikada sinonimiya ko‘pincha denotativ ma’no umumiyligi bilan bog‘langan: bir xil predmet yoki hodisaga ishora qiluvchi birliklar sinonim deyiladi. Biroq bunday yondashuv sinonimlarning nutqdagi o‘rin almashinish imkoniyatini mutlaqlashtirib yuborishi mumkin, chunki til amaliyotida ko‘pincha bir denotatni anglatadigan bir necha birliklar turli registr, uslub yoki kommunikativ vaziyatda turlicha qabul qilinadi. Shu sababli zamonaviy semantikada sinonimiya “to‘liq o‘rin almashinuv”dan ko‘ra “ma’no yaqinligi” va “bir xil semantik yadroni bo‘lishish” mezonlari bilan izohlanadi; farqlovchi komponentlar esa ularning alohida uslubiy-pragmatik funksiyalarini belgilaydi[7;90]. Masalan, o‘zbek tilidagi “o‘lmoq” va “vafot etmoq” bir hodisani bildirsa-da, ikkinchisi kitobiy-rasmiy va evfemistik rangga ega; “yuz” va “bashara” denotativ jihatdan yaqin, biroq ikkinchisi ko‘pincha salbiy baho bilan bog‘lanadi. Bunday misollar sinonimiyani sof leksik-mazmuniy hodisa sifatida emas, balki lingvopragmatik va stilistik mexanizmlar bilan ham uzviy aloqada ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

Sinonimiya o‘rganilishida nazariy muammolardan biri sinonimlarni aniqlash va tasniflash mezonlarining ko‘pligidir. An’anaviy leksikologiyada sinonimlar qator (sinonimik qator)lar ko‘rinishida tasvirlanadi: bir qatorning markazida uslubiy neytral, eng umumiy birlik turadi, qolganlari esa ma’no ottenkalari yoki uslubiy bo‘yoqlar bilan farqlanadi. Bu yondashuv o‘zbek leksikologiyasi va leksikografiyasida ham faol qo‘llangan bo‘lib, sinonimik qatorlar tuzish amaliyoti

izohli va sinonimlar lug‘atlari yaratish tajribasi bilan mustahkamlangan[3]. Biroq sinonimik qatorlar “yopiq ro‘yxat” emas: til taraqqiyoti, ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar, yangi terminlarning kirib kelishi, so‘zlarning semantik siljishi natijasida qator tarkibi kengayishi yoki torayishi mumkin. Masalan, texnologik taraqqiyot “aloqa” atrofidagi sinonimik maydonni ham o‘zgartirdi: “telefonlashmoq”, “qo‘ng‘iroq qilmoq”, “bog‘lanmoq”, “xabar yubormoq”, “messendjerda yozmoq” kabi birliklar bir-biriga yaqinlashdi, lekin ularning uslubiy va kontekstual farqlari ham kuchaydi. Shu ma’noda sinonimiya statik tizim emas, balki nutq tajribasi va ijtimoiy kommunikatsiya bilan doimiy yangilanib turadigan dinamik hodisadir.

Sinonimiya masalasini chuqurroq anglash uchun “ma’no” ning o‘zi qanday tarkibiy qismlardan iborat ekaniga e’tibor qaratish zarur. Semantik komponent tahlili sinonimlarning umumiy va farqlovchi semalarini ajratishda samarali usul bo‘lib, u “yadro” sema va “differensial” semalar munosabatiga tayangan holda sinonimlarni tushuntirish imkonini beradi. Masalan, “tez” qatori doirasida “jadal”, “shiddatli”, “sapchib” kabi birliklarda harakat sur’ati umumiy sema bo‘lsa-da, “shiddatli”da kuch va intensivlik, “jadal”da rejalilik va uzluksizlik, “sapchib”da kutilmaganlik va impulsivlik kabi farqlovchi komponentlar seziladi. Shuningdek, sinonimlarning kollokatsion cheklanishi ularning farqlovchi semalarini yanada aniqlashtiradi: “shiddatli shamol”, “jadal ish”, “tez javob” kabi birikmalar tabiiy, biroq ularning o‘zaro almashtirilishi har doim ham bir xil darajada maqbul emas. Demak, sinonimiyani o‘rganishda faqat lug‘aviy izoh yetarli bo‘lmay, birliklarning real qo‘llanishi va birikuvchanligi ham empirik asos sifatida tahlil qilinishi zarur[2;12].

Sinonimiya va uslubiy qatlamlashuv o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘zbek tili materialida ayniqsa ravshan ko‘rinadi. Tilning kitobiy, so‘zlashuv, rasmiy-ish yuritish, ilmiy va publitsistik uslublari sinonimlardan turlicha foydalanadi, natijada bir denotatni ifodalovchi birliklar turli registrga birikib qoladi. Masalan, “boshlamoq” bilan “ibtido qilmoq”, “yordam bermoq” bilan “ko‘maklashmoq”, “aytmoq” bilan “bayon etmoq” o‘rtasidagi farqlar ko‘pincha uslubiy bo‘yoq bilan belgilanadi: ikkinchi juftliklar kitobiyroq va rasmiyroq tus oladi. Bunday farqlanish til madaniyati va nutq me’yorlari uchun muhim: matnning janri va adresatiga mos sinonim tanlash kommunikativ muvaffaqiyatni belgilaydi. O‘zbek tilshunosligida sinonimlarning uslubiy qiymati, sinonimik qator markazi va periferiyasi, neytral hamda bo‘yoqdor birliklar munosabati masalalari turli tadqiqotlarda yoritilgan[8]. Uslubiy sinonimiya nafaqat “go‘zallik” uchun, balki matnning pragmatik ta’sirchanligi uchun ham xizmat qiladi: publitsistik nutqda “talab qilmoq” o‘rniga “taqozo etmoq” deyish keskinroq, qat’iyroq ohang beradi; badiiy matnda “yig‘lamoq” o‘rniga “ingramoq”, “xo‘ngrab yig‘lamoq” kabi variantlar hissiy intensivlikni oshiradi.

Sinonimiya o‘rganilishining muhim yo‘nalishlaridan biri – kontekstual sinonimiya masalasidir. Ba’zi birliklar lug‘aviy jihatdan sinonim bo‘lmasa ham, muayyan kontekstda bir-birining o‘rnini bosa oladi yoki yaqin ma’no uyg‘otadi; aksincha, lug‘atda sinonim sifatida ko‘rsatilgan birliklar ayrim kontekstda almashmaydi. Kontekst sinonimlar o‘rtasidagi semantik masofani qisqartirishi yoki kengaytirishi mumkin. Masalan, “yo‘l” so‘zi bilan “manzil” odatda sinonim emas, ammo “hayot yo‘li” va “hayot manzili” kabi metaforik kontekstlarda yaqinlashadi. Bunday hodisalar semantik ko‘chish, metafora va metonimiya mexanizmlari bilan bog‘liq bo‘lib, sinonimiya faqat “tayyor” lug‘aviy munosabat emas, balki matn ichida yuzaga keluvchi semantik yaqinlashuv jarayoni ekanini ko‘p. Kontekstual sinonimiya ayniqsa tarjimada muhim: tarjimon ko‘pincha manba tildagi birlikning aynan ekvivalentini emas, balki kontekstga mos, pragmatik ta’siri o‘xshash sinonimik variantni tanlaydi; bu esa “ma’no tengligi” emas, “funktsional yaqinlik” prinsipini ilgari suradi.

Sinonimiya va polisemiyaning o‘zaro munosabati ham nazariy jihatdan muhim. Ko‘p ma’noli so‘zlarning ayrim ma’nolari boshqa so‘zlarning ma’nolari bilan sinonimik aloqaga kirishadi; natijada “qisman sinonimiya” yuzaga keladi. Masalan, “og‘ir” so‘zi “vazmin” bilan ba’zi kontekstlarda yaqinlashsa (“og‘ir odam” – “vazmin odam”), boshqa kontekstda “qiyin” bilan sinonimlashadi (“og‘ir masala” – “qiyin masala”). Bu holat sinonimiyani so‘z darajasida emas, ma’no darajasida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi[6;57]. Leksikografik amaliyot ham shuni tasdiqlaydi: sinonimlar lug‘atida ko‘p ma’noli so‘zlar har bir ma’no bo‘yicha alohida sinonimik qatorlarga joylashtiriladi, aks holda aralashlik va noto‘g‘ri almashinuv tavsiyalari paydo bo‘ladi. O‘zbek leksikografiyasida sinonimlarni izohlashda ma’no ajratish va misollar bilan mustahkamlash tamoyili aynan shu ehtiyojdan kelib chiqadi[3].

Sinonimiya o‘rganilishi tarixiga nazar tashlansa, Yevropa tilshunosligida sinonimlar qadimdan ritorika va stilistika doirasida qadrlangan bo‘lsa-da, ularning ilmiy tahlili struktur lingvistika va semantikaning rivoji bilan jadallashgan. Struktural yondashuv sinonimiyani paradigmatik munosabat sifatida ko‘rib, tizim ichidagi oppozitsiyalar va farqlovchi belgilarga tayanadi; bu yondashuv sinonimlarni “farqsiz” emas, balki “nozik farqlar” bilan ajraluvchi birliklar sifatida tasvirlashga imkon berdi. Keyingi bosqichda kognitiv semantika sinonimiyani inson tajribasi, konseptualizatsiya va prototiplar nazariyasi bilan bog‘lab talqin qildi: bir konsept turli nuqtai nazardan “nomlanadi”, natijada sinonimik variantlar paydo bo‘ladi; ularning tanlovi esa gapiruvchining niyati, bahosi, ijtimoiy roli va situatsiya bilan belgilanadi. Shunday qilib, sinonimiya o‘rganilishi bir tomondan tizimiy-semantik tahlilni, ikkinchi tomondan nutqiy-pragmatik tahlilni uyg‘unlashtirishni talab qiladi.

O‘zbek tilshunosligida sinonimiya masalasi leksikologiya va uslubshunoslikning uzviy qismi sifatida ko‘plab tadqiqotlarda til materialiga tayangan holda yoritilgan. Xususan, o‘zbek tilining izohli lug‘atlari va sinonimlar lug‘atlari sinonimik qatorlarni normativ jihatdan tasvirlashga, adabiy til me’yorlari doirasida tavsiya etiladigan variantlarni ko‘rsatishga xizmat qiladi. Adabiy til me’yorining o‘zi ham sinonimlar tanloviga ta’sir ko‘rsatadi: ayrim dialektal yoki so‘zlashuvga xos birliklar badiiy matnda maqsadli ishlatilishi mumkin bo‘lsa-da, ilmiy yoki rasmiy matnda cheklangan bo‘ladi; shu bois sinonimiya o‘rganilishi doimo norma va uslub masalalari bilan kesishadi [8]. Bundan tashqari, o‘zbek tili tarixiy taraqqiyotida arabcha-forscha qatlam va keyinchalik ruscha-baynalmilal terminologiya bilan bog‘liq ravishda ko‘plab dubletlar yuzaga kelgan: masalan, “maktub” – “xat”, “ta’lim” – “o‘qitish”, “tadqiqot” – “izlanish”, “muammo” – “masala” kabi juftliklar turli uslubiy va terminologik kontekstlarda turlicha faollashadi. Bunday dubletlik sinonimiya doirasida ko‘rilsa-da, ularning tarixiy-etimologik va sotsiolingvistik omillari ham tahlilda hisobga olinishi kerak.

Sinonimiya o‘rganilishining amaliy jihatlaridan biri – sinonimlarni o‘qitish va nutq madaniyatini oshirish masalasidir. Ona tili ta’limida sinonimlar mavzusi o‘quvchining lug‘at boyligini kengaytirish, ifodaning aniq va o‘rinli bo‘lishiga erishish, matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bunda sinonimlarni “bir-birini bemalol almashtiradi” degan soddalashtirilgan tasavvurdan saqlanish lozim: o‘quvchi har bir variantning uslubiy bo‘yoqi, baholovchi komponenti va qo‘llanish kontekstini anglab olishi kerak. Masalan, “qaramoq” fe’li bilan “nazar tashlamoq”, “tomosha qilmoq”, “ko‘z yugurtirmoq” variantlari turli intensional ma’nolarni bildiradi; ularning noto‘g‘ri tanlovi matnning tabiiyligini buzadi. Demak, didaktik yondashuvda sinonimlar qatorini misollar, kollokatsiyalar va matn bo‘laklari orqali o‘rgatish, stilistik mashqlar bilan mustahkamlash samarali bo‘ladi[4]. Ayniqsa, akademik yozuvda sinonimlarni me’yorida qo‘llash muhim: “takrorni yo‘qotish” niyatida terminlarni asossiz almashtirish ilmiy aniqlikka putur yetkazishi mumkin. Ilmiy matnda terminologik barqarorlik ustun turadi; sinonimik variantlar esa ko‘pincha izoh, parafraz yoki uslubiy muvozanatni saqlash uchungina ehtiyotkorlik bilan ishlatiladi[1].

Sinonimiya leksikografiya uchun ham markaziy muammolardan biridir. Sinonimlar lug‘atini tuzishda qaysi birliklarni sinonim deb tan olish, qator markazini belgilash, ma’no farqlarini qisqa va tushunarli izohlash, stilistik belgilash (kitobiy, so‘zlashuv, oddiy, qo‘pol, evfemistik va boshqalar) kabi masalalar hal qilinadi. Zamonaviy leksikografiya korpus lingvistikasi yutuqlaridan foydalanib, sinonimlar qo‘llanish chastotasi, tipik kollokatsiyalari va kontekstlarini empirik asosda ko‘rsatishga intiladi; bu esa sinonimiya haqidagi normativ tasavvurni real nutq

materiallari bilan muvofiqlashtiradi. O‘zbek tili uchun ham elektron korpuslar va raqamli lug‘atlar asosida sinonimik qatorlarni qayta ko‘rib chiqish, yangi so‘zlar va yangi ma’nolar kirib kelishi bilan qatorlarni yangilash, uslubiy belgilashni takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib bormoqda. Bunday ishlar nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki tarjima tizimlari, avtomatik matn tahlili, qidiruv tizimlarida semantik moslikni aniqlash kabi amaliy sohalarda ham katta samara beradi.

Kompyuter lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) nuqtai nazaridan sinonimiya muammosi “semantik ekvivalentlik”ni avtomatik aniqlash, so‘z ma’nosini ajratish (WSD), ma’lumot qidirish (IR) va mashina tarjimasi kabi yo‘nalishlarda markaziy o‘rin tutadi. Masalan, qidiruv tizimi “sotib olish” so‘roviga “xarid qilish” bilan bog‘liq hujjatlarni ham topishi kerak; buning uchun sinonimik munosabatlarni model qilish zarur. Biroq sinonimiya ko‘pincha kontekstga bog‘liq bo‘lgani sababli, oddiy sinonimlar ro‘yxati yetarli emas: “xarid qilish” rasmiyroq, “sotib olish” neytralroq; ayrim matnlarda biri boshqasidan afzal bo‘ladi. So‘nggi yillarda taqsimot semantikasi va transformerlarga asoslangan modellar (word embeddings, contextual embeddings) sinonimiyani “kontekstual yaqinlik” sifatida statistik o‘rganishga yordam bermoqda, ammo ularning natijasini tilshunoslik mezonlari bilan tekshirish, uslubiy va pragmatik farqlarni ham hisobga olish masalasi ochiq qolmoqda. O‘zbek tilida bu yo‘nalishning rivoji korpus resurslari, belgilangan ma’lumotlar va normativ leksikografiya bilan hamkorlikni talab etadi; sinonimiya bo‘yicha aniq tasniflar va misollar modeli mashina o‘rganish uchun “oltin standart” vazifasini o‘tashi mumkin.

Sinonimiya o‘rganilishida sotsiolingvistik omillar ham muhim. Bir tushuncha turli ijtimoiy guruhlar, avlodlar, kasbiy jamoalar yoki hududlar tomonidan turli nomlar bilan ifodalanishi mumkin; bu esa sinonimiyaning ijtimoiy shartlangan variantlarini yuzaga keltiradi. Masalan, ayrim so‘zlar yoshlar so‘zlashuvida faol bo‘lib, adabiy uslubda kamroq qo‘llanadi; aksincha, kitobiy sinonimlar oddiy so‘zlashuvda “rasmiy” eshitilishi mumkin. Kasbiy sohalarda esa termin va umumtil so‘zi o‘rtasidagi sinonimik yaqinlik ko‘p uchraydi: tibbiyotda “infeksiya” – “yuqum”, huquqda “shartnoma” – “kontrakt” kabi dubletlar kontekstga qarab farqlanadi. Bu jarayonlar terminologik siyosat, tilni standartlashtirish va me’yoriy tavsiyalar bilan ham bog‘lanadi. O‘zbek tilining so‘nggi davrdagi normativ rivojida milliy termin yaratish va xalqchil variantlarni faollashtirish tendensiyasi sinonimik maydonlarga ta’sir ko‘rsatdi: ayrim baynalmilal terminlarga o‘zbekcha muqobil taklif qilindi, natijada parallel qo‘llanish kuchaydi. Bunday holatda sinonimiya faqat “til ichki” hodisasi emas, balki ijtimoiy tanlov va til rejalashtirish bilan bog‘liq hodisaga aylanadi.

Sinonimiya badiiy matn tahlilida ham alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi sinonimlar orasidan muayyan variantni tanlar ekan, u nafaqat

ma’noni, balki obrazlilik, ritm, tovush uyg‘unligi, uslubiy rang va personaj nutqining ijtimoiy-psixologik portretini ham belgilaydi. Masalan, “gapirmoq” fe’lining “so‘zlamoq”, “demaq”, “pichirlamaq”, “ming‘irlamaq”, “baqirmoq”, “dod solmoq” kabi variantlari badiiy tasvirda personajning kayfiyati, munosabati va vaziyat tarangligini ochadi; sinonimiya bu yerda semantik emas, ekspressiv va pragmatik kuchga ega mexanizm sifatida ishlaydi[5]. Shu nuqtai nazardan sinonimiya o‘rganilishi poetik til, individual uslub (idiolekt) va diskurs tahlili uchun ham nazariy tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Sinonimiya muammosining yana bir qirrasi – evfemizm va disfemizm bilan bog‘liq sinonimik almashinuvdir. Jamiyatda nozik, taqiqlangan yoki salbiy baholanadigan mavzularni yumshatib ifodalash ehtiyoji evfemistik sinonimlarni yuzaga keltiradi: “o‘lmoq” o‘rniga “vafot etmoq”, “dunyodan ko‘z yummoq”; “kasal” o‘rniga “betob” kabi variantlar qo‘llanadi. Aksincha, kinoya yoki salbiy baho maqsadida disfemistik variantlar tanlanadi. Bu jarayon tilning axloqiy-me’yoriy va madaniy kodlari bilan bog‘liq bo‘lib, sinonimiya o‘rganilishida pragmatik va lingvomadaniy yondashuvni talab qiladi[7]. O‘zbek nutq odobida evfemizmlar keng tarqalganligi, ularning sinonimik qatorlarda uslubiy belgi sifatida ajralib turishi kuzatiladi; bu esa sinonimlar lug‘atida “muloyim”, “rasmiy”, “so‘zlashuv” kabi belgilashlarni izchil qo‘llash zaruratini kuchaytiradi.

Ilmiy tadqiqot metodlari nuqtai nazaridan sinonimiya o‘rganilishi ko‘p manbali yondashuvni talab qiladi. Birinchidan, nazariy-semantik tahlil sinonimlik mezonlarini aniqlashtiradi: denotativ yaqinlik, konnotativ farq, o‘rin almashinuv testi, antonimik oppozitsiyalar bilan aloqadorlik va hokazo[6]. Ikkinchidan, korpusga asoslangan tahlil sinonimlarning chastotasi, kollokatsiyasi, tipik sintaktik konstruksiyalari va diskurs sohalarini ko‘rsatadi; bu esa “qaysi sinonim qachon ishlatiladi” degan savolga empirik javob beradi. Uchinchidan, psixolingvistik yondashuv (assotsiativ tajribalar, reaksiya vaqti, so‘z tanlash vazifalari) sinonimlarning mental leksikondagi tashkilini, yaqinlik darajalarini va prototipik variantlarni aniqlashga yordam beradi. To‘rtinchidan, sotsiolingvistik kuzatuv sinonimik variantlarning ijtimoiy taqsimotini ochadi. O‘zbek tilshunosligida bu metodlarning barchasi bir xil darajada qo‘llanib ketgan deb bo‘lmasa-da, hozirgi bosqichda integrativ yondashuv sinonimiya muammosini yangi sifat darajasida yoritish imkonini beradi.

Sinonimiya o‘rganilishi bilan bog‘liq muhim nazariy xulosa shuki, sinonimlarni “to‘liq teng ma’noli” deb belgilash ko‘pincha metodik qulaylik uchun ishlatiladi, ammo real tilda har bir birlik o‘z “semantik profili”ga ega: u muayyan konseptual nuqtai nazarni, baho va uslubni tashiydi, muayyan kollokatsion muhitda ko‘proq ishlatiladi. Shuning uchun sinonimlarni tavsiflashda “tenglik” emas, “yaqinlik” va “farqlilik”ni birgalikda ko‘rsatish, ya’ni umumiy semantik yadroni

ham, differensial komponentlarni ham muvozanatda ochib berish zarur. O‘zbek tilidagi sinonimiya tizimi ham shu umumiy qonuniyatlarga bo‘ysunadi: unda tarixiy qatlamlar (turkiy, arabcha-forscha, ruscha-baynalmilal), uslubiy registrlar, dialektal variantlar va yangi media nutqi unsurlari o‘zaro kesishib, sinonimik maydonlarni boyitadi. Bunday boylik tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi, biroq bir vaqtning o‘zida me’yor, uslubiy moslik va terminologik aniqlik masalalarini ham keskinlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, sinonimiya o‘rganilishi tilshunoslikning nazariy va amaliy yo‘nalishlarini tutashtiruvchi, ko‘p omilli va ko‘p darajali tadqiqot sohasidir. Uning nazariy ahamiyati ma’no tuzilishi, leksik tizimning paradigmatik munosabatlari, polisemiyaning tarmoqlanishi va diskursda ma’no yaratilishi kabi masalalarni yoritishda namoyon bo‘ladi; amaliy ahamiyati esa lug‘atchilik, ta’lim, tarjima, matn tahriri, nutq madaniyati va raqamli til texnologiyalari uchun metodik asos bo‘lishida ko‘rinadi[4]. O‘zbek tilshunosligi uchun sinonimiya bo‘yicha izlanishlarni korpusga tayangan empirik tahlil bilan boyitish, sinonimik qatorlarning uslubiy va pragmatik xaritasini yanada aniqlashtirish, terminologik dubletlarni normativ mezonlar asosida tartibga solish, shuningdek, zamonaviy diskurslarda (internet, reklama, ommaviy axborot) sinonimik yangilanish jarayonlarini kuzatish istiqbolli yo‘nalishlar sirasiga kiradi. Shu tariqa sinonimiya hodisasini izchil va kompleks o‘rganish o‘zbek tilining leksik boyligini ilmiy asosda tavsiflash, adabiy til me’yorlarini mustahkamlash va til resurslarini raqamli muhitda samarali qo‘llashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd ed. – London: Routledge, 2018.
2. Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986.
3. Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, 1980.
4. Jackson H. Lexicography: An Introduction. – London: Routledge, 2013.
5. Leech G. Semantics: The Study of Meaning. 2nd ed. – Harmondsworth: Penguin Books, 1981.
6. Lyons J. Semantics. Vols. 1–2. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977.
7. Murphy M.L. Semantic Relations and the Lexicon. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
8. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2001.

QASHQADARYO VILOYATIDAGI ZIYORATGOHLARI VA ULARDA XALQ OG‘ZAKI IJOD MOTIVLARINIG AKS ETISHI.

Abduraxmanova Zumrad Normurod qizi
Chirchiq davlat pedogogika universiteti
2-bosqich mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada ziyoratgoh nomlarining kelib chiqishi bilan bog‘liq xalq og‘zaki iodi namulari hamda ularning xalqning turmush tarzi, ijtimoiy holatini aks ettirishdagi ahamiyati xususida muhim fikrlarga e’tibor qaratildi. Nomlardagi lingvokultrologik belgilar xalqning o‘tmish va hozirgi kundagi dunyoqarashidagi mushtaraklik o‘zaro bog‘lab tahlil qilindi.

Kalit so‘z. Ziyoratgoh, lingvokultrologik birliklar, xalq motivlari, o‘tmish va bugun.

Abstract. The article focuses on important ideas about the origin of the names of shrines and their significance in reflecting the lifestyle and social status of the people. The linguistic and cultural features of the names were analyzed in relation to the commonality of the people's past and present worldview.

Keywords: Shrine, linguocultural units, folk motifs, past and present

Аннотация. В статье рассматриваются важные идеи о происхождении названий святынь и их значении в отражении образа жизни и социального статуса населения. Лингвистические и культурные особенности названий анализируются в контексте общности мировоззрения людей в прошлом и настоящем.

Ключевые слова. святилище, лингвокультурные единицы, народные мотивы, прошлое и настоящее.

Zamonaviy tilshunoslikda tildagi har qanday birlikni lingvokultrologik jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki bu orqali shu birlikning aniq lisoniy tahliliga e’tibor qaratiladi. Xalq madaniyati bilan bog‘lab tadqiq qilinganda uning bir nechta xususiyati ochib beriladi. Jumladan, nomlarni o‘rganishda ham xalq og‘zaki ijodi orqali yetib kelgan motivlar orqali tahlil qilish, nom bilan bog‘liq aniq xulosalar chiqarishda ahamiyatlidir. Tilshunosligimizda ziyoratgoh nomlari va ularning kelib chiqishi bilan bog‘liq jarayonlarni bir qancha jarayonlar orqali o‘rganish mumkin. Shu jihatdano‘zbek tili toponimik tizimi, ayniqsa diniy-ma’naviy ahamiyat kasb etuvchi ziyoratgoh nomlari, xalq tafakkuri va madaniyatining yorqin namunasidir.

Ziyoratgoh toponimlari nafaqat geografikobyektni anglatuvchi nomlar, balki xalqning e’tiqodi, qadimiy tasavvurlari va ijtimoiy ongining tildagi aksidir. Shu

sababdan ularni lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish —tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur maqolada ziyoratgoh nomlarining o‘zbek tilidagi o‘rni, ularning lingvistik tuzilishi va madaniy mazmuni, shuningdek, diniy leksika bilan o‘zaro aloqasi yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi — o‘zbek toponimik tizimidagi ziyoratgoh nomlari orqali xalq madaniyati, e’tiqodi va tilning o‘zaro munosabatini tahlil qilishdir.

Ziyoratgoh atamasi arabcha ziyara — “borish, yo‘qlash, ziyorat qilish” so‘zidan kelib chiqqan. O‘zbek xalqining tarixiy va diniy hayotida ziyoratgohlar alohida muqaddas maskan sifatida e’tirof etilgan. Q.T.To‘rayevning ta’kidlashicha, toponimlar xalq tafakkurning “muzlagan tarixi” bo‘lib, ular orqali millatning e’tiqodi, qadriyatlari va madaniy qatlami o‘rganiladi.[29] O‘zbek toponimik tizimida ziyoratgoh nomlari alohida qatlamni tashkil etadi. Bunday nomlar ko‘pincha muqaddas shaxslar, payg‘ambarlar, avliyolar, tarixiy voqealar va xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning semantik yuklamasi keng va rang-barangdir. Ziyoratgohlar nafaqat diniy amaliyot obyekti, balki milliy madaniyat, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy ongni shakllantiruvchi muhim makon hisoblanadi. Shu bois ziyoratgoh toponimlarini lingvokulturologik jihatdan o‘rganish til va madaniyat o‘zaro munosabatlarini yoritishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbek toponimikasida ziyoratgohlar bilan bog‘liq nomlar keng tarqalgan. Leksik tarkib nuqtai nazaridan “bibi”, “ota”, “hazrat”, “imom” kabi diniy leksik elementlar ziyoratgoh nomlarining asosiy semantik yadrosini tashkil qiladi.

Qashqadaryo viloyati yurtimizning eng muqaddas ziyoratgohlarga boy zamini hisoblanadi. Viloyat hududida biri-birini takrorlamaydigan ziyorat obyektlari jamlangan. Ularning lingvokultrologik xususiyatlari ham viloyatda istiqomat qiluvchi kishilar e’tiqodi, turmush-tarzini aks ettirishi bilan o‘ziga xoslikni tashkil qiladi. Ziyoratlarni tadqiq qilish chog‘ida shu narsaga amin bo‘lindki, ziyoratgohlarning ko‘plari xalq o‘zi qadrlagan, qandaydir xususiyati bilan xalqning e’tiborini qozongan shaxslarni doimo ulug‘lagan va ularning ruhidan o‘zlariga madad so‘ragan. Ular qabrlari atrofini ziyorat qilib ulug‘lar ruhidan kuch-quvvat olishiga ishongan. Xususan, Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanidagi ziyoratgohlarni tadqiq qilish chog‘ida shu yerlik aholi bilan suhbatda ayni ziyoratgohlar nomlanishida turli-tuman xalq rivoyat va afsonalarining mavjudligi buning yaqqol dalilidir.

Qarshi tumanida aholi tomonida e’zozlanadidan bir qancha ziyoratgohlar mavjud. Jumladan, Langar ota, Mushkul ota, Ko‘ktosh ota, O‘g‘lonjon ota kabilar.

[29] 1 To ‘rayev Q.T, Qurbonov Sh.B. O‘zbekistonda diniy turizmni rivojlantirish va hududiy tashkil etilishni takomillashtirishning geografik asoslari. 2023.

Ularning har birining paydo bo‘lishida xalq tomonidan yaratilgan afsonalar yotadi. Hozir ular bilan bog‘liq qarashlarni tahlilga tortamiz.

Langar ota Qashqadaryo vohasida Langarota nomi bilan ataladigan ziyoratgohlari asosan, Qamashi va Chiroqchi tumanlarida uchraydi. Qo‘shni Tojikiston Respublikasida ham Langar ota nomli ziyoratgoh mavjud. Viloyatning Qamashi tumani Langar qishlog‘ida Langar ota masjidi va Shayx Abulhasan maqbarasi mavjud bo‘lib, dengiz sathidan 1000 metr balandlikda barpo etilgan. Ma’lumki, langar so‘zi “muvozanat yoki “o‘rtalik” degan ma’noni anglatadi. “langar” atamasi ko‘proq muvozanatni saqlash va harakatni bir maromda tutib turish ma’nosini anglatishi izohlanadi. Ba’zi rivoyatlarda islom dinida so‘fiylar va darveshlar langar tashlash orqali joylashadigan yerlarini aniqlagani, shuningdek, ushbu atama mo‘g‘ulcha “lango‘r” – qabr, ya’ni eng katta avliyoning qabri yoki boshqacha ta’rifda musofirxona, xayr-ehson tarqatiladigan joy, aziz-avliyolar langar tashlagan makon kabi ma’nolarni anglatadi.[30] Demak, bu nom izohini turlicha talqin qilish mumkin . Biz shular orasidan eng ma’qulini Shayx Muhammad Sodiq nomi bilan bog‘laymiz. Bu kishining asl ismlari Shayx Muhammad Sodiq bo‘lgan. Langar ota o‘zi yashab o‘tgan vaqtidagi muqaddas Qur’oni Karimni eng go ‘zal tilovat qiladigan Qori bo‘lgan. Ushbu ziyoratgohga tashrif buyurgan inson ajoyib bir ruhiy sokinlik sezadi. Langarota maqbarasi Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanidagi Langar ota ziyoratgohida joylashgan. Ziyoratgoh tarkibida, Langarota masjidi ham mavjud. Maqbara masjiddan bir soy naridagi tepalik ustida bunyod etilgan. Maqbaraning atrofi qabriston bo‘lib, tobutxonadan 100 metr uzoqlikda xilxona joylashgan. Mazkur yodgorlik Langarota masjidi qurilganidan 100 yil o‘tib bunyod etilgan. Maqbara qurilishidagi me’morchilik uslubi Xo‘ja Ahmad Yassaviy maqbarasiniki bilan juda o‘xshash. Langar ota maqbarasi pishiq g‘ishtdanqurilgan bo‘lib, eshik va deraza darchalari jimjimador naqshlar bilan bezaklangan. Maqbarada jami 5 ta qabr mavjud, ularning 3 tasiga qabrtoshi o‘rnatilgan. ―Langar‖ atamasi mozor, qabriston yoki ziyoratgoh, shu bilan birgalikda karvonsaroy, karvonlar to‘xtash joyi, bekati degan ma’nolarni anglatadi. Maqbara o‘z davrida ayni shunday hududda joylashgan. Maqbarada Abulhasan Ishqiy va uning yaqinlari dafn etilganligi sababli ham bu inshoot Shayx Abulhasan maqbarasi nomi bilan ham mashhur.Ayrim rivoyatlarga ko‘ra, «Langar ota― atamasi shayx Abulhasanning kunyasi hisoblangan. Qadimshunos olim Abdusobir Rayimqulovning tadqiqotlariga ko‘ra, Langar ota maqbarasiga tasavvuf ta’limotining ishqiya tariqati bilan shug‘ullanuvchi shayxlar Abulhasan Ishqiy, o‘g‘li shayxzoda Muhammad Sodiq va nabirasi Abulhasan Oxund dafn etilgan. To‘rtinchi qabrda hech qanday qabrtoshi mavjud

[30] https://interoncof.com/index.php/nether/article/view/2269

bo‘lmaganligi uchun uning kimga tegishli ekanligi aniq emas.[31] Yuqoridagi izohlardan ko‘rinib turibdiki, Langarota nomi shayx Abulhasanning kunyasi bilan bog‘liq degan qarash eng izoh desak xato qilmaymiz.

O‘g‘lonjon ota maqbarasi — Qamashi shahridagi me’moriy yodgorlik (18—XIX asrlar). Maqbara to‘rtburchak tarhli, peshtoqgumbazli; pishiq g‘ishtdan qurilgan. Bosh tarzidagi peshtog‘iga yassi ravoqlar, burchaklariga guldastalar ishlangan. Sag‘ana joylashgan xonaning ichki devorlari ravoqli.[32] Ziyorat chog‘ida shu yerning imomi Navro‘z aka bilan suhbat chog‘ida shu narsa aniqlandiki, O‘g‘lonjonota nomi asli Hazrat Alining o‘g‘li Hazrat Jafar nomi bilan bog‘liqligi talqin etildi. Ularga safar chog‘ida ayni shu hududda ularga dushman hujum qilib, qilib, o‘q tegadi. Ular endi navqiron yoshida bandalikni bajo qilgani uchun ham o‘g‘lon yoshida ketdi, yosh,navqiron o‘tdi deb shu nom berilgan. Ular xotirasiga maqbara bunyod etilib, ko‘plab aholi shu yerda quturish kasaliga davo istab, kelishi aytildi. Buning sababini esa quyidagicha izohlashdi. Daydi,quturgan o‘q uni nobud etdi, kimki bu yerni ziyorat etsa u shu kasallik bilan kasallangan bo‘lsa darddan forig‘ bo‘lsin deb aytgan ekanlar.

Mushkul ota deb talqin etiluvchi ziyoratgoh nomi bilan ma’lum bo‘lgan bu maskan 18-asrga oid hisoblanib, uning asli nomi xalq orasida o‘zining karomatlari bilan mashhur bo‘lgan Musallam ona nomi bilan bog‘liqligi ma’lum bo‘ldi. Mussallam ona ba’zi rivoyatlarga ko‘ra Bahavuddin Naqshbandning ammasi bo‘lib, u kishi ko‘plab kishilarni og‘irini yengil qilganliklari uchun ham aynan shu nom berildi.Nom shundan buyon shunday atalmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, Har bir ziyoratgoh nomlanishida o‘ziga xos rivoyat va haqiqatlar bor. Ularni o‘rganish orqali milliy qadriyatlarimizni kelib chiqishi haqida fikrlarimizni yanada kengaytiramiz va ular nomi bilan bog‘liq haqiqatlarimizni oydinlashtiramiz. Bu esa qadriyatlarga sodiqlik ruhini shakllantiradi. Bundan tashqari xalqimizning qadimgi madaniyati va e’tiqodini o‘rganish orqali, ayniqsa ularning til xususiyatini ochib berish orqali nomga xos bo‘lgan asosiy va haqiqatga yaqin bo‘lgan jihatlarini aniqlash mumkin. Biz yuqoridagi nomlar izohini o‘rganishda aynan shu usulni tanlasak xato bo‘lmaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.To‘rayev Q.T., Qurbonov Sh.B. O‘zbekistonda diniy turizmni rivojlantirish va hududiy tashkil etilishni takomillashtirishning geografik asoslari, 2023
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zME, 2008.

[31] Yangi O‘zbekistonda milliy turizm istiqbollari” mavzusidagirespublika ilmiy-amaliy konferensiyasi,12.06.2024-y, 150b

[32] https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBg%CA%BBlonjon_ota_maqbarasi

3. Islom ensiklopediyasi. Toshkent: O‘zME, 2004.
4. [1] https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBg%CA%BBlonjon_ota_maqbarasi
5. https://interoncof.com/index.php/nether/article/view/2269

MUNDARIJA

1. **G‘.I. Muxamedov**
KIRISH SO‘ZI....3

2. **Ayşegül Demir**
TÜRKİYE VE ÖZBEKİSTAN ATASÖZLERİNDE KUŞAKLARARASI TOPLUMSAL DÜZEN: KARŞILAŞTIRMALI BİR İNCELEME....6

3. **Сүйінжанова Ж.К.**
ҚАЗАҚ ЖӘНЕ ТҮРІК ТІЛДЕРІНДЕГІ АДАМ МІНЕЗІН СИПАТТАЙТЫН ФРАЗЕОЛОГИЗМДЕРДІҢ ЗЕРТТЕЛУІ....14

4. **Naraliyeva Shahlo Jamalovna**
MEDIA EKOLOGIK DISKURSNING LINGVO-KOGNITIV VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARI....21

5. **Mengliyev Baxtiyor Rajabovich**
SI VA INSON: PROMPT VA PROMPTER....26

6. **Filiz Güven**
METİNSEL BENZERLİKTEN BAĞLAMSAL İLİŞKİYE: BAMSI BEYREK VE ALPOMISH ÜZERİNDEN KARŞILAŞTIRMAYI YENİDEN DÜŞÜNMEK....35

7. **Sobirov Abdulhay Shukurovich**
OQILONA TIL SIYOSATI – MUVAFFAQIYATLAR GAROVI....44

8. **Utebekov Senbek**
DİVÂN-I HİKMET’TE TASVİRÎ FİİLLERİN ANLAM VE KULLANIM ÖZELLİKLERİ....49

9. **Омарова Фаида**
ДЕРИВАЦИОННЫЙ ПОТЕНЦИАЛ И ВАЛЕНТНОСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КОРНЕВЫХ СЛОВ В ТЮРКСКИХ ЯЗЫКАХ КЫПЧАКСКОЙ ГРУППЫ....59

10. **Тлеубекова Ботакоз Тургамбаевна**
ҚАЗАҚ ЖӘНЕ ӨЗБЕК ӘДЕБИ ШЫҒАРМАЛАРЫН ОҚЫТУДА МЕДИАСАУАТТЫЛЫҚТЫ ҚАЛЫПТАСТЫРУ....67

11. **Қарсыбекова Ш.П.**
ҚАЗАҚ МАҚАЛ-МӘТЕЛДЕРІ: ҰЛТТЫҚ ҚҰНДЫЛЫҚТАРДЫҢ ТІЛДІК РЕПРЕЗЕНТАЦИЯСЫ....73

12. **Ma’rufjon Yuldashev**
O‘ZBEK LOGISTIKA TERMINOLOGIYASI VA UNING ISTIQBOLI MASALALARI....91

13. **Shuhrat Ko‘chimov**
XXI ASR GLOBALLASHUV: DAVLAT TILI VA MILLIY TILLAR....99

14. **A. Yermekbayeva, S. Abdikarimov**
CULTURAL AND HISTORICAL REALIA: TYPES AND TRANSLATION STRATEGIES....106

15. **Ikramov Ravshan Aktamovich**
YURIDIK SOHA LEKSIKASIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLAR....118

16. **Nuryýewa Ogulsapar Ataýewna, Gurbangulyýewa Nurnabat Gurbanowna**
“GORKUT ATA” EPOSYNYŇ DILINDE YSNYŞMA TÄRI BILEN BAGLANYŞÝAN SYPAT AÝYRGYÇLARY 123

17. **Жылқыбай Гүлімжан Қызметқызы, Дарыбай Гаухар**
ҚАЗАҚ ТІЛІН ОҚЫТУДА ЖОБАЛАУ ӘДІСІН ҚОЛДАНУ - ОҚУШЫЛАРДЫҢ КОММУНИКАТИВТІК ҚҰЗЫРЕТТІЛІГІН АРТТЫРУ ҚҰРАЛЫ 128

18. **Ótebaeva Dilbar Ayapbergen qızı**
QARAQALPAQ TILINDE EKOLOGIYALÍQ LEKSIKANÍŃ JAŃALANÍWÍ: TERMIN JASAW HÁM ÓZLESTIRIW PROCESLERI 142

19. **Алашбаев Ерлан Жорабекұлы**
ӘЛІШЕР НАУАИ ПОЭЗИЯСЫ МЕН ҚАЗАҚ ӘДЕБИЕТІНДЕГІ РУХАНИ-ЭТИКАЛЫҚ ҚҰНДЫЛЫҚТАР: САЛЫСТЫРМАЛЫ ЗЕРТТЕУ 149

20. **Islomov Ikrom Xushboqovich**
O‘ZBEK INTERNET SEGMENTI LEKSIKASI: ZAMONAVIY HOLATI, MUAMMOLARI 162

21. **Адиева Пакизат Минаваровна, Назгүл Энтериева**
ҚАЗАҚ ФОЛЬКЛОРЛЫҚ ДИСКУРСЫНДАҒЫ КИІМ АКСИОЛОГИЯСЫ ЖӘНЕ ОНЫҢ ЭТНОМАРКЕРЛІК ҚЫЗМЕТІ 170

22. **Анвар Ҳайдаров**
КАТЕГОРИЯИ ШУМОРАИ ИСМ ДАР ЗАБОНИ ТОҶИКӢ 177

23. **Meleyke Memmedova**
DOĞUM RITÜELLERINDE ÇOCUK FOLKLORUNUN EĞITICI VE TERBIYEVI İŞLEVLERI 184

24. **Pardayev Qo‘ldosh Uzoqovich**
JADID ZIYOLILARI IJODIDA TIL MUAMMOSI 195

25. **Mirzayeva Aygul**
LINGUOCULTURAL FEATURES OF TOPONYMS IN TURKISH AND GAGAUZ LANGUAGES 201

26. **Ravshanxo‘ja Rasulov, Jumanazarova Saida Rustambek qizi**
FRAZEOLOGIZMLAR – FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR (“MEHROBDAN CHAYON” ROMANI ASOSIDA) 207

27. **Ергубекова Ж.С.**
А.БАЙТҰРСЫНҰЛЫ ЖӘНЕ ҚАЗІРГІ ҚАЗАҚ ТІЛІ СИНТАКСИСІ ҒЫЛЫМЫНДА ҚАЛЫПТАСҚАН ТЕРМИНДЕР ЖҮЙЕСІ 211

28. **Жылқыбай Гүлімжан Қызметқызы, Бахадирова Чарос**
ҚАЗАҚ ТІЛІНДЕГІ ЭМОЦИЯ АТАУЛАРЫНЫҢ КОГНИТИВТІК-СЕМАНТИКАЛЫҚ РЕПРЕЗЕНТАЦИЯСЫ 216

29. **Məmmədzadə Arzu Rövşən q.**
AZƏRBAYCAN VƏ ÖZBƏK ATALAR SÖZLƏRİNDƏ QADIN VƏ AİLƏ DƏYƏRLƏRİNİN ƏKSİ 227

30. **Гылыджова Говхертач Нурбердыевна**
ДИСКУРСИЯ ЕСТЕСТВЕННАЯ НАУКА В ПОЕЗИИ МАГТУМГУЛИ 230

31. **Eminova Ülviyyə Mubariz qızı**
ƏBDÜLHAQ HAMİD TARHAN VƏ HÜSEYN CAVİD DRAMLARINDA HÖKMDAR OBRAZLARI 235

32. **Куттыбаев Шоканхан Дуйсенханович**
ШЫҢҒЫС АЙТМАТОВ ПРОЗАСЫНДАҒЫ ТҮРКІЛІК РУХ ЖӘНЕ ҰЛТТЫҚ ҚҰНДЫЛЫҚТАР 240

33. **Mo‘ydinov Qodirjon Abdurasulovich**
HUQUQ TILI LEKSIK BIRLIKLARINING MA’NOVIY MUNOSABATLARI 248

34. **Moldasheva Madina Miramgalikyzy**
ARAP HARFLİ TÜRKÇE METİNLERİN TRASLİTERASYONUNDA KARŞILAŞILAN SORUNLAR....254

35. **Davlatova Adiba Raxmatovna**
ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTIDA MIFOLOGIK OBRAZLARNING YANGICHA TALQINI....262

36. **Shofqorov Abdishukur Musayevich**
GRAMMATIK BILIMLARNING SHAKLLANISHIDA NEYROLINGVISTIK VA KOGNITIV OMILLAR....269

37. **Қарсыбекова Ш.П.**
ҚАЗАҚ МАҚАЛ-МӘТЕЛДЕРІ: ҰЛТТЫҚ ҚҰНДЫЛЫҚТАРДЫҢ ТІЛДІК РЕПРЕЗЕНТАЦИЯСЫ....274

38. **Нодира Холикова**
ЎЗБЕК ЖАДИД НАСРИДА ХОТИН-ҚИЗЛАР ОБРАЗИ ВА МИЛЛИЙ РУҲ ИФОДАСИ 293

39. **Abduvaliyeva Dilnoza Akramovna**
“NAHJUL-FARODIS”DA QADIMGI TURKIY VERBAL LEKSIKANING SEMANTIK DAVOMIYLIGI....303

40. **Қошанова Н.**
ҚАЗАҚ ТІЛІНДЕГІ СӨЙЛЕМДЕРДІҢ МАЗМҰНДЫҚ, КӨЛЕМДІК КЕҢЕЮ ЖОЛДАРЫ....308

41. **Aytbayev D.T.**
NUTQ OHANGINING MAZMUNNI FARQLASHDAGI VAZIFASI....316

42. **Muxammadaliyeva Shaxzoda Maxmud qizi**
NUTQNING TA’SIRCHANLIGINI OSHIRISHDA RAMZ VA SIFATLASHNING O‘RNI....321

43. **Ahmedov Hakim Yarashevich**
O‘ZBEK XALQ DOSTONLARIDA “YER VA OSMON” KONSEPTINING FRAZEOSEMANTIK TAHLILI (Surxondaryo turkum dostonlari misolida)....327

44. **Ергубекова Ж.С.**
А.БАЙТҰРСЫНҰЛЫ ЖӘНЕ ҚАЗІРГІ ҚАЗАҚ ТІЛІ СИНТАКСИСІ ҒЫЛЫМЫНДА ҚАЛЫПТАСҚАН ТЕРМИНДЕР ЖҮЙЕСІ....332

45. **Urazov Bagdat Tulepbergenovich, Urazova Sandug‘ash Bagdat qizi**
OLIY TA’LIMDA TALABALARNING VATANPARVARLIK TARBIYASINI QADRIYATLI VA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA LOYIHALASH 337

46. **Maxamadaliyev Xislatxon Matlabovich**
"LUG'ATI NE'MATULLOH"DA FONETIK, GRAMMATIK, DIALEKTAL VA ETNOGRAFIK MA'LUMOTLARNING BERILISHI 344

47. **Soatova Gulzoda Nurmamat qizi**
MILLIY UYG'ONISH DAVRI O'ZBEK-TATAR ADABIY ALOQALARI 355

48. **Ҳикмат Ҳикматов**
ЗУЛЛИСОНАЙН ШОИР – АМИР УМАРХОННИНГ ТОЖИК АСАРЛАРИДАГИ УСЛУБИЙ ВА БАДИИЙ ИЗЛАНИШЛАР 364

49. **Sabitova Tadjixon**
LIRIK ASARLARNI TAHLIL QILISH USULLARI 374

50. **Nurmonova Sarvinoz Furqat qizi**
RAQAMLI DIPLOMATIK DISKURSDA TILNING ZAMONAVIY TADQIQI.....381

51. **Saidov O'lmas Raxmatovich**
IDEOGRAFIK LUG'ATCHILIK – AMALIY LEKSIKOGRAFIYA TARMOG'I SIFATIDA.....388

52. **Нурмагомбетова Ынтымакгул Ероланovна**
ҚАЗАҚ ЖӘНЕ ТҮРІК ТІЛДЕРІНДЕГІ ЖАЛҒАН БАЛАМАЛАР: ТІЛ ҮЙРЕТУ ЖӘНЕ АУДАРМА МӘСЕЛЕЛЕРІ.....401

53. **Мағжан Сәуле**
ЫМ-ИШАРАТТАРДЫҢ ҚАЗАҚ ЖӘНЕ ӨЗБЕК МӘДЕНИЕТІНДЕГІ ПРАГМАТИКАСЫ.....412

54. **Zaripov Rafiqjon Ergashboy o'g'li**
NUTQIY FAOLIYATNING PSIXOLOGIK VA LINGVISTIK MEXANIZMLARI: NUTQ YARATISH, NUTQNI IDROK QILISH VA ICHKI NUTQ JARAYONLARI 420

55. **Suyunov Baxodir Turdiyevich**
TEZAURUS VA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK MASALALARI 429

56. **Айтбаев Ділшатқожа Темірбайұлы**
ПОЛИПРЕДИКАТИВТІ СӨЙЛЕМДЕРДІҢ ПРОПОЗИЦИЯЛЫҚ ҚҰРЫЛЫМЫ.....435

57. **Дуйсабаева Дилбар Усканovна**
АНА ТІЛІ МЕН ӘДЕБИЕТ ПӘНДЕРІН ИНТЕГРАЦИЯЛАП ОҚЫТУДЫҢ ӘДІСТЕМЕЛІК НЕГІЗДЕРІ (ТІРЕК ОРТА БІЛІМ БАСҚЫШЫНДА) 442

58. **Байкабилов Усербай Алимханович**
ҚАЗІРГІ ТІЛ БІЛІМІНІҢ НЕГІЗГІ ДАМУ БАҒЫТТАРЫ 448

59. **Muydinova Arofatoy Urinovna**
TOSHKENT ADABIY MUHITI VAKILLARI IJODIDA MUVASHSHAHLAR.....454

60. **Ochilov Dilshod G'aybullaevich**
O'ZBEK TILI FRAZEOLOGIZMLARINI MODELLASHTIRISH: OT + SIFAT MODELIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI 460

61. **Sobitova Mahmuda**
EPIK ASARLAR TAHLILIDA VIZUAL YONDASHUVDAN FOYDALANISH USULLARI (O'. Hoshimov va O.Yoqubov hikoyalari misolida) 472

62. **Baybulatova Komila Jasarbek qizi, Sipatayeva Fariza Nurjan qizi**
ZAMONAVIY QOZOQ TILSHUNOSLIGINING DOLZARB YO‘NALISHLARI: KORPUS LINGVISTIKASI, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA TIL SIYOSATI.....480

63. **Isaqov Zokirjon Soliyevich**
SO‘Z TURKUMLARI TASNIFI VA QIYOSIY-TIPOLOGIK YONDASHUV 485

64. **Shermurodov Tohir**
QADIMGI TURKIY AXLOQ VA ISLOM MA’RIFATI.....491

65. **Abdirimova Intizor Kamilovna**
ILMIY VA BADIIY MATNLAR VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING ILMIY-TAHLILIY VA KREATIV FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH.....497

66. **Karimbaeva Mavluda**
WORD-FORMATION INSTRUCTION AND VOCABULARY DEVELOPMENT IN UZBEK EFL LEARNERS 504

67. **Гылыджова Говхертач Нурбердыевна**
ПОСЛОВИЦЫ В ТВОРЧЕСТВЕ МАХТУМКУЛИ.....508

68. **Қасен Ерлан Сламбекұлы**
ҚАЗАҚ ЖӘНЕ ӨЗБЕК ТІЛІНДЕГІ ПАРЕМИОЛОГИЯЛЫҚ БІРЛІКТЕРДІҢ ЛИНГВОТАНЫМДЫҚ ЕРЕКШЕЛІКТЕРІ 512

69. **Супабекова Раьно Алиевна**
ҚАЗАҚ ТІЛІНДЕГІ «АҚ» СӨЗІНІҢ ГЕНДЕРЛІК СИПАТЫ 519

70. **Уразов Багдат Тулепбергенович**
ТҮРКІ ХАЛЫҚТАРЫ ӘДЕБИЕТІ АРҚЫЛЫ СТУДЕНТТЕРДІҢ ҰЛТТЫҚ САНА-СЕЗІМІ МЕН ОТАНСҮЙГІШТІК ҚҰНДЫЛЫҚТАРЫН ҚАЛЫПТАСТЫРУ.....525

71. **Iskandarov Fayzulla Mashrabovich**
HAMDNING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI.....531

72. **Raxmanova Nafisa Azatbekovna**
ALISHER NAVOIYNING DO‘STLIK TUYG‘USIGA MUNOSABATI.....536

73. **Shermatova Umida Sapayevna**
O‘QUVCHI MA’NAVIY KAMOLOTINI TA’MINLASHDA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYASINING O‘RNI.....541

74. **Rasulova Rayxon**
O‘QUVCHILARINING BADIIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR 551

75. **Mavlonova Mohigul Uralovna**
“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI TILINING XUSUSIYATLARI 556

76. **Murodova Firuza Jalolovna**
LATIFALARDA LINGVOPOETIK SATHLAR SINTEZI VA KULGI ESTETIKASI (Erkin Vohidovning “Donishqishloq latifalari” turkumidagi she’rlar misolida).....564

77. **Abduvaliyeva N.A.**
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV RIVOJLANISHIDA NOVERBAL VOSITALARNING METODIK AHAMIYATI 570

78. **Pardayeva Nigora Kuysinboyevna**
THE DISTINCTIVE FEATURES OF THE RHYME SYSTEM IN HALIMA KHUDOYBERDIYEVA'S LYRIC POETRY 575

79. **Muxtarova Shaxnoza Mashrabovna**
TIL TA'LIMIDA FANLARARO INTEGRATSIYANING METODIK IMKONIYATLARI....585

80. **Halbekova Nigora Ummatkulovna**
KADIN SIYASI LIDERLERIN SÖYLEMINDE SIYASI VE DIPLOMATIK DEYIMLERIN KULLANIMI 591

81. **Butayev Akramjon Achilovich**
ODIL YOQUBOVNING "ULUG'BEK XAZINASI" ROMANIDA BOSHQA TILLARDAN KIRGAN LEKSEMALAR....596

82. **Sodiqova Dinora Ilhom qizi**
BEVOSITA TARJIMALARDA ASARNING IDEOLOGIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI....601

83. **Nursulton Şayxislamov**
ONA TILI TA'LIMIDA ÖQUVÇILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRIŞNING METODIK ASOSLARI....608

84. **Berdimuratova Lazzat Duysenovna**
QIZILQUM HUDUDI AREALIDA UMUMTURKIY ETNONIMLARNING NOMLANISHI....615

85. **Рахымбаев Ғалымжан Курсантәліұлы**
«БАУЫРЖАН МОМЫШҰЛЫНЫҢ СӨЗ МӘДЕНИЕТІ ЖӘНЕ ТІЛДІК НОРМАНЫ САҚТАУ ҰСТАНЫМДАРЫ»....621

86. **Bekmurodov Tog'oymurod Panjiyevich**
JADIDLAR DAVRIDA MATBUOT LEKSIKASINING SHAKLLANISHI....626

87. **Achilova Emina Sa'dulloyevna**
SHAXSGA YO'NALTIRILGAN ADABIY TA'LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI 631

88. **Boltaboyeva Umida Maxamadjanovna**
EUPHEMISM TRANSLATION IN LITERARY DISCOURSE: A CONTEXTUAL AND PRAGMATIC APPROACH 635

89. **Ergasheva Lobarxon O'tkir qizi**
O'ZBEK TILINI CHET TILI SIFATIDA O'QITISHDA AUTENTIK VIDEO MATERIALLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI 641

90. **Mavlanova Dildora Saidnazarovna**
LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF HOMELAND PROVERBS AS A TOOL FOR DEVELOPING INTERCULTURAL COMPETENCE 647

91. **Komilova Gulmira Temirovna**
SAHNA ASARIDA NUTQIY XARAKTERISTIKA, MILLIY RUHIYAT VA PRAGMATIK TAHLIL....653

92. **Байзаков Жандос Абдазимович**
ДУЛАТ ИСАБЕКОВ ШЫҒАРМАШЫЛЫҒЫНЫҢ ТҮРКІ ӘДЕБИЕТІ КОНТЕКСТІНДЕГІ ЕРЕКШЕЛІКТЕРІ....659

93. **Джураева Хосиятхон Хамидовна**
СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ГРАММАТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ УЗБЕКСКОЙ И РУССКОЙ СПОРТИВНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ 665

94. **Jo‘raboyeva Mohidil Maxmadaliyevna**
O‘ZBEK TILIDA SPORT TERMINLARINI ME’YORLASHTIRISH VA ZAMONAVIY SPORT LUG‘ATLARINI YARATISH TAMOYILLARI 672

95. **Байкабилов Усербай Алимханович**
ҚАЗАҚ ТІЛІНІҢ АГГЛЮТИНАТИВТІК МОРФОЛОГИЯЛЫҚ ҚҰРЫЛЫМЫ 677

96. **Жарасбаев Нұркелді Абдурашид ұлы**
«ЗАМАНАУИ ПЕДАГОГИКАЛЫҚ ТЕХНОЛОГИЯЛАР НЕГІЗІНДЕ ҚАЗАҚ ТІЛІН ОҚЫТУ ПРОЦЕСІН МОДЕЛЬДЕУ» 684

97. **Nizomiddinov Abduvali Kamoliddin o‘g‘li**
O‘ZBEK TILI MILLIY KORPUSINING LINGVISTIK TAMINOTI VA UNING AMALIY AHAMIYATI 689

98. **Xusanova Nafisa Zokirjon qizi**
STRUCTURAL MODELS OF DIALOGUE IN MAGIC FOLKTALES: MORPHOLOGICAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS 693

99. **Ro‘ziyev Qahramon Kuzimuratovich**
OSHPAZLIK LEKSIKASIDA GIBRID NOMINATSIYALAR 698

100. **Ro‘ziyeva Nasiba Kilichbay qizi**
GRADUONIMLARNING SHE’RIY MATNDAGI LINGVOPOETIK VAZIFALARI 703

101. **Nasriyeva Dilbar Muhiddinovna**
MIRTEMIR LIRIKASIDA AYOL OBRAZINING LINGVOPOETIK TAHLILI 707

102. **Nursulton Şayxislamov**
ÖZBEK VA QOZOQ TILLARIDA AFFIKSLARNING STRUKTUR-SEMANTIK VARIATIVLIGI 713

103. **Ro‘ziyeva Nasiba Kilichbay qizi**
GRADUONIMIK QATORLARNING SEMANTIK TUZILISHI VA ULARNI BELGILASH MEZONLARI 722

104. **Usmanova Ziyodaxon Ilxomjon qizi**
PROTOTIP VA BADIIY OBRAZ: HAYOTIY ASOS VA BADIIY TALQIN 726

105. **Xabibullayeva Shoira Shukurillayevna**
BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA SO‘Z TURKUMLARI VA ULARNING TAHLILINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN SAMARALI FOYDALANISH METODIKASI 732

106. **Arzikulova Sohiba Abdujabbor qizi**
HAMZA LIRIKASIDA AN’ANAVIY POETIK OBRAZLARNING YANGICHA TALQINI 739

107. **Saidova Nozima Axrorovna**
ZAMONAVIY NASRDA BADIIY KONSEPTLARNING SHAKLLANISH KOGNITIV MEXANIZMLARI (XXI asr ingliz va Yevropa adabiyoti materiallari asosida) 744

108. **Sotbarov Atabek Asilbek o‘g‘li**
BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING FORSAYT KOMPETENSIYASINI BAHOLASH MEZONLARI, INDIKATORLARI VA DARAJALARI 749

109. **Eshanqulov Dilmurod**
O‘ZBEK TILI MILLIY KORPUSINI YARATISH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR 757

110. **Baybulatov N.S.**
PERIFRAZANING O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA NAZARIY TALQINI VA SEMANTIK TABIATI 762

111. **Ziyadullayeva Dilafro‘z Narzulla qizi**
MUSTAMLAKACHILIK TUSHUNCHASI VA UNING ASORATINING TARIXIY-FALSAFIY VA BADIIY TALQINI 767

112. **Sotbarova Dilfuza Ilhom qizi**
BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA RAQAMLI IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISH: KOMPONENTLARi VA XORIJIY TAJRIBA 772

113. **Musayev Shohsuvor Tursin o‘g‘li**
O‘ZBEK XALQ QAHRAMONLIK DOSTONLARI OBRAZLARIDA AXLOQIY QARASHLARNING BADIIY IFODASI (“QIRONXON” DOSTONI MISOLIDA)..... 776

114. **Hayitov Muhammad To‘ra o‘g‘li**
HAZINIY IJODIDA KOMIL INSON G’OYASI VA ILOHIY ISHQ TALQINI 780

115. **Jumanazarova Umidaxon**
ADABIY TA’LIMDA MUSTAQIL FIKRLASHNING AHAMIYATI..... 790

116. **Shahodat O‘sarova**
MUQIMIY HAJVIYALARIDA FOLKLOR NAMUNALARINING BADIIY TALQINI..... 801

117. **Jumanazarova Saida Rustambek qizi**
SINONIMIYA MUAMMOSINING HOZIRGI FILOLOGIK YONDASHUVLARDA O‘RGANILISHI 808

118. **Abduraxmanova Zumrad Normurod qizi**
QASHQADARYO VILOYATIDAGI ZIYORATGOHLARI VA ULARDA XALQ OG‘ZAKI IJOD MOTIVLARINIG AKS ETISHI 816